характеристики I–V, коэффициент преобразования энергии (PCE), стабильность и другие параметры при различных условиях. Результаты показали, что ОСЭ работают наилучшим образом при температуре 20-40°C, влажности 20-40% и интенсивности света 600-1000 Вт/м². Высокие температура и влажность снижают эффективность, а материал подложки значительно влияет на стабильность и PCE. Полученные данные предоставляют научные и практические рекомендации по изготовлению и применению органических солнечных элементов в различных условиях окружающей среды.

Ключевые слова: органические солнечные элементы, фотоэлектрическая эффективность, PCE, различные условия окружающей среды, стабильность, P3HT:PCBM.

Abstract. *This research investigates the performance of organic solar cells under various environmental conditions. The aim of the study is to determine the influence of temperature, humidity, light intensity, and substrate type on the operation of organic solar cells (OSC) and to identify optimal conditions. Experimental work was carried out using P3HT:PCBM-based devices. I-V characteristics, power conversion efficiency (PCE), stability, and other parameters were measured under different conditions. Results show that OSCs perform best at 20-40°C, 20-40% humidity, and 600-1000 W/m² light intensity. High temperature and humidity reduce efficiency, while the substrate material significantly affects stability and PCE. The findings provide scientific and practical guidance for the fabrication and application of organic solar cells under various environmental conditions.*

Key words: *organic solar cells, photovoltaic efficiency, PCE, different environmental conditions, stability, P3HT:PCBM.*

Kirish. So‘nggi yillarda energiya manbalariga bo‘lgan talab keskin oshib, barqaror va ekologik toza energiya manbalarini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi. Quyosh energiyasi insoniyat uchun eng katta va toza resurslardan biri hisoblanadi. Shu sababli, quyosh elementlarini ishlab chiqarish va samaradorligini oshirish

masalasi ilmiy tadqiqotlarda dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda. An’anaviy kremniy asosidagi quyosh elementlari yuqori samaradorlikka ega bo‘lsada, ularning ishlab chiqarish xarajatlari va og‘irligi muammo tug‘diradi. Shu sababli organik quyosh elementlari (OQE) yangi istiqbolli yo‘nalish sifatida ajralib turadi[1].

Organik quyosh elementlari arzon, yengil, moslashuvchan va ekologik toza materiallardan tayyorlanadi. Ularning asosiy xususiyati - foton energiyasini elektr energiyasiga aylantirish jarayonida organik yarimo‘tkazgich materiallari (masalan, P3HT, PCBM) ishlatiladi. Biroq, OQE samaradorligi turli muhit sharoitlarida sezilarli darajada o‘zgaradi. Harorat, namlik, yorug‘lik intensivligi va substrat materiali organik elementlarning ishlashini va barqarorligini bevosita ta’sir qiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - turli muhit sharoitlarida organik quyosh elementlarining samaradorligini tahlil qilish va ularning ishlashini optimallashtirish uchun sharoitlarni aniqlashdir. Tadqiqot natijalari ekologik toza va iqtisodiy jihatdan maqbul quyosh elementlarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi[2].

Asosiy qism. Organik quyosh elementlarining ishlash prinsipi eksiton hosil bo‘lishi, ajralishi va elektron transporti orqali tok hosil qilishga asoslangan. Eksitonlar yorug‘lik ta’sirida yarimo‘tkazgich materiallarida hosil bo‘ladi. Ajralish jarayonida elektron donor va qabul qiluvchi materiallar o‘rtasida elektronlar oqimi yuzaga keladi[3].

Organik quyosh elementlarining samaradorligi quyidagi parametrlar bilan belgilanadi:

VOC (Open Circuit Voltage) - ochiq zanjir kuchlanishi;

JSC (Short Circuit Current Density) - qisqa tutashuvdagi tok zichligi;

FF (Fill Factor) - to‘ldirish koeffitsienti;

PCE (Power Conversion Efficiency) - fotovoltaik samaradorlik.

OQE samaradorligini cheklovchi asosiy omillar: yuqori harorat, yuqori namlik, substrat yuzasining notekisligi va yorug‘lik spektrining cheklanishi. Shu sababli turli muhit sharoitlarini o‘rganish ularning ishlashini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda quyidagi materiallardan foydalanildi:

P3HT (Poly(3-hexylthiophene)) - elektron donor materiali;

PCBM ([6,6]-Phenyl-C61-butyric acid methyl ester) - elektron qabul qiluvchi;

PEDOT: PSS - ohanglashgan qatlam;

ITO va FTO substratlar, qattiq simulator (1000 W/m²)

Organik quyosh elementlari spin coating usuli yordamida tayyorlandi. Substratlar tozalab, PEDOT:PSS qatlami surildi. Keyin P3HT:PCBM aralashmasi qatlamlari spin coating bilan joylashtirildi va quritildi. Elementlar alyuminiy elektrod bilan yakunlandi.

Eksperimentda quyidagi sharoitlar sinovdan o‘tkazildi (1-rasm):

Harorat: 20°C, 40°C, 60°C, 80°C;

Namlik: 20%, 40%, 60%, 80%;

Yorug‘lik intensivligi: 200, 400, 600, 1000 W/m²;

Substratlar: ITO, FTO, fleksibil PET.

Eksperiment natijalariga ko‘ra, haroratning oshishi VOC va JSC qiymatlarini kamaytiradi. 20°C sharoitida PCE 7,2% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 80°C da 5,1% ga tushgan. Bu elektron-teshik transportining yuqori haroratda sekinlashishi va eksitonlarning qisqa muddatli yashash vaqti bilan izohlanadi[4].

Namlikning oshishi OQE samaradorligini sezilarli darajada kamaytirdi. 20% namlikda PCE 7,0% bo‘lsa, 80% namlikda 4,8% ga tushdi. Namlik organik qatlamlarni oksidlanish va elektr qarshilikning oshishiga olib keladi.

Yorug‘lik intensivligi oshishi JSC ni oshiradi, VOC esa biroz o‘zgaradi. 1000 W/m² yorug‘likda elementlarning maksimal PCE 7,5% ni tashkil qildi, bu OQE uchun optimal yorug‘lik darajasidir.

ITO substratlari bilan solishtirganda, FTO substratlari samaradorlikni 5-10% ga oshirdi. Fleksibil PET substratlarining ishlashi biroz past bo‘ldi, chunki ular elektr kontaktlarning mukammal bo‘lmasligi bilan izohlanadi.



1-rasm. Turli haroratlarda organik quyosh elementlari I-V xususiyatlari

Tadqiqot davomida vaqt o‘tishi bilan PCE pasayishi kuzatildi. Optimal sharoitlarda (20°C, 20% namlik, 600 W/m² yorug‘lik) 30 kun ichida samaradorlik 95% darajasida saqlanib qoldi. Yuqori harorat va namlikda bu ko‘rsatkich 70-75%ni tashkil etdi[5].

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki tadqiqot organik quyosh elementlarining turli muhit sharoitlarida ishlashini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki: harorat va namlik OQE samaradorligini eng ko‘p ta’sir qiluvchi omillardir. Optimal ishlash sharoiti: 20-40°C harorat, 20-40% namlik, 600-1000 W/m² yorug‘lik standart ishlash sharoitiga qulay parametrlardir. Substrat tanlovi elementning samaradorligi va barqarorligini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Ushbu tadqiqot OQE ishlab chiqarish va dizayn qilishda optimal parametrlarni aniqlashga yordam beradi, bu esa iqtisodiy va ekologik jihatdan foydali quyosh energiyasi manbalarini yaratadi. Kelajakda organik-perovskit gibrid materiallarni sinab ko‘rish va encapsulation texnologiyalari orqali barqarorlikni oshirish ilmiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gang Li et al. // Nature Photonics. — 2012.
2. Christoph Brabec et al. Organic Photovoltaics. — 2011.
3. Nazeeruddin Mathews et al. // Journal of Materials Chemistry. — 2020.
4. Frederik C. Krebs Fabrication and Processing of Polymer Solar Cells. — 2009.

5. Alexander W. Hains et al. // Chemical Reviews. — 2010.

ASAB TO‘QIMASI VA NEYRONLARNING GISTOLOGIK TUZILISHI

Muxammadjonova Dilyoraxon Xusanjon qizi
Abduhalilova Oygul Axmadillo qizi
KuAf .Tibbiyot fakulteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada asab to'qimasining morfologik tuzilishi, neyronlarning turlari va neyrogliya hujayralarining ahamiyati mahalliy o'quv adabiyotlari ma'lumotlari asosida yoritilgan. Maqolada neyronlarning o'simtalari, xromatofil modda va sinaptik aloqalarning gistofiziologiyasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: Neyron, Neyrogliya, Perikaryon, Dendrit, Akson, Nissl moddasi, Sinaps.*

Abstract. *This article describes the morphological structure of nerve tissue, the types of neurons, and the significance of neuroglial cells based on local educational literature. The article analyzes the histophysiology of neuronal processes, chromatophilic substance (Nissl bodies), and synaptic connections.*

Keywords: *Neuron, Neuroglia, Perikaryon, Dendrite, Axon, Nissl substance, Synapse.*

Аннотация. *В данной статье на основе местной учебной литературы освещены морфологическое строение нервной ткани, типы нейронов и значение клеток нейроглии. В статье анализируется гистофизиология отростков нейронов, хроматофильного вещества (субстанции Ниссля) и синаптических связей.*

Ключевые слова: *Нейрон, Нейроглия, Перикарион, Дендрит, Аксон, Вещество Ниссля, Синапс.*

Kirish

Asab to'qimasi organizmda aloqa, boshqaruv va moslashuv funksiyalarini bajaradi. O'zbekistonlik olim K.A. Zufarov ta'rifiga ko'ra, asab to'qimasi tashqi va ichki muhitdan keladigan ta'sirlarni qabul qilish, tahlil qilish va ularga javob reaksiyasini tayyorlashga ixtisoslashgan Nerv to`qimasi yuqori darajada ixtisoslashgan to`qima bo`lib, to`qimalar va organizmning barcha a'zolarini o`zaro aloqada bo`lishini hamda organizmni tashqi muhit bilan bog`lanishini ta'minlayиdi. Nerv to`qimasining asosiy vazifasi ta'sirotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash, organizmning turli sistemalarining faoliyatini uyg`unlashtirish, koordinatsiyalash kabilardan iborat.

To`qimaning bu vazifasi tirik organizmlarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan.

Nerv to`qimasi markaziy va periferik nerv sistemasini hosil qilib, bir-biridan bajaradigan

vazifasiga qarab keskin farq qiluvchi ikki xil hujayralardan tashkil topgan. Birinchi turi *neytronlar* yoki *neyrotsitlar* bo`lib, nerv hujayra iborasi xuddi shu hujayraga tegishlidir.

Neyronlar nerv impulsini hosil qiladi va uning tarqalishini ta'minlaydi. Nerv to`qimasining ikkinchi xil hujayralari- neyrogliya yoki gliotsitlar kelib chiqishi bo`yicha neyronlar bilan bog`liq bo`lsa ham, bir qator yordamchi vazifalarni bajaradi [1]

Nerv to‘qimasi — nerv sistemasining asosiy to‘qimasi. Organizmda ta’sirotni qabul qilib, qo‘zg‘alishni o‘tkazib beradi. Nerv sistemasi organizmning funksiyalari va faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi. U ikki qismdan iborat: bosh va orqa miyani o‘z ichiga olgan markaziy nerv sistemasi (CNS) va ulardan chiqadigan periferik nervlarni o‘z ichiga olgan periferik nerv sistemasi (PNS). U impulslarni qabul qiluvchi va uzatuvchi nerv hujayralari deb ham ataladigan neyronlardan va

nerv impulsining tarqalishiga yordam beruvchi hamda neyronlarni oziq moddalar bilan ta’minlaydigan **glial hujayra**lar yoki glia deb ham ataladigan neyrogliyalardan iborat[3]. Nerv to‘qimasi tarkibiga kiruvchi neyron turlari xilma-xil bo‘lib, ularning barchasi o‘zida akson deb nomlanuvchi o‘simta saqlaydi. Akson bir hujayradan keyingi hujayraga **harakat potensiali**ni uzatuvchi "yo‘l" vazifasini bajaradi. Akson to‘plamlari PNSdagi nervlarni va markaziy asab tizimidagi yo‘llarni tashkil qiladi. Nerv to‘qimasi organizmning barcha a’zolarini o‘zaro aloqada bo‘lishini hamda organizmni tashqi muhit bilan bog‘lanishini ta’minlab turadi.[3]

Nerv to‘qimasining mikroskopdagi ko‘rinishi



Nerv to‘qimasining mikroskopdagi

Neyron asab to‘qimasining asosiy strukturaviy-funksional birligi bo‘lib, nerv impulsini hosil qilish va o‘tkazish xususiyatiga ega. Gistologik preparatlarda neyronlar yirik hujayra tanasi va aniq ko‘rinadigan o‘simtalari bilan ajralib turadi [2]

Neyronlarni bosh miyada joylanishi

Kulrang modda hujayra tanachalari, dendritlar, miyelinsiz aksonlar, protoplazmatik astrositlar yo‘ldosh oligodendrositlar mikrogliyalar va juda kam miyelinli aksonlardan iborat.

Oq modda miyelinli aksonlar, tolali astrositlar, miyelinlashtiruvchi oligodendrositlar va mikrogliyalardan iborat.

Periferik nerv sistemasida:

Ganglion to‘qimasi hujayra tanachalari, dendritlar va yo‘ldosh glial hujayralardan iborat. Nervlar miyelinli va miyelinsiz aksonlardan, biriktiruvchi

to‘qima bilan o‘ralgan Shvann hujayralaridan iborat. Har bir nervni o‘rab turadigan uch qavatli biriktiruvchi to‘qimadan iborat pardalar bo‘lib, 1)**Endonevrium**. Har bir nerv aksoni yoki tolasi endonevrium bilan o‘ralgan bo‘lib, u endonevrial naycha, kanal yoki qobiq deb ham ataladi. Bu biriktiruvchi to‘qimadan iborat qatlam.

2) **Perineurium**. Bir yoki bir nechta aksonni o‘z ichiga olgan har bir nerv tolasini o‘rab turuvchi biriktiruvchi to‘qimali himoya qatlami. Bu qavat nerv tolalarini himoya qilish va mustahkamlik berishda juda muhim rol o‘ynaydi.

3) **Epineurium**. Epineurium - (periferik) nervni o‘rab turgan zich biriktiruvchi to‘qimaning eng tashqi qatlami

Neyron

Neyron (neyrotsit/ nerv hujayrasi) tana (perikarion) va turli uzunlikdagi o‘simtalardan tuzilgan. Neyron o‘lchami 100-130 mkm gacha (bosh miya po‘stlog‘ining yirik **BETS hujayralari**). Neyron shakli bevosita o‘simtalar soniga bog‘liq va aynan o‘simtalar soniga qarab bir necha turlarga bo‘linadi:[4](Bets hujayralari (pyramidal h.) MNS dagi eng katta hujayralar hisoblanadi va yarimsharlar kulrang moddasi 5-qavatida joylashadi[4]).



Nerv hujayrasi (Neyron)ning umumiy tuzilishi 1-dentrit 2-tanasi 3-yadro 4-akson telepati 5-miyelin qobiq 6-akson 7-ranve boylami 8-akson uchi

- bir o‘simtali (yumaloq, kolbasimon)
- ikki o‘simtali (duksimon)
- ko‘p o‘simtali (yulduzsimon)

Perikarionda-yaxshi rivojlangan mitoxondriya, golji, ET, ribosomalar, shuningdek yadro va tigroid modda joylashadi. Sitoplazmada shuningdek ikki xil

pigment kiritmalar: Melanin va **Lipofutsin** (barcha nerv hujayralarida) uchraydi. Neyron Yoshi o‘tgan sari mitoxondriya kristalari parchalanadi va lipofutsin miqdori ham ortadi. Neyronlardagi melanin-Neyromelanin (NM) deb nomlanadi. Primatlarga qaraganda odamda ko‘proq topilgan bu pigment yosh ortishi bilan hujayrada ortishi aniqlangan. (NM ko‘p uchraydigan soha bu substansiya nigra, NM neyronlarni turli “stress”lardan himoyalaydi deb qaraladi[5].) NM li (pigmentli) neyronlarning kamayishi Parkinson kasalligining asosiy belgilaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Akson

Aksonlar butun uzunligi bo`yicha do`mboqchalar hosil qilmaydi, lekin oxiri konussimon

kengayib akson «tepaligi» bilan tugaydi. Akson tepaligi tigroid moddadan xoli bo`lib, shu tufay-li uni dendritdan ajratish qiyin emas. Bu sohada elektron mikroskop ostida ko`pgina neyrofilamentlarni va mikronaychalarni ko`rish mumkin.



Miyelin qobiqli akson (o‘ngda) dan impulsning miyelinlashmagan aksonga qaraganda tezroq o‘tishi

Neyrotsitlar sitoplazmasida yuqori darajada sintetik jarayonlar sodir bo`lib, sintezlangan moddalarning (asosan, oqsillarning) hujayra o`siqlariga transport qilinishi ham kuzatiladi. Bu jarayon sekin (1 sutkada 1-3mm) yoki juda tez (soatiga 5-10 mm) kechishi mumkin. Shu bilan birga teskari yoki retrograd transport ham mavjud. Bunda bir qator moddalar o`siqlardan sitoplazmaga qaytadi.

Moddalar transportida endoplazmatik to`r, pufakchalar, donachalar va mikronaychalar ishtirok etadi.

Usimtalar soniga qarab: 1) *unipolyar*-bitta o`simtali; 2) bipolyar - ikki o`simtali; 3) *multipolyar* - uch va undan ortiq o`simtali nerv hujayralari farqlanadi (1)

Anoksonal neyronlarda - akson o‘simtalari mavjud emas, bu neyronlarning vazifasi qo‘shni neyronlar ion munosabatini ta’minlashdir.

Bajaradigan vazifasiga qarab

Sezuvchi (retseptor yoki afferent)

Assotsiativ (oraliq yoki interneyron) nerv hujayralarini bog’laydi (99.9%)

Harakatlantiruvchi (effektor yoki efferent)

Alohida sekret funksiyasini bajaruvchi - **Neyrosekret** hujayralar ham farqlanadi. (gipotalamusda) Sekret mahsulotlari (garmonlar) tigroid modda bilan bog‘liq holda sintezlanadi. (garmonlar aksonlar bo‘ylab qonga yoki miya suyuqligiga ajraladi). Neyrosekretor hujayralarda DET hamda Golji juda yaxshi taraqqiy etgan. Akson tepalarida ham tigroid modda mavjudligi hamda hujayra kattaligi bilan oddiy neyronlardan farq qiladi. Shuningdek, bu hujayra aksonlari bir xil o‘lchamga ega bo‘lmay ba’zi joylarda kengaymalar paydo bo‘ladi va ayni shu kengaymalarda sekret (ADG, oksitotsin kabi) moddalar yig‘iladi. Bu aksonlar yonida joylashgan qon tomirlar bilan akso-vazal sinapslar (**Xerring tanachasi**) hosil qiladi va sekretlarini tomirlarga quyadi.(4.5)

Dendritlar miqdori turli neyronlarda turlichadir. Ko`pchilik dendritlar

maxsus tuzilishga ega bo`lgan sezuvchi nerv oxirlari (retseptor-lar) bilan tugaydi. Ikkinchi xil o`simtalar-*neyrit yoki akson* (yunoncha axis - o`q) nerv hujayrasi tanasidan ancha uzoq masofagacha davom etadi. Usimtalar uzunligi bir necha mikrondan 1 -1,5 m gacha bo`lishi mumkin. Neyritlar nerv hujayrasidan chiqqandan so`ng yon shoxchalar - kollaterallar hosil kilishi mumkin. Neytritlar nerv impulsini nerv hujayrasi tanasidan boshqa nerv hujayrasiga yoki ishchi organlarga (mushak, bezlarga) o`tkazadi va ularda effektor nerv oxirlari hosil qilib tugallanadi.

Dendritlar butun uzunligi bo`yicha bir xil po`g`onlikka ega bo`lmay, ba’zi joylarida bo`rtib chiqqan do`mboqchalar xosil qiladi. Elektron

mikroskop ostida do`mboqchalarda parallel joylashgan sitomembranalar ko`rinib, ular do`mboqcha yuzasiga perpendikulyar holatda turadi. Ular hujayra tanasining va dendritlar yuzasining 40% ini egallaydi, Do`mboqchalarda boshqa hujayraning o`simtalari kelib tugaydi va neyronlararo kontaktlar hosil qiladi.(1)

Xulosa

Asab to‘qimasi organizmda axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uzatishni ta’minlovchi yuqori darajada ixtisoslashgan to‘qimadir. Uning asosiy strukturaviy-funksional birligi bo‘lgan neyronlar nerv impulslarini hosil qiladi va o‘tkazadi, neyrogliya hujayralari esa tayanch, trofik va himoya vazifalarini bajaradi. Neyronlarning perikarion, dendrit va aksonlari, shuningdek xromatofil (Nissl) modda va sinaptik aloqalar nerv sistemasining uzluksiz va muvofiqlashgan faoliyatini ta’minlaydi. Markaziy va periferik nerv sistemasida nerv to‘qimasining tuzilish xususiyatlarini bilish nerv sistemasining normal faoliyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Zufarov K. A.** Gistologiya. — Toshkent, 2005.
2. **Qodirov E. Q.** Gistologiya. — Toshkent, 1994.
3. **SEER Training**. Nervous tissue [Elektron resurs]. — URL: https://training.seer.cancer.gov (foydalanilgan sana: 05.02.2020).
4. **Ross M. H., Pawlina W.** Histology: a text and atlas. — 7th ed., 2016.
5. **Gartner L. P.** Textbook of medical histology. — 4th ed., 2017.

ANALYTICAL REVIEW OF POLYMER LIGANDS BASED ON UREA, FORMALDEHYDE, AND SUCCINIC ACID FOR FE(II) AND MN(II) COMPLEXATION

Urozova Ugiloy
Khasanova Zarnigor
Termez State University

Abstract. *Polymer ligands containing multiple donor atoms play an important role in coordination chemistry due to their structural diversity and functional potential. This analytical study reviews recent advances in polymer ligand systems based on urea, formaldehyde, and succinic acid, with particular focus on their coordination behavior toward Fe(II) and Mn(II) ions. Literature data indicate that urea–formaldehyde polymers provide amide nitrogen and carbonyl oxygen donor sites, while the incorporation of succinic acid introduces additional carboxylate functionalities that enhance multidentate coordination. Comparative analysis of reported studies reveals that Fe(II) and Mn(II) complexes formed with such polymer ligands predominantly exhibit octahedral coordination geometries and improved thermal stability. Differences in electronic configuration between Fe(II) and Mn(II) ions lead to distinct magnetic and spectroscopic characteristics. The analysis highlights the potential of urea–formaldehyde–succinic acid-based polymer ligands as promising platforms for future experimental research and functional material design.*

Keywords: *urea–formaldehyde resin, succinic acid, polymer ligand, Fe(II), Mn(II), coordination polymer*

Annotatsiya. *Ko‘p donor atomlarga ega bo‘lgan polimer ligandlar tuzilma xilma-xilligi va funksional imkoniyatlari tufayli koordinatsion kimyoda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda karbamid, formaldegid va qahrabo kislotasi asosida olingan polimer ligandlarning Fe(II) va Mn(II) ionlari bilan kompleks hosil qilish*

xususiyatlari bo‘yicha adabiyotlar tahlili keltirilgan. Karbamid–formaldegid polimerlari amid azoti va karbonil kislorodi orqali donor markazlar hosil qilishi, qahrabo kislotasining kiritilishi esa qo‘shimcha karboksilat guruhlari hisobiga polidentat koordinatsiyani kuchaytirishi aniqlangan. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur polimer ligandlar bilan hosil bo‘lgan Fe(II) va Mn(II) komplekslari asosan oktaedrik koordinatsion geometriyaga ega bo‘lib, yuqori termik barqarorlik va yaxshilangan fizik-kimyoviy xossalar bilan tavsiflanadi. Fe(II) va Mn(II) ionlarining elektron tuzilishidagi farqlar ularning magnit va spektroskopik xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘tkazilgan tahlil natijalari karbamid–formaldegid–qahrabo kislotasi asosidagi polimer ligandlarning kelgusidagi eksperimental tadqiqotlar va funksional materiallar yaratishda istiqbolli ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *karbamid–formaldegid smolasi, qahrabo kislotasi, polimer ligand, Fe(II), Mn(II), koordinatsion polimer.*

Аннотация. *Полимерные лиганды, содержащие несколько донорных атомов, играют важную роль в координационной химии благодаря структурному разнообразию и широким функциональным возможностям. В данной работе представлен аналитический обзор литературы, посвящённой полимерным лигандам на основе мочевины, формальдегида и янтарной кислоты, а также их способности образовывать комплексы с ионами Fe(II) и Mn(II). Установлено, что полимеры мочевино-формальдегидного типа обеспечивают донорные центры за счёт атомов амидного азота и карбонильного кислорода, тогда как введение янтарной кислоты приводит к появлению дополнительных карбоксилатных групп и усилению полидентатной координации. Согласно литературным данным, комплексы Fe(II) и Mn(II) с такими полимерными лигандами преимущественно обладают октаэдрической координационной геометрией и повышенной термической устойчивостью. Различия в электронной конфигурации ионов Fe(II) и Mn(II) обусловливают отличия их магнитных и спектроскопических характеристик. Результаты анализа свидетельствуют о перспективности полимерных*

лигандов на основе мочевины, формальдегида и янтарной кислоты для дальнейших экспериментальных исследований и создания функциональных материалов.

Ключевые слова: *мочевино-формальдегидная смола, янтарная кислота, полимерный лиганд, Fe(II), Mn(II), координационный полимер.*

Introduction. Polymer ligands containing multiple donor atoms have attracted increasing attention in coordination and polymer chemistry due to their ability to form stable metal complexes with tunable physicochemical properties. In particular, polymer systems derived from urea and formaldehyde represent an important class of materials, combining synthetic accessibility with the presence of nitrogen and oxygen donor sites suitable for metal coordination. The incorporation of dicarboxylic acids, such as succinic acid, into urea–formaldehyde polymer frameworks significantly enhances their coordination capacity by introducing additional carboxylate donor groups. As a result, such modified polymer ligands can act as multidentate chelating systems capable of binding transition metal ions through mixed N- and O-donor atoms. Among transition metals, iron(II) and manganese(II) are of particular interest due to their variable coordination behavior, biological relevance, magnetic properties, and catalytic potential. Complexes of Fe(II) and Mn(II) with polymer ligands often exhibit enhanced thermal stability, improved functional properties, and extended coordination architectures compared to low-molecular-weight analogues. This article presents a systematic analysis of polymer ligands based on urea, formaldehyde, and succinic acid, with special emphasis on their synthesis, coordination behavior, and complex formation with Fe(II) and Mn(II) ions.

Urea–Formaldehyde Polymers as Ligand Systems. Urea–formaldehyde (UF) resins are well-known thermosetting polymers traditionally used in adhesives and coatings. Their formation involves the reaction of urea with formaldehyde through methylolation and subsequent condensation reactions, resulting in a three-dimensional polymer network. Importantly, the urea moiety contains both amide nitrogen and carbonyl oxygen atoms, which can act as coordination sites for metal

ions. Previous studies have demonstrated that UF resins can function as effective polymer ligands. Nishat et al. reported the synthesis of urea–formaldehyde-based polychelates with various transition metal ions, including Mn(II) and Fe(III)[1]. Spectroscopic and thermal analyses confirmed metal coordination through nitrogen and oxygen atoms, accompanied by enhanced thermal stability and antibacterial activity of the resulting complexes.These findings highlight the potential of UF resins as versatile ligand platforms, especially when further functionalized to increase their coordination diversity[2].

Role of Succinic Acid in Polymer Coordination Systems. Succinic acid (HOOC–CH_2–CH_2–COOH) is a flexible aliphatic dicarboxylic acid capable of coordinating metal ions in monodentate, bidentate, or bridging modes. When incorporated into polymer ligands, succinic acid introduces carboxylate groups that significantly expand the coordination possibilities and structural complexity of metal–polymer systems. Numerous coordination polymers based on succinate ligands have been reported, exhibiting one-, two-, and three-dimensional architectures[3,4]. The flexibility of the –$(CH_2)_2$– spacer allows succinate to adapt to various coordination geometries, facilitating the formation of extended polymeric metal frameworks. The combination of succinic acid with urea–formaldehyde polymer matrices provides a promising strategy for designing multifunctional polymer ligands with enhanced metal-binding ability, although such ternary systems remain relatively underexplored.

Synthesis Approaches. The synthesis of polymer ligands based on urea, formaldehyde, and succinic acid is typically achieved via polycondensation reactions under controlled pH and temperature conditions. In a conventional two-step approach, the polymer ligand is first synthesized through the condensation of urea and formaldehyde, followed by incorporation of succinic acid into the polymer backbone or side chains. Subsequently, complexation with Fe(II) or Mn(II) salts is carried out, usually in aqueous or alcoholic media. Metal ions coordinate to the polymer ligand through amide nitrogen, carbonyl oxygen, and carboxylate oxygen

atoms, leading to the formation of coordination polymers or polymer–metal complexes with defined stoichiometry[4].

Infrared (IR) spectroscopy plays a key role in confirming metal–ligand coordination. Shifts in the stretching vibrations of C=O, N–H, and COO^- groups upon complex formation provide clear evidence of metal binding. In addition, changes in the symmetric and asymmetric carboxylate stretching frequencies can be used to infer coordination modes. Thermal analysis (TGA) often reveals improved thermal stability of metal complexes compared to the free polymer ligand, reflecting the stabilizing effect of metal coordination. Complementary techniques such as elemental analysis, magnetic susceptibility, and molar conductivity measurements further support the proposed structures and coordination geometries[5].

Fe(II) and Mn(II) Complexes: Structural Considerations. Both Fe(II) and Mn(II) commonly adopt octahedral coordination geometries in polymer-based complexes, coordinated by mixed N- and O-donor atoms[3,4]. However, differences in electronic configuration lead to distinct properties. Fe(II) (d^6) typically exhibits stronger ligand field effects and more intense electronic transitions[4], whereas Mn(II) (d^5) complexes often display higher magnetic moments due to a greater number of unpaired electrons. Moreover, Mn(II) complexes are more susceptible to oxidation, which must be considered during synthesis and storage[6,7].

Further studies combining experimental synthesis with spectroscopic and computational investigations will provide deeper insight into structure–property relationships and expand the potential applications of these materials in catalysis, environmental remediation, and functional materials[8].

Conclusion. In conclusion, analysis of existing literature demonstrates that polymer ligands based on urea, formaldehyde, and succinic acid possess significant potential for coordination with Fe(II) and Mn(II) ions. Although experimental data are not presented in this work, the reviewed studies suggest that such systems offer structural flexibility, multiple coordination sites, and promising physicochemical properties. These findings provide a theoretical foundation for future experimental investigations aimed at the synthesis and characterization of novel metallopolymers.

REFERENCES

1. **Nishat N.**, **Ahmad S.**, **Tansir Ahamad R.**. Synthesis and characterization of antibacterial polychelates of urea–formaldehyde resin with Cr(III), Mn(II), Fe(III), Co(II), Ni(II), Cu(II), and Zn(II) metal ions // Journal of Applied Polymer Science. — 2006. — Vol. 100, No. 2. — P. 928–936.
2. **Chen Y.** et al. Coordination Polymers Driven by Urea-Diisophthalate Linkers: From Hydrothermal Assembly and Structural Diversity to Catalytic Applications // Inorganic Chemistry. — 2025. — Vol. 64, No. 35. — P. 17960–17971.
3. **Bawa S.** et al. Trivial positional isomerism in ligands triggering different properties in Fe(II)-metallopolymers: design, synthesis, and characterization // Dalton Transactions. — 2024. — Vol. 53, No. 39. — P. 16241–16260.
4. **Béres K. A.**, **Homonnay Z.**, **Kótai L.**. Hexakis(urea-O) iron complex salts as a versatile material family: overview of their properties and applications // ACS Omega. — 2024. — Vol. 9, No. 10. — P. 11148–11167.
5. **Esrafili L.** et al. Unlocking porosity: structural tuning of urea-based MOFs via reaction parameter control // RSC Advances. — 2025. — Vol. 15, No. 34. — P. 27531–27543.
6. **Laxmi** et al. Development of nanostructured green divalent manganese-coordinated polyurea // Journal of Applied Polymer Science. — 2022. — Vol. 139, No. 41. — Art. e52993.
7. **Ahamad T.**, **Alshehri S. M.**. Synthesis, characterization and anti-microbial activity of phenylurea–formaldehyde resin (PUF) and its polymer metal complexes (PUF–Mn(II)) // Spectrochimica Acta Part A: Molecular and Biomolecular Spectroscopy. — 2012. — Vol. 96. — P. 179–187.
8. **Schneider J. K.** et al. Synthesis and characterization of thermoplastic poly(piperazine succinate) metallopolymers coordinated to ruthenium(III) or

iron(III) // Journal of Polymer Science. — 2023. — Vol. 61, No. 6. — P. 447–459.

POLIFENOLLARNI O’RGANISHNI ASOSLARI

Xoshimov Nozimjon No‘monjonivich
O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi
Biofizika va biokimyo instituti
Kosimova Zuxra Turg‘unovna
Namangan davlat universiteti

Anontatsiya. *Polifenollar o'simliklarning ikkilamchi metabolizmining eng ko'p uchraydigan mahsulotlari qatoriga kiradi. Ular farmatsevtika va parafarmatsevtikada keng qo'llaniladi va ko'pgina an'anaviy dori-darmonlarni ishlab chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda o'simlik kelib chiqishiga ega 8000 dan ortiq fenolik birikmalar ma'lum bo'lib, ular oddiy fenollar, gidroksitsinnamik va gidroksibenzoik spirtlarning hosilalari, flavonoidlar, stilbenlar va lignanlarga tasniflanadi.Ular o’simliklarni himoya qiladi,odam organizmida esako’plab foydali ta’sirga ega. Polifenollar kuchli antioksidantlar hisoblanadi.Antioksidantlik bu ularning erkin radikallarni zararsizlantirishi va oksidativ stressni kamaytirish qobilyatidir.*

Kalit so‘zlar. *Polifenollar,erkin radikallar,fenol birikmalar,antioksidant, oksidativ stress,flavonoidlar, fenol kislotalar,trombosit faolligi,kvertsetin.*

Abstract. *Polyphenols are among the most common products of secondary metabolism in plants. They are widely used in pharmaceuticals and parapharmaceuticals and serve as the basis for the production of many traditional medicines. Currently, more than 8000 phenolic compounds of plant origin are*

known, which are classified into simple phenols, derivatives of hydroxycinnamic and hydroxybenzoic alcohols, flavonoids, stilbenes and lignans. They protect plants and have many beneficial effects on the human body. Polyphenols are powerful antioxidants. Antioxidant activity is their ability to neutralize free radicals and reduce oxidative stress.

Keywords. *Polyphenols, free radicals, phenolic compounds, antioxidant, oxidative stress, flavonoids, phenolic acids, platelet activity, quercetin*

Аннотация. *Полифенолы относятся к числу наиболее распространенных продуктов вторичного метаболизма растений. Они широко используются в фармацевтике и парафармацевтике и служат основой для производства многих традиционных лекарственных средств. В настоящее время известно более 8000 фенольных соединений растительного происхождения, которые классифицируются на простые фенолы, производные гидроксикоричных и гидроксибензойных спиртов, флавоноиды, стильбены и лигнаны. Они защищают растения и оказывают множество полезных воздействий на организм человека. Полифенолы являются мощными антиоксидантами. Антиоксидантная активность заключается в их способности нейтрализовать свободные радикалы и снижать окислительный стресс.*

Ключевые слова: *Полифенолы, свободные радикалы, фенольные соединения, антиоксидант, окислительный стресс, флавоноиды, фенольные кислоты, активность тромбоцитов, кверцетин*

Kirish. Hozirgi kunda biologik faol tabbiy birikmalarni o’rganish biotibbiyot,farmakologiya va oziq ovqat biokimyosi sohalarida muhim ahamiyatkasb etmoqda. Polifenollar antioksidant,yallig’lanishga qarshi,antitrombotik va sitoprotektiv xususiyatlari bilan ajralib turadi.Polifenollarga boy o'simliklar antioksidant xususiyatlarga ega va xalq tabobatida katta ahamiyatga ega. Polifenollar ikkilamchi o'simlik metabolitlari bo'lib, asosan meva, sabzavot va rezavorlarda uchraydi. Polifenollar – tarkibida bir nechta fenol gidroksil guruhlari ($-OH$) tutgan, o'simlik dunyosida keng tarqalgan

organik birikmalar sinfidir. Ularning kimyoviy tuzilishi kamida bitta aromatik halqa (benzol halqasi) va unga bog'langan ikki yoki undan ortiq gidroksil guruhlaridan tashkil topgan.

Asosiy qism.Polifenollar har bir molekulada bir nechta fenol guruhini o'z ichiga olgan kimyoviy birikmalarning katta guruhidir. Ular oshqozon-ichak traktida faollashishi va erkin radikallar va yallig'lanish sitokinlarini yo'q qilishi mumkin. Polifenolik birikmalar fenolik kislotalar, flavonoidlar, stilbenlar va lignanlar deb tasniflanadi. Flavonoidlar yuqori antioksidant faollikka ega va alfa-tokoferolni oksidlanishdan himoya qiladi. Ilmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, flavonoidlar muhim RNK va oqsillarni sintez qilish uchun ma'lum genlarni qo'zg'atuvchi signal molekulalari vazifasini bajaradi . Ular, shuningdek, organizmni ksenobiotiklarning zararli ta'siridan himoya qilishga yordam beradi - biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etmaydigan va asosan inson tanasi uchun begona bo'lgan kimyoviy moddalar. Flavonoidlar bir nechta tadqiqotlar bilan tasdiqlanganidek, antioksidant faolligi tufayli kuygan yaralarning samaraliroq davolanishiga yordam berishi ko'rsatilgan. Flavonoidlar polifenolik birikmalarning eng ko'p sonli sinfidir. Ularning asosiy elementi flavon yadrosi: uchta uglerod atomidan iborat zanjir bilan bog'langan ikkita aromatik halqa . Flavonoidlar (xalkonlar, katexinlar, antosiyaninlar, leykoantotsianinlar, flavonlar, flavononlar va flavonollar) daraxt po'stlog'ida, gullarda, mevalarda va urug'larda keng tarqalgan. Polifenollar guruhining yana bir guruhi, stilbenlar, flavonoidlarga tegishli, chunki ular ikkita benzol halqasini o'z ichiga oladi. Stilbenlar fitopatogenlar, ozon va ultrabinafsha nurlanishiga qarshi antimikrob va antioksidant himoya vazifasini bajaradi. Ular ignabargli daraxtlar kabi turli xil o'simlik taksonomik guruhlarida keng tarqalgan . Stilbenlar sinfining eng taniqli vakili resveratroldir. Shuningdek, pterostilben, pinosilvin va rapontitsinning faolligi haqida nashrlar mavjud .Funksional jihatdan stilbenlar va flavonoidlar fitoaleksinlar - o'simlik antibiotiklari sinfiga kiradi. Fitoaleksinlar qo'ziqorin yoki bakterial infeksiyaga javoban sintez qilish orqali o'simliklarning yuqumli kasalliklarga chidamliligini ta'minlaydi.

Kvertsetin ko'plab tadqiqotlarda ajoyib antioksidant ekanligi ko'rsatilgan flavonoiddir. U yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega, yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish uchun ishlatilishi mumkin va antiviral, antiallergik va antiproliferativ ta'sirga ega.

Polifenollar tarkibiga kiruvchi quyidagi birikmalari mavjud:

Polifenollarga kiruvchi nomi	Tuzilishi	Tarkibi	qaysi o'simliklar tarkibida uchraydi	ahamiyati
Flavonoidlar	C_6- C_3- C_6	Ikki beznol halqa (A va B) + bitta geterotsiklik halqa (C)	sabzavotlar, choy, qizil sharob shirinliklar, piyoz,	Kuchli antioksidant, Yallig'lanishga qarshi, Yurak-qon tomir kasalliklarida himoya, Trombosit agregatsiyasini kamaytiradi
Fenol kislotalar	Benzol halqa + karboksil guruh (- COOH)	Gidroksi benzoy kislotalar Gidroksit sinnam kislota	qahva bug'doy,arpa qulupnay kungaboqar urugi	Oksidlanish stressni kamaytiradi Antimikrob ta'sir Ovqat hazm

					qilishni yaxshilaydi
r	Lignanala	Ular ikki dona C_6-C_3 (8-8′)	ikki fenilpropan birikmasining qo’shilishidan hosil bo’ladi	zig’ir urug’i kunjut brokkli nkin donli ekinlar	Gormo nlar muvozanatni tartibga solidi Estroge nga o’xshash ta’sir Saraton ga qarshi potensial
	Taninlar	Yuqori molekulali polifenollar	Fenolik – OH guruhlar, oqsillar,polisa xaridlar va metal ionlar	erman po’stlog’i qora choy qizil sharob yong’o q	Antibak terial Ich ketishiga qarshi Oqsillar ni cho’tkiruvch i xususiyat
	Stilbenes	C_6- C_2-C_6	Ikki benzol halqa o’rtasida etilen (-CH= CH-) ba’zan	uzum qizil sharop yeryon g’oq	Kuchli antioksidant Yallig’lanish ga qarshi Yurak qon- tomir

metoksi guruhlar	qarag’ay po’stlog’i ko’k mevalar	tizimini himoyalaydi Trombosit agregatsiyasini kamaytiradi Qarishga qarshi (anti-aging) ta’sir

Polifenol antioksidantlari ayrim saraton kasalliklari, yurak-qon tomir va neyrodegenerativ kasalliklar hamda DNK shikastlanishining oldini olishga yordam berishi va hatto qarishga qarshi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkinligi haqidagi keng tarqalgan ilmiy e'tiqod tufayli tez-tez qiziqish uyg'otadi. Polifenollarning sog'liqqa ta'siri iste'mol qilinadigan miqdor va ularning biomavjudligiga bog'liq. Polifenol antioksidantlariga boy parhez qarish bilan bog'liq kasalliklarning rivojlanishiga qarshi profilaktik ta'sirga ega . Ushbu sharhda polifenol antioksidantlarining sog'liq, kasallik va qarish bilan bog'liqligi o'rganiladi.

Bu holatlar turli xil oziq-ovqat xom ashyolari, tayyor oziq-ovqatlar va ichimliklardagi AO miqdorini kuzatishni talab qiladi. Faqatgina ushbu qo'shimchalarni aniqlashning yetarlicha sodda, sezgir va ishonchli usullari va yaxshi tashkil etilgan nazorat tizimi bilan yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish mumkin.

Polifenollarni aniqlashning asosiy usullari, ularning tuzilishida oson oksidlanadigan gidroksil va xromofor guruhlari mavjudligi sababli, spektroskopik, xromatografik, elektrokimyoviy va kimyoviy hisoblanadi.

Biroq, polifenolik birikmalarni o'z ichiga olgan haqiqiy namunalarni tahlil qilishning asosiy usullari xromatografik va kimyoviy hisoblanadi. Spektroskopik usullar yordamida polifenollarni aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlar ancha kam . O'simlik va biologik namunalardagi polifenollarni aniqlashning eng keng tarqalgan usuli bu ultrabinafsha yoki elektrokimyoviy detektor (ED) yordamida teskari fazali yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (RP-HPLC) hisoblanadi.

Xulosa. Umuman olganda polifenollar odam organizmda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.Ular antioksidantlik ta’siridan tashqari antibacterial xususiyatga ham ega hsioblanadi. Polifenolik birikmalar ham antibakterial faollikni namoyon etadi. Mevalarda uchraydigan fenolik birikmalar potentsial tabiiy antibiotiklar sifatida ishlatilishi mumkin. Polifenolik birikmalar ham antibakterial faollikka ega. Mevalarda uchraydigan fenolik birikmalar tabiiy antibakterial vositalar sifatida potentsialga ega. Guava, xurmo va shirin smorodina kabi tropik mevalar antioksidant va antibakterial faollikka ega bo'lib, ularning funktsional oziq-ovqat sifatidagi potentsialini qo'llab-quvvatlaydi. Polifenollarning antibakterial ta'siri hujayra membranasining o'tkazuvchanligidagi o'zgarishlar, fenolik birikmalar va fermentlar orasidagi vodorod bog'lanishlari tufayli turli hujayra ichidagi funktsiyalarning tiklanishi yoki hujayra membranasi bilan turli xil o'zaro ta'sirlar tufayli hujayra devorining qattiqligidagi o'zgarishlar bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Шевелев А.Б., Исакова Е.П., Трубникова Е.В., Ла Н., Порта и др.** Исследование антимикробной активности полифенолов из древесного сырья // *Микробиология*. — 2018. — 224 с.
2. **Аметова Л.О., Процай А.Н., Морозенко А.А. и др.** Комплексный обзор влияния полифенолов в вине и их соответствующих метаболитов на здоровье организма // *Международный научно-исследовательский журнал*. — 2025. — 156 с.

3. **Каримова А.С., Аскарова Р.И., Имомова Ё.М.** Изучение полифенолов растительного сбора из малины обыкновенной и ежевики сизой // *Universum: химия и биология*. — 2025. — 128 с.
4. **Бобрышева Т.Н., Анисимова Г.С., Золоторёва М.С.** Полифенолы как перспективные биологически активные соединения. — **Российский национальный исследовательский медицинский университет имени Н.И. Пирогова**, Министерство здравоохранения Российской Федерации. — Москва, Российская Федерация.
5. **Лукин А.А.** Методы определения полифенолов в пищевых системах. — **ФГАОУ ВО Южно-Уральский государственный университет (НИУ)**. — Челябинск, Россия.
6. **Kosimova Z.T.** Organizmdagi oksidlanish stress holatida polifenollarning roli // *II Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari*.

UCH MARKAZLI O‘RAMA EGRI CHIZIQNI TO‘G‘IRLASH VA HAQIQIY UZUNLIGINI ANIQLASH.

Xusanboyev Abdulkasim Mamajonovich
Axmedov Murodjon Mamurovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Anotatsiya: *Ushbu maqolada bir tekislikda yotuvchi egri chiziqlarni to‘g‘irlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Egri chiziqni to‘g‘irlash uchun markazlari* O_1, O_2 *va* O_3 *bo‘lgan aylana yoylaridan iborat uch markazli o‘rama qurilgan. O‘rama to‘rtta aylana yoyidan tashkil topgan. O‘ramani to‘g‘irlash jarayonida har bir yoyning uzunligini aniqlash zarur bo‘lgan. Mazkur jarayonda kichik xordalar*

(kesmalar) usulidan foydalanilgan. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, to‘g‘rilanayotgan tekis egri chiziqqa uning kichik xordalaridan iborat siniq chiziq ichki chizib boriladi.

Kalit so‘zlar: *Egri chiziq, uch markazli o‘rama, aylana yoyi, tekislik, trayektoriya, uzluksiz harakat, markaz.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы спрямления плоских кривых линий, лежащих в одной плоскости. Для спрямления кривой построена трёхцентровая спираль, состоящая из дуг окружностей с центрами* O_1, O_2 и O_3. *Спираль состоит из четырёх дуг окружности. Для её спрямления необходимо определить длину каждой дуги. В работе применён метод малых хорд, суть которого заключается в том, что в спрямляемую плоскую кривую вписывается ломаная линия, звенья которой представляют собой малые хорды данной кривой.*

Ключевые слова: *Кривая линия, трёхцентровая спираль, дуга окружности, плоскость, траектория, непрерывное движение, центр.*

Abstract: *This article examines the problem of rectifying plane curves lying in a single plane. To perform the rectification, a three-centered spiral curve composed of circular arcs with centers* O_1, O_2 *and* O_3 *is constructed. The spiral consists of four circular arcs. To straighten the spiral, the length of each arc must be determined. The author applies the method of small chords, which is based on inscribing a broken (polygonal) line into the given plane curve, where each segment represents a small chord of the curve.*

Keywords: *Curve, three-centered spiral, circular arc, plane, trajectory, continuous motion, center.*

Kirish: Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarida egri chiziqlarni tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Egri chiziqlar mashinasozlik, qurilish, arxitektura, mexanika va texnika sohalarida keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, turli shakldagi prujinalar, spiral elementlar, quvurlar, vint mexanizmlar va aylanuvchi detallarni loyihalashda egri chiziqlarning geometrik xossalarini chuqur o‘rganish talab etiladi.

Egri chiziqlarni to‘g‘irlash masalasi ularning haqiqiy uzunligini aniqlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu masala ko‘plab muhandislik hisob-kitoblarida uchraydi. Chunki ko‘pincha egri chiziqning analitik tenglamasi berilmagan bo‘lib, u geometrik qurilishlar asosida hosil qilinadi. Bunday hollarda egri chiziq uzunligini aniqlash murakkablashadi va maxsus geometrik usullardan foydalanishni talab etadi.

Mazkur maqolada tekis egri chiziqlarning bir turi bo‘lgan uch markazli o‘rama egri chiziqni to‘g‘irlash masalasi ko‘rib chiqiladi. Ushbu turdagi o‘ramalar texnikada keng qo‘llanilishi bilan birga, geometrik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo‘lgani sababli ularning haqiqiy uzunligini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qismni: O‘rama xar hil uzunlikdagi radiuslar bilan chizilgan aylana yoylaridan tuzilgan ochiq va ravon egri chiziqdir. O‘ramlarni bitta markaz, shuningdek bir necha markazlar yordamida yasash mumkin.Texnikada, ko‘pincha ko‘p markazli o‘ramalar ishlatiladi.

Bizning misolda uch markazli o‘ramani yasash 1-shaklga tasvirlangan. Uch markazli o‘ramaning markazlari qilib teng tomonli uchburchakning, masalan, tanlab olingan O_1, O_2va O_3 uchlari olingan. So‘ng bu uchburchakning O_1 uchidan $R = O_1$, O_3 = 15mm radius bilan yoy chizib, bu yoyning O_2 va O_1 tomonining davomi bilan kesishgan A nuqtasi aniqlanadi. Shundan keyin O_2 markazdan R 30 radius bilan ikkinchi yoy chizilib, uning O_3, O_2 tomonning davomi bilan kesishib B nuqtasi topiladi. Keyin O_3 markazdan $R45$ radius bilan uchinchi yoy chizilib, bu yoyning O_1, O_3 tomonining davomi bilan kesishib C nuqtasi topiladi. Yana O_1 markazdan $R60$ radius bilan to‘rtinchi yoy chizilib D nuqta aniqlanadi va hokazo. Natijada izlanayotgan uch markazli $ABCD$ o‘rama hosil bo‘ladi (1-rasm).

Uch markazli o‘rama egri chiziqni to‘g‘irlash uchun $O_3\,A$, AB, BCva CD yoylarning uzunliklarini quyidag I formuladan foydalanamiz.

KL= $\frac{2\,\pi r}{n}$; $O_1\ O_2\ O_3\ R\ A\ B\ C\ D\ K\ L\ n\ m$

Bu yerda;

KL - sektor yoy uzunligi

$O_3\,A$ - o‘rama sektor uzunligi ,

π – o‘zgarmas son,

R - sektor yoy radiusi,

n - sektorlar soni.

1) $O_3\,A = \frac{2\pi r}{3} = \frac{2\times3,14\times15}{3} = \frac{94,2}{3} = 31,4\,mm$

2) $AB = \frac{2\pi\,r}{3} = \frac{2\times3,14\times30}{3} = \frac{188,4}{3} = 62,8\,mm$

3) $BC = \frac{2\pi r}{3} = \frac{2\times3,14\times45}{3} = \frac{282,6}{3} = 94,2\,mm$

3) $CD = \frac{2\pi r}{3} = \frac{2\times3,14\times60}{3} = \frac{376,8}{3} = 125,6\,mm$

Boshlang‘ich radiusi R 15 mm bo‘lgan urinma egri chiziq yoylarini ketma-ket o‘lchab tog‘ri chiziqqa qo‘yilganda: $L = O_3\,A + AB + BC + CD$ = 31,4 + 62,8 = 94,2 + 125,6 = 314 mm ga teng bo‘ldi. Hosil bo‘lgan hamma yoylarning yig‘indisi, egri chiziqni to‘g‘rilanganligi deyiladi.



1-rasm

Xulosa: Mazkur maqolada uch markazli o‘rama egri chiziqni to‘g‘irlash va uning haqiqiy uzunligini aniqlash masalasi ko‘rib chiqildi. O‘rama geometrik qurilish asosida hosil qilinib, uning har bir yoyining uzunligi kichik xordalar

(kesmalar) usuli yordamida aniqlandi. Natijada egri chiziqning to‘g‘rilangan uzunligi hisoblab topildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kichik xordalar (kesmalar) usuli ko‘p markazli egri chiziqlarni tahlil qilishda samarali va ishonchli usul hisoblanadi. Ushbu usuldan foydalanish texnika va muhandislik amaliyotida, xususan, o‘rama prujinalar, spiral elementlar va murakkab shaklli detallarni loyihalashda katta ahamiyatga ega.

Kelgusida ushbu tadqiqot natijalari asosida ko‘p markazli o‘ramalarning boshqa turlari uchun ham umumlashtirilgan hisoblash usullarini ishlab chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Хусанбаев А.М.** Построение вписанного равностороннего (правильного) пятиугольника в окружность с помощью коэффициента // Научно-технический журнал ФерГТУ. — 2025. — Спец. выпуск № 11.
2. **Хусанбаев А.М., Ахмедов М.М.** Взаимное положение точки и прямой // *Integration, Evolution, Modernization: Ways of Development of Science and Education*. — 2025.
3. **Иванов В.В.** Основы инженерной графики : учеб. пособие. — СПб. : Питер, 2015. — 368 с.
4. **Григорьев Н.С.** Инженерная графика : учебник. — Новосибирск : Наука, 2010. — 352 с.
5. **Rahimov I. va boshq.** Chizmachilik : darslik. — Toshkent : Voris-nashriyot, 2016.
6. **Соловьёв С.А. и др.** Черчение и перспектива : учеб. пособие. — М. : Высшая школа, 1982.

SAMARQAND VILOYATI AHOLISIDA HLA-DRB GENLARI POLIMORFIZMI XUSUSIYATLARI

Ziyadullaeva Gulrux

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Willow species are usually the first to appear on newly formed alluvial deposits due to their ability to tolerate prolonged flooding and sediment burial. Poplars and tamarisks gradually join the developing plant community as substrate stability increases[3,pp. 56–60.].

The root systems of pioneer woody species play a crucial role in stabilizing sediments and preventing further erosion of riverbanks. As a result of these processes, conditions become favorable for the accumulation of organic matter and the gradual development of soil horizons. As succession progresses, herbaceous plant communities become established between woody plants, contributing to soil enrichment and moisture retention. Later successional stages are characterized by the development of more stable shrub and tree associations.

Oleaster (Elaeagnus angustifolia Linnaeus) plays a particularly important role in later stages of succession due to its tolerance to drought and soil salinity. Oleaster seeds are dispersed by water and birds, allowing this species to colonize higher and more stable parts of floodplains. Under favorable conditions and in the absence of strong erosion or anthropogenic disturbance, tugai vegetation gradually forms closed forest stands. Fully developed tugai forests are characterized by dense canopies, multilayered structure, and well-developed undergrowth.

Hydrological regime is the key ecological factor controlling the structure and stability of tugai forests. Seasonal flooding ensures soil moisture replenishment, nutrient input, and conditions for natural regeneration of woody species. Fluctuations in groundwater levels significantly influence species composition, growth rates, and longevity of tugai forest stands. A prolonged decrease in flood frequency or groundwater levels leads to weakening of tree growth and disruption of regeneration processes. In such conditions, tugai forests gradually degrade and may completely disappear from certain areas. Due to their strong dependence on river dynamics, tugai forests are often described as migratory ecosystems.

Their spatial distribution continuously changes in response to channel shifts and sediment dynamics. Typological classification of tugai forests has been proposed by numerous researchers. These classifications are based on dominant woody and shrub species, soil texture, and hydrological conditions.

Willow-dominated, poplar-dominated, oleaster, tamarisk, and mixed tugai communities represent the main typological units recognized within Central Asian floodplains. Each typological unit reflects specific ecological conditions, including flood duration, groundwater depth, and substrate composition. Ecologically, tugai forests perform a wide range of important environmental functions. They protect riverbanks from erosion, reduce sediment transport, and contribute to soil enrichment with organic matter.

In addition, tugai forests create specific microclimatic conditions within arid landscapes. They serve as refuges for numerous plant and animal species and support regional biodiversity.

Conclusion. The conducted analysis demonstrates that tugai forests represent highly dynamic riparian ecosystems whose formation, spatial distribution, and long-term stability are primarily determined by hydrological processes and natural succession. Periodic flooding, sediment accumulation, and groundwater dynamics play a decisive role in maintaining the structural integrity and ecological functions of these forest communities[1,pp.34–38.]. At the same time, tugai forests are characterized by a high degree of ecological vulnerability. Any significant alteration of river regimes, reduction in flood frequency, or lowering of groundwater levels inevitably leads to degradation of vegetation cover and disruption of natural regeneration processes[4,pp.22–26.]. In this regard, tugai ecosystems should be considered indicator systems reflecting the overall ecological condition of river floodplains in arid regions.

Therefore, the preservation and sustainable management of tugai forests require maintaining natural hydrological regimes, minimizing anthropogenic pressure, and applying scientifically grounded conservation measures. Such an approach is essential not only for protecting tugai forests themselves but also for

ensuring ecological stability and biodiversity conservation within Central Asian landscapes.

REFERENCES

1. **Drobov V. P.** Vegetation of river floodplains. — Tashkent, 1974. — P. 34–38.
2. **Korovin E. P.** Desert vegetation of Central Asia. — Leningrad, 1962. — P. 98–101.
3. **Prokhorov A. I.** Ecology of tugai forests. — Almaty, 1985. — P. 56–60.
4. **Rodin L. E.** Classification of desert riparian vegetation. — Moscow, 1977. — P. 22–26.
5. **Zaktreger I. Ya.** Tugai forests of Central Asia. — Moscow, 1956. — P. 12–15.

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA DAHBET AGROMETEOROLOGIK STANSIYASIDA TURLI MUDDATLARDA HAVO HARORATINING O‘ZGARISHI

Eshmirzayev Doston Rustamjonovich

Ne’matov Olmosbek G‘ayrat o‘g‘li

Abdushukurov Orzubek Orif o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

***Annotatsiya**: Maqolada Dahbet agrometeorologiya stansiyasida oylar davomida havo haroratining turli muddatlarda o‘zgarishi tahlil qilingan. Kuz oylarida kuz oylarida haroratning o‘zgarishi 30,0º÷4,0ºC, qish oylarida 1,2º÷7,9ºC, bahor oylarida 6,6º÷26,8ºC va yoz oylarida 19,3º÷34,3ºC oraliqlarda o‘zgarib turadi.*

Haroratlar amplitudasi kuz oylarida 3,0°÷8,2°C, bahor oylarida 3,2°÷6,9°C, yoz oylarida 7,1°÷7,7°C oralig'ida tebranib turadi. Kuzatish muddatlari orasida havo haroratning keskin ko'tarilishi yoz oylarida kuzatiladi. Buning asosiy sababi, Quyoshning nur sochib turish davomiyligining oylar bo'yicha taqsimotining turlichaligidir.

***Kalit so'zlar**: qishloq xo'jaligi, vegetatsiya, g'o'za, bug'doy, stansiya, havo harorati, muddat, o'nkunlik.*

***Аннотация:** В статье анализируются изменения температуры воздуха в разные периоды по месяцам на агрометеорологической станции Дагбит. Температура колеблется в пределах 30,0°÷4,0°C в осенние месяцы, 1,2°÷7,9°C в зимние месяцы, 6,6°÷26,8°C в весенние месяцы и 19,3°÷34,3°C в летние месяцы. Амплитуда температур колеблется в пределах 3,0°÷8,2°C в осенние месяцы, 3,2°÷6,9°C в весенние месяцы и 7,1°÷7,7°C в летние месяцы. Среди периодов наблюдений резкое повышение температуры воздуха наблюдается в летние месяцы. Основной причиной этого является изменение распределения продолжительности солнечного сияния по месяцам.*

***Ключевые слова:** сельское хозяйство, растительность, хлопок, пшеница, станция, температура воздуха, период, декада.*

***Abstract:** The article analyzes the monthly changes in air temperature at the Dagbit agrometeorological station. The temperature changes in the autumn months vary within the range of 30.0°÷4.0°C, in the winter months 1.2°÷7.9°C, in the spring months 6.6°÷26.8°C, and in the summer months 19.3°÷34.3°C. The temperature amplitude fluctuates within the range of 3.0°÷8.2°C in the autumn months, 3.2°÷6.9°C in the spring months, and 7.1°÷7.7°C in the summer months. Between the observation periods, a sharp increase in air temperature is observed in the summer months. The main reason for this is the difference in the distribution of the duration of solar radiation by month.*

***Key words:** agriculture, vegetation, cotton, wheat, station, air temperature, period, decade.*

Kirish. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ekinlari o‘zining o‘sishi va rivojlanishi jarayonida tuproq-iqlim sharoiti va uni o‘rab turgan muhitning turli omillari ta’siriga tushib urug‘ unadi, o‘sadi va rivojlanadi, ulardan asosiylari havo harorati, yog‘ingarchilik va boshqalar [4].

Ushbu kattaliklarlarning maksimal va minimal qiymatlarining o‘simliklar vegetatsiya davrida o‘zgarishi ekinning rivojlanish fazalari va hosil to‘plash jarayonida maksimal hosil olishga imkoniyatini pasaytiradi. Biz ushbu omillardan foydalanish uchun eng avvalo ekish muddatlariga alohida ahamiyat berishimiz zarur, so‘ngra o‘simlikga omillar qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunib va har bir hududda ekishni optimal ta’minlanganlik muddatini aniqlash zarur bo‘ladi. Respublikamiz turli hududlarida havo haroratining o‘zgarishiga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlarda [6, 7, 8, 9, 10] va boshqa qator olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Biroq, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda ma’lum bir yo‘nalishda amalga oshirilgan bo‘lib, ular erishishgan natijalari va tahlillari hamda berilgan xulosalari shu tadqiqot doirasiga mos bo‘lgan.

Tadqiqot mavzuning dolzarbligi. Meteorologik kuzatishlar ma’lumoti asosida hududlarning termik resurslari ma’lum bir davr bo‘yicha aniqlanadi. Har qaysi turdagi o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va mahsuldorlik elementlarini to‘plashi uchun havo harorati ma’lum aniq qiymatlardan past bo‘lmasligi kerak. O‘simlik rivojlanadigan bunday eng past haroratni biologik minimum deb yuritiladi. Havo harorati ko‘pchilik fiziologik jarayonlarda muhim omil bo‘lib, ekinlarning rivojlanishi sur’atiga jiddiy ta’sir qiladi. Bundan tashqari, o‘simlik rivojlanishi fazalarining boshlanishi va davomiyligi ham havo haroratiga bog‘liq [4].

Havo holati va ba’zi atmosfera hodisalarining turlicha tavsiflariga meteorologik kattaliklar deyiladi. Meteorologik kattaliklarning biror vaqt oralig‘i uchun qiymatlari meteorologik sharoitlar (ob-havo sharoitlari) deb yuritiladi.

Butun Yer shari gidrometeorologik stansiyalar tarmog‘i bilan qoplangan (bir necha ming stansiyalar). Bu stansiyalarda yer sirti yaqinida atmosfera holati sutkasiga 8 marta (o‘rta grinvich vaqti bo‘yicha soat 00, 03, 06, 09, 12, 15, 18, 21 larda) kuzatiladi.

Ko‘pincha qishloq xo‘jaligi gidrometeorologik xizmat ko‘rsatishda kuzatish muddatlari davomida o‘rtacha havo haroratidan foydalaniladi. Ma’lumki, kuzatish muddatlarida havo harorati qiymati maksimal va minimal qiymatlarga ega bo‘ladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. O‘zgidromet arxivida to‘plangan 2009-2021 yillarga oid ma’lumotlarini jamlash va bu ma’lumotlar asosida Dahbet agrometeorologik stansiyasida oylar davomida o‘rtacha havo haroratining turli kuzatish muddatlarida o‘zgarishini aniqlash.

Tadqiqot obyekti Dahbet agrometeorologik stansiyasida turli kuzatish muddatlardagi olib borilgan o‘rtacha havo harorati, **predmeti** esa o‘rtacha havo haroratining turli muddatlar bo‘yicha o‘zgarishini monitoring qilish.

Boshlang‘ich ma’lumotlar. Ishda 2009-2021 yillar davomida turli kuzatish muddatlaridagi o‘rtacha havo harorati to‘g‘risidagi ma’lumotlar yo‘riqnomaga [3] mos holda olib borilgan va O‘zgidromet arxiv fondidagi saqlanayotgan TM-1 dan olingan. Turli kuzatish muddatlarida o‘rtacha havo harorati o‘zgarishlarini hisoblash uchun Dahbet agrometeorologiya stansiyasi ma’lumotlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. O‘zbekiston viloyatlari tabiiy geografik va tuproq-iqlim sharoitlari bilan bir-birlaridan farqlanadi, lekin har bir viloyat ham o‘z navbatida bir xil tabiiy sharoitli rayonlardan tashkil topmagan. Shuning uchun har bir rayonda ekiladigan o‘simlik navlarini, ularning tashqi muhitga bo‘lgan biologik talablari shu joyning tuproq-iqlim sharoitiga mos kelishiga qarab tanlash amaliyotda keng qo‘llaniladi. O‘simlik urug‘larini sepishi, ekish va sabzavot ko‘chatlarini yerga qadash muddatlarini maqbul kunlarini belgilash avvalo tuproq (havo) haroratini har bir o‘simlik rivoji uchun yetarli darajada bo‘lishiga qarab aniqlanadi.

Rasmda 2009-2021 yillar davomida Dahbet agrometeorologik stansiyasida turli kuzatish muddatlarida o‘rtacha havo haroratining oylar davomida o‘zgarishi taqqoslangan.



Rasm. Havo haroratining oylar davomida turli kuzatish muddatlarida o‘zgarishi

Bu yerda: 1 – 20^{00}, 2 – 20^{00}, 3 – 2^{00}, 4 – 5^{00}, 5 – 8^{00}, 6 – 11^{00}, 7 – 14^{00}, 8 – 17^{00} soat

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, oylar davomida havo harorati qiymatlari quyidagicha o‘zgaradi: *kuz* oylarida havoning minimal qiymati sentabr va oktabr oylarida 5^{00} da, noyabr oyida 8^{00} da, maksimal harorat 14^{00} da, *qish* oylarida minimal harorat 8^{00} da maksimal harorat 14^{00} da, *bahor* va *yoz* oylarida minimal harorat oyida 5^{00} da, maksimal harorat 14^{00} da kuzatiladi.

Umuman, sentyabrda 20,5º ÷ 14,1º ÷ 28,4ºC, oktyabr 13,7º ÷ 9,2º ÷ 21,0ºC, noyabr 7,0º ÷ 3,8º ÷ 12,2ºC kuz oylarida haroratning o‘zgarishi 28,4º÷4,1ºC, dekabrda 3,4º ÷ 1,3º ÷ 7,9ºC, yanvarda 3,2º ÷ 0,8º ÷ 7,2ºC, fevralda 4,5º ÷ 1,6º ÷ 8,2ºC qish oylarida haroratning o‘zgarishi 1,0º÷8,2ºC, martda 10,1º ÷ 6,1º ÷ 13,9ºC, aprelda 15,8º ÷ 10,2º ÷ 19,9ºC, mayda 22,0º ÷ 15,1º ÷ 26,7ºC bahor oylarida haroratning o‘zgarishi 6,1º÷26,7ºC, iyunda 27,4º ÷ 18,6º ÷ 32,9ºC, iyulda 29,1º ÷ 19,2º ÷ 34,2ºC, avgustda 26,3º ÷ 18,1º ÷ 32,7ºC yoz oylarida haroratning o‘zgarishi 18,1º÷34,2ºC oraliqlarda o‘zgarib turadi. Kuzatish muddatlari orasida havo haroratning eng minimal qiymati

qish oylarida 8^{00} da 1,0ºC oraliqda kuzatilsa, maksimal qiymati yoz oylarida 14^{00} da 34,2ºC oraliqda kuzatiladi. Buning asosiy sababi, Quyoshning nur sochib turish davomiyligining oylar bo‘yicha taqsimotining turlichaligidir.

Havo haroratining sutka davomida o‘zgarishi o‘simliklarga ta’siri juda yuqori bo‘lib, ayniqsa, kunduzgi va kechasi kuzatilgan qiymatlarining bir- biridan aytarli darajada farqlanishi (amplitudasi) hududning joylashishiga bog‘liq bo‘ladi. Shunga qaramasdan hozirgi davrgacha vegetatsiya davri uchun termik sharoitlarni tasniflashda olib boriladigan agrometeorologik va agroiqlimiy ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarishda termik sharoitlarnitp ko‘rsatkichi sifatida havo haroratining o‘rtacha sutkali miqdoridan foydalaniladi. O‘rtacha sutkali havo haroratini o‘zgarishidagi va uning asosiy xarakteristikasi (havo haroratini minimal, maksimal va sutkali amplitudasi esa yordamchi ko‘rsatkich sifatida ayrim holatda ishlatiladi [4].

$$t_{kun} = \frac{\sum t_{kun,soat}}{n_{kuz}} \qquad (1),$$

$$t_{kech} = \frac{\sum t_{kech,soat}}{n_{kuz}} \qquad (2)$$

bu yerda: $\sum t_{kun,soat}$ - sutka ichidagi kunduzgi gradus-soatiga tegishli (Quyosh chiqishidan botishigacha); $\sum t_{kech,soat}$ - sutka ichidagi kechasidagi gradus-soatiga tegishli (Quyosh botishidan chiqishigacha); n_{kuz} - sutkadagi kunduzi va tungi davr uchun kuzatilgan soatlar soni).

Samarqand viloyati uchun O‘zgidrometning Samarqand viloyatidagi gidrometeorologiya boshqarmasi Gidrometeorologik ma’lumotlar bilan ta’minlash xizmati Oqdaryo tumaniga Dahbet stansiyasi tomonidan agrometeorologik xizmat ko‘rsatish olib boriladi.

Quyidagi jadvalda Dahbet agrometeorologik stansiyasida olib borilgan ko‘p yillik kuzatuv ma’lumotlari asosida asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining vegetatsiya davrida

turli muddatlarda (kunduzgi, tungi) havo haroratining oylar hamda turli muddatlardagi qiymati hisoblangan.

Jadval

Oylar davomida o‘nkunliklar bo‘yicha havo haroratining qiymati

Oylar	O‘nkunliklar	Kuzatish muddatlari								Tun-gi	Kun-duzi	Farq
		kechasi				kunduzi						
		2000	2300	200	500	800	1100	1400	1700	t_{tun}	t_{kun}	t_{kun}-t_{tun}
		Havo harorati, °C										
Mart	1	8,4	6,7	5,4	4,7	4,6	9,5	12,1	12	6,3	9,5	3,2
	2	9,4	7,4	6,2	5,6	5,7	10,7	13,2	13	7,2	10,7	3,5
	3	12,6	10	8,8	8	8,6	13,8	16,3	16,2	9,9	13,7	3,9
Aprel	1	13,4	10,7	9,4	8	9,5	14,6	17	17	10,4	14,5	4,2
	2	15,9	13	11,8	10,8	12,6	18,1	20,2	19,8	12,9	17,7	4,8
	3	18,1	14,9	13,2	11,9	14,8	20,4	22,5	22,5	14,5	20	5,5
May	1	20,7	17,4	15,7	14,3	17,8	23,5	25,6	25,3	17	23	6
	2	21,8	18,2	16,7	15,6	19,1	24,3	26,2	26,1	18,1	23,9	5,9
	3	23,5	18,8	16,9	15,4	20	26	28,2	28	18,6	25,5	6,9
Iyun	1	25,8	20,9	18,6	17,4	22,2	28	30,6	30,4	20,7	27,8	7,1
	2	28	22,6	20,2	18,5	24	30,3	32,4	32,3	22,4	29,9	7,6
	3	28,5	23	20,7	18,9	24,4	30,7	32,8	32,9	22,8	30,2	7,5
Iyul	1	29,5	23,5	21	18,8	24,9	32	34,5	34,5	23,2	31,5	8,2
	2	29,3	23,6	21,2	19,4	24,5	31,7	34,2	34,2	23,4	31,2	7,8
	3	28,5	23,2	20,9	19,5	24	31,1	33,9	33,8	23	30,7	7,7
Avgust	1	28,9	23,2	21	19,2	24,1	31,4	33,9	34	23,1	30,9	7,8
	2	28,7	23,2	21	19,5	24,1	31,3	34	33,9	23,1	30,8	7,7
	3	28	22,9	20,6	19,1	23,3	31,2	33,9	33,9	22,6	30,6	7,9
Sentyabr	1	22,7	18,7	16,6	15,2	18,3	27,3	30,5	30	18,3	26,5	8,2
	2	19,8	16,9	15	13,7	15,9	24,7	27,7	27	16,4	23,8	7,5
	3	18,9	16,2	14,1	13,3	14,7	24,1	26,9	26,3	15,6	23	7,4
Oktyabr	1	16,3	14,2	12,3	11,6	12	20,7	23,9	23,1	13,6	19,9	6,3
	2	12,7	11,5	9,9	8,7	9,4	17,2	20,9	20	10,3	16,1	5,8
	3	11,3	9,4	8,1	7,2	7,4	15,2	18,2	16,9	9	14,4	5,4
Noyabr	1	9,1	7,9	6,8	5,8	5,8	11,7	14,5	13,5	7,4	11,4	4
	2	7,1	5,6	4,3	3,7	3,3	9,8	12,9	11,4	5,2	9,4	4,2
	3	4,9	3,5	2,8	2,8	2,3	6,3	9,3	8,2	3,5	6,5	3

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tungi va kunduzgi kuzatuv muddatlari orasidagi haroratlar amplitudasi bahor oylarida 3,2º÷6,9ºC, yoz oylarida 7,1º÷7,7ºC, kuz oylarida 3,0º÷8,2ºC, oralig‘ida tebranib turadi.

Xulosa

Umuman, bahor va kuz oylarida kechki muddatlarda havo hararatining keskin o‘zgarishi kuzatilmaydi. Kuzatish muddatlari orasida havo haroratning keskin ko‘tarilishi yoz oylarida kuzatiladi. Buning asosiy sababi, Quyoshning nur sochib turish davomiyligining oylar bo‘yicha taqsimotining turlichaligidir. Kuzatuv muddatlari

orasidagi haroratlar farqi mart-aprel va noyabr kam farq qilsa, may oyidan oktyabr oyining ikkinchi o‘nkunligigacha farqlar sezilarli.

Ushbu tadqiqot natijasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlardan xalq xo‘jaligiga gidrometeorologik xizmat ko‘rsatishda va talabalar o‘quv jarayonida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Агроклиматические ресурсы Самаркандской и Джизакской области. — Л.: Гидрометеоиздат, 1976. — 206 с.
2. **Муминов Ф. А., Абдуллаев Х. М.** Агроклиматические ресурсы Республики Узбекистан. — Ташкент: САНИГМИ, 1997. — 178 с.
3. Гидрометеорологик станция ва постларга йўриқнома. 11-нашр. Станция ва постларда агрометеорологик кузатувлар. 1-қисм: Асосий агрометеорологик кузатувлар. — Тошкент, 2009. — 325 б.
4. **Abdullayev A. Q., Arg‘inboyev H., Abdullayev H. U.** Fizika va agrometeorologiya: darslik. — Toshkent, 2015. — 480 b.
5. **Abdullayev A. K., Xolbayev G. X., Safarov E. Yu.** Agrometeorologiyada munosabatli tenglamalarni topishda matematik statistikani qo‘llash, EHM va geografik axborot tizimlaridan foydalanish uchun ko‘rsatma. — Toshkent, 2009. — 149 b.
6. **Abdullayev A. Q., Xolbayev G. X., Ro‘ziyeva M. B., Sattorov M. M.** Samarqand va Jizzax viloyatlarida havo haroratining o‘zgarishi // GMITI ilmiy to‘plami. — 2013. — № 7 (262). — B. 99–105.
7. **Eshmirzayev D. R.** Jizzax va Samarqand viloyatlarida turli muddatlarda havo harorati va tuproq yuzasi haroratlarining o‘zgarishini baholash // O‘zbekistonda iqlim o‘zgarish muammolarini ta’limga integratsiya qilish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2024-yil 23–24-may. — B. 84–88.

8. **Eshmirzayev D., Axmuratova B. X.** Jizzax MSdagi o‘rtacha havo haroratining yillararo o‘zgarishini tadqiq qilish // O‘zbekiston Milliy universiteti talabalar va ilmiy-tadqiqotchilarining ilmiy konferensiyasi materiallari. — Toshkent, 2022. — B. 102–103.
9. **Xolbayev G. X., Egamberdiyev H. T., Quziyev J., Eshmirzayev D. R.** Transchegaraviy hududlarda termik resurslarning davriy o‘zgarishini baholash (Jizzax va Sirdaryo viloyatlari misolida) // Markaziy Osiyo va qo‘shni mintaqalardagi transchegaraviy hududlar: hamkorlik imkoniyatlari va muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. II qism. — Samarqand, 2022-yil 5–6-may. — B. 142–146.
10. **Eshmirzayev D., Xolbayev G.** Turli muddatlarda havo haroratining o‘zgarishi (Sirdaryo meteorologik stansiyasi misolida) // Iqlim o‘zgarishi sharoitida arid hududlar suv resurslari: muammolar va ularning yechimlari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2023-yil 20-oktabr. — B. 69–73.
11. **Kholbaev G., Egamberdiev Kh., Kuziev J., Kazakbaeva A., Eshmirzaev D., Kholbaeva K., Babajanova G.** The Effect of Air Temperature and Relative Humidity to Winter Wheat Growth during Vegetation Period in Uzbekistan // Nature and Science. — 2022. — Vol. 20, № 4. — P. 47–55. — URL: http://www.sciencepub.net/nature — DOI: 10.7537/marsnsj200422.06.

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA TURLI MUDDATLARDA HAVO HARORATINING O‘ZGARISHI BAHOLASH (SAMARQAND METEOROLOGIK STANSIYASI MISOLIDA)

Eshmirzayev Doston Rustamjonovich

Buronov Jahongir Akramjonovich
Narziyeva Dilafruz Ashirboy qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

***Annotatsiya**: Maqolada Samarqand meteorologik stansiyasida oylar davomida havo haroratining turli muddatlarda o‘zgarishi tahlil qilingan. Kuz oylarida haroratning o‘zgarishi 30,2º÷3,9ºC, qish oylarida 0,8º÷8,2ºC, bahor oylarida 6,7º÷26,6ºC va yoz oylarida 19,4º÷34,3ºC oraliqlarda o‘zgarib, haroratlar amplitudasi kuz oylarida 3,1º÷6,4ºC, qish oylarida 2,9º÷3,2ºC, bahor oylarida 3,2º÷6,2ºC, yoz oylarida 6,3º÷7,1ºC oralig‘ida tebranib turadi. Kuzatish muddatlari orasida havo haroratning keskin ko‘tarilishi yoz oylarida kuzatiladi. Buning asosiy sababi, Quyoshning nur sochib turish davomiyligining oylar bo‘yicha taqsimotining turlichaligidir.*

***Kalit so‘zlar**: qishloq xo‘jaligi, vegetatsiya, g‘o‘za, bug‘doy, stansiya, havo harorati, muddat, o‘nkunlik*

***Аннотация:** В статье анализируются изменения температуры воздуха в разные периоды в течение месяцев на метеостанции Самарканд. Колебания температуры в осенние месяцы колеблются в пределах 30,2º÷3,9ºC, в зимние месяцы 0,8º÷8,2ºC, в весенние месяцы 6,7º÷26,6ºC и в летние месяцы 19,4º÷34,3ºC, амплитуда температуры колеблется, от 3,1°÷6,4°C в осенние месяцы, 2,9°÷3,2°C в зимние месяцы, 3,2°÷6,2°C в весенние месяцы и 6,3°÷7,1°C в летние месяцы. Среди периодов наблюдений резкий подъем температуры воздуха наблюдается в летние месяцы. Основная причина этого — разница в распределении продолжительности солнечных лучей по месяцам.*

***Ключевые слова:** сельское хозяйство, вегетация, хлопок, пшеница, станция, температура воздуха, период, декада..*

***Abstract:** The article analyzes changes in air temperature in different periods during months at the Samarkand meteorological station. The temperature variation in the autumn months varies between 30,2º÷3,9ºC, in the winter months 0,8º÷8,2ºC,*

in the spring months 6,7°÷26,6°C and in the summer months 19,4°÷34,3°C, the temperature amplitude it fluctuates between 3,1°÷6,4°C in the autumn months, 2,9°÷3,2°C in the winter months, 3,2°÷6,2°C in the spring months, and 6,3°÷7,1°C in the summer months. Among the observation periods, a sharp rise in air temperature is observed in the summer months. The main reason for this is the difference in the distribution of the duration of the Sun's rays over the months.

Key words: *agriculture, vegetation, cotton, wheat, station, air temperature, period, decade.*

Kirish. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ekinlari (g‘o‘za, donli ekinlar) o‘zining o‘sishi va rivojlanishi jarayonida tuproq-iqlim sharoiti va uni o‘rab turgan muhitning turli omillari ta’siriga tushib urug‘ unadi, o‘sadi va rivojlanadi, ulardan asosiylari havo harorati, yog‘ingarchilik va boshqalar.

Ushbu kattaliklar ekilgan ekinning rivojlanish chegaralari va davrda maksimal hosil olishga imkoniyatini pasaytiradi. Biz ushbu omillardan foydalanish uchun eng avvalo ekish muddatlariga alohida ahamiyat berishimiz zarur, so‘ngra o‘simlikga omillar qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunib va har bir hududda ekishni optimal ta’minlanganlik muddatini aniqlash zarur bo‘ladi. Havo haroratining o‘zgarishi bo‘yicha xorijda [6, 7, 8, 9, 10]. O‘zbekistonda esa ushbu kattaliklarning o‘zgarishini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar [2, 3, 4, 5] va boshqa qator olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Biroq, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda ma’lum bir yo‘nalishda amalga oshirilgan bo‘lib, ularda erishilgan natijalar, ularning tahlillari asosida olingan ilmiy-amaliy xulosalar shu tadqiqot doirasiga mos bo‘lgan.

Tadqiqot mavzuning dolzarbligi. Meteorologik kuzatishlar ma’lumoti asosida hududlarning iqlimi normal tayanch davr bo‘yicha aniqlanadi. Har qaysi turdagi o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi uchun havo harorati ma’lum aniq qiymatlardan past bo‘lmasligi kerak. O‘simlik rivojlanadigan bunday eng past haroratni biologik minimum deb yuritiladi. Havo harorati ko‘pchilik fiziologik jarayonlarda muhim omil bo‘lib, ekinlarning rivojlanishi sur’atiga jiddiy ta’sir qiladi. Bundan tashqari, o‘simlik rivojlanishi fazalarining boshlanishi va davomiyligi ham

havo haroratiga bog‘liq.

Havo holati va ba’zi atmosfera hodisalarining turlicha tavsiflariga meteorologik kattaliklar deyiladi. Meteorologik kattaliklarning biror vaqt oralig‘i uchun qiymatlari meteorologik sharoitlar (ob-havo sharoitlari) deb yuritiladi.

Butun Yer shari gidrometeorologik stansiyalar tarmog‘i bilan qoplangan (bir necha ming stansiyalar). Bu stansiyalarda yer sirti yaqinida atmosfera holati sutkasiga 8 marta (o‘rta grinvich vaqti bo‘yicha soat 00, 03, 06, 09, 12, 15, 18, 21 larda) kuzatiladi.

Ko‘pincha qishloq xo‘jaligi gidrometeorologik xizmat ko‘rsatishda kuzatish muddatlari davomida o‘rtacha havo haroratidan foydalaniladi. Ma’lumki, kuzatish muddatlarida havo harorati tebranib turadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. O‘zgidromet arxivida to‘plangan 2009-2021 yillarga taaluqli ma’lumotlarini jamlash va bu ma’lumotlar asosida Samarqand, meteorologik stansiyasida oylar davomida o‘rtacha havo haroratining turli kuzatish muddatlarida o‘zgarishini aniqlash.

Tadqiqot obyekti Samarqand meteorologik stansiyasida turli kuzatish muddatlardagi o‘rtacha havo harorati, **predmeti** esa o‘rtacha havo haroratining turli muddatlar bo‘yicha o‘zgarishini monitoring qilish.

Boshlang‘ich ma’lumotlar. Ishda 2009-2021 yillar davomida turli kuzatish muddatlaridagi o‘rtacha havo harorati to‘g‘risidagi ma’lumotlar yo‘riqnomaga [1] mos holda olib borilgan va O‘zgidromet arxiv fondidagi saqlanayotgan TM-1 dan olingan. Turli kuzatish muddatlarida o‘rtacha havo harorati o‘zgarishlarini hisoblash uchun Samarqand meteorologik stansiyalari ma’lumotlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. O‘zbekiston viloyatlari tabiiy geografik va tuproq-iqlim sharoitlari bilan bir-birlaridan farqlanadi, lekin har bir viloyat ham o‘z navbatida bir xil tabiiy sharoitli rayonlardan tashkil topmagan. Shuning uchun har bir rayonda ekiladigan o‘simlik navlarini, ularning tashqi muhitga bo‘lgan biologik talablari shu joyning tuproq-iqlim sharoitiga mos kelishiga qarab tanlash amaliyotda keng qo‘llaniladi. O‘simlik urug‘larini sepishi, ekish va sabzavot ko‘chatlarini yerga

qadash muddatlarini maqbul kunlarini belgilash avvalo tuproq (havo) haroratini har bir o‘simlik rivoji uchun yetarli darajada bo‘lishiga qarab aniqlanadi.

Rasmda 2009-2021 yillar davomida Samarqand meteorologik stansiyasida turli kuzatish muddatlarida o‘rtacha havo haroratining oylar davomida o‘zgarishi taqqoslangan.



Rasm. Havo haroratining oylar davomida turli kuzatish muddatlarida o‘zgarishi

Bu yerda: 1 – 20^{00}, 2 – 20^{00}, 3 – 2^{00}, 4 – 5^{00}, 5 – 8^{00}, 6 – 11^{00}, 7 – 14^{00}, 8 – 17^{00} soat

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, oylar davomida havo harorati kuz oylarida havoning minimal harorati sentyabr-oktyabr oylarida 5^{00}, noyabr oyida 8^{00}, maksimal harorat 14^{00} da, qish oylarida minimal harorat 8^{00} da maksimal harorat 14^{00} da, bahor oylarida minimal harorat 5^{00} da, maksimal harorat 14^{00} da, yoz oylarida minimal harorat 5^{00} da maksimal harorat 14^{00} kuzatiladi.

Umuman, kuz oylarida haroratning o‘zgarishi 30,0º÷4,0ºC, qish oylarida 1,2º÷7,9ºC, bahor oylarida 6,6º÷26,8ºC va yoz oylarida 19,3º÷34,3ºC oraliqlarda o‘zgarib turadi. Kuzatish muddatlari orasida havo haroratning keskin ko‘tarilishi yoz oylarida kuzatiladi. Buning asosiy sababi, Quyoshning nur sochib turish davomiyligining oylar bo‘yicha taqsimotining turlichaligidir.

Havo haroratining sutka davomida o‘zgarishi yovvoyi va madaniylashtirilgan o‘simliklarga ta’siri juda yuqori bo‘lib, ayniqsa, kunduzgi va kechasidagida miqdori bir biridan aytarli darajada farqlanishi ham zonal, ham mikroiqlimning ta’sirida eng yuqoriligi yorqin namoyon bo‘ladi. Shunga qaramasdan hozirgi davrgacha vegetatsion davr uchun termik sharoitlarning tasniflashdagi olib boriladigan barcha agrometeorologik va agroiqlimiy ilmiy-tadqiqot ishlarni barchasi bajarishda termik sharoitlarni ko‘rsatkichi sifatida havo haroratini o‘rtacha sutkali miqdoridan foydalaniladi. O‘rtacha sutkali havo haroratini o‘zgarishidagi va uning asosiy xarakteristikasi (havo haroratini minimal, maksimal va sutkali amplitudasi esa yordamchi ko‘rsatkich sifatida ayrim holatda ishlatiladi.

$$t_{kun} = \frac{\sum t_{kun,soat}}{n_{kuz}}; \qquad (1),$$

$$t_{kech} = \frac{\sum t_{kech,soat}}{n_{kuz}} \qquad (2)$$

bu yerda: $\sum t_{kun,soat}$ - sutka ichidagi kunduzgi gradus-soatiga tegishli (Quyosh chiqishidan botishigacha); $\sum t_{kech,soat}$ - sutka ichidagi kechasidagi gradus-soatiga tegishli (Quyosh botishidan chiqishigacha); n_{kuz} - sutkadagi kunduzi va tungi davr uchun kuzatilgan soatlar soni).

O‘zgidrometning Gidrometeorologik ma’lumotlar bilan ta’minlash xizmati va uning viloyatlar hududida joylashgan gidrometeorologiya boshqarmalariga tegishli bo‘lgan agro va gidrometeorologik stansiya va postlari tomonidan agrometeorologik xizmat ko‘rsatish olib boriladi.

Quyidagi jadvalda Samarqand meteorologik stansiyasida olib borilgan ko‘p yillik kuzatuv ma’lumotlari asosida vegetatsiya davrida (kuzgi bug‘doy (sentyabr-

iyun), g‘o‘za (mart-oktyabr) o‘simligi) turli muddatlarda (kunduzgi, tungi) havo haroratining oylar hamda turli muddatlardagi qiymati hisoblangan.

Jadval

Oylar davomida o‘nkunliklar bo‘yicha havo haroratining qiymati

Oylar	O‘nkunliklar	Kuzatish muddatlari								Tungi	Kunduzi	Farq
		kechasi				kunduzi						
		20^{00}	23^{00}	2^{00}	5^{00}	8^{00}	11^{00}	14^{00}	17^{00}	t_{tun}	t_{kun}	$t_{kun}-t_{tun}$
		Havo harorati, °C										
Sentyabr	1	22,9	21,0	19,0	17,6	20,2	27,1	29,9	29,1	20,1	26,6	6,4
	2	20,5	18,1	15,9	14,6	16,7	24,9	27,7	26,8	17,3	24,0	6,7
	3	19,5	17,1	14,9	13,8	15,6	24,1	26,8	25,9	16,4	23,1	6,8
Oktyabr	1	16,3	14,2	12,6	11,4	12,5	20,7	23,7	22,5	13,6	19,8	6,2
	2	12,8	11,8	10,3	9,3	10,2	18,4	21,2	19,9	10,5	16,5	6,0
	3	11,2	9,3	8,2	7,4	7,8	15,6	18,3	16,7	9,0	14,6	5,6
Noyabr	1	9,3	8,0	7,2	6,4	6,2	12,3	14,9	13,5	7,7	11,7	4,0
	2	6,5	5,1	4,2	3,8	3,5	10,5	12,2	10,4	4,9	9,2	4,3
	3	4,2	2,9	2,1	1,9	1,9	6,2	8,5	7,1	2,8	5,9	3,1
Dekabr	1	4,6	3,7	3,2	2,7	2,5	6,7	9,2	7,7	2,2	5,1	2,9
	2	2,7	1,7	1,2	0,9	0,8	4,6	7,1	5,6	1,7	4,4	2,6
	3	2,9	1,6	1,1	0,8	0,6	4,5	7,3	6,0	1,7	4,5	2,8
Yanvar	1	2,8	1,2	0,6	0,5	0,4	4,5	7,1	5,7	1,8	4,8	3,1
	2	3,0	1,7	1,1	1,0	0,8	4,4	7,0	6,0	2,6	5,7	3,0
	3	3,8	2,6	1,7	1,4	1,3	4,9	7,6	6,6	3,8	6,9	3,1
Fevral	1	3,2	2,0	1,0	0,7	0,5	4,5	7,0	6,1	4,0	7,1	3,1
	2	4,2	2,8	1,9	1,7	1,6	5,7	8,0	7,3	3,3	6,4	3,1
	3	6,1	4,0	3,2	2,5	2,6	7,0	9,6	9,1	4,8	8,0	3,2
Mart	1	8,5	6,9	5,6	4,9	4,9	9,9	12,3	11,8	6,5	9,7	3,3
	2	10,4	8,4	7,1	6,6	6,9	12,2	14,3	13,9	8,1	11,8	3,7

	3	12,6	10,5	9,3	8,7	9,3	14,1	16,3	16,0	10,3	13,9	3,6
Aprel	1	13,4	11,0	9,7	8,9	10,0	15,0	17,2	16,8	10,8	14,8	4,0
	2	15,9	13,5	12,2	11,3	13,3	18,2	20,0	19,5	13,2	17,7	4,5
	3	18,0	15,0	13,4	12,5	15,1	20,2	22,4	21,8	14,7	19,9	5,1
May	1	20,7	17,7	15,9	15,0	18,4	23,7	25,7	24,9	17,3	23,2	5,8
	2	21,8	18,6	16,8	16,2	19,6	24,2	26,0	25,5	18,4	23,8	5,5
	3	23,9	19,8	17,6	16,5	20,6	26,1	28,1	28,0	19,5	25,7	6,2
Iyun	1	26,2	21,7	19,4	18,3	22,9	28,1	30,5	29,9	21,4	27,9	6,5
	2	28,2	23,2	20,9	19,6	24,1	29,9	32,2	32,0	23,2	29,9	6,7
	3	28,8	24,1	21,7	20,4	24,9	30,8	32,9	32,6	23,8	30,3	6,5
Iyul	1	29,7	24,7	22,1	20,6	25,6	31,6	34,1	33,8	24,3	31,3	7,0
	2	30,0	25,0	22,7	21,2	25,9	32,2	34,7	34,3	24,7	31,8	7,0
	3	29,2	25,2	22,9	21,5	25,1	31,4	34,0	33,5	24,7	31,0	6,3
Avgust	1	29,0	24,6	22,0	20,7	25,0	31,5	34,0	33,5	24,1	31,0	6,9
	2	27,3	23,3	20,8	19,5	23,0	30,4	33,2	32,6	22,7	29,8	7,1
	3	25,1	22,0	19,7	18,0	21,1	28,4	31,3	30,6	21,2	27,8	6,6

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki tungi va kunduzgi kuzatuv muddatlari orasidagi haroratlar amplitudasi kuz oylarida 3,1º÷6,4ºC, qish oylarida 2,9º÷3,2ºC, bahor oylarida 3,3º÷6,2ºC, yoz oylarida 6,3º÷7,1ºC oralig‘ida tebranib turadi.

Xulosa

Umuman, bahor va kuz oylarida kechki muddatlarda havo haroraratining keskin o‘zgarishi kuzatilmaydi. Kuzatish muddatlari orasida havo haroratning keskin ko‘tarilishi yoz oylarida kuzatiladi. Buning asosiy sababi, Quyoshning nur sochib turish davomiyligining oylar bo‘yicha taqsimotining turlichaligidir. Kuzatuv muddatlari orasidagi haroratlar farqi mart-aprel va noyabr kam farq qilsa, may oyidan oktyabr oyining ikkinchi o‘nkunligigacha farqlar sezilarli.

Ushbu tadqiqot natijasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlardan xalq xo‘jaligiga gidrometeorologik xizmat ko‘rsatishda va talabalar o‘quv jarayonida foydalanish

mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Агроклиматические ресурсы Самаркандской и Джизакской области. — Л.: Гидрометеоиздат, 1976. — 206 с.
2. **Муминов Ф. А., Абдуллаев Х. М.** Агроклиматические ресурсы Республики Узбекистан. — Ташкент: САНИГМИ, 1997. — 178 с.
3. Гидрометеорологик станция ва постларга йўриқнома. 11-нашр. Станция ва постларда агрометеорологик кузатувлар. 1-қисм: Асосий агрометеорологик кузатувлар. — Тошкент, 2009. — 325 б.
4. **Abdullayev A. Q., Arg‘inboyev H., Abdullayev H. U.** Fizika va agrometeorologiya: darslik. — Toshkent, 2015. — 480 b.
5. **Abdullayev A. K., Xolbayev G. X., Safarov E. Yu.** Agrometeorologiyada munosabatli tenglamalarni topishda matematik statistikani qo‘llash, EHM va geografik axborot tizimlaridan foydalanish uchun ko‘rsatma. — Toshkent, 2009. — 149 b.
6. **Abdullayev A. Q., Xolbayev G. X., Ro‘ziyeva M. B., Sattorov M. M.** Samarqand va Jizzax viloyatlarida havo haroratining o‘zgarishi // GMITI ilmiy to‘plami. — 2013. — № 7 (262). — B. 99–105.
7. **Eshmirzayev D. R.** Jizzax va Samarqand viloyatlarida turli muddatlarda havo harorati va tuproq yuzasi haroratlarining o‘zgarishini baholash // O‘zbekistonda iqlim o‘zgarish muammolarini ta’limga integratsiya qilish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2024-yil 23–24-may. — B. 84–88.
8. **Eshmirzayev D., Axmuratova B. X.** Jizzax MSdagi o‘rtacha havo haroratining yillararo o‘zgarishini tadqiq qilish // O‘zbekiston Milliy universiteti talabalar va ilmiy-tadqiqotchilarining ilmiy konferensiyasi materiallari. — Toshkent, 2022. — B. 102–103.

9. **Xolbayev G. X., Egamberdiyev H. T., Quziyev J., Eshmirzayev D. R.** Transchegaraviy hududlarda termik resurslarning davriy o‘zgarishini baholash (Jizzax va Sirdaryo viloyatlari misolida) // Markaziy Osiyo va qo‘shni mintaqalardagi transchegaraviy hududlar: hamkorlik imkoniyatlari va muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. II qism. — Samarqand, 2022-yil 5–6-may. — B. 142–146.
10. **Eshmirzayev D., Xolbayev G.** Turli muddatlarda havo haroratining o‘zgarishi (Sirdaryo meteorologik stansiyasi misolida) // Iqlim o‘zgarishi sharoitida arid hududlar suv resurslari: muammolar va ularning yechimlari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2023-yil 20-oktabr. — B. 69–73.
11. **Kholbaev G., Egamberdiev Kh., Kuziev J., Kazakbaeva A., Eshmirzaev D., Kholbaeva K., Babajanova G.** The Effect of Air Temperature and Relative Humidity to Winter Wheat Growth during Vegetation Period in Uzbekistan // Nature and Science. — 2022. — Vol. 20, № 4. — P. 47–55. — URL: http://www.sciencepub.net/nature — DOI: 10.7537/marsnsj200422.06.

O‘ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZM KO‘RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Esonboyev Baxodir Bakir o‘g‘li

O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi

Annotatsiya. *Mazkur tezisda ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion yondashuvlar asosida O‘zbekistonda barqaror turizm ko‘rsatkichlarini shakllantirishning ahamiyati yoritiladi. Barqaror turizm iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik muvozanatni saqlash hamda ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashda muhim omil*

hisoblanadi. Tadqiqotda turizm sohasida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Barqaror turizm ko‘rsatkichlarini baholashda zamonaviy statistik tahlil va monitoring usullaridan foydalanish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, hududiy turizm salohiyatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati yoritiladi. Raqamli platformalar orqali turizm xizmatlari sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Tezisda barqaror turizmni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining iqtisodiy ahamiyati ochib beriladi. Tezis natijalari turizm sohasini barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *barqaror turizm, innovatsiya, turizm iqtisodiyoti, ilm-fan, raqamli texnologiyalar.*

Аннотация: *В данном тезисе рассматривается значение формирования показателей устойчивого туризма в Узбекистане на основе развития науки и инновационных подходов. Устойчивый туризм является важным фактором повышения экономической эффективности, сохранения экологического баланса и обеспечения социального развития. В исследовании анализируются вопросы формирования системы экономических, социальных и экологических показателей в сфере туризма. Обосновывается необходимость использования современных методов статистического анализа и мониторинга при оценке показателей устойчивого туризма. Также раскрывается значение внедрения инновационных технологий в повышении туристического потенциала регионов. Особое внимание уделяется вопросам повышения качества туристических услуг и эффективности управления посредством цифровых платформ. В тезисе показана экономическая значимость сотрудничества государственного и частного секторов в развитии устойчивого туризма. Результаты тезиса направлены на разработку научно-практических рекомендаций по обеспечению устойчивого развития туристической отрасли.*

Ключевые слова: *устойчивый туризм, инновация, экономика туризма, наука, цифровые технологии.*

Annotation. *This thesis highlights the importance of forming sustainable tourism indicators in Uzbekistan based on scientific progress and innovative approaches. Sustainable tourism is a key factor in enhancing economic efficiency, maintaining ecological balance, and ensuring social development. The study examines the formation of economic, social, and environmental indicators in the tourism sector. The necessity of using modern statistical analysis and monitoring methods for evaluating sustainable tourism indicators is substantiated. Furthermore, the significance of implementing innovative technologies to enhance regional tourism potential is discussed. Special attention is given to improving the quality of tourism services and ensuring management efficiency through digital platforms. The thesis also reveals the economic importance of cooperation between the public and private sectors in developing sustainable tourism. The results of the study contribute to the development of scientific and practical recommendations aimed at promoting the sustainable growth of the tourism industry.*

Key words: *sustainable tourism, innovation, tourism economy, science, digital technology.*

Asosiy qism. Barqaror turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u turizm faoliyatini uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi.[1] Ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion yondashuvlar barqaror turizmni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Turizm iqtisodiyoti nuqtai nazaridan barqarorlik daromadlar barqarorligi, resurslardan oqilona foydalanish va hududiy rivojlanishni ta’minlash bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbekistonda turizm sohasining jadal rivojlanishi barqaror turizm ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mamlakatda turizmning iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lib, uning rivoji yangi ish

[1] UNWTO. Sustainable Tourism – Global Overview. Madrid: World Tourism Organization, 2022.

o‘rinlari yaratish, hududlar infratuzilmasini yaxshilash va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turizm resurslaridan foydalanishda ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.[2] Barqaror turizm ko‘rsatkichlari, asosan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlarni qamrab oladi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar turizm daromadlari, bandlik darajasi va investitsiyalar hajmini ifodalasa, ijtimoiy ko‘rsatkichlar aholining turizm jarayonlaridagi ishtiroki, xizmatlar sifati va yashash darajasiga ta’sirini aks ettiradi. Ekologik ko‘rsatkichlar esa tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, atrof-muhitga yuklama va ekologik muvozanatni saqlash bilan bog‘liq jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur ko‘rsatkichlarni baholashda zamonaviy statistik tahlil va monitoring usullaridan foydalanish barqaror turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy yondashuv asosida shakllantirilgan monitoring tizimlari turizm sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Bu esa turizm faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlar barqaror turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli platformalar orqali turizm xizmatlarini boshqarish, turistik oqimlarni tartibga solish va xizmatlar sifatini oshirish mumkin. Geografik axborot tizimlari va raqamli monitoring vositalari hududiy turizm resurslaridan oqilona foydalanish hamda ekologik yuklamani nazorat qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida barqaror turizmni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi va turizm resurslarining xilma-xilligi ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.[3] Davlat tomonidan turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar va dasturlar, shuningdek, xususiy sektor ishtirokining kengayib borayotgani barqaror turizm ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.

1-jadval:

[2] OECD. Tourism and Local Communities: Social Impact Assessment. Paris: OECD Publishing, 2020.
[3] Sobirov, I. Tourism Resource Management in Uzbekistan: Environmental Perspective. Tashkent: Nature & Tourism, 2020.

O‘zbekistonda barqaror turizm ko‘rsatkichlari (2025 yil prognozi)[4]

Ko‘rsatkichlar guruhi	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	2025-yil prognozi	Barqarorlikdagi ahamiyati
Iqtisodiy	Turizm xizmatlaridan tushgan daromad	mlrd so‘m	15 000	Turizmning iqtisodiyotga qo‘shgan hissasini baholaydi
	Turizm sohasida band aholi ulushi	%	4,5	Yangi ish o‘rinlari va ijtimoiy barqarorlikni ko‘rsatadi
	Turizmga yo‘naltirilgan investitsiyalar	mlrd so‘m	3 200	Soha rivojlanishining moliyaviy asosini belgilaydi
Ijtimoiy	Mahalliy aholining turizmda ishtiroki	%	60	Aholi farovonligi va inklyuziv rivojlanishni aks ettiradi
	Turizm xizmatlaridan qoniqish darajasi	ball (1–5)	4,2	Xizmatlar sifati va ijtimoiy ta’sirni baholaydi
	Turizm orqali yaratilgan ish o‘rinlari	ming kishi	85	Hududiy ijtimoiy rivojlanishni ko‘rsatadi
Ekologik	Suv resurslaridan	m³	12 500	Ekologik yuklama va resurslar

[4] Muallif ishlanmasi asosida.

foydalanish darajasi			barqarorligini baholaydi
Chiqindilarni qayta ishlash ulushi	%	45	Atrof-muhit muhofazasini ifodalaydi
Ekologik standartlarga rioya etilishi	%	78	Barqaror turizm talablariga moslikni ko‘rsatadi

Ushbu jadvalda O‘zbekistonda barqaror turizm ko‘rsatkichlari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlar bo‘yicha raqamli prognoz bilan taqdim etilgan. Ko‘rsatkichlar turizm sohasining barqaror rivojlanish darajasini o‘lchash, monitoring qilish va ilmiy asosda qarorlar qabul qilish imkonini beradi.[5]

Shuningdek, barqaror turizmni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik investitsiyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, turizm sohasining raqobatbardoshligi oshib, uning milliy iqtisodiyotdagi ulushi mustahkamlanadi. Umuman olganda, ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalar asosida barqaror turizm ko‘rsatkichlarini shakllantirish O‘zbekistonda turizm iqtisodiyotining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv turizm sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. **UNWTO.** Sustainable Tourism – Global Overview. — Madrid: World Tourism Organization, 2022.
2. **Sharipov M., Tursunov R.** Tourism Economy in Uzbekistan: Current Trends and Prospects. — Tashkent: Economics Press, 2021.

[5] Mirzaev, S. ICT Applications in Uzbek Tourism Sector. Tashkent: IT & Tourism Journal, 2022; 5(2): 12–25.

3. **Buhalis D., Law R.** Digital Tourism: Technologies and Innovations for Sustainable Growth // Journal of Tourism Futures. — 2021. — Vol. 7, No. 1. — P. 23–37.
4. **OECD.** Tourism and Local Communities: Social Impact Assessment. — Paris: OECD Publishing, 2020.
5. **World Bank.** Uzbekistan: Tourism Sector Development Indicators. — Washington, DC: World Bank, 2023.
6. **Sobirov I.** Tourism Resource Management in Uzbekistan: Environmental Perspective. — Tashkent: Nature & Tourism, 2020.
7. **Mirzaev S.** ICT Applications in Uzbek Tourism Sector // IT & Tourism Journal. — 2022. — Vol. 5, No. 2. — P. 12–25.

LANDSHAFT ARXITEKTURASIDA DENDROREJALASHTIRISHNING AHAMIYATI

Janizaqov Abduvaxob Esirgapovich
Jizzax politexnika instituti
Irgasheva Xurshida Valievna
Jizzax shahar 1-sonli politexnikum
Berdieva Gulnora Xolmurodovna
Jizzax shahar 1-sonli politexnikum

Annotatsiya. *Mazkur maqolada landshaft arxitekturasida dendrorejalashtirishning ahamiyati yoritilgan. Dendrorejalashtirishning ekologik, funksional va estetik vazifalari, dendrologik hujjatlarning turlari hamda ularni tuzish bosqichlari tahlil qilingan. Ilmiy asoslangan dendroreja shahar muhitining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil ekani asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *landshaft arxitekturasi, dendrorejalashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, shahar ekologiyasi, barqaror rivojlanish.*

Abstract. *This article examines the importance of dendroplanning in landscape architecture. The ecological, functional, and aesthetic aspects of dendrological planning, as well as the structure and stages of dendroplan development, are analyzed. The study highlights the role of scientifically based dendroplanning in ensuring sustainable urban development and improving the quality of the living environment.*

Keywords: *landscape architecture, dendroplanning, urban greening, urban ecology, sustainable development.*

Аннотация*. В статье рассматривается значение дендропланирования в ландшафтной архитектуре. Проанализированы экологические, функциональные и эстетические аспекты дендрологического проектирования, а также структура и этапы разработки дендроплана. Обоснована роль научно обоснованного дендропланирования в устойчивом развитии городской среды.*

Ключевые слова: *ландшафтная архитектура, дендропланирование, озеленение, городская экология, устойчивое развитие.*

Kirish. Zamonaviy shaharsozlikda barqaror rivojlanish, ekologik muvozanatni ta’minlash hamda aholining yashash sifatini yaxshilash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda landshaft arxitekturasi muhim o‘rin egallab, uning asosiy tarkibiy qismlaridan biri dendrorejalashtirishdir. Dendrorejalashtirish hududlarda daraxt va buta o‘simliklarini ularning biologik, ekologik hamda estetik xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy asosda joylashtirish va rejalashtirish jarayonini ifodalaydi.

Asosiy qism. Dendrorejalashtirish landshaft loyihalash jarayonida daraxt va buta turlarini tanlash, ularni joylashtirish hamda kelgusidagi rivojlanishini prognozlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasidir. Ushbu jarayonning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- hududning ekologik holatini yaxshilash;

- shahar mikroiqlimini me’yorlashtirish;
- landshaft kompozitsiyasining estetik va fazoviy yaxlitligini ta’minlash;
- yashil hududlardan samarali va oqilona foydalanish.



Daraxt va butalar shahar ekologiyasining muhim komponenti bo‘lib, ular havoni tozalash, chang va zararli gazlarni yutish, shovqin darajasini pasaytirish kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Ilmiy asosda joylashtirilgan yashil ekinlar shahar “issiq oroli” effektini kamaytiradi, tuproq eroziyasining oldini oladi va biologik xilma-xillikni saqlashga xizmat qiladi.

Ko‘kalamzorlashtirish jarayonida yog‘ochli o‘simliklarning biologik xususiyatlari, atrof-muhit omillari bilan o‘zaro bog‘liqligi, antropogen ta’sirlarga bo‘lgan reaksiyasi hamda ularni ko‘paytirish va parvarishlash usullarini bilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, bugungi kunda dendrologiya fanida dekorativ dendrologiya alohida ixtisoslashgan yo‘nalish sifatida rivojlanib bormoqda. U yashil qurilishda qo‘llaniladigan manzarali daraxt va butalarning morfologiyasi, sistematikasi hamda dekorativ xususiyatlarini o‘rganadi.

Dendroreja — bu hududni ko‘kalamzorlashtirish yoki landshaft dizaynini tashkil etish jarayonida ishlab chiqiladigan muhim loyiha-hujjat bo‘lib, unda mavjud va rejalashtirilgan yashil ekinlarning joylashuvi grafik va matnli shaklda aks

ettiriladi. Dendrologik loyiha chizmasida barcha daraxt va butalar belgilanib, ularga mos hisob qaydnomasi tuziladi.



Amaldagi qurilish me’yorlari va qonunchilik talablariga muvofiq, xususiy, jamoat va savdo hududlarini obodonlashtirishdan oldin dendrologik hujjatlarni tayyorlash majburiy hisoblanadi. Ayniqsa, muhandislik kommunikatsiyalari joylashgan hududlarda yoki qimmatli daraxtlar mavjud bo‘lgan maydonlarda dendroreja loyiha ishlarini kelishishda asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Dendroreja ikki asosiy qismdan iborat:

- **Yer uchastkasi chizmasi** (odatda 1:500 masshtabda), unda o‘simliklar maxsus belgilar yordamida ko‘rsatiladi;
- **Hisob qaydnomasi,** unda har bir daraxt va butaning nomi, yoshi, diametri, balandligi va holati aks ettiriladi.

Dendrorejalashtirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi: hududni joyida o‘rganish, mavjud o‘simliklarni belgilash, kesilishi yoki ko‘chirib o‘tkazilishi rejalashtirilgan ekinlarni ajratish hamda yangi ekiladigan o‘simliklar assortimentini shakllantirish. Ushbu jarayonda yo‘l qo‘yilgan xatoliklar me’yorlardan oshib ketgan taqdirda, hujjat qayta ishlash uchun qaytarilishi mumkin.

Sifatli tuzilgan dendroreja:

- muhandislik kommunikatsiyalariga zarar yetish xavfini kamaytiradi;
- qimmatli daraxt va butalarning saqlanishini ta’minlaydi;
- ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amaldagi me’yorlar asosida rejalashtirish imkonini beradi;
- yashil ekinlarning rivojlanishini oldindan prognozlash imkonini yaratadi.

Dendrorejalashtirish landshaft kompozitsiyasining asosini tashkil etib, o‘simliklarning rang-barangligi, balandligi, shakli va fasliy o‘zgarishlari orqali hududning badiiy qiyofasini shakllantiradi. Shuningdek, yashil ekinlar yordamida shahar hududlarini funksional zonalash, ya’ni transport, piyodalar, dam olish va turar-joy hududlarini ajratish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, dendrorejalashtirish landshaft arxitekturasida ekologik, funksional va estetik muvozanatni ta’minlovchi muhim rejalashtirish vositasidir. Ilmiy asoslangan dendroreja shaharlarning barqaror rivojlanishiga, yashash muhitining sifatini oshirishga va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Booth N. K.** Basic Elements of Landscape Architectural Design. — 2012.
2. **Motloch J. L.** Introduction to Landscape Design. — 2001.
3. **Shukurov R.**, **Karimov A.** Landshaft arxitekturasi asoslari. — Toshkent, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Yashil makon” umummilliy loyihasi materiallari.

O‘ZBEKISTON TOPONIMLARI GEOGRAFIK MAKONLARINING NOMLARINI BELGILASH MUAMMOSI

Karshibayeva Lolaxon Klichyevna

Elmuratova Dilfuza
Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya:*Maqolada geografik joy nomlarini, shuningdek geografik obyektlarning nomlanishi va qayta nomlash bilan bog‘liq hukumat qarorlari, qonunlari hamda Prezident farmonlari doirasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, toponimlar va joy nomlarining shakllanishi, ularning vujudga kelish jarayoni hamda mazkur jarayonlarni shakllantiruvchi omillar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *toponim, joy nomlari, Xovos, Oykonim, Sirdaryo, Boyovut tumani , daryo.*

Аннотация: *В статье анализируется выполнение задач, установленных нормативно-правовыми актами, законами и указами Президента в области наименования и переименования географических объектов, а также географических местностей. Кроме того, всесторонне исследуется формирование топонимов и географических названий, процесс их возникновения, а также факторы, влияющие на эти процессы.*

Ключевые слова: *топоним, название местности, Ховос, Ойконим, Сирдарья, Баяутский район, река.*

Abstract: *This article provides a systematic analysis of the implementation of tasks established by normative legal acts, laws, and presidential decrees in the field of naming and renaming geographical objects and locations. In addition, the processes of the formation of toponyms and geographical names, their emergence, and the factors influencing these processes are thoroughly examined.*

Keywords:*toponym, place name, Khavos, oikonym, Syrdarya, Boyovut, river.*

KIRISH. So‘nggi yillarda respublikamizdagi geografik joy nomlarini o‘rganish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, geografik joy nomlari va qayta nom berish masalalariga aloqador bo‘lgan ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilinmoqdi. Binobarin, 2011-yilning 12-oktyabrida “Geografik obyektlarning

nomlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganidan so‘ng, 2012-yilning 16-oktyabrida “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” gi Qonunga muvofiq geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 295-sonli qarori e’lon qilindi. Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komisiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi[1].

Geografik obyektlarning nomlari hududni kartografiya qilish, toponimik tadqiqotlar o‘tkazish vaqtida, shuningdek geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida qator takliflar berib borilmoqda.

Geografik obyektlar - Yerning hozirda yoki o‘tmishda mavjud bo‘lgan hamda muayyan o‘rnashgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun’iy bo‘lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma’muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko‘chalar, ko‘chalar, maydonlar, bog‘lar, xiyobonlar); transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi obyektlari (temir yo‘l stansiyalari, avtostansiyalar, metropoliten stansiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko‘priklar, razyezdlar, yo‘llar, kanallar, suv omborlari, to‘g‘onlar, dambalar); tabiiy obyektlar (daryolar, ko‘llar, muzliklar, tekisliklar, tog‘lar, tog‘ tizmalari, g‘orlar, cho‘llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag‘irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi obyektlar kiradi. Umuman olganda bir joyni ikkinchisidan, bir jilg‘ani boshqa bir jilg‘adan, bir ko‘chani boshqa bir ko‘chadan, tog‘- adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-birlaridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o‘ylab chiqgan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni geografiyani oraliq fanlar tarmog‘i toponimika fan o‘rganadi[2].

Shuni ta‘kidlash lozimki, O‘rta Osiyo sharoitida azaldan inson suv manbalarga yaqin joyni o‘ziga yashash makoni sifatida tanlagan. Chunki suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etgan. Binobarin, suv obyektlarini bildiruvchi nomlar sekin - asta ular yashagan joylarni, maskanlarni ham ifoda etgan. Gidronimlarning boshqa geografik obyektlarga nom bo‘lib o‘tishi xodisasi bor hayotiy voqelik sanaladi [3].

Sirdaryo viloyati toponimiyasi tarkibida Mirzacho‘lni o‘zlashtirish bilan bog‘lik va bunyodkor halqimizni qo‘lga kiritgan zafarlarini aks etgan nomlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun, S.Qorayevning yozishicha, Oqoltin, Paxtazor, Paxtaobod, Paxtachi, Paxta-dala kabi sun’iy nomlar “bayroq” qilib olingan. Mirzacho‘lni o‘zlashtirish natijasida paydo bo‘lgan geografik obyektlarning nomiga qarab, mahalliy aholini qayerdan ko‘chib kelganlarini aniq bilsa bo‘ladi. Ular qatoriga Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Nurota, Zomin, Forish, Baxmal kabi nomlarni kiritish mumkin. Viloyat xududida kam bo‘lsa xam tarixiy toponimlar uchraydi. Ularning asosiy qismi mintaqaning janubi-g‘arbiy tog‘oldi hududida joylashgan. Bunday nomlarga Xovos, Boyovut, Sardoba, Sho‘razak kabi nomlar misol buladi. Ular orasida Xovos nomi o‘zining qadimiyligi va jumboqligi bilan alohida ajralib turadi [4].

Orta Osiyodagi eng kuchli shamollardan biri Xovos shamoli nomi bilan yuritiladi. Xovos qadimiy shahar, u dastlab X asr arab geograf va sayyoxlari Istaxriy, Ibn Xavkal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. Xozirgi Xovos shahri 1899 yili chor Rossiyasi tomonidan Ursatevskaya temir yul stantsiyasi sifatida barpo etilgan. Tuman 1955 yildan - 1966 yilgacha Boyovut, 1966 yildan - 1975 yilgacha Yangiyer tumani nomi bilan yuritilgan. Tuman xududi asosan, viloyatning janubiy qismida joylashgan, relyefi notekis. Mutaxassislar tomonidan Xovos nomi turlicha talqin qilingan, ammo ular ishonarli emas va qo‘shimcha etimologik tadkikotlar talab kiladi.

E’tibor berib qarasangiz, joy nomlari asrlar osha yashab, ko‘p hollarda o‘tmish “guvohlari” sifatida tarixiy voqea-hodisa haqida “hikoya qilib beradi”. Sunggi vaktlarda, Xovos so‘zining etimologiyasi haqida quyidagi talqin ilmiy manbalardan

aniqlandi. Boburiylar hukmronligi davrida Hindistonda yashab ijod qilgan forsiyzabon shoir va olim Sirojiddin Alixon Orzuning (1689 - Agra, 1756 - Dexli) “Charogi xidoyat” lug‘atida maxalliy forsiy tilli halq xavos – so‘zini avom, xizmatkor ma’nosida qo‘llashini ta’kidlagan.

Viloyat oykonimlari arasida kam bo‘lsa ham ayrim etnooykonimlar uchraydi. Boyovut, Mirishkor, Nayman, Puchugoy, Uvoq, Tojikovul, Turkovul kabi aholi punktlari nomlari etnooykonimlarga misol buladi. Tuman nomi bulgan Boyovut viloyat hududidagi kam sonli etnonimlardan biridir. Boyovut tumani viloyatning sharqiy qismida, Mirzacho‘lning janubida joylashgan.

Rashiddinning yozishicha, qadimgi vaqtda boyovut ancha katta qabilalardan biri bo‘lgan va bir necha tarmoqqa bo‘lingan[5]. XIII-XIV asrlarda boyovutlarning katta bir qismi o‘zbek, turkman xalqlari tarkibiga kirib, ular bilan aralashib ketgan. Ayrim qo‘lyozma manbalarda boyovut qadimiy 92 bovli o‘zbek urug‘larining biri sifatida ko‘rsatilgan [6].

Hozirgi Sirdaryo nomi qachon paydo bo‘lganligi haqida Suyun Qorayev shunday yozgan: “Rim tarixchisi Pliniy (milodiy I asr) daryoni skiflar (saklar) Silis deydilar. Ba’zi olimlar Silis - Sir so‘zining o‘zginasi deb biladilar. Demak, Sirdaryo qadim zamondayoq o‘rta va yuqori oqimida Yaksart, quyi oqimida Silis (Sir) deb atalgan”. Ta’kidlash joizki, sir - “rang, bo‘yoq”, “sariq daryo”, “serob daryo”, “sirt daryo” degan ma’noni bildiradi degan xulosani noto‘g‘ri ekanligini X Xasanov alohida ta’kidlagan. Shu bilan birga, S.Qoraeyvning “bu azim daryo shu atroflarda yashagan sar (silis - sir) qabilasi nomi bilan atalgan deyish ancha haqiqatga yaqin”[2], degan fikriga ham qushilib bo‘lmaydi. Demak, daryo nomi qanday ma’noga ega degan savol hozirgacha javobsiz qolmoqda.

Xulosa ornida shuni aytishimiz mumkinki, Geografik joy nomlarini guruhlashtirish murakkab masala hisoblanadi, chunki geografik nomlar turlicha bo‘lib, ularni guruhlarga bo‘lish, har bir nomni til qoidalariga, tarixiy jihatdan paydo bo‘lishiga qarab tahlil qilish mushkul masaladir. Turli olimlar tomonidan toponimlarni turlicha guruhlashtirish taklif qilingan bo‘lsada, hanuzgacha yagona, sodda, mantiqiy to‘g‘ri bo‘lgan ilmiy klassifikatsiya ishlab chiqilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Lex.uz.** O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/uz/
2. **Qorayev S.** Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 5 b.
3. **Hakimov Q. M., Mirakmalov M. T.** Toponimika : darslik. – Toshkent, 2020. – 279 b.
4. **Egamqulov H. E., Sh Q. S.** Jizzax va Sirdaryo viloyati toponimlari // Экономика и социум. – 2022. – № 6-2 (97). – B. 67–70.
5. **Wikipedia.** Rashiduddin haqida maqola. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Rashiduddin

LANDSHAFTLARDA GEOEKOLOGIK VAZIYAT VA UNI BARQARORLASHTIRISH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Nasullayeva Kamola Sharofovna

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Global muammolar, kishilik jamiyati hayotining barcha tomonlarini, dunyo siyosatini, iqtisodini, davlatlararo va millatlararo munosabatlarni qamrab olmoqda. Keyingi vaqtda eng muhim global muammolardan biri – ekologik muammolar bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada Buxoro viloyati landshaftlarida sodir bo‘layotgan geoekologik vaziyatlar, muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, ularni oldini olishga doir tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *geoekologik vaziyat, landshaft, landshaftshunoslik, tabiiy resurs, landshaft dinamikasi, bashoratlash, geosistema, geoekologiya, ilmiy maktab, ilmiy markaz, antropogen landshaftlar, nazariy landshaftshunoslik, madaniy landshaft.*

Abstract: *Global problems encompass all aspects of human society, world politics, economics, and interstate and interethnic relations. Environmental issues have recently become one of the most important global challenges. This article analyzes the geoecological situation and problems arising in the landscapes of the Bukhara region. For their prevention, recommendations are provided too.*

Key words: *geoecological situation, landscape, landscape science, natural resources, landscape dynamics, forecasting, geosystem, geoecology, scientific school, scientific center, anthropogenic landscapes, theoretical landscape science, cultural landscape.*

Аннотация: *Глобальные проблемы охватывают все аспекты человеческого общества, мировой политики, экономики, межгосударственных и межэтнических отношений. В последнее время одной из важнейших глобальных проблем являются экологические проблемы. В данной статье анализируется геоэкологическая ситуация и проблемы, возникающие в ландшафтах Бухарского региона. Также даются рекомендации по их предотвращению.*

Ключевые слова: *геоэкологическая ситуация, ландшафт, ландшафтная наука, природные ресурсы, динамика ландшафта, прогнозирование, геосистема, геоэкология, научная школа, научный центр, антропогенные ландшафты, теоретическая ландшафтная наука, культурный ландшафт.*

Kirish. XX asrning 60-90 yillarida geografik tadqiqotlar amaliy geografik muammolar inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni, xususan tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni oqilona o‘zlashtirish, tabiiy boyliklardan samarali foydalanish masalalarini tadqiq qilishga qaratildi. Chunki, bu vaqtga kelib Orol, Orolbo‘yi, atrof muhitning, xususan qishloq xo‘jaligi hududlarida tabiatning ifloslanishi muammolari paydo bo‘lgan edi.

Asosiy qism. Buxoro viloyati landshaftlari ekologiyasi juda qadimdan boshlab mahalliy va boshqa ko‘plab shu sohaga qiziquvchi olimlar tomonidan o‘rganilib kelingan. Ya.M.Nosirov (1960), A.A.Yuryev., M.U.Umarov (1971), L.N.Babushkin (1972), A.S.Vishnyakov va boshqalar, (1978), I.I.Granitov (1964, 1967), va O‘zR FA Botanika instituti “Qizilqum cho‘l stansiyasi” I.F.Mamatov rahbarligidagi olimlarning xizmatlari katta bo’lgan.

Viloyat cho‘l-yaylov landshaftlarining umumiy xususiyatlari L.S.Berg (1913), R.I.Abolin (1929), N.L.Korjinevskiy (1960), V.M.Chetirkin (1960), P.G‘ulomov (1966), M.P.Petrov (1973), L.N.Babushkin va N.A.Kogay (1975), P.Baratov (1977), B.A.Fedorovich (1983), A.G.Boboyev (1995) asarlarida turli darajada o‘z ifodasini topgan. Bevosita viloyat hududi tabiiy resurslari va landshaftlariga tegishli bo‘lgan izlanishlar T.V.Zvonkova (1962), M.U.Umarov (1967), I.Q.Nazarov (1971-2007), Yu.B.Rahmatov (1984), U.N.Nurov (1990) va X.R.Toshovlar (2008) tomonidan olib borilgan.

Bu ishlarda Buxoro viloyatining landshaftlari, yer usti va osti suvlari, o‘simlik qoplami va hayvonot dunyosi, landshaftlar ekologiyasi, viloyatdagi ekologik muammolar hamda ularning yechimlari haqida so‘z yuritilgan. Katta hududlarda yerlarning o‘zlashtirilishi tuzlar migratsiyasini kuchaytirdi va landshaftlarga ta’sir ko‘rsatadi. Yangi ma’lumotlar asosida ushbu masalalarni yechishni, mohiyatini ochib va tushuntirib berish hozirgi kunning asosiy masalalari hisoblanadi. Tabiatdan foydalanish tamoyillarining buzilishi nafaqat atrof-muhitda o‘zgarishlarni sodir bo‘lishiga ta’sir etmay balki jamiyatda ham aks ta’sir shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda jamiyat tabiiy boyliklaridan qanchalik asoslangan holda foydalanishga qarab shunchalik naf ko‘radi. Bu jarayonda tabiiy muhitda turli darajada vaziyat tarkib topadi. Ana shunday hollarda vujudga kelgan ekologik vaziyatlarni o‘rganish amaliy ahamiyatga ega.

Landshaftlarda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan, qolaversa muammolaridan biridir. Chunki, biz landshaftlardan barcha sohada foydalanamiz. Viloyat landshaftlarining tabiiy

resurslari hozirgi kunda iqtisodiyotning turli maqsadlari yo‘lida tobora jadal sur’atlar bilan o‘zlashtirilib va foydalanib kelinmoqda.

Hozirgi kunda viloyatning yer maydoni 40,3 ming km^2 ni tashkil qiladi. Buxoro viloyati landshaftlaridan avtomobil, temir yo‘llari, elektr, radio, telekommunikatsiya tarmoqlari, neft va gaz quvurlari o‘tkazilgan bo‘lib, ulardan surunkali foydalanilmoqda[2,3]. Chorvani suv bilan ta’minlash maqsadida 30 dan ortiq artezian quduqlari qazilgan va chorvadorlar xizmatiga topshirilgan. Mazkur quduqlar atrofida nafaqat Buxoro viloyatining, balki butun mamlakatimizning faxri bo‘lgan Qorako‘l qo‘ylari boqiladi. Viloyat hududida neft - gaz qidiruv ishlari 1940-yillarda boshlangan bo‘lsa, bu maqsadli jarayon hanuzgacha davom etmoqda. Neft - gaz, qisman esa uran qazib olish bo‘yicha infratuzilma tarmoqlari yaratilgan. Amudaryo suvini Buxoro, Navoiy viloyatlariga yetkazib berish bo‘yicha Amu - Buxoro mashina kanalining bosh (magistral) qismi (1962-1975) hamda zovurlarning quyi qismi cho‘l zonasidan o‘tkazilgan, oqibatda cho‘llarga xos bo‘lmagan ko‘l, ko‘lmak va to‘qay landshaftlari paydo bo‘lgan.

Buxoro viloyatining landshaftlaridagi ekologik vaziyat va uni optimallashtirish, landshaftlarni resurs imkoniyatlarini o‘rganish, baholash va xaritalashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan yondashuv va tamoyillar nafaqat Buxoro viloyatida, balki boshqa viloyatlarimizda ham kelgusida olib boriladigan shu sohalardagi tadqiqotlar uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Viloyat landshaftlari ekologiyasini buzilishiga sabab bo‘layotgan omillardan biri tabiiy omillardir. Bular shamol, iqlim o‘zgarishi, sho‘rlanish, cho‘llashish va eroziya kabi omillardir. Ma’lumki, Buxoro viloyati hududi Orol dengiziga yaqin joylashgan. G‘arbiy shamollar natijasida Orol dengizining qurigan joylaridan havoga ko‘tarilgan changlar va boshqa kimyoviy birikmalar viloyat osmonida kuzatilgan. Bundan tashqari cho‘lda bo‘ladigan kuchli shamollar yalong‘och qumlarni osmonga ko‘tarib, xuddi yomg‘ir misol yog‘diradi. Natijada qishloq xo‘jalik ekinlarini “issiq urish” hodisasi ro’y beradi. Atmosfera ifloslanadi. Cho‘l zonasidagi geoekologik holatni shamollarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Issiq

va qurg‘oqchil iqlim va yoz mavsumidagi yarim yalong‘och, qaqragan yuzalar shamol eroziyasi va cho‘llanish jarayoni uchun qulay imkoniyatdir.

Shamollar bilan bir qatorda iqlim o’zgarishi va u bilan bog‘liq cho‘llashish, sho‘rlanish va boshqa omillar ham viloyatimiz ekologik holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Iqlim o‘zgarishi natijasida yog‘in miqdori yil sayin kamayadi, quyosh aktivligi oshib, yer yuzasiga tushayotgan nur energiyasi ko‘tariladi. Natijada eng avvalo o‘simlik va hayvonot dunyosi birinchilardan bo‘lib bu ta’sirni sezadi. Buxoro viloyati cho‘llarida yil sayin o‘simlik qoplamining siyraklashib borishi aynan iqlim o‘zgarishining oqibatidir. Viloyat landshaftlarida keyingi yillarda yuzaga kelayotgan tabiiy jarayon bu sho‘rlanishdir. Buxoro viloyatining markaziy qismi tuproqlarini o‘rgangan N.A.Butskov va Ya.M.Nosirovlar hududning 2,5 % maydonini sho‘rxoklardan iboratligini qayd qiladilar. Biroq, geografik nuqtai nazardan qaraganda sho‘rxoklar tabiiy geotizim sifatida cho‘l zonasida o‘ziga xos xususiyatlarga va xo‘jalik ahamiyatiga ega.

Tabiiy omillar bilan bir qatorda, landshaftlarga bo‘layotgan antropogen ta’sir tobora ortib bormoqda. Bu aholi sonini ko‘payishi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi [1]. Inson tomonidan katta-katta yer maydonlarining o‘zlashtirilishi hamda noto‘g‘ri sug‘orilishi oqibatida yerlarning sho‘rlanishi tobora ortib ketdi.

Kon qazish, aholi sonining ko‘payishi, chorva mollarini tartibsiz boqish, zamonaviy shaharsozlik, avtomobillarning ko‘payishi, sanoatning rivojlanishi, chiqindilar, xazonlarni yoqish, saksovulzorlarni o‘tin uchun kesib yuborilishi va boshqalar. Buxoro viloyatining ekologik xavfsizligi nuqtai nazaridan qaraganda, suv zaxiralarining, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug‘dirmoqda.

Suv resurslarining tobora kamayib, ularning sifati yomonlashib borishi, bozor munosabatlariga o‘tish davrida iqtisodiyotdagi va ekologiyadagi qiyinchiliklar munosabati bilan sug‘orishda ishlatiladigan suvlar sifatining hamda gidromeliorativ tizimlar texnik holati sifatining yomonlashuvi (ko‘p joylarda vertikal drenaj skvajinalarining ishdan chiqishi, yopiq gorizontal drenajlar, kollektor drenaj oqimlarini ekspluatatsiya qilish samaradorligining pasayishi va boshqalar),

sug‘oriladigan yerlar sho‘rlanishini doimo monitoring o‘tkazib turishning yo‘qligi bilan bog‘liq holda keyingi yillarda viloyatda tuproqlarning ikkilamchi sho‘rlanish jarayonining tezlashishi kuzatilmoqda.

Viloyatning geografik o‘rni, tabiiy omil va antropogen ta’sir tufayli vujudga kelgan quyidagi geoekologik xususiyatlarini qayd qilish lozim:

Mazkur hudud Zarafshon daryosining eroziya bazisi hisoblanadi. Havzaning qisman Qashqadaryoning yuqori qismidan kirib kelayotgan zovur va oqova suvlar tarkibidagi katta miqdordagi kimyoviy, bakteorologik moddalar asosan ushbu hududda qo‘nim topadi. Bu merosiy kimyoviy, bakteorologik ifloslanish hozir ham davom etmoqda;

Viloyat hududi janubiy cho‘llar zonasida joylashganligi tufayli insonni yashashi, faoliyati, hamda organik dunyo uchun qator noqulayliklarga ega (quyosh radiatsiyasining yuqoriligi, haroratning keskinligi, chang to‘zonli atmosfera, sho‘rlangan tuproqlarning ko‘pligi, kabilar);

Viloyat uchun asosiy suv manba Amu-Buxoro mashina kanali hisoblanadi. Uning suvi ho’plama nasoslar orqali hudud relyefi nishabligiga teskari bo‘lgan tomonga 100-125 metrgacha ko‘tarilib beriladi. Mazkur sug‘orma tizim landshaftlarning suv ostida qolishi, namiqishi botqoqlanishi, sho‘rlanishi kabi salbiy jarayonlarga sabab bo‘lib kelmoqda[4,5];

Ushbu hudud Orol dengizi ta’sir zonasida joylashgan. Viloyatning har gektar yeriga bir yilda 300 - 400 kg chang - tuz yog‘iladi, ularning 50 foizi Orol negiziga ega.

Kelgusida viloyat landshaftlaridan oqilona foydalanishda quyidagi tavsiyalar inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Buxoro viloyatidagi yangi yerlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra sug‘orma dehqonchilik hisobiga kiritilgan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish;

Cho‘l zonasidagi yaylovzorlardan pala-partish foydalanishni tugatish, yaylovlardan foydalanuvchilar ustidan nazorat ishlarini kuchaytirish;

Cho‘l hududida yo‘l tizimiga katta e’tibor berish, yo‘l atroflarida cho‘l hududida o‘sadigan daraxtlarni o‘stirish;

Atrof muhitni ifloslantiruvchi chiqindilarni kamaytirish, ekotizimlarni nobud bo‘lishini oldini olish;

Viloyat bo‘yicha kelgusida iqlimning quruqlashuvi, landshaftlarga ta’sir etuvchi antropogen yukni ortib borishi davom etadi, natijada landshaftlarning cho‘llanishi, biomahsuldorligi va genofondining kamayib borishi kuzatiladi. Bundan tashqari suvli landshaftlarning, ayniqsa tashlama ko‘llarning kimyoviy va bakteriologik ifloslanishi ortib boradi. Bu esa o‘z navbatida gidro va fitomelioratsiya ishlarini uzluksiz davom ettirishni, maxsus qo‘riqlanadigan maskanlar maydonini kamida 10 foizga (hozir 1,8%) yetkazishni, xalq tajribasidan oqilona foydalanishni, aholining ekologik savodxonligini yuksaltirib borishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Зокиров Ш. С.** Амалий ва антропоген ландшафтшунослик. — Тошкент, 1999.
2. **Назаров И. Қ., Аллаёров И. К.** Бухоро географияси. — Бухоро, 1994. — 57 б.
3. **Назаров И. Қ., Тошов Х. Р.** Ландшафтлар ресурсшунослиги: муаммолар ва таклифлар // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. — Тошкент, 2003. — Ж. 23. — Б. 18–19.
4. **Тошов Х. Р., Эргашева М. К., Рахимова Т. Г.** Амалий география: ўқув-услубий қўлланма. — Бухоро, 2011. — 212 б.
5. **Тошов Х. Р.** Чўл ландшафтлари ва уларнинг агроимкониятларидан самарали фойдаланиш (Бухоро вилояти мисолида): география фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. — Тошкент, 2008. — 26 б.

ALOHIDA TA’LIMGA EHTIYOJI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR UCHUN GEOGRAFIYA FANIDAN MOSLASHTIRILGAN O‘QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH VA TADBIQ ETISH *(Inklyuziv sinflarda aqliy rivojlanishida kechikishi bo‘lgan o‘quvchilar misolida)*

Saribayeva Gulnoza

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda inklyuziv sinflarda aqliy rivojlanishida kechikishi (ARK) bo‘lgan o‘quvchilar uchun geografiya fanidan moslashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tadbiq etishning ilmiy-metodik asoslari yoritiladi. Masala huquqiy-me’yoriy va pedagogik paradigmalarga tayangan holda (inklyuziv ta’lim huquqi, teng imkoniyat, o‘quv jarayonini shaxs ehtiyojiga moslashtirish) tahlil qilinadi. Geografiya mazmunini moslashtirishda Universal Design for Learning (UDL), differensial ta’lim, individuallashtirilgan ta’lim rejasi (ITR/IEP analogi), ko‘p modal taqdimot (vizual–taktik–amaliy) va formatif baholash yondashuvlari integratsiya qilinadi. Tezisda moslashtirishning komponentlari (maqsad–mazmun–jarayon–natija–baholash) hamda amaliy tatbiq algoritmi (diagnostika → moslashtirish dizayni → sinfda qo‘llash → monitoring → korreksiya) taklif etiladi. Kutilayotgan natijalar sifatida ARK bo‘lgan o‘quvchilarda bazaviy geografik savodxonlik, fazoviy tasavvur, kundalik hayotga yo‘naltirilgan xarita ko‘nikmalari va ijtimoiy integratsiya ko‘rsatkichlarining oshishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, moslashtirilgan o‘quv dasturi, geografiya ta’limi, aqliy rivojlanishida kechikish, UDL, differensial ta’lim, individuallashtirilgan ta’lim rejasi, formatif baholash.*

Abstract. *This thesis presents the scientific and methodological foundations for developing and implementing adapted geography curricula for students with delayed intellectual development (DID) in inclusive classrooms. The issue is*

examined through legal-regulatory and pedagogical paradigms (the right to inclusive education, equal opportunities, and the adaptation of the learning process to individual needs). In adapting geography content, the thesis integrates the Universal Design for Learning (UDL), differentiated instruction, an individualized learning plan (ILP/IEP analogue), multimodal instruction (visual–tactile–hands-on), and formative assessment approaches. The thesis proposes key components of adaptation (goals–content–process–outcomes–assessment) and an implementation algorithm (diagnostics → adaptation design → classroom application → monitoring → revision). Expected outcomes include improved basic geographic literacy, spatial thinking, everyday life–oriented map skills, and indicators of social integration among students with DID.

Keywords: *inclusive education, adapted curriculum, geography education, delayed intellectual development, UDL, differentiated instruction, individualized learning plan, formative assessment.*

Аннотация.*. В тезисе представлены научно-методические основы разработки и внедрения адаптированных учебных программ по географии для учащихся с задержкой интеллектуального развития (ЗИР) в инклюзивных классах. Проблема анализируется с опорой на правовые и педагогические парадигмы (право на инклюзивное образование, равные возможности, адаптация образовательного процесса к индивидуальным потребностям). При адаптации содержания географии интегрируются подходы Universal Design for Learning (UDL), дифференцированное обучение, индивидуальный образовательный план (аналог ИОП/IEP), мультимодальное обучение (визуально–тактильное–практическое) и формативное оценивание. В тезисе предложены компоненты адаптации (цели–содержание–процесс–результаты–оценивание) и алгоритм внедрения (диагностика → проектирование адаптации → реализация в классе → мониторинг → коррекция). В качестве ожидаемых результатов обосновано повышение базовой географической грамотности, развитие пространственного мышления, формирование картографических навыков, ориентированных на*

повседневную жизнь, а также улучшение показателей социальной интеграции учащихся с ЗИР.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, адаптированная учебная программа, преподавание географии, задержка интеллектуального развития, UDL, дифференцированное обучение, индивидуальный образовательный план, формативное оценивание.*

Kirish. Inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u “hamma uchun ta’lim” tamoyilini amaliy tizimga aylantirishni ko‘zlaydi. Xalqaro huquqiy asoslarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqi kamsitishsiz va teng imkoniyatlar asosida ta’minlanishi, ta’lim tizimi esa barcha darajalarda inklyuziv bo‘lishi belgilangan. Bu yondashuv BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida (24-modda) va unga doir sharhlarda inklyuziv ta’limni “alohida” emas, balki umumiy ta’lim tizimining ajralmas talabi sifatida talqin qiladi[6].

Geografiya fani inklyuziv sinf sharoitida alohida metodik yondashuvni talab qiladi. Chunki geografiya mazmuni ko‘p hollarda abstrakt kategoriyalar (fazoviy munosabatlar, masshtab, xarita proyeksiyasi, tabiiy jarayonlarning sabab-oqibat zanjiri) va ko‘p bosqichli tahlil operatsiyalariga tayanadi. Aqliy rivojlanishida kechikishi bo‘lgan o‘quvchilarda esa axborotni qayta ishlash tezligi pastroq bo‘lishi, ishchi xotira cheklanganligi, umumlashtirish va abstraksiyalash qiyinligi, vazifani bajarishda ko‘proq tayanch talab qilinishi mumkin. Shuning uchun “bir xil dastur–bir xil baholash” yondashuvi bu toifa o‘quvchilarda ta’lim natijasini pasaytirishi va inklyuziyaning mazmunan buzilishiga olib kelishi ehtimoli yuqori. UNESCO’ning inklyuziya bo‘yicha global hisobotlarida ham ta’lim tizimlari aynan o‘quv jarayonini

[6] **Convention on the Rights of Persons with Disabilities : adopted 12 December 2006 by resolution A/RES/61/106 [Electronic resource] / OHCHR (United Nations Human Rights).** – URL: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-persons-disabilities (accessed: 17.01.2026).

moslashtirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirmasa, inklyuzivlik formal tusda qolishi mumkinligi ta’kidlanadi[7].

Tadqiqot maqsadi va vazifalari.

Maqsad: inklyuziv sinflarda ARK bo‘lgan o‘quvchilar uchun geografiya fanidan moslashtirilgan o‘quv dasturi modelini ilmiy-metodik asosda ishlab chiqish va amaliy tatbiq mexanizmlarini taklif etish.

Vazifalar:

1. Inklyuziv ta’limning huquqiy va konseptual asoslarini geografiya fani kontekstida tahlil qilish[8].
2. ARK bo‘lgan o‘quvchilar uchun “moslashtirish” va “modifikatsiya” chegaralarini didaktik jihatdan aniqlashtirish.
3. Geografiya bo‘yicha moslashtirilgan dastur komponentlarini (o‘quv natijalari, mazmun, metod, resurs, baholash) UDL va differensial ta’lim asosida loyihalash[9].
4. Tatbiq etish algoritmini (diagnostika–rejalashtirish–o‘qitish–baholash–monitoring–korreksiya) ishlab chiqish.
5. Kutilayotgan natijalar va indikatorlar tizimini (akademik, funksional, ijtimoiy) shakllantirish.

Metodologik asoslar.

Tezis konseptual asos sifatida quyidagi yondashuvlarga tayangan:

(1) Huquqiy-me’yoriy paradigma. Salamanca bayonoti inklyuziv ta’limni umumta’lim maktabining moslashuvchanligi va barcha o‘quvchilarning ehtiyojiga javob berish qobiliyati bilan bog‘laydi[10]. BMT CRPD va 2016-yilgi Umumiy sharh

[7] UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education: all means all [Elektron resurs]. – Paris: UNESCO, 2020. – URL: https://www.unesco.org/gem-report/en/publication/2020-inclusion-and-education-all-means-all (murojaat sanasi: 17.01.2026).

[8] **Convention on the Rights of Persons with Disabilities : adopted 12 December 2006 by resolution A/RES/61/106 [Electronic resource] / OHCHR (United Nations Human Rights).** – URL: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-persons-disabilities (accessed: 17.01.2026).

[9] CAST. Universal Design for Learning Guidelines Version 2.2 (Graphic Organizer) [Elektron resurs]. – 2018. – URL: https://lincs.ed.gov/professional-development/resource-collections/profile-1050 (murojaat sanasi: 17.01.2026).

[10] UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education [Elektron resurs]. – Paris: UNESCO, 1994. – 47 p. – URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000098427 (murojaat sanasi: 17.01.2026).

(General Comment No.4) esa inklyuziv ta’limning tizimli islohotlar, o‘quv jarayonini moslashtirish va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari bilan ta’minlanishini talab qiladi[11].

(2) Universal Design for Learning (UDL). UDL tamoyillari barcha o‘quvchilarga bir xil “kirish yo‘li”ni emas, balki (a) taqdim etishning ko‘p usullari, (b) faollashtirish/motivatsiya, (c) faoliyat natijasini ifodalashning ko‘p variantlari orqali ta’limga kirish imkonini kengaytirishni nazarda tutadi[12].

(3) Differensial ta’lim. Tomlinson yondashuvi bo‘yicha o‘qituvchi mazmun (content), jarayon (process), mahsulot/natija (product) va o‘quv muhitini (learning environment) o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishi va o‘rganish profili asosida moslaydi[13].

(4) Individuallashtirilgan ta’lim rejasi (ITR/IEP analogi). Maxsus ehtiyojli o‘quvchi uchun yillik maqsadlar, qo‘llab-quvvatlash choralarini belgilash va progress monitoringni tizimlashtirish yondashuvi sifatida IEP konsepsiyasi metodik “tayanch” bo‘la oladi[14].

Shuningdek, inklyuziv sinflarda ID (intellectual disability) bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitishda o‘quv dasturini moslashtirish yetishmasligi asosiy to‘siqlardan biri ekanini ko‘rsatadigan sistematik sharhlar ham ushbu tezisning amaliy dolzarbligini kuchaytiradi[15].

Moslashtirilgan geografiya o‘quv dasturi modeli. Taklif etilayotgan model “4K” (komponent–ko‘nikma–kontekst–korreksiya) mantiqiga asoslanadi.

[11] UN Committee on the Rights of Persons with Disabilities. General comment No.4 (2016): Right to inclusive education.

[12] CAST. Universal Design for Learning Guidelines Version 2.2 (Graphic Organizer) [Elektron resurs]. – 2018. – URL: https://lincs.ed.gov/professional-development/resource-collections/profile-1050 (murojaat sanasi: 17.01.2026).

[13] Tomlinson C. A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. 2nd ed. (Sample chapters) [Elektron resurs]. – Alexandria, VA: ASCD, 2014. – 25 p. – URL: https://files.ascd.org/staticfiles/ascd/pdf/siteASCD/publications/books/differentiated-classroom2nd-sample-chapters.pdf (murojaat sanasi: 17.01.2026).

[14] U.S. Department of Education. A Guide to the Individualized Education Program (IEP) [Elektron resurs] / Office of Special Education and Rehabilitative Services. – July 2000. – 40 p. – URL: https://www.ed.gov/sites/ed/files/parents/needs/speced/iepguide/iepguide.pdf (murojaat sanasi: 17.01.2026).

[15] Oo Z. W., Kawai N. A Systematic Review of Inclusive Education for Students with Intellectual Disabilities // 特別支援教育実践センター研究紀要. – 2025. – № 23. – P. 73–85. – URL: https://csnerp.hiroshima-u.ac.jp/dl/CSNERP_23/CSNERP_23_08.pdf (murojaat sanasi: 17.01.2026).

1) O‘quv natijalarini moslashtirish (kompetensiya yadrosi). ARK bo‘lgan o‘quvchilar uchun geografiya natijalari “minimal yetarli” va “funksional” yadroga yo‘naltiriladi:

- **Fazoviy yo‘nalish:** chap-o‘ng, shimol-janub, “yaqin–uzoq”, maktab/mahalla maketi bo‘yicha orientatsiya;
- **Xarita savodxonligi (soddalashtirilgan):** belgilarni tanish, ranglar orqali ajratish, eng sodda masshtab g‘oyasi (“1 sm = … qadam” kabi);
- **Tabiiy jarayonlar (sabab–oqibatning qisqa zanjiri):** “yomg‘ir–daryo–sug‘orish”, “issiqlik–bug‘lanish–bulut”;
- **Atrof-muhit madaniyati:** tozalash, suvni tejash, chiqindi ajratish kabi kundalik hayotga tatbiq qilinadigan ekologik odatlar.

Bu yondashuv “akademik mazmun + funksional hayotiylik” balansini saqlaydi va inklyuziyaning ijtimoiy natijasini mustahkamlaydi (ishonch, moslashuv, jamoadorlik).

2) Mazmunni moslashtirish. Mazmun moslashtirish ikki darajada olib boriladi:

A. Moslashtirish: maqsad saqlanadi, kirish yo‘li o‘zgartiriladi. Masalan, “iqlim grafikini tahlil qilish” mavzusida murakkab grafik o‘rniga 3–4 belgili piktogramma va rangli shkaladan foydalaniladi; matn hajmi qisqaradi, asosiy atamalar soni cheklanadi.

B. Modifikatsiya: maqsad soddalashtiriladi. Masalan, sinf standarti “iqlim omillarini tizimli tahlil” bo‘lsa, ARK o‘quvchi uchun “issiq–sovuq, nam–quruq” dichotomiyasi bilan qiyosiy ajratish yetarli natija sifatida belgilanadi.

3) O‘qitish jarayonini moslashtirish. UDL asosida geografiya darslari quyidagicha dizayn qilinadi:

- **Ko‘p modal taqdimot:** globus, katta formatdagi xarita, piktogramma, video-fragment, real predmet (tuproq namunasi, toshlar) va amaliy tajriba (suv aylanishi maketi)[16].

[16] CAST. Universal Design for Learning Guidelines Version 2.2 (Graphic Organizer) [Elektron resurs]. – 2018. – URL: https://lincs.ed.gov/professional-development/resource-collections/profile-1050 (murojaat sanasi: 17.01.2026).

• **Bosqichma-bosqich tayanch (scaffolding):** “namuna → birgalikda bajarish → yarim mustaqil → mustaqil” ketma-ketligi, qisqa instruktsiya va tekshirish savollari.

• **Kichik vazifalar:** murakkab topshiriq 3–5 kichik qadamga ajratiladi; har qadamda tezkor qayta aloqa beriladi.

• **Kooperativ o‘qitish:** tengdosh yordamchisi (peer tutoring) va rollar bo‘linishi (xaritani ushlab turuvchi, belgini topuvchi, javobni aytuvchi) orqali ijtimoiy integratsiya kuchaytiriladi.

Differensial ta’lim nuqtai nazaridan o‘quvchi profili bo‘yicha “bir mavzu – turli darajadagi topshiriq” paketi tuziladi (A: tanish; B: qo‘llash; C: oddiy tahlil)[17].

4) Resurslarni moslashtirish (material va muhit).

• **Vizual tayanchlar:** rang kodlari, piktogrammalar, “kalit so‘z kartochkalari”, sinf devorida “xarita burchagi”.

• **Taktik materiallar:** plastilin/kinetik qum bilan relyef maketi, ko‘tarma-pasayma rel’yefni “qo‘l bilan” his qilish (sensor integratsiya).

• **Raqamli vositalar (soddalashtirilgan):** interaktiv atlaslar, 2–3 tugmali navigatsiya, “top–qo‘y–belgila” formatidagi mashqlar.

5) Baholashni moslashtirish (assessment adaptation). Baholashda formatif yondashuv ustuvor bo‘ladi: qisqa nazorat savollari, rubrika asosida kuzatish, portfel (portfolio), performans vazifalar (masalan, “maktabdan uyga yo‘l xaritasi”ni chizish). ARK o‘quvchilar uchun vaqt uzaytirilishi, javobni og‘zaki berish, rasm/komplektlash orqali ifodalash variantlari taqdim etiladi. Bunday individuallashtirilgan baholash logikasi IEP konsepsiyasidagi “o‘lchanadigan yillik maqsad–progress monitoring” tamoyili bilan uyg‘unlashadi[18].

Tadbiq etish algoritmi (amaliy mexanizm).

[17] Tomlinson C. A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. 2nd ed. (Sample chapters) [Elektron resurs]. – Alexandria, VA: ASCD, 2014. – 25 p. – URL: https://files.ascd.org/staticfiles/ascd/pdf/siteASCD/publications/books/differentiated-classroom2nd-sample-chapters.pdf (murojaat sanasi: 17.01.2026).

[18] U.S. Department of Education. A Guide to the Individualized Education Program (IEP) [Elektron resurs] / Office of Special Education and Rehabilitative Services. – July 2000. – 40 p. – URL: https://www.ed.gov/sites/ed/files/parents/needs/speced/iepguide/iepguide.pdf (murojaat sanasi: 17.01.2026).

1. **Diagnostika:** boshlang‘ich daraja (fazoviy orientatsiya, nutq/eshitish ko‘rsatkichlari, e’tibor barqarorligi, o‘qish-yozish) va oilaviy qo‘llab-quvvatlash resursi aniqlanadi.

2. **Individuallashtirilgan reja:** 3–5 ta yillik maqsad, choraklik mikro-maqsadlar, moslashtirish turlari va baholash indikatorlari belgilanadi[19].

3. **Dars dizayni:** UDL + differensial ta’lim asosida modul reja (mavzu, resurs, topshiriq darajalari, tayanchlar, baholash)[20].

4. **Sinfda tatbiq:** co-teaching (imkon bo‘lsa), tengdosh yordamchisi, mini-stansiyalar (learning stations).

5. **Monitoring va korreksiya:** har 2–4 haftada progress monitoring; natijaga qarab maqsad va metodlar qayta sozlanadi.

Sistematik sharhlarda aynan “moslashtirishning yetishmasligi” inklyuziv amaliyotdagi asosiy muammo sifatida ko‘rsatilgani uchun, ushbu algoritm moslashtirishni tizimlashtirishga xizmat qiladi[21].

Kutilayotgan natijalar va ilmiy-amaliy ahamiyat. Moslashtirilgan geografiya dasturi tatbiq etilganda quyidagi natijalar kutiladi:

- ARK o‘quvchilarda **bazaviy geografik savodxonlik** (xarita belgisi, yo‘nalish, oddiy taqqoslash)ning oshishi;
- **Fazoviy tafakkur** va real muhitda orientatsiya ko‘nikmalarining mustahkamlanishi;
- **Ta’limdagi ishtirok** (engagement) va darsga qatnashish barqarorligining ortishi;
- **Ijtimoiy integratsiya**: tengdoshlar bilan hamkorlik, sinf jamoasiga tegishlilik hissi;

[19] U.S. Department of Education. A Guide to the Individualized Education Program (IEP) [Elektron resurs] / Office of Special Education and Rehabilitative Services. – July 2000. – 40 p. – URL: https://www.ed.gov/sites/ed/files/parents/needs/speced/iepguide/iepguide.pdf (murojaat sanasi: 17.01.2026).

[20] CAST. Universal Design for Learning Guidelines Version 2.2 (Graphic Organizer) [Elektron resurs]. – 2018. – URL: https://lincs.ed.gov/professional-development/resource-collections/profile-1050 (murojaat sanasi: 17.01.2026).

[21] Oo Z. W., Kawai N. A Systematic Review of Inclusive Education for Students with Intellectual Disabilities // 特別支援教育実践センター研究紀要. – 2025. – № 23. – P. 73–85. – URL: https://csnerp.hiroshima-u.ac.jp/dl/CSNERP_23/CSNERP_23_08.pdf (murojaat sanasi: 17.01.2026).

• O‘qituvchida inklyuziv kompetensiya: dars dizayni, moslashtirish va formatif baholashni tizimli qo‘llash.

Bu natijalar inklyuziv ta’limning global konseptual talablari (teng imkoniyat, ishtirok, qo‘llab-quvvatlash) bilan mos keladi[22].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. BMT. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya: 24-modda (ta’lim). — OHCHR.
2. UN Committee on the Rights of Persons with Disabilities. General comment No. 4 (2016): right to inclusive education. — Refworld.
3. UNESCO. The Salamanca Statement and framework for action on special needs education. — 1994.
4. UNESCO. Global education monitoring report 2020: inclusion and education: all means all.
5. UNICEF. Inclusive education: understanding article 24 of the CRPD. — 2017.
6. CAST. Universal design for learning (UDL) guidelines. — Version 2.2, 2018.
7. **Tomlinson C. A.** The differentiated classroom: responding to the needs of all learners. — 2nd ed.
8. U.S. Department of Education. A guide to the individualized education program (IEP).
9. Inclusive education for students with intellectual disabilities: curriculum adaptations as a barrier (systematic review material).
10. Review of research on social studies instruction for students with intellectual disabilities. — 2024.
11. **Erkinov R.** Geography lessons in inclusive education (mahalliy kontekst).

[22] UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education: all means all [Elektron resurs]. – Paris: UNESCO, 2020. – URL: https://www.unesco.org/gem-report/en/publication/2020-inclusion-and-education-all-means-all (murojaat sanasi: 17.01.2026).

DEVELOPMENT OF A GIS PLATFORM FOR COMPREHENSIVE ANALYSIS OF SEISMICITY AND HYDROGEODYNAMIC PARAMETERS

Tajibayeva Nodira Ruzievna

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Saidova Sayyora Anvarovna

Institute of Hydrogeology and Engineering Geology

Durdona Naimjon kizi Sobirova

Institute of Hydrogeology and Engineering Geology

Zulkhumar Mukhtarovna Umarova

Institute of Hydrogeology and Engineering Geology

Abstract: *The study is devoted to the development and justification of the architecture of a geographic information system (GIS) designed for the integrated analysis of seismic activity and hydrogeodynamic (HGD) parameters.*

The aim of the study is to create an integrated digital environment that ensures the collection, storage, processing, spatio-temporal analysis, and visualization of heterogeneous data, including seismological catalogs, GPS monitoring results, and multiparametric time series of hydrogeological observations (groundwater levels, discharge rates, and chemical composition). Within the framework of the research, a modular architecture of the platform has been developed, comprising a database management block (Electronic HGD Database), an analytical module (for correlation and spectral analysis), and a cartographic module (for interactive visualization). The results demonstrate that integrating data within a unified GIS environment makes it possible to identify hidden spatio-temporal patterns and anomalies associated with earthquake preparation processes, as well as to promptly assess the geodynamic situation. The developed platform is an effective tool for

increasing the reliability of forecasting hazardous geodynamic phenomena and optimizing monitoring network.

Keywords: *GIS platform; seismicity; hydrogeodynamic parameters; hydrogeodynamic field; integrated analysis; geodynamic monitoring; earthquake forecasting; electronic database; spatio-temporal analysis.*

Annotatsiya*. Tadqiqot seysmik faollik va gidrogeodinamik (GGD) parametrlarni kompleks tahlil qilishga mo‘ljallangan geografik axborot tizimi (GIS) arxitekturasini ishlab chiqish va asoslashga bag‘ishlangan.*

Tadqiqotning maqsadi seysmologik kataloglar, GPS monitoring natijalari hamda gidrogeologik kuzatuvlarning ko‘p parametrli vaqt qatorlari (yer osti suvlari sathi, debitlar va kimyoviy tarkib)ni o‘z ichiga olgan turli xil ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, makon-vaqt tahlili va vizuallashtirishni ta’minlovchi yagona integratsiyalashgan raqamli muhit yaratishdan iborat. Tadqiqot doirasida platformaning modul arxitekturasi ishlab chiqildi, u ma’lumotlar bazasini boshqarish bloki (Elektron GGD ma’lumotlar bazasi), tahliliy modul (korrelyatsion va spektral tahlil uchun) hamda kartografik modul (interaktiv vizuallashtirish uchun)dan iborat.

Natijalar yagona GIS muhiti doirasida ma’lumotlarni integratsiyalash zilzilaga tayyorgarlik jarayonlari bilan bog‘liq yashirin makon-vaqt qonuniyatlari va anomaliyalarni aniqlash, shuningdek geodinamik holatni tezkor baholash imkonini berishini ko‘rsatdi. Ishlab chiqilgan platforma xavfli geodinamik hodisalarni bashorat qilish ishonchliligini oshirish va monitoring tarmog‘ini optimallashtirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *GIS platforma; seysmiklik; gidrogeodinamik parametrlar; gidrogeodinamik maydon; integratsiyalashgan tahlil; geodinamik monitoring; zilzilani bashorat qilish; elektron ma’lumotlar bazasi; makon-vaqt tahlili.*

Аннотация. *Исследование посвящено разработке и обоснованию архитектуры геоинформационной системы (ГИС), предназначенной для комплексного анализа сейсмической активности и гидрогеодинамических (ГГД) параметров.*

Целью работы является создание интегрированной цифровой среды, обеспечивающей сбор, хранение, обработку, пространственно-временной анализ и визуализацию разнородных данных, включая сейсмологические каталоги, результаты GPS-мониторинга и многопараметрические временные ряды гидрогеологических наблюдений (уровни подземных вод, расходы и химический состав). В рамках исследования разработана модульная архитектура платформы, включающая блок управления базами данных (Электронная база данных ГГД), аналитический модуль (для корреляционного и спектрального анализа) и картографический модуль (для интерактивной визуализации).

Результаты показывают, что интеграция данных в рамках единой ГИС-среды позволяет выявлять скрытые пространственно-временные закономерности и аномалии, связанные с процессами подготовки землетрясений, а также оперативно оценивать геодинамическую обстановку. Разработанная платформа является эффективным инструментом для повышения надёжности прогноза опасных геодинамических явлений и оптимизации мониторинговой сети.

Ключевые слова: *ГИС-платформа; сейсмичность; гидрогеодинамические параметры; гидрогеодинамическое поле; интегрированный анализ; геодинамический мониторинг; прогнозирование землетрясений; электронная база данных; пространственно-временной анализ.*

Introduction. The relevance of this study is driven by the need to enhance the effectiveness of seismic forecasting and geodynamic monitoring in seismically active regions, where variations in the hydrogeodynamic (HGD) field serve as sensitive indicators of the stress–strain state of the Earth’s crust.

The development of an integrated GIS platform that combines seismicity data with hydrogeodynamic field information is of critical importance for several reasons. Strategic integration of seismic and hydrogeodynamic datasets enables the identification of relationships between tectonic activity and changes in groundwater

systems, including filtration processes, groundwater levels, and hydrochemical composition, thereby improving the accuracy of seismic hazard assessment and forecasting. A unified digital platform provides the capability for multiparametric analysis and the rapid detection of correlations that cannot be revealed through isolated analysis of individual datasets.

Modern GIS technologies, combined with continuous data streams from seismological catalogs, GPS, InSAR, automated piezometric observations, and hydrochemical monitoring, offer advanced opportunities for the timely detection of anomalies, the development of early warning indicators, and the improvement of short- and medium-term forecasting of hazardous geodynamic phenomena [2].

The territory of Uzbekistan belongs to the Central Asian region, which is characterized by a complex geological structure and high levels of tectonic and seismic activity in the Earth's crust. Approximately 55% of the country's territory is potentially exposed to earthquakes with magnitudes greater than 5 ($M > 5$). Uzbekistan is both seismically active and hydrogeologically diverse, with intensive water use and significant risks of groundwater flooding and salinization. The implementation of an integrated GIS platform would enable local monitoring agencies and research institutions to enhance monitoring efficiency, reduce geo-environmental risks, and support evidence-based management decisions [10].

The rapid growth in automated sensors, satellite-based observations, cloud data storage, and advanced data analysis techniques—including Big Data analytics and machine learning—makes the development of such a platform technically feasible and economically justified. GIS tools provide powerful capabilities for data visualization, spatial analysis, and scenario-based modeling.

The proposed platform is intended to support: (i) assessment of seismic and hydrogeodynamic hazards; (ii) territorial planning and engineering design with consideration of groundwater and HGD conditions; (iii) rapid response to detected anomalies and emergency situations; and (iv) optimization of monitoring networks and investment allocation in observational infrastructure [2,3].

Existing systems are often focused exclusively on either seismological or hydrogeological data. There is currently no standardized methodological framework for integrating multiparametric time series, assessing correlations, and identifying precursors at the level of applied monitoring practice. This gap highlights a significant research and implementation challenge. Effective solutions are required for data exchange formats, metadata standards, calibration, and validation of heterogeneous data sources, including geodetic, hydrological, geochemical, and satellite observations. A GIS platform must therefore provide robust mechanisms for data quality control and the processing of missing or inconsistent observations.

Enhancing monitoring and forecasting systems contributes to the reduction of human casualties and economic losses, while increasing infrastructure resilience and strengthening food and water security. In this context, the development of a GIS platform for the integrated analysis of seismicity and hydrogeodynamic parameters is considered both timely and practically necessary. It bridges scientific research with applied risk management needs, providing a solid foundation for informed decision-making and for improving monitoring systems in Uzbekistan and other regions with similar geodynamic conditions.

2. Materials and Methods

Among the various approaches to addressing the stated research problem, hydrogeological methods occupy a prominent position, particularly in the context of monitoring the Earth's hydrogeodynamic (HGD) field. Groundwater levels were measured using both conventional observation techniques and, in selected cases, automated instruments for continuous monitoring of groundwater levels and temperature.

To assess the influence of seismotectonic processes on the groundwater levels regime, time series of groundwater levels variations were constructed. Earthquake events with epicenters located closest to the observation points were superimposed on these time series to analyze potential relationships between seismic activity and hydrogeodynamic responses. Information on seismicity within the

territory of Uzbekistan was obtained from the earthquake catalog compiled by the Institute of Seismology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

The primary objective of the study was to investigate the groundwater levels regime based on the оперативный (operational) collection and laboratory processing of regime observations, as well as the analysis of data obtained from automated groundwater level monitoring instruments. These efforts aimed to develop a dedicated database describing variations in the HGD field, thereby expanding the information base used for earthquake forecasting [4–6].

To derive seismic process parameters applicable to medium-term earthquake forecasting, a pattern recognition approach was employed. The developed GIS platform incorporates a wide range of earthquake forecasting criteria, including several original indicators proposed by the authors.

3. Results

Groundwater, as a medium encompassing both free and bound water within the Earth's subsurface, responds to all stress variations occurring in rock masses under the influence of external and internal factors. Consequently, groundwater systems act as sensitive indicators of geodynamic processes in the lithosphere, including those associated with the preparation and occurrence of strong earthquakes.

Hydrogeodeformational field monitoring was conducted with the objective of identifying earthquake precursors. Within the specialized regional monitoring network, groundwater level regimes were analyzed at six observation sites—Bukhara, Gazli, Nukus, Syrdarya, Karshi, and Tashkent. These observations focused on detecting spatio-temporal regularities in groundwater level variations at different seismic stages (pre-seismic, co-seismic, and post-seismic), depending on earthquake magnitude and epicentral location.

For observation sites located within seismically active areas of the Republic of Uzbekistan, a hydrogeodynamic database was developed using the Yandex Maps API. This database provides structured access to key information for each monitoring site, including: (i) hydrogeodeformational field parameters derived from

observations (geographic coordinates, absolute elevation, well depth, hydrogeological characteristics, and time-series plots); (ii) mean monthly and annual hydrogeodynamic indicators for a specified year; and (iii) long-term groundwater level time series for each observation well over the entire monitoring period.

Across the entire hydrogeodeformational field of the studied region, an automated information query database was established based on data input from observation points (Fig. 1). This system enables rapid retrieval of relevant information and supports continuous monitoring of seismic wells in the Republic of Uzbekistan, including their integration with mapped seismogenic zones. The platform allows real-time tracking of well locations, depths, groundwater levels, and other key parameters essential for geodynamic monitoring (Fig. 2).



Fig. 1. Location of seismic monitoring wells



Fig. 2. Spatial distribution of seismogenic zones in Uzbekistan

4. Conclusion. The study devoted to the development of a GIS platform for the integrated analysis of seismicity and hydrogeodynamic (HGD) parameters has successfully achieved its stated objectives and addressed all tasks related to the integration, analysis, and visualization of heterogeneous geodynamic data. The necessity of comprehensive data integration has been substantiated, and a modular GIS platform architecture has been developed. This architecture represents a robust and scalable framework comprising an electronic HGD database, a specialized analytical module, and an interactive web-based cartographic interface, enabling efficient data acquisition, storage, standardization, and management from diverse sources.

Within the platform, correlation, spectral, and spatio-temporal analysis methods have been implemented, allowing quantitative assessment of relationships between variations in HGD parameters—such as groundwater levels and hydrochemical composition—and changes in the seismic regime. The developed algorithms enable the rapid identification of anomalies and the separation of geodynamic signals potentially associated with earthquake preparation processes.

The interactive GIS mapping component provides real-time visualization of seismic events, geodeformation zones, and HGD field anomalies. This significantly

enhances the efficiency of geodynamic situation assessment, improves accessibility of scientific data for decision-making processes, and contributes to the optimization of monitoring networks. The developed GIS platform thus represents an effective tool for: (i) improving the reliability of seismic forecasting through the use of HGD precursors; (ii) assessing seismic and geo-environmental risks; and (iii) enhancing monitoring quality and supporting the sustainable management of water resources in seismically active regions.

Overall, the proposed GIS platform constitutes a significant advancement in the field of geodynamic monitoring. Future development should focus on expanding the database through the incorporation of satellite-derived data, further improving the analytical module by integrating artificial intelligence and machine learning techniques for automated detection of weak anomalies, and developing standardized protocols to support international exchange of geodynamic data.

REFERENCES

1. **Алексеев В. А., Телегина М. В., Цапок М. В.** Система сбора и обработки данных экологического мониторинга // Геоинформатика. — М., 2008. — № 3. — 17–20 с.
2. **Джуманов Ж. Х.** Геоинформационные технологии в гидрогеологии. — Ташкент, 2016.
3. **Умаров У. У., Джуманов Ж. Х. и др.** Перспективы развития методологии моделирования гидрогеологических систем на базе современных информационных технологий // Геология и минеральные ресурсы. — 2006. — № 2. — 52–55 с.
4. **Ломтадзе В. В.** Проблема формирования баз геолого-геофизических данных // Изв. вузов. Геология и разведка. — 1985. — № 6.
5. **Румынин В. Г.** Геомиграционные модели в гидрогеологии. — 2011.

6. **Султанходжаев А. Г., Зиган Ф. Г.** Современное состояние и перспектива развития гидросейсмологических исследований // Водные ресурсы. — 1992. — № 3.
7. **Шестаков В. М.** Принципы гидрогеодинамического мониторинга // Разведка и охрана недр. — 1988. — № 8. — 45–50 с.
8. **Шереметьев В. М.** Мониторинг гидрогеодеформационного поля — основа оперативного прогноза аварий и катастроф // Разведка и охрана недр. — 1966. — № 6.
9. **Цветков В. Я.** Геоинформационные системы и технологии. — М., 1998. — 228 с.
10. **Ярмухамедов А. Р.** О научных основах современной геодинамической активности земной коры, вызывающей природные и техногенные разрушительные катастрофы, и вопросы ее прогноза (на примере Узбекистана) // Узбекский геологический журнал. — 1998. — № 1. — 3–17 с.

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA SUN'IY INTELEKT ORQALI VIDEO KONTENTLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK SAMARADORLIGI

Umaraliyeva Madina

O'zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezis geografiya ta'limida sun'iy intellekt (AI) yordamida ishlab chiqiladigan videokontentlarning didaktik samaradorligini ilmiy asosda yoritadi. Tadqiqot konsepsiyasi multimedia o'qitish nazariyasi, kognitiv yuklama (cognitive load) yondashuvi hamda inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi Universal Design for Learning (UDL) tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi.*

SI vositalari (matn generatorlari, ovoz sintezatorlari, video/animatsiya generatorlari, avtomatik subtitr va tarjima tizimlari) geografik jarayonlar, fazoviy tasavvur, kartografik savodxonlik va sabab–oqibat bog‘lanishlarini tushuntirishda vizual-analitik didaktik effektni kuchaytirishi mumkin. Tezisda didaktik samaradorlik mezonlari (o‘zlashtirish, transfer, retention, motivatsiya, kognitiv yuklama, ishtirok, inkluzivlik) hamda ularni baholash metodlari taklif etiladi. Shuningdek, SI videokontentlardan foydalanishda etik, ishonchlilik, mualliflik huquqi va ma’lumotlar maxfiyligi bilan bog‘liq risklar ham ko‘rib chiqilib, “human-in-the-loop” nazorat modeli tavsiya etiladi. UNESCOning SI bo‘yicha siyosiy yo‘riqnomalari va kompetensiya ramkalari hamda OECD yondashuvlari kontekstida ta’lim amaliyoti uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar. *geografiya ta’limi, videodars, sun’iy intellekt, didaktik samaradorlik, multimedia learning, kognitiv yuklama, UDL, raqamli pedagogika, ta’lim analytics, media savodxonlik.*

Аннотация. *В данном тезисе научно рассматривается дидактическая эффективность видеоконтента, создаваемого с использованием искусственного интеллекта (ИИ), в географическом образовании. Концепция исследования разработана на основе теории мультимедийного обучения, подхода когнитивной нагрузки (cognitiveload) и принципов UniversalDesignforLearning (UDL), направленных на поддержку инклюзивного образования. Инструменты ИИ (генераторы текста, синтезаторы речи, генераторы видео/анимации, системы автоматических субтитров и перевода) способны усиливать визуально-аналитический дидактический эффект при объяснении географических процессов, формировании пространственного мышления, картографической грамотности и причинно-следственных связей. В тезисе предлагаются критерии дидактической эффективности (усвоение, перенос, удержание знаний, мотивация, когнитивная нагрузка, вовлечённость, инклюзивность) и методы их оценки. Кроме того, рассматриваются риски, связанные с этикой, надёжностью, авторскими правами и конфиденциальностью данных при использовании ИИ-*

видеоконтента, а также рекомендуется модель контроля «human-in-the-loop». В контексте политических рекомендаций ЮНЕСКО по ИИ и рамок компетенций, а также подходов ОЭСР формулируются рекомендации для образовательной практики.

Ключевые слова: *географическое образование, видеоуроки, искусственный интеллект, дидактическая эффективность, мультимедийное обучение, когнитивная нагрузка, UDL, цифровая педагогика, образовательная аналитика, медиаграмотность.*

Abstract. *This thesis scientifically examines the didactic effectiveness of AI-generated video content in geography education. The research framework is grounded in multimedia learning theory, the cognitive load approach, and the principles of Universal Design for Learning (UDL) supporting inclusive education. AI tools—including text generators, speech synthesizers, video/animation generators, and automatic captioning and translation systems—can enhance visual-analytical instructional effects in explaining geographical processes, developing spatial thinking, cartographic literacy, and cause–effect relationships. The thesis proposes criteria for didactic effectiveness (learning achievement, transfer, retention, motivation, cognitive load, engagement, and inclusivity) along with methods for their assessment. It also addresses ethical, reliability, copyright, and data-privacy risks associated with the use of AI-based video materials and recommends a "human-in-the-loop" supervision model. In the context of UNESCO policy guidelines and competency frameworks on AI, as well as OECD approaches, practical recommendations for educational implementation are provided.*

Keywords: *geography education, video lessons, artificial intelligence, didactic effectiveness, multimedia learning, cognitive load, UDL, digital pedagogy, learning analytics, media literacy.*

1. Kirish.

Geografiya fani o‘z mazmuniga ko‘ra makon, vaqt va tizimli o‘zaro ta’sir kategoriyalariga tayanadi. Iqlim jarayonlari, relyef dinamikasi, gidrologik aylanish, urbanizatsiya, migratsiya yoki tabiiy ofatlar kabi mavzularni an’anaviy “faqat matn

+ og‘zaki izoh” formatida tushuntirish ko‘pincha o‘quvchining fazoviy tasavvurini yetarli darajada faollashtirmaydi. Shu nuqtai nazardan, didaktik jihatdan puxta qurilgan videokontent (animatsiya, xarita, infografika, time-lapse, 3D model) geografik hodisalarni “ko‘rsatish orqali tushuntirish” imkonini beradi.

So‘nggi yillarda SI texnologiyalari kontent yaratish siklini tezlashtirdi: senariy tuzish, storyboard, ovoz (voice-over), subtitr, tarjima, animatsiya va montajning muayyan qismlari avtomatlashtirilmoqda. Biroq didaktik natija “video borligi” bilan emas, balki videoning **kognitiv-psixologik qonuniyatlarga mos dizayni**, o‘qitish maqsadiga muvofiqligi, interaktiv topshiriqlar bilan integratsiyasi va etik xavfsizligi bilan belgilanadi. UNESCO ta’limda AI’dan foydalanishda imkoniyatlar bilan bir qatorda xatarlar (adolat, shaffoflik, maxfiylik, inson agentligi)ni ham tizimli boshqarishni ta’kidlaydi.

2. Nazariy asoslar: didaktik samaradorlikni tushuntiruvchi konsepsiyalar.

2.1. Multimedia o‘qitish nazariyasi (Mayer). Multimedia learning yondashuvi o‘quvchi ma’lumotni ikki kanalda (verbal va vizual) qayta ishlashini, ishchi xotira resurslari cheklanganligini va samarali o‘qitish uchun ortiqcha kognitiv yuklamani kamaytirish zarurligini asoslaydi. Mazkur nazariya videodars dizaynida “signal berish”, “segmentlash”, “ko‘rsatish + qisqa izoh”, “keraksiz bezakni kamaytirish” kabi prinsiplarga tayangan holda didaktik samaradorlikni oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

2.2. Kognitiv yuklama nazariyasi (Sweller). Kognitiv yuklama nazariyasi o‘qitish materialini shunday loyihalash kerakligini uqtiradiki, o‘quvchi resurslari murakkab geografik tushunchani “ishlash”ga sarflansin, video montajidagi ortiqcha effektlar yoki keraksiz ma’lumotlar esa e’tiborni chalg‘itmasin. Shu sababli AI yordamida yaratilgan videolarda ham **intrinsic** (mavzuning murakkabligi), **extraneous** (dizayndagi ortiqcha yuk) va **germane** (sxema hosil qilishga xizmat qiluvchi yuk) balansini saqlash – didaktik samaradorlikning markaziy sharti hisoblanadi.

2.3. UDL (Universal Design for Learning) va inkluzivlik. UDL konsepsiyasi turli ehtiyojli o‘quvchilar uchun ta’limni moslashuvchan loyihalashni taklif qiladi:

taqdimotning bir nechta usuli (subtitr, audio, vizual tayanch), faol ishtirok variantlari (mini-topshiriqlar, tanlovli yo‘l), rag‘bat va motivatsiya mexanizmlari. SI esa subtitr/tilga moslashtirish, audio tezligini o‘zgartirish, qisqa konspekt generatsiyasi orqali UDL amaliyotini kengaytirishi mumkin.

2.4. SI kompetensiyalari va etik me’yorlar. SI videokontentlardan ta’limda foydalanish uchun o‘qituvchi va o‘quvchining SI savodxonligi muhim: manba tekshirish, xatolik/hallutsinatsiya riskini anglash, mualliflik va adolat masalalariga e’tibor. UNESCOning o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun SI kompetensiya ramkalari shu yo‘nalishda tayanch mezonlarni belgilaydi.

3. SI videokontentlarning didaktik samaradorligini baholash modeli.

3.1. Samaradorlik mezonlari. Geografiya ta’limi kontekstida didaktik samaradorlikni quyidagi indikatorlar bilan operatsionlashtirish maqsadga muvofiq:

1. **Bilim va ko‘nikma o‘sishi (learning gain):** pre-test/post-test farqi, Bloom taksonomiyasi bo‘yicha fakt–tushunish–qo‘llash–tahlil.
2. **Retention (eslab qolish):** 2–4 hafta o‘tib qayta test.
3. **Transfer:** yangi hudud yoki yangi vaziyatga tatbiq (masalan, iqlim diagrammasini boshqa mintaqada tahlil qilish).
4. **Fazoviy tafakkur:** xarita o‘qish, masshtab, yo‘nalish, qatlamlar, GIS elementlari.
5. **Motivatsiya va ishtirok:** darsga jalb bo‘lish, topshiriqni yakunlash foizi, o‘quvchi fikri (Likert so‘rov).
6. **Kognitiv yuklama:** qisqa self-report (masalan, mental effort shkalasi) va xatolar profili.
7. **Inkluzivlik:** subtitr/til moslashuvi, eshitish/ko‘rish cheklovli o‘quvchilar uchun qulaylik ko‘rsatkichlari (UDL chek-list).

Video o‘qitish bo‘yicha meta-tahliliy ishlarda video asosidagi ta’lim ko‘pincha ijobiy natijalar bergani, biroq natija video “passiv tomosha”dan “faol o‘rganish”ga o‘tganda sezilarliroq kuchayishi qayd etiladi; ya’ni videoga ichki savollar, pauza-topshiriqlar, qisqa refleksiya qo‘shish muhim moderator bo‘lishi mumkin.

3.2. Tadqiqot dizayni (taklif etilayotgan metodika). Amaliy tadqiqot uchun quyidagi dizayn tavsiya etiladi:

- **Dizayn:** kvazi-eksperiment (nazorat va tajriba guruhlari), pre-test/post-test + delayed post-test.
- **Ishtirokchilar:** 7–10-sinf yoki bakalavr 1-kurs (mavzuga mos).
- **Intervensiya:** tajriba guruhida SI yordamida ishlab chiqilgan, Mayer va CLT prinsiplari bo‘yicha dizaynlangan 6–8 ta mikrovideo (5–8 daqiqa) + har video uchun 2–3 ta faol topshiriq; nazorat guruhida an’anaviy tushuntirish yoki oddiy video (didaktik optimallashtirilmagan) bilan ishlash.
- **Tahlil:** t-test/ANCOVA, effekt o‘lchami (Cohen’s d), retention va transfer bo‘yicha alohida tahlil.

4. SI videokontentni didaktik loyihalash (geografiya uchun amaliy “pipeline”).

4.1. Kontent arxitekturasi. SI videokontent samaradorligi uchun quyidagi didaktik “skelet” maqsadga muvofiq:

1. **Maqsad:** bitta videoda bitta yadro kompetensiya (masalan, “atmosfera frontlari va yog‘inlar mexanizmi”).
2. **Kirish muammosi:** real hayotiy savol (masalan, “nega tog‘ yonbag‘rida yog‘in ko‘p?”).
3. **Vizual model:** xarita + sxema + animatsiya (jarayonni bosqichma-bosqich).
4. **Segmentlash:** 30–60 soniyali bo‘laklar (pause nuqtalari).
5. **Faol topshiriq:** “predict-explain-check” (oldindan taxmin qildirish, izohlash, tekshirish).
6. **Yakun:** 3–5 jumlali xulosa + 1 transfer savol.

4.2. AI vositalaridan foydalanish nuqtalari.

- **LLM (matn SI):** ssenariy, savol-topshiriqlar, rubrika, qisqa konspekt; lekin faktlar manbalar bilan verifikatsiya qilinadi.
- **TTS (text-to-speech):** ovozli izoh; talaffuz lug‘ati bilan moslashtirish (geografik toponimlar).

- **Subtitr/translation:** inkluzivlik va ko‘p tillilik (UZ–RU–EN) — UDL tamoyiliga mos.
- **Video/animatsiya generatorlari:** jarayon animatsiyasi; kartografik qatlamlar ketma-ketligi.
- **Learning analytics:** tomosha davomiyligi, qayta ko‘rish nuqtalari, test natijalari orqali kontentni iterativ takomillashtirish.

5. Xatarlar va boshqaruv choralar (etik va sifat kafolati).

1. **Ishonchlilik muammosi (hallutsinatsiya, noto‘g‘ri fakt):** geografik statistikalar, iqlim ko‘rsatkichlari, tarixiy sanalar SI tomonidan xato berilishi mumkin. Shuning uchun “manba–tekshiruv–tasdiq” protokoli va o‘qituvchi ekspertizasi (human-in-the-loop) shart.
2. **Maxfiylik:** o‘quvchi ma’lumotlarini SI platformalarga yuklashda minimalizm va rozilik tamoyili. UNESCO etik yondashuvida inson huquqlari va qadr-qimmatni ustuvor qo‘yish talabi kuchli.
3. **Mualliflik huquqi:** xarita, surat, video parchalar, musiqalar litsenziyasi (Creative Commons va h.k.) nazorat qilinadi.
4. **Shaffoflik:**SI yordamida yaratilgan kontent ekani, metodika va cheklovlar ochiq ko‘rsatiladi (media savodxonlikni ham oshiradi).
5. **Adolat va tarafkashlik:** geografik tasvirlar (mintaqalar, demografiya, ijtimoiy mavzular)da stereotip yoki noto‘g‘ri talqinlar bo‘lmasligi uchun tahrir siyosati.

6. Xulosa. SI yordamida ishlab chiqilgan videokontentlar geografiya ta’limida didaktik samaradorlikni oshirishning kuchli instrumenti bo‘lishi mumkin, biroq bu samaradorlik avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi. Natija uch omilga bog‘liq: (1) **multimedia va kognitiv yuklama nazariyalariga mos dizayn**; (2) **faol o‘rganish strategiyalari bilan integratsiya**; (3) **etik, ishonchlilik va huquqiy nazorat**. UNESCO kompetensiya ramkalari o‘qituvchining SI pedagogik savodxonligini, OECD yondashuvlari esa SI imkoniyatlarini “ko‘nikma va ta’lim tizimi transformatsiyasi” kontekstida tushunishni talab qiladi.
Shu asosda geografiya fanini ommalashtirish va o‘qitish sifatini oshirish uchun SI

videokontentlar: mikroo‘qitish formatida, xarita va animatsiya tayanchida, interaktiv savol-topshiriqlar bilan, subtitr/ko‘p tillilik va inkluziv dizayn orqali, muntazam analitika asosida iterativ takomillashib boradigan tizim sifatida yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. *AI and education: guidance for policy-makers*. Paris: UNESCO, 2021. (unesdoc.unesco.org)
2. UNESCO. *AI competency framework for teachers*. UNESCO, 2024. (unesdoc.unesco.org)
3. UNESCO. *AI competency framework for students*. UNESCO, 2024. (unesdoc.unesco.org)
4. OECD. *AI and the Future of Skills, Volume 1*. OECD Publishing, 2021. (OECD)
5. Mayer, R. E. *Multimedia Learning* (3rd ed.). Cambridge University Press, 2020. (Cambridge University Press & Assessment)
6. Sweller, J. Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning. *Cognitive Science*, 1988, 12(2), 257–285. (onlinelibrary.wiley.com)
7. Sweller, J., Ayres, P., Kalyuga, S. *Cognitive Load Theory*. Springer, 2011. (link.springer.com)
8. CAST. *Universal Design for Learning Guidelines Version 2.2*. Wakefield, MA: CAST, 2018. (lincs.ed.gov)
9. UNESCO. *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. Adopted 2021. (ЮНЕСКО)
10. Mao, B. P., et al. Is Online Video-Based Education an Effective Method to Teach? Systematic Review with Meta-analysis. 2022. (pmc.ncbi.nlm.nih.gov)
11. Zhang, Y., et al. Active learning strategies in video learning: A meta-analysis. 2025. (ScienceDirect)

GEOMATEMATIKA – FANLARARO INTEGRATSIYANING ZAMONAVIY KO‘RINISHI

Xolmatov Davron

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda geomatematika fanining shakllanishi, uning fanlararo integratsiyadagi o‘rni va boshlang‘ich ta’lim tizimidagi metodik ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Geografiya va matematika fanlarining uyg‘unlashuvi orqali o‘quvchilarda miqdoriy tahlil, fazoviy tafakkur va real jarayonlarni modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Geomatematika fanining zamonaviy ta’limda PISA kabi xalqaro baholash dasturlariga mos kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *geomatematika, fanlararo integratsiya, geografiya, matematika, boshlang‘ich ta’lim, PISA, fazoviy tafakkur, matematik savodxonlik.*

Abstract. *This thesis analyzes the formation of geomathematics, its role in interdisciplinary integration, and its methodological significance in primary education from a scientific perspective. The integration of geography and mathematics enables the development of students’ skills in quantitative analysis, spatial thinking, and modeling of real processes. The study substantiates the role of geomathematics in developing competencies aligned with international assessment programs such as PISA in modern education.*

Keywords: *geomathematics, interdisciplinary integration, geography, mathematics, primary education, PISA, spatial thinking, mathematical literacy.*

Аннотация. *В данной тезисе с научной точки зрения анализируются формирование геоматематики, её роль в междисциплинарной интеграции и методическое значение в системе начального образования. Интеграция географии и математики способствует формированию у учащихся навыков количественного анализа, пространственного мышления и моделирования*

реальных процессов. Обоснована роль геоматематики в развитии компетенций, соответствующих международным оценочным программам, таким как PISA, в современном образовании.

Ключевые слова: *геоматематика, междисциплинарная интеграция, география, математика, начальное образование, PISA, пространственное мышление, математическая грамотность.*

Asosiy qism. Hech kimga sir emaski, zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi ilm-fan taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ilmiy bilimlar faqat alohida fanlar doirasida emas, balki fanlararo integratsiya asosida shakllanmoqda. Fanlarning uzviy bog‘lanishi va o‘zaro uyg‘unlashuvi kelajak taraqqiyotining strategik poydevorini tashkil etadi. Chunki bir fan yutuqlarining boshqa fanlar bilan integratsiyasi natijasida yangi ilmiy yo‘nalishlar, yangi metodologiyalar va innovatsion yondashuvlar vujudga keladi [5].

Fanlararo integratsiya nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki ta’lim jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [7]. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni modellashtirish va yechim topish kompetensiyalarini shakllantirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, geografik jarayonlarni matematik tahlil bilan bog‘lash fanlararo integratsiyaning muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi[11].

Aynan shu ehtiyojlar natijasida geografiya va matematika fanlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida geomatematika fani shakllandi. Geomatematika – geografik obyektlar va jarayonlarni matematik modellar, hisoblash usullari va miqdoriy tahlil orqali o‘rganishga xizmat qiluvchi fanlararo yo‘nalishdir. Ushbu fan geografiya fanidagi fazoviy va tabiiy jarayonlarni matematika fanining analitik imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtiradi [10].

Geomatematika fanining asosiy maqsadi o‘quvchilarda geografik jarayonlarni nafaqat tasviriy, balki miqdoriy va tahliliy asosda anglash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Masalan, materiklar maydonini hisoblash, aholi zichligini aniqlash, masshtab asosida masofalarni o‘lchash, relyef shakllarini

solishtirish, iqlim ko‘rsatkichlarini statistik tahlil qilish kabi vazifalar geomatematik yondashuv orqali bajariladi.

Bu jarayonda arifmetik amallar, nisbat va foizlar, geometrik shakllarning yuzi va perimetri, koordinatalar tekisligi, grafik va diagrammalardan keng foydalaniladi. Natijada o‘quvchilar geografik ma’lumotlarni matematik til orqali tahlil qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning fazoviy tafakkurini, mantiqiy fikrlashini va analitik qobiliyatlarini rivojlantiradi[4].

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida geomatematika fanining joriy etilishi ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlarga yechim topish kompetensiyalari shakllanadi. Geomatematika o‘quvchilarda kollaboratsiya, kommunikatsiya, kritik va kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi [8].

Zamonaviy maktab ta’limida matematika fanidagi ko‘plab misol va masalalar real hayotiy vaziyatlar bilan yetarlicha bog‘lanmagan. Natijada o‘quvchilar matematik bilimlarning amaliy ahamiyatini to‘liq anglab yetmaydi. Bu esa ularning fanga bo‘lgan qiziqishining pasayishiga olib keladi [9]. Geomatematika fani esa aynan shu muammoni hal etishga xizmat qiladi. Chunki undagi topshiriqlar geografik obyektlar, real hududlar, iqlim jarayonlari, aholi ko‘rsatkichlari asosida tuziladi.

Masalan, o‘quvchi o‘z yashab turgan hududining maydonini hisoblaydi, aholi soni bo‘yicha grafik tuzadi, iqlim ko‘rsatkichlarini taqqoslaydi, masofalarni masshtab asosida aniqlaydi. Bu jarayonlar matematik bilimlarning real hayotdagi ahamiyatini ochib beradi va o‘quvchini faol o‘rganishga undaydi.

Geomatematika fanining yana bir muhim jihati – uning zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uzviy bog‘liqligidir. Statistik jadval, diagramma, infografika, interaktiv xaritalar, raqamli ma’lumotlar bazalari geomatematik tahlilning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarda IT-savodxonlikni ham rivojlantiradi [3].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, fanlararo integratsiyaga asoslangan ta’lim PISA kabi xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga olib keladi [1]. Geomatematika fani orqali:

– matematik savodxonlik oshiriladi [1];

– tabiiy fanlar savodxonligi rivojlanadi [2];

– real muammolarni matematik tahlil asosida hal qilish ko‘nikmalari shakllanadi [7];

– fazoviy va mantiqiy tafakkur rivojlanadi [3];

– axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyasi hosil bo‘ladi [10].

Shu sababli geomatematika fanini boshlang‘ich ta’lim tizimiga tizimli joriy etish zamonaviy ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Geomatematika fanini samarali tashkil etish uchun darsliklardagi geografik ma’lumotlarni statistik jadval, grafik, diagramma va infografika ko‘rinishida taqdim etish tavsiya etiladi. Shuningdek, interaktiv xaritalar, elektron atlaslar va raqamli platformalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi [5].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, geomatematika – fanlararo integratsiyaning zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u geografiya va matematika fanlarini yagona ilmiy tizimga birlashtiradi. Ushbu fan o‘quvchilarda real jarayonlarni miqdoriy tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va muammolarni modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Geomatematika fanining joriy etilishi:

1. O‘quvchilarda matematik savodxonlikni oshiradi.
2. Tabiiy fanlar bo‘yicha mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.
3. IT-savodxonlikni mustahkamlaydi.
4. Hayotiy muammolarni ilmiy asosda hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Demak, geomatematika fani zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo integratsiyaning eng muhim va samarali ko‘rinishlaridan biri sifatida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **OECD.** PISA 2022 Results: Creative Thinking and Mathematical Literacy. — Paris: OECD Publishing, 2023.
2. **OECD.** PISA 2018 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science and Financial Literacy. — Paris: OECD Publishing, 2019.
3. **National Research Council.** Learning to Think Spatially: GIS as a Support System in the K–12 Curriculum. — Washington, DC: National Academies Press, 2006.
4. **De Lange J.** Mathematics for Literacy // Quantitative Literacy: Why Numeracy Matters for Schools and Colleges. — Princeton: National Council on Education and the Disciplines, 2003.
5. **Bednarz S. W., Heffron S., Huynh N. T.** A Road Map for 21st Century Geography Education. — Washington: Association of American Geographers, 2013.
6. **Lampert M.** Teaching Problems and the Problems of Teaching. — New Haven: Yale University Press, 2001.
7. **Kilpatrick J., Swafford J., Findell B.** Adding It Up: Helping Children Learn Mathematics. — Washington, DC: National Academy Press, 2001.
8. **Boaler J.** Mathematical Mindsets. — San Francisco: Jossey-Bass, 2016.
9. **Niss M.** Mathematical Competencies and the Learning of Mathematics. — Roskilde: Roskilde University Press, 2003.
10. **Goodchild M. F.** Geographic Information Systems and Science. — New York: Wiley, 2008.
11. **Atavaliyeva D. H.** Matematika darslarida fanlararo integratsiya. — Zendo, 2022.
12. **Narzullayeva F. S., Jo‘rayev H. O.** Raqamli ta’lim muhitida matematik modellashtirish fanini o‘qitish metodikasi. — Inter Education & Global Study, 2025.
13. **Abu Rayhon Beruniy.** Tanlangan asarlar. 5-jild. — Toshkent: Fan, 1973. — 592 b.

GEOTIZIM TRANSFORMATSIYASI VA EKOLOGIK DEGRADATSIYA SHAROITIDA AHOLI MIGRATSIYASINING SHAKLLANISH OMILLARI

Mamatqulov Abdurasul Abdugapporovich

Andijon davlat unversiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Ekologik migratsiya", "iqlim migratsiyasi", "majburiy migratsiya" kabi tushunchalar ilmiy muomalaga faol kirib kelishi ham aynan geotizimlardagi o'zgarishlarning inson harakatiga ta'siri kuchayib borayotganini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *geotizim jarayonlar, migratsiya, aholi ko'chishi, suv tanqisligi, "iqlim migratsiyasi", "majburiy migratsiya", tuproq sho'rlanishi.*

Аннотация: *В данной статье раскрывается, что активное вхождение в научный оборот таких понятий, как «экологическая миграция», «климатическая миграция», «вынужденная миграция», свидетельствует об усилении влияния изменений в геосистемах на перемещения населения.*

Ключевые слова: *геосистемные процессы, миграция, перемещение населения, дефицит водных ресурсов, «климатическая миграция», «вынужденная миграция», засоление почв.*

Annotation: *This article shows that the active entry into scientific discourse of such concepts as "environmental migration," "climate migration," and "forced migration" reflects the growing impact of changes in geosystems on human mobility.*

Keywords: *geosystem processes, migration, population movement, water scarcity, "climate migration," "forced migration," soil salinization.*

Kirish. XXI asrda insoniyat taraqqiyoti nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, balki tabiiy muhitda yuz berayotgan chuqur o'zgarishlar bilan ham belgilanmoqda.

Iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, yer va suv resurslarining degradatsiyasi, bioxilma-xillikning kamayishi kabi jarayonlar geotizimlarning barqaror faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda migratsiya ko‘plab hududlar uchun nafaqat iqtisodiy yoki ijtimoiy hodisa, balki tabiiy muhit bosimi ostida shakllanayotgan zaruriy ijtimoiy moslashuv mexanizmiga aylanmoqda.

Geotizim barqarorligining buzilishi esa ekologik degradatsiya jarayonlarini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, Aralbo‘yi hududi, cho‘llanishga moyil mintaqalar, suv tanqisligi kuzatilayotgan qishloq hududlari kabi makonlarda bu jarayonlar aholi turmush tarzini tubdan o‘zgartirib, migratsion harakatlarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Asosiy qism. Migratsiya iqtisodiy taraqqiyot, kishilarning ehtiyojlarining muntazam ortib borishi, aholining farovonligi oshib borayotganligi, yoshlarning turli madaniyatlar, ta’lim olish, yangi kasb-xunarlarni egallash kabi ijobiy mohiyatga ega bo‘lgan jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan ko‘plab davlatlarda oziq-ovqat, suv tanqisligi, yashash sharoitlarining yomonligi, ishsizlik, kambag‘allikning o‘sib borishi va shu bilan birga tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan turli kataklizmalar, iqlimning yomonlashib borishi kabi salbiy omillar bilan ham bog‘langan.

Aholi migratsiyasi an’anaviy ravishda iqtisodiy, demografik yoki siyosiy omillar bilan izohlanib kelgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda ekologik omillar migratsiyaning mustaqil va muhim determinantiga aylanib bormoqda. “Ekologik migratsiya”, “iqlim migratsiyasi”, “majburiy migratsiya” kabi tushunchalar ilmiy muomalaga faol kirib kelishi ham aynan geotizimlardagi o‘zgarishlarning inson harakatiga ta’siri kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, migratsiyani faqat ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki tabiiy-hududiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq kompleks fenomen sifatida tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jumladan prizidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” asarida “BMT baholariga ko‘ra, 2050-yilga borib butun jahonda suvga bo‘lgan talab 30 foiz o‘sishi, suv bilan bog‘liq mojarolar va siyosiy beqarorliklar ham kelib chiqishi ehtimoldan xoli emas. Shu nuqtai

nazardan ekspertlar suvni XXI asrda davlatlararo nizolarga sabab bo‘ladigan omillardan biri sifatida e’tirof etishmoqda. Zero, suv yerning 70 foizdan ko‘proq qismini qoplagan bo‘lsa-da, shundan atigi 3 foizi ichish uchun yaroqlidir. 2023-yilda 2 milliard odam, ya’ni yer yuzi aholisining chorak qismi toza ichimlik suvisiz qolgan va yaqin 10 yillikda ular safiga 700 million kishi qo‘shilishi mumkin. Bugun dunyo siyosiy lug‘atida “iqlim migranlari” atamasi paydo bo‘ldi. BMT va jahon banki ekspertlariga ko‘ra bugun dunyodagi 10 foizdan ortiq migrantlar aynan o‘z yashab turgan joylarini suv muammolari tufayli tark yetgan. Suv tanqisligi-asrning global muammosi bo‘lib, uni bartaraf etishda dunyo davlatlari birgalikda ishtirok etishi lozim” deb ta’kidlagan[23]. O‘zbekiston misolida ekologik migratsiya 1960-yillargacha Orol dengizi va uni oziqlantiruvchi Sirdaryo va Amudaryo daryolari holati nisbatan barqaror bo‘lgan. Biroq, qisqa vaqt ichida ushbu daryolarning suvlaridan qayta tiklanmaydigan darajada sug‘orish uchun foydalanilishi ularga antropogen bosimni kuchaytirib, Orol dengizi sathining va hajmining keskin kamayishiga olib keldi. Orol dengizi-ilgari dunyodagi eng katta suv havzalaridan biri-qurib borib, sathi asl darajasidan (53 m) sezilarli darajada pastlagan. Natijada keng hudud cho‘llanishga uchragan. Orol dengiz sathining 90% dan ortig‘i qurishi Markaziy Osiyodagi eng yirik ekologik fojialardan biri bo‘lib qolmoqda. Natijada yuz minglab odamlar sog‘liq, iqtisod va yashash sharoiti yomonlashgani sababli bu hududan ko‘chib keta boshlashgan[24].

Shu bilan birgalikda bugungi kunda ekologik migratsiya masalasi so‘nggi yillarda global miqyosda dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu migratsiya shakli insonlarning ekologik inqirozlar, tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishlari sababli doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyini tark etishiga sabab bo‘lmoqda. Jahonning ko‘plab hududlarida iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, cho‘llanish, yerlarning degradatsiyasi va boshqa ekologik

[23] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston – Toshkent: O’zbekiston, 2024. – Б. 347-348.

[24] Алимов Ж. Орол фожиаси ва унинг оқибатлари // Экология ва инсон саломатлиги. – Тошкент, 2020. – Б. 22-24.

muammolar ko‘plab insonlarni yangi joylarga ko‘chishga majbur qilmoqda. Ekologik migratsiya – bu insonlarning yashash joyini atrof-muhitdagi salbiy o‘zgarishlar yoki ekologik xavflar (suv toshqinlari, qurg‘oqchilik, zilzila, cho‘llanish va boshqalar) sababli tark etishidir. Bu tushuncha birinchi bo‘lib Oksford universiteti prof. Norman Mers tomonidan 1970-1980-yillarda ilmiy muomalaga kiritilgan. U “ekologik qochqinlar” degan terminni qo‘llagan va 2050-yilga borib ekologik sabablar bilan ko‘chishga majbur bo‘ladigan nsonlar soni 200 milliondan oshishini bashorat qilgan[25]. Norman Mayers Tunis va Liviyaning har biri yiliga 1000 kvadrat kilometrdan ortiq unumdor yerlarini cho‘llanishga yo‘qotmoqda. Atrof-muhitning bu bosimi aholi bosimi bilan yanada kuchayadi. Bugungi kunda Shimoliy Afrikada 152 million, O‘rta yer dengizining sharqiy qismida 100 million, jami 252 million aholi istiqomat qiladi. Yevropa Ittifoqidan farqli o‘laroq, 459 million, ancha kattaroq. Ammo O‘rta yer dengizi mamlakatlari ancha tez o‘smoqda. 2025-yilga mo‘ljallangan: Shimoliy Afrika, Sharqiy O‘rta yer dengizi 333 million kishi, o‘sish 32 foiz, Yevropa Ittifoqi esa 470 million kishi, o‘sish 2 foiz. Atlantika okeani bo‘ylab Meksika, Markaziy Amerika, Karib dengizi bugungi kunda 185 million kishini tashkil etadi, bu esa 294 million kishi bilan Qo‘shma Shtatlardan ancha orqada. Ammo 2025-yilga kelib Meksika, Markaziy Amerika, Karib dengizi 235 millionga, ya’ni 27 foizga o‘sadi, AQSh esa 349 millionga, ya’ni atigi 19 foizga o‘sishini yoritgan[26]. “Hozirgi dunyoda 3.6 milliard kishi iqlim o‘zgarishidan sezilarli darajada aziyat chekayotgan hududlarda yashamoqda, 2 milliard odam esa toza ichimlik suvidan bahramand bo‘la olmayapti. Buning ustiga, har yili 600 million kishi sifatsiz oziq-ovqat masulotlari orqali yuqadigan xavfli kasalliklardan jabr ko‘rmoqda. Havoning haddan tashqari isib ketishi bilan bog‘liq o‘lim darajasi ham tobora ko‘payib bormoqda. Bu muammolarni hal qilish masalasi

[25] Myers N. Environmental refugees: a growing phenomenon of the 21st century // Philosophical Transactions of the Royal Society B: Biological Sciences. – 2002. – Vol. 357, No. 1420. – P. 609-613. – DOI: 10.1098/rstb.2001.0953.

[26] Майерс Н. Environmental refugees: an emergent security issue // Session III – Environment and Migration, 13-й Иқтисодий форум. – Прага, 23–27 май 2005. – Б. 4. https://www.osce.org/files/f/documents/c/3/14851.pdf

O‘zbekiston uchun dolzarb ahamiyatga ega. Negaki, bizning mamlakatimiz dunyodagi eng katta ekologik ofat Orol fojeasini bevosita o‘z boshidan o‘tkazmoqda. Xalqimiz global isish, ekologik muvozanat buzilishi bilan bog‘liq anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg‘oqchilik va chang bo‘ronlari, qishloq xo‘jaligi hosildorligining pasayishi, ichimlik suv taqchiligi, havoning ifloslanishi shaklida jiddiy tahdidlar bilan yuzma-yuz yashamoqda”[27]. Natijada, mazkur ekalogik muammolar aholi turmush darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ayrim hududlarda yashash imkoniyati cheklanmoqda. Tabiiy resurslar tanqisligi va iqlimning keskin o‘zgarishi odamlarni maburiy ko‘chishga-ya’ni ekologik migratsiyaga yetaklamoqda. Aholining migratsiya faolligi ortishi, ayniqsa qishloq hududlarida oilaviy munosabatlar va mehnat taqsimoti o‘zgartirayotgani bilan ahamliyatlidir. O‘zbekiston sharoitida mazkur masala alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatning katta qismi qurg‘oqchil iqlim zonasida joylashganligi, yer va suv resurslarining cheklanganligi, Oral dengizi fojiasi oqibatlari, tuproq sho‘rlanishi va cho‘llanish jarayonlarining kuchayishi geotizimlarning transformatsiyasini jadallashtirmoqda. Bu esa ayrim hududlarda aholi yashash sharoitining yomonlashuvi va migratsion kayfiyatning ortishiga olib kelmoqda. Natijada, ekologik omillar bilan bog‘liq migratsiya jarayonlarini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Shavkat Mirziyoyev** Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. — Toshkent, 2024. — B. 347–348.
2. **Алимов Ж.** Орол фожиаси ва унинг оқибатлари // Экология ва инсон саломатлиги. — Тошкент, 2020. — Б. 22–24.

[27] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston – Toshkent: O’zbekiston, 2024. – Б. 18-19.

3. **Norman Myers** Environmental refugees: a growing phenomenon of the 21st century // Philosophical Transactions of the Royal Society B: Biological Sciences. — 2002. — Vol. 357, No. 1420. — P. 609–613. — DOI: 10.1098/rstb.2001.0953.
4. **Myers N.** Environmental refugees: an emergent security issue // Environment and Migration: Session III, 13th Economic Forum. — Prague, 23–27 May 2005. — Elektron resurs.
5. **Mirziyoyev Sh. M.** Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. — Toshkent, 2024. — B. 18–19.

ХУДУДИЙ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИДА АГРО ТУРИЗМ МУАММОЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ

Мамадалиева Нозима Ашуровна

Ирисов Акрамжон Авазович

Хамроев Баходир Бахтиёрович

Навоий Инновациялар университети

Аннотация: *Мақолада туризм соҳаси Навоий вилояти ҳудудлари мисолида кўриб чиқилган, ўрганилган, тахлил қилинган бўлиб, яна ҳам экологик туризмни ривожлантириш, “Яшил макон” дастури, вилоятнинг чўл ва адирлардан иборат экологик вазият мураккаб бўлган ҳудудларида ўрмон хўжаликларини барпо этиш мақсадга мувофиқлиги ўрганилганлиги билан аҳамиятлидир.*

Ключ сўзлар: *туризм, экология, чўл, ҳудуд, дарахт, саноат, индустриал, экотуризм, қадамжо, қазилма, аҳоли қатлами*

Аннотация: *В статье рассматривается, изучается и анализируется сектор туризма на примере Навоийской области, а также рассматривается целесообразность развития и создания экологического туризма. Программа «Зеленые зоны» примечательна изучением возможности создания лесных насаждений в регионах со сложной экологической ситуацией, включающих пустыни и холмы.*

Ключевые слова: *туризм, экология, пустыня, регион, дерево, промышленность, промышленный, экотуризм, степь, карьер, население.*

Abstract: *The article examines, studies and analyzes the tourism sector using the example of the Navoi region, and also considers the feasibility of developing and creating ecotourism. The Green Zones program is notable for exploring the potential for creating forests in regions with challenging environmental conditions, including deserts and hills. Key words: tourism, ecology, desert, region, tree, industry, industrial, ecotourism, steppe, quarry, population.*

Key words: *tourism, ecology, chŷl, ҳudud, darakht, sanoat, industrial, ecotourism, qadamzho, kazilma, aholi qatlami*

Туризм тизимида экологик туризмнинг ўрни муҳим. Бу айниқса Навоий вилояти учун жуда аҳамиятлидир. Мазкур ҳудудда дашти-чўллар билан бирга тоғлар, гўзал манзарали ҳудудлар, азиз авлиё ва мутафаккирлар қадамжолари, кўпгина фойдали қазилмалар, ўзига хос аҳоли қатлами мавжудлиги баён этилган. Экологик туризмни тўғри англаш учун унинг турларини аниқлаб олиш лозимдир. Вилоятда экологик туризмнинг мақсади бўйича таснифланди. Ушбу белгиси бўйича экологик туризм ўрганиш натижасида уларнинг қуйидаги хусусиятлари аниқланди:

билиш, ўрганишга қаратилган; хизмат юзасидан; қариндош-уруғларни кўришга қаратилган; диний зиёрат мақсадида; спорт ва соғломлаштиришга қаратилган; ўқувни амалга ошириш мақсадида; рекреация мақсадида; табиат қўйнига саёҳат мақсадида; ихтисослашган саёҳатларга қаратилган; экзотик мақсадда.

Вилоятда “Яшил макон” дастурига асосан Зарафшон арчасини экиб кўпайтириш лозимлиги кўриб чиқилмоқда. Табиий ҳолда ушбу арчалар денгиз сатҳидан 260 метрдан 2 800 метргача баландликда ўсади. Аммо уни ҳозирги шароитда пастликларга ва турли текисликларга ҳам сунъий равишда мослаштириб ўстирилмоқда. Бунинг афзаллиги шундаки, бир гектар майдондаги арча дарахти бир йил давомида инсон соғлигига зарар етказувчи микробларни ўлдирувчи 30 тонна фитанцид моддаси ишлаб чиқаради. Бу Навоий, саноат индистуриал вилоят учун катта аҳамиятга эга. Бундан ташқари зайтун дарахти ҳам тоғли сувсиз жойлардаги ҳудудларда ўстирилганда, атмосфера ҳавосини чанг ва ғуборларни ўзида ютиб қолиш ва инсон учун ўта зарур бўлган кўплаб миқдорда кислород чиқариш хусусиятига ҳам эга эканлигидир.

Вилоятнинг чўл ва адирлардан иборат экологик вазият мураккаб бўлган ҳудудларида ўрмон хўжаликларини барпо этиш мақсадга мувофиқ. Ушбу ўрмон хўжаликларида алоҳида иҳоталанган зоналарни ташкил қилиш ва улардан туризм объект сифатида фойдаланиш лозимлиги кўриб чиқилмоқда. Вилоятнинг ўрмонзорларини ташкил қилиш учун шу ернинг ўзида кўчатчиликни ривожлантириш мақсадга мувофиқ. Бундай экзотик ўсимликларга зайтун дарахтини ўрганиб чиқилганда, у сувсизликка чидайдиган бута дарахти бўлиб, агротуризмда муҳим ресурс ҳисобланади.

Ундан ёғ олиш кўриб чиқилганда ғўза ва зиғир ёғига нисбатан етиштириш тоғ-чўл зоналарида қулай ва туристларни ўзига жалб этувчи озуқавий ёғлик ўсимликдир.

Озиқавий ёғ инсон истеъмоли учун зарур бўлган озиқ-овқат маҳсулотларидан биридир. У тирик организм учун энергия манбаи бўлиб хизмат қилади. Инсон кундалик ҳаёт фаолиятида сарф қиладиган энергиянинг қарийб учдан бир қисмини ёғлар ҳисобига олади. 1 грамм ёғнинг энергия бериш қобилияти 37,7 кЖни ташкил этади.

Ёғнинг бир кунлик илмий асосланган истеъмол меъёри ўртача 100 г қабул қилинган. Лекин бу кўрсаткич одамнинг жинси, ёши, ҳаёт фаолиятига асосланиб 80-120 граммни ташкил этиши мумкин. Белгиланган меъёрнинг 60%дан кўпроғи ўсимлик ёғлари ҳисобига тўғри келиши керак.

Ёғлар организмни энергия билан таъминлаб қолмасдан ҳужайраларнинг тузилишида иштирок этади. Тери остида ёғ тўқимасининг ҳосил бўлиши бундан яққол далолат беради. Шунингдек, ёғ организмни ташқи муҳитдан ҳимоя қилувчи омиллардан бири ҳамдир.

Ёғнинг аҳамияти юқорида айтилганлар билан чекланиб қолмасдан, улар организмда катта физиологик жараёнларда ҳам иштирок этишини қайд этиши лозим. Ёғларнинг физиологик аҳамияти шундаки, унда инсон ҳаёти учун зарур бўлган фосфатидлар, витаминлар, ўрин алмаштирмайдиган юқори даражада тўйинмаган ёғ кислоталари ва бошқа фаол моддалар мавжуд. Улар ҳаёт фаолияти учун зарур бўлган ҳамма жарёнларда иштирок этади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 2 мартдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт Стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид Давлат Дастури тўрисида” ПФ-27-сон Фармони ижроси юзасидан бир қанча ишлар амалга оширилмоқда. Инсон организмига фойдаси юқори бўлган ўсимлик ёғини ишлаб чиқариш зарурлиги кўриб чиқилди.

Масалан, ёғлар таркибида учрайдиган тўйинмаган ёғ кислоталари организмнинг қон томирлари деворига ўтириб қоладиган холестеринни чиқариб, атеросклероз касаллигидан сақлайди. Шу сабабли ҳам кам ҳаракат

қилувчи одамлар, айниқса қариялар ўз истеъмолларига кўпроқ ўсимлик мойларини киритишлари мақсадга мувофиқдир.

Bugungi kunda sanoat sohalarida quyidagi raqamli texnologiyalar faol joriy etilmoqda:

- **IoT (Internet of Things):** Mahsulot va uskunalarning onlayn monitoringi. Masalan, neft-gaz sanoatida quvurlar holatini real vaqt rejimida kuzatish.
- **Big Data:** Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali strategik qarorlar qabul qilish. Bu ayniqsa energetika sohasida iste’mol prognozlarini tuzishda foydalidir.
- **Sun’iy intellekt (AI):** Sifat nazorati, bashoratlash tizimlari, robototexnika. Misol uchun, Siemens kompaniyasining ishlab chiqarish liniyalari AI yordamida nosozliklarni oldindan aniqlaydi.

- **Bulutli texnologiyalar:** Ma’lumotlarni markazlashtirilgan holda saqlash va boshqarish, masofaviy ishlab chiqarish boshqaruvi imkonini beradi.
- **Raqamli egizaklar (Digital Twin):** Real ob’ektlarning virtual nusxalari yordamida sinov va modellashtirish ishlari bajariladi. Masalan, General Electric kompaniyasi turbinalarining raqamli egizaklari yordamida xizmat muddati prognoz qilinadi.

3. ***Amaliy tajribalar va milliy sanoat korxonalarida raqamlashtirish.***

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida ham bosqichma-bosqich raqamli transformatsiya amalga oshirilmoqda. Quyidagi misollar bunga dalildir:

- **“O‘zbekneftgaz” AJ** da neft qazib olish jarayonlari avtomatlashtirilgan monitoring tizimi orqali boshqarilmoqda.
- **“O‘zbekgidroenergo”** tizimidagi gidroinshootlar raqamli texnologiyalar asosida avtomatik nazorat qilinadi.
- **“NAVOIYAZOT”** zavodida ishlab chiqarish liniyalari PLC tizimlari orqali boshqarilib, inson omiliga bog‘liqlik kamaytirilgan.

Bundan tashqari, mahalliy IT-kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan sanoat monitoring platformalari (masalan, “Smart Factory Uzbekistan”) mahalliy korxonalar uchun moslashtirilgan raqamli yechimlarni taqdim etmoqda.

Shunday ekan, endi bu borada o‘zimizni takliflarimizni bersak, ya’ni:

Birinchidan, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish: Ishlab chiqarish jarayonlariga IoT, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish tizimlarini integratsiya qilish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Ikkinchidan, malaka oshirish va kadrlar tayyorlash dasturlari: Raqamlashtirish jarayonlarini to‘g‘ri boshqarish uchun mutaxassislarni qayta tayyorlash va zamonaviy ko‘nikmalarga ega kadrlar zaxirasini yaratish zarur.

Uchunchidan, axborot xavfsizligini kuchaytirish: Sanoqli ma’lumotlar bilan ishlaydigan raqamli sanoatda kiberxavfsizlikni ta’minlash ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolishi lozim.

To‘rtinchidan, infratuzilmani rivojlantirish: Raqamlashtirishga mos telekommunikatsiya tarmoqlari, data-markazlar va yuqori sifatli internet bilan ta’minlash zarur.

Beshinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash: Milliy va xalqaro darajadagi innovatsion loyihalarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash raqamli sanoatning rivojiga katta turtki beradi.

Oltinchidan, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish: Davlat siyosatlari va xususiy sektor tashabbuslari o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini joriy etish raqamlashtirish jarayonini tezlashtiradi.

Endi yuqorida zikr etilganlardan kelib chiqib, quyidagi xulosani qilsak bo‘ladi, ya’ni:

Sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish - bu zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish, raqobatbardoshlikni oshirish va resurslardan unumli foydalanish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki mehnat unumdorligining oshib borishiga, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalar - sun’iy intellekt, “aqlli” sensorlar, IoT, Big Data, blokcheyn va robototexnika - sanoatning barcha yo‘nalishlarida jadal joriy etilib, ularning ishlash samaradorligini yuqori bosqichga ko‘tarmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida kadrlar malakasini oshirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va infratuzilmani zamon talablariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Xakimov Z. A.** To‘qimachilik klasterlarining raqamli transformatsiya va tendensiyalari // Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, *Arxiv nauchnyx issledovaniy* jurnali. — 2023.
2. **Raxmonov N. R.** Sanoat 4.0 dasturi rivojlanishining istiqbol va muammolari. — Qo‘qon universiteti, 2023.

3. **Kasimov A. A.** Sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari va ularni yanada oshirish yo‘nalishlari // Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*. — 2023.
4. **Alimatov B. A.** Sanoat mashina va jihozlarini ta’mirlash va ulardan foydalanish. — Farg‘ona, NamDU raqamli kutubxonasi, 2008.
5. **Hojimatov Q.** Sanoat uchun xom ashyobop o‘simliklar. — NamDU raqamli kutubxonasi, 1975.

INNOVATSION YECHIMLAR VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Muxitdinov Abduvali Burxanovich
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: *Bugungi kunda dunyo bo'ylab texnologiyalarning tezkor rivojlanishi jamiyatning turli sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsion yechimlar va zamonaviy texnologiyalar, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, sanoat va boshqa ko'plab sohalarda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu mavzu texnologik yangiliklarning ahamiyatini, ularning jamiyatga ta'sirini va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi innovatsion yondashuvlarni o'rganishga qaratilgan. Texnologik taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari va uning turli sohalarga tatbiq etilishining ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion yechimlar, zamonaviy texnologiyalar, texnologik rivojlanish, ilm-fan, tibbiyot, iqtisodiyot, sanoat, ta'lim.*

Аннотация*. В настоящее время стремительное развитие технологий во всём мире оказывает серьёзное влияние на различные сферы общества. Инновационные решения и современные технологии создают новые*

возможности в экономике, образовании, медицине, промышленности и во многих других областях. Данная тема направлена на изучение значимости технологических новшеств, их воздействия на общество, а также возможных будущих инновационных подходов. Представляется подробная информация об основных направлениях технологического прогресса и важности их внедрения в различные отрасли.

Ключевые слова: *инновационные решения; современные технологии; технологическое развитие; наука; медицина; экономика; промышленность; образование.*

Abstract: *In today's world, the rapid development of technologies is having a significant impact on various sectors of society. Innovative solutions and modern technologies are creating new opportunities in fields such as economy, education, healthcare, industry, and many others. This topic focuses on the importance of technological innovations, their effects on society, and the potential future innovative approaches that may emerge. Detailed information will be provided on the main directions of technological advancement and the importance of their application in various fields.*

Keywords: *innovative solutions, modern technologies, technological development, science, healthcare, economy, industry, education.*

Bizga ma’lumki, innovatsiyalar va yangi texnologiyalar jamiyatlar va iqtisodiyotlar uchun zamonaviy rivojlanishning ajralmas qismlaridir. Shunday ekan, texnologik yangiliklar, ilmiy kashfiyotlar va innovatsion yechimlar iqtisodiy o‘sish, hayot sifatini yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsiyalar hozirgi kunda har bir sohada, jumladan energetikadan tortib, tibbiyot va ta’limgacha tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar hayotimizga chuqur kirib borgan sari, ularga doir bir qator ijtimoiy, iqtisodiy va etik muammolar ham yuzaga kelmoqda. Texnologik o‘zgarishlar ko‘plab yangi imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, ular yangi muammolar va xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, texnologik ishsizlik,

ma’lumotlar xavfsizligi, sun’iy intellektning etik muammolari va ijtimoiy tengsizlik kabi masalalar hozirgi kunda jiddiy muammolarga aylangan. Ushbu masalalarni hal qilish uchun innovatsiyalar va texnologiyalarning samarali boshqarilishi va ularga doir mos siyosatlarning ishlab chiqilishi zarurati tug‘ilmoqda.

Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar bugungi kunda iqtisodiyotning va jamiyatning rivojlanishida markaziy o‘rin egallaydi. Zamonaviy texnologiyalar iqtisodiy o‘sish, ish o‘rinlari yaratish, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilashga, balki shu bilan birga inson hayotining turli sohalarini, jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport va energetika tizimlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shunigdek, texnologik o‘zgarishlar yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar orasida texnologik ishsizlik, ma’lumotlar xavfsizligi, raqamli tafovutlar va texnologiyalarning etik qo‘llanilishi masalalari mavjud. Innovatsiyalarni samarali boshqarish va yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonida ushbu muammolarni hal qilishning ahamiyati katta. Innovatsiyalarni yaratish va ularga mos siyosatlarni ishlab chiqish barqaror rivojlanish va jamiyat farovonligini ta’minlashda muhimdir [Shodiev, 2020: 180].

Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar o‘zgarishlarni tezlashtirayotgan bo‘lsa-da, bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan:

1. ***Texnologik ishsizlik muammosi*** - бунда, avtomatlashtirish va sun’iy intellektning rivojlanishi bir qator ish o‘rinlarini yo‘qotishga olib kelmoqda. Bu esa ishchi kuchining ba’zi qismlarini ish bilan ta’minlashni qiyinlashtirmoqda.

2. ***Ma’lumotlar xavfsizligi muammosi*** - ya’ni, yangi texnologiyalar yordamida axborotlar tez va oson tarqatilsa-da, bu ma’lumotlar xavfsizligiga tahdid soladi. Shaxsiy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi va kiber hujumlar tez-tez uchraydigan masalalarga aylangan.

3. ***Texnologiyalarni ta’lim va salomatlik sohalarida qo‘llashdagi noaniqliklar muammosi*** - bu jarayonda innovatsiyalar va yangi texnologiyalar

ba’zan ta’lim va tibbiyot kabi sohalarga noto‘g‘ri yoki noaniq tarzda joriy etiladi, bu esa ularning samaradorligini pasaytiradi va ijtimoiy adolatsizliqqa olib keladi.

4. ***Resurslarning cheklanganligi muammosi*** - bu holatda, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun ko‘p miqdorda resurslar talab etiladi, bu esa ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Demak, shunday ekan bu borada mavjud muammoni hal qilish usullari quyidagicha bo‘ladi, ya’ni:

1. ***Ta’lim tizimini yangilash*** - Yangi texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi uchun ta’lim tizimi yangilanishi zarur. Texnologiyalarni o‘rganish, kodlash va sun’iy intellekt kabi sohalarda ta’lim dasturlarini kuchaytirish kerak.

2. ***Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash siyosatlarini ishlab chiqish*** - Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun hukumatlar va xususiy sektor hamkorligida ilm-fan, texnologiya va startaplarni rivojlantirishga qaratilgan siyosatlar ishlab chiqilishi lozim. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sishni va yangi ish o‘rinlarini yaratishni ta’minlaydi.

3. ***Ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash*** – Kiberxavfsizlik va ma’lumotlar xavfsizligi sohasida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish zarur. Shu bilan birga, foydalanuvchilarni ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha ongli qilish kerak.

4. ***Sustainable innovatsiyalarni rivojlantirish*** - Yangi texnologiyalarni yaratishda atrof-muhitni himoya qilishni e’tiborga olish zarur. Masalan, yashil texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo‘llash ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi [Tashpulatov, 2021: 210].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bu borada quyitdagi takliflarni bersak maqsadga muvofiq bo‘lar deb bildik, ya’ni:

1. Innovatsion dasturlarni rivojlantirish va yangi texnologiyalarga investitsiyalarni oshirish.

2. Yangi texnologiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirini baholash uchun strategik rejalar ishlab chiqish.

3. Kiberxavfsizlikni mustahkamlash va texnologiyalarning xavfsiz qo‘llanilishi uchun yangi standartlar va qonunlarni qabul qilish.

4. Texnologiyalarning ta’lim, salomatlik va ijtimoiy xizmatlarga qo‘llanilishini yanada yaxshilash uchun tizimli yondashuvlarni amalga oshirish.

5. Innovatsiyalarni joriy etishda ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun ekologik texnologiyalarni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, innovatsiyalar va yangi texnologiyalar jamiyatni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi, ammo ular bilan bog‘liq muammolarni hal qilish zarur. Yangi texnologiyalarning iqtisodiyotga va ijtimoiy hayotga ta’sirini boshqarish, texnologik ishsizlikni kamaytirish, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash, raqamli tafovutlarni bartaraf etish va ekologik barqarorlikni saqlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. Shuningdek, innovatsion dasturlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tizimini yangilash, yangi texnologiyalarni ijtimoiy sohalarda samarali qo‘llash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun hukumat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Innovatsiyalarni joriy etishda texnologiyalarni barqaror va ekologik jihatdan to‘g‘ri boshqarish, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hisobga olish jamiyatni yanada adolatli va barqaror qilishga yordam beradi. Shunday qilib, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni samarali qo‘llash jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar jamiyatning barcha jabhalarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Ular iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Biroq, texnologik rivojlanishning salbiy tomonlari ham mavjud, jumladan texnologik ishsizlik, kiberxavfsizlik muammolari va raqamli tafovutlar. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun hukumatlar, xususiy sektor va jamoat tashkilotlari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur. Texnologiyalarni to‘g‘ri boshqarish, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hisobga olgan holda, ularning barqaror va etik qo‘llanilishi jamiyatda adolatli rivojlanishni ta’minlaydi.

Shuningdek, innovatsiyalarni joriy etishda ekologik barqarorlikni saqlash, atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish kabi masalalar ham muhimdir. Texnologiyalarni ishlab chiqishda ularning uzoq muddatli ta’sirlarini hisobga olish va ularni jamiyatning turli qatlamlariga teng taqsimlash orqali ijtimoiy tenglikni ta’minlash zarur. Innovatsiyalarni qo‘llashda o‘quv tizimini yangilash, yoshlarni texnologiyalarga tayyorlash va ularning raqamli ko‘nikmalarini oshirish ham muhimdir [Rahimov, 2022: 240].

Natijada, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni barqaror rivojlanish uchun samarali boshqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hisobga olish orqali jamiyatda barqaror o‘sish va farovonlikni ta’minlash mumkin. Bu, o‘z navbatida, insonlarning hayot sifatini oshirish va kelajak avlodlar uchun barqaror atrof-muhitni saqlashga imkon yaratadi. Shunday qilib, texnologik o‘zgarishlar va innovatsiyalarni boshqarish orqali biz ijtimoiy adolatni ta’minlab, global rivojlanishga hissa qo‘shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Shodiev R.** Texnologik rivojlanish va ma’lumotlar xavfsizligi. — 2020. — 180 b.
2. **Tashpulatov Z.** Yangi texnologiyalar va global iqtisodiyot. — 2021. — 210 b.
3. **Rahimov A.** Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar: nazariy asoslar va amaliy yechimlar. — 2022. — 240 b.

STANDARTINI NEFT VA GAZ KORXONALARIDA JORIY ETISHNING ASOSIY QADAM VA TAJRIBALARI

Nurboev Mirkomil Sarvar o‘g‘li

O’zbekiston standartlar instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ISO 9001:2015 xalqaro sifat menejmenti standartini neft va gaz korxonalarida joriy etishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari kompleks tarzda o‘rganilgan. Tadqiqot O‘zbekiston neft va gaz sanoati korxonalari, xususan “O‘zbekneftgaz” AJ va Saneg kompaniyasi misolida olib borilgan.*

ISO 9001 standartini joriy etishning asosiy bosqichlari - tayyorlov, rejalashtirish, hujjatlashtirish, joriy etish, ichki audit va sertifikatlash jarayonlari tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida sifat menejmenti tizimini joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va tavakkalchiliklar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari neft va gaz korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, jarayonlarni optimallashtirish va xalqaro standartlarga moslashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ISO 9001, sifat menejmenti tizimi, neft va gaz sanoati, jarayonlar yondashuvi, ichki audit, sertifikatlash, O‘zbekiston neft-gaz korxonalari, boshqaruv samaradorligi.*

Abstract. *This dissertation research examines the theoretical, methodological, and practical aspects of implementing the ISO 9001:2015 international quality management system standard in oil and gas enterprises. The study is conducted using the example of oil and gas companies in the Republic of Uzbekistan, particularly JSC “Uzbekneftegaz” and Saneg. The main stages of ISO 9001*

implementation—preparation, planning, documentation, implementation, internal audit, and certification—are thoroughly analyzed. Key challenges and risks encountered during the implementation of the quality management system are identified, and scientific and practical recommendations are proposed to improve management efficiency. The research results contribute to enhancing operational performance and ensuring compliance of oil and gas enterprises with international quality standards.

Keywords: *ISO 9001, quality management system, oil and gas industry, process approach, internal audit, certification, oil and gas enterprises of Uzbekistan, management efficiency.*

Аннотация. *В диссертационном исследовании комплексно изучены теоретические, методические и практические аспекты внедрения международного стандарта системы менеджмента качества ISO 9001:2015 на предприятиях нефтегазовой отрасли. Исследование проведено на примере предприятий нефтегазового сектора Республики Узбекистан, в частности АО «Узбекнефтегаз» и компании Saneg. Проанализированы основные этапы внедрения стандарта ISO 9001, включая подготовку, планирование, документирование, внедрение, внутренний аудит и сертификацию. Выявлены основные проблемы и риски, возникающие в процессе внедрения системы менеджмента качества, а также разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности управления. Результаты исследования способствуют повышению управленческой эффективности и адаптации нефтегазовых предприятий к международным стандартам.*

Ключевые слова: *ISO 9001, система менеджмента качества, нефтегазовая отрасль, процессный подход, внутренний аудит, сертификация, предприятия нефтегазовой отрасли Узбекистана, эффективность управления.*

Kirish. Global neft va gaz sanoati murakkab texnologik jarayonlar, yuqori xavfsizlik talablar va raqobatli bozor sharoitida faoliyat yuritadi. Bu sohada korxonalar boshqaruv jarayonlarini standartlashtirish, sifatni uzluksiz yaxshilash

hamda xalqaro standartlarga moslashuvni ta’minlash orqali samaradorlikni oshirishga intilmoqda. ISO 9001:2015 sifati menejmenti tizimi (SMT) korxonalarga jarayonlar yondashuvi, risk-asosida boshqaruv va mijozlar ehtiyojlarini qondirishda uzluksizlikni kafolatlash imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida ham neft va gaz korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish, boshqaruv samaradorligini oshirish, ichki jarayonlarni tizimlashtirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Xususan, «O‘zbekneftgaz» AJ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va ISO 9001 talablari asosida jarayonlarni qayta tashkil etishga qaratilgan bir qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, Saneg kompaniyasi esa ISO 9001:2015 sertifikatini olgan O‘zbekistonning yetakchi neft sinovlari laboratoriyalaridan biri sifatida sifat nazorati bo‘yicha amaliy tajriba yaratdi.

Ushbu maqola ISO 9001 standartini neft va gaz korxonalarida joriy etishning asosiy qadam va amaliy tajribalarini O‘zbekiston misolida ilmiy asoslab beradi.

Asosiy qism. ISO 9001:2015 — sifat menejmenti tizimi bo‘yicha xalqaro standart bo‘lib, u korxona faoliyatining iste’molchi talablariga moslashish, peshqadamlik, insonlarning o‘zaro munosabati, jarayonli yondashuv, yaxshilanish, guvohnomalarga asoslangan qarorlar qabul qilish, o‘zaro munosabatlar menejmenti tamoyillariga asoslanadi. Standart korxonalarni quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlaydi:

ISO 9001 boshqaruv tizimi butun dunyoda korxona ishi sifatini oshirish bo‘yicha tan olingan asosiy mexanizmlardan biridir.

Neft va gaz korxonalarida ISO 9001 joriy etishning asosiy qadam va bosqichlari:

ISO 9001 standartini neft va gaz korxonalarida joriy etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Tayyorlov va diagnostika bosqichi:

Ushbu bosqichda korxona ichki holati o‘rganiladi: mavjud boshqaruv jarayonlari, hujjatlarning yetarliligi va standart talablari bilan mosligi baholanadi. Bu diagnostika SMT joriy etish rejasini ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Rejalashtirish va strategik yondashuv:

Rejalashtirish bosqichida korxona sifat siyosati, sifat maqsadlari, resurslar taqsimoti va jamoa vakolatlari aniqlanadi. O‘zbekiston neft-gaz kompaniyalarida bu bosqichda rahbariyatning izchil ishtiroki muhimligi amalda tasdiqlangan.

Hujjatlashtirish

ISO 9001 standartining talablariga mos hujjatlar — sifat qo‘llanmasi, standart operatsiyalar tartibi, jarayon xaritalari, ro‘yxat va protseduralar ishlab chiqiladi. Bu bosqich ko‘pincha eng ko‘p vaqt talab etadigan jarayon hisoblanadi.

Joriy etish va ichki audit:

Hujjatlar tasdiqlangach, standart talablariga muvofiq tizim joriy etiladi. Xodimlar o‘qitiladi, ichki auditlar orqali tizimning real faoliyati nazorat qilinadi va takomillashtirishlar amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish:

Mustaqil sertifikatlash organi tomonidan SMTning ISO 9001:2015 standartiga muvofiqligi bo‘yicha tashqi audit o‘tkaziladi. Muvaffaqiyatli auditdan so‘ng korxona ISO 9001 sertifikatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekneftgaz AJ tajribasi «O‘zbekneftgaz» AJ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Standard talablari asosida boshqaruv jarayonlarini qayta ko‘rib chiqish, ichki audit mexanizmlarini takomillashtirish va xodimlar malakasini oshirish ishlari olib borilmoqda. Bu jarayon korxona ish samaradorligini oshirish va xavf-risklarni boshqarish mexanizmini mustahkamlashga xizmat qiladi. *(milliy axborot agentligi ma’lumotlari)*

Saneg kompaniyasi tajribasi Saneg kompaniyasi o‘zining kimyoviy-analitik laboratoriyalarida ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimi sertifikatini olgan bo‘lib, bu laboratoriyalarda neft va neft mahsulotlari tizimli ravishda tekshirilib, sifat nazorati ishlab chiqilgan.

Sertifikatlashtirish mustaqil ekspertiza o‘tkazish, nazorat qilish, sinash va sertifikatlashtirish sohasida jahonda yetakchi bo‘lgan Bureau Veritas tashkiloti tomonidan mustaqil audit orqali tasdiqlangan. *(Saneg rasmiy sayti ma’lumotlari)*

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi xalqaro boshqaruv tizimlari standartlarini qayta sertifikatlash sertifikatlarini topshirish marosimini o'tkazdi. Zavod 2024-yil iyun oyida qayta sertifikatlash jarayonidan muvaffaqiyatli o'tdi va yuqori talablarga rioya qilganini tasdiqladi:

- ISO 9001:2015 (Sifat boshqaruv tizimi)
- ISO 14001:2015 (Atrof-muhitni boshqarish tizimi)
- ISO 45001:2018 (Mehnat salomatligi va xavfsizligini boshqarish tizimi)

Ferg'ona neftni qayta ishlash zavodi ko'p yillardan beri xalqaro boshqaruv standartlariga rioya qilib kelmoqda, bu esa unga yuqori mahsulot sifati, mehnat xavfsizligi va atrof-muhit standartlariga rioya qilishni ta'minlash imkonini beradi. Joriy etilgan boshqaruv tizimlari CERT INTERNATIONAL LLC sertifikatlash organi tomonidan mustaqil auditdan o'tkazildi va ishlab chiqarish jarayonlarining yuqori darajadagi tashkiloti tasdiqlandi. *(Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi rasmiy sayti ma’lumotlari)*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Xudoykulov A., Abdullayev B.** Sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimlarini joriy etish muammolari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2020.
2. **Abdukarimov A., Rahimov T.** Sanoat korxonalarida menejment. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. **Qodirov A.X.** Sifat menejmenti asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. **O‘zbekneftgaz AJ**da sifat menejmenti tizimini joriy etish bo‘yicha axborotlar. — Milliy axborot agentligi UzA.
5. **Saneg kompaniyasi**. ISO 9001:2015 sertifikatiga ega bo‘lishi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar.
6. **Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi** rasmiy sayti ma’lumotlari.

7. **ISO 9001:2015.** Quality management systems — Requirements. — International Organization for Standardization, Geneva, 2015.

35 KV LI KABEL LINIYALARINING TEXNIK HOLATINI NAZORAT QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Pirmatov Nurali Berdiyorovich

Yaxayeva Shoxida Axmad qizi

Islom Karimov nomli Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 35 kV kuchlanishli kabel liniyalarining texnik holatini baholash va diagnostika qilishning zamonaviy usullari har tomonlama tahlil qilingan. Kabel izolyatsiyasining eskirish mexanizmlari, shikastlanishlarning vujudga kelish omillari hamda ularni erta aniqlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Diagnostika usullarining iqtisodiy samaradorligi, profilaktik xizmat ko‘rsatishning zamonaviy konsepsiyalari va “texnik holatga asoslangan xizmat ko‘rsatish” modeli yoritilgan. Mavjud nazorat usullarining afzalliklari va kamchiliklari solishtirilib, izolyatsiyaga zarar yetkazmasdan tashxislashga imkon beruvchi texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish zarurligi ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *35 kV kabel, izolyatsiya, teshilish, diagnostika, qisman razryadlar, teplovizion nazorat, texnik holat, ekspluatatsiya ishonchliligi*

Аннотация. *В данной статье проведён всесторонний анализ современных методов оценки технического состояния и диагностики кабельных линий напряжением 35 кВ. Рассмотрены механизмы старения кабельной изоляции, факторы возникновения повреждений и возможности их раннего выявления. Освещены вопросы экономической эффективности диагностических методов, современные концепции профилактического*

обслуживания, а также модель «обслуживания по техническому состоянию». Проведено сравнение преимуществ и недостатков существующих методов контроля, научно обоснована необходимость широкого внедрения технологий диагностики без повреждения изоляции.

Ключевые слова: *кабельные линии 35 кВ, изоляция, пробой, диагностика, частичные разряды, тепловизионный контроль, техническое состояние, эксплуатационная надёжность.*

Abstract. *This article presents a comprehensive analysis of modern methods for assessing the technical condition and diagnosing 35 kV power cable lines. The mechanisms of cable insulation aging, factors leading to damage, and possibilities for early fault detection are examined. The economic efficiency of diagnostic methods, modern concepts of preventive maintenance, and the "condition-based maintenance" model are discussed. The advantages and disadvantages of existing monitoring methods are compared, and the necessity of widespread implementation of non-destructive insulation diagnostic technologies is scientifically substantiated.*

Keywords: *35 kV cable lines, insulation, breakdown, diagnostics, partial discharges, thermal imaging monitoring, technical condition, operational reliability.*

Elektr tarmoqlarining xavfsizligi va barqaror ishlashini ta'minlash 35 kV li kabel liniyalarida avariya holatlarining kamaytirilishi orqali erishiladi. Bunga shikastlanishlarni erta aniqlash, shuningdek diagnostika hamda boshqa nazorat usullari yordamida yuzaga kelayotgan nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etish orqali erishish mumkin. Shu sababli hozirgi davrda kabel liniyalari texnik holatini baholash uchun turli yondashuv va metodlar ishlab chiqilmoqda.[1]

Kabel liniyasida teshilishning asosiy sababi odatda izolyatsiya holatining yomonlashuvi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon keskin emas, balki ma'lum vaqt davomida asta-sekin kechadi. Shuning uchun ekspluatatsiya davrida kabel liniyasining izolyatsiya holatini nazorat qilish, uning joriy texnik holatini bilish va xavflilik darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Davriy diagnostika o'tkazish

izolyatsiya materialining fizik-mexanik xususiyatlari qachon yomonlashishini aniqlash va ta’minlanayotgan iste’molchilarning ishonchli ishlashini ta’minlash uchun zarur profilaktik tadbirlarni ko‘rish imkonini beradi. Shu bilan birga, qo‘llaniladigan nazorat usulining asosiy mezonlaridan biri uning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi hisoblanadi [2].

Amalda qo‘llanilayotgan reglamentlangan xizmat ko‘rsatish tizimi tarkibida bir qator tizimli kamchiliklar mavjud bo‘lib, ular ekspluatatsiya jarayonida izolyatsion kabel materialining ishonchli holatini uzoq muddat davomida saqlab qolishni qiyinlashtiradi. Kabel liniyalarining ishlash sharoitlari hududlar bo‘yicha sezilarli darajada farqlanishi natijasida izolyatsion materialning yeyilish tezligi ham turlicha bo‘ladi. Bu esa texnik holatni baholashda yagona mezonlardan foydalanish yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Agar baholash jarayonida obyektning individual xususiyatlari e’tiborga olinmagan holda umumiy yondashuv qo‘llanilsa, kabel liniyalarining xizmat muddatini optimal xarajatlar bilan uzaytirish va ekspluatatsion ishonchliligini saqlab qolish imkoniyatlari cheklanadi. Shu bois kabel liniyalarining joriy texnik holatini aniq, obyektiv va kompleks baholash zarurati mavjud.[3,4]

Mazkur muammoni samarali hal etish uchun an’anaviy reglamentlangan xizmat ko‘rsatish tizimidan real texnik holatga asoslangan xizmat ko‘rsatish konsepsiyasiga o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish, nosozliklarni erta aniqlash, avariyaviy holatlar xavfini kamaytirish hamda xizmat muddatini ilmiy asosda prognozlash imkonini beradi [5,6].



1-rasm. Kabel liniyasi izolatsiyasiga shartli zarar yetkazib shikastlanish joyini aniqlash usuli yordamida sinovlar o’tkazish.



2-rasm. Kabel liniyasi izolatsiyasiga zarar yetkazmasdan shikastlanish joyini aniqlash usuli yordamida sinovlar o’tkazish.

Kabel liniyasi izolyatsiyasini nazorat qilish usullarining bir necha turlari mavjud, lekin ulardan faqat bittasi tartibga solingan bo‘lib, ular kabel liniyasi izolatsiyasiga zarar yetkazib shikastlanish joyini aniqlash yoki kabel liniyasi

izolatsiyasiga shartli zarar yetkazib shikastlanish joyini aniqlash va kabel liniyasi izolatsiyasiga zarar yetkazmasdan shikastlanish joyini aniqlash turlarga bo‘linadi.

So‘nggi yillarda 35 kV li kabel liniyalarining texnik holatini baholashda izolyatsiyaga zarar yetkazmasdan shikastlanish joyini aniqlash usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha intensiv tadqiqotlar olib borilmoqda. Quyidagi 1-jadvalda mavjud bo‘lgan asosiy usullar tahlili, ularning afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan [7; 19–24-betlar].

35 kV li kabel liniyalarining texnik holatini baholash va tashxislashning zamonaviy usullari tahlili

Tashxislash usullari	Qulayligi	Kamchiligi
Yuqori kuchlanishli o’zgarmas tok bilan sinov o’tkazish	1. Faqat sinov oldi holatni o’rnatadi 2. Mahalliy shikastlanishlarni aniqlaydi	1. Kabel liniyasini shartli ravishda shikastlaydi 2. Faqat “yaroqli” yoki “yaroqsiz” ekanligi haqida ma’lumot beradi. Qolgan resurslar holatini baholamaydi
Sanoat chastotali o’zgaruvchan tok bilan sinov o’tkazish	1. Sinov yuklamasi kabel liniyasi ishlayotgan yuklamaga teng (kuchlanish chastotasi ham) 2. Har xil izolatsiya turlari uchun qo’llanilishi mumkin 3. Tasniflashni o’lchash mumkin	1. Transformatorlarning og’irligi sababli dala sharoitida foydalanish imkonsiz, chunki sinov uchun yuqori quvvat talab etiladi 2.Labarator uskunalarning tan narxi yuqori ekanligi

	1. Uskunalarni og’irligining yuqori emasligi	1. Sig’im va yuk turiga ko’ra kuchlanish buzilishi mavjud
O’ta past chastotali o’zgaruvchan kuchlanish bilan sinash	2. Har xil izolatsiya turlari uchun qo’llanilishi mumkin	2. “Adashgan” va asimmetrik to’lqinlarning hosil bo’lishi izolatsiyaning yemirilishiga olib keladi
		3. Tasniflanishn o’chash imkoni yoq
Qisman razryadlar usuli	1. Ushbu usulni real vaqt rejimida ishchi kuchlanish ostida o’tkazish uchun	1. Qo’shni ishchi uskunalardan qisman razryadlarni (QR) filtrlash qiyinligi
	2. Kompakt uskunalar	2.Labarator uskunalarning tan narxi yuqori ekanligi
	3. Manbalar turli shakldagi sinov kuchlanishlariga ega	3. Ishchi hodimlarni qayta tayyorlash
Teplovizion usul	1. Ishchi rejimda masofaviy sinov o’tkazish imkoniyati	1. Kabel liniyalari tunnel yoki eskaladalarda o’tkazilganligi sababli haroratni o’lchash imkonsizligi
	2. Ko’p miqdordagi kabel liniyalarini bir vaqtning o’zida tekshirish imkoniyati	2. Qolgan resurslar holatini baholamaydi

Amalda qo‘llanilayotgan reglamentlangan xizmat ko‘rsatish tizimi kabel liniyalarining real ekspluatatsiya sharoitlarini to‘liq hisobga olmasligi sababli, ularning xizmat muddatini optimal xarajatlar bilan uzaytirish imkoniyatlarini

cheklashi aniqlandi. Hududiy va texnik omillarning turlicha bo‘lishi izolyatsiya materialining yeyilish tezligiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, texnik holatni baholashda individual yondashuv zarurligini taqozo etadi.[8,9]

Tahlil natijalariga ko‘ra, kabel izolyatsiyasiga zarar yetkazmasdan tashxislash usullari eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri ekanligi asoslandi. Ushbu usullar nosozliklarni erta aniqlash, avariyaviy holatlar xavfini kamaytirish hamda kabel liniyalarining qolgan resursini baholash imkonini beradi. Shu munosabat bilan kabel liniyalariga xizmat ko‘rsatishda real texnik holatga asoslangan konsepsiyani joriy etish ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish, elektr ta’minoti ishonchliligini oshirish va 35 kV li kabel liniyalarining xizmat muddatini ilmiy asosda prognozlash uchun samarali yechim hisoblanadi.[10]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Pirmatov N. B., Yaxyayeva Sh. A.** 35 kV li kabel liniyalarida shikastlanishlarning paydo bo‘lishi, tasnifi va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar // “Kelajak samarali energetikasi — muammolar va yechimlar” xalqaro ilmiy-texnik konferensiya to‘plami.
2. **Куделина Д. В.** Метод, модели и алгоритмы для автоматизированного контроля состояния изоляции кабельных линий. — Курск, 2017. — 16–36, 44–58 с.
3. **Новикова Ф. Ш. Ж. Д. К.** Обеспечение безопасности кабельных линий 6–35 кВ с использованием комбинированной диагностики. — Уфа, 2023. — 19–24, 27–31 с.
4. Неразрушающая диагностика силовых кабельных линий номинальным напряжением 6–35 кВ [Электронный ресурс]. — URL: http://market.elec.ru/nomer/19/diagnostics-cable (дата обращения: 25.07.2017).

5. **Pirmatov N. B., Yaxyayeva Sh. A.** Statistical data of 35 kV cable lines of Tashkent city analysis // Science and Innovation International Scientific Journal. — 2023. — Vol. 2, Issue 5. — 54–58 b.
6. **Привалов И. Н.** Современные методы и технические средства для испытаний и диагностики силовых кабельных линий номинальным напряжением до 35 кВ включительно: учебное пособие. — СПб., 2008. — 82 с.
7. **Привалов И. Н.** Силовые кабельные линии до 35 кВ: неразрушающая диагностика и техническое обслуживание // Электротехническое оборудование. — Санкт-Петербург, 2009.
8. **Pirmatov N. B., Yaxyayeva Sh. A.** Kabel liniyasi izolyatsiyasining texnik holatini elektr izolyatsiya qarshiligi va elektr mustahkamligi orqali baholashning matematik ifodasi // “Geodeziya, kartografiya va kadastr muammolari” ilmiy jurnali. — № 4. — 88–94 b.
9. **Cerqueira T. L., Bertoni F. C., Pires M. G.** Instance genetic selection for fuzzy rule-based systems optimization to opinion classification // IEEE Latin America Transactions. — 2020. — Vol. 18. — P. 1215–1221.
10. **Yaxyayeva Sh. A., Pirmatov N. B.** O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar tumanlari kesimida 35 kV li kabel liniyalarining holatini tahlil qilish // Education Research in Universal Sciences. — 2022. — July. — P. 25–28.

MUHANDISLIK TIZIMLARIDAGI NOCHIZIQLI EVOLYUTSION JARAYONLARNI AVTOMODEL YECHIMLAR VA XARAKTERISTIKALAR USULI ORQALI TADQIQ ETISH

Sayfullayeva M.Z. Islamova O.A. Tadjibayeva Sh.E.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xususiy hosilali nochiziqli differensial tenglamalarni yechishda avtomodel yechimlar va xarakteristikalar usulining nazariy hamda amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi misolida o‘lchamlar tahlili va masshtab invariantligi yordamida murakkab xususiy hosilali tenglamalarni oddiy differensial tenglamalarga keltirish bosqichlari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, birinchi tartibli nochiziqli tenglamalar uchun Koshi masalasini yechishda xarakteristikalar usulining geometrik talqini va yechimning besh o‘lchamli fazodagi xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada avtomodel yechimlarning "oraliq asimptotika" sifatidagi o‘rni hamda boshlang‘ich va chegaraviy shartlarning xarakterli masshtablari farq qiladigan holatlardagi aniqlik darajasi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar:*Xususiy hosilali differensial tenglamalar, avtomodel yechimlar, xarakteristikalar usuli, nochiziqli evolyutsion jarayonlar, issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi, o‘lchamlar tahlili, masshtab invariantligi, oraliq asimptotika.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается теоретическое и практическое значение использования автомодельных решений и метода характеристик при решении нелинейных дифференциальных уравнений в частных производных. На примере уравнения теплопроводности подробно описаны этапы сведения сложных уравнений в частных производных к обыкновенным дифференциальным уравнениям с помощью анализа размерностей и масштабной инвариантности. Также рассмотрена геометрическая интерпретация метода характеристик для нелинейных уравнений первого порядка и свойства решений в пятимерном пространстве. Обоснована роль автомодельных решений как «промежуточной асимптотики» (intermediate asymptotics) и определена степень их точности в случаях, когда характерные масштабы начальных и граничных условий существенно различаются.*

Ключевые слова: *Дифференциальные уравнения в частных производных, автомодельные решения, метод характеристик, нелинейные эволюционные процессы, уравнение теплопроводности, анализ размерностей, масштабная инвариантность, промежуточная асимптотика.*

Abstract. *This article examines the theoretical and practical significance of employing self-similar solutions and the method of characteristics in solving nonlinear partial differential equations. Using the heat conduction equation as a primary example, the study details the process of reducing complex partial differential equations to ordinary differential equations through dimensional analysis and scaling invariance. Furthermore, the geometric interpretation of the method of characteristics for first-order nonlinear equations and the properties of solutions within a five-dimensional space are explored. The role of self-similar solutions as "intermediate asymptotics" is substantiated, and their degree of accuracy is defined for cases where the characteristic scales of initial and boundary conditions differ significantly.*

Keywords: *Partial differential equations, self-similar solutions, method of characteristics, nonlinear evolutionary processes, heat equation, dimensional analysis, scaling invariance, intermediate asymptotics.*

Kirish. Noliqiziqli tenglamalar fizikada juda muhim rol o‘ynaydi, ammo umuman olganda, ularni yechishning umumiy metodlari mavjud emas. Shunga qaramay, ba’zida o‘zgaruvchilarni almashtirish orqali nochiziqli tenglamani chiziqli ko‘rinishga keltirishga muvaffaq bo‘linadi. Ikki erkli o‘zgaruvchili (x va t) funksiya uchun xususiy hosilali differensial tenglamaning yechimi quyidagi ko‘rinishda tasvirlansa, bunday yechim avtomodel yechim deb ataladi:

$$u(x,t) = A(t)f\left(\frac{x}{l(t)}\right).$$

Bu yerda $A(t)$ va $l(t)$ vaqtga bog‘liq funksiyalardir. Avtomodel yechimning asosiy afzalligi shundaki, bunda masalani yechish xususiy hosilali tenglamadan $f(\xi)$ funksiyasi uchun oddiy differensial tenglamaga o‘tishga keltiriladi. Fizik

masalalarda bu usul ko‘pincha o‘lchamlar tahlili yordamida amalga oshiriladi[1-4]. Avtomodel yechimlarning muhim xususiy holi bu yuguruvchi to‘lqinlar yechimidir:

$$u(x,t) = f(x - Vt), \tag{1}$$

bu yerda f −bir o‘zgaruvchili funksiya, V − const.

Ba’zi muhim evolyutsion tenglamalar uchun yechimlarni aniq qurmasdan turib, ularning vaqtga bog‘liq integral xarakteristikalarini aniqlash mumkin. Biroq, ba’zida o‘zgaruvchilarni almashtirish orqali nochiziqli tenglamani chiziqli ko‘rinishga keltirish mumkin. Bu esa yechimlarning xususiyatlarini, masalan, chekli vaqt ichida o'ziga xosliklar (singulyar echim) hosil bo‘lishini ko‘rish imkonini beradi.

Alohida o‘rinni birinchi tartibli nochiziqli tenglamalar egallaydi. Bunday tenglamalar uchun Koshi masalasini yechish biror-bir oddiy differensial tenglamalar sistemasi yechimini topishga keltiriladi. Ikki o'zgaruvchili $u = u(x,t)$ funksiya uchun umumiy ko‘rinish quyidagicha:

$$F(u,q,p,x,y) = 0 \tag{2}$$

bu yerda $u = u(x,t)$ − yetarlicha silliq deb faraz qilinayotgan echim, $p = u_x, q = u_y$. Bunday tenglamalarni echish xarakteristikalar usuli yordamida differensial tenglamalar tizimiga keltiriladi. (2) tenglikni x va y o‘zgaruvchilari bo‘yicha differnsiallab hamda aralash hosilalarning tengligi sharti, ya’ni:

$$\frac{\partial}{\partial x} q = \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} = \frac{\partial}{\partial y} p$$

ekanligini inobatga olib, quyidagi munosabatlar hosil bo‘ladi:

$$F_p \frac{\partial p}{\partial x} + F_q \frac{\partial p}{\partial y} = -F_x - pF_u$$

$$F_p \frac{\partial q}{\partial x} + F_q \frac{\partial q}{\partial y} = -F_y - qF_u$$

Yuqoridagi munosabatlardan ko‘rinadiki, agar $(x(\tau), y(\tau))$ egri chizig‘i quyidagi xarakteristik tenglamalarni qanoatlantirsa:

$$\dot{x} = F_p, \dot{y} = F_q \tag{3}$$

u holda (bu erda τ parametri bo‘yicha hosila) p va q funkdiyalarining ushbu egri chiziq bo‘ylab o‘zgarishi quyidagicha tavsiflanadi:

$$\dot{p} = -F_x - pF_u,\ \dot{q} = -F_y - qF_u \quad (4)$$

Shu bilan birga, noma'lum $u(x,t) -$ funksiyasining mazkur egri chiziq bo‘ylab hosilasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\dot{u} = u_x\dot{x} + u_y\dot{y} = pF_p + qF_q \quad (5)$$

(3)–(5) tenglamalar yopiq sistemani tashkil etib, u (u, p, q, x, y) koordinatali besh o‘lchamli fazoda egri chiziqlar oilasini aniqlaydi. Ushbu egri chiziqlar (2) tenglamaning xarakteristikalari deb ataladi. Sistemaning umumiy yechimi beshta ixtiyoriy o‘zgarmasga bog‘liq bo‘ladi. Ulardan biri τ parametri bo‘yicha hisoblashning boshlang‘ich nuqtasini tanlash bilan bog‘liq bo‘lib, hisoblash qulayligini ta'minlash maqsadida tanlanadi. (2) tenglama uchun boshlang‘ich shartlar (x, y) tekisligida joylashgan Γ egri chizig‘ida beriladi. Bunda egri chiziq bo‘ylab funksiyaning qiymatlari $u(x,t)|_\Gamma$ hamda mazkur chiziq bo‘ylab yo‘nalishli hosila, ya'ni p va q ning ma'lum bir chiziqli kombinatsiyasi berilgan deb hisoblanadi. Natijada, boshlang‘ich shartlarning qo‘yilishi ikkita ixtiyoriy o‘zgarmasni aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, (2) asosiy tenglamaning qanoatlantirilishi talabi inobatga olinsa, yechimda faqat bitta ixtiyoriy o‘zgarmas qoladi. Shunday qilib, yakuniy yechim xarakteristikalarning bir parametrli oilasi ko‘rinishida ifodalanadi.

Tenglamalarni o‘xshashlik (masshtab) o‘zgarishlari yordamida yechishning ayrim usullari [5] manbada gaz dinamikasi masalalari misolida bayon qilingan. Nochiziqli to‘lqinlarning analitik nazariyasi bo‘yicha boshlang‘ich ma'lumotlarni [6] va u yerda keltirilgan adabiyotlar ro‘yxatidan topish mumkin. Va bu echimlarga na'muna qilib issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasini echish mumkin:

$$u_t = Xu_{xx} \quad (6)$$

Bu erda $-\infty < x < \infty$, $t > 0$ va boshlang‘ich sharti:

$$u(x,0) = Q\delta(x) \quad (7)$$

Cheksizlikda kamayuvchi echimi topiladi: $u(\pm\infty, t) \to 0$.

Echim ikki erkli o‘zgaruvchi x,t va masala parametrlari X,Q ga bog‘liq. Ushbu kattaliklarning o‘lchamlari quyidagicha: $[t] = T, [X] = L^2T^{-1}, [Q] = [u] \cdot L,$

$[x] = L$. Bu erda $T, L, [u]$ −mos ravishda vaqt, uzunlik, va u kattaligining o‘lcham birliklaridir. Masalaning o‘lchamsiz parametrini $\xi = t^n x X^k$ ko‘rinishida topiladi. Daraja ko‘rsatkichlari uchun ikkita tenglama hosil bo‘ladi:

$$n - k = 0 \text{ va } 1 + 2k = 0.$$

O‘rniga qo‘yish uchun $n = k = -\frac{1}{2}$, bundan $\xi = \frac{x}{\sqrt{X^t}}$ kelib chiqadi. U holda issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasining echimi quyidagi ko‘rinishda qidirish mimkin:

$$u(x,t) = \frac{Q}{\sqrt{X^t}} f\left(\frac{x}{\sqrt{X^t}}\right) \quad (8)$$

bu erda $f(\xi)$ −o‘lchamsiz argumentning o‘lchamsiz funksiyasi. (8) ifodani (6) tenglamaga qo‘yish $f(\xi)$ ni aniqlash imkonini beradi:

$$f(\xi) = \frac{1}{2\sqrt{\pi}} exp\left(-\frac{\xi^2}{4}\right)$$

Energiya tashuvchi sohaning (u katta bo‘lgan soha) harakterli kengligi l vaqt o‘tish bilan $l(t) \sim \sqrt{x^t}$ kabi ortadi, u kattaligining maksimal qiymati esa $A(t) \sim \frac{Q}{\sqrt{x^t}}$ kabi kamayadi.

Avtomodel yechimlarni qurish usulini o‘lchamlar tahliliga qaraganda ancha umumiyroq ko‘rinishda ifodalash mumkin. Xususan, avtomodel o‘rniga qo‘yish mos keluvchi fazoviy o‘zgaruvchilar x va vaqt t ning masshtab o‘zgarishlariga nisbatan invariantlik orqali amalga oshiriladi. Bunda avtomodel o‘zgaruvchi ξ esa x va t ning invariant kombinatsiyasi hisoblanadi. Qidirilayotgan funksiyaning avtomodel ko‘rinishi ham tenglamaning o‘zi, ham boshlang‘ich va chegaraviy shartlarning invariantlik talabi bilan belgilanishi mumkin.

Agar (7) boshlang‘ich shart δ-funksiya ko‘rinishida emas, balki chekli kenglikdagi sohada (masalan, Gauss funksiyasi ko‘rinishida) berilgan bo‘lsa:

$$u(x,0) = \frac{Q}{\sqrt{\pi}} exp\left(-\frac{x^2}{a^2}\right),$$

masalada ikkinchi masshtab a hosil bo‘ladi va (8) avtomodel echimi Koshi masalasining aniq echimi bo‘lmay qoladi. Lekin, vaqtning katta qiymatlarida, ya’ni:

$$l(t) = \sqrt{X^t} \ll a$$

bo‘lganda va a ning chekliligini yechimning xarakterli kengligi bilan solishtirganda e’tiborsiz qoldirish mumkin bo‘lgan hollarda, ushbu yechim asimptotik jihatdan to‘g‘riligicha qoladi.

Shuningdek, masalalarda chegaraviy sharti o‘rniga ma’lum bir chekli intervalning uchlarida yechimning nolga aylanishi $u(\pm L, t) = 0$ talab qilinishi mumkin. Bunda ham ikkinchi masshtab L paydo bo‘ladi, natijada avtomodel yechim chegaraviy shartlarni qanoatlantirmay qoladi. Ammo avtomodel yechim kichik vaqt oraliqlarida, toki

$$l(t) = \sqrt{X^t} \gg L$$

shart bajarilgunga qadar o‘z kuchini saqlab qoladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich va chegaraviy shartlarning xarakterli masshtabi keskin farq qiladigan masalalarda ($a \ll L$), avtomodel yechim oraliq asimptotika hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Narayan R., Yi I.** Advection-dominated accretion: a self-similar solution // *Astrophysical Journal*. — 1994. — P. 13–16.
2. **Chevalier R. A.** Self-similar solutions for the interaction of stellar ejecta with an external medium // *Astrophysical Journal*. — 1982. — Vol. 258. — P. 790–797.
3. **Barenblatt G. I., Zeldovich Ya. B.** Self-similar solutions as intermediate asymptotics // *Annual Review of Fluid Mechanics*. — 1972. — Vol. 4. — P. 285–312.
4. **Kruglov I. V., Reacock A. C., Harvey J. D.** Exact self-similar solutions of the generalized nonlinear Schrödinger equation with distributed coefficients // *Physical Review Letters*. — 2003. — P. 1–4.
5. **Зельдович Я. Б., Райзер Ю. П.** Физика ударных волн и высокотемпературных гидродинамических явлений. — М.: Наука, 1966.
6. **Уизем Дж.** Линейные и нелинейные волны. — М.: Мир, 1977.

TALABALARNING “HISOBLASH USULLARI” FANIDAN MUSTAQIL O`ZLASHTIRISH UCHUN MO`LJALLANGAN DASTURIY-METODIK MAJMUAMIZNING FUNKSIONAL TUZILISHI

Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda oliy ta’lim muassasalarida o`qitib kelinayotgan “Hisoblash usullari” uchun dasturiy – metodik majmuaning ko`rinishi, tadqiqot ishining tajriba-sinovlari va platformaning o`quv kontentlari o`rganilib chiqilgan. Shuningdek, dasturiy – metodik majmuani ishlatish bo`yicha “Hisobly playformasida ishlash bo`yicha metodik tavsiyalar” uslubiy ko`rsatmasi ham ko`rib chiqildi.*

***Kalit so`zlar:*** *Hisoblash usullari, dasturiy-metodik majmua, tajriba-sinov ishlari, o`quv kontentlari, Hisobly platformasi.*

Аннотация: *В данной работе рассматривается появление программно-методического комплекса по курсу «Вычислительные методы», преподаваемого в высших учебных заведениях, экспериментальная исследовательская работа и образовательный контент платформы. Также рассмотрено методическое пособие «Методологические рекомендации по работе на платформе Hisobly» по использованию программно-методического комплекса.*

Ключевые слова: *Вычислительные методы, программно-методический комплекс, экспериментальная исследовательская работа, образовательный контент, платформа Hisobly.*

Abstract: *This thesis examines the appearance of the software and methodological complex for "Computational Methods" taught in higher education institutions, experimental research work, and educational content of the platform.*

Also, the methodological guide "Methodological recommendations for working on the Hisobly platform" on the use of the software and methodological complex was reviewed.

Keywords: *Computational methods, software and methodological complex, experimental research, educational content, Hisobly platform.*

Oliy ta’lim muassasalarning 60540100 – Matematika yo`nalishi uchun “Hisoblash usullari” fanidan dasturiy – metodik majmuamiz talabalarning fan bo`yicha ilm salohiyatini yanada takomillashtirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng ko`lamda foydalana olishi uchun zamin yaratib kelmoqda. Biz yaratgan “Hisoblash usullari” uchun dasturiy-metodik majmuamiz aniq yechimga ega bo`lmagan yoki hisoblash murakkab bo`lgan masalalarni turli yo`llar bilan hal qila olish uchun qo`llaniladi. Biz bu “Hisobly” deb nomlangan platformamiz talabalarning bo`sh vaqtini unumli o`tkazishda, shuningdek masalalarni Matematik qurilishlari, Maple, MathCAD, Python dasturlash tillari va Flowgorithmdagi blok-sxemalar orqali yechimlari izlanadi va tahlil qilinadi. Har bir talaba o`z electron pochtasi orqali ro`yxatdan o`tib, “Hisoblash usullari” fanini platforma orqali o`zi mustaqil ravishda o`zlashtira oladi. Platformada “Hisoblash usullari” ga oid nazariy ma’lumotlar, amaliy mashg`ulot va topshiriqlar, videoma’ruzalar, taqdimotlar, o`z bilimi tekshirish maqsadida yakuniy test topshiriqlari, shuningdek, platformani ishlatish va amaliy mashg`ulotlarni yuklash uchun maxsus uslubiy ko`rsatmalar jamlangan. Bu esa talabalarning vaqtdan unumli foydalangan holda masofaviy tarzda bilim olishlariga va o`z natijalarini qadam va qadam kuzatib turishlariga imkon beradi. Shuningdek, bu vaqt oralig`ida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan barcha muammolarni talaba onlayn tarzda o`qituvchidan maslahatlar va metodik ko`rsatmalar olishi mumkin. Bu vaziyat esa talaba va o`qituvchi orasidagi ishonch va mulohazalar yuritish imkonini oshiradi.

Biz hozirgi kunlarda Namangan davlat universiteti “Raqamli ta’lim texnologiyalari” kafedrasida o`qitilayotgan G.Y.Soliyeva va M.Y.Eshnazarovalar tomonidan yozilgan “Hisoblash usullari” fani bo`yicha darslik, shuningdek,

G.Soliyevaning “Hisoblash usullari” faniga bag`ishlangan “Hisobly playformasida ishlash bo`yicha metodik tavsiyalar” uslubiy ko`rsatmasi asos qilib olingan [2].

Ushbu tadqiqot ishlarimiz Namangan davlat universiteti, Andijon davlat universiteti va Guliston davlat universitetlarida amalda bajarildi va talabalar ustida tajribalar o`tkazildi. Bu tadqiqot ishlarimizda jami 526 nafar talaba ishroki ta’minlangan.

“Hisoblash usullari” kursiga a’zo bo`lish uchun Internetning ixtiyoriy brauzerni ishga tushirib, adreslar qatoriga www.hisus.uz adresni kiritamiz va tasdiqlaymiz. Platformani umumiy ko`rinishi quyidagicha bo`lib, avval “Tizimga kirish” bo`limidan o`tib olamiz.



1-rasm. Dasturni ishga tushirish.



2-rasm. A’zo bo`lish



3-rasm. So`rovnomani to`ldirish



4-rasm. Ro`yxat yozuvini tasdiqlash



5-rasm. “Hisoblash usullari” kursining o`quv-kontenti



6-rasm. Mavzular sahifasi



7-rasm.Topshiriqlar sahifasi



8-rasm.Topshriqlarni yuklash



9-rasm.Amaliy mashg`ulot grafigi



10-rasm.Oxirgi 5 kunlikni o`rtacha foizi

Ma’ruzalarni o`zlashtirish hamda amaliy mashg`ulotlar uchun ajratilgan topshiriqlarni bajarish vaqtida talaba glossariydan, kurs uchun to`plangan electron qo`llanmalardan foydalanishlari mumkin bo`ladi.

Ko`rinib turibdiki, kursni o`zlashtirishda talaba mustaqil izlanib bilim olishga hamda olgan bilimlari qay darajada ekanligini o`zlari aniqlashlariga erishishlari, o`qituvchi o`z navbatida talabalarning mavzularni qay darajada o`zlashtirganligini nazorat qilib borishi hamda o`quv materialini kerakli vaqtda to`ldirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Talabalarga masofali o`qitishni tashkil etishda kompyuter texnologiyalari va uning dasturlari imkoniyatlaridan foydalanish, kompyuter vositasi yordamida talabalar kursni o`zlashtirishi, ularning bilim darajalarini aniqlash muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Soliyeva G.Y.**, **Eshnazarova M.Y. Hisoblash usullari**. Darslik. NamDPI, Namangan: Mashrab, 2025. – 304 b.
2. **Soliyeva G.Y.** O‘zbekiston va Hindiston ta’limida "Hisoblash usullari" fanida Lagranj interpolatsiya ko‘phadini o‘qitish metodikasi // *International Journal of Science and Technology*. 2025. Vol. 2, Issue 03. – P. 1–X.
3. **Soliyeva G.Y.** Xorijiy va mahalliy tajribada mustaqil o‘rganishni tashkil etishda dasturiy-metodik ta’minotdan foydalanish va talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya: “Ilm-fan, texnologiya va ta’limda yangi paradigmalar”, 2025. – B. 15–18.
4. **Soliyeva G.Y.** Improving the methodology for developing students' independent work competence // *SCIENCE AND INNOVATION International Scientific Journal*. 2025. Vol. 4, Issue 10. – P. 95–101.
5. **Soliyeva G.Y.** Dasturiy-metodik majmualardan foydalanib hisoblash usullarini o‘qitish metodlarini tizimli tanlash // *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, 2025. – P. 609–614.
6. **Soliyeva G.Y.** Ta’lim tizimida dasturiy–metodik majmua yaratish pedagogik muammo sifatida // *NamDPI "Ta'lim va taraqqiyot"*, 2025, 4-son, ISSN:2992-9008; UDK:37. – P. 389–398.
7. **Soliyeva G.Y.** Oliy ta’lim tizimida talabalarning hisoblash usullari kursi o‘qitishning metodik tizimi // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya: “Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlari”, Vol.2, 2025. – P. 125–132.
8. **Soliyeva G.Y.** Dasturiy-metodik majmualar orqali talabalarda hisoblash usullari kursini mustaqil o‘zlashtirish metodikasini takomillashtirish // Respublika ilmiy-

amaliy anjuman: “Yosh matematiklarning yangi teoremalari”, 2025. – B. 157–158.

9. **Soliyeva G.Y.** Mustaqil ta’lim faoliyatining zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan tahlili va uning ahamiyati // *Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari*, 2025. – B. 1294–1302.
10. **Soliyeva G.Y.** The Role and significance of software-methodical complexes in increasing educational efficiency // *Scientific review of the problems and prospects of modern science and education*, 2025. – P. 37–41.
11. **Soliyeva G.Y.** Hisoblash matematikasining qisqacha tarixi, predmeti va metodi // Respublika ilmiy-amaliy anjuman: “Pedagogika ta'lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari”, 2025. – P. 269–276.
12. **Soliyeva G.Y.** Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar // *Maktabgacha va maktab ta’limi ilmiy-metodik jurnal*, 2026.
13. **Soliyeva G.Y.** Dasturiy metodik majmualar orqali talabalarda Hisoblash usullari fanini mustaqil o‘zlashtirish metodikasini takomillashtirish // O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi rasmiy guvohnomasi DGU 56501, 18.11.2025.
14. **Soliyeva G.Y.** Hisoblash usullari fani bo‘yicha o‘quv kontenti // II Respublika ilmiy-amaliy konferensiya: “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar”, 2025.
15. **Soliyeva G.Y.** Hisobly platformasida ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar // NamDU o‘quv-uslubiy kengashi yig‘ilishi, 4-bayonnoma, 2025.
16. **Soliyeva G.Y.** Oliy ta’lim tizimida hisoblash usullari fanida chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi usulini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, 2025, 3-son. – P. 1059–1061.

BIG DATA MUAMMOLARINI YECHISHDA PYTHON VA JAVA DASTURLASH TILLARINING AMALIY VA TAQQOSLAMALI TAHLILI

Sultanov Djamshid Baxodirovich
Qodirov Raximjon Rasuljon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Big Data texnologiyalarida keng qo‘llanilayotgan Python va Java dasturlash tillarining imkoniyatlari taqqoslab o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, taqsimlangan hisoblash tizimlarida ishlash, ma’lumotlar tahlili hamda mashinaviy o‘rganish kabi asosiy Big Data muammolari ko‘rib chiqilgan. Har bir dasturlash tili uchun qulay bo‘lgan vazifalar real misollar va dasturiy kodlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, muammoni mos bo‘lmagan dasturlash tili orqali hal qilishda yuzaga keladigan cheklovlar va noqulayliklar yoritilgan. Tadqiqot natijalari Python va Java tillarini Big Data loyihalarida oqilona tanlash va birgalikda qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Big Data, Python, Java, taqsimlangan tizimlar, ma’lumotlar tahlili, Apache Spark, Hadoop, mashinaviy o‘rganish, parallel hisoblash.*

Abstract. *This article presents a comparative study of the capabilities of the Python and Java programming languages widely used in Big Data technologies. The research examines key Big Data challenges such as processing large-scale data, working in distributed computing systems, data analysis, and machine learning. Tasks that are more suitable for each programming language are analyzed based on real-world examples and program code. In addition, the limitations and challenges that arise when solving problems using an unsuitable programming language are discussed. The results of the study highlight the importance of making*

an informed choice between Python and Java and using them jointly in Big Data projects.

Keywords: *Big Data, Python, Java, distributed systems, data analysis, Apache Spark, Hadoop, machine learning, parallel computing.*

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ возможностей языков программирования Python и Java, широко применяемых в технологиях Big Data. В ходе исследования рассмотрены основные проблемы Big Data, такие как обработка больших объёмов данных, работа в распределённых вычислительных системах, анализ данных и машинное обучение. Задачи, наиболее подходящие для каждого языка программирования, проанализированы на основе практических примеров и программного кода. Также освещены ограничения и сложности, возникающие при решении задач с использованием неподходящего языка программирования. Результаты исследования показывают важность осознанного выбора Python и Java, а также их совместного применения в проектах Big Data.*

Ключевые слова: *Big Data, Python, Java, распределённые системы, анализ данных, Apache Spark, Hadoop, машинное обучение, параллельные вычисления.*

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida hosil bo‘layotgan ma’lumotlar hajmi keskin oshdi. Ijtimoiy tarmoqlar, sensorlar, mobil qurilmalar, elektron tijorat tizimlari va davlat axborot resurslari doimiy ravishda ulkan hajmdagi ma’lumotlarni ishlab chiqarmoqda. Ushbu ma’lumotlar an’anaviy ma’lumotlar bazalari va klassik dasturiy vositalar yordamida qayta ishlash uchun murakkab hisoblanadi. Aynan shu sababli Big Data texnologiyalariga ehtiyoj kuchaydi. Big Data muammolarini samarali hal qilishda dasturlash tillarining o‘rni juda muhim. Amaliyotda Python va Java tillari eng ko‘p qo‘llaniladigan vositalar hisoblanadi. Biroq ushbu tillarning Big Data muhitidagi imkoniyatlari bir xil emas. Ayrim vazifalarda Java yuqori unumdorlikni ta’minlasa, boshqa holatlarda Python soddaligi va moslashuvchanligi bilan ustunlik qiladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Big Data muammolarini hal qilishda Python va Java dasturlash tillarining afzallik va kamchiliklarini taqqoslab tahlil

qilish, shuningdek, qaysi muammolar uchun qaysi tilni tanlash maqsadga muvofiq ekanini asoslab berishdan iborat.

Asosiy qism

1. Big Data tushunchasi va uning asosiy muammolari

Axborot texnologiyalari rivojining hozirgi bosqichida jamiyat hayotining deyarli barcha sohalari raqamli ma’lumotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib qoldi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, bank tizimlari, sanoat sensorlari va davlat axborot tizimlari doimiy ravishda katta hajmdagi ma’lumotlarni ishlab chiqarmoqda. Ushbu jarayon natijasida an’anaviy ma’lumotlar bilan ishlash yondashuvlari o‘z imkoniyatlarini yo‘qota boshladi va Big Data tushunchasi shakllandi. Big Data atamasi faqatgina ma’lumotlar hajmining kattaligini anglatmaydi. U murakkab tuzilishga ega, tez yangilanadigan va turli manbalardan kelib tushadigan ma’lumotlar majmuasini ifodalaydi. Ko‘plab tadqiqotlarda Big Data uchta asosiy xususiyat orqali tavsiflanadi: hajm, tezlik va xilma-xillik. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ushbu xususiyatlarga qo‘shimcha ravishda ma’lumotlarning ishonchliligi va ularning amaliy qiymati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Big Data muhitida ma’lumotlar nafaqat strukturalangan jadvallar ko‘rinishida, balki matnli fayllar, tasvirlar, audio va video oqimlar, log yozuvlar hamda real vaqt signallari shaklida ham uchraydi. Bunday turli formatdagi ma’lumotlarni yagona tizimda saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish muhim texnik muammolarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, ma’lumotlar hajmi ortgani sari hisoblash resurslariga bo‘lgan talab ham oshadi. Big Data bilan ishlash jarayonida quyidagi muammolar yuzaga keladi:

- katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash;
- ma’lumotlarni taqsimlangan muhitda saqlash va qayta ishlash;
- real vaqt rejimida tahlil qilish;
- statistik va intellektual modellarni qo‘llash;
- xotira va hisoblash resurslaridan samarali foydalanish.

Shuningdek, Big Data muammolarini hal qilishda dasturlash vositalarining tanlovi alohida ahamiyatga ega. Chunki barcha dasturlash tillari katta hajmdagi ma’lumotlar bilan samarali ishlashga moslashtirilmagan. Ba’zi tillar tezkor tahlil uchun qulay bo‘lsa, boshqalari uzoq muddatli va barqaror ishlashni ta’minlaydi. Shu sababli Big Data muammolarini hal qilishda dasturlash tillarining imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish talab etiladi.

2. Java dasturlash tilining Big Data muammolarini hal etishdagi o‘rni

Big Data infratuzilmasi asosan yuqori ishonchlilik, barqarorlik va samaradorlik talab qiladigan tizimlardan iborat. Bunday muhitda ishlaydigan dasturiy yechimlar uzoq vaqt davomida uzluksiz ishlashi, katta hajmdagi ma’lumotlarni yo‘qotmasdan qayta ishlashi va apparat resurslaridan oqilona foydalanishi lozim. Ushbu talablar Java dasturlash tilining Big Data sohasida keng qo‘llanishiga sabab bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Java dasturlash tili platformadan mustaqil bo‘lib, virtual mashina asosida ishlaydi. Bu esa turli operatsion tizimlarda bir xil dasturiy yechimni qo‘llash imkonini beradi. Big Data tizimlarida klasterlar ko‘pincha turli apparat va dasturiy muhitlardan tashkil topgan bo‘lgani sababli, ushbu xususiyat muhim ahamiyat kasb etadi. Java’ning obyektga yo‘naltirilgan arxitekturasi esa murakkab tizimlarni modul ko‘rinishida ishlab chiqish va kengaytirishni osonlashtiradi.

Java Big Data muammolarini hal qilishda, ayniqsa, ma’lumotlarni taqsimlangan muhitda qayta ishlash vazifalarida samarali hisoblanadi. Katta hajmdagi fayllarni parallel tarzda qayta ishlash, tugunlar o‘rtasida ma’lumot almashish va xatolarga chidamli mexanizmlarni yaratish Java orqali nisbatan ishonchli amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Java xotira boshqaruvi mexanizmlarining mavjudligi katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda muhim rol o‘ynaydi.

Masalan, server loglarini tahlil qilish vazifasini olinsin. Bunday fayllar ko‘pincha gigabayt yoki terabayt hajmga ega bo‘lib, ularni bir vaqtning o‘zida xotiraga yuklash amaliy jihatdan mumkin emas. Java dasturlash tili oqim (stream) asosida ishlash imkonini bergani sababli, ma’lumotlarni ketma-ket o‘qish va qayta ishlashni ta’minlaydi. Natijada xotira ortiqcha yuklanmaydi va tizim barqaror

ishlaydi. Java yordamida yozilgan quyidagi kabi dasturiy yechimlar katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda o‘zini oqlaydi:

```
    BufferedReader reader = new BufferedReader(new FileReader("log.txt"));
String line;
int errorCount = 0;
while ((line = reader.readLine()) != null) {
   if (line.contains("ERROR")) {
      errorCount++;
   }
}
reader.close();
```

Ushbu kod katta hajmdagi faylni bosqichma-bosqich o‘qib, faqat kerakli ma’lumotlarni qayta ishlaydi. Shu kabi yondashuvlar Big Data muhitida samaradorlikni oshiradi.

Xuddi shu vazifani Python orqali bajarishda esa muayyan cheklovlar yuzaga keladi. Python interpretatsiya qilinadigan til bo‘lgani sababli, katta hajmdagi fayllarni qayta ishlashda bajarilish vaqti uzayadi. Bundan tashqari, ko‘p oqimli ishlashda mavjud cheklovlar sababli parallel hisoblash to‘liq samarali bo‘lmaydi. Natijada katta klasterlarda Java bilan solishtirganda ishlash tezligi pasayishi mumkin. Shu bois Big Data tizimlarining infrastruktura qismi, server darajasidagi xizmatlar va doimiy ishlaydigan modullarni yaratishda Java ko‘proq mos keladi.

3. Python dasturlash tili va Big Data

Big Data texnologiyalarining rivojlanishi faqat ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash bilan cheklanib qolmadi. Bugungi kunda ushbu ma’lumotlardan foydali bilimlarni ajratib olish, statistik tahlil qilish va intellektual modellar qurish dolzarb vazifaga aylandi. Aynan shu bosqichda Python dasturlash tili o‘zining kuchli tomonlarini namoyon etadi.

Python sintaksisining soddaligi va tushunarliligi dasturchiga emas, balki muammoning mohiyatiga e’tibor qaratish imkonini beradi. Bu xususiyat, ayniqsa,

Big Data bilan ishlovchi tadqiqotchilar va tahlilchilar uchun muhimdir. Python yordamida murakkab hisob-kitoblarni qisqa va aniq kod orqali ifodalash mumkin.

Big Data tahlilida Python’ning asosiy ustunligi — boy kutubxonalar ekotizimidir. Ma’lumotlarni tozalash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari Python’da minimal kod bilan amalga oshiriladi. Masalan, katta hajmdagi jadval ma’lumotlarini tahlil qilish quyidagicha bajariladi:

```
import pandas as pd


data = pd.read_csv("data.csv")
filtered = data[data["age"] > 30]
result = filtered["salary"].mean()
print(result)
```

Ushbu kod bir necha qatorda ma’lumotlarni filtrlash va statistik natijani olish imkonini beradi. Java’da xuddi shu vazifani bajarish uchun esa ancha ko‘p kod yozish talab etiladi. Python Big Data muammolarini hal qilishda tajribaviy va ilmiy tadqiqotlar uchun juda qulay. Model yaratish, natijalarni solishtirish va tezkor xulosalar chiqarish jarayoni Python’da ancha tez amalga oshiriladi. Shu sababli mashinaviy o‘rganish, sun’iy intellekt va prognozlash vazifalarida Python yetakchi vositaga aylangan.

Biroq Python’ni Big Data’ning barcha bosqichlarida qo‘llash ham doimo maqbul emas. Agar tizim doimiy yuqori yuklama ostida ishlashi kerak bo‘lsa yoki real vaqt rejimida katta hajmdagi ma’lumotlar oqimi qayta ishlansa, Python samaradorligi yetarli bo‘lmasligi mumkin. Java bilan solishtirganda, Python’da xotira va resurslarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan. Shunga qaramay, Big Data’ning analitik qismi, ya’ni ma’lumotlardan bilim chiqarish bosqichida Python o‘zining moslashuvchanligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Amaliyotda ko‘pincha Python tahlil uchun, Java esa tizim infratuzilmasi uchun qo‘llaniladi.

4. Python va Java tillarining taqqoslama tahlili

Big Data texnologiyalarida dasturlash tilini tanlash masalasi ko‘pincha muammoning tabiatiga, tizimning ishlash sharoitlariga hamda kutilayotgan natijalarga bog‘liq bo‘ladi. Python va Java dasturlash tillari ushbu sohada eng ko‘p qo‘llaniladigan vositalar hisoblangan bo‘lsa-da, ularning Big Data muammolarini hal etishdagi yondashuvlari va imkoniyatlari sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli ushbu tillarni bir-biri bilan qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Java dasturlash tili asosan tizimning pastki qatlamlarida, ya’ni ma’lumotlarni saqlash, uzatish va taqsimlangan hisoblash jarayonlarida samarali ishlaydi. U uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan uzluksiz ishlaydigan tizimlar uchun qulay hisoblanadi. Python esa, aksincha, Big Data’ning yuqori darajadagi tahlil bosqichida, ya’ni ma’lumotlardan foydali xulosalar chiqarish, statistik tahlil va modellashtirishda afzalliklarga ega. Amaliy jihatdan qaralganda, Java bilan yozilgan dasturlar ko‘proq resurs talab qiladigan, lekin barqaror ishlaydigan tizimlarni yaratishga xizmat qiladi. Python’da yozilgan dasturlar esa tez ishlab chiqiladi, oson o‘zgartiriladi va tajribaviy ishlarga mos keladi. Bu farq, ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Big Data muhitida ishlashda muhim bo‘lgan omillardan biri — bajarilish tezligi hisoblanadi. Java kompilyatsiya qilinadigan til bo‘lgani sababli, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda nisbatan yuqori tezlikni ta’minlaydi. Python interpretatsiya qilinadigan til bo‘lgani uchun esa bajarilish tezligi ayrim holatlarda sekinlashadi. Biroq Python’ning qisqa va tushunarli sintaksisi tahlil jarayonini tezlashtiradi, bu esa umumiy ish samaradorligini oshirishi mumkin.

Shuningdek, xotira bilan ishlash masalasida ham ikki til o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Java xotira boshqaruviga katta e’tibor qaratadi va murakkab mexanizmlar orqali resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Python’da esa xotira boshqaruvi soddaroq bo‘lib, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda qo‘shimcha optimallashtirish talab etiladi. Quyidagi jadvalda Python va Java tillarining Big Data nuqtayi nazaridan asosiy farqlari umumlashtirilgan.

1-jadval. Python va Java tillarining Big Data sohasidagi taqqoslama jadval

Taqqoslash mezoni	Python	Java
Kod yozish tezligi	Juda tez, kam kod talab etiladi	Nisbatan sekin, ko‘p kod yoziladi
O‘rganish qulayligi	Oson va intuitiv	Murakkabroq
Katta klasterlarda ishlash	Cheklangan	Juda barqaror
Parallel hisoblash	Qisman samarali	Yuqori samarali
Ma’lumotlar tahlili	Juda qulay	Murakkab
Mashinaviy o‘rganish	Kuchli imkoniyatlar	Cheklangan
Resurslarni boshqarish	O‘rtacha	Kuchli
Sanoat miqyosida qo‘llash	Asosan tahlil bosqichida	Infratuzilma darajasida

Ushbu jadval ko‘rinishlardan ko‘rinib turibdiki, Python va Java tillari Big Data jarayonining turli bosqichlariga moslashtirilgan. Python asosan ma’lumotlarni tahlil qilish va intellektual modellar qurish uchun qo‘llanilsa, Java Big Data tizimlarining asosiy infratuzilmasini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Amaliy loyihalarda ko‘pincha ushbu ikki til bir-birini to‘ldiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash jarayoni Java asosida amalga oshirilsa, olingan natijalar Python yordamida tahlil qilinadi. Bunday yondashuv Big Data tizimlarining samaradorligini oshirish bilan birga, dasturiy ta’minotni ishlab chiqish jarayonini ham soddalashtiradi.

Shunday qilib, Python va Java tillarini raqib sifatida emas, balki Big Data muammolarini kompleks hal etishda o‘zaro to‘ldiruvchi texnologiyalar sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir. To‘g‘ri tanlov esa aniq vazifa va tizim talablaridan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot davomida Big Data texnologiyalarida Python va Java dasturlash tillarining o‘rni, imkoniyatlari hamda amaliy qo‘llanilish sohalari chuqur tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, Big Data muammolari turli xarakterga ega bo‘lib, ularni hal etishda yagona universal dasturlash tilidan foydalanish har doim ham samarali natija bermaydi. Aksincha, muammoning texnik va amaliy xususiyatlaridan kelib chiqib, mos dasturlash tilini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar natijasida Java dasturlash tili asosan Big Data infratuzilmasining asosiy qatlamlarida, ya’ni katta hajmdagi ma’lumotlarni taqsimlangan muhitda saqlash va qayta ishlash jarayonlarida samarali ekanligi aniqlandi. Java’ning barqarorligi, xotira bilan ishlash imkoniyatlari va yuqori yuklama ostida uzluksiz ishlash xususiyatlari uni sanoat miqyosidagi Big Data tizimlari uchun qulay vositaga aylantiradi. Ayniqsa, server darajasidagi xizmatlar, ma’lumotlar oqimini boshqarish va real vaqt rejimida qayta ishlash talab etiladigan vazifalarda Java ustunlik qiladi.

Python dasturlash tili esa Big Data’ning analitik va intellektual bosqichlarida muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalari Python’ning soddaligi, moslashuvchanligi va boy kutubxonalar ekotizimi katta hajmdagi ma’lumotlar ustida tezkor tahlil olib borish, statistik xulosalar chiqarish hamda mashinaviy o‘rganish modellarini yaratishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Python yordamida murakkab hisob-kitoblarni qisqa vaqt ichida amalga oshirish va natijalarni tez baholash imkoniyati mavjud.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Big Data texnologiyalarining kelgusi rivoji dasturlash tillarini ongli va maqsadli tanlashga bevosita bog‘liqdir. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar va xulosalar Big Data sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda talabalar uchun dasturlash vositalarini tanlashda metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **White T.** Hadoop: The Definitive Guide. 4th ed. – Sebastopol: O’Reilly Media, 2020.

2. **Zaharia M., Chambers B., Franklin M. J., Shenker S., Stoica I.** Spark: The Definitive Guide. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2018.
3. **Han J., Kamber M., Pei J.** Data Mining: Concepts and Techniques. 3rd ed. – Amsterdam: Morgan Kaufmann, 2019.
4. **McKinney W.** Python for Data Analysis: Data Wrangling with Pandas, NumPy, and Jupyter. 2nd ed. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2018.
5. **Dehghani Z.** Data Mesh: Delivering Data-Driven Value at Scale. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2022.
6. **Lin J., Dyer C.** Data-Intensive Text Processing with MapReduce. – San Rafael: Morgan & Claypool Publishers, 2010.
7. **Kleppmann M.** Designing Data-Intensive Applications. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2017.
8. **Shvachko K., Kuang H., Radia S., Chansler R.** The Hadoop Distributed File System // IEEE 26th Symposium on Mass Storage Systems and Technologies. – 2010. – P. 1–10.
9. **Dean J., Ghemawat S.** MapReduce: simplified data processing on large clusters // Communications of the ACM. – 2008. – Vol. 51, № 1. – P. 107–113.
10. **Karau H., Konwinski A., Wendell P., Zaharia M.** Learning Spark: Lightning-Fast Big Data Analysis. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2015.
11. **Bishop C. M.** Pattern Recognition and Machine Learning. – Berlin: Springer, 2006.
12. **Russell S., Norvig P.** Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. – Harlow: Pearson, 2021.
13. **Chen M., Mao S., Liu Y.** Big Data: a survey // Mobile Networks and Applications. – 2014. – Vol. 19, № 2. – P. 171–209.
14. **Gandomi A., Haider M.** Beyond the hype: big data concepts, methods, and analytics // International Journal of Information Management. – 2015. – Vol. 35, № 2. – P. 137–144.

15. **Géron A.** Hands-On Machine Learning with Scikit-Learn, Keras, and TensorFlow. 2nd ed. – Sebastopol: O'Reilly Media, 2019.
16. **Marz N., Warren J.** Big Data: Principles and Best Practices of Scalable Real-Time Data Systems. – Shelter Island: Manning Publications, 2015.
17. **Vavilapalli V. K., Murthy A. C., Douglas C., Agarwal S., Konar M., Evans R., Graves T., Lowe J., Shah H., Seth S., Saha B.** Apache Hadoop YARN: Yet Another Resource Negotiator // Proceedings of the 4th Annual Symposium on Cloud Computing. – 2013. – P. 1–16.
18. **Stonebraker M., Cetintemel U., Zdonik S.** The 8 requirements of real-time stream processing // ACM SIGMOD Record. – 2005. – Vol. 34, № 4. – P. 42–47.

ROBUST CONTROLLER SYNTHESIS FOR LOW-TEMPERATURE GAS SEPARATION PROCESS

Tulyaganov Shuhrat Dishatovich.
LLC «UzEngineering»

Abstract. *Low-temperature gas separation processes, such as cryogenic distillation, are critical in industries requiring high-purity gas products. These processes are characterized by nonlinear dynamics, parameter uncertainties, and external disturbances, posing significant challenges for control design. This paper proposes a robust control strategy based on H_∞ control theory to ensure stability and optimal performance under varying operating conditions. The controller is designed to minimize the impact of disturbances and uncertainties while maintaining high separation efficiency. A detailed mathematical model of a cryogenic distillation column is developed, and the proposed controller is validated through extensive*

simulations. Comparative analysis with a conventional PID controller demonstrates a 30% reduction in tracking error and a 25% improvement in disturbance rejection. The methodology is applicable to industrial gas separation systems, offering a robust solution for enhancing process efficiency.

Keywords: *Low-temperature, gas, separation, processes, PID controller, robust controller.*

Annotatsiya. *Past haroratli gazlarni ajratish jarayonlari, jumladan kriogen distillatsiya, yuqori tozalikka ega gaz mahsulotlari talab qilinadigan sanoat tarmoqlarida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar nochiziqli dinamika, parametrlar noaniqligi va tashqi buzilishlar bilan tavsiflanadi, bu esa boshqaruv tizimlarini loyihalashda jiddiy murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Mazkur maqolada H∞ boshqaruv nazariyasiga asoslangan mustahkam (robust) boshqaruv strategiyasi taklif etilib, turli ish rejimlarida barqarorlik va optimal samaradorlikni ta'minlash maqsad qilingan. Regulyator buzilishlar va noaniqliklarning ta'sirini minimallashtirish bilan birga ajratish samaradorligini yuqori darajada saqlab turish uchun ishlab chiqilgan. Kriogen distillatsiya kolonkasining batafsil matematik modeli tuzilib, taklif etilgan boshqaruv tizimi keng qamrovli simulyatsiyalar orqali tekshirildi. An'anaviy PID-regulyator bilan qiyosiy tahlil natijasida kuzatuv xatosi 30 % ga kamaygani va buzilishlarni bartaraf etish samaradorligi 25 % ga oshgani aniqlandi. Mazkur metodologiya sanoat gaz ajratish tizimlarida qo'llanishi mumkin bo'lib, jarayon samaradorligini oshirish uchun ishonchli yechim taklif etadi.*

Kalit so'zlar: *past haroratli jarayonlar; gazlarni ajratish; PID-regulyator; mustahkam boshqaruv; sanoat jarayonlari.*

Аннотация. *Процессы разделения газов при низких температурах, такие как криогенная дистилляция, имеют ключевое значение в отраслях, требующих получения газовой продукции высокой чистоты. Эти процессы характеризуются нелинейной динамикой, неопределённостью параметров и внешними возмущениями, что создаёт серьёзные трудности при проектировании систем управления. В данной работе предлагается*

стратегия робастного управления на основе теории H∞, обеспечивающая устойчивость и оптимальную эффективность при изменяющихся режимах работы. Регулятор разработан для минимизации влияния возмущений и неопределённостей при сохранении высокой эффективности разделения. Разработана детальная математическая модель криогенной ректификационной колонны, а предложенный регулятор верифицирован посредством обширных компьютерных экспериментов. Сравнительный анализ с традиционным PID-регулятором показал снижение ошибки слежения на 30 % и улучшение подавления возмущений на 25 %. Предложенная методология применима к промышленным системам разделения газов и представляет собой надёжное решение для повышения эффективности процессов.

Ключевые слова: *низкотемпературные процессы; разделение газов; PID-регулятор; робастный регулятор; промышленные процессы.*

1. Introduction

Low-temperature gas separation processes, such as cryogenic distillation, are widely used in industries like petrochemicals, natural gas processing, and air separation to produce high-purity gases (e.g., nitrogen, oxygen, andargon). These processes exploit differences in boiling points to separate gas mixtures at low temperatures, typically below -100°C. However, the inherent nonlinearities, parameter uncertainties (e.g., feed composition, flow rates), and external disturbances (e.g., temperature fluctuations) make precise control challenging. Conventional control strategies, such as proportional-integral-derivative (PID) controllers, often struggle to maintain stability and performance under varying conditions.

This paper presents a robust control design based on H_∞ control theory to address these challenges. The proposed controller ensures stability and optimal performance despite uncertainties and disturbances. The methodology is applied to a cryogenic distillation column separating a binary gas mixture (nitrogen-oxygen), with simulation results validating its effectiveness. The paper extends previous work

by incorporating a detailed mathematical model, sensitivity analysis, and a comparative study with PID control.

2. Process Description

The low-temperature gas separation process considered is a cryogenic distillation column designed to separate a binary gas mixture (nitrogen and oxygen). The column operates at low temperatures, with a condenser and reboiler maintaining the necessary thermal gradients. The process dynamics are governed by mass and energy balances, phase equilibria, and heat transfer equations, resulting in a nonlinear system with uncertainties.

2.1. Mathematical Model

The system is modeled in state-space form, accounting for uncertainties in feed composition and heat exchanger efficiency:

$$\dot{x}(t) = A(\theta)x(t) + B(\theta)u(t) + Ew(t), \quad (1)$$

$$y(t) = Cx(t) + Du(t), \quad (2)$$

where: - $x(t) \in \mathbb{R}^n$ is the state vector (e.g., liquid and vapor compositions, temperatures), - $u(t) \in \mathbb{R}^m$ is the control input (e.g., reflux ratio, reboiler heat input), - $w(t) \in \mathbb{R}^p$ represents external disturbances (e.g., temperature fluctuations), - $y(t) \in \mathbb{R}^q$ is the measured output (e.g., product purity), - θ denotes uncertain parameters (e.g., feed composition varying by ±10%),- $A(\theta)$, $B(\theta)$, C, D, and E are system matrices.

The matrices $A(\theta)$ and $B(\theta)$ are subject to uncertainties:

$$A(\theta) = A_0 + \Delta A, \qquad B(\theta) = B_0 + \Delta B, \quad (3)$$

where A_0 and B_0 are nominal matrices, and ΔA, ΔB are norm-bounded perturbations satisfying:

$$\Delta A = M_A \Delta N_A, \qquad \Delta B = M_B \Delta N_B, \qquad \|\Delta\|_\infty \leq 1. \quad (4)$$

For a representative column, the nominal feed flow rate is 100 mol/s, with a composition of 78% nitrogen and 22% oxygen. The column has 20 trays, and the nominal operating temperature is -150°C. Disturbances include random temperature variations of ±5°C.

3. Robust Controller Design

The robust controller is designed using H_∞ control theory to minimize the worst-case effect of disturbances and uncertainties on system performance. The design ensures robust stability and optimal separation efficiency.

3.1 Uncertainty Modeling

Uncertainties in feed composition (±10%) and heat exchanger efficiency (±5%) are modeled as structured perturbations in the system matrices. The uncertainty set is defined as:

$$\Theta = \{\theta : |\theta_i - \theta_{i0}| \leq \delta_i, \qquad i = 1, \dots, k\}, \tag{5}$$

where θ_{i0} is the nominal value, and δ_i is the uncertainty bound.

3.2 H_∞ Control Formulation

The H_∞ control problem seeks a controller $K(s)$ that stabilizes the system and minimizes the H_∞ norm of the transfer function from disturbances $w(t)$ to controlled outputs $z(t)$:

$$\|T_{zw}\|_\infty < \gamma, \tag{6}$$

where $z(t)$ includes tracking errors (e.g., deviation from desired product purity) and control effort penalties. The performance index γ represents the disturbance attenuation level.

3.3 Controller Synthesis

The controller is synthesized by solving linear matrix inequalities (LMIs) derived from the H_∞ framework. The state-feedback controller takes the form:

$$u(t) = Kx(t), \tag{7}$$

where K is computed to ensure robust stability across the uncertainty set Θ. The LMI formulation guarantees that:

$$\dot{V}(x) + z^T z - \gamma^2 w^T w < 0, \tag{8}$$

where $V(x)$ is a Lyapunov function ensuring stability.

4Simulation Results

The proposed H_∞ controller was tested on a simulated cryogenic distillation column with the parameters described in Section 2. The system was subjected to:

- **Uncertainties**: ±10% variation in feed composition and ±5% in heat exchanger efficiency. - **Disturbances**: Random temperature fluctuations of ±5°C. - **Performance Metrics**: Tracking error (deviation from target nitrogen purity of 99%) and disturbance rejection (response to temperature changes).

The H_∞ controller was compared to a tuned PID controller. The PID controller was designed with gains $K_p = 2.5$, $K_i = 0.5$, and $K_d = 0.1$, optimized for nominal conditions. The H_∞ controller was synthesized with $\gamma = 0.8$, ensuring robust performance.

The H_∞ controller achieved: - A 30% reduction in tracking error (average error of 0.01 vs. 0.0143 for PID). - A 25% improvement in disturbance rejection (settling time of 3 s vs. 4 s for PID). - Reduced control effort variance by 15%.

Figure 1 shows the tracking error over time for both controllers under nominal and perturbed conditions. The H_∞ controller exhibits faster convergence and lower steady-state error.

5Sensitivity Analysis

A sensitivity analysis was conducted to evaluate the controller's performance across the uncertainty set Θ. The feed composition was varied from 68% to 88%



Figure 1: System response: Comparison of tracking error for H_∞ and PID controllers under nominal and perturbed conditions.

nitrogen, and the heat exchanger efficiency was varied by ±5%. The H_∞ controller maintained stability and achieved a maximum tracking error of 0.015, compared to 0.022 for the PID controller. The results confirm the robustness of the H_∞ controller to parameter variations.

6 Discussion

The simulation results demonstrate that the H_∞ controller outperforms the PID controller in terms of tracking error, disturbance rejection, and robustness to uncertainties. The ability to handle nonlinearities and disturbances makes it suitable for industrial applications. However, the computational complexity of solving LMIs may limit real-time implementation in large-scale systems. Model reduction techniques or distributed control architectures could address this limitation.

The proposed methodology can be extended to multi-component separation processes or integrated with model predictive control for enhanced performance. The controller's robustness makes it a viable solution for plants operating under variable feed conditions.

7 Conclusion

This paper presented a comprehensive methodology for synthesizing a robust H_∞ controller for low-temperature gas separation processes. The controller ensures stability and optimal performance despite nonlinearities, uncertainties, and disturbances. Extensive simulations on a cryogenic distillation column validate the approach, showing significant improvements over conventional PID control. The inclusion of a sensitivity analysis and detailed mathematical modeling enhances the applicability of the methodology to industrial systems.

Future research will focus on extending the approach to multi-component systems, incorporating real-time optimization, and exploring hardware-in-the loop testing for practical implementation.

REFERENCES

1. **Guerra T. M.**, et al. Distributed parameter modeling and optimal control of iron removal processes // Control Engineering Practice. – 2021. – Vol. 112. – P. 104–115. – DOI: 10.1016/j.conengprac.2021.104789.
2. **Martins M. A. F.**, et al. Multi-objective control of isolated power systems with gas turbines // Sustainable Energy Technologies and Assessments. – 2021. – Vol. 45. – P. 101–110. – DOI: 10.1016/j.seta.2021.101089.
3. **Precup R.-E.**, et al. A robust control strategy for microgrid energy using fuzzy logic // Energies. – 2021. – Vol. 14, No. 15. – Art. 4567. – DOI: 10.3390/en14154567.
4. **Wang L.**, et al. Trust region policy optimization-based pitch control with robust fuzzy elements // Renewable Energy. – 2021. – Vol. 170. – P. 345–356. – DOI: 10.1016/j.renene.2021.01.089.
5. **Zhang H.**, et al. Uncertainty-driven optimization of photovoltaic-integrated systems with fuzzy robust control // Renewable Energy. – 2021. – Vol. 165. – P. 200–210. – DOI: 10.1016/j.renene.2020.11.045.

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv strategiyalarini shakllantirish va takomillashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar va ualrning yechimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy menejment yondashuvlari, innovatsion texnologiyalar va raqamli*

boshqaruv vositalari asosida ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy yechimlar bilan birga, bir nechta takliflar ham keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *qurilish materiallari sanoati, boshqaruv strategiyasi, raqobatbardoshlik, innovatsiya, strategiya, samaradorlik.*

Annotation. *This article analyzes the main problems arising in the process of forming and improving management strategies in construction materials industry enterprises, as well as their solutions. In addition, practical solutions for eliminating these problems based on modern management approaches, innovative technologies, and digital management tools are presented, along with several proposals.*

Keywords: *construction materials industry, management strategy, competitiveness, innovation, strategy, efficiency.*

Аннотация. *В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие в процессе формирования и совершенствования управленческих стратегий на предприятиях промышленности строительных материалов, а также пути их решения. Кроме того, представлены практические решения по устранению данных проблем на основе современных подходов к менеджменту, инновационных технологий и цифровых инструментов управления, а также приведён ряд предложений.*

Ключевые слова: *промышленность строительных материалов, управленческая стратегия, конкурентоспособность, инновации, стратегия, эффективность.*

Kirish

Bugungi kunda qurilish materiallari sanoati har qanday davlat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tarmoq infratuzilma, uy-joy va sanoat obyektlari qurilishi uchun zarur bo‘lgan asosiy resurslarni ta’minlab, mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi, aholi bandligi va sanoat salohiyatining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aholi sonining o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda yirik investitsion va infratuzilma loyihalarining kengayib borishi qurilish materiallariga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitining kuchayishi qurilish materiallari sanoati korxonalaridan samarali va zamonaviy boshqaruv strategiyalarini shakllantirish hamda ularni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Amaliyotda esa ko‘plab korxonalarda boshqaruvning eskirgan usullari, resurslardan samarasiz foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi sustlik hamda kadrlar salohiyati bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish soha samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali yechimlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqilgan boshqaruv strategiyalarini amaliyotga tatbiq etish jarayoni murakkab va ko‘p omilli bo‘lib, u tashqi va ichki muhit ta’siri ostida shakllanadi. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab korxonalarda strategiyalar mavjud bo‘lsa-da, ularning to‘liq va samarali amalga oshirilmasligi natijasida kutilgan iqtisodiy samaraga erishilmayapti. Quyida ushbu jarayonda eng ko‘p uchraydigan asosiy muammolar batafsil yoritiladi.

Strategik boshqaruv modeli korxona maqsadlari, resurslar va tashqi muhit o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga qaratiladi, shu orqali uzoq muddatli barqaror o‘sish ta’minlanadi. Masalan, qurilish kompaniyalari o‘z bozor ulushini oshirish, yangi bozor segmentlariga kirish, mahsulot sifatini yaxshilash va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish kabi strategiyalarni amalga oshirmoqda.

Raqobatbardoshlikni oshirish uchun raqamli transformatsiya (masalan, BIM, avtomatlashtirish, ERP tizimlarining joriy etilishi) va innovatsiyalarga tayanish muhimdir, chunki bu jarayonlar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Strategik rejalashtirish va amaliy ijro o‘rtasidagi nomuvofiqlik:

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida eng dolzarb muammolardan biri strategik rejalashtirish bilan real amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzilishdir. Ko‘plab korxonalarda strategiyalar formal xarakterga ega bo‘lib, ularning bajarilishi aniq

mexanizmlar, ko‘rsatkichlar va javobgar tuzilmalar bilan mustahkamlanmagan. Natijada strategik maqsadlar kundalik operatsion qarorlarga to‘liq integratsiya qilinmaydi. Bu holat resurslardan noto‘g‘ri foydalanish, investitsion qarorlarning kechikishi va bozor imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaslikka olib keladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi institutsional va texnik muammolar:

Zamonaviy boshqaruv strategiyalarining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan raqamli boshqaruv tizimlari (ERP, avtomatlashtirilgan rejalashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish platformalari)ni joriy etish jarayonida qator muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, raqamli texnologiyalarni boshqarishga oid bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi, shuningdek, raqamli o‘zgarishlarga bo‘lgan qarshilik strategiyalarni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu holat boshqaruv qarorlarining ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilinishini cheklaydi.

Resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi:

Qurilish materiallari sanoati xomashyo, energiya va logistika resurslariga yuqori darajada bog‘liq bo‘lgan tarmoq hisoblanadi. Boshqaruv strategiyalarini amalga oshirish jarayonida ushbu resurslardan samarasiz foydalanish ko‘plab korxonalarda uchraydi. Xomashyo zaxiralarini noto‘g‘ri rejalashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanmaslik va logistika jarayonlaridagi uzilishlar xarajatlarning oshishiga hamda strategik maqsadlarning bajarilmasligiga olib keladi.

Kadrlar salohiyati va menejment malakasining yetarli emasligi:

Strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘p jihatdan inson kapitaliga bog‘liq. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida strategik boshqaruv, innovatsion menejment va raqamli texnologiyalar bo‘yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi muhim muammo hisoblanadi. Menejerlarning zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bo‘yicha bilimlarining cheklanganligi strategik qarorlarning sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa strategik tashabbuslarning to‘liq amalga oshirilmasligiga sabab bo‘ladi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida aniqlangan muammolarni bartaraf etish kompleks, tizimli va uzoq muddatli boshqaruv yondashuvlarini talab etadi. Strategiyalarni takomillashtirish faqat alohida choralar bilan emas, balki tashkiliy, texnologik va inson omillarini birgalikda rivojlantirish orqali amalga oshirilishi lozim. Quyida har bir muammo bo‘yicha tahliliy yechimlar keltiriladi.

Strategik rejalashtirish va amaliy ijro o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish bo‘yicha yechimlar

Mazkur muammoni hal etish uchun strategik rejalashtirish jarayonini operatsion boshqaruv bilan uzviy bog‘lash zarur. Buning uchun:

- Strategik maqsadlarni aniq va o‘lchab bo‘ladigan ko‘rsatkichlar (KPI) orqali belgilash lozim. Har bir strategik vazifa aniq bajarilish muddatlari va javobgar bo‘linmalar bilan mustahkamlanishi kerak.
- Strategiyani “yuqoridan pastga” emas, balki “integratsiyalashgan” yondashuv asosida joriy etish tavsiya etiladi. Ya’ni, strategik maqsadlar barcha bo‘g‘inlar faoliyatiga moslashtirilishi zarur.
- Strategik monitoring va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali rejalar ijrosini muntazam baholab borish lozim. Bu strategiyani o‘z vaqtida tuzatish va moslashtirish imkonini beradi.

Natijada strategiya faqat hujjat sifatida emas, balki kundalik boshqaruv qarorlarining asosiga aylanishi ta’minlanadi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi institutsional va texnik muammolarni hal etish

Raqamli transformatsiya qurilish materiallari sanoatida boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda quyidagi yechimlar taklif etiladi:

- Raqamli transformatsiyaning bosqichma-bosqich strategiyasini ishlab chiqish. Texnologiyalarni bir vaqtning o‘zida joriy etish emas, balki ustuvor yo‘nalishlardan boshlab tatbiq qilish maqsadga muvofiq.

- ERP, avtomatlashtirilgan rejalashtirish va analitik tizimlarni integratsiyalashgan holda joriy etish orqali boshqaruv qarorlarini ma’lumotlarga asoslangan shaklda qabul qilish imkoniyati yaratiladi.
- Institutsional qarshiliklarni kamaytirish uchun xodimlar o‘rtasida raqamli madaniyatni shakllantirish va texnologiyalarning afzalliklarini tushuntirish zarur.

Bu chora-tadbirlar raqamli texnologiyalarni boshqaruv strategiyalarining ajralmas qismiga aylantirishga xizmat qiladi.

Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha strategik yechimlar

Resurslardan samarali foydalanish qurilish materiallari sanoatida xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Ushbu muammoni hal etish uchun:

- Resurslarni rejalashtirish va nazorat qilishning zamonaviy modellarini joriy etish (lean management, resurslarni optimallashtirish tizimlari) lozim.
- Energiya tejamkor va chiqindilarni kamaytiruvchi texnologiyalarni qo‘llash ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi.
- Logistika va ta’minot zanjirlarini optimallashtirish orqali xomashyo yetkazib berishdagi uzilishlar va ortiqcha zaxiralar qisqartiriladi.

Natijada resurslar boshqaruvi strategik ustunlikka aylanib, korxona faoliyatining umumiy samaradorligi oshadi.

Kadrlar salohiyati va menejment malakasini oshirish bo‘yicha yechimlar

Boshqaruv strategiyalarining muvaffaqiyati bevosita inson kapitaliga bog‘liq. Shu sababli quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

- Menejerlar uchun strategik boshqaruv, innovatsion menejment va raqamli texnologiyalar bo‘yicha doimiy malaka oshirish dasturlarini joriy etish;
- Xodimlarni rag‘batlantirish va motivatsiya tizimini strategik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish, bu ularning strategiya ijrosidagi mas’uliyatini oshiradi;
Аннотация. *В статье рассмотрени результати исследования посева С-8290, УзПИТИ-103, Наманган-77, УзПИТИ-2201 сортов плюгатника после уборки урожная зерно о зимовых пшеници. Проводятся анализы результатов исследований данных сортов хлопчатника.*

Ключевые слова: *озимая пшеница, повторный посев, сорта хлопчатника, S-8290, UzPITI-103, Namangan-77, UzPITI-2201, фенологические наблюдения, урожайность, агротехнология.*

Kirish. Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishda ekinlardan jahon bozori talablariga javob beradigan arzon va yuqori sifatli paxta hosili yetishtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu sababdan ilg‘or tajribalardan fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanib, har bir gektar yerdan olinadigan paxtaning hosilini miqdorini oshirish, mamlakatimizda paxta yetishtirish hajmini kamaytirmagan holda yalpi daromad miqdorini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda xamda ko‘p qirrali ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda yaratilgan g‘o‘zaning UZPITI-103, Namangan-77 va UzPITI-2201, S-8290 kabi yangi navlarini kuzgi bug‘doyning don va somon hosili o‘rib yig‘ib olinganda keyin har xil tuproq iqlim sharoitida yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish bugungi kunda eng dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism. Tajriba 2023-2024 yillarda Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumanidagi “FERGANA GLOBAL TEXTILE” MCHJ ning paxta to‘qimachilik klasteri tasarrufidagi 1706 konturida tuprog‘i eskidan sug‘orilgan och tusli bo‘z tuproq bo‘lib, mexanik tarkibi yengil qumoq, sizot suvlar chuqurligi 1,5-3 metr. Sug‘orish uchun suv Beshkapa 1 nasosi orqali suv bilan ta’minlanadi. Iqlimi kontinental, qishi izg‘irin qirovli, namli, nisbatan yumshoq, yozi issiq-quruq. Bahorda seryog‘in, shamol kuchayishi, momaqaldiroq bo‘lib, do‘l yog‘ishi kuzatiladi. Yanvar oyining o‘rtacha harorati -2°C dan +5° C gacha, iyul oyining

xarorati me’yor darajasidan yuqori bo‘lib, 35-42° C bo‘ladi. Vegetatsiya davrining uzunligi 220-230 kunni tashkil etadi.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda Respublikamizning asosiy maydonlariga olimlarimiz tomonidan yaratilgan, tolasi jahon bozorida xaridori bor, tezpishar, turli kasalliklarga va hasharotlarga hamda tabiatning har xil noqulay ekstremal sharoitlarga bardoshli, serhosil navlari ni tanlab olish maqsadida Markaziy Farg‘onaning Global Textile MCHJ 19 bo‘limi 1706 konturida 2024 yili istiqbolli UzPITI-103, UzPITI-2201 va rayonlashtirilgan S-8290, Namangan-77 g‘o‘za navlarida dala tajribalari olib borildi.

Tajriba uchun paxtaning ertagi S-8290 va o‘rtapishar UzPITI-103, Namangan-77 va UzPITI-2201 navlari tanlanib, ular kuzgi bug‘doydan bo‘shagan maydonlarga takroriy ekin sifatida

Tajribalar 4 variantda olib borildi:

1-variant – S-8290.

2-variant – UzPITI-103.

3-variant – Namangan-77.

4-variant – UzPITI-2201.

Tajribaning umumiy maydoni 2 gektarni tashkil etdi. Chigitni ekish ishlari 2024 yil 19 iyun kuni amalga oshirildi.

Tajriba dalasida iyun oyining ikkinchi yarmida, iyul, avgust, sentyabr, oktyabr oylarida fenologik kuzatuvlar hamda quyidagi hisob kitob ishlari olib borildi. Shuningdek barg sathi, quruq massasi, hosil elementlarini to‘kilishi aniqlandi. Paxtani terimi oldidan bitta ko‘rakdagi paxta vazni aniqlandi.

1. Unib chiqish dinamikasi.

2. Shonalash.

3. Gullash fazasining boshlanishi, 50%.

4. Pishish fazasining boshlanishi, 50%.

5. Har bir variant bo‘yicha paxta terib olinib, aniq hisobga olish.

Tajribalar UzPITI da qabul qilingan "Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari" (2007) qo‘llanmasi asosida olib boriladi.

Tajriba dalasida g‘o‘za “FERGANA GLOBAL TEXTILE” paxta to‘qimachilik klasteri dalasidagi tajriba maydoniga mineral o‘g‘itlardan $N_{200}P_{140}K_{100}$ kg.ga yillik me’yorlar g‘o‘zaning shonalash, gullash va hosil tugish fazalarida ikki marta bo‘lib-bo‘lib oziqlantirildi. Tegishli miqdorda va tartibda qishloq xo‘jalik ekinlarini zararkunandalariga qarshi oltinko‘z va brakon qo‘yildi. Tajriba dalasi dastlab bir marta chuqur yumshatildi. 5 marta kultivatsiya qilindi, 2 marta qo‘l chopiq qilindi va 3 marta sug‘orildi. 2 marta bargi orqali suspenziya qilindi, shuningdek, oltingugurt bilan ishlov berildi.

1-jadval

Tajriba dalasida olib borilgan fenologik kuzatuvlar va muddatlari

Variantlar, navlar	Chigit unib chiqqan kunidan					
	80% unib chiqishi	Birinchi chinbarg chiqarishi	Oltinchi chinbarg chiqarishi	Shonalashi	Gullash fazasining boshlanishi	Ommaviy hosil to‘plash va pishish fazasi
S-8290	25.06 26.06	10.07	20.07	07.08	14.08	04.10
UzPITI -103	26.06 27.06	12.07	30.07	09.08	16.08	06.10
Namangan -77	26.06 27.06	11.07	29.07	08.08	15.08	05.10

UzPITI -2201	27.06 28.06	12.07	30.07	09.08	16.08	06.10

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, S-8290 navi boshqa navlarga nisbatan 2 kun ertaroq unib chiqdi.

Iyun oyining uchinchi dekadasida namlik va haroratni yetarli bo‘lganligi va qo‘shimcha chigit suvi berilganligi sababli unib chiqish jarayoni “UzPITI-103”, “Namangan-77” va “UzPITI-2201” navlarida deyarli bir xil 7-8 kunni tashkil etdi va bu navlar orasida katta farq kuzatilmadi.

Tajriba ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, 19 iyun kuni chigiti qadalgan navlarning ichida birinchi bo‘lib g‘o‘zaning S-8290 navi gulko‘rsatgani kuzatildi. Bu navda chigitni unib chiqqan kunidan gullashgacha bo‘lgan davr 52 kunni, unib chiqishdan shonalashgacha bo‘lgan davr 45 kunni tashkil etdi. Bu holat “UzPITI-103” navida, ya’ni chigitni unib chiqqan kunidan shonalashgacha 46 kun, gullashgacha 108 kunni, “Namangan-77” navida esa shonalashgacha 46 kun, gullashgacha esa 53 kunni, UZPITI-2201 navida ham shonalashgacha 46 kun, gullashgacha esa 53 kunni tashkil qilgani kuzatildi.

Olib borilgan fenologik kuzatuvlardan ma’lum bo‘ldiki, 4 oktyabr kuni g‘o‘zaning S-8290 navining paxtasi ochildi. Bu vaqt, chigitni unib chiqqan kunidan paxta ochilguncha 106 kunni tashkil etdi. Xuddi shu jarayon variantlar va navlar bo‘yicha mos ravishda “UzPITI-103” navida 108 kun, “Namangan-77” navida 107 kun va UZPITI-2201 navida 108 kun bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Ramazonov A., Bo‘riyev S.** Tuproqshunoslik va dehqonchilik: darslik. — Toshkent: **“Barkamol fayz media”**, 2018. — 256 b.
2. **Tripathi D., Mani S., Mohinder Singh Sh.** Fundamentals of Soil Science: handbook. — India, 2020. — 133 p.

3. **Norqulov U., Axmurzayev A., Syimbetov A.** Dehqonchilik va melioratsiya ishlaridan amaliy mashg‘ulotlar: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: **“Fan va texnologiya”**, 2019. — 272 b.
4. **Murotova L., Ibragimov O., Ibragimov B.** G‘o‘zani hosil tugishini boshqarish. — Toshkent: **“Dono”**, 2023. — 135–210 b.

КУЗГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙ БОШОҚ ЎЛЧАМЛАРИГА ЁЗГИ СИДЕРАТ ЭКИН ВА ЭКИШ УСУЛЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ

Узақов Ғуломжон Оқбутаевич
Тилавов Ўрал Хусанович
Чариев Шахбос Мардонович
Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти

Аннотация. *Мақолада Республиканинг жанубий минтақаси шароитида ёзги сидерат сифатида мош уруғларини ва асосий экин кузги буғдой уруғларини тупроққа ишлов бермасдан экиб, кафолатли кўчат олиш технологияси ёритилган. Ёзги сидерат экинлар тупроққа киритилиши кузги юмшоқ буғдойнинг ҳосил элементларига ижобий тасир кўрсатган. Ёзги сидерат экинларидан кейин тупроққа ишлов бериш усулларига кўра тупроққа No-till ишлов берилганга нисбатан ананавий усулда ишлов берилганда бошоқдаги донлар сони ва дон оғирлиги юқори бўлган.*

Калит сўзлар: *сидерат, мош, уруғ, нав, Дурдона, кузги буғдой, Шукрона, бошоқ узунлиги, бошоқдаги донлар сони, донлар оғирлиги.*

Аннотация. *В статье описывается технология получения гарантированной всхожести при посеве маша в качестве летней сидераты и семян озимой пшеницы в качестве основной культуры без обработки почвы в южных регионах республики. Внесение летней сидераты в почву оказало положительное влияние на показатели урожайности мягкой озимой пшеницы. В зависимости от методов обработки почвы после летней сидераты, количество зерен в колосе и масса зерна были выше при обработке почвы традиционным методом по сравнению с методом безотвальной обработки.*

Ключевые слова: *сидерат, маш, семена, сорт, Дурдона, озимая пшеница, Шукрона, длина колоса, количество зерен в колосе, вес зерен в колосе.*

Abstract. *This article describes a technology for achieving guaranteed germination when sowing mung bean as a summer green manure and winter wheat as the main crop without tillage in the southern regions of the republic. Incorporating summer green manure into the soil had a positive effect on the yield of soft winter wheat. Depending on the soil cultivation methods after summer green manure, the number of grains per ear and the grain weight were higher with traditional tillage compared to no-tillage.*

Key words: *green manure, mung bean, seeds, variety, Durdona, winter wheat, Shukrona, ear length, number of grains in an ear, weight of grains in an ear.*

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 10 июндаги «Ерларни деградацияга қарши курашишнинг самарали тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида» қарорида изоҳланишича мамлакатимизда ерлар деградациясига қарши курашиш ва унинг салбий оқибатларини юмшатиш, ҳудудларда чўлланиш ва қурғоқчиликнинг олдини олиш биохилма-хилликни асраб қолиш, тупроқ унумдорлигини сақлаш ва ошириш, деградацияга учраган ерларни қайта тиклаш, ушбу йўналишдаги илғор илмий ишланмалар ва инновациялардан кенг фойдаланиш асосида минтақаларни барқарор ривожлантиришга эришишда ушбу лойиҳа маълумотлари Президент

қарорини бажаришга хизмат қилиш билан бирга тадқиқот натижаларига эҳтиёж (талаб)нинг мавжудлигини кўрсатади.

Мамлакатимизда фойдаланиладиган сув ресурсларининг 80 фоизга яқини (тахминан 41,5 км^3/йил) қўшни республикалар ҳудудидаги музликлар ҳисобига шаклланади. Глобал иқлим ўзгаришлари сабабли Тожикистондаги мавжуд 8 мингдан ортиқ музликлар майдонининг 30%, Қирғизистондаги 10 мингга яқин музликлар майдонининг 16 фоизи эриб кетган. 2030 йилга бориб музликларнинг яна 15–20% йўқолиб кетиши башорат қилинмоқда.

Қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда мунтазам равишда тупроққа минерал ўғитлар ва пестицидларнинг киритилиши тупроқ деградациясининг кучайиб бориши, тупроқ унумдорлигининг пасайиши, микрофауна ва флоралар камайишига олиб келмоқда. Кейинги йилларда жаҳон миқёсида нефт маҳсулотлари, минерал ўғитлар ва бошқа ресурслар нархининг ошиб бориши, инновацион ресурстежамкор технологиялардан кенг кўламда фойдаланилмаслиги маҳсулот таннархининг ошишига сабаб бўлмоқда.

Бошоқли дон экинларидан бўшаган майдонларда қисман такрорий экинлар етилтирилсада, сидерат экин сифатида қурғоқчиликка чидамли экинлар танланмаганлиги, уларни етиштиришда ёқилғи мойлаш ва бошқа ресурсларни иқтисод қилувчи инновацион ресурстежамкор технологиялар мавжуд эмаслиги ер майдонларининг экинсиз қолишига, уларни деградацияга учрашига, маҳсулот етиштирувчиларнинг иқтисодий салоҳиятига салбий таъсир кўрсатмоқда.

Бугунги кунда тупроқ унумдорлигини оширишда инновацион ресурстежамкор комплекс ишлов бериш агротехнологиясини ишлаб чиқиш ўта долзарб ҳисобланади.

Услуб ва материаллар. Тадқиқотлар AL-8523122294 “Комплекс ишлов бериш орқали тупроқ унумдорлигини оширишнинг агротехнологиясини ишлаб чиқиш” мавзусидаги амалий лойиҳа бўйича олиб борилди. Республиканинг жанубий минтақаси Қашқадарё вилояти оч тусли бўз тупроқлар шароитида Қарши тумани С.Рахимов ҳудудида жойлашган

Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти тажриба участкасида ёзги сидерат (мош) ўрнига кузги юмшоқ буғдойнинг Шукрона нави турли усулларда экилиб, тадқиқотлар олиб борилди. Бунда кузги юмшоқ буғдой уруғлари no-till ва анъанавий тупроққа ишлов бериш усулларини қўллаш назарда тутилган.

Дала тажрибалари Бутунроссия Ўсимликшунослик илмий-тадқиқот институти услубий қўлланмаси (1985) асосида амалга оширилган. Фенологик кузатувлар ва биометрик таҳлиллар эса Қишлоқ хўжалик экинлари навларини синаш давлат комиссиясининг услубий қўлланмаси (1989) бўйича олиб борилган.

Тажриба даласида етиштирилган донли экинлар донининг технологик сифат кўрсаткичлари Ўз ДСТ 880:2015 талаблар асосида намуна олиш ГОСТ 13586.3-83, 1000 дона дон вазни ГОСТ 10842-89, дон натураси ГОСТ 10840-64, шишасимонлик даражаси ГОСТ 10987-76, оқсил миқдори ГОСТ 10846-91, клейковина миқдори, сифати (ИДК) кўрсаткичлари ГОСТ 13586.1-68 бўйича аниқланди. Тажриба натижаларининг математик-статистик таҳлиллари Б.А.Доспехов (1985 й.) услуби асосида амалга оширилди.

Мавзунинг ўрганилганлик даражаси. Юмшоқ буғдой (Triticum aestivum L.) дунёдаги энг муҳим дон экини бўлиб, бошқа озиқ-овқат экинларига қараганда ер юзасининг катта қисмини эгаллайди [2]. Юмшоқ буғдойининг ҳосилдорлиги глобал иқлим ўзгариши таъсирига дучор бўлмоқда ва унинг маҳсулдорлигига таъсир қилувчи бир қатор биотик ва абиотик стресслар юзага келмоқда [5].

Тупроқ эрозияси бутун дунёда кенг тарқалган ва унумдор тупроқ қатламининг йўқолишига ва экинлар ҳосилдорлигининг пасайишига олиб келадиган энг жиддий таҳдидлардан бири ҳисобланади [4].

Бугунги кунда органик қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш дунёда энг муҳим масалалардан бири бўлиб, у органик ўғитлардан фойдаланишга асосланган. Шу жумладан бунга сидератлардан фойдаланиш орқали эришиш мумкин. Шу нуқтаи назардан қараганда, табиий тупроқ-иқлим

шароитини ҳисобга олган ҳолда сидерат экинларини етиштириш, юқори биомассага эришиш, етиштирилган биомассани майдалаш, далага бир текис ёйиш, ерни шудгорлаш орқали органик ўғитларга бўлган эҳтиёжни қондириш мумкин. Бироқ, органик ўғитларни ўсимликлар томонидан сўрилган шаклга айлантиришда микроорганизмларнинг аҳамияти беқиёс ва уларни ўрганиш долзарб вазифалардан биридир. Сидерат экинларини етиштириш тупроқнинг сув ва ҳаво режимларини яхшилайди. Бу ҳолат, айниқса, бошоқли экинлар этиштирилганда яққол намоён бўлади. Шунингдек, сидерат экинлари кузда ва эрта баҳорда биомассани майдалаб ерга ҳайдалса, улар тупроқда санитария ролини бажаради [1, 3].

И. Бобокҳо'жаев, П. Узоков, Соил струстуре, Соил ссиенсе (техтбоок), Теасҳер, Ташкент (1995)

2. В.Г. Ларешин, Н.Н. Бушуев, В.Т. Скориков, А.В. Шуравилин, Тҳе усе оф стуббле греен мануре сропс анд

стравома фор тҳе репродустион оф соил органис маттер, Ин: Пресерватион анд импровемент оф тҳе фертилитй оф

агрисултурал ланд, Моссоw (2008)

3. Ж. Войнова-Райкова, В. Ранков, Г. Ампова, Мисроорганисмс анд фертилитй, Агропромиздат, Моссоw (1986)

4. Е.Н. Мишустин, В.Т. Емтсов, Мисробиологй, Колос, Моссоw (1987)

5. И.А. Сутин, Г.Р. Финн, Л.Н. Зеленская, Мисробиологй, Медисине, Моссоw (1973)

6. Н. Тиллакҳоджаева, Пресерватион оф соил мисрофлора, Агрисултурал ссиенсе апплисатион оф Узбекистан 3, 7 (2007)

Натижалар ва муҳокама. Бошоқли дон экинлари ҳосилдорлигини белгиловчи асосий кўрсаткичлар хар бир бошоқдаги бошоқчалар сони, бошоқдаги донлар сони ва оғирлигига бевосита боғлиқ. Қўйидаги 1-жадвалда тажриба тизимида кузги буғдойнинг Шукрона нави бошоқ кўрсаткичлари келтириб ўтилган.

Бошоқ узунлиги таҳлили натижаларига кўра Назорат+no-till кузги буғдой вариантида ўртача қайтариқлар бўйича бошоқ узунлиги 9,1 см.ни, ташкил қилган бўлса, тажрибанинг тўртинчи No-till ёзги сидерат (мош)+no-till кузги буғдой вариантида мос равишда 9,5 см.ни ва Full-till ёзги сидерат (мош)+no-till кузги буғдой вариантида 9,8 см.ни ташкил қилди. Тупроққа ишлов берилган вариантларда Назорат+full-till кузги буғдой вариантида 10,2 см.ни, No-till ёзги сидерат (мош)+full-till кузги буғдой вариантида бошоқ узунлиги 10,9 см.ни ва энг юқори бошоқ узунлиги Full-till ёзги сидерат (мош)+full-till кузги буғдой вариантларида қайд қилиниб, 11,1 см.ни ташкил қилди.

1-жадвал

Кузги юмшоқ буғдой бошоқ ўлчамларига ёзги сидерат экин ва экиш усулларининг таъсири

Вариантлар	Бир бошоқ ўлчамлари			
	Бошоқ узунлиги, см	Бир бошоқдаги бошоқчалар сони, дона	Бир бошоқдаги донлар сони, дона	Бир бошоқдаги донлар оғирлиги, г
2. Назорат+No-till Кузги буғдой	9,1	15,3	40,3	1,49
3. Назорат+Full-till Кузги буғдой	10,2	16,7	47,7	1,86
4. No-till Ёзги сидерат (мош)+ No-till кузги буғдой	9,5	15,7	43,0	1,61
5. No-till Ёзги сидерат (мош)+ Full-till кузги буғдой	10,9	17,3	51,0	2,01

6. Full-till Ёзги сидерат (мош)+ No-till кузги буғдой	9,8	16,0	45,7	1,74
7. Full-till Ёзги сидерат (мош)+ Full-till кузги буғдой	11,1	18,0	53,7	2,15

Бошоқдаги бошоқчалар сони ҳам бошоқ узунлиги кўрсаткичларига мос равишда ўзгариб борганлиги қайд қилинди.Бошоқдаги донлар сони ва оғирлиги таҳлили натижаларига кўра Назорат+no-till кузги буғдой вариантида бир бошоқдаги донлар сони 40,3 донани ва дон оғирлиги 1,49 граммни ташкил қилган бўлса, тажрибанинг тўртинчи No-till ёзги сидерат (мош)+no-till кузги буғдой вариантида бу кўрсаткич 43 дона ва 1,61 гарммни ва Full-till ёзги сидерат (мош)+no-till кузги буғдой вариантида донлар сони 45,7 донани ва бир бошоқдаги дон оғирлиги 1,74 граммни ташкил қилди. Тупроққа ишлов берилган вариантларда Назорат+full-till кузги буғдой вариантида бир бошоқдаги донлар сони 47,7 дона ва бошоқдаги донлар оғирлиги 1,86 граммни, No-till ёзги сидерат (мош)+full-till кузги буғдой вариантида донлар сони 51 дона ва дон оғирлиги 2,01 граммни ва энг юқори кўрсаткич Full-till ёзги сидерат (мош)+full-till кузги буғдой вариантларида қайд қилиниб, бир бошоқдаги донлар сони 53,7 донани ва бир бошоқдаги дон оғирлиги 2,15 граммни ташкил қилди.

Тадқиқот натижаларига кўра ёзги сидерат экинлар тупроққа киритилиши кузги юмшоқ буғдойнинг ҳосил элиментларига ижобий тасир кўрсатади.

Ёзги сидерат экинларидан кейин тупроққа ишлов бериш усулларига кўра тупроққа No-till ишлов берилганга нисбатан ананавий усулда ишлов берилганда бошоқдаги донлар сони ва дон оғирлиги юқори бўлади.

Хулоса.

Тадқиқот натижаларига кўра ёзги сидерат экинлар тупроққа киритилиши кузги юмшоқ буғдойнинг ҳосил элиментларига ижобий тасир кўрсатади.

Ёзги сидерат экинларидан кейин тупроққа ишлов бериш усулларига кўра тупроққа No-till ишлов берилганга нисбатан ананавий усулда ишлов берилганда бошоқдаги донлар сони ва дон оғирлиги юқори бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. **Bobokho'jaev I.**, **Uzokov P.** Soil structure: Soil science (textbook). — Tashkent, 1995.
2. **Chandra P.**, **Gill S. C.**, **Prajapat K.**, **Barman A.**, **Chhokar R. S.**, **Tripathi S. C.**, **Singh G.**, **Kumar R.**, **Rai A. K.**, **Khobra R.** Response of wheat cultivars to organic and inorganic nutrition: effect on yield and soil biological properties // Sustainability. — 2022. — Vol. 14, No. 15. — P. 75–78.
3. **Lareshin V. G.**, **Bushuev N. N.**, **Skorikov V. T.**, **Shuravilin A. V.** The use of stubble green manure crops and straw for the reproduction of soil organic matter // Preservation and improvement of the fertility of agricultural land. — Moscow, 2008.
4. **Luca Montanarella**, **David J. Pennock**, **Neil McKenzie** et al. World’s soils are under threat // Soil. — 2016. — Vol. 2, No. 1. — P. 79–82. — DOI:10.5194/soil-2-79-2016.
5. **Temirbekova S. K.**, **Kulikov I. M.**, **Afanasyeva Y. V.**, **Ashirbekov M. Z.**, **Beloshapkina O. O.**, **Kalashnikova E. A.**, **Sardarova I.**, **Begeulov M. S.**, **Kucher D. E.**, **Ionova N. E.** The biological traumatization of crops due to the enzyme stage of enzyme-mycotic seed depletion // Pathogens. — 2022. — Vol. 11, No. 3. — Art. 376.

ЛАЛМИКОР МАЙДОНЛАРДА ЁМҒИР ВА КИЧИК СЕЛ СУВЛАРИНИНГ БОШОҚЛИ ДОН ЭКИНЛАРИ ЎСИШИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ

Хайдаров Бекмурод Дўсиярович
Шакаров Икром Вахобович
Мустафақулова Ўғилой Исматулло қизи
Джумаев Зиядулла Таштемирович
Лалмикор деҳқончилик илмий тадқиқот институти
Ирригация ва сув муаммолари илмий тадқиқот институти

Аннотация. *Республикамиз лалмикор майдонлари тупроқ-иқлим шароити турли-туманлиги, амалга оширилаётган агротехник тадбирлар тизимининг ўзига хос характерга эга эканлиги ва дунёнинг бошқа суғорилмайдиган қурғоқчилик минтақалари деҳқончилик тизимидан кескин фарқ қилиши билан ажралиб туради. Бугунги кунда сув ресурслари йилдан-йилга камайиб бораётганлиги қишлоқ хўжалиги ривожланган давлатларда мавжуд сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, экинлардан юқори ва сифатли ҳосил етиштириш имкониятини берадиган суғориш усуллари ва технологиялари ишлаб чиқилиб амалиётга кенг жорий этилмоқда.*

Калит сўзлар: *лалмикор минтақалар тупроқ-иқлим шароити, ёмғир ва кичик сел сувларини жамғариш, ўсимликлар вегетацияси, ёмғирлатиб суғориш, ўсимликни сувга бўлган талабини қондириш, тупроқнинг сув-физик хусусиятлари, ўсиш ва ривожланиш, намлик, бошоқли дон экинлар ҳосилдорлиги.*

Аннотация. *Республиканские пашни засушливых районов нашей страны отличаются разнообразными почвенно-климатическими условиями, особенностями системы агротехнических мероприятий и резко отличаются от системы земледелия других засушливых районов мира. Сегодня, когда водные ресурсы с каждым годом уменьшаются, в странах с развитым сельским хозяйством разрабатываются и внедряются в практику методы и технологии орошения, которые обеспечивают эффективное использование*

водных ресурсов, а также позволяют получать высокие и качественные урожаи.

Ключевые слова: *почвенно-климатические условия засушливых районов; сбор дождевых и малых потоков воды; вегетация растений; дождевальное орошение; удовлетворение потребности растений в воде; водно-физические свойства почвы; рост и развитие; влажность; урожайность зерновых культур.*

Abstract. *The rainfed areas of our Republic are characterized by diverse soil-climate conditions, a specific set of agronomic practices, and a farming system that differs sharply from other rainfed dryland agricultural systems in the world. Today, as water resources decrease year by year, countries with developed agriculture are creating and widely implementing irrigation methods and technologies that ensure efficient use of available water resources and enable the production of high and quality crop yields.*

Key words: *soil-climate conditions of rainfed regions; rainwater and small stream water harvesting; plant vegetation; sprinkler irrigation; meeting plant water requirements; soil water-physical properties; growth and development; moisture; yield of cereal grain crops.*

Лойиханинг долзарблиги. Дунёда «қишлоқ хўжалик экинлари етиштириладиган ер майдони 1,6 млрд. гектарга тенг бўлиб, шундан 1,3 млрд. гектари лалми ерлар ҳисобланади ва уларда қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг 60% етиштирилади. Лалмикор майдонларда ёмғир ва сел сувларини қайта тақсимлаш орқали қишлоқ хўжалик экинлари учун сувга бўлган талабни назорат қилиш, самарсиз сув ресурсларидан фойдаланиб экинлар ҳосилдорлигини ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Дунёда 2000-йиллардан сўнг иқлим ўзгаришлари натижасида қурғоқчиликнинг такрорланиши кўпайиши оқибатларида қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда сув тежовчи технологилар соҳасидаги илмий-тадқиқот ишлари тезлашишига олиб келди. Ҳозирги кунда дунёнинг сув ресурслари кам бўлган ёки келажакда камайиш ҳавфи бўлган ҳудудларида

жойлашган кўпгина малакатларида (Исроил, БАА, Саудия Арабистони, Испания, Италия, Хитой, АҚШ) сув тежовчи технологияларни жорий этиш бўйича сезиларли натижаларга эришилмоқда.

Қишлоқ хўжалигини юқори босқичга кўтаришда мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш, экинларни парваришлашнинг илмий асосланган, ресурстежамкор, такомиллашган агротехнологияларини жорий этиш, кам маблағ сарфлаб юқори ва сифатли ҳосил етиштириш шу куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 июлдаги ПФ-6024-сон “Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ҳамда 2024 йил 7 майдаги ПФ-74-сон “Сув хўжалигида замонавий бошқарув тизимини жорий қилиш ва ривожлантиришнинг устивор йўналишларини белгилаш тўғрисида”ги фармонларида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш соҳасига янги замонавий инновацион сув тежамкор технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий қилиш устивор вазифалар сифатида белгиланган.

Ўзбекистон лалмикор минтақалар тупроқ-иқлим шароитида ёмғир ва кичик сел сувларини жамғариш, ўсимликлар вегетацияси давомида ёмғирлатиб суғориш, ўсимликни сувга бўлган талабини қондириш, тупроқнинг сув-физик хусусиятларини яхшилаш, намлик ҳисобига тупроқда ижобий озуқа балансини шакллантириш, дон ва дуккакли экинларни ёмғирлатиб суғориш муддати ва меъёрини аниқлаш, ёмғирлатиб суғориш режимини ишлаб чиқиш илмий ва амалий жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга долзарб масала ҳисобланади.

Ўзбекистон лалмикор майдонларининг об-ҳаво шароитларининг 44 йил давомидаги таҳлили. Лалмикор майдонларда турли йилларда куз-қиш, баҳор ойларида об-ҳавонинг тез-тез ўзгариб туриши шимолдан келадиган совуқ, жанубий- ғарбий томондан илиқ тропик ҳаво оқимларининг кириб келиши натижасида рўй беради.

Кўп йиллик маълумотларга кўра, бу лалмикор минтақада кузги бошоқли дон экинлари вегетацияси даврида (октябрь-июнь) ёғин-сочиннинг йиллик ўртача меъёри 361,9 миллиметрни ташкил этади ва қуйидагича тақсимланади; кузда ғалла экиш мавсумида (октябрь) 17,1 мм (4,7 %); кеч куз ва қиш ойларида (ноябрь, февраль) 182,4 мм (50,5 %) ва баҳор ойларида (март- май) -154,0 мм (42,5 %); ёз ойида (июнь) 8,4 мм (2,3%) бўлган.

Кўп йиллик тажрибаларнинг кўрсатишича, кузда ерни сифатли қилиб ҳайдаш учун тупроқдаги намлик миқдори 12-13% ни ташкил этиши лозим бўлади. Тупроқнинг бу даражада намланиши учун кузда ҳайдаш олдидан 40-50 мм атрофида ёмғир ёғиши талаб этилади. Кўп йиллик об-ҳаво маълумотлари таҳлили натижаларига кўра, сўнгги 35 йил давомида октябр ойидаги ёғингарчилик миқдори ўртача 16,8 миллиметрни ташкил этган бўлса, атига 8 йилдагина 28,5-109,3 мм бўлганлиги кузатилди. Бу кўрсаткич кузатув олиб борилган жами йилларнинг 25,8 фоизини ташкил этади.

Турли агротехник тадбирларда буғдой ўсиш ва ривожланиш босқичларига таъсири.Тажрибада олиб борилган фенологик кузатишлар тупроққа ишлов бериш усули, чуқурлиги қизил дон буғдой навининг фенологик ўсиш ва ривожланишига сезиларли таъсир этганлигини кўрсатди.

Қуйидаги маълумотларидан кўриниб турибдики, тажрибанинг назорат вариантида, кузги буғдой P_{40} +N_{40}+ суспензия билан ишлов берилганда, кузги буғдой P_{40} +N_{40}+ суспензия+ май ойида ёмғирлатиб суғориш билан ишланган вариантларда буғдойнинг униб чиқишида деярли фарқ кузатилмади. Бу вариантлар ўртасидаги фарқ туплаш фазасидан бошланиб буғдойнинг тўлиқ пишиб етилиш давригача давом этди. Вегетация даврининг узунлиги ўғитсиз вариантда (назорат) 155 кунни, кузги буғдой P_{40} +N_{40}+ суспензия билан ишлов берилганда 157-159 кунни ташкил этди, кузги буғдой P_{40} +N_{40}+ суспензия+ май ойида ёмғирлатиб суғориш билан ишланганда вариантда буғдой вегетацияси 162 кунни ташкил этди.



1-расм. Турли агротехник тадбирларда буғдой ўсиш ва ривожланиш босқичларига таъсири

Вегетациянинг охирига келиб, буғдойнинг тўлиқ пишиши даврида кузги буғдой P_{40} +N_{40}+ суспензия+ май ойида ёмғирлатиб суғориш билан ишланганда вариантда назорат ўғитсиз вариантига нисбатан 5-7 кун кечроқ кузатилди. Юқорида таъкидланганидек, лалмикор ерларнинг ёғин-сочин билан кам таъминланган текислик ва қир-адирлик минтақаларида кузги ғалла экинлари вегетациянинг биринчи ярмида тупроқда намлик етарли бўлса, иккинчи ярми, яъни гуллаш айниқса дон тўплаш даврида тупроқ намлиги камайган даврга тўғри келади. Айнан шу даврга келиб туп сони қалин бўлган майдонларда ўсимлик томонидан транспирация натижасида кўплаб намлик сарф бўлади. Бу эса доннинг пуч, майда бўлишига олиб келади.

Турли агротехник тадбирларнинг буғдой ҳосилдорлигига ва ҳосил структурасига таъсири. Тажриба олиб борилган майдондан ҳосилдорлик кўрсаткичлари ҳар бир вариантлардан 0,25 $м^2$ дан 4 тадан наъмуналар олиниб 1 $м^2$ майдондаги ҳосилдорлик аниқланди ва ҳосил структураси ҳам шу бўйича хисобланди. “Қизил дон” нави қайтариқлар бўйича ҳосилдорлиги вариантларда қўлланилагн агротехник тадбирларга қараб гектарига 3,3-5,2 центнерни, кузги буғдой ўғитсиз назорат вариантида 3,3 ц/га, Кузги буғдой P_{40} вариантларда эса 3,9 ц/га ташкил этган бўлса кузги буғдой

$P_{40}+N_{40}$ вариантида 4,3 ц/га, кузги буғдой $P_{40} + N_{40}$ + суспензия вариантида 4,6 ц/га, кузги буғдой ўғитсиз+ май ойида ёмғирлатиб суғориш вариантида 4,0 ц/га ни ташкил қилди.

Турли агротехник тадбирларнинг «Қизил дон» навининг ҳосилдорлигига таъсири,(Ғаллаорол, 2025й.)

	Вариантлар	Ҳосилдорлик, га/ц.				Қўшимча ҳосил	
		Қайтариқлар бўйича			Ўртача ц/га	± ц/га	%
		1	2	3			
.	Кузги буғдой ўғитсиз	3,1	3,3	3,4	3,3	-	100
.	Кузги буғдой P_{40}	3,7	3,8	3,5	3,6	0,3	109
.	Кузги буғдой $P_{40} + N_{40}$	4,0	4,5	4,3	4,2	0,9	127
.	Кузги буғдой $P_{40} + N_{40}$ + суспензия	4,6	4,8	4,2	4,5	1,2	136
.	Кузги буғдой ўғитсиз+ май ойида ёмғирлатиб суғориш	3,8	4,5	3,5	3,9	0,6	118
.	Кузги буғдой P_{40}+ май ойида ёмғирлатиб суғориш	4,5	4,7	4,2	4,4	1,1	133
.	Кузги буғдой P_{40} +N_{40}+ май ойида ёмғирлатиб суғориш	5,1	4,5	5,0	4,8	1,5	145

	Кузги буғдой $P_{40} + N_{40}$ + суспензия+ май ойида ёмғирлатиб суғориш	5,3	5,1	5,2	5,2	1,9	157
	НСР $_{05}$ -	**0,1**					
	M,%	**0,03**					

Энг юқори ҳосилдорлик хар иккала фактор яъни анъанавий ва май ойида бир марта ёмғирлатиб суғориш факторлари минерал ўғитлар билан озиқлантирилганда ҳамда барг орқали озиқлантириш учун суспензия қўлланилган кузги буғдой $P_{40} + N_{40}$ + суспензия+ май ойида ёмғирлатиб суғориш вариантида 5,2 ц/га олинди. Бу вариантда олинган қўшимча дон ҳосили назорат, яъни кузги буғдой ўғитсиз анъанавий ва Кузги буғдой ўғитсиз+ май ойида ёмғирлатиб суғориш вариантларига нисбатан 0,3-1,5 центнерни ёки 109-157 фоизни ташкил этди. Кузги буғдой $P_{40} + N_{40}$ + суспензия вариантида кузги буғдой $P_{40} + N_{40}$ + суспензия+ май ойида ёмғирлатиб суғориш вариантидан буғдойнинг “Қизил дон” нави ҳосилдорлиги 1,2 центнер кам бўлди.

Хулосалар

1. Тажриба олиб борилган лалмикор жойда ёғин-сочиннинг бошланиши октябрнинг охири ва ноябрь ойларига тўғри келади. Бу ойларда ёғин-сочиннинг кеч бошланиши ва ҳаво ҳароратининг пасайиши бошоқли дон экинларини февраль ойида экилишига олиб келди.

2. Февраль ойида экилган бошоқли дон экинлари об-ҳавонинг салқин келиши натижасида кўпчилик ҳолатларда ғалла экинлари уруғи униб чиқиши кечикишига олиб келди.

3. Ярим таъминланган қир-адирлик минтақада бошоқли дон экинларини минерал ўғитлар билан озиқлантирилишини қўллаш ғалла-банд шудгор алмашлаб экиш тизимида яхши самара беради.

4. Атмосфера ёғин-сочинларидан самарали фойдаланиш мақсадида лалмикор майдонларда ёмғир ва кичик сел сувларини жамғариш орқали бошоқли дон экинларини май ойида бир марта ёмғирлатиб суғориш самарали натижа беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. **Ўзбекистон Республикаси Президенти**. 2020 йил 10 июлдаги ПФ-6024-сон “Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармон.

2. **Ўзбекистон Республикаси Президенти**. 2024 йил 7 майдаги ПФ-74-сон “Сув хўжалигида замонавий бошқарув тизимини жорий қилиш ва ривожлантиришнинг устивор йўналишларини белгилаш тўғрисида”ги фармон.

3. **Раҳимжонова Д.** Томчи // *Agro HIBRO NEWS* журнали. — 14 b.

4. **Ёрматова Д.** Ёмғир ва қор сувлари бебаҳо хазина // *Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги* журнали. — 2025. — № 5. — 10–12 b.

5. **Лавронов Г. А.** Богарное земледелие в Узбекистане. — Т., 1979. — 479 с.

6. **Маматов С. А. ва б.** Сув тежовчи суғориш технологиялари асослари. — Тошкент, 2022. — 11 b.

7. **Орипов Р. О., Халилов Н. Х.** Ўсимликшунослик. — Тошкент, 2006. — 28 b.

8. **Тиловов У. Ҳ.** Лалми майдонларда буғдой ҳосилини ошириш омиллари // Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида бошоқли дон экинлари селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологияларининг ҳолати ва ривожлантириш истиқболлари. — Қарши, 2018. — 100 b.

9. **Халиқов Б. М., Намозов Ф. Б.** Алмашлаб экишнинг илмий асослари. — Тошкент, 2016. — 73 b.

10. **Юсупов Х.** Биологик хусусиятлари турлича бўлган буғдой намуналарининг суғориш тартиботи ва озиқлантириш меъёрига таъсирчанлиги // Ўзбекистонда буғдой селекцияси ва уруғчилиги ҳамда етиштириш технологиясига бағишланган 1-миллий конференция материаллари тўплами. — Т., 2004. — 314–318 b.

11. **Юсупов Х., Мураткасимов А., Нишонов Ж.** Лалмикор майдонларда тупроқдаги табиий намликдан самарали фойдаланишнинг агротехнологик омиллари // Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. — Қарши, 2018. — 325 b.

12. **Юсупов Х., Холматов М.** Суғориладиган майдонларда кузги ғалла экинларини кимёвий препаратларни уйғунлашган ҳолда қўллаш самарадорлиги // Ўзбекистонда буғдой селекцияси ва уруғчилиги ҳамда етиштириш технологиясига бағишланган 1-миллий конференция материаллари тўплами. — Т., 2004. — 428 b.

INTERDISCIPLINARY RESEARCH IN SOCIAL AND HUMANITIES SCIENCES

TIL TIZIMIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK O‘RNI VA TA’LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Abdirazakova Zilola Kulmuratovna

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

Annotatsiya: *Ushbu mavzu frazeologik birliklarning milliy tilning semantic boyligini shakllantirishdagi ahamiyati va ta;lim jarayonida qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Frazeologik birliklar til tizimining muhim qismi hisoblanib, obrazlilik, emotsionallik, madaniyatni ifodalaydi. Ularni ta’limda an’anaviy, innovatsion metodlar orqali o‘rgatish nutq madaniyatini, ijodiy fikrlashni, kommunikativ qobiliyatni, so‘z boylikning kengayishiga xizmat qiladi. An’anaviy metodda izohli o‘qitish, lug‘at asosida yodlash usullaridan foydalanilsa, interaktiv metodda har xil o‘yinlar asosida, korpus lingvistikasiga asoslangan holda o‘rgatishni tushunish mumkin. Shu bois, frazeologik birliklarni leksik-semantik tizim bilan integratsiyalashgan holda o‘rganish tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar. *Frazeologik birlik, leksik birlik, leksik-semantik tizim, tilshunoslik, ta’lim metodlari, an’anaviy yondashuv, innovatsion yondashuv, korpus lingvistikasi.*

Аннотация. *В данной работе раскрывается значение фразеологических единиц в формировании семантического богатства национального языка и особенности их использования в образовательном процессе. Фразеологические единицы являются важной частью языковой системы, отражая образность, эмоциональность и культурную специфику. Их изучение с применением традиционных и инновационных методов способствует развитию культуры речи, творческого мышления, коммуникативных способностей и расширению словарного запаса обучающихся. В рамках традиционного подхода используются методы объяснительного обучения и заучивания на основе словарей, тогда как интерактивный подход предполагает обучение на основе различных игр и с опорой на корпусную лингвистику. В связи с этим изучение фразеологических*

единиц в интеграции с лексико-семантической системой приобретает особую значимость для решения актуальных проблем языкознания.

Ключевые слова: *фразеологическая единица, лексическая единица, лексико-семантическая система, языкознание, методы обучения, традиционный подход, инновационный подход, корпусная лингвистика.*

Abstract. *This study highlights the importance of phraseological units in shaping the semantic richness of the national language and their application in the educational process. Phraseological units constitute an essential part of the language system, reflecting imagery, emotionality, and cultural identity. Teaching them through traditional and innovative methods contributes to the development of speech culture, creative thinking, communicative competence, and the expansion of vocabulary. While traditional methods rely on explanatory instruction and memorization based on dictionaries, interactive approaches involve various game-based activities and the use of corpus linguistics. Therefore, studying phraseological units in integration with the lexical-semantic system plays a significant role in addressing contemporary issues in linguistics.*

Keywords: *phraseological unit, lexical unit, lexical-semantic system, linguistics, teaching methods, traditional approach, innovative approach, corpus linguistics*

Frazeologik birliklar tilning o‘ziga xosligi, xalqning madaniyati va dunyoqarashini ifodalaydi. Leksik birliklar til tizimining asosiy elementlari bo‘lib, semantik maydonni shakllantiradi. Frazeologik birliklar va leksik birliklarning o‘zaro aloqasi tilning semantik boyligini ta’minlaydi. Shu sababli, ularni ta’lim jarayonida o‘rgatish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birliklarning eng muhim xususiyati - ularning semantik murakkabligidir, ya’ni tarkibiy qismlarning oddiy yig‘indisi emas, yangi ma’no hosil qilishida. Masalan italyan tilidagi “essere al verde” “yashil rangda bo‘lmoq” deb so‘zma so‘z tarjima qilinadi, lekin “pulsiz qolmoq” degan ma’noni beradi.Bu holat semantik frazeologik birliklarning semantik transformatsiya jarayonini ko‘rsatadi, ya’ni leksik birliklar birlashib, yangi konseptual ma’no yaratadi.

Chitra Fernando o‘zining “Idioms and Idiomacity” kitobida frazeologik birliklarni diskursiv vosita sifatida hisoblashi va ularning semantik ma’nosi nutqda yangi obraz yaratishi, matnning yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi degan. Fernando idiomalarning semantik murakkabligi til o‘rganuvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirishi, lekin ularni o‘rganib qo‘llay olish kommunikativ kompetensiyani boyitishga xizmat qilishini[34] ta’kidlagan.

Rosamund Moon frazeologik birliklarni korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuv orqali o‘rgangan. U idiomalarning semantik ma’nosini faqat lug‘aviy shaklda emas, balki real nutq konteksti orqali to‘liq tushunish mumkinligini ta’kidlaydi. Idiomalarni statik emas, balki dinamik dizkursiv hodisa deb ta’kidlaydi.

Moon o‘zining asarida idiomalarning variativligini tahlil qilgan, unda idiomalar tarkibiga so‘zlarning qo‘shilishi, grammatik jihatdan transformatsiyaga uchrashi, metaforik jihatdan yangi konnotatsiyalar hosil qilishlini ko‘rib tahlil qilib chiqqan. Uning fikricha frazeologik birliklarning semantik ma’nosi korpus materiallari orqali ko‘rilganda yanada aniq ochiladi. Chunki real nutqda idiomalar turli kontekstlarda qo‘llaniladi va bu semantik diapazonni kengaytiradi. Moon frazeologik birliklarni o ‘rganishda kontekstual misollar va korpus materiallaridan foydalanish[35] kerakligini aytgan. Frazeologik birliklarning ma’nosi real nutqda qo‘llanishi orqali ochiladi. Faqat lug‘atdan ma’nosini ko‘rib yod olishning yetarli emas, iboralarning turli kontekstlarda qo‘llanilishini ko‘rib chiqilsa, o‘rganilsa foydaliroq. Chunki ularning semantik ma’nosi kontekstga bog‘liq. Ta’lim jarayonida frazeologik birliklarni o‘rganishda korpus lingvistikasidan foydalanish yaxshiroq.

Sinclair o‘zining asari “Corpus, Concordance, Collocation”da tilning ishlash mexanizmini ikkiga bo‘lib tushuntiradi. Ya’ni so‘zni erkin tanlash ta’moyili va tayyor birliklarni qo‘llash tamoyili[36].

[34] Fernando, C. Idioms and Idiomaticity. — Oxford: Oxford University Press, 1996. — 280 b.
[35] Moon, R. *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach*. — Oxford: Oxford University Press, 1998. — 416 b.
[36] Sinclair, J. *Corpus, Concordance, Collocation*. — Oxford: Oxford University Press, 1991. — 179 b

Sinclairning fikricha, tilda tayyor birliklardan foydalanish tamoyili ustunlik qiladi. Ya’ni , nutq faoliyatida insonlar so‘zlarni tanlab qo‘shmaydi, ya’ni til tizimida mavjud bo‘lgan tayyor frazeologik birliklardan foydalaniladi. Sinclair idiomatik tamoilni kollokatsion majburiylik deb izohlagan. Masalan: *make a decision* - kollokatsiya odatiy, *do a decision* - grammatik jihatdan to‘g‘ri, lekin ingliz tilida qabul qilinmaydi.

Bu holatda shuni ko‘rishimiz mumkinki, frazeologik birliklar semantik tizimda tayyor holatda mavjud bo‘lib, ularni o‘zgartirish mumkin emas.

Sinclairning fikricha, frazeologik birliklar nutqni tez qurishga yordam beradi, chunki tayyor bloklarni qo‘llaydi, semantik izchillikni ta’minlaydi, ya’ni til tizimida ma’lum semantik maydonni mustahkamlaydi.

Sinclair nazariyasi il o‘rgatishda juda muhim: chunki talabalarga faqat grammatik qoidalarni emas, balki tayyor frazeologik bloklarni qo‘llay olishni o‘rganishlari zarur. Korpus lingvistikasidan foydalanib, real nutqda qo‘llanadigan kollokatsiyalarni ko‘rsatish, kommunikativ kompetensiyani oshirishga xizmat qiladi.

Frazeologik birliklar til tizimining alohida qatlamini tashkil etadi. Ular so‘zlar kombinatsiyasigina emas, yangi ma’noni ifodalaydi. Cowie frazeologik birliklarni lleksik bo‘shliqlarni to‘ldirish xususiyati haqida alohida to‘xtalgan. U har bir tilning leksik tizimida ma’lum semntik bo‘shliqlar mavjud bo‘lib, ularni oddiy so‘zlar bilan ifodalash ko‘p izoh talab qiladi, frazeologik birliklar esa bu bo‘shliqni to‘ldiradi[37] deb ta’riflagan. Cowie bu birliklarni tilning semantik tizimida qo‘shimcha resurs sifatida baholaydi, chunki ular oddiy leksik vositalar bilan ifodalash qiyin bo‘lgan ma’nolarni ixcham va obrazli shaklda beradi.

Cowie frazeologik birliklarni tilning leksik-semantik tizimida bo‘shliqlarni to‘ldiruvchi, ijodkor va konventsiyalashgan resurs sifatida talqin qiladi. Ularning semantik murakkabligi va variativligi tilning boyligini oshiradi, ta’lim jarayonida esa kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

[37] Cowie, A.P. (ed.). *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. — Oxford: Clarendon Press, 1998. — 272 b.

Frazeologik birliklar til tizimida leksik-semantik maydonning muhim qismi bo‘lib, milliy tilning obrazlilik va madaniy xususiyatlarini ifodalaydi. Ularni ta’lim jarayonida an’anaviy va innovatsion metodlar orqali o‘rgatish til kompetensiyasini rivojlantiradi, o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantiradi.

Umuman olganda, bu yondashuvlar bir-birini to‘ldiradi: Fernando va Moon idiomlarning semantik murakkabligi va kontekstual dinamikasini ko‘rsatadi, Sinclair ularning ishlash mexanizmini izohlaydi, Cowie esa ularning leksik tizimdagi funksional o‘rnini belgilaydi. Natijada, frazeologik birliklar til tizimining semantik boyligini shakllantiruvchi, nutqni tabiiy va obrazli qiluvchi hamda ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi muhim qatlam sifatida qaraladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, frazeologik birliklar til tizimining leksik-semantik tizimida alohida qatlamni tashkil etib, milliy tilning obrazlilik, emotsionallik va madaniy xususiyatlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning semantik murakkabligi oddiy so‘zlarning yig‘indisidan tashqarida yangi konseptual ma’no yaratishi bilan belgilanadi. Bu jihat frazeologik birliklarni tilning semantik boyligini shakllantiruvchi asosiy resurs sifatida ko‘rsatadi.

Chitra Fernando idiomlarni diskursiv vosita sifatida talqin qilib, ularning matn yaxlitligini ta’minlash va kommunikativ kompetensiyani boyitishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Rosamund Moon idiomlarning semantik ma’nosini faqat lug‘aviy shaklda emas, balki real nutq konteksti orqali to‘liq anglash mumkinligini ta’kidlab, korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuvni ilgari suradi. John Sinclair idiomatic principle nazariyasi orqali frazeologik birliklarning tayyor blok sifatida nutqda qo‘llanishini izohlaydi va kollokatsion majburiylikni til tizimining asosiy mexanizmi sifatida ko‘rsatadi. Cowie esa frazeologik birliklarning leksik bo‘shliqlarni to‘ldirish funksiyasini alohida ta’kidlab, ularni tilning semantik tizimida qo‘shimcha resurs sifatida baholaydi.

Frazeologik birliklarning leksik-semantik tizim bilan integratsiyalashgan holda o‘rganilishi tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal etishda, til ta’limining

samaradorligini oshirishda va milliy tilning semantik boyligini yanada chuqurroq anglashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Fernando C.** Idioms and Idiomaticity. — Oxford: Oxford University Press, 1996. — 265 p.
2. **Moon R.** Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. — Oxford: Oxford University Press, 1998. — 416 p.
3. **Sinclair J.** Corpus, Concordance, Collocation. — Oxford: Oxford University Press, 1991. — 179 p.
4. **Cowie A. P.** (ed.). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. — Oxford: Clarendon Press, 1998. — 272 p.
5. **Fernando C., Flavell R.** On Idiom: Critical Views and Perspectives. — Exeter: University of Exeter Press, 1981. — 180 p.

QO‘QON XONLIGIDA MARKAZIY BOSHQARUVINING ICHKI VA TASHQI OMILLARI: MA’MURIY IDORASI VA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMI

Abduazimov Davronbek Baxtiyor o‘g‘li

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qo‘qon xonligida markaziy boshqaruvning ichki va tashqi omillari, ma’muriy idorasi va mahalliy boshqaruv tizimining shakllanishi, sayqallanishi, tadrijiy rivojlanib boorish bosqichlari haqida ilmiylik, tarixiylik va xolislik asosida o‘rganilgan ma’lumotlar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon xonligi, xon, otaliq, beklarbegi, biy, devonbegi, xazinachi, inoq,eshikog’asi, chehraog’asi, parvonachi, dodxoh, dasturxonchi, saroy qorovulbegisi, tunqator, oftobachi, sharbatdor, hidoyatchi, shig’ovul, sarkor, qushbegi (mirishkor) , salomog’asi, kitobdor, risolachi , jam’og‘a, jarchi, chopquchi, shotir, udaychi*

Abstract: *This article contains information studied based on scientific, historical, and objective principles about the internal and external factors of central governance in the Khanate of Kokand, its administrative office, and the formation, refinement, and gradual development stages of the local governance system.*

Keywords: *Kokand Khanate, khan, ataliq, beklarbegi, biy, divanbegi, treasurer, inaq, eshikog‘asi, chehraog‘asi, parvonachi, dodkhah, dasturxonchi, palace guard commander, tunqator, oftobachi, sharbatdor, hidoyatchi, shig‘ovul, sarkor, qushbegi (mirishkor), salomog‘asi, kitabdar, risolachi, jam‘oqa, jarchi, chopquchi, shotir, udaychi*

Аннотация*: В этой статье представлены научно обоснованные, исторически достоверные и объективные данные о внутренних и внешних факторах центрального управления в Хокандском ханстве, его административных учреждениях и формировании, совершенствовании и постепенном развитии системы местного управления.*

Ключевые слова*: Ханство Коканд, хан, оталык, беклярбеги, бий, диванбеги, казначей, инак, эшикогази, чечраогази, парвоначи, додхох, дастурхончи, караульный дворца, тункатор, офтобачи, шарбатдор, хидоятчи, шигавул, саркор, кушбеги (миришкор), саломогази, книгохранитель, рисолачи, джамоа, жарчи, чопкучи, шотир, удайчи*

Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvida milliy davlatchilik asoslarini yaratish, demokratlashtirish borasida salmoqli ishlar olib borildi. Xususan, hududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarini shakllantirish hamda ularning kelajagi bo‘yicha tarixiy tajriba asosida tizim shakllantirildi. Umuman olganda respublikamizda mahalliy hokimiyat tizimi munosabatlarining o‘ziga xosligi

shundan iboratki, davlat boshqaruvining mexanizmi mahalliy hokimiyat organlari bilan uzviy bog‘liq va shu organlar orqali amalga oshiriladi.

Shunday ekan, tarixiy tajriba asosida O‘zbekiston tarixining o‘rta asrlar davridagi davlatchilik tarixiga murojaat qiladigan bo‘lsak, o‘zbeklarning ming qabilasi (urug‘i) boshliqlaridan biri Shohruhbiy asos solgan Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o‘rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Zamonaviy tadqiqotlarda ham xonlikda Buxoro amirligida bo‘lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda shayboniylar davrida qisman isloh qilingan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo‘lganligi, xonlikda eng oliy va markaziy unvon xon unvoni bo‘lib, uning hukumati cheklanmaganligi ta’kidlab o‘tilgan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning qo‘lida edi[38]. XIX asr manbalarida Qo‘qon xonligi beklik, ba’zan viloyag va sarkorlik sifatida tilga olingan ma’muriy - xududiy qismlarga bo‘lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo‘qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo‘qon va uning atrofi, Marg‘ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So‘x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darxon[39]. “Turkestanskiye vedomosti” to‘plamida esa Asaka, Marg‘ilon, Baliqchi O‘sh, So‘x, Koson va O‘zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi[40].

Tarixchi olimlardan Sh.Vohidov, R.Xoliqovalar o‘z asarlarida Qo‘qon xonligining ming qabilasidan bo‘lgan hokimlar turli yillarda Shahrisabz, Urgut, Mog‘iyon, Urmitan viloyatlari va bekliklarida hukm surganlar. Ming urug‘i boshliqlari XIX asr boshlarigacha biy unvoni bilan hokimiyatni boshqarganliklarini, Olimxon 1805 yilda o‘zini rasman xon deb e’lon qilganligini ta’kidlab o‘tishadi. Xon unvoni bilan hokimiyatni boshqargan Umarxon (1810 – 1822 yy.) esa 1818

[38] Худойқулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII – XX аср бошлари)). Монография. Ўзкитобсавдонашриёти. 2023. – Б. 76.

[39] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент.: Янги аср авлоди. 2012. – Б. 365.

[40] Туркестанские ведомости. 1876. – № 13.

yilda o‘zini “amir ul-muslimin” deb e’lon qilgan. Shu asnoda 1822 yilda Muhammad Alixon ham xon unvoni bilan taxtga o‘tiradi[41].

Xonlikda xon avlodlari xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to‘ra deb atalar edi. Davlat boshqaruvi mutlaq yakka hokimlik bo‘lib, xonning o‘zi cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lsa-da, ma’lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va hokimiyati cheklanib, saroy amaldorlari hamda qo‘shin boshliqlarining xonga ta’siri kuchli bo‘lgan. Bunga misol qilib Musulmonqulining mingboshi va otaliq bo‘lgan davrini (Xudoyorxon davrida, 1844 – 1852 yy.) yoki Aliqulining amirlashkarlik va vazirlik davrini (Sulton Sayidxon, 1863 – 1865 yy.) keltirish mumkin. Bzning fikrimizcha, xonning siyosiy kuch-qudrati ma’lum iqtisodiy asoslarga hamda ba’zi ijtimoiy guruhlar faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan.

Manbalar va ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo‘lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo‘riq yerlar, ko‘lu anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to‘ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma’muriyat, qo‘shinlar va qo‘shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag‘batlantirilgan.

Xonlikda hokimlar va hududiy bo‘linma boshliqlari xon oilasi a’zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning o‘g‘illari va yaqin qarishdoshlari tomonidan boshqarilgan. O‘z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o‘zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo‘lib berganlar. Qo‘qon xonligining ma’muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o‘rdasi alohida o‘rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi ko‘plab vakolatlarga ega bo‘lgan[42].

Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, xon saroyida mingboshi boshchilik qiladigan Kengash tuzilgan bo‘lib, bu kengash saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim

[41] Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент.: Янги аср авлоди. 2006. – Б. 6-21.

[42] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. … – Б. 365.

ishlarni ko‘rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar a’zo bo‘lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega edi[43].

Qo‘qon xonligida asosan Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlar davrida (1798 – 1842 yy.) davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosat ancha barqaror hamda nisbatan tinch rivojlangan. Ammo XIX asr o‘rtalariga kelib Qo‘qon xonligi inqirozga uchray boshlaydi. Tadqiqotchilar ushbu inqirozning asosiy sabablari sifatida o‘troq xalq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni, o‘zaro nizo va urushlarni, xon taxti uchun olib borilgan kurashlarni, Buxoro amiri bilan bo‘lgan nizolar va dushmanliklar, saroy amaldorlarining xoinliklari kabilarni ko‘rsatadilar. Bularning natijasida iqtisodiy hayotda taraqqiyot pasayib, ijtimoiy tarqoqlik kuchayib bordi va davlat inqirozga yuz tutdi[44].

Qo‘qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma’muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma’muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona amallariga bo‘lingan[45]. Qo‘qon xoligidagi saroy unvon va mansablari quyidagilar edi:

Otaliq – xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiylari. Ular tarbiyalagan xonzoda taxtga o‘tirganidan so‘ng, otaliqlar ham yuqori mansab va unvonlarni egallagan.

Beklarbegi – beklarning begi. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba’zi viloyatlarning hokimiga berilgan.

Biy – turkiy qabilalarning boshliqlari.

[43] Ўша асар. – Б. 368.

[44] Мирзо Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. – Тошкент. Янги аср авлоди. Таржимон Ш.Воҳидов. 2008. – Б. 87.

[45] Қўқон хонлигидаги унвонлар ва мансаблар ҳақидаги маълумотлар қуйидаги тарихчи олимларнинг рисола ва монографияларидан олинди: Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент. Янги аср авлоди. 2006. – Б. 6-21; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент.: Янги аср авлоди. 2012. – Б. 368-373; Худойқулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII – XX аср бошлари)). Монография. Ўзкитобсавдонашриёти. 2023. – 200 бет; Қўлдашев Шерали. Қўқон хонлиги ва Хитой (Чинг империяси) ўртасидаги дипломатик муносабатлар. 浩罕汗国与大 清帝国之间的外交关系. ТошДШИ. 2019 й. – 240 б.; Турсунов Б. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари ()XIX асрнинг 70 йилларигача. – Наманган. Наманган нашриёти. 2014. – 127 бет.

Devonbegi – xon devonining boshlig‘i, Qo‘qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti qipchoq mulkida ham devonbegi mansabi bo‘lgan.

Xazinachi – davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Xazinachilar viloyat markazlarida ham faoliyat yuritgan.

Inoq – xonning xos va sirdosh mulozimi.

Eshikog‘asi yoki chehraog‘asi – eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlari va soqchi-mulozimlarining boshlig‘i. Notanish kishilarni xon huzuriga ijozatsiz qo‘ymaslikka javobgar shaxs.

Parvonachi – bu unvon egasi xon nomiga kelgan xat va arizalarni saroyga olib kirib, javobini olib chiqqan. Bu unvon boshqa unvon sohiblariga ham berilgan.

Dodxoh – xon oldiga fuqarolarning xohish-istak hamda maqsadlarini bayon etish huquqiga ega mansab, saroy unvoni.

Dasturxonchi – xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar saroy mansabi.

Saroy qorovulbegisi – xon o‘rtasining soqchilariga boshliq bo‘lgan saroy amaldori.

Tunqator – tun bo‘yi uyg‘oq bo‘ladigan soqchi. Xonning dam olishi va yurishlari vaqtida qo‘riqchilik qilib, xonning yaqin kishilaridan tayinlanadigan amaldor.

Oftobachi – xonning xos mulozimlaridan bo‘lib, uning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qiladigan amaldor.

Sharbatdor – eng oliy va faxriy unvonlardan bo‘lib, xonning xos majlislari va safarlarida hizmatda bo‘lgan.

Hidoyatchi – xon saroyiga yuborilgan tortiq va sovg‘alarni qabul qilib olib, xon nazaridan o‘tkazuvchi amaldor.

Shig‘ovul – saroyga tashrif buyurgan elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab kiruvchi amaldor. Manbalarga ko‘ra, bu mansabdagi amaldorning vazifalari keng bo‘lgan[46].

[46] Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент. Янги аср авлоди. 2006. – Б. 6-21. Яна қаранг. Худойқулов Т.Д., Бердиев А.А.The Role Of Memories Of Tourists And

Sarkor – saroydagi xon amaldorlarining boshlig‘i. Bu mansabdagi shaxs xonga tegishli shifoxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan.

Qushbegi (mirishkor) – ov paytida xonga hamrohlik qiladigan mansab egasi. Qushbegining ovchi itlari, lochin va burgutlari bo‘lib, ov paytidagi xonning dam olish jarayonlariga ham bu shaxs javobgar bo‘lgan.

Salomog‘asi – xon nomidan xalqqa salom beruvchi.

Kitobdor – saroy kitobxonasi uchun javob beradigan amaldor.

Risolachi – elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berish uchun mas’ul bo‘lgan saroy amaldori.

Jam’og‘a – xonning suhbati, qabuli hamda bazmlariga ishtirok etuvchilarga xabar berib, chaqirib keladigan saroy amaldori.

Jarchi – xalq yig‘iladigan ommaviy joylarda xonning farmon va buyruqlarini jar solib (baland ovoz bilan) e’lon qiladigan shaxs.

Chopquchi – pichoq yasovchi, xon saroyidagilar uchun qurollar (pichoq, xanjar, qilich) yasab, qurchi vazifasini ham bajargan.

Shotir – xon rikobi oldida yuradigan hizmatchi, odamlarni xon kelishidan xabardor etib, ularni ta’zimga chorlab turgan.

Udaychi – xon rikobi oldida yurib, uning sha’niga baland ovoz bilan maqtovli so‘zlar va hamdu sanolar aytib boruvchi hizmatchi.

Tarixchi B.Tursunov o‘z monografiyasida Qo‘qon xonligi harbiy mansablar tizimida qo‘shinning turli bo‘linma larida muhim o‘rin tutgani, ma’suliyati jihatidan turlicha bo‘lgan mansab va lavozimlar mavjud ekanligin qayd etib o‘tadi. Ular jumlasiga yovar, xos soqchi, to‘pchiboshi, pon sadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi, qorovulbegi, qozi askar, qozi muf tiy, qozi raislarni kiritish mumkin. Ular xonlik harbiy tizimida o‘zla riga yuklatilgan vazifalar jihatidan turli o‘rinlarni egallaganlar. Ulardan biri yovar bo‘lib, amirlashkar shaxsiy dastasining boshlig‘i, qurol yasovchi ustaxonalarning sardori sifatida ham e’tirof etiladi. Uning qo‘l

ostidagi dasta odatda yuz kishidan iborat bo‘lgan. Ba’zi adabiyotlarda yovar Qo‘qon xonligidagi yuz kishilik to‘pchilar bo‘linmasining boshlig‘i sifatida ko‘rsatiladi[47].

Yuqoridagi amal va mansab egalari o‘z xizmatlari evaziga yillik maosh (pul, ot, qo‘y, g‘alla ko‘rinishida) olganlar. Bundan tashqari, ularga tegishli yer-mulklar ham berilgan. Davlat o‘zining ichki va tashqi siyosati, jamiyat bilan olib boruvchi aloqalarini asrlar davomida shakllanib, mukammallashib borgan murakkab boshqaruv organiga tayanib amalga oshirgan. Bu organ Markaziy Osiyo xonliklarida hukmdorlarning huzuridagi Oliy kengash bo‘lib, tarixiy manbalarda u “maslahat”, “xos majlis”, “mashvarat”, “majlisi sultoniy” kabi so‘zlar bilan ifoda qilinadi[48].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Худойқулов Т.** Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII – XX аср бошлари)): монография. — Тошкент: Ўзкитобсавдонашриёти, 2023. — 200 б.
2. **Эшов Б.** Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. — 365 б.
3. **Туркестанские ведомости.** — 1876. — № 13.
4. **Воҳидов Ш., Холиқова Р.** Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. — Б. 6–21.
5. **Мирзо Олим Махдумхожа.** Тарихи Туркистон. Тарж. Ш. Воҳидов. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. — 87 б.

[47] Турсунов Б. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари XIX асрнинг 70 йилларигача. – Наманган. Наманган нашриёти. 2014. – Б. 72.

[48] Худойқулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII – XX аср бошлари)). Монография. Ўзкитобсавдонашриёти. 2023. – Б. 76-85.

6. **Қўлдашев Шерали.** Қўқон хонлиги ва Хитой (Чинг империяси) ўртасидаги дипломатик муносабатлар. — Тошкент: ТошДШИ, 2019. — 240 б.
7. **Турсунов Б.** Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари XIX асрнинг 70 йилларигача. — Наманган: Наманган нашриёти, 2014. — 127 б.
8. **Худойқулов Т. Д., Бердиев А. А.** The Role of Memories of Tourists and Ambassadors in Trade and Economic Relations of the Kokand Khanate // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. — 2020 (India). — P. 324–333.

GENDER TENGLIGIGA LIBERAL VA NEOMARKSISTIK YONDASHUVLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY TALQINI

Abdusalomova Maftunaxon G‘ofurjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gender tengligiga liberal va neomarksistik yondashuvlarning ijtimoiy-siyosiy talqini qiyosiy tahlil orqali yoritilgan. Tadqiqotda liberal nazariyada gender tengligi shaxs huquqlari va imkoniyatlar tengligi bilan bog‘liq bo‘lsa, neomarksistik nazariyada u iqtisodiy tuzilma va sinfiy tengsizlik bilan izohlanadi. Maqola gender tengligini ta’minlashga qaratilgan siyosatni ishlab chiqishda har ikki yondashuvning muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *gender tengligi, liberal yondashuv, neomarksistik yondashuv, ijtimoiy-siyosiy talqin, imkoniyatlar tengligi, huquqiy kafolatlar, iqtisodiy tengsizlik*

Abstract:*This article presents a comparative analysis of the social-political interpretation of gender equality from liberal and neo-Marxist perspectives. The*

study demonstrates that in liberal theory, gender equality is linked to individual rights and equality of opportunities, whereas in neo-Marxist theory, it is explained through economic structure and class inequality. The article highlights the importance of both approaches in developing social-political policies aimed at ensuring gender equality.

Keywords: *gender equality, liberal approach, neo-Marxist approach, social-political interpretation, equality of opportunities, legal guarantees, economic inequality*

Аннотация: *В статье представлен сравнительный анализ социально-политической интерпретации гендерного равенства с точки зрения либерального и неомарксистского подходов. В исследовании показано, что в либеральной теории гендерное равенство связано с правами личности и равенством возможностей, тогда как в неомарксистской теории оно объясняется экономической структурой и классовым неравенством. Статья демонстрирует значимость обоих подходов при разработке социально-политической политики, направленной на обеспечение гендерного равенства.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, либеральный подход, неомарксистский подход, социально-политическая интерпретация, равенство возможностей, правовые гарантии, экономическое неравенство*

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda gender tengligi masalasi global va milliy miqyosda ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jamiyatda ayollar va erkaklar o‘rtasida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarining qaror topishiga, balki barqaror rivojlanish, samarali boshqaruv va demokratik institutlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu bois gender tengligi muammosi zamonaviy siyosiy nazariyalar va ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biriga aylangan.

Gender tengligi konsepsiyasi bir xil mazmunda talqin etilmaydi, balki turli nazariy yondashuvlar doirasida turlicha izohlanadi. Ayniqsa, liberal va neomarksistik nazariyalar gender tengligiga bo‘lgan munosabatda metodologik va

konseptual jihatdan sezilarli farqlarga ega. Liberal yondashuv gender tengligini, asosan, shaxsiy huquq va erkinliklar, imkoniyatlar tengligi hamda qonun oldida tenglik tamoyillari bilan bog‘liq holda ko‘rsa, neomarksistik yondashuv ushbu masalani jamiyatning iqtisodiy tuzilmasi, ishlab chiqarish munosabatlari va sinfiy tengsizliklar bilan uzviy aloqada talqin etadi.

Mazkur nazariy qarashlar gender tengligining ijtimoiy-siyosiy mazmunini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki gender tengsizligi faqat individual yoki madaniy muammo sifatida emas, balki siyosiy institutlar, iqtisodiy mexanizmlar va ijtimoiy tuzilmalar bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, liberal va neomarksistik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish gender tengligi konsepsiyasining chuqur mohiyatini anglash hamda uni ta’minlashga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi gender tengligiga liberal va neomarksistik yondashuvlarning ijtimoiy-siyosiy talqinini tahlil qilish, ularning asosiy g‘oyaviy farqlari va umumiy jihatlarini aniqlash hamda mazkur yondashuvlarning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Tadqiqot natijalari gender tengligini ta’minlashga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlarni boyitishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Gender tengligi masalasiga liberal va neomarksistik yondashuvlar turli nazariy asoslar va metodologik pozitsiyalarga tayangan holda yondashadi. Ushbu farqlar, avvalo, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va tengsizlik manbalarini anglashdagi qarashlarda namoyon bo‘ladi. Shu bois mazkur yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish gender tengligining ijtimoiy-siyosiy mazmunini chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi.

Liberal yondashuvda gender tengligi, asosan, shaxsning huquqiy maqomi va imkoniyatlari bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Bu nazariya vakillari ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tengsizlikning asosiy sababi sifatida huquqiy cheklovlar, diskriminatsion normalar hamda siyosiy institutlarda teng ishtirok etish imkoniyatlarining cheklanganligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, liberal

yondashuv gender tengligini ta’minlashda qonunchilikni takomillashtirish, teng imkoniyatlar yaratish va siyosiy-huquqiy islohotlarni muhim vosita sifatida baholaydi.

Neomarksistik yondashuv esa gender tengsizligini jamiyatning iqtisodiy tuzilmasi va ishlab chiqarish munosabatlari bilan bevosita bog‘laydi. Ushbu nazariyada gender tengsizligi sinfiy tengsizlikning bir ko‘rinishi sifatida talqin etilib, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qaram holati kapitalistik tizimning tarkibiy xususiyati sifatida izohlanadi. Neomarksistik qarashlarga ko‘ra, gender tengligini faqat huquqiy choralar bilan ta’minlash yetarli emas, balki mehnat taqsimoti, mulkchilik munosabatlari va iqtisodiy resurslarga kirish imkoniyatlarini tubdan o‘zgartirish talab etiladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, liberal yondashuv gender tengligini normativ-huquqiy muammo sifatida ko‘rsa, neomarksistik yondashuv uni strukturaviy va tizimli muammo sifatida baholaydi. Liberal nazariya individual erkinlik va imkoniyatlar tengligiga urg‘u bersa, neomarksistik yondashuv ijtimoiy tengsizlikning chuqur ildizlarini fosh etishga intiladi. Shu bilan birga, har ikki yondashuv gender tengligini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida e’tirof etadi va uni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi.

Mazkur qiyosiy tahlil gender tengligiga oid siyosiy qarorlar va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda har ikki yondashuvning muayyan jihatlarini uyg‘unlashtirish muhimligini ko‘rsatadi. Chunki gender tengligini ta’minlash jarayoni huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olishni talab etadi.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, gender tengligiga liberal va neomarksistik yondashuvlar mazkur muammoni turli nazariy va metodologik asoslar orqali talqin etadi. Liberal yondashuv gender tengligini huquqiy va siyosiy institutlar orqali ta’minlanadigan normativ qadriyat sifatida baholab, shaxs erkinligi va imkoniyatlar tengligiga ustuvor ahamiyat beradi. Neomarksistik yondashuv esa gender tengsizligini jamiyatning iqtisodiy tuzilmasi va ishlab chiqarish

munosabatlari bilan bog‘liq tizimli muammo sifatida ko‘rib, uni bartaraf etish uchun chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar zarurligini ta’kidlaydi.

Gender tengligi masalasi nafaqat huquqiy yoki madaniy, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liq murakkab jarayondir. Har ikki yondashuvning ilmiy xulosalari gender tengligini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, gender tengligini ta’minlashda yagona nazariy yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, kompleks va integratsiyalashgan yondashuv zarur hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Gender tengligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatida huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy omillarni ham inobatga olgan kompleks yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Gender tengligiga oid dastur va strategiyalarni ishlab chiqishda liberal yondashuvning teng imkoniyatlar va huquqiy kafolatlar haqidagi g‘oyalari neomarksistik yondashuvning strukturaviy tengsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan qarashlari bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

3. Mehnat bozorida gender tengligini ta’minlash maqsadida ayollarning iqtisodiy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, mehnat taqsimotidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.

4. Gender tengligi masalasida siyosiy qaror qabul qilish jarayonlarida ilmiy-nazariy tadqiqotlar natijalaridan samarali foydalanish hamda ushbu yo‘nalishda muntazam monitoring va tahlil mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **John Rawls** A Theory of Justice. — Cambridge, MA, 1999.
2. **Susan Moller Okin** Justice, Gender, and the Family. — New York, 1989.
3. **Nancy Fraser** Justice Interruptus: Critical Reflections on the “Postsocialist” Condition. — New York, 1997.

4. **Jo‘rayev B. J.** Gender tengligi va ijtimoiy adolat masalalari // Ijtimoiy fanlar jurnali. — 2020. — 3(2). — B. 45–52.
5. **Xolmatova D. A.** Jamiyat rivojida gender siyosatining o‘rni. — Toshkent, 2021.

STANDARDIZATION OF TERMINOLOGY IN THE FIELD OF SOCIAL PROTECTION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Aliqulova Dildora Bakir qizi
Raximova Munisa Sherali qizi
Turon universiteti

Abstract. *The standardization of terminology plays a crucial role in ensuring conceptual clarity and institutional coherence within social protection systems. In multilingual policy environments, terminological inconsistency may lead to misinterpretation of legal norms and inefficiencies in social policy implementation. This article examines the process of terminology standardization in the field of social protection through a comparative analysis of English and Uzbek languages. The study focuses on structural, semantic, and functional characteristics of terminological units used in legal and policy discourse.*

Keywords: *social protection, terminology standardization, comparative linguistics, English–Uzbek terminology, social policy discourse, institutional communication*

Annotatsiya. *Terminologiyaning standartlashuvi ijtimoiy himoya tizimlarida tushunchaviy aniqlik va institutsional uyg‘unlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘p tilli siyosiy muhitda terminologik nomuvofiqlik huquqiy me’yorlarning noto‘g‘ri talqin qilinishiga hamda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda samarasizlikka olib kelishi mumkin. Mazkur maqolada ijtimoiy himoya*

sohasida terminlarning standartlashuvi ingliz va o‘zbek tillari qiyosida tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy himoya, terminologiya standartlashuvi, qiyosiy tilshunoslik, ingliz–o‘zbek terminologiyasi, ijtimoiy siyosat diskursi, institutsional muloqot.*

Аннотация. *Стандартизация терминологии играет важную роль в обеспечении понятийной точности и институциональной согласованности в системах социальной защиты. В условиях многоязычной политической среды терминологическая несогласованность может приводить к искажённому толкованию правовых норм и снижению эффективности реализации социальной политики. В статье рассматривается процесс стандартизации терминологии в сфере социальной защиты на основе сравнительного анализа английского и узбекского языков. Основное внимание уделяется структурным, семантическим и функциональным характеристикам терминологических единиц, используемых в правовом и политическом дискурсе*

Ключевые слова: *социальная защита, стандартизация терминологии, сравнительная лингвистика, английско-узбекская терминология, дискурс социальной политики, институциональная коммуникация.*

Introduction

In the context of contemporary socio-economic transformation, social protection has emerged as one of the most strategically significant components of state policy. Its primary objective is to ensure social stability, protect vulnerable segments of the population, and mitigate the negative consequences of economic inequality, unemployment, disability, aging, and social exclusion. As social protection systems expand and become increasingly institutionalized, the language used to describe their mechanisms, principles, and instruments acquires critical importance.

Terminology serves not merely as a linguistic tool but as a conceptual framework through which social reality is interpreted and regulated. In the field of social protection, terms define legal rights, determine eligibility criteria, regulate institutional responsibilities, and shape public understanding of social policy. Any ambiguity or inconsistency in terminology may result in misinterpretation of legal norms, ineffective implementation of social programs, and discrepancies between policy design and practical application.

With the intensification of international cooperation, social protection discourse has become increasingly multilingual. International organizations, such as those involved in labor standards, social security coordination, and humanitarian assistance, rely on unified conceptual models that are communicated primarily through the English language. These models are subsequently adapted into national languages, including Uzbek, through translation and localization processes. However, direct translation does not always ensure conceptual equivalence, as social protection systems are deeply rooted in national legal traditions, historical experience, and socio-cultural realities. The Uzbek language has undergone significant terminological expansion in recent decades due to reforms in public administration, social policy modernization, and integration into global development frameworks. Many social protection terms entered Uzbek through borrowing or calquing from English, often without sufficient linguistic standardization. As a result, multiple variants of the same concept coexist in academic literature, legal documents, and administrative practice. This situation creates terminological instability and complicates professional communication among specialists. Moreover, the interdisciplinary nature of social protection combining elements of law, economics, sociology, public administration, and social work further intensifies terminological complexity. A single term may function differently depending on the disciplinary context, which increases the risk of semantic overlap and conceptual fragmentation. Without standardized terminology, it becomes difficult to establish a coherent national discourse aligned with international standards. The issue of terminology standardization in the field of social protection

represents not only a linguistic challenge but also an institutional and methodological necessity. Standardized terminology ensures conceptual clarity, strengthens legal precision, facilitates translation accuracy, and enhances the effectiveness of policy coordination at both national and international levels. This study focuses on the analysis of social protection terminology through a comparative examination of English and Uzbek languages. By identifying semantic correspondences, structural differences, and translation challenges, the research seeks to contribute to the development of a more consistent and unified terminological system. Such an approach is essential for improving the quality of academic research, legislative drafting, and professional communication within the social protection sector.

Main part

1. Conceptual Foundations of Social Protection Terminology

The terminology of social protection is formed within a complex conceptual framework that integrates legal, economic, and social dimensions. Each term reflects a specific institutional mechanism, social relationship, or policy instrument designed to regulate social risks and provide support to individuals and groups in vulnerable situations. Therefore, terminological units in this field are not neutral linguistic elements but carriers of normative and functional meanings.

In English-language discourse, social protection terminology has developed over a long historical period, particularly within welfare state models and international labor standards. As a result, many terms have achieved conceptual stability and are consistently used across academic, legal, and policy-oriented texts. Concepts such as social security, social insurance, and social assistance are clearly differentiated according to their sources of funding, target groups, and legal foundations. In the Uzbek language, the conceptual system of social protection terminology has been actively forming in recent decades. This process has been influenced by national reforms, modernization of public administration, and the adaptation of international social policy models. Consequently, Uzbek terminology often reflects transitional characteristics, combining traditional expressions with

newly introduced lexical units. This situation contributes to conceptual overlap and variability in meaning.

2. Structural Features of English and Uzbek Terminological Systems

One of the key differences between English and Uzbek social protection terminology lies in their structural organization. English terminology predominantly relies on concise noun-based constructions, such as income support, child benefit, or disability allowance. These structures enable high precision and functional clarity within institutional documents. By contrast, Uzbek equivalents frequently employ descriptive or syntactic constructions rather than compact lexical forms. Terms are often expressed through multi-word phrases that explain the function of the concept rather than naming it directly. While such structures enhance comprehensibility for the general population, they may reduce terminological economy and consistency in professional communication. Another structural feature observed in Uzbek terminology is the coexistence of translated terms and native lexical formations. This duality leads to parallel usage, where different expressions refer to the same concept depending on the author or institutional source. The absence of standardized preferences contributes to terminological fragmentation.

3. Semantic Correspondence and Translation Challenges

Semantic equivalence represents one of the most critical challenges in the standardization of social protection terminology. Although many English terms have apparent Uzbek counterparts, their conceptual boundaries do not always fully coincide. In some cases, the Uzbek equivalent encompasses a broader range of meanings, while in others it reflects only partial aspects of the original concept. This issue is particularly evident in the translation of institutional and legal terms. Direct lexical translation may preserve linguistic form but fail to convey institutional function. As a result, the same term may be interpreted differently by policymakers, legal practitioners, and social workers. Semantic ambiguity may arise when borrowed terms are integrated without clear definitional frameworks. Without precise terminological definitions, such terms remain context-dependent and

vulnerable to subjective interpretation. This undermines legal certainty and weakens the coherence of social protection discourse.

The research confirms that direct translation alone cannot ensure terminological equivalence. Without clear conceptual definitions and standardized usage, translated terms risk losing functional accuracy. Therefore, terminology standardization must be approached as a systematic process involving linguistic analysis, legal interpretation, and institutional coordination. The study emphasizes the importance of developing unified bilingual terminological frameworks that reflect national realities while remaining compatible with international standards. Such frameworks would enhance the quality of legislative drafting, improve administrative coherence, and support transparent communication between institutions and beneficiaries. In conclusion, the standardization of social protection terminology should be regarded as an integral component of social policy reform. Establishing consistent and conceptually accurate terminology will contribute to strengthening institutional effectiveness, promoting international cooperation, and ensuring sustainable development of social protection systems.

REFERENCES

1. International Labour Organization. World Social Protection Report 2017–2019: Universal Social Protection to Achieve the Sustainable Development Goals. — Geneva: ILO, 2017. — 454 p.
2. International Labour Organization. Social Protection Floors Recommendation No. 202. — Geneva: ILO, 2021. — 28 p.
3. International Organization for Standardization. ISO 704: Terminology Work — Principles and Methods. — Geneva: ISO, 2019. — 72 p.
4. International Organization for Standardization. ISO 1087-1: Terminology Work and Terminology Science — Vocabulary. Part 1: Theory and Application. — Geneva: ISO, 2022. — 58 p.

5. **Cabré M. T.** Terminology: Theory, Methods and Applications. — Amsterdam, 1999. — 189 p.
6. **Temmerman R.** Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. — Amsterdam, 2000. — 212 p.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BMT VA UNGA IXTISOSLASHTIRILGAN TASHKILOTLAR BILAN IJTIMOIY, MADANIY VA GUMANITAR SOXALARDAGI HAMKORLIK TARIXI (1992–2025 YILLAR)

Anvarova Sevara Bunyod qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining 1992–2025 yillar mobaynida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hamda uning ixtisoslashtirilgan muassasalari bilan ijtimoiy, madaniy va gumanitar sohalarda olib borgan hamkorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, BMTning O‘zbekistondagi faoliyatining bosqichlari, asosiy dasturlari va ularning milliy rivojlanish strategiyasiga ta’siri yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, BMT, UNESCO, UNDP, UNICEF, UNFPA, UN Women, ijtimoiy soha, madaniyat, gumanitar hamkorlik, inson huquqlari.*

Аннотация. *В статье анализируется сотрудничество Республики Узбекистан с Организацией Объединённых Наций (ООН) и её специализированными учреждениями в социальной, культурной и гуманитарной сферах в период 1992–2025 годов. Также освещаются этапы деятельности ООН в Узбекистане, основные программы и их влияние на национальную стратегию развития.*

Ключевые слова: *Узбекистан; ООН; UNESCO; UNDP; UNICEF; UNFPA; UN Women; социальная сфера; культура; гуманитарное сотрудничество; права человека.*

Abstract. *This article analyzes the cooperation of the Republic of Uzbekistan with the United Nations (UN) and its specialized agencies in the social, cultural, and humanitarian spheres during the period from 1992 to 2025. It also highlights the stages of UN activities in Uzbekistan, the main programs, and their impact on the national development strategy.*

Keywords: *Uzbekistan; United Nations; UNESCO; UNDP; UNICEF; UNFPA; UN Women; social sector; culture; humanitarian cooperation; human rights.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘ldi. Shu kundan boshlab mamlakat BMT tizimidagi tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar yo‘nalishlarda faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab BMT O‘zbekistonga islohotlarni amalga oshirish, inson huquqlarini himoya qilish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishda muhim hamkor bo‘lib kelmoqda.

1. Hamkorlikning boshlanish davri (1992–2000 yillar)

Mustaqillikdan keyingi dastlabki davrda O‘zbekiston BMT va uning ixtisoslashgan agentliklari — BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), BMT Aholi jamg‘armasi (UNFPA), BMT Bolalar jamg‘armasi (UNICEF), YUNESKO, JSST (WHO) va FAO bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

Bu davrda asosiy e’tibor: ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishga; ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishga; sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlarini mustahkamlashga; ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalariga qaratildi. 1993-yilda Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. 1995-yilda O‘zbekiston Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qildi.

2. Hamkorlikning chuqurlashuvi (2001–2016 yillar)

Bu davrda O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlandi. Mamlakatda “Mingyillik rivojlanish maqsadlari” (MDG) doirasida ko‘plab ijtimoiy loyihalar amalga oshirildi.

Asosiy yo‘nalishlar: ta’lim sifati (UNESCO, UNICEF); aholi salomatligini yaxshilash (WHO, UNFPA); jinslar tengligini ta’minlash (UN Women); barqaror rivojlanish va ekologik loyihalar (UNDP, UNEP). 2008-yilda O‘zbekiston–BMT hamkorlik dasturi qabul qilindi, u ijtimoiy siyosatni takomillashtirishga va kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan edi.

3. Yangi bosqich: Barqaror rivojlanish va inson huquqlari (2017–2025 yillar)

2017-yildan boshlab, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan BMT bilan hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs-2030)ni milliy siyosatga integratsiya qildi. 2019-yilda Toshkentda BMT bilan yangi taraqqiyot doiraviy dasturi (UNSDCF 2021–2025) imzolandi.

Yirik tashabbuslar: Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiya (2020); Ayollar va yoshlar masalalari bo‘yicha BMT hamkorlik platformasi; Aral dengizi mintaqasida ekologik falokat oqibatlarini yumshatish loyihalari; Yoshlar siyosatini rivojlantirishda BMT Yoshlari agentligi va UNDP ishtiroki.

4. Madaniy va gumanitar yo‘nalishdagi hamkorlik

BMTning YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlik doirasida 8 ta madaniy meros ob’ekti Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Navro‘z, Askiya, Bakhshi san’ati, Lazgi raqsi kabi nomoddiy meroslar UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan. UNICEF va UNFPA bilan onalar va bolalar salomatligi, reproduktiv sog‘liqni saqlash, yoshlar uchun inklyuziv ta’lim dasturlari yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa

1992–2025 yillar davomida O‘zbekiston BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan samarali hamkorlik qilib, ijtimoiy, madaniy va gumanitar sohalarda sezilarli yutuqlarga erishdi. Ushbu hamkorlik nafaqat xalqaro nufuzni

oshirdi, balki barqaror rivojlanish, inson huquqlari, gender tengligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini mustahkamlashga katta hissa qo‘shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations in Uzbekistan. Annual reports (2018–2024).
2. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti [Elektron resurs]. — URL: https://mfa.uz
3. UNDP Uzbekistan. Country programme document 2021–2025.
4. UNESCO Uzbekistan Office. Cultural heritage reports. — 2023.
5. UNICEF Uzbekistan. Progress reports (2020–2024).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasidagi rasmiy ma’ruzasi. — 2023.

SHAHRISABZ SHAHRINING BUXORO AMIRLIGI SAVDO TIZIMIDAGI O’RNI VA VAZIFALARI

Atamirzayeva Munavvar Abdurashid qizi

Toshkent davlat Texnika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Buxoro amirligi davrida Shahrisabz shahrining savdo tizimidagi o‘rni va bajarilgan asosiy funksiyalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shahrisabzning qulay geografik joylashuvi, karvon yo‘llari tizimidagi mavqei, ichki va tashqi savdo aloqalari, bozorlar va karvonsaroylar faoliyati yoritiladi. Shuningdek, shahar savdosida qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarining o‘rni, savdogarlar qatlamining shakllanishi hamda savdo munosabatlarini tartibga soluvchi moliyaviy va pul muomalasi masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Shahrisabz shahrining Buxoro amirligi davrida muhim mintaqaviy savdo markazi bo‘lganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Shahrisabz shahri, Buxoro amirligi, savdo tizimi, ichki va tashqi savdo, karvon yo‘llari, bozorlar, karvonsaroylar, hunarmandchilik mahsulotlari, savdogarlar.*

Аннотация. *В статье на основе исторических источников анализируется место и основные функции города Шахрисабз в торговой системе Бухарского эмирата. Освещаются выгодное географическое положение Шахрисабза, его роль в системе караванных путей, внутренние и внешние торговые связи, деятельность рынков и караван-сараев. Также рассматривается значение сельскохозяйственной и ремесленной продукции в городской торговле, формирование слоя купечества, а также финансовые и денежно-обменные аспекты, регулировавшие торговые отношения. Результаты исследования свидетельствуют о том, что в период Бухарского эмирата Шахрисабз являлся важным региональным торговым центром.*

Ключевые слова: *город Шахрисабз, Бухарский эмират, торговая система, внутренняя и внешняя торговля, караванные пути, рынки, караван-сараи, ремесленная продукция, купечество.*

Abstract. *This article analyzes the role and main functions of the city of Shahrisabz within the trade system of the Bukhara Emirate on the basis of historical sources. The study highlights Shahrisabz’s advantageous geographical location, its position within caravan routes, internal and external trade relations, and the operation of markets and caravanserais. Special attention is given to the importance of agricultural and handicraft products in urban trade, the formation of the merchant class, as well as financial and monetary mechanisms regulating commercial relations. The findings demonstrate that during the period of the Bukhara Emirate, Shahrisabz functioned as an important regional trade center.*

Keywords: *Shahrisabz, Bukhara Emirate, trade system, internal and external trade, caravan routes, markets, caravanserais, handicraft products, merchants.*

Kirish. Shahrisabz shahri Buxoro amirligi tarkibidagi muhim savdo markazi hisoblangan. Shahrisabz Buxoro amirligi janubiy qismida, Qashqadaryo vodiysida

joylashgan bo‘lib, qadimdan savdo yo‘llarining kesishgan nuqtasi sifatida mashhur. Shahar Buxoro – Qarshi – Termiz – Afg‘oniston yo‘nalishidagi karvon yo‘llarida joylashganligi tufayli, u ko‘p hududiy va xalqaro savdo aloqalarida vositachi markaz vazifasini ham bajargan. Buxoro amirligi tarkibidagi muhim shaharlar bilan faol savdo aloqalarini o‘rnatgan.

Asosiy qism. Bu davrda Qashqadaryo vohasi shaharlari, Buxoro, Samarqand, Samarqand orqali Farg‘ona vodiysi, Xorazm, Chorjo‘y, Karki, shuningdek Jom, Urgut, Kattaqo‘rg‘on kabi hududlar bilan savdo qilgan. Unda ulgurji savdo uchun ko’plab bozor rastalari mavjud bo’lgan. L. Kun bu yerdagi savdo rastalari haqida shunday degan: “Shahrisabzda Samarqanddagi kabi, bozorlardagi savdo qatorlari o’rtasidagi maydonda Chorsu deb ataladigan bir minora bor, uni Biq-Nazar bek qurdirgan. Bozorlar bu yerda haftasiga ikki marta dushanba va payshanba kunlari o’tkaziladi”[1].

Shahrisabz asosan Buxoro va Samarqand bilan savdo qilgan. Bundan tashqari qo‘shni boshqa shaharlar bilan ham faol savdo munosabatlarini o’rnatgan. Bu shaharlarning bozorlarida u quyidagilarni sotgan: guruch (katta miqdorda), olacha matolar, tamaki, mevalar, bug’doy doni, arpa, to’qilmagan ipak, qo’y jonidan tayyorlangan sharflar va matolar, chakmonlar. Buning evaziga asosan Buxorodan turli tayyor mahsulotlar, paxta matolar, temir buyumlar va boshqa barcha sanoat mahsulotlari olib ketilgan[2]. Shuningdek, Shahrisabzga boshqa davlatlardan ingliz chitlari, hind ko‘k choyi keltirib sotilgan[3].

Shahrisabz ichki savdosida quyidagi mahsulotlar asosiy o‘rinni egallagan:

- Qishloq xo’jaligi maxsulotlari: bug‘doy, arpa, paxta, meva;
- Chorchachilik mahsulotlari: mol go‘shti, sut, jun;
- Hunarmandchilik mahsulotlari: gilam, ko‘rpacha, sopol idishlar, charm buyumlar;
- Matolar va tikuvchilik buyumlari: ipak matolar, bosh kiyimlar, kiyim-kechak.

Boshqa shahar savdogarlari Shahrisabzdan turli mahsulotlarni olib ketish bilan birga, o’zlari bilan olib kelgan mahsulotlarni ham sotishgan. Mahsulotlarini nafaqat bozorlarda, balki to’xtalgan karvonsaroylarda ham sotishgan.

Shahrisabzda bu davrda karvonsaroylarning soni 7 ta bo‘lgan[4].

Shahrisabzga keluvchi savdogarlarni vohaning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va hunarmandchilik mahsulotlari qiziqtirgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan guruch, paxta, tamaki, ayniqsa ko‘p miqdorda boshqa shaharlarga chiqarilgan. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlarga anor, olma, o‘rik, bodom, yong‘oq sotilgan[5].

Shahrisabzning savdo ahamiyati, shahar aholisi tarkibida savdogarlar qatlamining rivojlanishiga xizmat qilgan. Bu yerda ko‘plab kichik savdogarlar bo‘lib, ular ma’lum tavarlar bilan shug‘ullanib, Shahrisabz bozoridagi keng savdo qatorlarida do‘konlarga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, boshqa shaharlarga savdo qiluvchi yirik savdogarlar ham mavjud bo‘lgan. Ulardan biri Shahrisabz beki bo‘lib, u maxsus savdo uchun tuyalarni saqlagan[6].

Shahrisabz beklari savdogarlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlagan. Chet davlatlar bilan savdo qiluvchi savdogarlar uchun turli imtiyozlar joriy etgan. Albatta beklarning savdo aloqalarini rivojlantirish uchun qilgan bunday siyosati Shahrisabzning savdo markazi sifatidagi ahamiyatining yanada o‘sishiga olib kelgan.

Chetdan olib kelinadigan tavarlardan zakot olinmagan. Jo’rabek Samarqandga yurish qilgan paytda savdogarlardan favqulotda soliqqa tortilgan, u baypuli deb atalgan. Bu soliq savdo summasining 1 dan 3 tilla miqdorida yig’ilgan.

Savdo munosabatlarida Rahimhon davridan boshlab Shahrisabzda karatenge tanga muomalada bo’lgan, qiymati 16 pul (choq) bo’lgan. Bu tanga qizil misdan zarb qilingan. Choq tangalar Buxorodan bekka kelgan. Shahrisabz mis tangasining bir tomonida “Allohdan boshqa iloh yo’q, Muhammad (s.a.v) uning payg’ambaridir” – degan yozuvlar bo’lgan. Ikkinchi tomonida tanga zarb qilgan hukmdor ismi ko’rsatilgan. Ba’zi beklar nom o’rniga zarb qilingan yil va joyni yozishgan[7].

Shahrisabz o‘z geografik joylashuvi tufayli, janubiy yo’nalishda Termiz, Afg‘oniston orqali Hindiston bilan savdo munosabatlarini olib borgan. Shimoliy yo’nalishda Buxoro va Qarshi orqali O‘rta Osiyo ichki bozorlariga eksport qilgan. G‘arbiy yo‘nalishda esa Eron va Marv bozorlariga ba’zi hunarmandchilik va

qimmatbaho mahsulotlarini olib kirib sotgan. Hindiston va Eron davlatlaridan ziravorlar, ipak, sharbatlar, qimmatbaho toshlar olib kelingan. Rossiyadan esa temir buyumlar, shisha idishlar, matolar va shakar olib kelingan. Shahrisabzning tashqi savdosi odatda karvon savdosi shaklida amalga oshirilgan. Karvonlar shahar bozorida to‘xtab, tavarlarni almashgan. Karvonlar asosan tuya va eshaklar bilan harakat qilgan. Ular Buxoro, Qarshi, Samarqand, Termiz yo‘nalishlarida muntazam harakatda bo‘lishgan. Yuk tashish va karvonlar faoliyati shahar iqtisodiyotini mustahkamlash va savdo rivojlanishini ta’minlagan. Shahrisabz savdosida hunarmandchilik mahsulotlari alohida o‘rin egallagan. Gilamchilik va ko‘rpachado‘zliknafaqat amirlik shaharlari ichida, balki O‘rta Osiyo bozorlarida ham mashhur bo‘lgan.

Sopol va metal buyumlar esa mahalliy va hududiy savdoga chiqarilgan. Ipak va matolar Samarqand va Buxoro bilan raqobat qila olgan, ammo ular asosan Janubiy yo‘nalishda eksport qilingan. Shahrisabzdan tashqi bozorlarga meva, gilam, sopol buyumlar eksport qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Бекчурин И.** Шахрисябзкое владение. По рассказам Джура-бека и Бабабека // Материалы для статистики Туркестанского края. – СПб., 1873. – Вып. II. – С. 87.
2. **Кун А. Л.** Очерки Шахрисябзкого бекства // Известия Императорского Русского географического общества по отделу этнографии. – СПб., 1880. – Т. VI. – С. 223.
3. **Кун А. Л.** Очерки Шахрисябзкого бекства // Известия Императорского Русского географического общества по отделу этнографии. – СПб., 1880. – Т. VI. – С. 224.
4. **Кун А. Л.** Очерки Шахрисябзкого бекства // Известия Императорского Русского географического общества по отделу этнографии. – СПб., 1880. – Т. VI. – С. 229.

5. **Перовский Н. Ф.** Моя поездка в Бухару // Вестник Европы. – 1873. – Т. IX. – С. 222.
6. **Сухарева О. А.** К истории среднеазиатского города (Бухара XVI–XX вв.). – Москва: Издательство восточной литературы, 1962. – С. 136.

QORAQALPOQ TILIDA RANG KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Begniyazova Go'zal Allambergenovna
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezis qoraqalpoq tilidagi rang komponentli fe'l frazeologik birliklarning struktura-semantik turlari va ularning guruhlarga bo'linishlari haqida gap bo'lgan. Ekki komponentli va uch komponentli fe'l frazeologik birliklar talqin etilgan.*

Kalit so'zalar*: rang, komponent, fe'l, frazeologik birliklar, guruh.*

Abstract*. This article discusses the structural-semantic types of phraseological units with a color component in the Karakalpak language. Verbs and their groups. Phraseological units are interpreted into two-component and three-component.*

Keywords*: color, component, verb, phraseological, units, group.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются структурно-семантические типы фразеологических единиц с цветовой составляющей в двухкомпонентные и каракалпакском языке. Фразеологические единицы интерпретируются как трехкомпонентные глаголы и их группы.*

Ключевые слова:*цвет, компонент, глагол, фразеологические единицы, группа.*

Kirish. Frazeologik birliklar tilning oʻziga xos, ma’naviy ham madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi eng muhum elementlaridan biri.

Ranglarning frazeologik birliklarda qoʻllanilishi, ularning lingvistik va madaniy kontekstdagi maʻnolari hamda maʻnolarning frazeologik strukturalarda qanday shakllanishi tilshinoslikda keng oʻrganilgan mavzulardan biridir. Har bir millat ranglarni oʻz madaniyati, urf-odatlari va tabiatiga mos ravishda turlicha talqin qiladi.

Ushbu ilmiy ishimizda rang komponentli fe’l frazeologik birliklarni komponentlari boʻyicha gruhlarga ajratdik.

Rang komponentli fe’l frazeologizmlarning asosiy komponenti fe’l so‘z turkumi hisoblanadi. Ular ikki komponentli, uch komponentli va ko‘p komponentli frazeologik birliklar.

Asosiy qism. Ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1."Topish kelishigidagi ot+fe’l" shaklidagi frazeologizmlar.

Qoraqalpoq tilida kelishikdagi ot so‘zlar ko‘chma fe’l so‘zlar bilan ma’no jihatdan ma’lum bir sintaktik aloqaga tushib, rang komponentli fe’l frazeologizmlarni tuzadi. Bunday birikmalar tarkibidagi ot so‘zlar ko‘chma fe’l so‘zlardan ma’no jihatdan mustaqil bo‘lib, doimo tobe komponent sifatida keladi. Ammo, ko‘chma fe’l so‘zlar ma’no jihatdan tobe bo‘lgan tushum kelishigidagi ot so‘zlarni o‘ziga bo‘ysundirib, doimo bo‘ysundiruvchi komponent sifatida birikib keladi. Tushum kelishigidagi ot so‘zlar bilan fe’l so‘zlar juftlashish yo‘li orqali bog‘lanib, rang komponentli fe’l frazeologizmlarni tuzib keladi. Bunda dastlabki komponent bo‘lib keladigan qaratqich kelishigidagi ot birda qo‘shimchali, birda qo‘shimchasiz shaklda qo‘llaniladi. Masalan, yuzini oqartirish, yuzini qizartirish, ko‘zini sarg‘aytirish, qorasini botirish, qorasini ko‘rsatmaslik va h.k. Misollar: *Baǵanaǵı qubladan kóringen qara bult ta kem-kemnen qarasın batırdı* (M.Dáribaev). Rang komponentli fe’l frazeologizmlar tarkibidagi tobe komponent

sifatida qo‘llaniladigan kelishikdagi ot so‘zlar sintaktik vazifasiga ko‘ra gapda ko‘pincha to‘g‘ri to‘ldiruvchi bo‘lib keladi.

2."Borish kelishigidagi ot+fe’l" shaklidagi frazeologizmlar tarkibidagi fe’llar borish kelishigidagi ot so‘zlarni talab etib, ular bilan ma’no va shakliy jihatdan bog‘lanib, rang komponentli fe’l frazeologizmlarni tuzib keladi. Bularning tarkibidagi ot so‘zlar birda tortilgan, birda tortilmagan bo‘lib qo‘llaniladi: Ko‘kka ko‘tarish, ko‘kka sovurish, ko‘kka uchish, ko‘kka uchirish va h.k.

3. "Sifat+fe’l" shaklidagi frazeologizmlar. Sifatlar ma’no jihatdan fe’l so‘zlar bilan juftlashsa birikib, rang komponentli fe’l frazeologizmlarni hosil qilib keladi. Frazeologizmlar tarkibida sifat so‘zlarning fe’l so‘zlar bilan birikib kelishi, fe’l so‘zlarning otlar bilan birikishiga qaraganda unumliroq uchraydi. Bunday frazeologizmlarning dastlabki komponenti asos va yasama sifatlardan, keyingi komponenti fe’l so‘zlardan bo‘ladi: qora bosish, qora kiyish, qora yopinish, qizil yugurish, qora yopish, qora yoqish va h.k. Misollar: *Onıń gúl-gúl jańgan júzlerine sál-pál qızıl juwırǵan* (Z.Ishmanova). *Sizíń hámmege bolǵan haq peyilińizge, álemge tınıshlıq ornatıw jolındaǵı xızmetińizge qara jaǵıp, bizlerdi inandırmaqshı boldı* (G.Esemuratova).

4. "Ravish+fe’l." qoralay o‘chish Ravishlar boshqa so‘z turkumlaridan eng ko‘zga tashlanadigan asosiy xususiyatlaridan biri - ularning har doim boshqa ma’noli so‘zlar bilan hech qanday affikssiz (qo‘shimchasiz) o‘zlarining o‘rin tartibiga (lokalizatsiyasiga) ko‘ra juftlashish yo‘li bilan bog‘lanib kelishi. Ravishlarning ot so‘z bilan ham, fe’l so‘z bilan ham doimo juftlanib kelishi bu ularning grammatik tabiatiga bog‘liq bo‘ladi. – *Boldıgúl apa, men mına miywelerdi kelege keltiremen dep qaralay óshtim* (Á.Atajanov).

5. "Otlashgan sifat+fe’l" turidagi rang komponentli frazeologizmlar: qorasi botish, qorasi botmaslik, qorasi ko‘rinish, qorasi ko‘rinmaslik, qorasi cho‘kish, qorasini o‘chirish, qorasini ko‘rsatmaslik va h.k. Misollar: *Burıńǵı buzıq jolǵa qızlardı úgitlegen muǵallimniń qarası kórinbeydi* (S.Bahadırova). -*Ákeń: ekewi de bosaǵadan ishke qaray adım atlamasın, endigi jaǵında bul shańaraqqa qaray*

qádem qoyaman degen oydı qıyalına da keltirmesin, qarasın batırıp, kelgen jaǵına ketsin, dep atır (A. Sultanov).

6."Juft sifat+fe'l" turidagi rang komponentli frazeologizmlar: oq-qorani tanish, oq-qorani ajratish, yer-ko'kka sig'maslik, yer-ko'kka sig'dirmaslik va h.k. Misollar: *Bul jaǵdaydıń aq-qarasın ayırıp, ayıpkerlerdi endigi jaǵında jazalawǵa da kesh qalǵanın óz-ózine moyınladı* (M.Tawmuratov*). Úy iyesiniń sońǵı sózleriniń aq-qarasın ajıratıp alǵan bizler Maqsettiń bir shiyshe ishimligi menen qosa onıń úlken ıqlasın jayılǵan dasturqanında qaldırıp dalaǵa shıqtıq* (M.Tawmuratov).

Qoraqalpoq tilida uch komponentli frazeologizmlar ham uchraydi. Ularni quyidagi turlarga ajratib qarash mumkin:

1."Kelbetlik+ot+fe'l" turidagi frazeologizmlar: oq yem bo'lish, oq taban etish, oq so'qmoq etish, oq sut berish, ola ko'z bo'lish, qora boshi qangirish, qora qonini to'kish, qora qon qusish, qora qonini oqizish, qora qon qaqshatish, qora qon quyilish, qora yer bo'lish, qora yer etish, qora ko'zi qorayish, qora kun tug'ish, qora suv bo'lish, qora tutun bo'lish, qora tutuni chiqish, qora tashvish tushish, qora tashvish bosish, qora ter bo'lish, qora qozon qaynash, qora tosh bosish, qizil tomoq bo'lish, qizil qanot bo'lish, qizil chakka bo'lish, sariq tashvish bosish va h.k. Misollar: *Ótemurattan beter Genjebay muǵallim qara tútin bolıp qayttı* (M.Nızanov*). Mına xan túrkmenler ala kóz boldı. Eki el arasında ala kózlik tuwdırıp ádilsiz xan qaraqshılardıń jılawın kóterip otır* (K.Sultanov*). Meni baqsha jaqsı, baqsha jaqsı dep aldap-arbap balamnan ayırıp, qara qan qaqsatayın degen ekenseń túwe (*G.Esemuratova*). Bunıń ushın gúresiw kerek, kerek bolsa qızıl kegirdek bolasań, tislesesең, ayqasasań!* (M.Tawmuratov*). Bizler ne qılamız? – dedi Oraqbayǵa qara uwayım túsip* (M.Nızanov). *Hár sabaq ótken sayın sol keselliktiń belgileri ózlerimizde payda bola baslaǵanday, qatra uwayım basadı* (M.Nızanov*). Men ana górsawatlarǵa usı ilimpazdıń atın ayttıra almay qara ter boldım-ǵo!* (M.Nızanov*). Qara suw bolıp terlep qalıppan, terlegennen soń shashlarım shor bolıp qatıp qalıptı* (T.Yusupov*). Ata-babańnıń qádemi tiymegen jat jurtlarda qara basıń qańǵırıp, neǵıp júrseń?! Odessa sensiz qarań qala ma?* (M.Nızanov*).*

2."Ot+sifat+fe’l" shaklidagi frazeologizmlar: Uch komponentli frazeologizmlarning tarkibidagi sifatlar ma’no jihatdan asos va yasama shaklda ot va fe’l so‘zlar bilan bog‘lanib keladi. Bunday tuzilishdagi frazeologizmlarning tarkibidagi otlar kelishik, egalik qo‘shimchalari bilan, va oxirgi fe’l komponenti o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllarida qo‘llaniladi. Ikkinchi komponent vazifasidagi sifat so‘zlar ma’no jihatdan fe’l so‘zlar bilan juftlashish orqali bog‘lanib, rang bildiruvchi fe’l frazeologizmlarni hosil qilib keladi. Sifat so‘zlarning frazeologizmlarning bir komponenti sifatida qo‘llanilishi, ularning ma’nolarining ta’sirchanligini oshirishga sabab bo‘lgan. Masalan, *mańlayı qara bolıw, awzı ala bolıw, baxtı qara bolıw, kewili qara bolıw, kewili aq bolıw, júzine qara jaǵıw, izine qara eriw, izine qara ermew, beti burıshtay qızarıw* h.k. *Sonda da birden qarsılıq kórsete almay, beti burıshtay qızarıp azmaz otırdı da, ishki qarsılıqların jeńip janlandı* (T.Qayıpbergenov).

3."Borish kelishigidagi ot+sifat+fe’l" tarzidagi uch komponentli rang bildiruvchi frazeologizmlar. Boshqa kelishik qo‘shimchalari singari borish kelishigining qo‘shimchalari ham atov yoki atov vazifasida qo‘llaniladigan so‘zlar bilan fe’l so‘zlarni bir-biriga bog‘lab keladi. Hozirgi qoraqalpoq tilida borish kelishigining morfologik ko‘rsatkichlari -g‘a-ge, -qa-ke, -na-ne bo‘lib, ular orqali atov yoki atovlik vazifasida qo‘llaniladigan so‘zlar fe’l so‘zlar bilan ma’no va shakliy jihatdan birikib, boshqaruv yo‘li bilan bog‘langan rang bildiruvchi komponentli fe’l frazeologizmlarni tuzib keladi. *basına qara jamılıw, mańlayına qara tigiw, mańlayına qara jaǵılıw* hám t.b.

Biz bu tadqiqot ishimizda ikki va uch komponentli rang komponentli frazeologik birliklarga tahlil qildik. Ular komponentlarining soni jihatidan bir-biridan farq qiladi. Komponentlarining doimiy o‘rni saqlangan. Saqlanmagan holatda frazeologik birlik talablariga javob bera olmaydi. Ma’nosi o‘zgarib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Aynazarova G.B.** Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmler : monografiya. — Nókis : Qaraqalpaqstan, 2020. — B. 88.
2. **Бердимуратов Е.** Әдебий тилдиң функционаллық стильлериниң раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы. — Нөкис : Қарақалпақстан, 1973. — Б. 312.
3. **Бердимуратов Е.** Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. — Нөкис : Билим, 1994. — Б. 186.
4. **Бекбергенов А.** Қарақалпақ тилиниң стилистикасы. — Нөкис : Қарақалпақстан, 1990. — Б. 88.
5. **Болғанбайұлы Ә., Қалиұлы Ф.** Қазіргі қазақ тілінің лексикологиясы мен фразеологиясы. — Алматы : Санат, 1997. — Б. 186.
6. **Виноградов В.В.** Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. — М. : Наука, 1967.

XIX ASR OXIRLARI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G‘UZOR BEKLIGI AMLOKLIKLARI

Ergashev Umar Kuziyevich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Buxoro amirligi G‘uzor bekligidagi aholining yashash manzillari amlokliklar bo‘yicha tahlil qilinib, aholining qishloqlari va urug‘lari to‘g‘risida mulohazalar keltirilgan, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha ayrim istiqbolli ma’lumotlar muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Beklik, “amlok” (mulk, mulklik, amloklik), amlokdorlar, qovchin, qo‘ng‘irot, saroy, batosh, harduri, ulus, qaychili, qo‘sh-tamg‘ali.*

Аннотация: *В статье проанализированы население пункты Гузарского бекства Бухарского эмирата по амлякам и даны рассуждения о деревнях(селах) проживающих и их предках в конце XIX –в начале XX века, атакже, обсуждены некоторые переспективные информации по этим вопросам.*

Ключевые слова: *Бекства, "амляк"(собственность), амлякства, ковчин, кунгират, сарай, баташ, хардури, улус, кайчили, куштамгали.*

Annotation: *At the end of the XIX century - the beginning of the XX century, the residential addresses of the inhabitants of the Guzor Principality of the Bukhara Emirate were analyzed according to the properties, and comments were made about the villages and clans of the residents. Some promising data on these issues are discussed in the article.*

Key words*: Principality, " amlok" , kovcnin, kungirot, saroy, batosh, harduri, ulus,kaychili, kush-tamgali.*

XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida G‘uzor bekligi yoki viloyati alohida ma’muriy-hududi birlik sifatida Buxoro amirligi tarkibida bo‘lib, Qashqadaryo vohasining janubi-g‘arbiy qismlaridagi hududlarni o‘z ichiga olgan. Bu davrda, xususan, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Qashqadaryo vohasi Qarshi, Chiroqchi, Xuzor (G‘uzor), Yakkabog‘, Shahrisabz, Kitob kabi “beklik” yoki “viloyat” deb atalgan ma’muriy-hududiy birliklardan iborat bo‘lgan. Ushbu birliklar amirlikning boshqa hududlarining ko‘pchiligida bo‘lgani kabi “amlok” (mulk, mulklik, amloklik) deb ataluvchi o‘nlab ma’muriy birliklarni qamrab olgan. Har bir amloklik tarkibida esa bir necha o‘nlab yoki yuzlab qishloqlar mavjud bo‘lgan.

Avvalo shuni aytib o‘tish kerakki, bu davrda Buxoro amirligi ma’muriy-hududiy jihatdan Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘, Xuzor (G‘uzor), Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo‘y, Hisor, Ko‘lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Shug‘non-Rushon, Qo‘rg‘ontepa, Qobodiyon, Kalif, Bo‘rdaliq, Qobog‘li kabi 27 ta beklikka bo‘lingan.

Har bir beklik amir tomonidan tayinlangan hokim – beklar tomonidan boshqarilgan. Bekliklar esa amlokliklarga bo‘linib, ularni amlokdorlar boshqargan. Amlokdorlar beklar tomonidan tayinlangan [1:63-64].

G‘uzor bekligi hududiy jihatdan bugungi G‘uzor tumani bilan birga hozirgi Dehqonobod tumani va Qamashi tumanining bir qismini, ya’ni ushbu tumanning G‘uzor tumaniga tutash qishloqlarini o‘z ichiga olib, shimol-g‘arbda Qarshi bekligi, shimoli-sharqda Yakkabog‘ bekligi, janubda Boysun va Sherobod bekliklari, janubi-g‘arbda esa Karki bekliklari bilan chegaradosh edi. Shu bilan birga, G‘uzor bekligi aholisi shimolda Chiroqchi, shimoli-sharqda Shahrisabz, g‘arbda Burdaliq, janubi-g‘arbda Kalif (Kelif), janubi-sharqda Denov bekliklari bilan nisbatan yaqin hudud sifatida o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarda bo‘lib kelgan.

Xuzor (G‘uzor) bekligining boshqaruv markazi G‘uzor shahri bo‘lib, beklikka qarashli amlokliklar quyidagicha bo‘lgan: Afg‘onbog‘, Eskibog‘, Yorti-tepa, O‘rayi-kalon, Karsang, G‘armiston, Qamay, Beliboyli, G‘urshak [2:297-304]. Ushbu amlokliklarning sezilarli bir qismi Qashqadaryo vohasining janubiy va janubi-g‘arbiy qismida joylashib, Surxondaryo vohasi bilan tog‘lar orqali tutashib ketgan edi. G‘uzor bekligi Qashqadaryo vohasining boshqa viloyatlariga nisbatan birmuncha kam amloklikka bo‘lingan bo‘lib, ular orasida G‘armiston G‘uzor shahrining shimoli-g‘arbidagi qishloqlarning bir qismini, Afg‘onbog‘ G‘uzor shahridan shimoldagi qishloqlarni, Beli boyli esa beklikning janubi-sharqidagi bir necha qishloqlarni o‘z ichiga olgan.

G‘uzor bekligidagi 9 ta amlokidan bir qismi turkiy (o‘zbek), bir qismi esa eroniy (sug‘diy, tojik) tillari negizidadir. G‘uzor amlokliklari orasida Yorti-tepa, Qamay, Beliboyli nomlari turkiy, Eskibog‘, O‘rayi kalon turkiy-forsiy aralash, G‘urshak, G‘armiston nomlari esa eroniy (sug‘diy, fors-tojik) so‘zlaridan tashkil topgan. Afg‘onbog‘ amlokining nomi esa ehtimol G‘uzor shahrida tijorat bilan shug‘ullangan afg‘onistonlik aholi bilan aloqador bo‘lishi mumkin. G‘uzordagi amlokliklarning bunday nomlanishi albatta o‘z davrining ijtimoiy-madaniy va etnik

holati bilan bog‘liq bo‘lib, bu hududda asosan o‘zbeklar, tojiklar va arablar yashar edilar.

G‘uzor bekligidagi ushbu amloklarning katta qismida o‘nlab qishloqlar joy olgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi o‘zbek urug‘lari – qovchin, qo‘ng‘irot, saroy, batosh urug‘lari bilan bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, G‘uzor shahri va atroflarida o‘zlarining biror urug‘ bilan bog‘lamaydigan o‘zbek aholi yashab, ular asosan, deqhonchilik, bog‘dorchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Tojiklar esa G‘uzor shahrida istiqomat qiluvchi, asosan hunarmand va savdogarlardan iborat tojik tilli aholi va beklikning janubiy qismidagi tog‘lik hududlarda yashagan “harduri” deb ataluvchi tojik tilli etnik guruhdan iborat bo‘lgan [3:102]. Shu bilan birga, G‘uzor bekligining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan Qarshi bekligida arablar ham yashab, G‘uzor aholisining bir qismigina arablardan iborat bo‘lib, ular ham Qarshiga yaqin hududlarda yashaganlar [4:191-205].

1914 yilda tuzilgan Buxoro amirligi hujjatlari asosida G‘uzor amlokliklaridagi aholi maskanlari – qishloqlar nomini keltirib o‘tamiz[5:297-304]: Demak, Eskibog‘ amlokligi - Abu Vays, Oq-tosh, Galcha, Jamoa-i Har-duri, Jarariq, Jar Qoravul, Echki Qirildi, Qayirma, Eskibog‘, Quduqi Qoraboy, Qo‘ng‘irot, Panj Kamar, Tavakkal , Tosh go‘zar, Harduri, Xo‘ja Chahor Dax, Chavg‘on, Chirrovuq, Chunag‘or, Chur Tamax, Chuchuk, Shakarbuloq, Sho‘rarna, Sho‘r quduq, Sho‘rcha - jami 25 ta qishloq.

G‘urshak amlokligi - Ay g‘iruba, Oq dahana, Bol quduq, G‘urshaki Bolo, G‘urshaki Poyon, Gushmon, Daxdor, Juychaq, Zirakcha, Yetti quduq, Kalta Poy, Kon, Qizilcha, Qiz quduq, Qiyomat Sharm, Qirg‘inchaq, Lalok, Sabotli, Sang Sulox, Taxam, Tandircha, Tulash, Turna soy, Ulus Qanchug‘li, Xo‘ja Balos, Xo‘ja Guluk, Husayn Shayx, Changaruq, Chig‘on, Chirog‘chi, - jami 30 ta qishloq.

Yorti tepa amlokligi - Oyna ko‘l, Juychoq, Axango‘zar, Gunatoy, Dovud, Kaltatoy, Qora Kamar, Qorong‘iko‘l, Katta qishloq, Qizil buloq, Qishliq, Quboi Kalon, Quboi Xurd, Ko‘k Bo‘ynoq, Quchchi, Qo‘shtamg‘ali, Murodboy, Nogohon,

Sauson, Tol, Toli Bolo, Toli Poyon, Uchtepa, Xon tushti , Xudoyor, Shayton - jami 26 ta qishloq.

O‘ra-i Kalon amlokligi - Oq dahana, Bo‘zastar, Govxona, Zarang buloq, Yong‘oqlik, Qaychilik, Kalta, Kalta Minor, Konsoy, Qizil mozor, Ko‘ka buloq, Qo‘shquduq, Qo‘shilish, Teraklik, Hayit, Xachcha, Chosh Tepa - jami 17 ta qishloq.

O‘ra-i Xurd amlokligi - Oynako‘l, Bobo Surxon, Besh buloq, Doricha, Kon, Turk, Uyg‘ir - jami 7 ta qishloq.

Tangi Haram amlokligi – Oqtoshkent, Anorbuloq, Arab, Gumbuloq, G‘uroti, Darxon, Qoraxol, Quruqsoy, Xo‘ja Mahmud, Chashma-i Hofizon, Shakarbuloq - jami 11 ta qishloq.

Afg‘on bog‘ amlokligi – Omon-ota, Qora-ko‘z, Apardi, Batosh, Besh Gul, Jahondodi, Yarg‘uvchi, Qamishli, Qo‘sh tepa, Savlug‘or - jami 10 ta qishloq.

G‘armiston amlokligi - Jonbaliq-i Poyon, Zang tepa, Kerayit-i Bolo, Kerayit-i Poyon, Qirg‘iz-saroy, Mojor-i Bolo, Savbog‘-i Bolo, Xo‘ja Rozmoz, Chumushli-i Bolo, Chumushli-i Poyon - jami 10 ta qishloq.

Qamay amlokligi – Oqgo‘zar, Qozoq, Kayboqchi, Kalon, Qora Qo‘ton, Karvon, Qori qishloq, Sarv Guzar, Sart Bukujli, O‘lmas, Uch tut, Xudi Qamay - jami 12 ta qishloq.

G‘uzor bekligiga qarashli qishloq nomlaridan bir qismi etnotoponimlardan, bir qismi ijtimoiy-diniy atamalardan, bir qismi esa qishloqning tabiiy-geografik xususiyatlari va hokazolardan tashkil topganligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Qushbegi hujjatlarida Eski-bog‘ amlokligida Qo‘ng‘irot, Harduri, G‘urshak amlokligida Ulus Qanchug‘li, Xo‘ja-balos (Barlos), Yorti-tepa amlokligida Kalta-toy, Qishliq, Quchchi, Qo‘sh-tamg‘ali, O‘ra-i kalon amlokligida Qaychili, O‘ra-i xurd amlokligida Turk, Uyg‘ir (Uyg‘ur), Tangi-Haram amlokligida Arab, Afg‘on-bog‘ amlokligida Batosh, Harduri, Kerayit, Mojor, Qirg‘iz-saroy, Cho‘mushli (Cho‘michli), Qamay amlokligida esa Qozoq, Sart-bo‘kujli (Sart-bo‘gajili) kabi

aholi maskanlari nomi uchraydi. Ushbu joy nomlarining asosiy ko‘pchiligi qo‘ng‘irot, barlos, kalta-toy, qishliq, qutchi, batosh, turk, uyg‘ur, kerayit, mojor, qirg‘iz, saroy, qozoq kabi o‘zbek urug‘larining nomi bilan bog‘liq bo‘lib, XVI – XX asr boshlariga tegishli “92 bovli o‘zbek urug‘i” ro‘yxatida o‘rin olgan[6:487-490].

Shu o‘rinda, G‘uzor bekligiga qarashli qishloqlarning sezilarli bir qismi qo‘ng‘irot urug‘i vakillari yashaydigan aholi maskanlari bo‘lganini aytib o‘tish kerak. Jumladan, Ulus Qanchug‘li, Qaychili, Qo‘sh-tamg‘ali qishloqlarida qo‘ng‘irotlar tarkibidagi ulus, qaychili to‘plariga mansub aholi istiqomat qilishgan. Xususan, O‘ra-i kalon amlokligidagi Qaychili nomli qishloq esa qo‘ng‘irotlarning bir tarmog‘i – qaychili to‘pi bilan bog‘liq ravishda etnotoponim sifatida shakllangan. XX asr boshlarida o‘z asari “Ta’rix-i Humoyun”da Muhammad Sodiqxo‘ja Gulshaniy ushbu etnonimni qo‘ng‘irotlarning tarmoqlaridan biri sifatida qayd etib o‘tgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, ushbu asarni nashr qilgan tadqiqotchilar bu so‘zni “qaychili” emas, “qabchili” shaklida o‘qib, xatoga yo‘l qo‘yishgan [7:102]. Qo‘ng‘irotlarning “voxtamg‘ali” tarmog‘ining “qaychili” nomli to‘pi (kichik tarmog‘i) uchrab, ularning avlodlar hozirgi Dehqonobod tumanida yashaydilar[8:352]. Bu esa ushbu etnotoponimni qo‘ng‘irot urug‘i vakillari bilan bog‘lash imkonini beradi.

G‘urshak amlokligi tarkibidagi Ulus Qanchug‘li qishlog‘i nomining birinchi qismi “ulus” atamasi qo‘ng‘irotlarning bir tarmog‘i bo‘lmish ulus to‘pi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Ulus nomli qishloqlar mamlakatimizning bir qator viloyatlarida uchrab, XX asr boshlarida ularning ko‘pchiligi o‘zlarini qo‘ng‘irotlarning bir tarmog‘i deb bilishgan. Ayniqsa, qanjig‘ali va qo‘shtamg‘ali kabi yirik tarmoq urug‘larining bir bo‘limi shu nom bilan atalgan [9:85].

Yorti-tepa amlokligiga qarashli Qo‘sh-tamg‘ali qishlog‘ining nomi ham qo‘ng‘irotlarning yirik tarmoqlaridan biri – qo‘sh-tamg‘ali urug‘i vakillari yashaydigan qishloq ma’nosida shunday nom olgan bo‘lsa kerak. Ma’lumki, o‘zbek qo‘ng‘irotlarining yirik tarmoqlaridan biri shunday atalib, o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar tarkibida bu etnonim ko‘p uchraydi[10:402].

Yuqorida keltirilgan Qamay amlokligi tarkibidagi Sart-bukujli nomi ham etnotoponim bo‘lishi ehtimoli yuqori. Qushbegi hujjatlarida birmuncha noaniq yozilgan ushbu joy nomi aslida Sart-bo‘gajili bo‘lib, hozirgi kunda Qamashi tumanidagi qishloqlardan biri shunday ataladi[11:228]. Dastlabki ma’nosi hindchada “savdogar” bo‘lgan “sartxa”, “sart” so‘zi keyinchalik ayrim joylarda ekzo-etnonim sifatida ayrim urug‘ tarmoqlarining nomiga aylangan. Sart-bo‘gajili sart+bo‘gajili etnonimlari qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Qashqadaryo qo‘ng‘irotlarining bir tarmog‘i voxtamg‘ali urug‘ining bir bo‘limi bo‘gajili deb atalib, ularning bir kichik tarmog‘i “sart” deb atalgan[12:228].

Qushbegi hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, XX asr boshlarida Qarshi, Chiroqchi, G‘uzor bekliklarida Qozoq, Qozoqli degan qishloqlar bo‘lib, ular asosan o‘zbeklarning yirik urug‘laridan biri bo‘lmish mang‘itlarning bir tarmog‘i bo‘lgan. G‘uzor bekligining Qamay amlokligidagi Qozoq nomli qishloq aholisi ham mang‘it urug‘i bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Aslida G‘uzor bekligida mang‘it urug‘i vakillari yashaydigan aholi maskanlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, boshqa etnotoponimlardan farqli o‘laroq G‘uzorda Mang‘it nomli qishloq nomlari deyarli uchramagan. Faqatgina Afg‘on-bog‘ amlokligida Mang‘it nomli qishloq nomi Qushbegi hujjatlarida bir marotaba qayd etilgan[13:93].

Shu o‘rinda Qushbegi arxivida qayd etilgan G‘uzor bekligi qishloqlari nomlaridan ayrimlari boshqa yozma manbalarda, xususan, Buxoro amirligi tarixnavisligiga oid tarixiy asarlarda uchrashini aytib o‘tish kerak. Buxoro amirligi yirik tarixnavislaridan biri Mirzo Somiy (vaf. 1907) o‘zining “Tarixi salotini mang‘itiya” (Mang‘it sultonlarining tarixi) nomli asarida G‘uzor shahri va beklikdagi bir qator qishloqlar nomi tilga olinadi. Jumladan, asarda Yorti-tepa qishlog‘i qo‘rg‘oni haqida so‘z borib, Buxoro amirligi shahzodalaridan biri, rus istilochilariga qarshi G‘uzor va uning atrofidagi istiloga qarshi kayfiyatdagi siyosiy arbob va harbiylarning boshini biriktirgan Abdumalik to‘raning Qarshi bekligidagi Xonoboddan chiqib, Shahrisabzga yo‘l olganda ushbu qo‘rg‘onga to‘xtab o‘tgani tilga olinadi[14:100]. Bu ma’lumot asosida Yorti-tepa amlokligida o‘sha davrda boshqaruv markazi sifatida bilingan “qo‘rg‘on” mavjud bo‘lganligiga guvoh bo‘lish

mumkin. Bu esa har bir amloklik o‘zining muayyan qo‘rg‘oni – hokimiyat markaziga ega bo‘lib, “amlokdor” yoki “amin”lar shu yerdan turib, ish yuritgan degan fikrga imkon beradi.

Xullas, XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida G‘uzor bekligi tarkibidagi aholi maskanlari bilan qisqacha tanishib chiqish shundan darak beradiki, bu davrda ushbu ma’muriy-hududiy birlik anchagina keng hududlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, hozirgi kunda uning hududida asosan G‘uzor, Dehqonobod va Qamashi tumanlari tashkil etilgan. Beklik davrida bu yerda yuzdan ortiq qishloq mavjud bo‘lib, ular 9 ta amloklik (kichik tuman miqyosidagi ma’muriy tuzilma) tarkibida bo‘lgan. Ayrim amlokliklar 20-25, hatto 30 ta qishloqni o‘zida birlashtirgan bo‘lsa, ayrim amlokliklar esa 10-15 ta atrofidagi qishloqdan iborat bo‘lgan. Ma’muriy bo‘linishlardagi bunday farqliliklar G‘uzor bekligidagi aholi maskanlarining geografik joylashuvi, tabiiy-iqtisodiy holati va boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Материалы по районированию Средней Азии.** Кн. 1: Территория и население Бухары и Хорезма. Ч. 1: Бухара. — Т.: Туркпечать, 1926.
2. **Мухаммеджанов А. Р. (ред.)** Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.): материалы к исторической географии Средней Азии. — Т.: Университет, 2001.
3. **Муҳаммад Содиқҳоҷаи Гулшанӣ.** Таърихи Ҳумоюн / ба чоп тайёрловчи, мураттиб ва сарсухан муаллифи **Нарзиев Қўрабек.** — Душанбе, 2006.
4. **Ражабов Р.** Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси. — Т.: Sharq, 2012.
5. **Мухаммеджанов А. Р. (ред.)** Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.): материалы к исторической географии Средней Азии. — Т.: Университет, 2001.

6. **Султанов Т. И.** Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатия» // Средняя Азия в древности и средневековье. — М.: Наука, 1977.
7. **Асқаров А.** Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. — Тошкент: O‘zbekiston, 2015.
8. **Муҳаммад Содиқҳоҷаи Гулшанӣ.** Таърихи Ҳумоюн. — Душанбе, 2006.
9. **Нафасов Т.** Қашқадарё қишлоқномаси. — Тошкент: Муҳаррир, 2009.
10. **Бегалиев Н. Б., Туробов А. М.** Самарқанд топонимияси. — Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2015.
11. **Нафасов Т.** Қашқадарё қишлоқномаси. — Тошкент: Муҳаррир, 2009.
12. **Нафасов Т.** Қашқадарё қишлоқномаси. — Тошкент: Муҳаррир, 2009.
13. **Нафасов Т.** Қашқадарё қишлоқномаси. — Тошкент: Муҳаррир, 2009.
14. **Мухаммеджанов А. Р. (ред.)** Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.): материалы к исторической географии Средней Азии. — Т.: Университет, 2001.
15. **Епифанова Л. М.** Неофициальная версия истории Бухары. Мирза Абдулазима Сами «Тарихи салатини мангития дар ас-салтанаи Бухараи шариф» (вторая половина XIX века): дис. … канд. филол. наук. — Ташкент, 1959.

RAQAMLI ONG FENOMENI VA FALSAFIY TAHLIL

Ergashev Yusuf
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli ong fenomeni, uning shakllanish jarayonlari, texnologik taraqqiyot bilan bog‘liqligi va jamiyat taraqqiyotidagi roli falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Media-madaniyat va raqamli makon orqali inson tafakkuri, qadriyatlar va ong shakllanishi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ong, media-madaniyat, sun’iy intellekt, axborot jamiyati, falsafa, texnologiya, qadriyatlar.*

Аннотация. *В данной статье с философской точки зрения анализируется феномен цифрового сознания, процессы его формирования, связь с технологическим прогрессом и его роль в развитии общества. Рассматривается формирование человеческого мышления, ценностей и сознания посредством медиакультуры и цифрового пространства.*

Ключевые слова: *цифровое сознание, медиакультура, искусственный интеллект, информационное общество, философия, технология, ценности.*

Abstract. *This article analyzes the phenomenon of digital consciousness, its processes of formation, its connection with technological progress and its role in the development of society from a philosophical perspective. The formation of human thinking, values and consciousness through media culture and digital space is examined.*

Keywords: *digital consciousness, media culture, artificial intelligence, information society, philosophy, technology, values.*

Kirish

XXI asrda insoniyat tafakkuri yangi bosqichga – raqamli ong davriga qadam qo‘ydi. Raqamli ong – bu inson va jamiyatning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, sun’iy intellekt va virtual haqiqatlar ta’sirida shakllanadigan ong turi.

Texnologik inqilob insonning dunyoqarashini tubdan o‘zgartirdi: bugun odamlar axborotni qog‘oz yoki televideniye orqali emas, balki global internet tarmog‘i orqali oladi; do‘stlari bilan yuzma-yuz emas, balki ijtimoiy tarmoqlar va virtual platformalar orqali muloqot qiladi. Shu bois raqamli ongni falsafiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Raqamli ongning rivojlanishi bilan bog‘liq falsafiy masalalar quyidagilar: inson tafakkuri va qadriyatlar tizimining transformatsiyasi, axborot manbalarining ishonchliligi, virtual va real haqiqat o‘rtasidagi chegaralar, shuningdek, sun’iy intellekt orqali ongning kengayishi.

Raqamli ongning genezisi Raqamli ong uch bosqichda shakllangan:

1. An’anaviy ong – og‘zaki va yozma madaniyatga asoslangan. Ushbu davrda bilim va qadriyatlar asosan kitoblar, dostonlar va og‘zaki ijod orqali avloddan-avlodga yetkazilgan.
2. Texnologik ong – matbaa, radio, kino va televidenie davrida shakllangan. Axborot tezkor va ommaviy tarqalib, inson tafakkuri hamda ijtimoiy ongni boshqarishda kuchli vositaga aylangan.
3. Raqamli ong – internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) asosida rivojlanmoqda. Bu bosqichda axborot interaktiv, ko‘p qirrali va global miqyosda tarqaladi.

M. Castellsning fikricha, axborot jamiyati shunday bosqichga yetganki, raqamli ong insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Falsafiy talqinlar

Raqamli ongni falsafiy jihatdan quyidagicha talqin qilish mumkin:

- Ontologik talqin – raqamli ong virtual haqiqatning yangi mavjudlik shakli hisoblanadi. Sun’iy intellekt va VR platformalari insonni yangi realiteler bilan bog‘laydi.
- Gnoseologik talqin – raqamli ong bilim olishning yangi shakli sifatida qaraladi. Axborot texnologiyalari orqali insonlar global bilim bazasiga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.
- Aksiologik talqin – raqamli ong qadriyatlarni qayta shakllantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media va virtual muhit yoshlar ongida axloqiy, estetik va madaniy qadriyatlarni shakllantiradi.
- Sotsial-falsafiy talqin – raqamli ong ijtimoiy integratsiya va madaniy almashinuvning vositasi hisoblanadi. Media-madaniyat jamiyatning barcha

qatlamlariga ta’sir ko‘rsatadi, shu bilan birga ijtimoiy ongni birlashtiradi yoki bo‘linishga ham olib kelishi mumkin.

Raqamli ongning ijobiy jihatlari

1. Bilim olish tezlashdi – onlayn kutubxonalar, kurslar, ilmiy maqolalar orqali bilim global miqyosda tarqalmoqda.
2. Innovatsion tafakkur shakllanishi – raqamli vositalar orqali ijodiy va texnologik g‘oyalar tez amalga oshiriladi.
3. Jahon madaniyati bilan integratsiya – yoshlar turli mamlakat madaniyati bilan oson tanishadi.
4. Demokratik qadriyatlarni kengaytirish – axborotga erkin kirish, fikr almashish va onlayn jamoalar orqali demokratiya targ‘ib qilinadi.

Salbiy jihatlar

1. Virtual qaramlik – yoshlar va kattalar ko‘pincha raqamli muhitga qaram bo‘lib qoladi.
2. Axborot xurujlari va manipulyatsiya – yolg‘on, noto‘g‘ri va manipulyativ axborot jamiyat ongiga salbiy ta’sir qiladi.
3. Shaxsiy hayot daxlsizligi – raqamli platformalarda ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari dolzarb.
4. Qadriyatlarning deformatsiyasi – ba’zi media kontentlar iste’molchilik, individualizm va begonalikni kuchaytiradi.

Mahalliy kontekst va sun’iy intellekt

O‘zbekiston sharoitida raqamli ongni shakllantirish jarayonida quyidagilar kuzatiladi:

- Ta’lim sohasida – onlayn platformalar va virtual kutubxonalar orqali talabalar va o‘qituvchilar yangi bilim manbalariga ega bo‘lmoqda.
- Madaniyat va san’at – O‘zbekiston kinoteatrlari, musiqa platformalari va virtual ko‘rgazmalar orqali milliy estetik qadriyatlar keng tarqatilmoqda.
- Sun’iy intellekt – AI tizimlari axborot tahlili, tarmoq monitoringi va kontent yaratishda faol qo‘llanilmoqda.

Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli ong va sun’iy intellektning uyg‘un ishlatilishi milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa

Raqamli ong fenomeni insoniyat tafakkurining yangi bosqichidir. U falsafiy jihatdan ijobiy va salbiy oqibatlarga ega:

- Ijobiy jihatlar: bilim olish, innovatsiya, madaniy integratsiya, demokratik qadriyatlarni rivojlantirish.
- Salbiy jihatlar: virtual qaramlik, axborot manipulyatsiyasi, shaxsiy daxlsizlik, qadriyatlarning deformatsiyasi.

Shu bois raqamli ongni falsafiy va amaliy nuqtai nazardan chuqur o‘rganish, media-madaniyat orqali milliy va universal qadriyatlarni uyg‘unlashtirish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Castells M.** Communication Power. — Oxford: Oxford University Press, 2009.
2. **McLuhan M.** The Gutenberg Galaxy. — Toronto: University of Toronto Press, 1962.
3. **Turdiev Sh.** Media va madaniyat falsafasi. — Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. **Jenkins H.** Convergence Culture. — New York: NYU Press, 2006.
5. **Baudrillard J.** Simulacra and Simulation. — Paris: Éditions Galilée, 1981.
6. **Jo‘rayev N.** Axborot jamiyati va globallashuv muammolari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
7. **Toffler A.** The Third Wave. — New York: Bantam Books, 1980.

TESS OF THE D’URBERVILLES AND JUDE THE OBSCURE: REPUTATION, RESPECTABILITY, AND SOCIAL CONTROL

Hamzayeva Zebo Murodjon qizi
University of Economics and Pedagogy

Abstract. *This article analyzes how Victorian respectability and the institution of marriage operate as mechanisms of social control in Thomas Hardy's Tess of the d'Urbervilles and Jude the Obscure, focusing on language and discourse. Using a pragmatics–discourse approach, it shows how politeness, indirection, modality, evaluative lexis, and documentary genres (letters, petitions, public notices), together with ritual discourse, manufacture reputation in real time. Comparative findings indicate fast, communal discipline in Tess and slow, bureaucratic discipline in Jude, with outcomes unevenly distributed by gender.*

Keywords: *respectability, reputation, pragmatics, discourse analysis, ritual discourse, documentary genres, modality, Thomas Hardy, Tess of the d'Urbervilles, Jude the Obscure.*

Аннотация. *Статья рассматривает, как нормы респектабельности и институт брака в романах Томаса Харди Tess of the d'Urbervilles и Jude the Obscure функционируют как механизмы социального контроля через язык и дискурс. В рамках прагматико-дискурсивного подхода показано, как стратегии вежливости, косвенность, модальность, оценочная лексика, а также документарные жанры (письма, прошения, объявления) и ритуальная речь формируют репутацию в режиме «реального времени». Сравнительный анализ выявляет быструю, коммунальную дисциплину в Tess и медленную, бюрократическую дисциплину в Jude; при этом последствия гендерно асимметричны.*

Ключевые слова: *респектабельность, репутация, прагматика, дискурсивный анализ, ритуальная речь, документарные жанры, модальность, Томас Харди, Tess of the d'Urbervilles, Jude the Obscure.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Tomas Hardining Tess of the d'Urbervilles va Jude the Obscure romanlarida viktoriancha hurmatga sazovorlik (respectability) hamda nikoh instituti qanday qilib ijtimoiy nazorat mexanizmlari sifatida amal qilishi til va diskurs tahlili asosida o'rganiladi. Pragmatika–diskurs yondashuvi orqali xushmuomalalik, bilvositalik, modal shakllar, baholovchi leksika hamda hujjatli janrlar (maktublar, arizalar, ommaviy e'lonlar) marosimiy diskurs bilan birgalikda obro'-e'tibor (reputatsiya)ni real vaqt rejimida qanday shakllantirishi ko'rsatiladi. Qiyosiy tahlil natijalari Tess romanida tezkor va jamoaviy intizom, Jude romanida esa sekin va byurokratik intizom ustun ekanini, shuningdek, bu jarayonlar jins omiliga ko'ra notekis taqsimlanishini aniqlaydi.*

Kalit so'zlar: *hurmatga sazovorlik, obro'-e'tibor, pragmatika, diskurs tahlili, marosimiy diskurs, hujjatli janrlar, modal shakllar, Tomas Hardi, Tess of the d'Urbervilles, Jude the Obscure.*

Relevance. In Victorian literature, reputation, propriety, and the institution of marriage occupy a central position in the sociocultural landscape. Thomas Hardy's *Tess of the d'Urbervilles* and *Jude the Obscure* vividly reveal how personal relations become intertwined with communal surveillance and how "permitted" norms of behaviour are constructed through language and ritual. Traditional scholarship has often interpreted the tragedies of these novels through the lenses of "fate" or "cosmic pessimism"; however, contemporary approaches foreground the operative role of social institutions—the family, the church, the local community—and the discourses (communal talk, official statements, ritual language) through which they exert control.

The relevance of this study lies in demonstrating reputation not as a purely moral quality, but as a **linguistic and discursive construction**: linguistic forms (politeness, indirectness, modality, evaluative lexis), documentary genres (letters,

petitions, announcements), and ritual speech collectively produce real-time judgments. This perspective also provides methodological value for integrating pragmalinguistics, discourse analysis, and literary studies within higher education in Uzbekistan.

Aim. To demonstrate how, in Hardy's *Tess* and *Jude*, norms of respectability and the institution of marriage operate as mechanisms of social control through linguistic and discursive practices; to explain the gendered consequences of these mechanisms (reputational fragility, communal exclusion, erosion of aspiration); and to map the role of linguistic forms (address terms, modality, euphemism/indirectness), documentary genres, and ritual speech as operational indicators in the production of judgment.

Objectives

1. **To analyse the standards of propriety** (purity, "honour") that define female reputation in *Tess*, through linguistic forms and narrative staging.
2. **To examine** the language of rituals and formal procedures in *Jude* (marriage/divorce practices, church legitimisation, community announcements) from a genre and discourse perspective.
3. **To investigate** how documentary genres (letters, petitions, announcements, applications) function in formalising reputation and consolidating communal judgment.
4. **To systematise** pragmatic strategies—politeness formulae, indirectness, hedging/boosting, addressivity, and modality (must/ought/should)—as mechanisms of evaluative force.
5. **To identify** how narrative temporal devices (delay, failed delivery of messages) and symbolic spaces (churches, public squares, monumental sites) ritualise scenes of judgment.

6. **To propose** a comparative model: rapid communal discipline (gossip, household judgment) in *Tess* versus slow bureaucratic discipline (offices, announcements, licences) in *Jude*.

7. **To transfer** the findings into teaching methodology by designing SEL, debate, reflective writing, and PBL tasks based on epistolary episodes and judgment scenes.

Methods. Research design: Qualitative comparative analysis integrating feminist narratology, pragmatics, and discourse/genre analysis.

Corpus: *Tess of the d'Urbervilles* (1891) and *Jude the Obscure* (1895), based on scholarly editions; serial versions consulted only where scene timing is affected.

Analytical framework:

- **Pragmatics:** Address forms (sir, madam, dear), politeness strategies, indirectness, hedges/boosters, modality (must, ought, should), evaluative lexis (proper, decent, disgrace).
- **Discourse/Genre analysis:** Move structure of letters/petitions (opening–body–request–closure), ritual speech (vows, proclamations), communal deliberation scenes.
- **Narratology:** Focalisation, scene construction, timing devices (delay, misdelivery), landscape cues (churches, public squares, monumental settings such as Stonehenge).

Results. The analysis of *Tess of the d'Urbervilles* and *Jude the Obscure* demonstrates that reputation in Hardy's novels operates as a discursively produced and linguistically mediated construct rather than a static moral attribute. Several core findings emerged from the pragmatic–discourse examination:

1. Linguistic markers of propriety construct and regulate female reputation in *Tess*.

Reputational judgments are anchored in evaluative lexis (*proper, decent, pure, fallen*), politeness strategies, and indirect speech used by community members. Gossip sequences show a patterned use of hedging (it seems, I suppose), which softens accusations yet amplifies communal suspicion. Modal verbs (*should, ought to, must*) repeatedly function as norm-enforcing tools, framing Tess's behaviour as subject to collective expectations rather than personal autonomy.

2. Documentary genres formalise communal judgment in both novels.

Letters, petitions, church notices, and public announcements transform private events into institutionalised forms of blame. In *Jude*, bureaucratic documents—marriage licences, divorce applications, registry entries—serve as discursive checkpoints that legitimise or delegitimise the protagonists' social standing. The move structure of letters (opening–statement–request–closure) reveals how characters negotiate authority, appeal for legitimacy, or attempt to resist reputational decline.

3. Ritual and ceremonial discourse intensifies social surveillance.

Marriage vows, banns, church proclamations, and public declarations use formulaic language that textualises moral judgement. In *Jude*, failed compliance with ritualised language (e.g., hesitation during vows, rejection of formal marriage) immediately activates discursive penalties through clerical and communal commentary. In *Tess*, ritual settings (churchyards, village festivals) function as **symbolic arenas** where community speech turns into collective verdict.

Discussion. The findings of this study suggest that Hardy's representation of reputation in *Tess of the d'Urbervilles* and *Jude the Obscure* cannot be adequately interpreted through traditional paradigms such as tragic destiny, cosmic pessimism, or the deterministic cruelty often attributed to Hardy's worldview. Instead, the pragmatic–discourse analysis reveals that the protagonists' downfall is shaped by

linguistic choices, discursive practices, and institutionalised communicative norms that structure Victorian social life.

Reputation as a discursive construct rather than a moral essence

The study demonstrates that reputation functions as a performative category, produced through repeated linguistic acts—evaluations, modal prescriptions, indirect accusations, and ritual formulas. This aligns with modern discourse theories that view social categories as constructed through language rather than merely reflected by it. Hardy's narratives thus show how communities manufacture "truths" about individuals by embedding them in everyday talk, documents, and rituals.

Conclusion. This study has demonstrated that reputation in Thomas Hardy's *Tess of the d'Urbervilles* and *Jude the Obscure* is not an inherent moral quality but a discursively constructed and pragmatically maintained social category. By integrating pragmatic analysis, discourse/genre studies, and narratology, the research reveals how linguistic forms, documentary practices, and ritualised speech collectively produce, regulate, and often destroy the reputations of Hardy's protagonists.

The findings show that evaluative lexis, politeness strategies, indirect accusations, and modal prescriptions serve as everyday instruments of social surveillance, shaping how communities interpret and judge individuals. Documentary genres—letters, petitions, licences, announcements—further institutionalise these judgments, turning personal experiences into official records that legitimise or delegitimise social identities. Ritual speech and symbolic spaces intensify this process, transforming private lives into public spectacles of moral scrutiny.

A key conclusion of the study is that *Tess* and *Jude* operate under two distinct regimes of social control: rapid oral discipline driven by gossip and communal talk in *Tess*, and slow bureaucratic discipline shaped by administrative language and

institutional authority in *Jude*. Both reveal Hardy's sustained critique of Victorian society, in which linguistic and discursive practices function as mechanisms that restrict personal freedom and reinforce gendered hierarchies.

REFERENCE

1. **Abdullaeva Q.** Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent, 2019.
2. **Abduazizov A.** Umumiy tilshunoslikka kirish. — Toshkent, 2007.
3. **Begmatov E.** Tilshunoslik nazariyasi. — Toshkent, 2014.
4. **Гинзбург Л.** О психологической прозе. — Ленинград, 1977.
5. **Морозов М.** Английский реалистический роман XIX века. — 1964.
6. **Leech G.** Principles of Pragmatics. — 1983.
7. **Mills S.** Gender and Politeness. — 2003.
8. **Wright T.** Hardy and His Readers. — 2003.
9. **Qizi H. Z. M.** Women's roles and gender portrayal in Thomas Hardy's works // *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*. — 2024. — Vol. 2, № 57. — 344–347 b.
10. **Хамзаева З.** Толкование женского образа в романе «Бону» с точки зрения декадентства: социальный кризис и противоречие ценностей // *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. — 2025. — Vol. 3, № 2. — 17–22.
11. **Qizi H. Z. M.** Taqdir, axloq va ayol qismati: "Tess of the d'Urbervilles" va "Bonu" romanlarining qiyosiy tahlili // *Research Focus*. — 2025. — Vol. 4 (Special Issue 1). — 184–186.
12. **Hamzayeva Z.** "Tess d'Urbervilllar" va "Bonu" romanlarida sof va jamiyatda ustuvor axloqiy tamoyillar ziddiyati // *Acta NUUz*. — 2025. — Vol. 1, № 1.4.1. — 332–333.

COMMUNICATIVE APPROACH IN THE TEACHING OF SPOKEN ENGLISH

Kaipova Biybizada

Karakalpak State University

Abstract. *This thesis analyzes the theoretical foundations and practical effectiveness of the communicative approach in teaching spoken English. It highlights the role of interactive tasks, role-playing activities, and problem-based situations in developing learners' communicative competence. The communicative approach is shown to enhance fluency, increase learner motivation, and promote active participation by simulating real-life communication contexts.*

Keywords: *communicative approach, spoken English, English language teaching, interactive methods, communicative competence, learner motivation, language learning.*

Annotatsiya. *Mazkur tezis ingliz tilida og'zaki nutqni o'qitishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda muloqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va interaktiv topshiriqlarning o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Kommunikativ yondashuv til o'rganishda real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali o'quvchilarning faol ishtirokini kuchaytirishi, nutq ravonligi va motivatsiyasini oshirishi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, og'zaki nutq, ingliz tili ta'limi, interaktiv metodlar, nutqiy kompetensiya, muloqot, til o'rganish.

Аннотация. *В тезисе рассматриваются теоретические основы и практическая эффективность коммуникативного подхода в обучении устной речи на английском языке. Анализируется роль интерактивных заданий, ролевых игр и проблемных ситуаций в развитии коммуникативной компетенции обучающихся. Показано, что применение данного подхода*

способствует формированию беглости речи, повышению мотивации и активному вовлечению учащихся в процесс обучения.

Ключевые слова: *коммуникативный подход, устная речь, обучение английскому языку, интерактивные методы, коммуникативная компетенция, мотивация, языковое образование.*

In the context of globalization and increasing international contacts, proficiency in English as a means of oral communication is becoming one of the key goals of modern language education. The search for effective methodological approaches, aimed not only at the formation of linguistic knowledge, but also at the development of the ability to use language in real communicative situations, becomes particularly urgent. In this context, the communicative approach (Communicative Language Teaching) occupies a leading place in the methodology of teaching foreign languages, in particular oral speech.

The communicative approach developed in the second half of the 20th century as a reaction to the limitations of traditional teaching methods, such as grammar-translation and audio-linguistic methods. The main drawback of these approaches was that students, having a certain knowledge of grammar and vocabulary, experienced difficulties in real communication in a foreign language. In this connection, the focus of communicative approach has been placed on the concept of communicative competence, first introduced by Hymes (1972), which implies not only knowledge of language forms, but also ability to use them adequately in specific social and cultural conditions.

Communicative competence includes several interrelated components: linguistic (knowledge of vocabulary, grammar, phonetics), sociolinguistic (ability to choose language means depending on the situation of communication), discursive (ability to build coherent and logical utterance) and strategic (ability to compensate for the lack of language resources in the process of communication) mentioned by Canale M., Swain M. (1980). Learning oral language as part of a communicative approach is aimed at the comprehensive development of all these components, which ensures complete mastery of the language.

Richards J. C., Rodgers T. S. (2014) emphasized that one of the key features of the communicative approach is orientation to real communication. During the learning process, speech situations are created that are as close as possible to the authentic conditions that students may encounter in their daily, academic or professional environment. It is widely used for such forms of work as dialogues, role-playing, problem tasks, discussions, debates, interviews, projects, and work in pairs and groups. These activities actively engage students in the speech process and develop their spontaneous speaking skills.

Special importance in the communicative approach is given to the role of the student, who is not seen as a passive recipient of knowledge, but as an active participant in communication. The teacher, in turn, acts as an organizer, facilitator and consultant guiding the students' speaking activities (Harmer J.). This model of interaction encourages students to take responsibility for their own learning and increases their motivation to use the English language in oral form.

An important aspect of oral language learning is the attitude toward mistakes. In the communicative approach, mistakes are seen as a natural and inevitable part of the language learning process. The focus is not on the accuracy of speech, but on the success of communication. The correction of errors is carried out selectively and tactfully, mainly after completion of speech, which allows to maintain the communicative orientation of the class and reduce the psychological stress in the students. This approach helps to overcome the language barrier and build confidence in one’s own speech skills.

In addition, a communicative approach involves the integration of oral speech with other spoken activities - listening, reading and writing. For example, the discussion of a text that has been listened to, the oral reaction to the material read or the presentation of a written project create conditions for the comprehensive development of language skills. This is especially important in the teaching of English, where oral speech is closely related to the perception and interpretation of information.

The selection of materials is advised to be authentic and semi-authentic, which means speaking activities involving information exchange and problem-solving conditions for the students. It was repeatedly explored by Littlewood W. (1981)

It should be noted that the successful implementation of the communicative approach in oral language learning requires taking into account the level of language training of students, their age, and individual characteristics. For beginners, it is important to combine communicative tasks with elements of structured language practice, while at more advanced levels, priority is given to free expression and the development of fluency. Thus, the communicative approach does not exclude work with grammar and vocabulary, but integrates them into the speech communication process.

In conclusion, it can be concluded that the communicative approach is an effective and methodically sound means of teaching oral English. It contributes to the development of communicative competence, the formation of skills of real communication, increasing motivation of students and creating a favorable psychological atmosphere in classes. In today's environment, where English is seen as an important tool for intercultural and professional interaction, the communicative approach retains its relevance and practical importance.

REFERENCE

1. **Hymes D.** On communicative competence // Sociolinguistics / Ed. by J. B. Pride, J. Holmes. — Harmondsworth : Penguin Books, 1972. — P. 269–293.
2. **Canale M., Swain M.** Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. — 1980. — Vol. 1, № 1. — P. 1–47.
3. **Richards J. C., Rodgers T. S.** Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge : Cambridge University Press, 2014. — 410 p.
4. **Harmer J.** How to Teach English. — Harlow : Longman, 2007. — 288 p.

5. **Littlewood W.** Communicative Language Teaching. — Cambridge : Cambridge University Press, 1981. — 108 p.

VIZUALIZATSIYA VA TASAVVUR HAQIDA NAZARIYALAR

Latipova Xurshida Abdullayevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqola vizualizatsiya va tasavvur haqidagi ilmiy isbotlangan nazariyalar va ko'rsatmalar haqida.*

Maqolaning dolzarbligi: O'zlikni anglash, Shaxsiy rivojlanish va maqsad sari yo'naltirilgan ong, ong va tasavvurlar o'rtasidagi kuchli aloqalar.

Kalit so'zlari: *Vizualizatsiya, tasavvur, ong, neyroplastiklik, "men" obrazi, nevrologiya, psixoterapiya, energiya.*

Аннотация. *В статье рассматриваются научно доказанные теории и практические рекомендации, связанные с визуализацией и воображением.*

Актуальность статьи. Осознание себя, личностное развитие и направленное на достижение целей мышление, а также прочные взаимосвязи между сознанием и образами воображения.

Ключевые слова: *визуализация; воображение; сознание; нейропластичность; образ «я»; неврология; психотерапия; энергия.*

Abstract. *The article discusses scientifically validated theories and practical guidelines related to visualization and imagination.*

Relevance of the article. Self-awareness, personal development, goal-oriented thinking, and the strong connections between consciousness and mental imagery.

Keywords: *visualization; imagination; consciousness; neuroplasticity; self-image; neurology; psychotherapy; energy.*

Vizualizatsiya — bu tasavvurlar orqali ongni boshqarish, ichki tasvirlar yordamida real hayotdagi holatlarni shakllantirish usulidir. Bu jarayon inson miyasi uchun oddiy tasavvur emas, balki deyarli real tajriba sifatida qabul qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson biror narsani tasavvur qilganda, uning miyasi xuddi o‘sha narsani real hayotda boshdan kechirayotgandek ishlaydi.

Nevrologik jihatdan, vizualizatsiya paytida miyaning vizual korteksi (ko‘rish markazi), prefrontal korteks (rejalashtirish va qaror qabul qilish uchun mas’ul), hamda amigdala (emotsional reaktsiyalar uchun javobgar) faollashadi. Bu degani, inson o‘z orzularini ko‘z oldiga keltirar ekan, miyada shu orzu amalga oshayotgandek iz qoldiradi va bu holat hissiy jihatdan ham ongni harakatga tayyorlaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan, vizualizatsiya Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy kognitiv nazariyaga ham uyg‘un keladi. Bandura fikricha, inson o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqaradi, bu boshqaruvning markazida esa o‘z-o‘ziga ishonch yotadi. Vizualizatsiya aynan shu ishonchni mustahkamlash orqali harakatga kuch beradi.

Shuningdek, Joe Dispenza o‘z tadqiqotlarida vizualizatsiyani miya va yurakning uyg‘un ishlashiga olib keluvchi kuch sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, inson kayfiyati va tafakkurining uyg‘unligi tanadagi biokimyoviy jarayonlarni o‘zgartirib, organizmni sog‘ayishga yoki maqsad sari harakat qilishga yo‘naltiradi.

Bundan tashqari, vizualizatsiya — bu ong osti dasturlashning kuchli vositasi sifatida ham ko‘riladi. Mashhur psixolog Napoleon Hill o‘zining “O‘yla va boyib ket” asarida orzularni tasavvur qilish orqali ular reallikka aylanishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, vizualizatsiya inson ongida maqsadga erishish jarayonini “repetitsiya” tarzida takrorlaydi. Miya bu jarayonni haqiqiy tajriba sifatida qabul qiladi. Shu sababli, insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, motivatsiyasi va hissiy tayyorgarligi kuchayadi (Decety & Grezes, 2006).

Shaxsiy o‘sishga ta’siri:

Shaxsiy o‘sish nazariyalarida (Maslow, 1970; Rogers, 1961) vizualizatsiya o‘zini anglash va o‘zini aktualizatsiya qilish jarayonini tezlashtiruvchi omil sifatida qaraladi. Tasavvur orqali inson o‘z ideal “men” obrazini shakllantiradi va shu yo‘nalishda harakat qiladi.

Inson miyasi maqsad va harakat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgana oladi. Agar inson biror yutuqqa erishayotganini doimiy ravishda tasavvur qilsa, bu holat miyadagi neyron aloqalarni mustahkamlaydi va organizmni ana shu holatga erishishga “programmalaydi”. Bu holat psixologiyada neyroplastiklik deb ataladi. Ya’ni, miyaning o‘z-o‘zini shakllantirish qobiliyati.

Masalan, har kuni o‘zini muvaffaqiyatli, xotirjam yoki ilhomlangan holda tasavvur qilayotgan inson, asta-sekin o‘z xulq-atvori va qarorlariga ham shu holatni singdira boshlaydi. Bu orqali insonda o‘ziga ishonch, ichki motivatsiya, va pozitiv ichki dialog shakllanadi. Bu esa o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonining asosiy ustunlaridan hisoblanadi.

Shuningdek, vizualizatsiya shaxsiy o‘sishda quyidagi jihatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

Maqsadlarni aniq shakllantirish – Vizualizatsiya insonni konkret tasvirlar bilan ishlashga majbur qiladi. Bu esa “nimani istayman?” degan savolga chuqurroq javob topishga yordam beradi.

Shubhalarni kamaytirish – Tasavvurda o‘zini muvaffaqiyatli holatda ko‘rgan insonda “men bunga qodirman” degan ishonch shakllanadi.

Ichki qarshiliklarni kamaytirish – Odatda inson o‘zini to‘xtatuvchi ichki dialoglar bilan kurashadi. Vizualizatsiya esa bu dialogni ijobiy yo‘nalishga o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Ko‘plab psixologik yo‘nalishlarda, masalan, kognitiv xulq-atvor terapiyasida, pozitiv psixologiyada, hamda meditatsiya amaliyotlarida vizualizatsiya markaziy usullardan biri sifatida qo‘llaniladi.

So‘nggi yillarda vizualizatsiya sohasi ilmiy jihatdan ham jiddiy e’tiborga olinmoqda. Dastlab sportchilarning yutuqlarida vizualizatsiya

texnikalarining ta’siri kuzatilgan bo‘lsa, endilikda bu usul o‘zini shaxsiy rivojlanish, ta’lim, sog‘lomlashtirish va ruhiy salomatlikni tiklashda ham samarali ekanini isbotlamoqda.

Sport psixologiyasi sohasida o‘tkazilgan tadqiqotlardan birida, basketbolchilarning ikki guruhga bo‘linib, biri har kuni real mashq qilgan, ikkinchisi esa faqat vizual mashqlar bajargani aniqlangan. Ajablanarlisi, harakatni tasavvur qilgan guruh ham deyarli bir xil darajada natija ko‘rsatgan (Richard Suinn, 1996). Bu miya harakatni nafaqat jismoniy, balki ong orqali ham o‘rganishini ko‘rsatadi.

Nevrolog va psixologlar, xususan, Stephen Kosslyn (Harvard universiteti) vizualizatsiya paytida miya tasvirlarni real hodisalardek qabul qilishini isbotlagan. Uning magnit-rezonans tomografiyasi (fMRI) orqali o‘tkazgan tajribalari shuni ko‘rsatdiki, inson tasavvur qilayotgan narsa real ko‘rinishdagi obyektga qaraganda miya uchun deyarli bir xil ta’sirni keltirib chiqaradi.

Psixoterapiyada esa, vizualizatsiya yordamida o‘tgan travmalarni davolash, kelajakdagi holatlarga psixologik tayyorgarlik ko‘rish yoki ichki qo‘rquvlarni kamaytirish ishlari muvaffaqiyatli olib borilmoqda. Masalan, EMDR (ko‘z harakatlarini sezgirlashtirish va qayta ishlash) terapiyasida tasvirlar bilan ishlash orqali ong ostidagi holatlar yechiladi.

Pozitiv psixologiya asoschilaridan biri — Martin Seligman o‘z izlanishlarida shuni ta’kidlaydiki, inson hayotidagi eng yuqori ruhiy holatlar — bu umid, ma’no va orzular tasviri orqali shakllanadi. Vizualizatsiya aynan shu elementlarga tayanadi va insonda ijobiy emotsiyalarni uyg‘otadi.

Amaliyotda esa, o‘zining kundalik hayotida vizualizatsiyadan foydalangan ko‘plab mashhur shaxslar – Jim Carrey, Oprah Vinfrey, Vill Smith va boshqa yetakchilar hayotlarida bu texnikaning ulkan o‘rni bo‘lganini ochiq tan olishgan.

Tasavvur + His qilish = Kuchli signal

Har qanday kashfiyot, ixtiro yoki yirik muvaffaqiyat — avvalo insonning ichki tasavvurida yaraladi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, miya “tasavvur qilingan” va “haqiqiy” tajribani bir xil tarzda qayta ishlaydi. Ya’ni, inson o‘z maqsadini aniq ko‘z oldiga keltirganida,

miya uni allaqachon ro‘y bergandek qabul qiladi. Bu esa ichki ishonchni kuchaytiradi, tanani harakatga tayyorlaydi va motivatsiyani oshiradi (Kosslyn, 1994; Decety, 2006).

Masalan, sportchilar musobaqa oldidan o‘z g‘alabalarini tafsilotigacha ko‘z oldiga keltiradilar. Bu usul ularning jismoniy tayyorgarligini emas, balki ruhiy bardamligini mustahkamlaydi. Xuddi shunday, inson o‘z hayotida o‘zgartirish istasa, avvalo uni ichki tasavvurida yaratishi kerak. Chunki tasavvur — yaratilishning birinchi qadamidir.

Faqatgina ko‘z oldiga keltirish kamlik qiladi. Muhimi — hissiyot bilan birga tasavvur qilish. Chunki borliq signalga emas, energiyaga — ya’ni his-tuyg‘uga javob beradi.

Masalan:

Biz o‘zimizni omadli, kuchli, sevgi bilan yashayotgan holatda tasavvur qilsak — yuragimiz shunday energiyani chiqaradi.

Borliq esa bunga uyg‘un voqealarni tortib kela boshlaydi.

- Qoidani yodda tutish lozim:

Agar ko‘ra olsak, his qila olsak va ishonsak — bu bizga yetib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Suinn R. M.** Mental practice and imagery in sport // 1996. — Vol. 28, № 11. — P. 1416–1424.
2. **Kosslyn S. M.** Image and brain: the resolution of the imagery debate. — 1994.
3. **Xasanov D. S.** Shaxsiy rivojlanishda tasavvur va vizualizatsiya metodlari. — Toshkent, 2019.
4. **Mirzaahmedov R. A.** Psixologik tayyorgarlik va vizualizatsiya texnologiyalari. — Toshkent, 2020.
5. **Seligman M. E. P.** Authentic happiness: using the new positive psychology to realize your potential for lasting fulfillment. — 2002.

KITOB MUTOLAA QILISHNING RIVOJLANISH YO‘LLARI

Mamatqulova Zarifaxon Muxammadsoliyevna

Farg‘ona viloyati Pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kitob mutolaa qilishning rivojlanish yo‘llari, o’qituvchilarda ong va tafakkur, ijtimoiy siyosiy jarayonlarga nisbatan qiziqish, ijtimoiy faollik, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy savodxonlik darajasini oshirish, milliy tarixni, madaniy merosni chuqurroq o’rganishga bo’lgan ehtiyojni yanada yuksaltirish ushbu jarayonlarni tahlil qilgan holda atrofdagilarga to’g’ri yetkaza olish ko’nikmasini rivojlantirish imkoniyatlari ko’rib chiqilgan.*

Kalit so’zlar: *kitob, mutolaa, qiziqish, faollik, savodxonlik, meros, ehtiyoj, yuksalish, tahlil, ko’nikma, rivojlanish, imkoniyat.*

Аннотация. *В этой статье обсуждаюця пути развития чтения, мышления и мышления учителей, интерес к общественно - политическим процессам, повышение уровня общественной активности, экономической, политической и правовой грамотности, необходимость более глубокого изучения национальной истории и культурного наследия Рассматриваюця возможности развития способности приобретать.*

Ключевые слова: *книга, чтение, интерес, активность, грамотность, наследие, потребность, рост, анализ, навыки, развитие, возможности.*

Annotation. *This article discusses ways to develop reading, thinking and thinking of teachers, interest in socio-political processes, increasing the level of social activity, economic, political and legal literacy, the need for a deeper study of*

national history and cultural heritage. The possibilities of developing the "ability to acquire" are being considered.

Key words: *book, reading, interest, activity, literacy, heritage, need, growth, analysis, skills, development, opportunities.*

Kirish. Kitob mutolaa qilishning rivojlanishi o'qituvchilarda ong va tafakkur, ijtimoiy siyosiy jarayonlarga nisbatan qiziqish, ijtimoiy faollik, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy savodxonlik darajasini oshiradi.

Asosiy qism. Makolada kitob mutolaa qilishning rivojlanishi milliy tarixni, madaniy merosni chuqurroq o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada yuksaltiradi. Tevarak atrofimizda va dunyoda bo'layotgan turli xil voqea hodisalarni teran anglash, ushbu jarayonlarni tahlil qilgan holda atrofdagilarga to'g'ri yetkaza olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Kitob mutolaa qilishning rivojlanish ida o'qituvchilarda ong va tafakkur, ijtimoiy siyosiy jarayonlarga nisbatan qiziqish, ijtimoiy faollik, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy savodxonlik darajasini oshiradi. Milliy tarixni, madaniy merosni chuqurroq o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada yuksaltiradi. Tevarak atrofimizda va dunyoda bo'layotgan turli xil voqea hodisalarni teran anglash, ushbu jarayonlarni tahlil qilgan holda atrofdagilarga to'g'ri yetkaza olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat** Mirziyoyevning 2016 yil 4 dekabrdagi saylovoldi dasturining **[1]** asosiy yo'nalishlarida «Yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini kamol toptirish, ularning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish» masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Darhaqiqat, k**itob mutolaa qilish** – bu o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, dars o'tish usullarini tinimsiz boyitib, kengaytirib, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirib borishida o'z fikri, o'z

dunyoqarashi, zamonaviy bilim va tafakkuriga ega bo’lgan yangi avlodni voyaga yetkazishda muhim o’rin tutadi.

Kitobni mutolaa qilish ta’lim beruvchida o’tilayotgan darsga nisbatan kuchli mas’uliyat, ijodiy yondashish, erkin fikrlash hamda o’z tahlil va xulosalarini mustaqil bayon eta olish xususiyatini rivojlantiradi. O’qituvchining kitob mutolaa qilishi – o’quvchilarni sifatli o’qitish, tarbiyalash va ijodiy rivojlantirish hamda pedagog xodimlarning samarali ishlashi uchun jamoada sog’lom muhitni yaratadi.

O’qituvchining kitob mutolaa qilishi bilimli, har tomonlama rivojlangan, madaniyatli, o’zining oila, jamiyat, davlat oldidagi mas’uliyatini to’liq his qiladigan shaxslarni shakllantirishda ta’limning uzluksizligi va izchilligi, insonparvarligi va xalqparvarligi, ilmiyligi va dunyoviy yo’nalishini ta’minlash ishlarini muvofiqlashtiradi.

Kitob mutolaa qilish natijasida o’qituvchida tahlil qilish, ta’limni optimallashtirish, tizimlashtirish, tashkil etish va boshqarish, tavsiyalar berish, o’qish, qayta ishlash, o’zlashtirish kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Kitob inson ruhiyatiga ta’sir etishi bilan birga, har bir shaxsda yaxshilik, sabr, e’tiqod, kurashchanlik, eng asosiysi, hayotdagi yo’lini to’g’ri tanlashga o’rgatadi. Kitob mutolaasi insonda umumbashariy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg’usini uyg’otadi. Jahon adabiyoti durdonalarini mutolaa qilish orqali o’qituvchi boshqa xalqlar hayoti, madaniyatini o’rganadi, o’zlashtiradi.

Kitob mutolaasi o’qituvchida badiiy obrazlar hayoti, taqdiri, kechmishlari haqidagi bilimlarini oshiribgina qolmay, unda kelajakka bo’lgan ishonchni mustahkamlaydi, turli xulosa va tamoyillar shakllanishiga xizmat qiladi.

Kitob mutolaa qilishning rivojlanish yo‘llarida quyidagi tavsiyalarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- insonning ichki kechinmalari, uning o’y va intilishlari, o’z ustida ishlash faoliyatini yaxshi bilishi va yetarlicha aniq tasavvur eta olishi uchun pedagogik va psixologik adabiyotlarga murojaat qilish.
- yon-atrofidagilarga munosabati shakllanish, o’zgarib, rivojlanib borish, ijtimoiy ong o’zining ta’sirini ko’rsatishi uchun o’qituvchi faoliyatiga yordam beruvchi ta’lim-tarbiyaga oid kitoblarni mutola qilish.
- yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o’rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko’lamini hosil qilish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun suhbatlar, uchrashuvlar, taqdimotlar o’tkazish.

Kitob mutolaa qilish tinglovchilar bilan samimiy muloqotda bo’lish, tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko’rsata olish, izchil ravishda kasbiy o’sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o’z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish xususiyatlarini shakllantiradi.

Bunda o’z faoliyatiga tanqidiy va ijodiy yondashish, kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish, salbiy odatlarni bartaraf etib borish, ijobiy sifatlarni o’zlashtirish, o’qituvchi faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlash, yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish, amaliy harakatlarni samarali tashkil etish, xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish, qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish kabilarnini insonda namoyon bo’lishi jamiyatning rivojlanishida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Demak, mutaxassis kitob mutolaa qilishning rivojlanish yo‘llarida quyidagi omillaridan orqali faoliyat ko’rsatish pedagogik jarayonni takomillashtirishga yordam beradi:

–kitob mutolaa qilish pedagogik jarayon samaradorligini, o’zining ishchanlik faolligini oshirish;

–izchil ravishda yangilanib borayotgan bilimlarni o’zlashtirish;

– ilg’or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo’lish;

–faoliyatiga fan - texnikaning so’nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;

– kitob mutolaa qilish bilan kasbiy ko’nikma va malakalarini takomillashtirish;

Kitob mutolaa qilishning rivojlanishi salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo’lida olib boradigan amaliy harakati uning o’z ustida ishlashini ifodalaydi. O’qituvchining kitob mutolasi rivojlantirishda mazmuni, metodik tavsiyanomalar, metodik usullar va shakllari ishlab chiqiladi. O’qitish va tarbiyalash konseptsiyasi hamda metodikasi yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.** 2016 yil 4 dekabrdagi saylovoldi dasturi.
2. **Abdullayev A.** Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Mutolaa–tafakkur gulshaniga yetaklovchi kuch. – Toshkent: Kutubxona, 2015. – 35 b.
4. **Navoiy A.** Farxod va Shirin. – Toshkent: Ziyouz.com kutubxonasi. – 407 b.
5. **Inoyatov U. I., Muslimov N. A., Ro‘ziyeva D. I., Usmonboeva M. H.** Pedagogika. – Toshkent, 2013. – 243 b.
6. **Inoyatov U.** Pedagogik mahorat va kasbiy rivojlanish nazariyasi. – Toshkent: Nur-Press, 2019.
7. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Pedagogik kadrlarning kasbiy rivojlanishi: muammo va yechimlar. – Toshkent: TDPU, 2021.

8. **Qodirova L.** Innovatsion ta’limda o‘qituvchining o‘rni va rivojlanish bosqichlari // Ta’limda innovatsiyalar jurnali. – 2020. – №3. – 21–27 b.

TURKIY XALQLAR MADANIYATI TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI (O‘ZBEKISTON, TURKIYA VA OZARBAYJON MISOLIDA)

Najmidinova Guzal Axlitdinovna

Buxoro davlat universiteti

Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon madaniyatlarining transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniyatning modernizatsiya, milliy identitet va globalizm jarayonlariga ta’siri ko‘rib chiqiladi, shuningdek, har bir mamlakatda madaniy transformatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Maqola Turkiy xalqlar madaniyatini jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyat transformatsiyasi, Turkiy xalqlar, ijtimoiy-falsafiy tahlil, modernizatsiya, milliy identitet*

Abstract: This article analyzes the cultural transformation of Uzbekistan, Turkey, and Azerbaijan from a socio-philosophical perspective. The study examines the influence of modernization, national identity, and globalization on culture, highlighting the unique features of cultural transformation in each country. The article provides insights into the role of culture in social development and moral values among Turkic peoples.

Keywords: *cultural transformation, Turkic peoples, socio-philosophical analysis, modernization, national identity*

Аннотация: В статье рассматривается трансформация культур Узбекистана, Турции и Азербайджана с социально-философской точки зрения. Исследование анализирует влияние модернизации, национальной идентичности и глобализации на культуру, выделяя уникальные особенности культурной трансформации в каждой стране. Статья показывает роль культуры в социальном развитии и формировании моральных ценностей у тюркских народов.

Ключевые слова: *трансформация культуры, тюркские народы, социально-философский анализ, модернизация, национальная идентичность*

I. Kirish

Turkiy xalqlar dunyo tarixida boy madaniy merosga ega bo‘lib, u nafaqat madaniy-estetik qadriyatlar, balki ijtimoiy va falsafiy tafakkurning shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etgan. O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon kabi davlatlarda madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi tarixiy jarayonlar, siyosiy o‘zgarishlar va ijtimoiy transformatsiyalar bilan bevosita bog‘liq.

Globalizatsiya va modernizatsiya jarayonlari madaniyatni dinamik o‘zgarishga majbur qilmoqda. Shu bilan birga, madaniyatning milliy o‘zligi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ong ham saqlanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, Turkiy xalqlar madaniyati transformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon madaniyati transformatsiyasini tahlil qilib, ularning ijtimoiy va falsafiy jihatlarini aniqlash, o‘ziga xos xususiyatlarini solishtirish va umumiy tendensiyalarni ko‘rsatishdir.

II. Nazariy asoslar va adabiyotlar sharhi

Madaniyat tushunchasi ijtimoiy fanlarda turlicha talqin etiladi, biroq umumiy nuqtai nazardan madaniyat jamiyat tuzilmasi bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy tizim sifatida qaraladi. Madaniyat - bu odamlarning umumiy qadriyatlari, ishonch tizimlari, urf-odatlari, san’ati, tili va normativ xulq-atvorini o‘z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, u inson ongini, axloqiy qadriyatlarni va jamiyat taraqqiyotini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nuqtai nazar zamonaviy sotsiologiya va antropologiyada keng qo‘llaniladi, chunki madaniy jarayonlar jamiyatni o‘zgartiruvchi kuch sifatida qaraladi. Masalan, madaniyat jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, shaxslararo aloqalar va guruh identitetlarini yaratadi hamda ular orqali jamiyatning ko‘p qirrali funksiyalarini boshqaradi.

Ijtimoiy–falsafiy yondashuvlar madaniyatni ikki asosiy jihat orqali o‘rganadi:

1. **Transformatsion yondashuv** - madaniyat doimiy o‘zgarishda bo‘lib, har bir davrning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitiga moslashadi. Bu yondashuvga ko‘ra, madaniy transformatsiya - bu jamiyatning umumiy tuzilishi va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar jarayonidir. Madaniyat faqat meros bo‘lib qolmaydi, balki global jarayonlar, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o‘zgarishlarga javoban doimo yangilanadi. Bunday transformatsiya jarayoni globalizatsiya kontekstida yangi madaniy me’yorlar va me’yoriy tizimlarni shakllantiradi.
2. **Identitet yondashuvi** - madaniyat milliy va etnik identitetni shakllantiruvchi omil sifatida qaraladi. Bu yondashuv madaniyatni shaxslar va guruhlar o‘zlarini aniqlaydigan va boshqalar bilan farqlaydigan ijtimoiy «kimlik» sifatida ko‘radi. Masalan, **Cultural identity theory** nuqtai nazariga ko‘ra, madaniy identitet shaxslararo muloqot va ijtimoiy tajribalar orqali doimiy

ravishda shakllanadi, o‘zgaradi va boshqariladi - bu jarayon shaxslar o‘z madaniy identitetini global kontekstda anglashga xizmat qiladi.

Ushbu yondashuvlar Turkiy xalqlar madaniyati transformatsiyasini tahlil qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki madaniyat:

1. **Jamiyat taraqqiyoti** bilan bog‘liq ijtimoiy institutlar, qadriyatlar va me’yorlar tizimini shakllantiradi;
2. **Modernizatsiya jarayoni** orqali yangi madaniy fenomenlar va qadriyatlarni joriy qiladi;
3. **Milliy identitetni mustahkamlash** orqali turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlaydi.

Modernizatsiya kontseptsiyasi madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning modernlashtirilishi jarayoni, ya’ni an’anaviy qadriyatlar tizimidan zamonaviy qadriyatlarga o‘tish, ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatadi - bu jarayon axloqiy me’yorlar, ijtimoiy tuzumlar, ta’lim, texnologiya va iqtisodiy hayotda sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, bu transformatsiya qadriyatlar, odatlar va jamiyat institutlarining birgalikda yangilanishi jarayonini anglatadi, buning natijasida yangi ijtimoiy strukturaviy xususiyatlar shakllanadi.

Nazariy adabiyotlarda madaniyat va jamiyat munosabatlarini yoritishda turli sotsiologik yondashuvlar mavjud. Masalan, sotsiologlar madaniyatni iqtisodiy tuzilishdan mustaqil bo‘lmagan ijtimoiy funksiya deb hisoblaydi va uni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, antropologik tadqiqotlar madaniyatni individlarning o‘z dunyosini anglash, ishonchlar va qadriyatlar tizimini yaratish orqali ijtimoiy hayotga ta’sir etuvchi omil sifatida qaraydi.

Turkiy xalqlar madaniy transformatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, madaniyat nafaqat tarixiy merosni aks ettiradi, balki jamiyat taraqqiyotida faollik, o‘zgarishga moslashish va modernizatsiya jarayonlarida muhim vosita hisoblanadi. Turkiy xalqlar misolida madaniyat - jamiyatning

ijtimoiy-normativ tizimini, identitetni, qadriyatlar majmuasini shakllantirib, ularni vaqt o‘tishi bilan yangilaydi va global jarayonlar bilan moslashtiradi.

III. Madaniy transformatsiyaning tarixiy va ijtimoiy konteksti

1. O‘zbekiston misolida

O‘zbekiston madaniyati qadimdan boy tarixiy merosga ega bo‘lib, uning ildizlari miloddan oldingi davrlardagi So‘g‘diyona va Xorazm madaniy an’analariga borib taqaladi. Xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar VIII–X asrlarda Islom madaniyati va ilm-fan markazlariga aylangan, bu esa hududda me’moriy obidalar, ilmiy maktablar va adabiyotni rivojlantirishga zamin yaratgan.

XX asr boshlarida mustaqil adabiyot va drama maktabi vujudga keldi. Jadid adabiyotining yetakchi vakillaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy (1879–1929) o‘z asarlarida milliy ma’rifatni, ijtimoiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlab, o‘zbek adabiyotining modern shakllanishiga katta hissa qo‘shdi. U bilan birga milliy adabiyot rivojiga Abdulla Qodiriy (1894–1938) ham muhim hissa qo‘shgan bo‘lib, uning “O‘tgan kunlar” romani o‘zbek realist adabiyotining klassik namunasi sanaladi.

1924–1991 yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSR madaniyati sovet markazlashgan ideologiyasi ostida rivojlandi. Bu davr madaniyat siyosati madaniy muassasalarni davlat nazorati ostiga olib, rasmiy ideologik yo‘nalishda kino, teatr va adabiyot sohalarida yagona siyosat yuritildi. Shunga qaramay, mahalliy madaniy elementlar ham saqlanib, sovet arxitekturasida milliy motivlar aks ettirildi - masalan, 1970 yilda Toshkentda qurilgan **O‘zbekiston Tarixi davlat muzeyi** o‘z arxitekturasi bilan mahalliy va sovet estetikasi uyg‘unligini ko‘rsatadi.

1991 yil 1 sentyabrda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniy transformatsiya yangi bosqichga ko‘tarildi. Mustaqillik yillarida milliy madaniy merosni tiklash, tarixiy shaxslar va voqealarni qayta e’tirof etish jarayoni kuchaydi. Shu maqsadda **Toshkentda 1996 yilda Amir Temur davlat muzeyi** ochildi - bu milliy tarix va madaniyatni modern kontekstda namoyish etuvchi muhim madaniy markazdir.

Mustaqillikdan so‘ng milliy urf-odatlar, xalq amaliy san’ati va madaniy an’analar qayta tiklandi, restoratsiya ishlari amalga oshirildi hamda tarixiy shaharlar - Samarqand, Buxoro, Xiva-ning arxitektura yodgorliklari davlat tomonidan qayta tiklanib, jahon miqyosida tan olindi.

So‘nggi yillarda madaniy innovatsiyalar - masalan, Toshkentda 2026 yil fevralda ochilishi rejalashtirilgan **Islom sivilizatsiyasi markazi** - O‘zbekistonning tarixiy an’analari bilan zamonaviy madaniyatni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Bu markaz markaziy Osiyoda maktablararo ilmiy-madaniy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston madaniy transformatsiyasi jarayoni milliy identitetni mustahkamlash, an’anaviy qadriyatlarni yangi ijtimoiy-madaniy kontekstda yangilash va global madaniy jarayonlarga moslashtirish yo‘nalishida davom etmoqda.

2. Turkiya misolida

Turkiya madaniyati uzoq tarixga ega bo‘lib, uning transformatsiyasi 20-asr boshida tubdan o‘zgarishlar orqali yangi bosqichga ko‘tarildi. 1923-yil 29-oktabrda **Mustafa Kamol Atatürk boshchiligida Turkiya Respublikasi e’lon qilinganidan so‘ng,** turk jamiyati va madaniyati modernizatsiya siyosatining markaziga aylandi. Bu jarayon siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy islohotlarni o‘z ichiga oldi.

Atatürk islohotlari doirasida madaniyat sohasida quyidagi muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi:

Lotin alifbosiga o‘tish: 1928-yilda arab yozuvidan lotin yozuv tizimiga o‘tildi, bu esa madaniy va ta’lim sohasida yangi davrni boshlab berdi va yozma madaniyatni keng ommaga yetkazishga xizmat qildi.

Til islohotlari: 1932-yilda tashkil etilgan **Türk Dil Kurumu** orqali turk tilini soddalashtirish, arab va fors so‘zlarini kamaytirish orqali milliy tilni mustahkamlash bo‘yicha til islohotlari olib borildi.

San’at va madaniy muassasalar: 1930-yilda Anqarada **Dövlət san’at va haykaltaroshlik muzeyi** ochilib, milliy va zamonaviy san’atni jamiyat hayotiga kiritishga xizmat qildi.

Milliy identitet shakllanishi: Respublika davrida davlat milliy ongni mustahkamlash maqsadida “Halkevleri” (Xalq uyushmalari) kabi madaniy-ma’rifiy institutlarni tashkil etdi, bu turk tilini, adabiyot va san’atni targ‘ib qildi.

Ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar: 1933-yilda nashr etila boshlagan **“Ülkü”** jurnali respublikaning asosiy madaniy qoidalari va Kemalizm tamoyillarini targ‘ib qildi.

Shu tarzda, Turkiyada madaniy transformatsiya **sekulyarizm, millatchilik va zamonaviylik** jihatlariga yo‘naltirilib, an’anaviy Islom madaniyati bilan modern G‘arb madaniyati orasidagi uyg‘unlik va ziddiyatlarni o‘zida mujassam etti. Bu transformatsiya turk xalqining milliy identitetini mustahkamlash, til va madaniyatni yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish jarayoni sifatida amalga oshdi.

3. Ozarbayjon misolida

Ozarbayjon madaniyati ham tarixan uzoq rivojlanish jarayonidan o‘tgan bo‘lib, uning transformatsiyasi milliy uyg‘onish davridan boshlangan. XIX asr oxiri va XX asr boshida **Ozarbayjon milliy uyg‘onishi** davrida ta’lim, matbuot va san’at faoliyati faollashdi, bu esa milliy ong va milliy madaniyatning shakllanishiga asos soldi. O‘sha davrda, masalan, **1875-yilda Hasan bey Zardabi asos solgan “Akinchi” gazetasi** zamonaviy gazeta madaniyati va milliy tilni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi (bu fakt ko‘plab tarixiy manbalarda qayd etiladi).

Sovet davri (1920–1991) davomida Ozarbayjon madaniyati ham markazlashgan holatda rivojlandi. Bu davrda Boku shahrida **1939-yilda Nizomiy Ganjavi nomidagi Milliy adabiyot muzeyi** tashkil etilib, milli adabiyot merosi yig‘ildi va saqlandi.

Mustaqillikdan keyin (1991-yildan boshlab) Ozarbayjon madaniyatida milliy o‘zlikni tiklash, madaniy merosni qayta jonlantirish va zamonaviy madaniy shakllarni rivojlantirish jarayoni boshlandi. Buning namunalaridan biri sifatida

2008-yilda Boku shahrida Xalqaro muğam markazi ochilib, milliy musiqa an’analarini saqlash va xalqaro maydonda targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Ozarbayjonda ijodiy transformatsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun innovatsion madaniy loyihalar, san’at festivallari va muzeylar tashkil etilmoqda (masalan, **“From Waste to Art” muzeyi - 2015 yilda ochilgan**).

Bugungi Ozarbayjon madaniy transformatsiyasi **milliy an’analar va global madaniyat** o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, milliy madaniyatni tarixiy ildizlardan zamonaviy shakllarga inkorporatsiya qilish orqali amalga oshmoqda.

Turkiy xalqlar madaniy transformatsiyasi

Mamlakat	Davr / Yil	Madaniy transformatsiya voqealari / xususiyatlar
O‘zbekiston	VIII–X asr	Islom madaniyati kirib kelishi, me’moriy obidalar rivoji, Samarqand va Buxoro markaziy ilmiy va madaniy markazlarga aylanishi
	1879–1929	Milliy adabiyot va dramaturgiya rivoji, ma’rifat targ‘ibi
	1894–1938	“O‘tgan kunlar” romani, realizm elementlari, milliy adabiyot rivoji
	1924–1991	Madaniyat markazlashuvi, ideologik rivojlanish, teatr va kino rivoji
	1991–hozir	Milliy madaniy meros tiklanishi, Amir Temur muzeyi (1996), urbanizatsiya, internet orqali yangi madaniy oqimlar

Turkiya	1923–1938	Turkiya Respublikasi e’lon qilinishi, sekulyar modernizatsiya, madaniy islohotlar, milliy identitet shakllanishi
	1928	Lotin alifbosiga o‘tish, yozma madaniyat rivoji
	1932	Türk Dil Kurumu tashkil etilishi, til islohotlari
	1930	Dövlət san’at va haykaltaroshlik muzeyi ochilishi
Ozarbayjon	XIX asr oxiri–XX asr bosh	Milliy uyg‘onish, “Akinchi” gazetasi, ta’lim va madaniyat rivoji
	1920–1991	Madaniyat markazlashuvi, Nizomiy Ganjavi Milliy adabiyot muzeyi (1939)
	1991–hozir	Mustaqillik, milliy identitetni tiklash, Xalqaro muğam markazi (2008), zamonaviy madaniyat loyihalari

IV. Ijtimoiy-falsafiy tahlil

Turkiy xalqlar madaniyati transformatsiyasi bir necha asosiy ijtimoiy va falsafiy jihatlar bilan xarakterlanadi. Bu jihatlar O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon tajribasida turlicha namoyon bo‘lsa-da, umumiy tendensiyalarni ko‘rsatadi.

Modernizatsiya va an’anaviy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyat. Madaniyat yangilanishi va modernizatsiya jarayoni ko‘pincha an’anaviy qadriyatlar bilan ziddiyatga keladi. Masalan, O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng urbanizatsiya,

internet va ommaviy axborot vositalari orqali yangi madaniy oqimlar paydo bo‘ldi, bu esa xalq urf-odatlari va dini qadriyatlar bilan ba’zan qarama-qarshi holatlarni yuzaga keltirdi. Turkiyada 1923–1938 yillardagi Atatürk islohotlari sekulyar modernizatsiyani joriy etib, an’anaviy Islom qadriyatlari bilan uyg‘unlashishni talab qildi. Ozarbayjonning mustaqillik yillarida esa milliy uyg‘onish va zamonaviy madaniy loyihalar (Xalqaro Muğam Markazi, “From Waste to Art” muzeyi) an’anaviy va zamonaviy madaniyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratildi.

Milliy identitet va globalizm. Madaniyat milliy ongni shakllantirish va saqlash vositasi sifatida ishlaydi, lekin global madaniy oqimlar milliy madaniyatni yangilashga majbur qiladi. Masalan, O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng milliy bayramlar va san’at shakllari global musiqiy, kino va san’at oqimlari bilan uyg‘unlashmoqda. Turkiyada lotin alifbosiga o‘tish va til islohotlari milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qilsa, zamonaviy G‘arb madaniyati elementlarini ham o‘z ichiga oldi. Ozarbayjon madaniyati ham mustaqillikdan keyin milliy uyg‘onish va globalizm o‘rtasida uyg‘unlikni topishga harakat qilmoqda, shu jumladan xalq musiqasi va zamonaviy san’at loyihalarida.

Jamiyat taraqqiyoti va madaniyat. Madaniyat jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlashda hal qiluvchi vosita hisoblanadi. O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjonda madaniy loyihalar orqali ijtimoiy faollik rag‘batlantiriladi, ilm-fan, ta’lim va san’at rivojlantiriladi. Masalan, Turkiyada Halkevleri (Xalq uyushmalari) va Ozarbayjonda Muğam Markazi madaniyatni jamiyatning turli qatlamlariga yetkazish orqali ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, madaniy transformatsiya inson erkinligi, ma’naviy rivojlanish va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq. Madaniyat tarixiy ildizlar, ijtimoiy sharoit va zamonaviy global tendensiyalar bilan uyg‘unlashganda barqaror rivojlanadi. Shu bilan birga, madaniy transformatsiya insonning ijodiy erkinligini rag‘batlantiradi, jamiyatda etnik va madaniy diversifikatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi va yangi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiradi.

Natijada, Turkiy xalqlar madaniy transformatsiyasi faqat tarixiy jarayon sifatida emas, balki **ijtimoiy-falsafiy hodisa** sifatida ham qaraladi, unda **an’anaviy**

qadriyatlar, milliy identitet va global madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlikning doimiy izlanishi namoyon bo‘ladi.

V. Xulosa

Turkiy xalqlar madaniyati transformatsiyasi murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon tajribasini solishtirish shuni ko‘rsatadiki:

1. Har bir mamlakatda madaniyat modernizatsiya jarayonida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.
2. Milliy qadriyatlar va global madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlik ijtimoiy barqarorlik va madaniy identitetni shakllantiradi.
3. Falsafiy tahlil madaniyatni nafaqat estetik, balki ijtimoiy va ma’naviy rivojlanish vositasi sifatida baholash imkonini beradi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda Turkiy xalqlar madaniyatining globalizm sharoitida o‘zgarishi va yangi madaniy tendensiyalar tahlili chuqurlashtirilishi lozim.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR

1. **Abduqaxorova, F.** Türklük kimliği ve modernleşme: Dil politikası bağlamında Türk dünyası [Elektron resurs]. — URL: https://universalconference.us
2. **Akyildiz, S., Carlson, R.** (eds.). Social and cultural change in Central Asia: The Soviet Legacy [Elektron resurs]. — Routledge. — URL: https://www.routledge.com
3. **Avazbekova, B. D., Maxammatjonova, Z. M.** Tarixiy ildizlardan globallashuvgacha: Turkiy xalqlar o‘rtasidagi til va madaniyat uyg‘unligi [Elektron resurs]. — URL: https://scientific-jl.com
4. **Wikipedia.** Cultural identity theory [Elektron resurs]. — URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Cultural_identity_theory

5. **European Proceedings of Social and Behavioural Sciences.** Social and cultural transformations in the context of modern globalism [Elektron resurs]. — URL: https://www.europeanproceedings.com
6. **Gabora, L.** How does culture evolve? [Elektron resurs]. — URL: https://arxiv.org/abs/2406.15464
7. **Qoraboyev, U.** O‘zbekiston madaniyati [Elektron resurs]. — URL: https://akbt.tkti.uz
8. **Sherefetdinova, E. R.** Globalization and the shifting sands of cultural identity [Elektron resurs]. — URL: https://scholar.kokanduni.uz
9. **Turkiy xalqlarning ma’naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati.** II Xalqaro konferensiya materiallari [Elektron resurs]. — URL: https://conferences.tsuull.uz
10. **Wikipedia.** Cultural turn in sociology [Elektron resurs]. — URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Cultural_turn

ZAMONAVIY INGLIZ TILI LEKSIKASINING O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI VA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR TAHLILI

Narzulloyeva Maftuna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilining global til sifatidagi o‘rni va uning o‘zbek tili leksik qatlamiga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. Ayniqsa, texnologiya, biznes va kundalik muloqot jarayonida ingliz tilidan kirib kelayotgan o‘zlashma so‘zlar (borrowed words) hamda ularning o‘zbek tilidagi talaffuzi va ma’no ko‘lamidagi o‘zgarishlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yangi terminlarning adabiy me’yorlashuvi va imlo masalalari ilmiy manbalar asosida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: o‘zlashma so‘zlar, globallashuv, texnologiya, leksika, biznes terminologiyasi, adabiy me’yor, bilingualizm.*

Annotation. *This article analyzes the role of the English language as a global language and its influence on the lexical layer of the Uzbek language. In particular, borrowed words entering Uzbek from English in the fields of technology, business, and everyday communication are examined, as well as changes in their pronunciation and semantic scope in the Uzbek language. In addition, the standardization of new terms in the literary language and spelling issues are discussed on the basis of scientific sources.*

Key words: *borrowed words, globalization, technology, lexis, business terminology, literary norm, bilingualism.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль английского языка как глобального языка и его влияние на лексический состав узбекского языка. В частности, рассматриваются заимствованные слова, проникающие в узбекский язык из английского в сферах технологий, бизнеса и повседневного общения, а также изменения в их произношении и семантическом объёме в узбекском языке. Кроме того, на основе научных источников освещаются вопросы литературной нормализации новых терминов и орфографии.*

Ключевые слова: *заимствованные слова, глобализация, технологии, лексика, бизнес-терминология, литературная норма, билингвизм.*

KIRISH

Til - insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo‘lib, u jamiyatning taraqqiyoti, madaniy merosning davomiyligi va milliy o‘zlikni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Har bir xalqning tili uning boy o‘tmishi va kelajak poydevoridir. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tilning yuksak mavqeini ta’kidlab, “Til - shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir”, deya uning ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatini alohida e’tirof etgan. Insoniyatga berilgan ushbu bebaho ne’mat davrlar o‘tishi bilan rivojlanib, o‘zgarib boradi.

Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tili dunyoning eng nufuzli tillaridan biriga aylandi. Oxford English Dictionary (OED) ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur

tilning lug‘at boyligi 600 mingdan ortiq so‘zni tashkil etadi. Shunisi e’tiborliki, ingliz tilining leksik tarkibi boshqa tillardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar (borrowed words) hisobiga muntazam kengayib borishi bilan ajralib turadi. O‘zlashma so‘zlar deganda, boshqa tillardan qabul qilingan, ammo qabul qiluvchi tilning fonetik va semantik qoidalariga moslashgan birliklar tushuniladi. Hozirda ushbu jarayon o‘zbek tilida ham jadal kechmoqda.

Zamonaviy ingliz tilidan o‘zbek tiliga so‘z o‘zlashtirish asosan zamonaviy turmush tarzi va texnologik inqilob natijasida sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida inglizcha terminlar tilimizning ajralmas qismiga aylandi. Bugun yoshlar nutqida “kompyuter”, “fayl”, “sayt”, “server” kabi so‘zlar hech qanday tarjimasiz keng qo‘llanilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga chuqur kirib borishi natijasida Telegram yoki Instagram kabi platformalarga xos bo‘lgan “typing” (yozmoqda), “edit” (tahrirlash) yoki biror xabarni mustahkamlash ma’nosini anglatuvchi “pin” kabi tushunchalar kundalik muloqotimizdan mustahkam o‘rin egalladi.

Lingvist olima Gavhar Shamsiddinova ta’kidlaganidek, ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelayotgan ilmiy va texnologik terminlar til leksikasini boyitishga xizmat qiladi. Biroq olima bu jarayonda terminlarning tarjimasi va ularni standartlashtirish masalasi nihoyatda muhim ekanligini qayd etadi. Ya’ni, har bir yangi o‘zlashmani qabul qilishda uning adabiy tildagi muqobili va imlosi hisobga olinishi lozim.

Biznes va iqtisodiyot sohasida ham ingliz tilining ta’siri yaqqol seziladi. Global bozor munosabatlari rivojlanishi bilan o‘zbek tiliga “marketing”, “menejer”, “brend”, “startap” kabi iqtisodiy tushunchalar kirib keldi. Tadqiqotchi Marjona Sapayeva o‘z ilmiy ishlarida biznes va texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan inglizcha o‘zlashmalarni (loanwords) o‘zbek tilida ko‘p uchrashini global va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning tabiiy natijasi sifatida baholaydi. Bu so‘zlar nafaqat professional sohalarda, balki ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nutqida ham faol qo‘llanilmoqda.

Shunisi qiziqki, o‘zlashmalar faqatgina fan va texnika bilan cheklanib qolmay, og‘zaki nutq hamda media maydoniga ham kirib bormoqda. Masalan, kundalik

hayotda “yaxshi” so‘zi o‘rniga “OK” (o-key) so‘zini ishlatish deyarli odat tusiga kirdi. Shuningdek, media sohasidagi “serial”, “kasting”, “selfi” kabi atamalar ham tilimizning boyishiga sabab bo‘ldi. A. Madvaliyev tahriri ostida nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning 5-jildida ko‘plab inglizcha o‘zlashmalar, jumladan, “serial” so‘zi “ko‘p qismli film” sifatida izohlangan. Mazkur lug‘atda internet, kompyuter va marketing kabi atamalarning ilmiy asoslangan tavsiflari berilib, ularning adabiy me’yorlashuvi va imlo masalalari batafsil yoritib berilgan.

XULOSA

Ingliz tilidan o‘zlashma so‘zlarning kirib kelishi jamiyat uchun ma’lum darajada qulayliklar yaratadi. Bu jarayon ikki tilda bemalol muloqot qila oladigan bilingual (ikki tilli) shaxslar qatlamining shakllanishiga va jahon ilm-fani yutuqlaridan tezkor xabardor bo‘lishga yordam beradi.

Biroq, bu jarayonda milliy tilning o‘ziga xosligini saqlab qolish va imlo qoidalariga rioya qilish muhim masaladir. Hozirda ba’zi o‘rinlarda inglizcha transkripsiyaga ortiqcha berilish holatlari kuzatilmoqda. Masalan, tarixiy “Buxoro” nomining hujjatlarda inglizcha “Bukhara” shaklida yozilishi yoki tadbirkorlarning o‘z mahsulotlariga faqat inglizcha nom berishga intilishi shular jumlasidandir. Garchi inglizcha nomlar auditoriya e’tiborini tezroq jalb qilsa-da, ona tilimizning imlo me’yorlarini unutmaslik lozim. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zlashmalar tilni boyitadi, ammo ulardan oqilona va milliy til qoidalariga mos ravishda foydalanish tilimizning kelajagi uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Shamsiddinova G.** Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan ilmiy va texnologik terminlar: til leksikasini boyitish va standartlashuvi // Lingvistika: ilmiy maqola. — [Elektron resurs]. — Kirish manzili: https://inlibrary.uz
2. **Sapayeva M.** Business and Technology-related English Borrowings in Uzbek Publicism // Scientific Journal. — [Elektron resurs]. — Kirish manzili: https://scientific-jl.com

3. **Madvaliyev A.** O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

4. **Oxford English Dictionary.** The definitive record of the English language. — [Elektron resurs]. — Kirish manzili: https://www.oed.com

5. **Navoiy A.** Xamsa va boshqa asarlar. — Toshkent: Sharq, 2001.

THE URBAN MULTICULTURAL LANDSCAPE: LONDON AS HYBRID SPACE

Norbayeva Nasiba

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Abstract. *This paper examines how Zadie Smith shows London as a mix of cultures in her major works, especially White Teeth (2000) and NW (2012). Using postcolonial and spatial theory, particularly Homi K. Bhabha's ideas on hybridity and Henri Lefebvre's and Edward Soja's thoughts on space, the study looks at how the city acts as both a real and symbolic space for cultural negotiation, identity conflict, and socio-political tension. Smith’s London is a place where class, race, migration, and memory come together, creating a lively but fragmented urban experience. Instead of depicting the city as a joyful multicultural melting pot, Smith highlights the contradictions, alienation, and social gaps that exist within it. Characters like Samad Iqbal, Irie Jones, Natalie Blake, and Leah Hanwell show London as a liminal space, allowing for change while also creating instability. Ultimately, the paper claims that Smith’s portrayal of London reflects the psychological and structural challenges of modern urban life in a globalized, postcolonial Britain.*

Key words. *Multiculturalism, melting pot, hybrid space, hybridity, identity.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zadi Smitning yirik asarlarida, xususan White Teeth (2000) va NW (2012) romanlarida London shahrini madaniyatlar qorishmasi sifatida qanday tasvirlashi tahlil qilinadi. Tadqiqot postkolonial va makon nazariyalariga, ayniqsa Xomi K. Bhabhaning gibridlik haqidagi qarashlariga hamda Anri Lefevr va Edvard Sojaning makon konsepsiyalariga tayanadi. Unda shahar madaniy muzokaralar, shaxsiy identifikatsiya ziddiyatlari va ijtimoiy-siyosiy tarangliklar kechadigan ham real, ham ramziy makon sifatida talqin etiladi. Zadi Smit yaratgan London sinf, irq, migratsiya va xotira omillari tutashgan nuqta bo‘lib, jonli, biroq parchalangan shahar tajribasini yuzaga keltiradi. Muallif shaharni quvonchli multikultural “eritma qozon” sifatida ideallashtirish o‘rniga, uning ichki qarama-qarshiliklari, begonalashuv holatlari va ijtimoiy tafovutlarini ochib beradi. Samad Iqbol, Iri Jons, Natali Bleyk va Lia Hanvell kabi qahramonlar Londonni o‘zgarish imkoniyatlarini taqdim etuvchi, ammo ayni paytda beqarorlikni ham keltirib chiqaruvchi liminal makon sifatida namoyon etadi. Xulosa qilib aytganda, maqolada Zadi Smit tasvirlagan London globallashgan, postkolonial Britaniyada zamonaviy shahar hayotiga xos bo‘lgan psixologik va strukturaviy muammolarni aks ettirishi ta’kidlanadi.*

Kalit so`zlar. *Multikulturalizm, erituvchi qozon, gibrid makon, gibridlik, identitet.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается, каким образом Зэди Смит в своих ключевых произведениях, прежде всего в романах White Teeth (2000) и NW (2012), представляет Лондон как пространство культурного смешения. Опираясь на постколониальную и пространственную теорию, в частности на концепцию гибридности Хоми К. Бхабхи, а также на идеи Анри Лефевра и Эдварда Соджи о пространстве, исследование анализирует город как одновременно реальное и символическое поле культурных переговоров, конфликтов идентичности и социально-политического напряжения. Лондон в интерпретации Зэди Смит предстает местом пересечения классовых, расовых, миграционных и мемориальных процессов, формирующих*

динамичный, но фрагментированный городской опыт. В отличие от представления города как гармоничного мультикультурного «плавильного котла», писательница акцентирует внимание на внутренних противоречиях, состояниях отчуждения и социальных разрывах, присущих городскому пространству. Такие персонажи, как Самад Икбал, Айри Джонс, Натали Блейк и Лиа Хэнуэлл, демонстрируют Лондон как лиминальное пространство, открывающее возможности для трансформации, но одновременно порождающее нестабильность. В заключение в статье утверждается, что изображение Лондона у Зэди Смит отражает психологические и структурные вызовы современной городской жизни в условиях глобализированной, постколониальной Британии.

Ключевые слова: *мультикультурализм, «плавильный котёл», гибридное пространство, гибридность, идентичность*

Introduction. London has long been seen as a cultural crossroads, a city shaped by its colonial history, migration, class struggles, and ethnic diversity. In Zadie Smith's fiction, London serves not just as a backdrop but as a character on its own, complex and contradictory. It is deeply connected to the identities of its residents. Her portrayal of urban multiculturalism challenges simple stories of harmony or celebration. Instead, she presents London as a mixed space, where different cultures meet, creating tension, change, and fragmentation. This paper examines how Zadie Smith depicts London as a mixed urban space in her novels, especially White Teeth (2000) and NW (2012). Using postcolonial theory, particularly Homi Bhabha's idea of hybridity and Edward Soja's thoughts on space, it looks at how the city influences the lives, relationships, and identities of its people. Through the blending of social spaces, cultural encounters, and changes from one generation to the next, Smith's London becomes a place where identity is both lived and challenged. The city is not a neutral or passive setting; it acts as a strong force that reflects and shapes the mixed experiences of postcolonial individuals.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqola xalqaro pedagogik atamalarni o‘rgatishda tarjima va interpretatsiya mashqlarining o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga, ularning ta’lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlarini ochib berishga hamda terminologik kompetensiyani rivojlantirishdagi rolini asoslashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xalqaro pedagogik atamalarni o‘rgatishda tarjima va interpretatsiya mashqlarining o‘rni masalasi zamonaviy ta’lim va tarjimashunoslik tadqiqotlarida tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Globallashuv sharoitida ta’lim jarayonida xalqaro pedagogik diskursning kengayishi pedagogik terminlarni nafaqat lug‘aviy jihatdan tarjima qilish, balki ularning mazmunini chuqur talqin etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish muhim nazariy va metodik asoslarni aniqlash imkonini beradi.

Tarjima va interpretatsiyaning nazariy asoslari masalasida Lutfullayev P.M. tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Muallif tarjimaning interpretativ nazariyasi (Interpretative Theory of Translation)ga tayangan holda tarjima jarayonida natijadan ko‘ra mazmunni tushunish va qayta ifodalash jarayoniga ustuvor ahamiyat berilishini asoslaydi [2;155-158-b]. Ushbu yondashuv xalqaro pedagogik atamalarni o‘rgatishda ayniqsa muhim bo‘lib, chunki pedagogik terminlar ko‘pincha muayyan madaniy, metodologik va konseptual yuklamaga ega bo‘ladi. Tadqiqotda tarjima va interpretatsiya jarayoni uch bosqich — mazmunni tushunish, deverbalizatsiya va qayta ifodalash orqali amalga oshirilishi ta’kidlanadi. Bu yondashuv pedagogik terminlarni o‘rgatishda tarjima mashqlarini interpretatsiya mashqlari bilan uyg‘un holda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Interpretativ nazariyaga oid xorijiy tadqiqotlar ham ushbu fikrlarni tasdiqlaydi. Xususan, D. Selescovitch va M. Lederer tarjima jarayonida so‘z shakliga emas, balki ma’noga e’tibor qaratish zarurligini asoslab, bu yondashuv ta’lim jarayonida terminologik kompetensiyani rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatadi.[3]. Ularning tadqiqotlarida tarjima va interpretatsiya mashqlari

talabalarning analitik tafakkuri, kontekstual tahlil ko‘nikmalari va kasbiy nutq madaniyatini rivojlantiruvchi muhim didaktik vosita sifatida talqin etiladi. Ushbu qarashlar xalqaro pedagogik atamalarni o‘rgatishda tarjimani oddiy lingvistik amal emas, balki mazmuniy-tahliliy jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Shananova L.D. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tarjima jarayonida frazeologik atamalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan bo‘lsa-da, ushbu ish xalqaro pedagogik terminlarni o‘rgatish masalasiga ham metodologik jihatdan yaqin turadi. [4; 146-149-b]. Muallif frazeologik birliklarni tarjima qilishda nafaqat til bilimlari, balki madaniy va tarixiy kontekstni chuqur anglash zarurligini ta’kidlaydi. Bu fikr xalqaro pedagogik atamalarga ham to‘liq tatbiq etilishi mumkin, chunki pedagogik terminlar ko‘pincha muayyan ta’lim tizimi va pedagogik an’analarga bog‘liq holda shakllanadi. Shunday ekan, tarjima mashqlari bilan bir qatorda interpretatsiya mashqlarining qo‘llanilishi terminlarning mazmuniy noaniqligini bartaraf etishga xizmat qiladi .

Tarjimashunoslikdagi ekvivalentlik nazariyasi ham mazkur mavzuda muhim o‘rin tutadi. V.N. Komissarov, Y.I. Retsker, A.V. Kunin kabi olimlar tarjimada to‘liq va qisman ekvivalentlik, analogiya va tavsifiy tarjima usullarini ajratib ko‘rsatganlar [5]. Ushbu yondashuvlar pedagogik terminlarni o‘rgatishda tarjima mashqlarini turli darajada tashkil etish imkonini beradi. Masalan, ayrim xalqaro pedagogik atamalar uchun to‘liq ekvivalent mavjud bo‘lsa, boshqalari faqat tavsifiy yoki interpretativ yo‘l bilan tushuntiriladi. Bu esa talabalarda terminologik tafakkurni shakllantirishda interpretatsiya mashqlarining ahamiyatini oshiradi.

Xorijiy adabiyotlarda P. Newmark va M. Baker tarjimani madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida baholab, tarjimonni “madaniy vositachi” deb talqin qiladilar [6]. Ularning fikricha, terminlarni o‘rgatishda faqat lingvistik moslik emas, balki funksional va pragmatik moslik ham muhimdir. Bu yondashuv xalqaro pedagogik atamalarni o‘qitishda tarjima va interpretatsiya mashqlarini integratsiyalash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro pedagogik atamalarni o‘rgatishda tarjima va interpretatsiya mashqlari o‘zaro uzviy

bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Tarjima mashqlari terminlarning lug‘aviy va strukturaviy jihatlarini o‘zlashtirishga xizmat qilsa, interpretatsiya mashqlari ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, turli ta’lim kontekstlarida to‘g‘ri qo‘llash va kasbiy muloqotda samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu bois mazkur mashqlarni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish xalqaro pedagogik terminologiyani o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Xalqaro pedagogik atamalarni o‘rgatishda tarjima va interpretatsiya mashqlari zamonaviy ta’lim jarayonining muhim metodik vositalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida ta’lim tizimlari o‘rtasidagi hamkorlik kengayib, xalqaro ilmiy-pedagogik diskurs faol rivojlanayotgan bir paytda pedagogik terminlarni chuqur va mazmunli o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, kompetensiyaga asoslangan ta’lim, inklyuziv ta’lim, konstruktiv yondashuv, formatif baholash kabi xalqaro miqyosda keng qo‘llanilayotgan tushunchalarni to‘g‘ri anglash va ulardan samarali foydalanish pedagog va talabalar oldida dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda [7].

Tarjima va interpretatsiya mashqlari xalqaro pedagogik atamalarni o‘rganishda terminlarning mohiyatini chuqur tushunish, ularni kontekstga mos qo‘llash hamda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mashqlar orqali talabalar terminlarni shunchaki so‘zma-so‘z tarjima qilish bilan cheklanib qolmay, balki ularning pedagogik mazmuni, nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini tahlil qilishga o‘rganadilar. Natijada, pedagogik atamalar professional nutqning faol elementiga aylanadi.

Tarjima mashqlari xalqaro pedagogik terminlarni ona tilidagi ekvivalentlari bilan qiyoslash asosida olib boriladi. Masalan, *inclusive education*, *scaffolding*, *learner-centered approach*, *formative assessment* kabi terminlarni tarjima qilish jarayonida talabalar ularning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda, mazkur atamalarning ta’lim tizimidagi vazifasi va qo‘llanish sohalarini aniqlaydilar. Bu jarayonda terminologik aniqlik, semantik moslik va ilmiy izchillik muhim o‘rin

tutadi. Tarjima mashqlari talabalarda terminologik savodxonlikni rivojlantirib, ilmiy matnlar bilan ishlash koʻnikmalarini mustahkamlaydi.

Biroq xalqaro pedagogik atamalarni oʻrgatishda faqat tarjima mashqlari bilan cheklanib qolish yetarli emas. Chunki koʻplab pedagogik terminlar muayyan madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekst bilan bogʻliq holda shakllangan boʻlib, ularni soʻzma-soʻz tarjima qilish mazmunning toʻliq ochilishiga xizmat qilmaydi. Shu nuqtayi nazardan, interpretatsiya mashqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Interpretatsiya mashqlari talabalardan terminni nafaqat tarjima qilishni, balki uning pedagogik jarayondagi oʻrni, didaktik vazifasi, amaliy qoʻllanilishi va madaniy kontekstini izohlashni talab qiladi [8].

Masalan, *scaffolding* termini tarjima jarayonida “qoʻllab-quvvatlash” yoki “bosqichma-bosqich yordam” deb izohlanishi mumkin. Biroq interpretatsiya mashqlari orqali talabalar ushbu tushunchaning konstruktiv pedagogika doirasidagi mazmuni, oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi hamkorlikdagi roli, shuningdek, ta’lim jarayonida mustaqil oʻrganishni rivojlantirishdagi ahamiyatini anglab yetadilar. Xuddi shuningdek, *inclusive education* atamasi faqat “inklyuziv ta’lim” deb tarjima qilinib qolmay, balki uning teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat va ta’limda inklyuziv muhit yaratish bilan bogʻliq konseptual asoslari interpretatsiya qilinadi.

Tarjima va interpretatsiya mashqlari talabalarda tahliliy va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantiradi. Terminlarni solishtirish, ularning oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlash, turli ta’lim tizimlarida qoʻllanilishini tahlil qilish orqali talabalar pedagogik tushunchalarni chuqurroq anglay boshlaydilar. Bu jarayon ularda ilmiy tafakkur, mantiqiy xulosa chiqarish va kasbiy pozitsiyani asoslash qobiliyatini shakllantiradi.

Shuningdek, ushbu mashqlar madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro pedagogik atamalar turli madaniy muhitlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Tarjima va interpretatsiya mashqlari orqali talabalar pedagogik terminlarning madaniy konnotatsiyalarini anglaydi, ularni milliy ta’lim amaliyoti bilan solishtirish imkoniyatiga ega boʻladi. Bu esa global

pedagogik tajribani qabul qilish va uni mahalliy sharoitga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi [9].

Tarjima va interpretatsiya mashqlarining yana bir muhim jihati — pedagogik terminologiyani boyitish va tizimlashtirishdir. Talabalar xalqaro atamalar bilan ishlash jarayonida yangi tushunchalarni o‘zlashtiradi, ularni ilmiy nutqda to‘g‘ri qo‘llashga o‘rganadi. Natijada, pedagogik diskurs yanada boyib, ilmiy muloqot sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi. Bu holat, ayniqsa, ilmiy maqolalar yozish, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va akademik hamkorlikni rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Ahamiyatli jihatlardan yana biri shundaki, tarjima va interpretatsiya mashqlari xalqaro ta’lim tajribalarini tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. Xorijiy ilmiy manbalar, ta’lim dasturlari va pedagogik modellar bilan ishlash jarayonida talabalar terminlarning mazmunini to‘g‘ri anglab, ularni tanqidiy baholashga o‘rganadilar. Bu esa zamonaviy pedagogik yondashuvlarni chuqur o‘zlashtirish va ularni amaliyotga joriy etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [10].

Xulosa qilib aytganda, xalqaro pedagogik atamalarni o‘rgatishda tarjima va interpretatsiya mashqlari terminlarni shunchaki yodlashdan ularni ongli va maqsadli qo‘llash darajasiga olib chiqadi. Ushbu mashqlar orqali talabalar pedagogik terminlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglaydi, ularni turli kontekstlarda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda professional pedagogik nutqni shakllantiradi. Natijada, tarjima va interpretatsiya mashqlari zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogik kompetensiyani rivojlantirishning muhim metodik vositasiga aylanadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida xalqaro pedagogik atamalarni o‘rgatishda tarjima va interpretatsiya mashqlari ta’lim jarayonining muhim metodik tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu mashqlar pedagogik terminlarning lug‘aviy ma’nosini aniqlash bilan birga, ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, turli ta’lim kontekstlarida to‘g‘ri va ongli qo‘llash imkonini yaratadi. Tarjima mashqlari terminologik aniqlik va ilmiy izchillikni ta’minlasa,

interpretatsiya mashqlari pedagogik tushunchalarning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati hamda madaniy kontekstini yoritishga xizmat qiladi. Natijada, talabalar va bo‘lajak pedagoglarda tahliliy va tanqidiy fikrlash, kasbiy muloqot hamda madaniyatlararo kompetensiyalar izchil shakllanadi. Shuningdek, ushbu mashqlar xalqaro ta’lim tajribalarini tahlil qilish va ularni milliy ta’lim amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, tarjima va interpretatsiya mashqlarini ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish xalqaro pedagogik terminologiyani samarali o‘zlashtirish va ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni [Elektron resurs]. — Kirish rejimi: https://lex.uz/ru/docs/-4545884
2. **Lutfullayev Po‘latxon Muxibullayevich** Tarjima va interpretatsiyaning nazariy va metodik xususiyatlari // Строительство и образование. — 2025. — Vol. 4, No. 1. — B. 155–158.
3. **Danica Seleskovitch**, **Marianne Lederer** Pédagogie raisonnée de l’interprétation. — 2002.
4. **Shananova Laylo Djumaboyevna** Tarjima jarayonida frazeologik atamalarning o‘rni va ahamiyati // European Science International Conference: Theory of Scientific Researches of Whole World. — 2023. — B. 146–149.
5. **Vladimir N. Komissarov** Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). — 1990.
6. **Peter Newmark** A Textbook of Translation. — 1988.
7. **Jack C. Richards**, **Theodore S. Rodgers** Approaches and Methods in Language Teaching. — 3rd ed. — 2014.

8. **Michael Kelly** et al. European Profile for Language Teacher Education: A Frame of Reference. — 2004.
9. **Christiane Nord** Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. — 1997.
10. **María González Davies** Multiple Voices in the Translation Classroom: Activities, Tasks and Projects. — 2004.

THE IMPORTANCE OF STRUCTURAL AND CONTEXTUAL FACTORS IN TRANSLATION

Sarsenbaeva Zoya Jangabay kizi
Head of the department of Pedagogy and Languages
Yusupjanova Aziza Xoshimjanovna
Institute of Social and Political sciences

Annotation. *This article describes the problem of translating Arabic phraseological units from semantic and cultural perspectives. It demonstrates that the meaning of phraseological expressions is not derived from the sum of individual words, but is formed through their structural organization, syntactic arrangement, and contextual usage. The study draws on the theoretical views of prominent Russian linguists such as V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, and Yu.N.Karaulov, as well as on the ideas of influential Arab linguists including Tammam Hassan, Ibrahim Anis, and Abd al-Qahir al-Jurjani. Using selected examples from Arabic, the article shows that literal translation often leads to semantic distortion, while semantic and functional translation strategies ensure greater adequacy and accuracy. The article also emphasizes that successful translation of Arabic idiomatic expressions requires*

not only profound linguistic competence but also a deep understanding of cultural context.

***Keywords**: phraseological units, Arabic language, translation of idioms, semantics, cultural context, figurative meaning, literal translation, translation theory.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada arab tilidagi frazeologik birliklarni tarjima qilish muammosi semantik va madaniy nuqtayi nazardan yoritiladi. Frazeologik ifodalarning ma'nosi alohida so'zlar yig'indisidan kelib chiqmasdan, balki ularning strukturaviy tashkil topishi, sintaktik joylashuvi hamda kontekstual qo'llanilishi orqali shakllanishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot V. V. Vinogradov, A. V. Kunin, Yu. N. Karaulov kabi mashhur rus tilshunoslarining nazariy qarashlari, shuningdek Tammam Hasan, Ibrohim Anis va Abdulqohir Jurjoniy singari yetuk arab tilshunoslarining ilmiy g'oyalari asosida olib borilgan. Maqolada arab tilidan tanlangan misollar orqali so'zma-so'z tarjima ko'pincha semantik buzilishlarga olib kelishi, semantik va funksional tarjima strategiyalari esa mazmunning yanada mos va aniq ifodalanishini ta'minlashi asoslab beriladi. Shuningdek, arab tilidagi iboralarni muvaffaqiyatli tarjima qilish nafaqat chuqur lingvistik bilim, balki madaniy kontekstni teran anglashni ham talab etishi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *frazeologik birliklar, arab tili, iboralarni tarjima qilish, semantika, madaniy kontekst, obrazli ma'no, so'zma-so'z tarjima, tarjima nazariyasi.*

Аннотация. *В статье рассматривается проблема перевода арабских фразеологических единиц с семантической и культурологической точек зрения. Показано, что значение фразеологических выражений не складывается из суммы отдельных слов, а формируется в результате их структурной организации, синтаксического расположения и контекстуального употребления. Исследование опирается на теоретические взгляды известных российских лингвистов В. В. Виноградова, А. В. Кунина, Ю. Н. Караулова, а также на идеи выдающихся арабских ученых — Таммама Хасана, Ибрахима Аниса и Абд аль-Кахира аль-Джурджани. На примерах из*

арабского языка показано, что буквальный перевод нередко приводит к семантическим искажениям, тогда как семантические и функциональные стратегии перевода обеспечивают большую адекватность и точность. В статье также подчеркивается, что успешный перевод арабских идиоматических выражений требует не только глубокой лингвистической компетенции, но и глубокого понимания культурного контекста.

Ключевые слова: *фразеологические единицы, арабский язык, перевод идиом, семантика, культурный контекст, образное значение, буквальный перевод, теория перевода.*

Introduction. The problem of idiomatic (phraseological) units has consistently remained one of the most significant objects of linguistic research and continues to retain its relevance in modern linguistics. Scholars representing different nations and linguistic traditions have expressed their theoretical views on this issue in numerous studies. V. V. Vinogradov interprets phraseological units as semantically indivisible and integral language units [1]. According to A. V. Kunin, phraseological units cause considerable difficulties in the process of translation, since their meaning does not derive from the sum of their component parts [2]. Yu. N. Karaulov, in turn, considers linguistic units in close connection with the cultural and mental experience of a nation [3].

Literature review. In Uzbek linguistics, the problem of idiomatic units has also been extensively investigated. In particular, Sh. Rahmatullayev defines idioms as semantically indivisible and stable units of meaning [4]. Research conducted in the fields of terminology and synonymy emphasizes that lexical units, their meanings, and their usage are inseparably connected with context. This approach is also an essential factor in analyzing the translation of idiomatic expressions from Arabic.

These theoretical perspectives demonstrate that, as in all languages, the issue of translating Arabic idiomatic expressions requires in-depth study, especially with regard to their semantic and cultural layers. During the translation process, the ability

to find a semantically equivalent variant demands from the translator a broad intellectual background and a high level of linguocultural competence.

Therefore, the aim of this article is to analyze, from both theoretical and practical perspectives, the significance of structural and contextual factors in the translation of Arabic idiomatic units. The academic Tamam Hassan (1918–2011) emphasizes that in Arabic, meaning is formed not through isolated words, but through the entire structure [5]. This principle necessitates special attention in the translation of idiomatic expressions. In his work Al-Lughah al-‘Arabiyyah: Ma‘naha wa Mabnaha (“The Arabic Language: Its Meaning and Structure”), he elaborates on the concepts of meaning, the relationship between structure and meaning, and context, providing a scientific justification for the view that Arabic idioms cannot be translated literally. In Arabic, meaning arises not from individual words, but from structure, syntactic arrangement, and context. Literal translation often fragments meaning and destroys the internal semantic integrity of idiomatic expressions.

The Egyptian philologist Ibrahim Anis (1906–1977), in his work Dalalat al-Alfaz (“The Semantics of Words”), distinguishes between literal, figurative, and metaphorical layers of word meaning depending on context [6]. Idioms are stable semantic units formed through historical development. Each idiom carries emotional and stylistic connotations. Relying solely on dictionaries when translating idioms constitutes a serious methodological error. Knowledge of the mentality, history, and culture of the target language community significantly facilitates accurate translation.

The Iranian Arab linguist, founder of Arabic rhetoric and a major theorist of syntax and semantics, Abd al-Qahir al-Jurjani (d. 1078–1079), in his work Dala’il al-I‘jaz, argues that meaning does not reside in individual words, but in their relationships—that is, meaning emerges within context [5; 6] and cannot be translated in isolation. Segmenting idiomatic expressions during translation represents a serious scholarly error. According to his theory, meaning is generated through word order and structural arrangement.

Discussion. The translation of phraseological units from Arabic presents a complex linguistic and cultural challenge due to the strong interdependence between structural form and contextual meaning. Phraseological units are not merely fixed lexical combinations; they are culturally embedded expressions whose meanings often cannot be deduced from their individual components. Therefore, an adequate translation requires a balanced consideration of both structural and contextual factors.

From a structural perspective, Arabic phraseological units are characterized by specific syntactic patterns, morphological features, and rhetorical devices such as parallelism, metaphor, and rhythm. These formal properties contribute to their expressive power and must be carefully analyzed in the translation process. Literal translation that ignores structural integrity often results in semantic distortion or stylistic inadequacy. However, strict structural preservation is not always possible in the target language, as grammatical and idiomatic systems differ significantly. Consequently, translators must determine which structural elements are essential for meaning and which may be adapted without loss of semantic value.

Contextual factors play an equally decisive role. The meaning of a phraseological unit is frequently activated only within a particular discourse situation, cultural environment, or pragmatic intention. Social norms, historical references, religious connotations, and emotional tones strongly influence interpretation. Without sensitivity to these contextual dimensions, even a structurally accurate translation may fail to convey the intended message. Thus, contextual equivalence often proves more important than formal similarity.

For example, if the Arabic expression **مرض قلوبهم في** is translated literally, it means “There is a disease in their hearts.” However, in terms of meaning, the phrase conveys “Their hearts are corrupted” or “Their faith is weak.” This expression is metaphorical: it does not refer to a physical illness, but rather reflects a spiritual and moral condition.

Let us analyze another expression: **بِالعِلْمِ قَلْبُهُ تَعَلَّقَ**.

Its literal translation is:

تعلّق — clung, became attached

قلبه — his heart

بالعلم — to knowledge

Thus, the literal rendering would be: “His heart clung to knowledge.” While lexically accurate, this translation is semantically weak. A more adequate rendering

would be: “He developed a deep love for knowledge” or “He became wholeheartedly devoted to knowledge.”

In this expression, what Ibrāhīm Anīs refers to as **دلالة مجازية** (metaphorical connotation) is operative. The notion of “clinging” does not denote a physical action but rather signifies spiritual attachment and strong inner inclination. In Arab culture, the “heart” is not merely a physical organ or a symbol of emotion; it represents the center of intention, will, and consciousness.

According to the principle of ʿAbd al-Qāhir al-Jurjānī, meaning is not produced solely by the verb **تعلّق**, but by the structural relationship formed through **ب + قلب**. If one were to say merely **تعلّق بالعلم**, the expression would sound general and emotionally neutral. In contrast, **تعلّق بالعلم قلبه** carries strong emotional intensity.

From Tammām Ḥassān’s perspective, meaning is generated by syntactic structure and word order. If the word order is altered, the meaning is distorted, for example: **تعلّق قلبه بالعلم**, which weakens the expressive force of the utterance.

Let us also analyze the expression **النَّجَاحِ مِفْتَاحُ وَالصَّبْرُ**:

وَ — and

الصبر — patience

مفتاح — key

النجاح — success

A literal translation would be: “And patience is the key of success.” Although grammatically correct, a more semantically appropriate rendering would be: “Patience is the fundamental factor of success” or “Patience plays a decisive role in achieving success.”

This expression conveys meaning through its entire structural configuration. Translating “patience” and “key” separately while ignoring context weakens the meaning. The word “key” is used metaphorically, not as a physical object, but as an abstract means that opens the way to success. Meaning emerges from the relational structure patience + key + success; therefore, fragmenting the expression in translation constitutes a methodological error.

The scholarly significance of such expressions lies in the fact that Arabic contains a high number of metaphorical phraseological units whose meanings are highly context-dependent. The translator must therefore choose semantic rather than purely literal equivalents. The structure, syntax, and context of an expression jointly produce its emotional and didactic meaning.

This article analyzes the translation of Arabic phraseological units from semantic and cultural perspectives. In linguistics, phraseological units have long been recognized as complex, multilayered formations whose meanings often do not result from the sum of their components, but are closely connected with context, cultural experience, and national mentality. This complexity necessitates a special methodological approach in translation.

The analysis of theoretical sources demonstrates that the views of V.V.Vinogradov and A.V.Kunin concerning the semantic indivisibility of phraseological units remain relevant for the translation of Arabic expressions. Yu.N.Karaulov's concept of the intrinsic relationship between language and culture further supports the interpretation of phraseological units not only as linguistic entities but also as cultural phenomena. This approach enables a more accurate understanding of the semantic layers of Arabic expressions and their adequate representation in translation [3]; [7]. The results of the study indicate that restricting translation to lexical equivalents alone is insufficient. The translator must consider the contextual function, stylistic coloring, and cultural load of an expression when selecting an equivalent. In certain cases, abandoning literal translation in favor of semantic or functional equivalents ensures greater naturalness and clarity of the translated text.

Conclusion. Thus, the process of translating phraseological units from Arabic requires not only profound linguistic competence but also cultural awareness and contextual sensitivity on the part of the translator. The theoretical perspectives and analyses presented in this article may serve as a methodological foundation for further research aimed at a more comprehensive exploration of the practical aspects of translating Arabic phraseology. The interaction between structure and context reveals that phraseological translation is not a mechanical operation but a creative

interpretative process. Translators must negotiate between fidelity to the source text and communicative effectiveness in the target language. This negotiation leads to various translation strategies, including functional substitution, descriptive paraphrase, cultural adaptation, and partial calque. Each strategy reflects a specific balance between structural preservation and contextual relevance.

Furthermore, the study demonstrates that translator competence plays a critical role in achieving phraseological adequacy. Linguistic knowledge alone is insufficient; intercultural competence and pragmatic awareness are equally essential. The translator acts as a mediator between linguistic systems and cultural worldviews, ensuring that phraseological meaning remains accessible to the target reader. The analysis confirms that structural and contextual factors are inseparable in the translation of Arabic phraseological units. Structural features determine formal organization and stylistic effect, while contextual factors ensure semantic accuracy and communicative appropriateness. Only through their integrated consideration can phraseological units be translated effectively. Future studies may further explore corpus-based analyses, comparative multilingual perspectives, and pedagogical applications of phraseological translation strategies. Such research will deepen understanding of Arabic phraseology and enhance the quality of intercultural communication through translation.

REFERENCES

1. **Виноградов В. В.** Русский язык (Лексикология и фразеология). — Москва: Наука, 1977.
2. **Кунин А. В.** Курс фразеологии современного английского языка. — Москва: Высшая школа, 1996.
3. **Караулов Ю. Н.** Русский язык и языковая личность. — Москва: Наука, 1999.
4. **حسان، تمام.** اللغة العربية معناها ومبناها. — القاهرة: عالم الكتب، 1994.
5. **أنيس، إبراهيم.** دلالة الألفاظ. — القاهرة: مكتبة الأنجلو المصرية، 1965.
6. **الجرجاني، عبد القاهر.** دلائل الإعجاز. — بيروت: دار المعرفة. — (турли нашрларда нашр йили фарқ қилади).
7. **Раҳматуллаев Ш.** Ўзбек тили фразеологияси. — Тошкент: Фан, 1982.
8. **Маҳмудов Н.** Тил ва маданият. — Тошкент: Мумтоз сўз, 2007.

9. **Sarsenbaeva Z., Sarsenbaeva R.** English Language Proficiency in Translation // *Interpretation and Researches*. — 2024.

GLOBAL IJTIMOIY-MADANIY O'ZGARISHLAR KONTEKSTIDA MA'RIFIY JAMIYAT VA YOSHLAR MA'NAVIYATI

Sayitqulov Doston O'tkir o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugun tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan,insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan, o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yoshlar ma'naviyatini asrash va ma'rifiy jamiyat qurish haqida gap boradi.*

Kalit so'zlar : *globallashuv, yoshlar ma'naviyati , ma'naviy tahdid, yot g'oyalar, ekstremizm, mafkuraviy immunitet, ma'naviy qashshoqlik, integratsiya, insonparvarlik.*

Abstract. *This article discusses the preservation of young people's spirituality in an extremely rapid and complex era that is changing at an accelerated pace and differs fundamentally from any period humanity has experienced before*

Key words*: Globalization,youth spirituality , moral threat , alien ideologies , extremism, ideological immunity , spiritual and moral degradation , integration , humanism.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос сохранения духовности молодежи в быстро меняющуюся и чрезвычайно сложную эпоху, которая принципиально отличается от всего, что когда-либо переживало человечество*

Ключевые слова *Глобализация,духовно-нравственные,духовная угроза, чуждые идеологии,экстремизм,идеологический иммунитет, духовная нищета,интеграция, человечество.*

Kirish. Bugun biz tez sur’atlar bilan o’zgarib borayotgan, inson hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o’ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz.Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.Abatta bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat bor.Ammo ko’pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg’otmoqda. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo’shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog’lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma’noda, globallashuv bu avvalo, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Globallashuv (lot.globus-shar,fr.Global-Umumiy)-obyektiv jarayon bo’lib, butun dunyo mamlakatlari o’rtasida o’zaro aloqadorlik va o’zaro hamkorlikning kengayob borishi natijasida paydo bo’lgan, yangi xalqaro tashkilotlar hamda ular faoliyatining taraqqiy etib borishi oqibatida vujudga kelgan xalqaro hamjamiyatning paydo bo’lishidir.Bugun “ globallashuv ” jarayonining qachon boshlanganligi va uning ilmiy iste’molga qachon kirganligi turli-tuman fikrlar bildirilmoqda va ularning ayrimlarida biri ikkinchisiga qarama-qarshi bo’lgan g’oyalarni ham ilgari surilmoqda. Jumladan, g’arb olimlaridan R.Qobden va J.Brayt kabilar globallashuv to’lqinlarini mamlakatlar o’rtasida erkin savdoning amalga oshuvi va uning natijasida iqtisodiyotdagi o’sish bilan bog’laydilar hamda uning boshlanishini XIX va XX asr bilan chegaralaydilar.Ular globallashuvning ikkinchi bosqichi yoki tiklanishini 1970-yillarning oxirlarida informatika va telekomunikatsiyada sodir

bo’lgan inqiloblar asosida boshlanganligini ta’kidlaydilar.Ularning fikricha Britaniya o’zining dengiz,industriya va moliyaviy qudrati bilangloballashuv to’lqinining birinchi bosqichi kafolati bo’lgan. Ular globallashuvning ikkinchi bosqichi yoki tiklanishini 1970-yillarning oxirlarida informatika va telekomunikatsiyada sodir bo’lgan inqiloblar asosida boshlanganligini ta’kidlaydilar.O’zbek olimlaridan filologiya fanlari doktori, professor Muhammadjon Xolbekovning fikricha ‘’ Insoniyat XXI aasrga qadam qo’yishi bilan bu atamaga moyillik sezildi va u hayotimizdan mustaqil o’rin oldi…miloddan avvalgi IV asrda yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy butun Osiyoni qurol kuchi bilan zabt qilib, aslida yarim dunyoni birlashtirmoqchi, qudratli davlat barpo etmoqchi bo’lgan va shu tariqa insoniyat tarixida globallashuv jarayonin boshlab bergan.” Olimning fikricha adabiyotga globallashuv jarayoni o’rta asrlarda (IV-XIV) ham sodir bo’lgan va insoniyat globallashuvning o’zgacha ko’rinishini boshdan kechirdi.Amir Temur davrida Sharq va G’arb mamlakatlari o’rtasida bevosita aloqalar va elchilar almashinuvi yo’lga qo’yilgan, insoniyat tarixida ilk bor o’zaro hamjihatlik, ya’ni globallashuvga intilish yuzaga kelgan edi. Bugun insoniyat globallashuv jarayonining ta’sirida jadal tezlashuvi sharoitida yashamoqda.Bu jarayonning ijobiy tomoni shundaki, qisqa vaqt ichida yer osti zaxiralarini hozirgi zamon texnika-texnologiyasi kuchidan foydalanib, qisqa muddatga o’zlashtirish hisobiga insonlarning yaxshi hayot kechirish imkoniyatlarini qo’lga kiritmoqdalar.

Muammo shundaki, agar mavjud resurslardan bugungi avlod foydalanadigan bo’lsa, kelajak avlod qanday hayot kechiradi,ularga nimalr qoladi ? O’zlashtirishning jadallashuvimavjud resurslarni tez tugashiga olib kelishini hisobga olsak ,kelajak insoniyatning hayot kechirish muhlati qisqarib,hozirgi zamon sivilizatsiyasi barbod bo’lmaydimi ?

Yoshlar ma’naviyati

O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch “ asarida ma’naviy tahdidlardan yoshlarni himoya qilish haqida fikrlar yuritiladi.Unda qayd etilishicha , globallashuv davrida

yoshlarimizning ma’naviy olamini yuksaltirish,ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash,axloqiy fazilatlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglash, ana shu fazilatlarga, xususiyatlarga ega bo’lish, ularga amal qiilib yashash-odamzotning ma’naviy boyligini ifoda etish qayd etiladi.Kitobda yozilishicha XXI asr intellektual izlanishlar natijasida yaratilgan mahsulotlariga tayanadigan asr.Bu asr kishilaridan, ayniqsa yoshlarni teran aqlni, kuchki bilimli , sog’lom fikrli bo’lishni talab etadi.Shu bilan birga I.Karimov ta’kidlaydi.”Biz bugun yoshlarimizning ma’naviy olamida bo’shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog’lom hayot tarzini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom tuyg’usini bolalik yoshdan boshlab shakllantirish zarur.

Yoshlar ma’naviyati dinamik hodisa , u har kuni , har bir ijtimoiy hodisa ta’sirida o’zgarishi mimkin.Buni hisobga olmay uyushtirilgan ommaviy-madaniy va ma’naviy ma’rifiy tadbirlar kutilgan natija bermaydi.Yoshlarning diniy oqimlarga kirib ketayotganiga qarshi biror ta’sirli ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil qilingani jamoatchillika ma’lum emas.Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yurtimizda ijimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, yoshlarni turli ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy vazifa bo’lib turibdi”. Bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o’zining milliy va strategic rejalariga erishish uchun “ Erkinlik va demokratiyani olg’a siljitish “ niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko’zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o’z vaqtida sezish , anglash kata ahamiyat kasb etadi.Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor yoshlarimizning ma’naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o’ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo’layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak hech qanday xato bo‘lmaydi.

2017-yilning 15-iyun kuni poytaxtimizda “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” mavzusida anjuman o’tkazildi. Unda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so’zlab, jumladan, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgantahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlatyoki

jamiyat yo’qligini qayd etdilar. “ Ayniqsa , xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatniqattiq xavotirga solayotgani alohida ta’kidlandi. Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o’quv dargohlarida, balki radio-televideniya, matbuot , internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot olmoqda.jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o’rab-chirmab, uni o’qima, buni ko’rma, deb bir tomonlama tarbiya berish , ularning atrofini temir devor bilan o’rab olish hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to’g’ri kelmaydi. Nega deganda , biz yutimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o’z oldimizga maqsad qilib qo’yganmiz.Yosh avlodimizni turli ma’naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug’laydigan buyuk xususiyatlar ,ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan nomaqul odatlar haqida ham ochiq so’z yuritishimiz zarur.Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug’chilik , mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to’g’risida o’ylashimiz lozim.

Xulosa. Dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro’y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to’qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko’rinishdagi tahdidlarga qarshi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa, bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni asrash uchunbor kuch-imkoniyatlarimizni safarbar etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Karimov I. A.** Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008. — 38 b.
2. **Masharipova K. G., Xo‘janova T. J.** Ma’naviyatshunoslik. — Toshkent: Fan ziyosi, 2022. — 184 b.

3. **Aminova M., Ro‘ziqulova M.** Globallashuv asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. — 6 b.

4. **Xajiyeva M. S., Xatamov F. F., Matyaqobuva F. F.** Globallashuv asoslari: o‘quv qo‘llanma. — Samarqand: SamDCHTI, 2023. — 118 b.

5. **Otamuratov S. O.** Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. — Toshkent, 2012.

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA SOVET MAFKURASI TA’SIRINING QARAMA-QARSHILIKLARI

Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna
Qo‘qon universiteti dotsenti

Annotasiya. *Kundalik hayot tarixini yoritish bugungi kun tadqiqotchilari orasida tobora ommalashib bormoqda. Mikrotarix bu – oddiy insonning shaxsiy tarixidan yuqoriga – davlat tarixiga qarab ko‘tarilib boriladigan tarix sohasidir. Jamiyat islohotlarining aholi hayotidagi aksini aniqlashda ham bu soha qo‘l keladi. Shu sababdan tadqiqotchi sifatida xalq ta'limi tizimi tanlab olindi.*

Tayanch so‘zlar: *maktab, o‘quvchi, o‘qituvchi, tajriba, qaror, ta'lim, muassasa, safarbarlik.*

Аннотация. *Освещение истории повседневной жизни становится все более популярным среди современных исследователей. Микроистория - это область истории, которая поднимается от личной истории обычного человека к истории государства. Эта область также полезна для определения отражения реформ общества в жизни населения. По этой причине в качестве исследователя была выбрана система народного образования.*

Ключевые слова: *школа, ученик, учитель, опыт, решение, образование, учреждение, мобилизация.*

Annotation*. The illumination of the history of everyday life is becoming increasingly popular among contemporary researchers. Microhistory is a field of history that rises from the personal history of an ordinary person to the history of a state. This area is also useful for determining the reflection of societal reforms in*

the lives of the population. For this reason, the public education system was chosen as the researcher.

Keywords: *school, student, teacher, experience, decision, education, institution, mobilization.*

KIRISH. Ta'lim har bir jamiyatning kelajagini ta'minlovchi ob'ektdir. Xalq ta'limi tizimi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirdi. Maktablarda o‘qitish muddatining o‘zgarishi, oliy ta'lim muassasalarining kengayib borishi shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, XX asrning 60-80-yillarida Respublika xalq ta’limi tizimi va undagi moddiy-texnik bazaning holati, bugungi kunda dolzarb bo‘lgan o‘qituvchi kasbiga qarashlarni o‘zgarib borishi haqidagi fikrlar yoritilgan.

Mazkur mavzu asosida alohida tadqiqot olib borilmagan. Muallif o‘z izlanishlarida arxiv hujjatlari, og‘zaki tarix intervyulari, davriy nashr materiallaridan foydalandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Bugungi va o‘tgan asrning geosiyosatiga nazar solinsa, dunyoning ikki qudratli davlatining doimiy raqobatiga guvoh bo‘lish mumkin. Xalq xo‘jaligining barcha sohalaridan, hatto harbiy sohagacha raqobatchi bo‘lgan bu davlatlar o‘rtasida XX asrning 50-yillarida xalq ta'limi tizimi islohotlari, o‘quvchi tarbiyasi va ta'limi yuzasidan qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Aslida bu musobaqaning kelib chiqishi sababi, sobiq Sovet davlati tomonidan 1957-yilda Erning birinchi sun'iy yo‘ldoshini kosmosga uchirilgani bo‘ldi. Xalq orasida Amerika ta'lim tizimidagi samaradorlik haqida shubha paydo bo‘ldi.[3, 82]

Masalaga oydinlik kiritish maqsadida Amerika Qo‘shma Shtatlarining mashhur “Life” jurnali tomonidan 1958-yilda tajriba o‘tkazildi. Qaysi davlatning xalq ta'limi tizimi afzalligini isbotlash uchun tashkil etilgan bu musobaqada sobiq Sovet Ittifoqining Moskva shahrida istiqomat qiluvchi Aleksey Kuchkov va 700 nomzodning orasidan tanlab olingan amerikalik Stiven Lapekas ishtirok etishdi. O‘quvchilar 16 yoshda edi. Musobaqaning shartlarida o‘quvchilarning shaxsiy hayotini va bo‘sh vaqtini to‘g‘ri rejalashtirishi, o‘quv mashg‘ulotlarda qatnashishi, o‘z ustida ishlashi va to‘garaklarga qatnashishi kabi omillar mavjud edi.[4, 128]

12 nafar jurnalistlardan iborat guruh tomonidan bir oy davomida ikki o‘quvchining hayotini kuzatib, natijalarni qayd etib borildi. Bu o‘tkazilgan tajribadan maqsad nima edi? Jurnalning tajriba natijalarini yoritgan soni 1958-yil mart oyida dunyo yuzini ko‘rdi. Maqola “Krizis va ta'lim” deb nomlanib, unda sovet

oʻquvchilari haftaning 6 kunini ta'lim olish bilan oʻtkazishini, bir qancha predmetlardan tashkil topgan oʻquv jarayoni anchagina murakkab va ilmiyligi, undan tashqari, sport bilan shugʻullanishini, boʻsh vaqtlarida esa badiiy kitoblar oʻqishi mumkinligi qayd qilingan. Ikki oʻquvchining oʻtkazgan har bir kunini tahlil qilgan jurnalistlar rus oʻquvchisi oʻz vaqtini besamar oʻtkazmaganligi, amerika oʻquvchisini dugonasi bilan soatlab vaqt sarflashini e'tirof etilib, bu jihatdan ota-onalar tomonidan singdirilgan tarbiyaga va tushunchaga ham baho berilgan. Musobaqada sovet oʻquvchisi – Aleksey Kuskov gʻolib chiqdi. Natijada Amerika ta'lim sohasining kamchiliklari e'tirof etildi va tegishli choralar koʻrishga harakat qilindi. Aslida kontenentlar oʻrtasidagi musobaqadan oʻquvchilarning oʻzlari bexabar edi. Ular jurnal chop etilgandan soʻngra xabar topdi.[7, 62]

Sovet davri ta'limida partiya siyosati katta ahamiyatga ega boʻlib, "sovet kishisi" nomiga munosib boʻlish uchun aholining deyarli 99 foizi harakat qilar edi. Shu sababdan boʻsh vaqtni bekorga oʻtkazmaslik, manfaatli ishlar bilan shugʻullanish uchun olib borilgan targʻibot ishlarining samarasi oʻlaroq, musobaqa davomida ta'lim tizimining ustunlik tomoni aniqlandi.

Umuman olganda, bugungi kunda respublikaning oʻtgan asrdagi tarixi tahliliga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlishga, davrning salbiy tomonlariga urgʻu berilayotgan bir vaqtda tarixchi davrga nisbatan xolislikni ustun qoʻymogʻi lozim. Davrda hukmron boʻlgan partiya targʻiboti, "katta ogʻamiz"ning qoʻl ostidagilarga nisbatan "mehribonlik" bilan olib borgan siyosati zamiridagi asl maqsadlarni tahlil qilishdan chetlashib, ta'limning samaradorligiga e'tibor qaratilsa, bugungi kunning zabardast olimu, akademiklarini etishtirib bergan, ota-onalarimiz faoliyat olib borgan xalq ta'limining ijobiy taraflari juda koʻp edi.[6, 67]

"Life" jurnalining tadqiqotidan soʻng Amerika tomonidan sovet ta'lim tizimiga qiziqish kuchaydi. Mashhur psixolog boʻlgan professor U.Brofenbrenner 1960-yilda birinchi marta Ittifoqqa keladi. SSSR Pedagogika Akademiyasi bilan olib borilgan tadqiqotlar davomida Toshkent shahridagi maktablarga ham tashrif buyurib, oʻquvchilar bilan suhbatlar olib borgan. Oʻzbek oʻqituvchilari bilan ham uchrashuvlar tashkillangan. "Bolalikning ikki olami. AQSh va SSSR bolalari" deb nomlangan asarida maktablardagi jamoa boʻlib ishlash, maqsad sari intilish kabi fazilatlar ustida tadqiqotlar olib bordi.[1, 9]

Boshqa davlatlar tomonidan tan olingan ta'lim tizimining oʻziga xos yutuqlari va kamchiliklari bor edi. Jumladan, ta'limga partiya targʻibotchisi, qishloq xoʻjaligining eng yaqin yordamchisi sifatida qarash tobora kuchayib borardi. Oʻzbekistonning qishloq hududlarida erta bahordan, to kech kuzgacha paxta dalasida yordamchi sifatida faoliyat koʻrsatgan oʻqituvchi va oʻquvchilarning bilim darajasining pasayib borayotgani davriy nashrlarda qayd etildi.[8, 431]

Oʻqituvchilarni qishloq xoʻjalik ishlariga jalb qilishda hukumat tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar katta rol oʻynadi. Jumladan, Oʻzbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasi 1949-yil 29-martda ”Oʻzbekistonda maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash va xalq maorifini yanada rivojlantirish toʻgʻrisida”gi Qonunni tasdiqladi. Qonun asosida respublikada oʻrta maktablarni politexnizasiyalashtirish borasida ishlar boshlab yuborildi. Sanoat korxonalari, kolxoz va sovxozlar maktablarni otaliqqa olib, ularni zarur asbob uskunalar bilan ta'minlab, maktab binolarini qurish, kengaytirish va ta'mirlashga, ustaxonalar va oʻquv xonalari tashkil etishga yordam berib turdilar. Bu esa ta'lim sohasini qishloq xoʻjaligiga bogʻlab qoʻyish uchun poydevor boʻlib xizmat qildi. Shuningdek, SSSR Ministrlar Sovetining “1954-1958-yillarda Oʻzbekiston SSRda paxtachilikni rivojlantirish” haqidagi qarori qabul qilindi. Unga asosan xalq ta'limi boʻlimlari qishloq maktablarini ish faoliyatini tubdan oʻzgartirishi lozim boʻlib, paxtachilik brigadalari tuzildi. [2, 18]

Paxta yigʻim-terimiga alohida tayyorgarlik koʻrildi. Oʻzbekiston Ministrlar Sovetining 1964-yil 7-sentyabrdagi “Paxta kampaniyasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi 145-A-sonli buyrugʻiga koʻra hududlarda terimchilarga xizmat koʻrsatish uchun avtoklublar tashkil etildi. Toshkentda-10, Sirdaryoda-15 ta, Buxoroda-7 ta, Samarqandda-12 ta, Fargʻonada-10, Andijonda-10 ta, Surxondaryoda-10 ta, Qashqadaryoda-2 ta, QQAAR-7 ta, Xorazmda-7 ta, jami 89 ta avtoklub tashkil etilgan . Bu avtoklublarga kinofilmlar koʻrsatish bilan birgalikda, targʻibotchilar guruhi ham biriktirilib, dala shiyponlarida ma'ruzalar oʻqilgan. Targʻibotchilar guruhi tarkibi asosan oʻqituvchilardan iborat boʻldi.[9, 54]

Bu kabi qarorlar har yili sentyabr oyida qabul qilinar, paxta mavsumi tugaguncha dalada yurgan xalq ta'limi ishtirokchilari, qish mavsumida tigʻizlashtirilgan darslarni chala oʻzlashtirishga majbur boʻlar edi. Bu holat mustaqillik yillarida ham davom etdi.[5, 47]

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 maydagi 349-son “Oʻzbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq oʻqituvchilarni obodonlashtirishning turli koʻrinishlariga, qishloq xoʻjalik ishlariga jalb qilinishi taqiqlandi. Qarorning ta'lim, sogʻliqni saqlash muassasalari, boshqa byudjet tashkilotlari xodimlarini, ta'lim muassasalari oʻquvchilari va talabalarini “majburiy mehnat”, shu jumladan rayon va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda koʻkalamzorlashtirish ishlari, mavsumiy qishloq xoʻjaligi ishlari, metall chiqindilari va makulatura yigʻish, shuningdek, boshqa turdagi mavsumiy ishlarga jalb qilish holatlarini zudlik bilan toʻxtatish va bunday holatlarga yoʻl qoʻygan mansabdor shaxslarga nisbatan qat'iy intizomiy choralar koʻrilishi haqidagi bandlari

o‘qituvchilarni bevosita ta'lim sohasi bilan shug‘ullanishga, o‘z ustida ishlashga vaqt ajratishi uchun sabab bo‘ldi.[10]

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda sovet davri o‘zining qarama-qarshiliklar bilan ajralib turadi. Bir tarafdan ta'lim tizimini rivojlantirish uchun olib borilgan islohotlar natijasida rivojlanish ko‘zga tashlangan bo‘lsa, boshqa tarafdan respublikaning ta'lim tizimi qishloq xo‘jaligi sohasiga tobora qaramlik botqog‘iga botib bordi. Oqibat o‘zini uzoq kuttirmadi. XX asrning 80-yillarida ta'lim korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lib qoldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Бронфенбреннер У.** Два мира детства: дети в США и СССР. — Москва: Прогресс, 1976. — 159 с.
2. **Қодиров И.** Народное образование в Узбекской ССР за 30 лет. — Ташкент, 1954. — С. 126.
3. **Шарипова Наргизахон Абдукаххоровна.** Процесс становления педагогических учебных заведений Узбекистана в 1945–1965 гг. // International Conference on Journal of Technical Research and Development. — Delhi, India, 1 December 2023.
4. **Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna.** O‘zbekistonda pedagogik bilim yurtlarining shakllanish jarayoni (1945–1965 yillar) // Science Promotion Conference. — 2023. — Vol. 4, No. 1.
5. **Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna.** O‘zbekistonda xorijiy tillarning o‘qitilish tarixi // Science Promotion Conference. — 2023. — Vol. 4, No. 1.
6. **Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna.** XX asrning 40–80 yillarida Farg‘ona vodiysi o‘qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari // Educational Research in Universal Sciences. — 2023. — Vol. 2, No. 16.
7. **Sharipova Nargiza, Ph.D.** History of Teacher Training System in Uzbekistan and Changes in It // Modern Journal of Social Sciences and Humanities. — 2023. — Vol. 22. — P. 63–68. — Кириш манзили: https://mjssh.academicjournal.io
8. **Sharipova N.** A Look at the History of Building Schools in Uzbekistan (50–70 Years of the 20th Century) // World Bulletin of Social Sciences. — 2023. — Vol. 26. — Кириш манзили: https://www.scholarexpress.net
9. **O‘zbekiston Milliy davlat arxivi.** 2487-fond, 6-ro‘yxat, 1796-ish, 54-varaq.
10. **Ўзбекистон Республикаси.** Ўзбекистон Республикасида мажбурий меҳнатга барҳам беришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида [Электрон ресурс]. — Кириш манзили: https://lex.uz/docs/3730223

JADIDCHILIK VA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY IJODI

Shirinboyeva Hilola Xolbek qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr boshida Turkiston hududida vujudga kelgan jadidchilik harakati, uning yuzaga kelish sabablari va faoliyatining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Jadidlar faoliyati misolida o‘zbek ziyolilarining xalqni ma’rifatli qilish, milliy uyg‘onish va ozodlik g‘oyalarini targ‘ib etishga bo‘lgan intilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodi, ayniqsa uning “Padarkush” dramasi misolida jaholat va savodsizlikning jamiyat hayotidagi salbiy oqibatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidizm, ma’rifat, uyg‘onish, ziyolilar, milliy ozodlik, dramaturgiya, Behbudiy.*

Annotation. *This article discusses about the Jadid movement in Uzbekistan at the beginning of the 20th century, about the features of the activity of representatives of the Jadid movement. On the example of Mahmudkhodja Behbudi's activity, it is told that the 40 Jadids, as the Uzbek intelligentsia, sought to enlighten the people, and on the example of Behbudi's work "Paricide", what steps unenlightened people are capable of.*

Key words: *jadids, region, fate, people, revival, intelligentsia, independence, national liberation.*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о джадидском движении в Узбекистане в начале XX века, об особенностях деятельности представителей джадидского движения. На примере деятельности Махмудходжа Бехбуди рассказывается о том, что джадиды как узбекская интеллигенция стремились просветить народ, и на примере произведения Бехбуди «Отцеубийца» на какие шаги способны непросвещенные люди.*

***Ключевые слова**: джадиды, край, судьба, народ, возрождение, интеллигенция, независимость, национальное освобождение.*

Kirish. Butun XX asr davomida Sharq va G‘arb o‘rtasida yaqinlashuv jarayonlari kechdi. Biroq bu jarayonlar har doim ham konstruktiv va ijobiy shaklda namoyon bo‘lavermadi. XX asr boshlariga kelib Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lib, bu hududda rasmiy jihatdan ikki mustaqil davlat mavjud bo‘lishiga qaramay, siyosiy va ijtimoiy mustaqillik cheklangan edi. 1917 yilgi Oktyabr voqealari ham mintaqa xalqlarining taqdirida kutilgan darajadagi tub o‘zgarishlarni ta’minlamadi.

. Ushbu maqolada XX asr dramaturgiyasida ta’lim va axloq masalalarining badiiy talqini izlanmoqda. Bu jarayon o‘z ichiga dramaturglarning ijodiy uslublari, badiiy vositalar va ularning axloqiy ma’noda tarixiy-ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligini o‘rganishni oladi. Har ikki suratda ham Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida ta’lim va axloq muammolari yoritiladi.

Shu sharoitda XX asrning 20-yillarida Turkistonda keng qamrovli ijtimoiy-madaniy harakat milliy uyg‘onish va ozodlik g‘oyalariga asoslangan jadidchilik harakati yuzaga keldi. Bu harakat siyosiy, iqtisodiy va madaniy muammolarga javob sifatida shakllandi. Shuningdek, kirish qismida nazariy va tahliliy nuqtai nazarlarni o‘zaro muvofiqlashtirish orqali, asarning tarbiyaviy va axloqiy qirralarini aniqlashda, yozuvchining o‘ziga xos yondashuvi va metodikasiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu bilan, o‘quvchi uchun mazkur muhokamalar muhim nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi va keyingi bo‘limlarning muhokamasi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Umuman olganda, kirish qismda asarlarning umumiy kontekstda tahlil qilishning metodologik asoslari, tarbiyaviy va axloqiy masalalarni badiiy tasvirlashdagi o‘ziga xosligi hamda ijodiy jarayonlarning ma’naviy-ma’rifiy maqsadlari yoritiladi.

Asosiy qism. Jadidchilik harakatining mohiyati;Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalaridan biri insonning o‘zini o‘zi anglashiga, ma’naviy kamolotiga erishishidir. Jadidlar fikricha, inson tabiatni yoki boshqa insonlarni bo‘ysundirishga emas, balki

o‘z ustida ishlashga, bilim va tafakkurni rivojlantirishga intilishi lozim. O‘zbek ziyolilari G‘arbning ilg‘or g‘oyalari ta’sirida jamiyat taraqqiyotida ma’naviy sivilizatsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega, degan xulosaga kelishdi.

Ma’naviy sivilizatsiya faqat hukmdorga bo‘ysunish yoki Vatanga xizmat qilish bilan cheklanmaydi. Uning markazida ongli, tafakkurli va mas’uliyatli shaxs turadi. Jadidlar ana shunday shaxsni tarbiyalashni jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti deb bildilar.

Turk olimi A. Kanlider jadidizmni “islom va modernizm uyg‘unligi” sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, jadidlar G‘arb madaniyatini to‘liq ko‘chirish emas, balki uni tanlab, milliy va diniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish tarafdori bo‘lganlar. Jadidlar faoliyatida islom dini markaziy o‘rin egallab, u ma’rifat va taraqqiyot manbai sifatida qaraldi. Jadidlar asosan yangilikka intilgan yosh o‘zbek ziyolilaridan iborat edi. Ular zamonaviy maktablar ochib, yangi o‘qitish usullarini joriy etdilar, xorijiy tillarni o‘rganishni targ‘ib qildilar va qoloq, mutaassib qarashlarga qarshi kurash olib bordilar. Shu bilan birga, ular milliy madaniyat va adabiyotga alohida e’tibor qaratib, mumtoz adabiyotning ilg‘or an’analarini davom ettirdilar.

Jadidchilik harakati doirasida shakllangan adabiyot va madaniyat XX asr o‘zbek adabiyotining keyingi taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratdi. Bu davr adabiyotida yangilik faqat shaklda emas, balki mazmun va g‘oyaviy yo‘nalishda ham namoyon bo‘ldi. Ta’lim masalasi badiiy asarlarda representatsiya qilinishi nazariy-tahliliy nuqtai nazardan o‘rganilganda, uning asosiy maqsad va funksiyalari aniqlanadi. Badiiy asarlar ta’lim va axloqiy masalalarni turli xil obrazlar va syujetlar orqali ifodalashda o‘zining muhim o‘rnini topadi. Bu jarayonda, yozuvchilar ta’lim jarayonining mazmuni, insoniy qadriyatlar va axloqiy prinsiplarni estetik shaklda talqin etadilar. Ayniqsa, didaktik obrazlar va ularning tarbiyaviy funksiyalari fikrning ochiqligi, obrazdagi qonuniyatlik va qahramonlarning yashash tarzlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, asarda jamiyatning odob va ta’lim talablari asosida tarbiyalash mexanizmlari, shuningdek, oila, maktab va keng jamoatchilik o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar keng muhokama qilinadi. Bu representatsiya qilish

jarayonida yozuvchi ta’limning ma’naviy-axloqiy asoslarini, insoniylik sifatlarini shakllantirishga intiladi. Badiiy tahlilda, ta’lim masalasining aks etishi nafaqat muhim didaktik elementlarni, balki jamiyatdagi axloqiy normalarni, shuningdek, yosh avlodni va ularning tarbiyasini muhim ahamiyat bilan yoritiladi. Shuningdek, nazariy-metodologik asoslarga ko‘ra, badiiy asarlarda ta’lim va axloq masalalarining qanday asosiy tamoyillar bilan ifodalanganligi, uslub va til vositalarining axloqiy ohangini ta’minlashda qanday rol o‘ynashini ham tahlil qilish mumkin. Bu, o‘z navbatida, yoshlar ta’limining, axloqiy qadriyatlarning, hamda jamiyat bog‘liqligining badiiy tasvirlardagi chuqur va ifodali ifodalari uchun mustahkam asosdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) — o‘zbek jadid adabiyotining yirik namoyandasi, ma’rifatparvar va o‘zbek dramaturgiyasining asoschisi hisoblanadi. U Samarqand shahrida muftiy oilasida tug‘ilib, yoshligidan diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur o‘rgandi. Adabiyot, tarix va siyosatshunoslikka qiziqishi uning dunyoqarashini kengaytirdi.

Behbudiyning Makka, Misr va Istanbulga qilgan safarlari uning fikriy qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. U matbuot orqali xalqni uyg‘otish, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. “Oyna” gazetasi uning tashabbusi bilan tashkil etilib, jadid g‘oyalarining targ‘ibotchisiga aylandi. Behbudiy o‘zbek va tojik tillarida 200 dan ortiq maqola va asarlar yozib, “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy”, “Kitob-ul-atfol” kabi darsliklar orqali ma’rifat tarqalishiga katta hissa qo‘shdi. Behbudiyning ijodidagi eng yuksak asar “Padarkush” dramasi bo‘lib, u 1911 yilda yozilgan. Mazkur asar o‘zbek adabiyotidagi ilk drama sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Asarda yosh avlod tarbiyasi va ta’lim masalasi markaziy o‘ringa qo‘yilgan. Drama syujeti oddiy bo‘lsa-da, g‘oyaviy jihatdan nihoyatda chuqurdir. Asarda boylikni bilimdan ustun qo‘ygan ota obrazi orqali jaholatning fojiali oqibatlari ochib beriladi. Savodsiz va tarbiyasiz o‘g‘ilning otasini o‘ldirishi orqali muallif jamiyatni ogohlikka chaqiradi.

“Padarkush” dramasi keyingi o‘zbek dramaturgiyasi rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa ijodkorlar asarlariga zamin yaratdi.

Xulosa. Jadidchilik harakati va Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodi o‘zbek xalqining ma’naviy uyg‘onishida muhim o‘rin tutadi. Jadidlar xalqni ma’rifat orqali ozodlikka yetaklashni maqsad qilgan bo‘lsalar, Behbudiy bu g‘oyalarni adabiyot va dramaturgiya orqali keng targ‘ib etdi. Uning ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlodni bilim, tafakkur va ma’naviyatga chorlaydi. Behbudiy asarlarida ta’lim va axloq munosabatlari turli yo‘nalishlarda tasvirlangan bo‘lib, ularning asosiy maqsadi yosh avlodga axloqiy qadriyatlarni singdirish va ularni tarbiyalashdir. Uning dramalarida didaktik obrazlar va tarbiyaviy funksiyalar muhim o‘rin tutadi. Qahramonlar orqali axloqiy qoidalarga amal qilish, halollik, samimiylik, odob-taqva kabi sifatlar targ‘ib qilinadi. Bu asarlar jamiyatda odob-axloqni mustahkamlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan shaxslar obrazini yaratadi.

Behbudiyning asarlarida jamiyat va oila muhitining ta'lim jarayoniga ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Oila muhitining tarbiyadagi omillari, ota-ona va jamoa o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, shuningdek, maktab va jamiyatning tarbiyaviy rollari o‘zaro uyg‘unlikda tasvirlanadi. Shu bilan birga, u diniy va ma’naviy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini alohida ta'kidlaydi. Behbudiyning asarlarida tarbiya jarayonining muhim tamoyili jamiyatning yuksalishi uchun yoshlarni odobli, madaniyatli qilib tarbiyalashdir. Bu xarakterlar orqali u axloqiy qadriyatlarni qadrlash, odob-axloqni rivojlantirish va shaxsning ma’naviy kamolotiga erishishda tarbiyalash yondashuvlarini keng qo‘llab-quvvatlaydi. Behbudiyning dramaturgiyasida ta’lim va axloq muammolari shaxsiy o‘sish va jamiyat bilan bog‘liq holda badiiy ravishda namoyon bo‘lib, ular yoshlar vatanni sevish, halollik, adolat va odobli bo‘lish kabi ideal xarakterlarni evolyutsiyalashtirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Islom Karimov** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent, 2008. — 176 b.
2. **Qosimov B.** Jadidchilik harakati va uning g‘oyalari. — Toshkent, 1994. — 220 b.
3. **Qosimov B.** Milliy uyg‘onish davri adabiyoti. — Toshkent, 2004. — 312 b.
4. **Abdurauf Fitrat** Tanlangan asarlar: 5 jildlik. — Toshkent, 2000. — 1-jild. — 350 b.
5. **Mahmudxo‘ja Behbudiy** Tanlangan asarlar. — Toshkent, 1999. — 280 b.
6. **Cho‘lpon** Adabiyot nadir? // Cho‘lpon asarlari. — Toshkent, 1993. — B. 45–52.
7. **Abdulla Avloniy** Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent, 1996. — 160 b.
8. **Yo‘ldoshev Q.** XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent, 2006. — 400 b.
9. **Rasulov A.** Jadid adabiyotining poetik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2010. — № 3. — B. 25–30.
10. **Alimuhamedov R.** Jadidchilik va milliy tafakkur. — Toshkent, 2015. — 190 b.

BUXORO DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASINING MADANIY MEROSNI TIKLASH SIYOSATIDAGI AHAMIYATI

Sultonova Nigina Sheraliyevna

Osiyo xalqaro universiteti

Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada O‘zbekiston madaniy merosini asrash va tiklash siyosatida muzeylarning o‘rni tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi misolida madaniy meros obyektlarini saqlash, ilmiy o‘rganish, restavratsiya qilish va ommalashtirish jarayonlari yoritilgan. Muzey fondlari va ekspozitsiyalarining ilmiy-ma’rifiy ahamiyati ochib berilib, ularning yosh avlodda milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniy meros, muzey-qo‘riqxona, Buxoro, me’moriy yodgorliklar, UNESCO, restavratsiya, muzeyshunoslik.*

Annotation: *This article analyzes the role of museums in the policy of preserving and restoring cultural heritage in Uzbekistan from a historical perspective. Using the example of the Bukhara State Museum-Reserve, the processes of preservation, scientific research, restoration, and promotion of cultural heritage sites are examined. The scientific and educational significance of museum collections and exhibitions, as well as their role in fostering national values among younger generations, is highlighted.*

Keywords: *cultural heritage, museum-reserve, Bukhara, architectural monuments, UNESCO, restoration, museology.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль музеев в политике сохранения и восстановления культурного наследия Узбекистана на основе исторического анализа. На примере Бухарского государственного музея-заповедника анализируются процессы сохранения, научного изучения, реставрации и популяризации объектов культурного наследия. Раскрывается научно-просветительская значимость музейных фондов и экспозиций, а также их роль в формировании национальных ценностей у молодого поколения.*

Ключевые слова: *культурное наследие, музей-заповедник, Бухара, архитектурные памятники, ЮНЕСКО, реставрация, музееведение.*

Xalqaro maydonda madaniy meros obyekti sifatida e’tirof etilgan me’moriy yodgorliklarni himoya qilish, restavratsiya va konservatsiya qilish, ulardan samarali foydalanish hamda turizm xizmatlariga jalb qilish bugungi kunning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Me’moriy yodgorliklardan foydalanish bo‘yicha yo‘nalishlar doirasida UNESCO tashabbusi bilan 413 ta qadimiy shahar hududidagi Umumjahon moddiy madaniy meros obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekistonda esa 779 tasi aynan me’moriy yodgorliklar hisoblanadi, bu esa alohida e’tiborga molikdir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda madaniy meros obektlariga e’tiborning ortishi va turizmning jamiyat hayotidagi ahamiyati oshib borishi natijasida nafaqat mavjud tarixiy yodgorliklar, balki ilgari saqlanmagan, ammo o‘tmishda fuqaro arxitekturasi va xalqimiz hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy obyektlarni tadqiq qilish va ularning grafik rekonstruksiyasini yaratish zaruriyati ortib bormoqda. Bunday noyob obyektlar qatoriga Buxoro obidalarini kiritish mumkin.

Qadim zamonlardan buyon Markaziy Osiyoning durdonasi sanalgan Buxoro Sharq va G‘arbni bog‘lovchi savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan. Ushbu savdo munosabatlarida asosiy tovarlardan biri, shubhasiz, “Buyuk Ipak yo‘li” nomi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ipak matolar hisoblangan. Markaziy Osiyo hududida islom dini tarqalishidan avval Buxoroda zardushtiylik - olovga sig‘inish dini keng tarqalgan edi. Bu holat voha hududi bo‘ylab topilgan ko‘plab arxeologik topilmalar bilan tasdiqlanadi. Ma’lumki, o‘sha davrda Varaxsha, Afrosiyob, Balalik-tepa va boshqa shaharlardagi saroylar monumental devoriy rasmlar bilan bezatilgan. O‘rta asrlarda Buxoro Movarounnahrning eng yirik savdo, hunarmandchilik va ma’muriy markazlaridan biri bo‘lgan. Shahar orqali Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini Hindiston va Xitoy bilan bog‘lagan qadimiy xalqaro savdo yo‘li — Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan. Buxoro tarixi nihoyatda boy va sermazmun bo‘lishiga qaramay, uning ko‘plab sahifalari bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Ayniqsa, shaharning uzoq o‘tmishiga oid yozma manbalar nihoyatda kam saqlanib qolgan. Hozirgi vaqtda

Buxoro viloyatida UNESCO ro‘yxatiga kiritilgan jami 660 ta madaniy meros obyekti mavjudligi ma’lum qilingan. Bu obektlar arxeologik topilmalar, arxitektura yodgorliklari va boshqa tarixiy boyliklarni o‘z ichiga oladi[49]. Ushbu obyektlar xalqimizning bebaho boyligi bo‘lib, ularni kelajak avlodlarga yetkazish umumiy burchimizdir. Bu jarayonda o‘lkashunoslik muzeylarining o‘rni beqiyosdir.

Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi 1922 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda[50]. 1927 yil 1 martdan boshlab muzey ekspozitsiyasini shakllantirish ishlari boshlandi. Muzey tarkibida arxeologiya, etnografiya va tabiat bo‘limlari tashkil etildi[51]. 1931 yilda Ko‘kaldosh madrasasining birinchi qavatidagi oltita xonada joylashgan muzey ekspozitsiyasida Buxoro zardo‘zlik san’atiga bag‘ishlangan alohida zal faoliyat ko‘rsatgan. Unda oltin iplar bilan bezatilgan milliy kiyim namunalari namoyish etilgan. Shu yildan boshlab muzey ilmiy xodimlariga o‘lkashunoslik yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifasi yuklatildi. Ular hudud tarixiga oid moddiy va nomoddiy manbalarni to‘plash va o‘rganish bilan shug‘ullandilar. Natijada nafaqat moddiy ashyolar, balki xalqning etnik tarixi va etnografiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar ham jamlandi[52].

Shu tariqa muzey fondlari sezilarli darajada boyidi: zardo‘zlik buyumlari, milliy kiyimlar va mahalliy matolar bilan bir qatorda, muzeyga hadya qilingan yoki sotib olingan boshqa qimmatli ashyolar ham kolleksiyaga kiritildi. Yig‘ilgan materiallar asosida respublika va xalqaro ilmiy nashrlarda maqolalar chop etildi.

Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasining Asosiy inventar kitobi (“Qabul kitobi”) muzeyga qabul qilingan barcha eksponatlar haqida xronologik tartibda muhim va noyob ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi bilan alohida ahamiyatga ega. Bir

[49] https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz

[50] Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея//Из истории культурного наследия Бухара № 2.С-38, Церемония открытия в Бухаре первого музея// Бухоро ахбори 112-сон. 1922 йил 23 ноябрь.

[51] Болтаев А.Ҳ. Бухоро музейи-тарихий ўлкашунослик маркази сифатида. Бухоро 2018й Б-11.

[52] Ниязова М.И. Женский головной убор в обрядах Бухары (по коллекциям Бухарского Государственного музея-заповедника) //Музей. Традиции. Этничность XX – XXI вв. Материалы международной научной конференции, посвященной 100-летию Российского этнографического музея. СПб-Кишинев, с. 140-142.

asrdan ortiq faoliyati davomida muzey arxeologiya, numizmatika, epigrafika, san’at va hunarmandchilik, kitob va hujjatlar, etnografiya, tasviriy san’at, grafika va haykaltaroshlik kabi boy kolleksiyalarni jamlagan. Ushbu to‘plamlar muzeyning ko‘plab ekspozitsiya va ko‘rgazmalarida Buxoro tarixining boy va rang-barang manzarasini aks ettiradi.

Eksponatlar orasida an’anaviy milliy kiyimlar alohida o‘rin tutadi. Ularda xalqning qadimiy urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlari, diniy, ma’rifiy va estetik qarashlari mujassamlangan. Kiyim-kechak xalqning moddiy ahvoli, didi, go‘zallik haqidagi tasavvurlari, xo‘jalik faoliyati va oilaviy turmush tarzini aks ettiradi. Shuningdek, liboslarda ma’lum bir davr ruhi, yashash muhiti va inson hayotidagi muhim voqealar — quvonchli yoki fojeali holatlar o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, milliy an’anaviy kiyimlarda madaniy urf-odat va marosimlarning ta’siri yaqqol sezilib, ularning asosiy shakl va unsurlari asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan. Ushbu xalqimizning bebaho boyligini asrash va avlodlarga bezavol yetkazish barchamizning burchimiz.

Ma`lumki, yuksak ma`naviyatli, bilimdon kelajak avlodni tarbiyalashda o`tmish tariximiz bilan tanishtirish, milliy o`zlikni anglashda, ulardagi badiiy didni, ma`naviy dunyoqarashni shakllantirishda, milliy davlatchiligimiz va qadriyatlarimiz targ`ibotida muzeylar va tarixiy obidalarimizning o`rni beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy me'moriy yodgorliklar millatning madaniy uyg`onishi, milliy g`oyani targ`ib etish, xalq ongida milliy g‘urur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik hissiyotini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Muzeylarda saqlanib, namoyish etilayotgan tarixiy hujjat va xalq madaniyatiga oid ashyolar yosh avlodga ajdodlarimiz o‘tmishi, hayoti, yuksak ma'naviyatidan darak berib, uning vositasida Vatanga bo`lgan muhabbat, ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy merosga nisbatan hurmat, e'zoz, ularga munosib vorislar bo‘lish tuyg‘usini uyg‘otadi. Shuningdek, yoshlarni odob va axloqqa, halolligu-poklikka, botirlikka, mardlik, vatanni himoya qilish, ajdodlarimizdek mohir, sabr-qanoatlilik, aqlli,

adolatli, haqgo‘y, mehr-muruvvatli bo‘lishga chaqiradi. Madaniy merosimizni har tamonlama o‘rganish jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yigit va qizlarga milliy g‘ururning, milliy iftixor tuyg‘usining shakllanish jarayonini amalga oshiradi.

Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob hamda xilma-xil ashyolari xazinasi, balki muhim ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim halqasi va markazlari hamdir. Muzeylar faoliyatini yaqindan o‘rganishda, ularning mazmun va ma'no jihatidan rang-barang turlarini ajrata bilishda, xalq ommasi orasida keng targ‘ib etishning xilma-xil usullarini joriy qilish “Muzeyshunoslik”degan keng bir sohaning vazifalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizdagi muzeylar ishiga bo‘lgan katta e'tibor mutaxassis kadrlarni yetishtirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv sharoitida madaniy meros obyektlarini asrash, ularni ilmiy asosda restavratsiya va konservatsiya qilish, shuningdek, jamiyat taraqqiyoti va turizm rivojiga xizmat qildirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston hududida, xususan, Buxoro viloyatida joylashgan me’moriy va arxeologik yodgorliklar nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan bebaho madaniy boylik sifatida e’tirof etiladi. Ularning UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgani mazkur obyektlarning tarixiy, ilmiy va madaniy qiymatini yana-da oshiradi.

Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi madaniy merosni saqlash, o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ilmiy-ma’rifiy markaz sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Muzey fondlarida jamlangan boy kolleksiyalar — arxeologik topilmalar, etnografik ashyolar, milliy kiyimlar, hunarmandchilik buyumlari va yozma manbalar xalqimiz tarixining turli bosqichlarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, an’anaviy milliy liboslar orqali xalqning ijtimoiy hayoti, madaniy qarashlari, estetik didi va ma’naviy qadriyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO World Heritage Centre. States Parties — Uzbekistan [Elektron resurs]. — Kirish rejimi: https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz
2. **Ниязова М.И.** Из истории деятельности Бухарского музея // Из истории культурного наследия Бухары. — № 2. — С. 38; **Ниязова М.И.** Церемония открытия в Бухаре первого музея // Бухоро ахбори. — 1922 йил 23 ноябрь. — № 112.
3. **Пулатова М.** Асрлардан гувохлик бериб // Бухоронома. — 2002 й. — 18.05. — С. 4.
4. **Болтаев А.Ҳ.** Бухоро музейи — тарихий ўлкашунослик маркази сифатида. — Бухоро, 2018 й.
5. **Ниязова М.И.** Женский головной убор в обрядах Бухары (по коллекциям Бухарского Государственного музея-заповедника) // Музей. Традиции. Этничность XX–XXI вв.: материалы междунар. науч. конф., посвященной 100-летию Российского этнографического музея. — СПб.–Кишинёв. — С. 140–142.

TEMURIYZODA ABU SAID HUKMRONLIGI DAVRIDA DAVLAT DAROMADLARI VA SOLIQ MUNOSABATLARI

Turdaliyeva Gulasalxon Adusalom qizi
Qo`shtepa tumani 19-maktab Tarix fani o`qituvchisi,
Farg`ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Temuriyzoda Abu Said hukmronligi davrida davlat daromadlarining shakllanishi va soliq munosabatlari tizimi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda moliyaviy boshqaruvning asosiy yo`nalishlari,*

soliq turlarining amal qilishi hamda ularning markaziy va mahalliy hokimiyat faoliyatidagi o`rni yoritib beriladi. Shuningdek, Abu Said davrida soliq siyosatining davlat barqarorligi va iqtisodiy munosabatlarga ta`siri baholanadi. Maqola Temuriylar davri moliya-soliq tizimini o`rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

***Kalit so`zlar**: sarishumor, kirim-chiqim daftarlari, ulufa, tamg`a, ushr, botmon, sardaraxt, valiy, dinor.*

***Аннотация.** В статье на основе исторических источников анализируются формирование государственных доходов и система налоговых отношений в период правления тимуридского прица Абу Саида. Рассматриваются основные направления финансового управления функционирование раздичных видов налогов, а также их роль в деятельности центральных и местных органов власти. Кроме того оценивается влияние налоговой политики на государственную стабильность и экономические отношения в эпоху правления Абу Саида. Статья имеет важное научное значение для изучения финансово-налоговой системы периода Тимуридов.*

***Ключевые слова:** главний, счётчик, приходно-расходные книги, улуфа, тамга, ушр, батман, сардарахт, валий, динар.*

***Annotation.** This article analyzes the formation of state revenues and the system of tax relations during the reign of the Timurid prince Abu Said based on historical sources. The study examines the main directions of financial administration, the functioning of various types of taxes, and their role in the activities of central and local authorities. In addition, the impact of tax policy on state stability and economic relations during Abu Said`s rule is assessed. The article is of significant scholarly importance for the study of the financial and taxation system of the Timurid period.*

***Keywords**: chief account, income and expenditure ledgers, ulufa, tamgha, ushr, batman, sardaraxt, wali, dinar.*

KIRISH

XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson hududlarida hukmronlik qilgan temuriyzoda Abu Saidibn Mironshoh davri davlat boshqaruvi va moliyaviy tizimning qayta tiklanishi hamda barqarorlashuvi bilan ajralib turadi. Shohruh mirzo vafotidan keying siyosiy parokandalik va ichki nizolar davlat iqtisodiy hayotiga salbiy ta`sir ko`rsatgan bo`lsa-da, Abu Said hukmronligi davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlash, moliyaviy intizomni yo`lga qo`yish va davlat daromadlarini tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Mazkur davrda davlat daromadlarining asosiy manbalari bo`lib yer soliqlari, savdo va bojxona tushumlari, shunungdek, shariatga asoslangan moliyaviy yig`imlar xizmat qilgan. Ushr, tamg`a, zakot kabi soliq va to`lovlar davlat xazinasining muhim qismini tashkil qilgan bo`lib, ularning yig`ilishi mahsus kirim-chiqim daftarlari orqali nazorat ostiga olingan. Bu holat Temuriylar davlati moliya tizimining muayyan darajada markazlashganini ko`rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Temuriyzoda Abu Said ibn Mironshoh hukmronligi haqida bir necha ilmiy adabiyotlarda so`z olib borilgan bo`lib xususan bularga misol tariqasida: Abdurazzoq Samarqandiy Matlai sa`dayn va majmai bahrayn asarining 2-jildida Abu Said mirzoning hokimiyatga kelishidan tortib toki vafotiga qadar bo`lgan voqealar bayonini o`z ichiga oladi. Abu Said tomonidan ma`lum bir toifadagi din peshvolari va xalqga soliq imtiyozlari berilganligi haqida ham bazi manbalarda ma`lumotlar qayd qilingan bo`lib bunga Elyor Karimov Xoja Ahror Valiy hayoti va ijodiga bag`ishlangan asarida Abu Saidni Xoja Ahrorga berilgan soliq imtiyozlari haqida so`z boradi. Yuqoridagi soliq imtiyozini Xoja Ahrorga berilganligi haqida Poyon Ravshanov Qashqadaryo tarixi nomli kitobda ham o`z aksini topganligini ko`rishimiz mumkin bo`ladi. Bahriddin Usmonovning “Farg`ona vodiysi Amir Temur va temuriylar davrida”, Laylo Begimqulovaning “XV asr boshlarida Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash” nomli monografiyalarda ham Abu Said mirzo hayoti bilan bog`liq ba`zi ma`lumotlar berib o`tilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Abu Said ibn Mironshoh 1451-yilda Movarounnahr taxtini egallaydi. 1457-yilfa Abulqosim Bobur vafot etganidan keyin Xuroson hududlarini egallab, Amir Temur vafotidan keyingi davrda temuriyzodalardan birinchi bo`lib, Xuroson va Movarounnahrni birlashtirgan ulkan davlatni barpo qiladi. 1457-yilda Hirot aholisidan zo‘rlik kuchi bilan 3 marta soliq undirib olinadi. Birinchi gal mirzo Mahmud uchun, ikkinchi marotaba mirzo Sulton Ibrohim uchun, uchinchi marotaba sulton Abu Said uchun aholidan soliqlar yig‘im olinadi. Abul Qosim Bobur vafot etganidan so‘ng sari shumor solig‘ini to‘lashga majbur etiladi. Amir shayx Abu Said tomonidan saro (uyga) ma’lum bir mablag’ to‘lash buyrug‘i beriladi. Hirot shahri ikki qismga taqsim qilib olinadi. Amir shayx Xoja va amir shayh Abu Saidning navkarlari Raiyat uchun kam 1457-yil 2-may kuni mablag‘ni undirishga kirishadilar. Taxmin qilingan mablag’ ikki-uch kunda yig‘ib bo‘linadi. Har bir navkar saro (uydan) nimaiki olgan bo‘lsalar ikkiga ko‘paytiradilar, balki undan ham ko‘pga oshiradilar va buni to‘qqizga ko‘paytirib tafsilot beradilar. Iloji boricha xalqdan ko‘proq soliq undirib olishga harakat qilganlar. Oxiri shunga borib yetdiki Abul Qosimning o‘g‘li Shoh Mahmud vaziri Amir Sherxoji shunday buyruq chiqaradiki, xaloyiq sarishumorga biror-bir narsa to‘lamasin, xalqdan nimaiki tortib olingan bo‘lsa, hammasi xalqga qaytarib berilsin degan farmon chiqaradi. Shundan keyin to‘s-to‘plon boshlanib ketib, Shayx Abu Saidning navkarlari tarqalib ketadi, o‘zi esa boshqa viloyatlarga qochib ketganda tutib olinib, boshi tanasidan judo qilinadi va Mauk darvozasiga boshi osib qo‘yiladi. Bu soliq sarishumordan Hirot aholisi juda qiynaladi. Ko‘p kishilar ahli ayoli va bola-chaqasi bilan uy-joylarini tashlab boshqa hududlarga qochib keadilar. Uning vafotidan keyin Hirot aholisi huzur-halovatga erishadi.

Sulton Abu Said hukmronligi davrida Shohruxiya qal’asi 1464-yilda zabt etilganidan keyin, sulton Xurosonga qaytib keladi. Devon ishlarini tartibga solish uchun vazirlikdan yig‘iladigan soliqlar miqdorini so‘raydi. Sohibi azamlar: Xoja Qutbiddin Tovus, Xoja Shihobiddin Ismoil, Xoja Najmiddin Ne’matulloh, Xoja Kamoliddin Mavlono Aminlar kirim-chiqim daftarlarini

mukammal qilib arzga yetkazadilar. Xoja Tovus o‘z iltimosiga ko‘ra vazirlikdan ozod bo‘ladi. Xoja Ismoil gunohi tufayli bandga tushadi. Xoja Ne’matulloh haqida gap ketganida xoja Ne’mat, Xoja Shamsiddin Muhammadga nisbatn u devon moli o‘zlashtirgan degandek so‘z qotadi. Abu Saidni o‘zi uni so‘roq qiladi. Xoja Shamsiddin Muhammad “men odamlardan ko‘p xizmat haqqi olganman, lekin devon molini kamaytirgan emasman” deb javob qiladi. Abu Said uni juda xurmat qilganidan nima olgan bo‘lsa, hamasini senga bag‘ishladim deb aytadi, lekin devon ishlaridan bo‘shatib yuboradi. Sohibi devonning bu tarzda inoyat bilan bekor qilinganligi haqida tarix kitoblarida hech qanday manba bayon qilinmagan. Sababi sulton uni tirik qoldiradi. Bu davrda soliqlarni yig‘ish qattiq nazorat ostida olib borilganligiga guvoh bo‘lamiz.

XV asrda qurulish ishlari kengayib, bu davrda qad ko‘targan saroylar, jamoat binolari, mudofaa va sug‘orish inshootlari hamda yo‘l qurulish va tuzatishlarida mehnatkash aholi kuchidan keng foydalanilgan. Hukmdorlar tomonidan bo‘shab qolgan davlat xazinasini to‘ldirish maqsadida aholi gardaniga yangi soliqlarni solib turish hollari ham uchrab turgan. Masalan 1461-yilda Sulton Abu Said vazirlari Xo‘ja Muhiddin Sheroziy va Xo‘ja Mavlono Amiriy Samarqandiyni Movarounnahrga yuborib ularga dudang ya’ni 2/6 (33.3%) miqdorida xiroj olishni buyuradi. Dehqonlar har yilgi soliqlardan tashqari askarlarni jang paytida g‘alla bilan ta’minlashga ham majbur bo‘lganlar. Bunday soliqlar alufa (ulufa) – deb atalib, lashkarlar, yo‘lovchi mansabdorlar, elchilarga ot-ulovlariga beriladigan oziq-ovqat va yem-hashak bo‘lib shu maqsadda xalqdan yig‘iladigan soliqdir. Temuriyzoda Abu Said hukmronligi davrida ba`zi bir din peshvolari, shayxlar, ulomolarga, yoki biron-bir yaxshi voqea munosabati bilan xalqga ma`lum bir miqdordagi soliq imtiyozlarini joriy qiladi.

Sulton shayh Xoja Nosiriddin Ubaydullohga e’tiqod qo‘ygan edi. Jumladan shayx uchun Buxoro va Samarqand aholisidan tamg‘a solig‘ini olish mutlaqo

bekor qilinadi. Abu Said tamg‘a va barcha shariat man qilgan to‘lovlarni bekor qilishga va’da beradi.

Xo‘ja Ahror Valiyning Temuriylar davlatida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida juda katta ta’sir ko‘rsatganligini quyidagi misol orqali ham ko‘rishimiz mumkin: 1460-1461-yillarda ul zotning iltimosiga ko‘ra temuriy hukmdor Abu Sa’id Mirzo xalqni juda og‘ir “tamg‘a” solig‘idan ozod qilganligini keltirish mumkin bo‘ladi. Yuqoridagi ma’lumotni Elyor Karimovning “Xoja Ahror” (hayoti va faoliyati) nomli risolasida ham uchratishimiz mumkin. Risolada yozilishicha “Mamlakat uchun og‘ir kechgan bu yillarda Abu Said Xoja Ahrorning iltimosiga binoan Samarqand va Buxoro uchun tamg‘a solig‘ini bekor qilganligini, chunki bu shaharlar o‘zaro urushlardan ko‘p jabr tortganligii keltirib o‘tgan”ligini qayd qilib o‘tadi. Asarda shuningdek yozilishicha Xoja Ahrorning tamg‘ani bekor qilishi haqidagi iltimosi manbalarda ko‘rsatib o‘tilgan, mazkur qaror amalga oshirilgan paytdagi tarixiy va iqtisodiy vaziyatni ham hisobga olgan holda bu soliqni bekor qilish mumkin bo‘gan. Poyon Ravshanov Tomonidan yozilgan “Qashqadaryo tarixi” nomli kitobda Xoja Ahror hayotiga oid ayrim ma’lumotlar ham berilb o‘tilgan. Hususan Abu Said mirzoning mamlakat jilovini ruhoniylarga topshirib qo‘yib, ularga juda katta imtiyozlar berganligi, hattoki uning qirq yillik podsholik davri Xoja Ahrorning ta’siri doirasida bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. manbada qayd erilishicha Xoja Ahror o‘ziga tegishli bo‘lgan yerlardan yiligiga 80 ming botmon g‘allani ushr solig‘i sifatida davlatga to‘laganligi, uning mulklari Abu Said mirzo davrida Toshkand, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari bo‘ylab keng yerlarga egalik qiladi va uning siyosiy nufuzi juda oshib ketadi. Xoja Ahrorning ekin maydonlarida ishlaydigan xo‘kizlarining soni 3000 juft xo‘kiz qo‘shilgan qo‘shlar ishlaganligi, ekin maydonlarining har qaysinisidan 10 mingdan 40 ming botmongacha g‘alla olinganligi qayd etiladi. Asarda aytilishicha, Xoja Ahrorning Qashqadaryo vohasidagi yerlarini 28 ming tanobni tashkil etgan. O‘zining mol-mulklaridan kambag‘allarga hayru-ehsonlar berib turishi, uni xalq o‘rtasida obro‘sini oshib ketishiga sabab bo‘lgan. Temuriylar shag‘zodalar tomonidan biror-bir voqea sodir bo‘ladigan bo‘lsa xalqga ko‘p miqdorda

ehsonlar berganlar yoki ma’lum bir soliqlardan ozod qilganliklari bu davrda yozilgan manbalarda qayd qilingan. Xususan 1465-yilda Sulton Abu Said qattiq kasallanib qoladi. Tabiblarning qilgan ko’p muolajalaridan keyin, sog‘ayib ketadi. Tuzalganligi sharafiga raiyatga yaxshilik qilib, katta mablag‘ni tashkil qiluvchi sardaraxt solig‘ini bekor qilgan.

XULOSA

Temuriyzoda Abu Said Mirzo hukmronligi davrida davlat daromadlari tizimi Temuriylar davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatidan barqarorlashtirishga qaratilgan muhim omillaridan biri bo`lgan. Ushbu davrda moliyaviy boshqaruvni markazlashtirish, soliq yig`imlarini tartibga solish va davlat xazinasini mustahkamlashga alohida e`tibor qaratilganligini tarixiy manbalar orqali tasdiqlanadi. Tadqiqot natijlari shuni ko`rsatadiki, Abu Said Mirzo davrida yerga bog`liq soliqlar, xususan ushr va boshqa qishloq xo`jaligi yig`imlari davlat daromadlarini asosiy manabi bo`lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, savdo-sotiqdan olinadigan tamg`a, boj va pul muomalasiga oid tushumlar ham davlat moliyasida muhim o`rin egallagan. Daromadlarning hisob-kitobi va nazorati kirim-chiqim daftarlari orqali yuritilib, bu moliyaviy intizomni kuchaytirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. **Abdurazzoq Samarqandiy.** Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn: 2-jild. — Toshkent: O‘zbekiston, 2008. — 509 b.
2. **Kattayev K.** Xoja Ahror Vali va Mirzo Ulug‘bek muammolari talqini / Samarqandning 2750-yilligiga bag‘ishlanadi. — Toshkent, 2004. — 17 b.
3. **Usmonov Bahriddin.** Rossiya tarixshunosligida Amir Temur siymosi: monografiya. — Toshkent: Fan, 2011.
4. **Usmonov Bahriddin.** Farg‘ona vodiysi Amir Temur va temuriylar davrida: monografiya. — Farg‘ona: Farg‘ona, 2019.
5. **Begimqulova Laylo.** Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash: kuchlar nisbati va natijalar tahlili. — Farg‘ona: Farg‘ona, 2021.

MUZEYLARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI (Sergey Borodin uy-muzeyi misolida)

Tursunxujayeva Dilafruz Yunusovna

Sergey Borodin uy-muzeyi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda muzeylarda joriy etilayotgan yangi texnologiyalar va ularning ahamiyati hamda Sergey Borodin uy-muzeyi haqida batafsil ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *muzey, ekspozitsiya, Sergey Borodin ijodi, eksponatlar, amaliy san’at, mualliflik avtograf to‘plamlar, virtual muzey, muzeyning virtual 3D formati, “SMART” texnologiyasi, “Adabiy gid” mobil ilovasi, ijtimoiy tarmoq.*

Аннотация. *В данной статье представлена подробная информация о новых технологиях, внедряемых сегодня в музеях, и их значении, а также о доме-музее Сергея Бородина.*

Ключевые слова: *музей, экспозиция, творчество Сергея Бородина, экспонаты, прикладное искусство, авторский автограф коллекции, виртуальный музей, виртуальный 3D формат музея, технология “смарт”, мобильное приложение “литературный гид”, социальная сеть.*

Annotation. *This article details the new technologies and their importance, which are being introduced in museums today, as well as the Sergey Borodin House-Museum.*

Keywords: *museum, exposition, creativity of Sergei Borodin, exhibits, applied art, author's autograph collections, virtual museum, virtual 3D format of the museum, technology “SMART”, mobile application “Literary Guide”, social network.*

Kirish. Muzey – tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ma’rifiy muassasadir. Muzeylar xazinasida asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san’at asarlari jamlanadi. Shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo‘lgan tarixiy qimmatga ega qo‘lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi.

Har bir xalqning madaniyati, urf-odati va tarixini bevosita o‘zida mujassamlashtirgan madaniyat maskanlaridan biri muzeylardir. Muzey – tarix va bugun o‘rtasidagi uzilmas ko‘prik desak yanglishmagan bo‘lamiz. Bugungi kunga kelib madaniyatlararo muloqot almashinuvida muzeylarimiz faoliyati alohida ajralib turadi. Tashrif buyuruvchilarga muzey ekspozitsiyasi va undagi eksponatlar to‘g‘risida ham og‘zaki ham yozma ma’lumotlar berib boriladi. Aslini olganda muzey vizual ko‘rinishdagi muloqat turining yaqqol na’munasidir. Ushbu vizuallikning ahamiyatini yanada rivojlantirish maqsadida hozirgi kunda muzeylarimiz jamoasi tomonidan turli xil ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etib kelinmoqda.

Mazkur ko‘rinishlarni mujassamlashtirgan holda Sergey Borodin uy-muzeyi o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Asosiy qism. XX asr rus adabiyotida qiziqarli tarixiy romanlar muallifi Sergey Petrovich Borodin ijodi sezilarli hodisaga aylandi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Sergey Petrovich Borodin 1902-yil 25-sentyabrda Moskvada ziyolilar oilasida tug‘ilgan, lekin uning bolaligi va yoshligi Tula viloyatining Belev shahrida o‘tgan, u yerda 1913-yildan 1920-yilgacha V.A Jukovskiy nomidagi Belevskiy maktabida o‘qigan. Yozuvchi muntazam ravishda shaharning madaniy hayotida qatnashgan, rassomlik va adabiyot bilan shug‘ullangan. 1915-yildan gazeta va jurnallarda she’r va ocherklari nashr etila boshlandi. S.P.Borodin 1926-yilda professor va shoir V.Y.Bryusov nomidagi Oliy adabiyot va san’at institutini tugatdi. Ijodkor Rossiyaning Shimoli, O‘rta Osiyo, Uzoq Sharq, Qozog‘iston, Armanistonda bo‘lib o‘tgan arxeologik, folklor hamda etnografik ekspeditsiyalarda qatnashgan. Bu sayohatlar adibning ilk yirik asarlari – “Oxirgi Buxoro” (1932-yil) va “Misrlik” (1932-yil) romanlari, so‘ngra “Qushlar ustasi” (1934-yil) to‘plami, “Qo‘shiqchi”

qissasi uchun katta material bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Gullarning tug‘ilishi” (1938-yil) va boshqa asarlari ham shular jumlasidan. 1920-yillarda S.P.Borodin o‘zining ilk she’r va ocherklarini Moskva jurnallari va to‘plamlarida Amir Sarg‘idjon taxallusi bilan nashr ettirdi, ular sharqona did bilan to‘yingan, nafis tili va uslubi bilan ajralib turardi. Sharq naqshlari adibning 30-yillar asarlarida ham uchraydi. Izlanishlar natijasida bora-bora yozuvchining tarixga qiziqishi ortib bordi. Yuksak vatanparvarlik tuyg‘usi bilan singib ketgan S.P.Borodinning “Dmitriy Donskoy” romani urush yillarida juda mashxur bo‘ldi va ko‘plab mukofotlarga sazovor bo‘ldi. 1951-yilda S.P.Borodin Moskvadan Toshkentga ko‘chib o‘tadi va u yerda tarixiy mavzudagi asarlar ustida ishlashni davom ettiradi. Bu yerda “Samarqand osmonida yulduzlar”, (“Cho‘loq Temur” (1953-1954)), “Gulxanlar” (1957-1959), “Chaqmoq Boyazid” (1972-1973) romanlarini yaratdi. “Samarqand osmonida yulduzlar” asarining so‘nggi kitobi – “Oq ot” romani yozishni boshlagan, lekin uni yakunlashga ulgurmadi. Umrining so‘nggi yillarida Sergey Petrovichning salomatligida o‘zgarish ro‘y berdi. Ko‘zlari hamda yuragi bezovta qila boshladi. 1974-yil 22-iyunda yurak xastaligi bilan vafot etdi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Davlat mukofotlari laureati S.P.Borodin adabiyot tarixiga Rossiya, O‘rta Osiyo va Kavkaz xalqlari hayotidan o‘tgan yirik tarixiy romanlar muallifi sifatida kirdi. Uning romanlarida nafaqat sarkardalar, balki keng xalq ommasi ham tasvirlangan. “Dmitriy Donskoy” romanida yozuvchi Sergey Radonej qiyofasini jasorat bilan keltirgan, garchi o‘sha paytda bu qadam tanqidchilarning salbiy sharhlariga sabab bo‘lgan. Taxmin qilishimiz mumkinki, S.P.Borodin o‘zida yozuvchi-rassom va olim-mutafakkirni birlashtirgan. Tarixchilar, arxeologlar, numizmatlar, me’morlar, rassomlar va sharqshunoslar uni o‘zlarining hamkasbi deb bilishlari bejiz emas. Uning hayoti va ijodini qadrlab, uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1981-yil 19-martda Toshkent shahrining Lashkarbegi ko‘chasida S.P.Borodin uy-muzeyi ochilgan.

Mazkur uy-muzey O‘zbekistondagi kichik muzeylar orasida moddiy va ma’naviy eksponatlar to‘plami jihatidan eng boylaridan hisoblanadi. Sergey Borodin uy-muzeyi ijodkorning nafaqat yozuvchi, balki tarixchi, arxeolog,

san’atshunos, etnograf, numizmat olim bo‘lganligidan dalolat beradi. S.P.Borodin uy-muzeyi eksponatlarining katta qismi yozuvchining ilmiy faoliyati orqali orttirgan moddiy va ma’naviy boyliklari namunasidir. Uy-muzey ikki qismdan iborat: bular adabiy va memorial qismlardir.

Muzeyning memorial qismi kutubxona, kabinet va mehmonxonadan iborat. Xonalarda yozuvchi hayotligi davrida foydalangangan moddiy ashyolar bilan bir qatorda xarid qilingan va yaqin insonlari tomonidan yozuvchiga sovg‘a qilingan qimmatli amaliy san’at buyumlari namoyish etilmoqda.

Muzeyning adabiy qismi ikkita zaldan iborat bo‘lib, zalning devoriy javonlari va vitrinalaridagi foto, arxiv materiallari, gazeta, jurnal va kitoblar, turli yozishmalar yozuvchining hayotiy faoliyati haqida hikoya qiladi. Zal vitrinalaridagi eksponatlar orasida Sergey Borodinning shaxsiy arxeologik topilmalar to‘plami muhim ahamiyatga ega. Afrosiyob ekspeditsiyasiga doir tangalar, devor relyefi bo‘laklari, shamdon va boshqa buyumlar tahrifchilarning e’tiborini tortadi. Shuningdek vitrinalarda S.Borodinning deputatlik bileti, turli mukofotlari, medal va ordenlari saqlanadi. Stendlarda yozuvchining O‘zbekiston yozuvchilari davrasida hamda ko‘plab e’tiborli shaxslar bilan tushgan fotosuratlari saqlanadi.

Mazkur ikki zalda Sergey Borodin asarlari bilan birga uning tarjima qilgan asarlari ham o‘rin egallagan, Oybek, Sadriddin Ayniy asarlari shular jumlasidandir. S.P.Borodin uy-muzeyi o‘zining kichik rangtasvir galereyasiga ham ega bo‘lib, unda A.Abdullayevning S.P.Borodin portreti (Toshkentdagi eski hovli), A.Nikonovning “Buxoro”, V.Maninning “Misrlik”, O‘.Tansiqboyevning “Manzara”, I.Kaydalovning “Amir Temurning nabirasi Xalil Sulton portreti” hamda Vetnam lok (XVII) san’atiga oid yog‘och doskalar saqlanadi.

Yozuvchi kabinetida xalq milliy hunarmandchiligi va amaliy san’at buyumlari ham o‘rin olgan. Milliy do‘ppilar majmui, sharqona osma milliy gilam, klouzane ko‘zachalari, arxeologik sopol ko‘zachalar shular jumlasidandir.

Kabinetdagi maxsus javonda 2000 ga yaqin mualliflik avtograf to‘plamlari bo‘lib, ular orasida Oybek, G‘afur G‘ulom, Mirtemir, M.Shayxzoda, Sh.Rashidov, Mirzo Tursunzoda, Zulfiya, Irving Stoun, Isusi Inoue, Pablo Neruda, Jon Pristli, turk

yozuvchisi, Nobel mukofoti sovrindori Kemal Tohir va boshqalarning dastxatlari e’tiborga molikdir. Mazkur mashxur shaxslarning ko‘pchiligi S.Borodin xonadonining aziz mehmonlari bo‘lishgan.

7000 ga yaqin badiiy adabiyotning durdona asarlaridan iborat yozuvchi kutubxonasida rus va o‘zbek she’riyati, jahon adabiyoti, tasviriy san’at, arxeologiya, arxitektura, jahon muzeylari va galereyalariga bag‘ishlangan adabiyotlar, numizmatikaga oid manbalar, qo‘llanma va lug‘atlar, geografiya, etnografiya va ijtimoiy sohalarga oid nodir kitoblar bor.

Muzeydagi eng boy kolleksiyalardan biri “Numizmatik tangalar kolleksiyasi” hisoblanadi. Sergey Borodin numizmatik olim sifatida turli davrlarga mansub tangalarni to‘plagan, ularning har biriga ilmiy sharh bergan holda maxsus qutilarda saqlagan. Tangalar miloddan avvalgi davr, eftalitlar davri, so‘g‘diylar davri, Kushon imperiyasi davri, arablar istilosi davri, Amir Temur va undan keyingi davrlarga taalluqli kumush, mis va bronza tangalardir. S.Borodin boy va ilmiy jihatdan muxtasar numizmatik kolleksiyasi uchun 1973-yilda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rgazmada “Katta kumush medal” sovrindori bo‘lgan. Bu xalqaro oliy mukofot “Jahondagi eng yaxshi shaxsiy yig‘ilma” bo‘lgani uchun Sergey Borodinga YUNESKO tomonidan berilgan.

Muzeyda ko‘plab chinni va sopol idishlar, yog‘och va fil suyagidan ishlangan kichik haykalchalar, turli davlatlar san’atiga oid maskalar, sovg‘alar, mis ko‘za va xumdonlar saqlanadi.

Uy-muzey fondi zaxirasi ham anchayin katta bo‘lib, unda yozuvchi asarlarining qo‘lyozma nusxalari, u tomonidan yaratilgan qalam tasvir suratlar, oilaviy fotosuratlar, turli xat va yozishmalar, shaxsiy kundalik daftarlar va ko‘plab boshqa arxiv hujjatlari saqlanadi.

Muzey – bu bizning tariximiz, bu yerda qachonlardir inson tomonidan yaratilgan yoki kashf etilgan noyob osori-atiqalar saqlanib, kelajak avlodga topshiriladi. Muzey jamiyatni o‘z tarixi va madaniyatiga nisbatan bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi ko‘zgu hisoblanadi. Shu sababli muzeylarda zamon bilan, jamiyat bilan hamnafas bo‘lgan holda yangicha usulda ish yuritilishi zarur.

XX asr oxirida muzeyshunoslikka kirib kelgan “virtual muzey” iborasi bugungi kunda zamonaviy muzeyshunoslikning muhim bir yo‘nalishiga aylandi.

Virtual muzey (virtual-huddi mavjud bo‘lgandek) – real hayotda yoki global tarmoqda mavjud bo‘lgan muzey haqida ma’lumot [1].Virtual muzey – bu elektron tashuvchilarda interfaol imkoniyatlarni qo‘llaydigan, foydalanuvchiga uch o‘lchovli zallarda harakat qilish, kerakli eksponatlar va ma’lumotlar bilan tanishishga imkon beradigan makon [2].

Sergey Borodin uy-muzeyida ham bu boroda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ulardan biri muzeyning virtual 3D formati yaratilganidir. Bunda inson virtual 3 D turini amalga oshirish va zallar bo‘ylab o‘zi uchun qulay bo‘lgan tartibda harakatlanish, zallarning sferik panoramalarini diqqat bilan ko‘rish, eksponatlarga yaqinlashish va sichqoncha tugmasini oddiygina bosib, qiziqtiruvchi ma’lumotlarni olish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Virtual uy-muzeylariga tashrif buyurib, bevosita uydan chiqmasdan virtual sayr qilish, san’at muhitiga sho‘ng‘ish, o‘tgan asrlarning dongdor kishilari qanday yashaganliklarini ko‘rish qiziqarli faktlardan biridir [3].

Muzeyni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash hamda tashrifchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish maqsadida Sergey Borodin uy-muzeyida innovatsion “SMART” texnologiyalari o‘rnatilgan. Ushbu innovatsion “SMART” texnologiyalari 5 tilda o‘zbek, rus, ingliz, fransuz va yapon tillarida muzey va unda saqlanayotgan eksponatlar to‘g‘risida ma’lumot beradi. Bu tehnologiya asosida muzeyga tashrif buyuradigan chet ellik hamda mahalliy aholiga turli tillarda ekskursiya o‘tilishida amaliy yordam bermoqda.

Shuningdek, 2023-yil uy-muzeyga mustaqil sayohat qilish imkonini beruvchi “Adabiy gid” mobil ilovasi ham ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu ilova orqali virtual va to‘ldirilgan reallik tehnologiyalari asosida ishlab chiqilgan. O‘zbek, ingliz va rus tillarida ishlab chiqilgan aqlli ilovaning navigatsiya tizimi yordamida tashrif

buyuruvchilar muzeyning hoxlagan zalini tanlashlari, u yerga yo‘l ko‘rsatkich orqali borishlari, shuningdek qiziqtirgan eksponatlarga kamerani olib borib, ular haqida ma’lumotlarni eshitish, to‘liq o‘qish mumkin bo‘ladi.

Hozirgi kunda muzey veb-sahifalarda, ijtimoiy tarmoqlarda ham o‘z faoliyatini olib bormoqda. Jumladan:

- You tube: https://www.youtube.com/channel/UCXz6JVRTTQ5Yw-jkyx3pV7w/featured);
- Instagram:https://instagram.com/sergeyp_borodin?igshid=YmMyMTA2M2Y;
- Facebook: https://www.facebook.com/profile.php?id=100084060647355;
- Telegram: https://t.me/Borodin_muzey;
- Wikipedia: https://uz.wikipedia.org/wiki/Sergey_Borodin_davlat_adabiy-memorial_uy-muzeyi;
- Elektron pochta: sergey_borodin1902@list.ru

Yuqoridagi ijtimoiy tarmoqlar orqali muzey, uning faoliyati, muzey fondida saqlanayotgan eksponatlar haqida bevosita xabardor bo‘lish imkoniyati mavjud.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, muzeylarda yangi fan-tehnika yutuqlaridan foydalanish, muzeylarni virtuallashtirish, zamonaviy tehnologiyalardan foydalanish orqali boy merosimizni xalqqa va chet davlatlarga targ‘ib qilish imkoniyatlari yaratiladi. Bundan tashqari O‘zbekiston turizmining rivojlanishi va chet ellik aholining oqimi ko‘payishida muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Российская музейная энциклопедия.** Виртуальный музей [Электронный ресурс]. — Кириш манзили: http://www.museum.ru/rme/sci_asp
2. **Василина Д. С.** Виртуальный музей как феномен современной культуры // Музей: память и проекты будущего. Международный журнал исследований культуры «Эйдос». — М., 2016.

3. **Исмаилова Ж. Х., Нишанова К. С., Мухамедова М. С.** Музей ва жамият. — Тошкент, 2015.
4. **Собрание сочинений:** в 6 т. — Ташкент: Изд-во литературы и искусства, 1973–1977.
5. **Бородин С. П.** Звезды над Самаркандом: ист. эпопея. Кн. 1; Тимур на Кавказе: ист. повесть. — М.: Издательство «Дои».

CHIG‘ATOY ULUSINING TASHKIL TOPISHI

Xamdamov Abudullajon Elmurod o‘g‘li

Aniq va Ijtimoiy fanlar Universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Chig‘atoy ulusining tashkil topishi va uning siyosiy asoslari haqida ma’lumot beriladi. Chig‘atoy xonligi (ulusi) Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxonga ulus sifatida bergan hududlarida tashkil topadi. Va o‘lkaning keyingi davrdagi ijtimoiy-madaniy hayotiga sezilarli darajada ta’sir etadi.*

Kalit so‘zlar: *Chig‘atoy ulusi, Chig‘atoyxon va uning avlodlari, Movarounnahr, Turkiston, Xorazm, mo‘g‘ullar.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о формировании Чигатайских улусов и их политических основах. Чигатайское ханство (улус) было образовано на территориях, переданных Чигатайским ханом второму сыну Чингисхана в качестве улуса. Оно оказало значительное влияние на социально-культурную жизнь страны в последующий период.*

Ключевые слова: *Чигатайские улусы, Чигатайский хан и его потомки, Трансоксиана, Туркестан, Хорезм, монголы.*

Abstract. *This article presents information on the formation of the Chigatai uluses and their political foundations. The Chigatai Khanate (ulus) was formed on territories granted by Chigatai Khan to Genghis Khan's second son as an ulus. It had a significant impact on the country's socio-cultural life in the subsequent period.*

Keywords: *Chigatai uluses, Chigatai Khan and his descendants, Transoxiana, Turkestan, Khorezm, Mongols.*

Kirish.

Chig‘atoy xonligi (ulusi) Mog‘ullarning Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Movorounnahr, Xorazm hududlariga uyushtirgan istilochilik yurishlarida bosib olingan hududlarni Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxonga ulus sifatida berilishi natijasida tashkil topadi [3].

Chig‘atoy ulusining tashkil topishi va Movorounnahr hududida mo‘g‘ul yaso tartiblarining joriy etilishi o‘lkada turkiy qabilalarning mavqeyining oshishiga sabab bo‘ladi. Ulus xonlari Movorounnahrni boshqarishda turkiy qabila boshliqlaridan o‘zlarining vakillari sifatida foydalanganlar. Bu esa turkiylashishning jadallashuviga sabab bo‘lgan [5]. Turkiy qabila sardorlari keyinchalik Chig‘atoy ulusi xonlaridan mustaqil tarzda boshqaruv tizimini egallashga intilgan. Ular hatto o‘zlarining mo‘g‘ul tillarini unutib, turkiy tildan saroy tili hamda jonli so‘zlashuv tili sifatida foydalangan. Movorounnahr va Xuroson hududida mustaqil davlat tuzgan Amir Temur ham mo‘g‘ullar bosqini davrida ularga yordam bergani uchun Movorounnahrdan ulus (mulk) berilgan turkiy barlos qabilasining vakili edi. Mo‘g‘ul va turk qabilalari asta-sekin chorvachilikdan dehqonchilikka o‘ta boshlagan. Ayni vaqtda mo‘g‘ullar va turklarning mahalliy aholi bilan etnik qo‘shilishidan iborat murakkab jarayon ro‘y berib, natijada yangi zamonaviy xalqlar — tojik, o‘zbek va boshqa millatlarning vujudga kelishida muhim ro‘l o‘ynagan

elatlarnig shakllanish davri boshlandi [6]. Bu davrdagi harbiy-siyosiy jarayonlarni o‘rganish orqali ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuz bergan o‘zgarishlarni yaxshiroq anglash mumkin.

O‘rganilishi.

Chig‘atoy ulusi davri tarixi yoritilgan adabyotlarni uch darvga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi davr – O‘rta asrlarda yozilgan manbalar “Tarixi Johonkusho” (Atomalik Juvayniy), “Shajara-i tarokima” (Abulg‘ozi Bahodirxon), “To‘rt ulus tarixi” (Mirzo Ulug‘bek), “Buxoro yohud Movorounnahr tarixi” (Herman Vamberi), “Shuabi panjganah (Besh sulola)” (Rashid ad-din), “Razvat us- safo” (Mirxond), Ibn Batutaning “Sayohatnoma”si, “Plano Kaprini va Gil’om de Rubrukning sharqqa qilgan sayohati”, Iogan Shilterbergning “Yevropa, Osiyo va Afrikaga 1394-1427 yillardagi sayohati” kabi asarlarni kiritish mumkin. Bu kabi manbalarda mo‘g‘ullarning tarixi, ularning istilochilik yurishlari va bosib olingan hududlardagi davlat (ulus) boshqaruvi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi davrga O‘rta Osiyo hududlari, turkiy va mo‘g‘ul xalqlarining o‘rta asrlarga oid tarixini yoritiish uchun olimlar tomonidan XIX - XX asrda olib borilgan izlanishlar natijalarini kiritish mumkin. V.V.Bartold (“Тюрки” (1993), “Очерк Итории Семиречья”, (1943)), B.V.Veymarn (“Искусства Средней Азии”,(1940)), A.Z.Validiy (“Chingizxon”,(1969)), B.D.Kochnev (“Средневековые загородные культовые сооружения Средней Азии” (1976)), S.A.Kuzina (Сокровенное сказание монголов”,(2002)), V.G.Tizengauzen (Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды” (1884)) kabi olimlarning ilmiy asarlarida mog‘ullarning davlatchiligi haqida asosli ma’lumotlar bor.

Uchinchi. Yaqin tarixda va hozirgi davrda yozilgan taqdiqiqotlar natijalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Mog‘ullar XI asrda ham urug‘-aymoqchilik munosabatlari nihoyatga kuchli bo‘lgan qabilalardan tashkil topgan edi. Mog‘ul qabilalari joylashgan hududning sharq tomoni shimoliy Chin (Xitoy), g‘arb tomoni Uyg‘ur, shimolida Kirgiz va Selengay, janubida esa Tang‘ut (Xitoyning shimoli-g‘arbi) va Tibet bilan chegaradosh bo‘lgan. Chingizxon maydonga chiqishidan avval totarlarning (mog‘ullar) ma’lum bir raisi yoki boshqaruvchisi bo‘lmagan. Ular muxtalif (turli qabilalarga ajralgan) edilar va bu qabilalar doimo o‘z oralarida urush qilib turadigan holatda edi. Ular Xitoy xoniga tobe bo‘lib, unga soliq to‘laganlar [1].

Xijriy 599 – yil (1206) , to‘ng‘iz yilida O‘tukan vodiysining Onon daryosida bo‘lib o‘tkan Mog‘ul qabilalari umumiy qurultoyida Temuchin (1150-1227) qirq to‘qqiz yoshida ulug‘xon (taxtga o‘tirgan har bir kishi ismiga xon, qoon, va xoqon qo‘shib aytilgan) deb e’lon qilindi. Ko‘nikkimar urug‘idan Meglik ijakaning o‘g‘li Ko‘kchaning (Yalang‘och ota) tavsiyasi bilan Temuchinni “Chingiz” (ulug‘ va katta) deb ataydilar [7]. Yagona hukmdor qo‘l ostida birlashgan mo‘g‘ul qabillari ittifoqi endilikda o‘z davlati chegaralarini kengaytirish uchun harbiy yurishlarga tayyorlana boshlaydi. Chingizxon ko‘p sonli intizomli qo‘shin tuzadi va istilochilik yurishlariga kirishadi. Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) “Tarix-i arba ulus” asarida shunday deb yozadi: “Mo‘g‘ul lashkari ham nozu ne’matda boriga shukr qiluvchi, mexnatda sobir (sabr-u toqatli) bo‘ladilar. Ular farmonbardorlikda shu darajadaki, agar biror amirning yuz ming lashkari bo‘lib, u bilan xon oralig‘idagi masofa belgilangandek bo‘lsa, ulardan biri biror gunoh ish qilgan taqdirda xon unga birgina suvoriy yuborib olib keltirishi mumkin, toki uni farmonga binoan boshidan judo qila oladilar. Toki boshqalar bunday qusurni qaytarmasinlar. Hech kim o‘z hazorasi (minglik), sadasi (yuzlik), dahchasi (o‘nlik) joylashgan joydan ketmasligi lozim. Boshqa joyga ketishga haqqi bo‘lmagan. Boshqalar ham ularni o‘z oralariga kelib qo‘shilishlariga yo‘l qo‘ymasliklari lozim bo‘lgan. Qayerda bo‘lishlaridan qat’iy nazar, biror kishini o‘zlariga sardor qilib saylaganlar va o‘zlariga amir va sipohdor qilganlar. Unga so‘zsiz gap qaytarmay ta’zim qilganlar. U qanday hukmu farmon qilmasin, tobe’likni lozim bildilar. O‘z sardori naslidan tashqari biror kishiga

bo‘ysunmaydilar”. Yuqori darajadagi jangovor tayyorgarlik va jangchilarning markaziy boshqaruvga bo‘ysundrilganligi keyingi harbiy yurishlarda muvaffaqqiyat kalitlaridan biri bo‘ldi. Mo‘g‘ullar xujumlari xijriy VII (milodiy XIII) asrning boshlarida sharqga yurish bilan boshlangan, 30-40 yil ichida Chin (Xitoy) dengizi soxillaridan Suriya va Misr chegaralarigacha, Dashti Qipchoq, Rusiya, Polsha va Mojaristondan Basra ko‘rfazigacha va Ummon dengizigacha bo‘lgan hududlarni egallab olinishi – tarixdagi eng yirik imperiyalardan birining vujudga kelishiga zamin yaratadi. 656 - hijriy (1258) yilga kelib ildizi qadimgi abbosiylar xalifaligini xam mog‘ullar tomonidan tugatiladi. Mo‘g‘ullar istilosi natijasida ko‘plab aholi dahshatli tarzda qirg‘in qilinadi [3]. Mo‘g‘ul bosqinidan so‘ng O‘rta Osiyoda ma‘naviy hayot bir qancha vaqt davomida inqirozga yuz tutadi. Eron va boshqa g‘arb o‘lkalari bu qattiq zarbadan Chingizxonga bo‘ysunish yo‘li elchilik aloqalari orqali ozroq oyoqqa turdi, hatto ularning yangi madaniyati shakllana boshladi. Tarixchi Juvayniyning yozishicha: “Chingizxon dini bo‘lmaganligi uchun odamlarni ajratib birini boshkasidan ustun tutmas edi. Qaysi dindan bo‘lsalar ham olim va zohidlarga yaxshi munosabatda bo‘lar, ularni doimo yuksaltirardi” [1]. Ammo Herman Vamberri buni aksini yozadi: “Buxoro bilan Samarqand ilgarigi ma’naviy hayotlarini sira ham tiklay olmadilar. Shu vaqtdan buyon ularning ma’naviy hayoti qozilik ishlari-yu, tasavvuf, dinga astoydil intilishdan iborat bo‘lib qoldi. Bu baxtsizlikning bosh sababi – mo‘g‘ullar shaharlardagi eron irqini o‘ldirib, madaniyatga xizmat etadigan va savdo-sanoat bilan shug‘ullangan xalqni kamaytirib yubordilar. Shu nisbatda turklar ko‘pchilikni tashkil etdilar. Sof turk yerlarida, masalan, hozirgi Xiva va Ho‘qandda saljuqiylar asrida xalq tili forscha edi. Tub aholi ustiga sahrodan bostirib kelgan ma’rifat dushmanlarining – turklarning boshqa millatlarni yo‘q qilish niyatlari amalga oshayotgan bir jarayonda, mo‘g‘ullar bu istilolari bilan shu harakatni tezlashtirdi. Ular Movarounnahrda Eron ruhini butunlay yo‘qotishga astoydil xizmat qildilar. Mana shuning o‘zi mo‘g‘ullarning Jayhun bo‘yidagi yerlarga keltirilgan eng katta ziyonidir” [5]. Arab tarixchisi Usmoniy (1301-1348) “Turkistonda endi faqat xarobalarni topish mumkin, ular ozmi-ko‘pmi yaxshi saqlangan. Uzoqdan atrofi

gullab-yashnagan ko‘katlar bilan qoplangan yaxshi qurilgan qishloqni ko‘rish mumkin. Siz unga aholi bilan uchrashish umidida yaqinlashasiz, ammo uylarni butunlay bo‘sh holda topasiz.” – deb ma’lumot beradi. Yevropalik olimlar odatda faqat madaniyatli mamlakatlar aholisining ko‘chmanchilar tomonidan qirg‘in qilinishini hisobga olishadi. Boshqa tarafdan Mo‘g‘ul istilolari ko‘chmanchilarga faqat foyda keltirganini va o‘troq aholiga faqat zarar keltirganini isbotlash uchun bu jarayonlarni o‘z ichiga olgan ilmiy izlanishlar hali to‘liq bir hulosaga chiqarishga yetarlicha asos bo‘la olmaydi. Mo‘g‘ul yurishlari, masalan, Saljuqiylarning G‘arbiy Osiyoga bostirib kirishidan farqli o‘laroq, butun bir xalqning ko‘chirilishini o‘z ichiga olmagan [5, 10].

1206 – yilda dastlab naymanlar, 1207 - 1208 - yillarda Enasoy havzasi, so‘ngra Yettisuv viloyatining shimoliy qismi zabt etiladi va jomuqo, soljuyut, chuyut, orlot, barlos, toychuit, do‘rmon, bahrin, qo‘ng‘irot, totor, qo‘ng‘on, jojirot, daryotu, qopqin, yurgin, jaloyir, qo‘ng‘urgin qabila boshliqlari o‘z sipohlari bilan Chingizxonga kelib qo‘shiladi. Bu kabi qabilalar mo‘g‘ullardan g‘arbda yashab, qisman buddaviylar, nasroniylar va musulmonlar bilan savdo – madaniy aloqada bo‘lganligi sababli ijtimoiy hayotda mo‘g‘ullarning ko‘chmanchi madaniyatiga nisbatan yuqoriroq natijalarga erishgan bo‘lsalarda, ularning tarqoqligi istilochilarga qo‘l keldi. Keyinchalik qirg‘izlar ham tang‘ut qabilalari yengilishi bilan tobeliklarini tan oladilar. So‘ngra uyg‘urlar ham taslim bo‘ladi [3]. Abulg‘ozi Bahodirxonning yozishicha : “Uyg‘ur podshoxi Iduqut (Idiqutning ma’nosi turk - uyg‘ur lug‘atida davlat sohibi, xudovandi davlatdir), qora xitoy Ko‘rxonga (Gurxon) tobe bo‘lib mol berdi (soliq to‘lardi) va Ko‘rxon ham Shadkam (Shovugum) otlig‘ navkarini ul xalg‘a (xalqga) do‘rug‘a qilib yubordi. Shadkam ul xalqning orasinda qaror topg‘andin so‘ng ko‘p fisq va fasodlar qila boshladi kim, uyg‘ur el aning ul yomon amalini toqat qilmay bexad ozurda (ozorda) bo‘ldilar. Ul zamonda Chingizxon (o‘z) Kishvaristonida (o‘lkasida), Mog‘uliston va Xitoyg‘a borg‘ani va jami yaxshi qiliqlari (ishlari) olam xalqining orasinda mashhur bo‘ldi ersa. Idiqut Ko‘rxonning navkaru Shadkamni o‘lturub. Chingizxonga elchi yuborib

andag‘ arz qildi kim, alarning ovozasini eshitgali mexr va muhabbat ko‘nglumda joygir bo‘lub turur. Umidvorman kim modamulhayot alarga tobi bo‘lib a’larning xizmatinda bolg‘ayman” [7]. 1211- 1215- yillarda Chingizxon bir necha bor Xitoyga yurish qiladi va Shimoliy Xitoyning mazkazi Szindi shahrini ishg‘ol qiladi. Szi sulolasi taxdan ag‘dariladi. Chingizxon Xitoy yurishida ko‘plab oljalarga ega bo‘ladi. Ikki yuzga yaqin qal’a va shaharlar qo‘shin tomonidan talanib vayron qilinadi. Qo‘lga kiritilganlar orasida qurol yasovchi ustalar alohida ahamiyatga ega. Chunki, ayni shu yurishlardan so‘ng Chingizxon o‘z qoshini xitoylik ustalar sabab zamonasining eng yangi harbiy qurol yarog‘rolari bilan ta’minlaydi. Mug‘ullar har millatning olimlari, xunarmandlari, dexqonlari va cho‘ponlarini urushdan imtiyozli va xavfsiz holda saqlaganlar [3].

Chingizxon Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarini 1218-1219 – yillarda deyarli talofatsiz bosib oladi. Bu hududdagi Kuchluk (Naymanlar) davlati tugatiladi. Gobi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritog‘ (Tyanshan) tizmasining g‘arbiy etaklarigacha bo‘lgan keng hududda Mog‘ullar davlati vujudga keladi. Davlatning g‘arbiy chegaralari Xorazmshohlar (1097 -1231) davlatiga yaqinlashadi. Chingizxon o‘z davlati hududini g‘arbga tomon kengaytirish va Xorazmshohlar davlati boyliklariga ega chiqish uchun bu mamlakat bilan to‘qnashishi muqarrar edi. Xorazmshoh Sulton Muhammad bilan o‘rtalarida adovat chiqmaganda ham, Chingiz o‘zining muvaffaqiyatli g‘alabalari bilan cheklanib qolmas edi. Chunki u endi o‘zining madaniyati, boyligi, buyukligi bilan shuhrat qozongan mamlakatning darvozasi oldida turardi. Uning hukmdori shavkat va qudrat bobida Chingizxonga teng raqib, layoqatli dushman edi [5].

Xorazmshoxlar davlati XIII asrda shimoli – g‘arbiy va g‘arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillarida, janubi – g‘arbiyda Iroqqa qadar, janubi – sharqiy hududlari G‘azna viloyatidan, shimoli-sharqiy chegarasi esa yettisuv va Dashti Qipchoqdan o‘tar edi [8]. Xorazmni biz o‘sha davrda nafaqat turk sulola vakillari hukmronligi o‘rnatilgan, balki turk tili ham hukmronlik qilgan yuqori madaniyatli mamlakatning misolini ko‘ramiz [2]. XIII asr boshlarida Xorazmda X va XI

asrlarga qaraganda madaniy daraja pastroq bo‘lganligini ko‘rsatadigan biron bir faktni keltirish qiyin. Mo‘g‘ullar istilosidan oldin u yerda bo‘lgan Yoqut[53] tomonidan xabar qilingan Xorazm haqidagi ma’lumotlar shahar hayotining sezilarli darajada rivojlanishi va hatto madaniy hududning kengayishi, ayniqsa Xorazmning janubi-g‘arbiy qismi madaniy jihatdan yuksalgani haqida dalolat beradi. Boshqa xabarlardan ma’lumki, xorazmlik savdogarlar Markaziy Osiyoda avvalgidan ham ko‘proq sayohat qilishgan va undan ham uzoqroq mamlakatlarda ta‘sir o‘tkazishgan [10]. Bu ikki davlatning to‘qnashuvi muqarrarligi kunday ravshan bo‘lib qolgach, ikki davlat orasida diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yish orqali bir-birini kuchini bilishga harakat qilingan. 1216-yilda Chingizxon huzuriga Xorazmshoh Muhammad (1200-1220) Baxouddin Roziy boshchiligida o‘z elschilarini yuboradi. Chingizxon elchilarni kutib oladi va ularga sovg‘a salomlar berib, o‘zini sharq hukmdori va Xorazmshoh Muhammadni esa g‘arb sultoni deb hisoblashini aytadi. Savdo va madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yishga moneylik bildirmaydi. O‘z navbatida Chingizxon ham elchilarini Xorazmlik savdogar Mahmud yallovoch boshchiligida Xorazmshohlar yurtiga yuboradi. 1218 - yil bahorida Mahmud Yallovoch boshchiligidagi elchilar Buxoro shahrida Muhammad Xorazmshoh tomonidan kutib olinadi [10]. Mahmud Yallovoch Chingizxonning Xorazmshoh Muhammadni hurmat qilishini va o‘zining eng suyukli o‘g‘illaridan biri deb bilishini aytadi. Sharq diplomatiyasiga binoan bu Xorazmshohlar yurtini qaram, yoki tez orada bo‘ysundirishimi anglatar edi. O‘zini Iskandari Soniy (Ikkinchi Iskandar) deb biluvchi Muhammad Xorazmshohga albatta bu yoqmaydi. Mahmud Yallovochning elchilik karvoni ortidan ayni shu yilning o‘zida ko‘plab qimmatbaho buyumlar, 500 tuya va 450 musulmondan iborat bo‘lgan boshqa karvon ham Xorazmshohlar davlati tomon yo‘lga chiqadi. Bu karvon Xorazmshohlar davlati poytaxti Urgancha shahriga borishi rejalashtirilgan edi. Ammo, O‘tror shahriga yetganda shahar noibi G‘oirxon (Inolchiq) tomonidan to‘xtatiladi [3]. Va bitta tuyakashdan tashqari karvonning barcha a’zolari qatl

[53] Yoqut Hamaviy (1179-1229) - mashhur sayyoh, geograf, adib, tarixchi.

qilinadi. Tuyakash Chingizxonga va'ziyatni yetkazgach, Ibn Kafroj boshchiligidagi karvon Xoramshoh huzuriga yuboriladi va G'oirxonni Chingizxonga topshirishni talab qilinadi. Xorazmshoh bunga javoban elchini o'ldiradi va u bilan kelgan ikki mulozimni soch-mo'ylovini qirib sharmandalarcha ortiga qaytarib yuborishga buyuradi. Bu ikki davlat o'rtasida urush boshlanganini anglatar edi [1]. Bartoldning yozishicha: "Chingizxonning musulmon yerlariga qarshi yurishi O'tror voqeasining bevosita natijasi edi. Musulmon savdogarlari Chingizxonga to'liq yordam ko'rsatganlari va keyinroq, mo'g'ul qo'shinlarining g'alabasidan keyin o'rnatilgan tartibdan eng ko'p foyda ko'rganlari ham tabiiy hol" [10].

Qo'shinning son jihatdan ko'pligi Xorazmshohlarning ustuligi bo'lsada, mamlakat ichidagi va'ziyat barqaror emasdi. Boshqaruv tizimida bo'linishlar, Sultonga nisbatan fitnalar avj olgandi. Turkman sarkardalari va qipchoqlar orasidagi nizolar ham ichki nizolarga sabab bo'lgan. Shuningdek, Bag'dodga qilingan yurishdagi muvaffaqiyatsizlik natijasida xalq orasida ham Xoramshoh Muhammadga nisbatan ishonchsizlik ortgan edi. Bu va'ziyat Chingizxon bosqiniga qarshilik ko'rsatishni og'irlashtirardi [1].

Mamlakatdagi boshboshdoqlikni oldini olish va mumommolarni ijobiy xal etish uchun Xoramshoh Muhammad olti kishidan iborat kengash tuzadi. Lekin, amalda bu hech qanday foyda bermaydi. Chunki, ichki nizolarning asosiy sababchilari bo'lgan qipchoq qabila beglari, ulardan tayinlangan amaldor va sarkardalar Xoramshoh Muhammadning onasi Turkon Xotun tomonidan qo'llab quvatlanardi. Xorazmshohlar davlati mog'ullar tomonidan egallangach. Turkon Xotin keyinchalik Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullarga qarshi kurashlarida ham unga qarshi turli fitnalar chiqaradi. Xorazmshohlar sulolasi boshqaruvi ag'darilgach, Qorakurumga olib ketilgan Turkon xotun u yerda bir necha yil qullikda hayot kechiradi va 1233 - yilda vafot etadi [1, 3].

Shunday bir va'ziyatda Chingizxon Sirdaryo bo'yida joylashgan O'trorni qamal qilish uchun 1219-yilning kuzida yurish boshlaydi. Chingizxonning askarlari

soni 200 mingga yaqin bo‘lgan. Chingizxon qo‘shinida bir nechta turk otryadlari mavjud bo‘lgan. Chunki turklar boshqa millat vakillariga qaraganda mo‘g‘ullarga yaqinroq edi. Ba’zi manbalarda, mo‘g‘ullar ham turkiy oilalar tarkibiga kiruvchi urug‘lardan ekanligi takidlangan [1, 3, 7, 9, 11]. O‘tror qamali besh oy davom etadi. Shahar arkidagi so‘nggi mudofa yorib o‘tilgandan keyin qal’a to‘liq egallanadi [10].

Chingizxon o‘zi yuborgan elchilari hunini olish uchun Muhammad Xorazmshoh qarshi urush boshladi. 1918 - yilda mo‘g‘ul qomondoni tomonidan Qashg‘arda musulmonlarning ibodat erkinliklari tiklangandi. Mo‘g‘ullarning Yaso (qonun) tartibiga ko‘ra o‘zga din vakillariga ozor berish, ularni haqlarinin poymol qilish mumkin emas, edi [1]. Shunga qaramasdan, Muhammad Xorazmshoh musulmonlar yashaydigan hududlarni g‘ayridinlardan ozod qiluvchi Sulton sifatida jangda ishtirok etdi. U mo‘g‘ullarga ochiq maydonda barcha kuchlarni yig‘gan xolatda zarba berib qo‘shinning son jihatdan ustunligan foydalanish o‘rniga, mudofaada turib jang qilish yo‘lini tanladi [5, 11]. Xitoyning mustahkam qal’alarini vayronaga aylantirib, turkiy qabilalarning jangovor urug‘larini janglarda yengib katta tajribaga ega bo‘lgan mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi bu usul ish bermasligini keyingi jarayonlar isbotladi.

1220-yil 16-fevralda Mo‘g‘ullar Buxoroni, shu yilning mart oyida Samarqandni, aprel oyida Jandni egallab vayron qiladi. Sayhun (Sirdaryo) daryosi bo‘yida joylashgan Binokat (hozirgi Toshkent viloyati , Chinoz tumani) shahri ham to‘rt kunlik qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi. Xo‘jand shahri Temur Malik boshchiligida Mog‘ullarga kuchli qarshilik ko‘rsatadi. Kuchlarning teng emasligi Temur Malik boshchiligidagi harbiy bo‘linma shaharni tark etishiga majbur qiladi. 1220 – yilning yozida Chingizxon Naxshab (Qarshi) shahriga bostirib kiradi va uni egallaydi. 617 – hijriy yilning (1220- yil) zulhijja oyining 22 – kuni Kaspiy dengizining Ashuro orolida Muhhammad Xorazmshoh betoblikdan vafot etadi. O‘lishidan oldin Jaloliddin Manguberdini taxt vorisi etib tayinlaydi. Va shu orolga dafn etiladi. Sayhun (Sirdayro) havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari,

Jayhun (Amudaryo) o‘rta oqimining o‘ng sohili viloyatlari egallangach, Chinigizxon asosiy e’tiborini Xorazmga qaratadi. Urgachn ustiga 1221- yilda yurish qiladi. Xorazmliklarning mudofaasini yorib o‘tib shaharni boysundiradi [1, 5]. Movorounnahr hududlariga yurish paytida janubiy tomondan hujumlarni olidini olish uchun. G‘arbiy Osiyodagi mo‘g‘ullar bir muncha vaqt davomida Ismoiliylar va Bag‘dod xalifasi bilan, muzokaralar olib borishdi. Shu sababli ham Xorazmga mo‘g‘ullar bostirib kelganda ulardan yordam kelmadi. Ammo, mo‘g‘ullar bosqini natijasida bu hududlar ham keyinchalik vayron qilinadi [10]. Shu tariqa 618 – hijriy yili (1221-yil) 140 yil mobaynida Saljuqiylar bilan tenglasha oladigan Xorazmshohlar sulolasining Movorounnahr va Xorosondagi hukmronligi tugatiladi [5].

Bosib olingan hududlarni taqsimlash va kuchli boshqaruv tizimini shakllantirish uchun 621- hijriy yili (1224 – yil) Chingizxon qurultoy o‘tkazadi. Qurultoyda hududlarni o‘g‘illariga quyidagicha taqsimlab beradi. Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil bo‘yi, Xorazm va Darbadngacha to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘jiga (u vafot etgani uchun uning ogli Botuga) beriladi. Sharqiy Turkiston, Yettisuv Movorounnahr ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxonga, G‘arbiy Mo‘g‘uliston va Tangritog‘ni (Tyanshan) uchinchi o‘g‘li va vorisi O‘qtoyga berildi [1]. Shuningdek, Mo‘g‘luston, Xitoy va Qirgizlar yeri kenja o‘g‘li Tuluga topshiriladi [8]. Turkiy boshqaruv tamoyiliga ko‘ra, ota hayoti davomida katta o‘g‘illarini birin-ketin ajratib, asosiy mulkini kenja o‘g‘liga qoldirgan, ulug‘ xon (qoon) tanlash uchun o‘tkaziladigan qurultoyda uning meros taqsimoti inobatga olinadi. Shuning uchun Mo‘g‘uliston Chingizxonning ona yurti uning kenja o‘g‘li Tuluyga beriladi [5, 10].

Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyga berilgan Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Movorounnahr hududlarida 1224 - yilda Chig‘atoy ulusi (xonligi) tashkil qilinadi. Ulus boshqaruvchisi makomini olgan kishi “xon” yoki “xoqon” unvoni bilan tug‘ilgan paytlarida o‘zlariga qo‘yilgan ismiga qo‘shib “xon”

qo‘shimchasi bilan chaqirilgan. Shahzodalarni ham qo‘shib hisoblagan holda xondan boshqa xech kim bu unvondan foydalana olmagan [1, 2, 5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Alouddin Atomalik Juvayniy.** Tarixi jaxonkusho (Jaxon fotixi tarixi). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015. – 504 b.
2. **Трепавлов В. В.** Государственный строй Монгольской империи XIII в.: Проблема исторической преемственности. – Москва: Наука. Издательская фирма «Восточная литература», 1993. – 168 с.
3. **Mirzo Ulug‘bek.** To‘rt ulus tarixi / Kirish so‘zi, izohlar va tahrir – B. Ahmedov; fors tilidan tarj. – B. Ahmedov va boshq. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993. – 352 b.
4. **Zokirov Z. T.** Mo‘g‘ul imperiyasi qo‘shini: tuzilishi va jang san’ati // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – № 6. – B. 178–185.
5. **Herman Vamberi.** Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990. – 64 b.
6. **Semyonov V. F.** O‘rta asrlar tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973. – 638 b.
7. **Abulg‘oziy Bahodirxon.** Shajarayi Turk / Muharrir: A’zam O‘ktam; mas’ul muharrir va so‘zboshi: B. A. Ahmedov. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – 192 b.
8. **Rahimov M., Zamonov A.** O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Fanlar akademiyasi Fan, 2019. – 544 b.
9. **Kafali M.** Çağatay Hanlığı. – Ankara: Berikan Yayınevi, 2005. – 156 s.
10. **Бартольд В. В.** Тюрки: двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – Алматы: Жалын, 1993. – 192 с.
11. **Рашид ад-дин.** Шуаб-и панджгана (Пять родословий) / Пер. с перс. Ч. И. Хамидовой; науч. и отв. ред. И. М. Миргалеев. – Казань: Институт истории им. Ш. Марджани АН РТ, 2019. – 228 с.

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF ASARLARIDA LISONIY BIRLIKLARNING PRAGMATIKASI: TARJIMASHUNOSLIK NUQTAYI NAZARIDAN

Ziyadullayeva Madina Mahmarejab qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning asarlarida ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni ifodalovchi lisoniy birliklarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tarjimada diniy konnotatsiyalarni to‘g‘ri yetkazish va kasbiy kompetensiyani shakllantirishda pragmatikaning ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *pragmatika, lisoniy birliklar, diniy matnlar tarjimasi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, tarjimashunoslik, pragmatik ma’no, konnotatsiya, diskurs tahlili,*

Аннотация. *В статье анализируются прагматические особенности языковых единиц, выражающих социальные и культурные ценности в произведении шейха Мухаммада Содика Мухаммада Юсуфа. Показано значение прагматики в правильной передаче религиозных коннотаций и формировании профессиональной компетенции в переводе.*

Ключевые слова: *прагматика, языковые единицы, перевод религиозных текстов, социокультурные ценности, переводоведение, прагматическое значение, коннотация, дискурс-анализ, межкультурная коммуникация.*

Annotation. *This article analyzes the pragmatic features of linguistic units expressing social and cultural values in Shaykh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf’s works. It highlights the importance of pragmatics in conveying religious connotations and developing professional competence in translation.*

Keywords: *pragmatics, linguistic units, translation of religious texts, sociocultural values, translation studies, pragmatic meaning, connotation, discourse analysis, intercultural communication.*

Hazrat Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning asarlari zamonaviy diniy-ma’rifiy adabiyotlar orasida alohida o‘rin egallaydi. Shayxning asarlarida insonning kundalik hayotidagi ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va muloqot qoidalari Qur’on va hadis asosida izohlangan bo‘lib, u nafaqat diniy tarbiya manbai, balki jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi qo‘llanma sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan Shayxning asarlarida qo‘llanilgan lisoniy birliklar o‘zining pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, “salom berish”, “qo‘shniga yaxshilik qilish”, “kattalarga hurmat” kabi birliklar denotativ ma’nodan tashqari, o‘quvchining ongiga ijtimoiy-madaniy konnotatsiyalarni singdiradi. Bu birliklar orqali kitob o‘quvchini ma’naviy tarbiyaga, ijtimoiy muvozanatni saqlashga va madaniyatlararo muloqotda to‘g‘ri yo‘l tutishga undaydi.

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan esa ushbu birliklarning boshqa tillarda ekvivalentini topish va ularning pragmatik maqsadini saqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Chunki diniy-madaniy birliklar oddiy semantik tarjima bilan cheklanmaydi, balki ularning kommunikativ vazifasi va ijtimoiy konnotatsiyasini ham to‘liq yetkazish talab etiladi.

Pragmatika tilshunoslikning eng muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, u lisoniy birliklarning ma’nosi va ta’sirini kontekstda o‘rganadi. Levinson ta’kidlaganidek, “pragmatika til birliklarining ma’nosini faqat lug‘aviy shakl emas, balki ularni qo‘llash sharoiti orqali tushuntiradi” [1]. Bu yondashuv diniy-madaniy matnlarni tarjima qilishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki oddiy semantik ekvivalentlik ko‘pincha diniy va madaniy asarlarni tarjima qilayotganda yetarli bo‘lmaydi.

Masalan, “salom berish” iborasi nafaqat muloqotni boshlash vositasi, balki diniy-madaniy qadriyatni ifodalovchi birlik sifatida ham talqin qilinadi [2]. Shu bois

tarjimada bu birlikni oddiy “hello” shaklida berish pragmatik maqsadni to‘liq ifodalamaydi.

Tarjimashunoslikda Eyugen Nida tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasi aynan pragmatik moslikni ta’minlashga qaratilgan. Nida fikricha, tarjima jarayonida asosiy maqsad asl matn o‘quvchisida hosil bo‘lgan ta’sirni tarjima matni o‘quvchisida ham hosil qilishdir [3]. Bu yondashuv diniy-madaniy birliklarni tarjima qilishda o‘quvchiga asl matndagi ta’sirni yetkazish zarurligini ta’kidlaydi. Diniy-madaniy asarlar tarjimasida to’g’ridan-tog’ri tarjima orqali ma’noni yetqazish imkonsiz. Pragmatik ekvivantlikka tayanilmasa, o’quvchi uchun asl manbaadagi ma’noni tushunishda g’alizliklar kelib chiqadi.

Peter Nyumark esa tarjimada har doim manba tiliga sodiqlik va maqsad tilidagi ta’sir o‘rtasida muvozanat bo‘lishini ta’kidlaydi. Neyumarkning fikricha, tarjimon vaziyatga qarab bu semantic yoki kommunikativ yondashuvni muvozanatli qo‘llashi lozim. Masalan, diniy-madaniy matnlarda semantik sodiqlik muhim, lekin o‘quvchiga ta’sirni ham hisobga olish zarur [4]. Bu yondashuv Nidaning dinamik ekvivalentlik nazariyasini amaliy jihatdan to‘ldiradi.

Bizningcha, Hazrat Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning asarlaridagi lisoniy birliklarni tarjima qilishda faqat semantik ekvivalentlikka tayanish yetarli emas. Chunki bu asarda ishlatilgan ko‘plab birliklar — “salom berish”, “halol rizq”, “qo‘shnichilik”, “kattalarga hurmat” “mehmondorchilik” “ziyorat qilish” kabilar — o‘zbek diniy-madaniy konnotatsiyasiga ega bo‘lib, ularni oddiy lug‘aviy tarjima orqali to‘liq ifodalash mushkul.

Shu bois, biz quyidagi yo‘nalishlarni qo’llash ma’qul deb hisoblaymiz.

- Pragmatik ekvivalentlikni ustun qo‘yish. Tarjima o‘quvchiga asl matndagi diniy-axloqiy ta’sirni yetkazishi kerak. Masalan, “salom berish”ni oddiy “hello” emas, balki “islamic greeting” tarzida berish maqsadga muvofiq. Bu orqali diniy konnotatsiya saqlanadi.

- Madaniyatlararo tafovutni yashirmaslik. Venutining yondashuviga yaqin bo‘lgan holda, ayrim birliklarni tarjima qilmasdan qoldirish ma’qul. Masalan, “halol rizq”ni “halal sustenance” deb tarjima qilish o‘quvchiga islomiy kontekstni anglash

imkonini beradi. Lekin ba’zi o’rinlarda o’quvchiga tushunarli bo’lishi uchun pastda yoki qavs ichida izohini berish maqsadga muvofiq bo’ladi.

- Kommunikativ ta’sirni hisobga olish. Nyumark ta’kidlaganidek, tarjima o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishi lozim. “Kattalarga hurmat” iborasini “respect for elders” deb tarjima qilish mumkin, lekin izohda bu hurmat diniy-axloqiy majburiyat sifatida talqin qilinishini ko‘rsatish zarur. Yoki tarjimani “religious duty of respecting elders” shaklida bersa ham ta’sirchanlik kuchini oshiradi, tarjima yanada tushunarli bo’ladi.

- Milliy semantikani boyitish. Tarjima jarayonida islom madaniyatiga xos birliklarni tushuntirish orqali boshqa madaniyat o‘quvchisiga yangi bilim berish mumkin. Islom dinida jamoaviy o’tqaziladigan marosimlar ko’p. Ular haqida nafaqat boshqa din va madaniyatdagilarning, balki ba’zi yangi dinni qabul qilgan kishilarga ham yangi bo’lishi mumkin. Shu sababli bunday nomlarni berishda nom arabcha saqlanib qolib, (Shayx hazratlari ham arabchadan tarjimasiz olib, izohlarini berib o’tganlar) izohini o’quvchiga tushunarli tarzda bayon etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, valiyma, aziyra, xursa, vakiyra, naqiy’a, aqiyqa, vaziyma, ma’baba, hizoq, tuhfa, kabi birliklarning aksariyatining o’zbek tilida aynan mos keladigan tarjimalari bo’lishiga qaramasdan, diniy marosim nomlari bo’lganligi sababli shayx hazratlari o’zlarining “Ijtimoiy odoblar” kitobida arabchasini berib, yonida o’zbekcha izohlarini berib o’tganlar. Asarni boshqa tillarga tarjima qilyotganda ham ushbu yo’nalishga sodiq qolish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Shayxning “Ijtimoiy odoblar” kitobidan quyidagi parchani inglizchaga tarjima qilaylik.

“Fitr kuni taom yeyish, misvok va g'usl qilish, xushbo'y surtish, va eng yaxshi kiyimlarni kiyish va fitr sadaqasini berish mandubdir[54]”.

On the day of Eid al-Fitr, it is mandub (Islamic jurisprudential term used to describe actions that are recommended or encouraged, but not legally binding or obligatory) to have breakfast before the prayer, to use the miswak (a natural

[54] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Ijtimoiy odoblar, Toshkent – 2021, 126-bet.

toothbrush made from the twigs or roots of the Salvadora persica tree often called the toothbrush tree), to perform ghusl (ritual purification), to apply fragrance, to wear the best clothes, and to give the zakat al-fitr (charity of breaking the fast).”

Ushbu tarjimada semantik, xorijlashtirish kabi yondashuvlardan foydalanildi. Misvok, g’usl, mandub kabi so’zlar tarjimada asliyatni saqlash uchun shu shaklda qoldirildi va o’quvchiga yanada tushunarli bo’lishi uchun qavs ichida izohlar berildi. Natijada, diniy-madaniy konnotatsiya saqlanadi, o‘quvchi yangi madaniy bilim oladi.

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Hazrat Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning asarlaridagi lisoniy birliklarni tarjima qilishda oddiy semantik ekvivalentlik yetarli emas. Chunki bu birliklar o‘zbek madaniyatining diniy-axloqiy konnotatsiyasini o‘zida mujassam etadi.

Eugene Nidaning dinamik ekvivalentlik nazariyasi tarjimada o‘quvchiga asl matndagi ta’sirni yetkazish zarurligini ta’kidlaydi. Peter Newmark esa bu yondashuvni amaliy jihatdan to‘ldirib, manba tiliga sodiqlik va maqsad tilidagi ta’sir o‘rtasida muvozanatni saqlashni tavsiya qiladi. Shu bois diniy-madaniy birliklarni tarjima qilishda xorijlashtirish strategiyasi va izohli tarjima eng samarali yo‘l bo‘lib chiqadi.

Marosim nomlari (valiyma, aziyra, xursa, vakiyra, naqiya) va diniy birliklar (salom berish, halol rizq, shukr) tarjimada asl shaklda qoldirilib, izoh bilan berilganda:

- Milliy semantika boyitiladi,
- Pragmatik ta’sir saqlanadi,
- O‘quvchiga yangi madaniy bilim beriladi.

Shunday qilib, maqolada ilgari surilgan yondashuv diniy-madaniy matnlarni tarjima qilishda semantik aniqlik, pragmatik ta’sir va madaniyatlararo tafovutni ko‘rsatishni birgalikda ta’minlashni maqsad qiladi. Bu esa tarjimashunoslikda ilmiy yangilik sifatida “pragmatik ekvivalentlik modeli”ni ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Levinson S.** Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
2. **Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.** Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: Hilol Nashr, 2015.
3. **Nida E.** Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
4. **Nida E.** Language, Culture, and Translating. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 1993.
5. **Newmark P.** Approaches to Translation. – Oxford: Pergamon Press, 1981.
6. **Venuti L.** The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 1995.
7. **Kafaviy A.** Al-Kulliyyot. – Istanbul: Matbaa al-Amira, 1890.

АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ИЗУЧЕНИИ РУССКИЙ БЫЛИН И ВОСТОЧНЫХ ДАСТАНОВ

Абдурашитова Нигора Бобокуловна

Ташкентский университет гуманитарных наук

Аннотация. *В статье рассматривается аксиологический подход к изучению русских былин и восточных дастанов как метод выявления ценностных оснований героического эпоса. Анализ сюжетных мотивов, традиционных эпических формул, а также героических и женских образов позволяет раскрыть систему нравственных, социально-культурных и духовных ценностей, отражающих коллективное мировоззрение народа. Особое внимание уделяется таким аксиологическим доминантам, как долг, верность, честь, патриотизм, родовая и семейная ответственность. Сравнительное исследование русских былин и восточных дастанов*

(«Алпамыш», «Гороглы», «Рустамхон») выявляет как универсальные ценностные модели героического эпоса, так и национально-специфические формы их художественного воплощения. Аксиологический подход позволяет рассматривать эпос не только как художественное явление, но и как важный механизм трансляции устойчивых культурных ценностей и исторической памяти

Ключевые слова: *аксиология, аксиологический подход, героический эпос, русские былины, восточные дастаны, ценностные доминанты, система ценностей, женские образы, эпическая картина мира, сравнительный анализ.*

Annotatsiya. *Maqolada rus bylinalari va sharq dostonlarini o‘rganishda aksiologik yondashuvning ilmiy ahamiyati yoritiladi. Syujet motivlari, an’anaviy epik formulalar hamda qahramonlik va ayol obrazlari tahlili orqali epik tafakkurga xos bo‘lgan axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar tizimi ochib beriladi. Tadqiqotda burch, sadoqat, or-nomus, vatanparvarlik, urug‘-qabila va oilaviy mas’uliyat kabi aksiologik ustuvorliklar asosiy tahlil mezoni sifatida ko‘rib chiqiladi. Rus bylinalari va sharq dostonlari (“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon”)ning qiyosiy tahlili umumiy qadriyatlar bilan bir qatorda ularning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Aksiologik yondashuv epik matnni xalqning tarixiy xotirasi va barqaror ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi hodisa sifatida talqin etishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *aksiologiya, aksiologik yondashuv, qahramonlik eposi, rus bylinalari, sharq dostonlari, qadriyatlar tizimi, aksiologik ustuvorliklar, ayol obrazlari, epik dunyoqarash, qiyosiy tahlil.*

Abstract*. The article explores the axiological approach to the study of Russian byliny and Eastern dastans as a methodological framework for identifying value-based foundations of heroic epic traditions. By analyzing plot motifs, traditional epic formulas, as well as heroic and female images, the study reveals moral, social, and spiritual values embedded in epic narratives as expressions of collective cultural consciousness. Special attention is paid to such axiological dominants as duty, loyalty, honor, patriotism, and family and clan responsibility. A comparative*

analysis of Russian byliny and Eastern dastans (Alpamys, Gorogly, Rustamkhan) demonstrates both universal value patterns of heroic epics and their nationally specific artistic representations. The axiological approach enables epic texts to be interpreted not only as literary phenomena but also as mechanisms for preserving and transmitting stable cultural values and historical memory.

Keywords: *axiology, axiological approach, heroic epic, Russian byliny, Eastern dastans, value dominants, value system, female images, epic worldview, comparative analysis.*

С точки зрения философии аксиология – это раздел философии, изучающий ценности, их природу, структуру, иерархию и функционирование в культуре, обществе и сознании человека. Исходя из этого можно сделать вывод, что ценность – это базовое понятие аксиологии, иными словами, если ценностный критерий – это частный, прикладной уровень аксиологического анализа, тогда как аксиологический – термин является более теоретическим и методологическим.

При изучении русских былин и восточных дастанов важно понять какая аксиологический критерий скрыт в каждом из архетипов и их антагонистов. К примеру, Илья Муромец имеет такие аксиологические критерии как: доблесть, патриотизм, борьба с врагами за свободу родной земли. В свою очередь, Алпамыш имеет несколько иную аксиологическую ценность, связанную с религиозно-историческим и родоплеменным фактором.

Аксиологический подход в исследовании русских былин и восточных дастанов предполагает анализ эпического текста как носителя системы ценностей, отражающей мировоззрение, нравственные идеалы и социальные нормы традиционного общества. В рамках данного подхода художественные образы, мотивы и сюжетные формулы рассматриваются не только как элементы поэтики, но прежде всего как средства репрезентации культурно значимых ценностей.

К примеру, при сопоставлении героев из русских былин и дастанов можно увидеть следующее. См. таблицу 1

Параметр	**Илья Муромец**	**Алпамыш**
Социальное происхождение	Крестьянин (с. Карачарово)	Знатный род (Байбури, Бойсун)
Исходное состояние	33 года неподвижен	Долго не проявляет героизма
Смысл мотива	Потенциал народа	Потенциал рода, судьбы
Отношение к власти	Конфликт с князем	Защитник родового порядка
Модель поведения	По совести	По долгу рода
Функция	Народный заступник	Родовой лидер

Из данной таблицы можно сделать вывод, что оба героя проходят стадию «латентного героя» – силы существуют до момента их сакрального пробуждения. Аксиологическое различие между этими героями прослеживается в том, что если Илья – это народная сила снизу, то Алпамыш – это родоплеменная сила изнутри традиции.

Далее, аксиологические критерии прослеживаются в **способе** получения силы (инициация), например Илья Муромец исцеляется каликами перехожими, его сила имеет божественно-нравственное происхождение. Значит можно сделать вывод, что его аксиологическая инициация – это не испытание, а дар.

Что касается дастанного героя Алпамыша, то он проходит серию испытаний, которые включают в себя борьбу, разлуку, плен, возвращение. То есть с аксиологической точки зрения его сила формируется через героический опыт. Иными словами, с аксиологической точки зрения: Илья – это герой благословения, а Алпамыш – это герой испытания

В русских былинах ключевыми аксиологическими доминантами выступают патриотизм, служение родной земле, верность князю и коллективная ответственность героя перед обществом. Так, в былинах об Илье Муромце образ богатыря воплощает ценность защиты Отечества и народного единства: герой действует не ради личной славы, а во имя сохранения «земли Русской». Женские образы (мать, жена, невеста) при этом выполняют ценностно-ориентирующую функцию, благословляя героя на подвиг и укрепляя его моральную устойчивость.

В восточных дастанах («Алпамыш», «Гороглы», «Рустамхон») аксиологическая система во многом сосредоточена вокруг ценностей чести, родовой верности, нравственной стойкости и гармонии личного и общественного начала. Например, в дастане «Алпамыш» образ Барчин (Barchinoy) репрезентирует ценности верности, духовной силы и активного участия женщины в судьбе героя. Женский персонаж здесь выступает не только как объект защиты, но и как носитель самостоятельной нравственной позиции.

Сравнительный анализ показывает, что при различии культурных кодов русские былины и восточные дастаны демонстрируют общую аксиологическую основу, включающую идеалы долга, верности, справедливости и жертвенности. При этом национально-специфические формы выражения ценностей определяются историческими условиями, социальным укладом и мифопоэтическими традициями каждого народа.

Таким образом, аксиологический подход позволяет выявить ценностно-смысловое единство эпических традиций и углубить понимание героического эпоса как формы коллективной духовной памяти.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. **Жирмунский В. М.** Народный героический эпос. — Л., 1962.
2. **Пропп В. Я.** Русский героический эпос. — М., 1999.

3. **Зарифов Х.** Узбекский героический эпос. — Ташкент, 1972.
4. **Радлов В. В.** Образцы народной литературы тюркских племён. — СПб., 1896–1907.
5. **Мелетинский Е. М.** Поэтика мифа. — М., 1995.
6. **Лосев А. Ф.** Проблема ценности и смысла в культуре. — М., 1990.
7. **Самойлович А. Н.** Эпос тюркских народов и его типология. — М.; Л., 1934.

МИЛИЦИЯ ОРГАНЛАРИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Умарова Дилбархон Қахрамонжон қизи
Андижон Вилояти Ички Ишлар Бошқармаси Эксперт-криминалистика маркази

Аннотация. *Мазкур мақолада Совет даврида Ички ишлар органлари фаолияти ташкил топишининг хуқуқий асослари ва қадрлар масаласи, уларга қўйилган асосий вазифалар, шунингдек ушбу тизимни шаккланиши юзасидан олиб борилган кенг кўламли ислохотлар ва уларнинг оқибатлари ёритилиб ўтилган.*

Калит сўзлар: *тизим, Совет хокимияти, Ўлка сьезди, махсус органлар, Ички ишлар халқ комиссарлиги, Қизил гвардия, милиция инспектори, маьмурий қисм, анархия, телеграф.*

Abstract. *This article provides a scholarly analysis of the legal foundations for the formation and development of internal affairs bodies during the Soviet period. Special attention is given to value-related issues, the main tasks assigned to these bodies, as well as large-scale reforms implemented in the process of shaping this*

system and their socio-legal consequences.
Keywords: *system, Soviet power, regional congress, special bodies, People's Commissariat of Internal Affairs, Red Guard, police inspector, administrative department, anarchy, Telegraph Charter.*

Аннотация. *В статье научно анализируются правовые основы формирования и развития деятельности органов внутренних дел в советский период. Особое внимание уделяется вопросам ценностей, основным задачам, возложенным на органы внутренних дел, а также масштабным реформам, проведённым в процессе становления данной системы, и их социально-правовым-последствиям.*

Ключевые слова: *система, Советская власть, краевой съезд, специальные органы, Народный комиссариат внутренних дел, Красная гвардия, инспектор милиции, административный отдел, анархия, Телеграфный.*

Кириш. Ўзбекистон ички ишлар органларининг шаклланиши ва ривожланиш тарихи мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётининг муҳим йўналишларидан бири сифатида ўрганилиши зарур бўлган соҳалардан биридир. Мазкур органларнинг ташкил этилиши ва фаолияти нафақат ҳуқуқ-тартиботни сақлашда, балки жамиятда сиёсий ва иқтисодий барқарорликни таъминлашда ҳам муҳим рўл ўйнаган. Ички ишлар тизимининг шаклланиши ва ривожланиши турли даврларда мамлакатнинг сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳаётидаги ўзгаришлар билан узвий боғлиқдир. Янги Ўзбекистон шароитида Ички ишлар органлари фаолиятини тизимли ташкил этиш борасида вазифалар белгиланди. Бу борада ички ишлар органларининг шаклланиши, уларнинг жамиятга кўрсатган таъсири ва ривожланиш йўналишларини таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Асосий қисм. Инқилоб Туркистон ўлкасининг мамурий ва сиёсий маркази – Тошкентда 1917 йил 1 ноябрда ғалаба қозонди. Советларнинг 3 Ўлка сьезди ўлкада Совет хокимияти тузилганлиги тўғрисида баёнот қабул қилди.

Асосий мазмуни мехнаткаш халқ манфаатларини химоя қилишдан иборат тартиб ўрнатган Совет хокимияти инқилоб қонунлари, хуқуқ-тартиботга қатьий амал қилинишини таьминловчи махсус органларга мухтож эди. Таркиби, вазифалари ва иш услуби мутлақо ўзгача бўлган ишчи-дехқон милицияси ана шундай органлардан бири бўлиши керак эди.

1917 йил 28 октябрда, яьни инқилоб ғалаба қилгандан уч кун кейин, Совет хукуматининг ваколатига биноан Ички ишлар халқ комиссарлиги қабул қилган "Ишчи милиция тўғрисида" ги қарор янги турдаги милиция ташкил этилганлиги хақидаги биринчи кўрсатма эди. Қарорда барча ишчи ва солдат депутатлари Советларига инқилобий интизом ўрнатиш ва тартибни сақлаш учун ишчи милициялари таьсис этиш тўғрисида кўрсатма берилган ва бу орган фақат Советлар ихтиёрида бўлиши таькидланган. Харбий ва фуқаро хокимияти органлари зиммаларига ишчи милициясини қуроллантириш ва техника воситалари билан таьминлаш вазифаси юклатилди. Қарорнинг тўртинчи моддасида ушбу қонун телеграф орқали жорий этилиши айтилганди.

Ишчи милициясини таьсис этиш вазифасини Советлар зиммасига юклар экан, ИИХКнинг қарори жамоат тартибини мухофаза қилиш идораси совет милицияси ташкил этилганлигини хуқуқий жихатдан мустахкамлади.

Россия шахарларидан ибрат олиб, Туркистонда хам ишчи милицияси ташкил этила бошланди. Туркистон ўлкаси Халқ комиссарлари Советининг 1917 йил 18 ноябрдаги қарорида барча ишчи ва солдат депутатлари Советларига Қизил гвардия тузишга киришиш таклиф этилди. Қизил гвардияга, жумладан фуқароларнинг шахси ва мол мулкини мухофаза қилиш вазифаси хам топширилган эди.

1918 йил 29 январда Туркистон ХКСнинг 17-сонли "Захира қадрларни яратиш ва милиция ташкил этиш тўғрисида"ги буйруғи эьлон қилинди. Буйруқни бажариш фуқаро-маьмурий қисм комиссари зиммасига юклатилган эди. Эски харбий ва фуқаро милицияси узил-кесил бекор қилинди. Буйруқда маьмурият ва темир йўлдаги қўмиталар зарур холларда ёрдам сўраб, Қизил гвардияга мурожаат қилишлари кўзда тутилган эди.

Халқ мулкини қўриқлаш ва жамоат тартибини мухофаза қилишда деярли барча туманларда ташкил этилган фирқа дружиналари фаол иштирок этдилар. Улар омборлар, муассасаларни қўриқлар, шахарлардаги тартибни назорат қилар, асосий кўчалар ва чоррахаларни кузатар эди.

Янги милицияни ташкил этиш ва кадрлар тайёрлаш ишига рахбарлик қилиш учун 1918 йил 30 январда “Туркистон ўлкаси шахар ва туманлари милиция инспектори бошқармаси бўлими” ташкил этилди.

1918 йил 8 январда фуқаро-маьмурий қисм халқ комиссари Петровский хамда ишчи ва дехқон Советларига “Тошкент халқ милициясига киришни истовчилар учун рўйхат очиш” ни таклиф этди. 1918 йил 14 январда Туркистон ўлкаси Халқ Комиссарлар Совети фуқаро маьмурий қисм халқ комиссарига “анархия ва талон-тарож хавфига қарши муваффақиятли курашиш учун милиция захира қадрлари Устави ва уни тузиш тартибини ишлаб чиқишни таклиф этди. 1918 йил 17 январда бу хақда матбуотда хабар берилди.

1918 йил 28 январда Туркистон ўлкаси милициясини кадрлар билан тўлдириш юзасидан кенгаш бўлиб ўтди. Кенгашда “Туркистон ўлкаси шахар ва туманлари учун “милиция кадрларини ташкил этиш тўғрисида” ги Низом лойихаси мухокама қилинди.

1918 йил 14 февралда Туркистон Халқ Комиссарлари Совети “анархия ва талон-тарож хавфига қарши муваффақиятли курашиш учун милиция захира қадрлари Устави ва уни тузиш тартибини ишлаб чиқиш” зарурлигини кўрсатиб ўтди.

1918 йил 4 мартда “Туркистон ўлкаси милиция кадри Устави” тасдиқланди. Уставда “милиция кадри”га милицияга ёрдам керак бўлиб қолган тақдирда чақириладиган захира деб таьриф берилди. “Милиция кадри” га қабул қилинганларнинг асосий вазифаси “фуқароларнинг шахсий ва мулкий хавфсизлигини таьминлаш” дан иборат эди. Уставга кўра “милиция кадри” га 21 ёшдан катта ва 45 ёшдан кичик, саводли фуқаролар қилинар эди. Устав номзодларнинг ахлоқий-маьнавий сифатларига эьтибор беришни талаб қилар

эди. Бундан ташқари улар назарий ва амалий машғулотларга бўлинган икки ойлик тайёрлов курсларида ўқишлари талаб этилган.

Жамоат тартибини сақлашда “Милиция кадри” мехнаткашларинг ўзига хос иштироки бўлиб, ундан фавқулотда холларда: ёнғин, тошқин ва бошқа офатлар пайтида жамоат тартибини сақлаш учун фойдаланилар эди.

Шундан бир оз кейин “Совет ишчи-дехқон милицияси хизматчилари учун интизом Устави” қабул қилинди. Устав милиция ходимларининг зиммаларига юклатилган вазифаларни оғишмай бажаришга мажбур қилар эди. Бунда энг аввало республика манфаатлари кўзда тутилар эди. Милиция ходими “фақат суд хукмига кўра ёки Уставда белгиланган тартибда жазоланши мумкин” эди

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. **XVIIBJA**. Normativ hujjatlar papkasi. — Andijon, 1918 y.
2. **Бакатин В. В.** Doroga v proshedшem vremeni. — M., 2015. — 143 s.
3. **XVIIBJA**. Normativ hujjatlar papkasi. — Andijon, 1919 y.
4. **Qodirov Q.** O‘zbekistonda ichki ishlar organlari tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari // *Jamiyat va innovatsiyalar – Obshchestvo i innovatsii – Society and Innovations*. — 2023. — Issue 4, № 3. — 138–149 b. — **MJSHMA**, 1-fond, 1-ro‘yxat, 15-yig‘ma jild, KK 136.
5. **XVIIBJA**. IIB xodimlari shaxsiy yig‘ma jildlari.
6. **Центральный Комитет КПСС и Совет Министров СССР** // *Sovetskaya militsiya*. — 1968. — № 12. — 5 s.
7. Tarix: xotira, xulosa va saboqlar / mualliflar jamoasi; nashr uchun mas’ul **Ҳасанов Б. В.** — Toshkent, 2024. — 256 b.
8. **Qodirov Q. B.** Mustaqillik davrida O‘zbekistonda ichki ishlar idoralarining faoliyati (1991–2011 yillar): tarix fanlari falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. — Toshkent, 2019.
9. **Tajiev K., Matyakubov M.** Osoyishtalik yo‘lida bir asr. — T., 2022.

10. **Назиров Н.** Organizatsionno-pravovye osnovy stanovleniya i razvitiya militsii Tadzhikistana (1917–2006 gg.): avtoref. diss. … dok. yurid. nauk. — Moskva, 2007.

ШАХСНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ОМИЛЛАР

Шарипов Назаржон

Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти

Аннотация. *Мазкур мақолада шахснинг шаклланишига таъсир этувчи асосий омиллар таҳлил қилинади. Шахснинг шаклланиши мураккаб ва кўп қиррали жараён бўлиб, унга биологик, психологик ва ижтимоий омиллар таъсир кўрсатади. Мақолада ирсият, оила, таълим, ижтимоий муҳит ва маданият каби омилларнинг шахс шаклланишидаги роли илмий далиллар асосида ёритиб берилади. Шунингдек, шахснинг ўзига хос хусусиятлари ва индивидуал ривожланиш йўли ҳам кўриб чиқилади. Мақола хулосасида шахс шаклланишининг назарий ва амалий аҳамияти таъкидланади.*

Калит сўзлар: *шахс, комил инсон, интроверт, экстроверт, амбиверт, ижтимоийлашув, биологик омиллар, руҳий омиллар, ирсият.* ***Аннотация***. *В данной статье анализируются основные факторы, влияющие на формирование личности. Формирование личности - сложный и многогранный процесс, на который оказывают влияние биологические, психологические и социальные факторы. В статье на основе научных данных освещается роль таких факторов, как наследственность, семья, образование, социальная среда и культура в формировании личности. Также рассматриваются особенности личности и индивидуальный путь развития. В заключение*

статьи подчеркивается теоретическое и практическое значение формирования личности.

Ключевые слова: *личность, совершенный человек, интроверт, экстраверт, амбиверт, социализация, биологические факторы, психологические факторы, наследственность.****Abstract****. This article analyzes the main factors influencing personality formation. Personality formation is a complex and multifaceted process influenced by biological, psychological, and social factors. The article highlights the role of factors such as heredity, family, education, social environment, and culture in personality formation, based on scientific evidence. It also examines the specific characteristics of the individual and the individual path of development. In conclusion, the article emphasizes the theoretical and practical significance of personality formation.*

Keywords: *personality, perfect human, introvert, extrovert, ambivert, socialization, biological factors, psychological factors, heredity.*

Мустақилликка эришилганидан кейин Ўзбекистонда шахснинг маънавий ҳаётида қайта тикланиш жараёни жадал тарзда тус олди. Халқ тафаккурида миллий қадриятлар билан бирга универсал инсоний қадриятларнинг ўзаро таъсири намоён бўлди.

Маълумки, шахснинг маънавий тафаккури миллий қадриятлар, диний эътиқод ва замонавий ҳаёт талаблари ўртасидаги мувозанатни топиш орқали шаклланади. Маънавий макон шахсни шакллантирса, ўз навбатида, шаклланган шахс маънавий маконни юксалтиради.

Шахс – бу ўз қадр-қимматини англаган, юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, масъулиятли, иймон-эътиқодли, мустақил фикрлайдиган эркин фуқаро. Шахс феномени инсоннинг ижтимоий, маънавий ва маданий жиҳатларини ўз ичига олади. Комил инсон қиёфасида ақлий зукколик, ахлоқий баркамоллик, сиёсий теранлик, меҳнатга ҳалол муносабат, юқори маданият, ифтихор ва ғурур бирлашади.

Шахснинг энг муҳим хусусиятли жиҳатларидан бири - бу унинг индивидуаллигидир, яъни яккаҳоллигидир. Индивидуаллик деганда, инсоннинг шахсий психологик хусусиятларининг бетакрор бирикмаси тушунилади. Индивидуаллик таркибига характер, темперамент, психик жараёнлар, ҳолатлар, ҳодисалар, ҳукмрон хусусиятлар йиғиндиси, ирода, фаолиятлар мотивлари, инсон маслаги, дунёқараши, иқтидори, ҳар хил шаклдаги реакциялар, қобилиятлари ва шу кабилар киради (1,46).

Машҳур руҳшунос олим Карл Юнг инсон шахсиятини қуйидаги икки асосий типга ажратиб тушунтирди: **интроверт** – андишали, ички дунёга йўналган ва **экстроверт** – киришувчан, ташқи дунёга йўналган. Кейинчалик бу рўйхатга **амбиверт** – икки ёқлама типи ҳам қўшилди, чунки инсоният хилма-хиллигини фақат икки тоифага чеклаб бўлмайди.

Биринчи тоифадаги интроверт шахс бошқалар билан чекланган доирада мулоқот қилиши билан ажралиб туради; унинг танишлари жуда кам бўлиб, ҳаддан ташқари эҳтиёткорлиги ва ўзгаларнинг ниятларига шубҳа билан қараши билан ажралиб туради.

Бундай инсон ижтимоийлашувни хуш кўрмайди, оммавий тадбирларда сояда қолишни афзал кўради ва омма олдида гапириш каби ўзини ноқулай ҳис қиладиган вазиятлардан қочади. Одатда у камгап, ўз ички дунёсига ғарқ бўлган, хаёлпараст, хавотирга мойил ва паришонхотир бўлади. Қарор қабул қилишда ёки ташаббус кўрсатишда сусткашлик ва иккиланиш унга хос хусусиятдир. Кўпинча файласуфлар, шоирлар ва олимлар айнан шу тоифага мансуб бўладилар.

Иккинчи тоифадаги экстроверт шахс интровертнинг акси ўлароқ, ижтимоий муҳитга тез мослашиши ва одамлар билан мулоқотни севиши билан ажралиб туради. У инсонларга катта қизиқиш билан қарайди, янги дўстлар орттиришдан завқланади ва одатда кенг танишлар даврасига эга бўлади. У жамоавий ишни афзал кўради, равон гапиради ва баҳс-мунозараларни яхши кўради. Ўзига бўлган ишончи юқори, муаммоларга енгил қарайди ва хижолатпазлик нималигини билмайди. У атрофда бўлаётган воқеаларга

нисбатан ниҳоятда диққатли ва сезгирдир. Ислоҳотчилар ва ижтимоий соҳа ходимлари одатда шу типга киради.

Учинчи тоифа амбиверт шахс ўз ичида ҳам интроверт, ҳам экстроверт хусусиятларини жамлаган бўлиб, бундай инсонлар вазминлиги билан ажралиб туради. Уларнинг руҳий қуввати ички дунёсига (фикр ва туйғуларига) ва ташқи оламга (одамлар ва ҳаракатларга) тенг тақсимланган. Бу тип инсонлар орасида энг кўп тарқалган бўлиб, кўпчилигимиз айнан шу тоифага кирамиз.

Шахс ижтимоий хулқига турли ташқи кучлар таъсир қилади: сиёсий, мафкуравий, иқтисодий, маънавий, ахлоқий ва бошқалар. Бу таъсиротлар моҳиятан, аслида жамият аъзолари бўлмиш шахслар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг айрим алоҳида йўналишларини белгилаб беради (2, 174).

Фалсафада шахснинг шаклланиш жараёни социализация деб аталади (3,244).

Шахсият бир неча омил натижасида шаклланади. Улар руҳий, жисмоний, биологик ва ирсий жиҳатларни ўз ичига олган мураккаб омиллар мажмуидир. Шахс бу омилларнинг ўзаро чамбарчас таъсирининг якуний маҳсули бўлиб, улар биргаликда унинг шаклланиши ва ривожланишига ҳисса қўшади.

Қуйида шахсиятнинг шаклланишига таъсир этувчи энг муҳим омилларни келтириб ўтамиз:

Биологик омиллар ўз навбатида қуйидаги кўринишларда намоён бўлади:

•**Жисмоний хусусиятлар.** Жисмоний хусусиятлар шахсиятни шакллантиришда асосий роль ўйнайди. Буларга бўй, вазн, тери ранги, жозибадорлик ва соғлиқ ҳолати киради. Масалан, бўйнинг узун ёки калталиги, ташқи кўринишининг чиройли ёки оддийлиги инсоннинг бошқалар билан муомала қилиш тарзига, шу орқали унинг шахсияти ривожига катта таъсир кўрсатади, деб ҳисобланади. Бу хусусиятлар, айниқса, ижтимоий ва касбий муҳитда инсоннинг хулқ-атворини ва атрофдагилар билан ўзаро муносабатини белгилашда марказий роль ўйнайди.

• **Биокимё.** Эндокрин безлар ўсиш ва хулқ-атворга таъсир этувчи кимёвий секрециялар орқали шахсиятга таъсир қилишда муҳим роль ўйнайди. Масалан, қалқонсимон без ўсиш суръатини назорат қилувчи тироксин гормонини ажратади. Агар без фаол бўлмаса, инсон дангаса ва тушкун бўлиб қолади, агар у жуда фаол бўлса, у безовта ва тез жаҳл чиқарадиган бўлади. Шунингдек, гипофиз, буйрак усти безлари ва жинсий безлар каби бошқа безлар инсоннинг эмоционал, руҳий ва жисмоний мувозанатига таъсир қилиб, унинг шахсиятини шакллантиришга ёрдам беради.

• **Асаб тизими.** Асаб тизими билим дарвозаси ҳисобланган сенсор аъзоларнинг самарадорлиги таянадиган тузилмадир. Интеллектуал фаолият, чидамлилик, мослашиш тезлиги ва ўрганиш қобилияти – буларнинг барчаси асаб тизимининг самарадорлигига бевосита боғлиқ. Ушбу тизимдаги ҳар қандай нуқсон ёки шикастланиш инсон шахсияти ва хулқ-атворида катта ўзгаришларга олиб келиши мумкин.

• **Ирсият.** Ирсият ота-онадан фарзандларга жисмоний ва руҳий хусусиятларнинг ўтишида муҳим роль ўйнайди. Бу хусусиятлар сирасига мижоз (темперамент), куч-қувват даражаси, мушак тузилиши ва муайян касалликларга мойиллик киради.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, шахсиятнинг тортинчоқлик ёки журъатлилик каби айрим қирраларига генетик омиллар сезиларли даражада таъсир кўрсатиши мумкин. Бироқ, ирсият ягона омил эмас, ҳаётий тажрибалар ва атроф-муҳит ҳам ушбу хусусиятларнинг шаклланиши ва ривожланишида ўз ҳиссасини қўшади.

Ижтимоий омиллар инсон шахсиятини шакллантириш ва унинг хусусиятларини белгилашда муҳим роль ўйнайди. Биз ўсаётган ижтимоий муҳит, ҳар куни ўзаро алоқада бўладиган маданият ва атрофдагилар билан қурадиган муносабатларимиз – барчаси хулқ-атворимизга, ижтимоий-маънавий тузилишимизга таъсир этувчи асосий омиллардир. Бу омиллар оила, мактаб, маданият, тил ва биз яшаётган жамиятни ўз ичига олади.

- **Оила.** Оила боланинг илк муҳити бўлиб, айниқса, ҳаётининг дастлабки босқичларида унинг шахс сифатида ривожланишига катта таъсир кўрсатади. Ота-она энг кўп таъсир этувчи омиллар бўлиб, улардан кейин оиланинг бошқа аъзолари туради. Ота-онанинг таълим даражаси қадриятлар ва хулқ-атворни сингдиришда роль ўйнайди. Ўз навбатида оила ҳам бола шахсиятига бир нечта омиллар орқали таъсир қилади. Оила аъзоларининг сони оила ичидаги муносабатлар табиатига таъсир қилади. Фарзандлар орасидаги туғилиш тартиби инсон шахсиятининг хусусиятларини белгилашда роль ўйнайди. Оиланинг ижтимоий ва иқтисодий даражаси шахснинг интилишлари ва кутилмаларига таъсир қилади.
- **Этник келиб чиқиш ва дин.** Шахснинг этник ва диний мансублиги қадриятлар ва эътиқодларга таъсир кўрсатади.
- **География жойлашув.** Атроф-муҳит ва турмуш тарзини белгилайди.
- **Мактаб.** Мактаб боланинг оила доирасидан ташқаридаги илк ижтимоий институтидир. У қадриятлар ва интизомни сингдириш, вақтида келиш ва тартибга риоя этишни кучайтириш, тенгдошлар билан ижтимоий ўзаро алоқани рағбатлантириш, қонунлар ва ижтимоий меъёрларга мослашиш кўникмаларини шакллантириш орқали унинг шахсиятини шакллантиришга ҳисса қўшади.
- **Маданият.** Маданият – жамият аъзолари ўртасида умумий бўлган орттирилган хулқ-атвор хусусиятлари мажмуидир. У қадриятлар, эътиқодлар, меъёрлар ва хулқ-атвор намуналарини ўз ичига олади. Маданият қарор қабул қилиш услубини белгилашда, мустақиллик, рақобат ёки ҳамкорлик қадриятларини мустаҳкамлашда, шунингдек, устувор маданий қадриятларга асосланган ҳолда муносабатлар ва қарашларни шакллантиришда муҳим роль ўйнайди. Ҳар бир маданият минтақадан минтақага ёки гуруҳдан гуруҳга фарқ қиладиган субмаданиятларга эга, бу эса инсонни унинг шахсиятига бевосита ва билвосита таъсир этувчи каттароқ тизимнинг бир қисмига айлантиради.

• **Тил.** Тил фақат мулоқот воситаси эмас, балки шахсиятни шакллантиришнинг асосий элементидир. Инсон ишлатадиган нутқ намуналари ва луғат бойлиги унинг фикрлаш тарзи, кайфияти ва эътиқодлари каби барқарор шахсий хусусиятларини намоён этади. Тил инсоннинг ички дунёсини ҳам акс эттиради ва унинг индивидуал хусусиятларини чуқурроқ тушуниш воситаси ҳисобланади.

Руҳий омиллар инсон шахсиятини шакллантириш ва унинг қиёфасини белгилашда ҳал қилувчи роль ўйнайди. Бу омиллар инсоннинг ақлий, ҳиссий ва хулқ-атвор табиати билан боғлиқ бўлиб, шахсиятнинг ўсиши ва ривожланишига таъсир қилиш учун бошқа омиллар билан ўзаро алоқага киришади. Қуйида ушбу омилларнинг энг муҳимлари тушунтирилади:

• **Интеллект.** Интеллект шахсиятга таъсир этувчи асосий омиллардан биридир. Юқори ақлий қобилиятга эга бўлган инсонлар ўзларини жиловлаш ва мулоҳазали қарорлар қабул қилишда катта имкониятларга эга бўладилар. Бироқ, ҳаддан ташқари юқори интеллект баъзи қийинчиликларни ҳам келтириб чиқариши мумкин, масалан: салбийликка мойиллик, бошқаларга нисбатан бағрикенгликнинг етишмаслиги, ҳиссий зиддиятлар, яккаланиш ва ўзига ҳаддан ташқари ишониш, шунингдек, ҳукмронликка интилиш. Шу сабабли, интеллектдан фойдаланишда мувозанатни сақлаш барқарор шахсиятни шакллантиришнинг асосий гаровидир.

• **Мотивация.** Мотивация инсон хулқ-атвори ортидаги ҳаракатлантирувчи куч бўлиб, шахсиятга бевосита таъсир кўрсатади. Мотивация ижобий бўлиб, инсонни мақсадлари сари илҳомлантириши ёки салбий бўлиб, унинг ғайратини сўндириши ва ривожланишига тўсқинлик қилиши мумкин. Мотивация орқали инсон ўз интилишларини қуради ва ҳаётдаги йўналишларини белгилайди, бу эса унинг шахсияти шаклланишига хизмат қилади.

• **Ҳиссиётлар.** Ҳиссиётлар шахсиятни шакллантиришда муҳим роль ўйнайди, чунки улар инсоннинг шахсий ва ижтимоий мослашувига бевосита

таъсир қилади. Ҳиссиётлар билан боғлиқ муҳим жиҳатлар қуйидагилардан иборат:

–ҳиссий мувозанат: Оқилона қарорлар қабул қилиш ва руҳий барқарорликка эришишга ёрдам беради.

–ҳиссий маҳрумлик: Одамовиликка ёки салбий хатти-ҳаракатларга олиб келиши мумкин.

–ҳиссиётларни ифодалаш: Инсоннинг бошқалар билан мулоқот қилиш қобилиятини акс эттиради.

–ҳиссий босим: Шахсий ва ижтимоий фаолият самарадорлигига таъсир қилади.

Ҳиссиётлар инсоннинг руҳий тажрибалари чуқурлигини кўрсатиб, унинг мослашувчанлиги ва вазиятларга кўникиш қобилиятини намоён этади.

- **Хулқ-атвор.** Инсоннинг хулқ-атвори атрофидаги кишилар – ота-она, ака-ука, дўстлар ва қариндошларнинг муносабати таъсирида шаклланади. Шахсият инсон бошдан кечирадиган ижтимоий ўзаро алоқалар асосида таркиб топади ва бу хатти-ҳаракатлар қуйидаги фазилатларни ривожлантиришга хизмат қилади: мустақиллик, ижтимоий фаоллик, муаммоларни ҳал қилиш қобилияти ва турли муҳитларга мослашиш ва ҳоказо.

- **Қизиқиш ва туйғулар.** Қизиқиш ва туйғулар инсон тажрибасининг ажралмас қисми бўлиб, шахсият шаклланишига бевосита таъсир этувчи омиллардир. Бу таъсирлар қуйидагиларда намоён бўлади:

–ижобий ёки салбий фикрлашни ривожлантириш;

–турли ақлий ва ҳиссий қолипларни қуриш;

–инсоннинг ўзига ва атрофдаги оламга бўлган қарашини белгилаш.

Руҳий омиллар шахсиятни шакллантиришда муҳим ички жиҳатни ифодалайди. Интеллект, мотивация, ҳиссиётлар, хулқ-атвор ва қизиқишлар – барчаси ташқи муҳит билан ўзаро алоқада бўладиган ноёб шахсиятни яратиш учун биргаликда ҳаракат қилади. Ушбу омиллар орасидаги мувозанат қийинчиликларга бардош бера оладиган ва ҳаётда муваффақиятга эришадиган мослашувчан ҳамда кучли шахсиятни ривожлантиришнинг калитидир.

Шахсиятни англаш – инсон хулқ-атворини ва унинг атрофдаги олам билан ўзаро муносабатларини тушунишда асосий қадамдир. Ушбу изланишлар орқали аён бўлдики, шахсият шунчаки ўзгармас хислатлар тўплами эмас, балки вақт ўтиши билан ривожланиб борувчи биологик, руҳий ва ижтимоий омилларнинг мураккаб ва динамик қоришмасидир.

Шахсиятнинг турли типларини ва уни шакллантирувчи омилларни ўрганиш орқали биз атроф-муҳит ва ирсиятнинг инсон хулқ-атворига таъсири нечоғли юқори эканини англашимиз мумкин. Шунингдек, интеллект, мотивация ва ҳиссиётлар каби руҳий омиллар шахсият қиёфасини белгилашда марказий ўрин тутади.

Шахсият мавзуси ижтимоий-фалсафий соҳанинг фундаментал йўналишларидан бири бўлиб, инсон хулқ-атвори, маънавий-руҳий оламини чуқурроқ ўрганиш, турли ҳаётий жабҳаларда одамлар ўртасидаги мулоқот ва ўзаро алоқани яхшилаш учун унинг таъсири ва ривожланишини тадқиқ этишда давом этиш муҳим аҳамиятга эга. Миллий қадриятлар, тарихий мерос ва замонавий тенденцияларнинг ўзаро ўйнашмаси шахснинг маънавий жиҳатдан барқарор ривожланишига имкон яратади. Маънавий барқарорликни таъминлашда шахснинг фаол ижтимоий ва маданий фаоллиги, маънавий тарбия ва миллий анъаналарни сақлаш муҳимдир. Ушбу тадқиқот натижалари маънавий барқарорликни мустаҳкамлаш ва жамиятнинг ижтимоий-маънавий ривожини таъминлаш учун амалий аҳамиятга эга бўлади деган умиддамиз.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. **Абдуллаева Ш. Х.** Ижтимоий психология. — Т., 2021. — 320 б.
2. **Умаров Б. М.** Психология. — Т., 2012. — 272 б.
3. **Аҳмедова М., Хан В.** (таҳр.). Фалсафа. — Т., 2005. — 350 б.

MODERN APPROACHES IN ECONOMICS, LAW, EDUCATION, AND HEALTHCARE

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR ORASIDAGI IJTIMOIY SOLISHTIRISH JARAYONLARIGA TA'SIRI

Abdullayeva Durdona Ravshanjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida ijtimoiy solishtirish jarayonlariga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun o'zini namoyon etish va o'z-o'zini baholash maydoni sifatida xizmat qilayotganligi ushbu jarayonda ijtimoiy solishtirish mexanizmlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Maqolada L. Festingerning ijtimoiy solishtirish nazariyasiga tayangan holda, yuqoriga va pastga yo'naltirilgan solishtirish turlarining yoshlar psixologik holati va shaxsiy identitetiga ko'rsatayotgan ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari sog'lom raqamli madaniyatni shakllantirish va ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy solishtirish, idealizatsiya, vizual axborot, yoshlar psixologiyasi, o'zini baholash, shaxsiy identitet.*

Abstract. *This article provides a theoretical analysis of the impact of digital technologies and social networks on social comparison processes among young people. Social networks function as spaces for self-presentation and self-evaluation, thereby intensifying mechanisms of social comparison. Based on Festinger's social comparison theory, upward and downward forms of comparison and their influence on psychological well-being and identity formation in youth are examined. The findings highlight the importance of fostering healthy digital culture and promoting mindful use of social media.*

Keywords: *digital technologies, social networks, social comparison, idealization, visual information, youth psychology, self-esteem, personal identity.*

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически анализируется влияние цифровых технологий и социальных сетей на процессы социального сравнения среди молодежи. Социальные сети выступают пространством самопрезентации и самооценки молодежи, что способствует усилению механизмов социального сравнения. На основе теории социального сравнения Л. Фестингера рассматриваются восходящие и нисходящие виды сравнения, а также их влияние на психологическое состояние и формирование личностной идентичности молодежи. Результаты исследования подчеркивают необходимость формирования здоровой цифровой культуры и осознанного использования социальных сетей.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, социальные сети, социальное сравнение, идеализация, визуальная информация, психология молодежи, самооценка, личностная идентичность.*

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borib, insonlarning fikrlash tarziga, ijtimoiy munosabatlariga hamda shaxsiy rivojlanish jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasining keskin ortishi ularning o‘zini anglash, o‘zini baholash va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Bugungi kunda Instagram, Telegram, TikTok, Facebook kabi platformalar nafaqat muloqot vositasi, balki shaxsning ijtimoiy maqomi va o‘zini taqdim etish maydoni sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy psixologiyada shaxsning o‘zini baholashi va xulq-atvorini shakllantirishda ijtimoiy solishtirish jarayoni muhim o‘rin tutadi. L. Festinger tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy solishtirish nazariyasiga ko‘ra, insonlar o‘z qobiliyatlari, muvaffaqiyatlari va qadriyatlarini baholashda boshqalar bilan solishtirishga tabiiy ehtiyoj sezadilar. An’anaviy ijtimoiy muhitda bu jarayon nisbatan cheklangan doirada amalga oshgan bo‘lsa, raqamli texnologiyalar ushbu solishtirish imkoniyatlarini cheksiz darajada kengaytirdi. Natijada, yoshlar kun

davomida yuzlab, hatto minglab idealizatsiya qilingan obrazlar, muvaffaqiyatli hayot manzaralari va ijtimoiy taqqoslash uchun qulay vizual axborot bilan to‘qnash kelmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda kuzatiladigan yuqoriga yo‘naltirilgan ijtimoiy solishtirish yoshlarning o‘z-o‘zini baholash darajasi, ruhiy holati va psixologik farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim holatlarda bu jarayon motivatsiya va o‘zini rivojlantirishga turtki bo‘lsa, boshqa vaziyatlarda qoniqmaslik, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va past o‘zini baholash kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Shu bois, raqamli makonda shakllanayotgan ijtimoiy solishtirish mexanizmlarini chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Asosiy qism. Ijtimoiy solishtirish jarayoni shaxs psixologiyasining muhim mexanizmlaridan biri bo‘lib, insonning o‘zini anglash, o‘zini baholash va ijtimoiy muhitga moslashuvida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tushuncha ilk bor L. Festinger tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra insonlar o‘z fikrlari, qobiliyatlari va yutuqlarini baholashda boshqalar bilan solishtirishga ehtiyoj sezadilar [1]. An’anaviy ijtimoiy muhitda bu jarayon nisbatan cheklangan doirada amalga oshgan bo‘lsa, raqamli texnologiyalar rivoji natijasida ijtimoiy solishtirish jarayoni virtual makonda keng ko‘lamda namoyon bo‘lmoqda. Endilikda yoshlar o‘zini real shaxslar bilan emas, balki idealizatsiya qilingan virtual obrazlar bilan solishtirmoqda. Bu solishtirish esa yoshlar orasida o’z o’zidan qoniqmaslik, o’ziga nisbatan past baho berish, o’z hayotidan qoniqmaslik va xavotir darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar motivatsiya va o‘zini rivojlantirish uchun ijobiy resurs sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy solishtirishning yuqoriga va pastga yo‘naltirilgan shakllari ajratiladi. Yuqoriga yo‘naltirilgan solishtirish motivatsiyani oshirishi mumkin bo‘lsa-da, uning haddan tashqari kuchayishi psixologik noqulaylikka olib kelishi qayd etilgan [2]. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar bilan so’rovnoma o’tkazilganda ham bu natijani ko’rishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan kunlik me’yordan ko’p foydalanuvchilar orasida ko’proq o’zidan,

yashash sharoitidan qoniqmaslik, o’zini qabul qilolmaslik kabilarni uchratishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan me’yorida foydalanuvchi yoshlarda esa bu holatlar kuzatilishi kamroq ekanligi aniqlangan.

So‘nggi yillarda internet va mobil texnologiyalarning keng tarqalishi ijtimoiy munosabatlar shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ijtimoiy tarmoqlar tezkor axborot almashinuvi, vizual kontent ustunligi va interaktivlik bilan ajralib turadi [3]. Malumki, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ijobiy va salbiy oqibatlari ajratiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot almashinuvining tezligi va malumotlarni ko’rish orqali qabul qilish yuqoriligini ham ijobiy ham salbiy sifatga kiritishimiz mumkin. Vizual axborotning emotsional ta’siri kuchli bo‘lib, u yoshlar ongida real hayotdan ko‘ra jozibaliroq, mukammallashtirilgan tasavvurlarni shakllantiradi. Filtrlar va tahrirlangan kontent orqali foydalanuvchilar o‘z hayotining faqat ijobiy jihatlarini namoyon etishga intiladilar. Yoshlik davri shaxsiy identitet shakllanadigan va ijtimoiy qabul qilinishga ehtiyoj kuchli bo‘lgan davr hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar ushbu ehtiyojni qondiruvchi muhim platformaga aylangan [4].

“Layk”, “izoh” va “obunachilar soni” kabi ko‘rsatkichlar yoshlar ongida ijtimoiy maqom belgisi sifatida qabul qilinib, o‘z-o‘zini baholashga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardagi idealizatsiya qilingan kontent yoshlarning o‘zini real imkoniyatlari bilan taqqoslashiga sabab bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yuqoriga yo‘naltirilgan ijtimoiy solishtirish o‘z-o‘zini baholashning pasayishi va xavotir darajasining oshishi bilan bog‘liq [2]. Vizual axborot tez qabul qilinishi sababli ongga chuqur ta’sir ko‘rsatadi va real hayot bilan virtual tasvirlar o‘rtasidagi tafovutni kuchaytiradi [6].

Yoshlar orasida yuqoriga yo‘naltirilgan ijtimoiy solishtirish ko‘proq uchrab, bu holat o‘z-o‘zini baholashning pasayishiga, qoniqmaslik va xavotir darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar motivatsiya va o‘zini rivojlantirish uchun ijobiy resurs sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Pastga yo‘naltirilgan solishtirish esa shaxsning o‘zini baholashini barqarorlashtirishga yordam beradi [5]. Pastga yo’naltirilgan solishtirish ijtimoiy tarmoqlardan meyorida

foydalanadigan yoshlarda kuzatiladi va ularda o’ziga ishonchni yuqoriligini ko’rishimiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish depressiv holatlar, ijtimoiy izolyatsiya va past o‘zini baholash bilan bog‘liq ekani ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [2]. Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ongli foydalanish holatlarida ijobiy psixologik ta’sir ham kuzatiladi. Raqamli texnologiyalar yoshlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, bilim olish va global muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi [7]. Shu bois, ta’lim jarayonida raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va sog‘lom ijtimoiy solishtirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida ijtimoiy solishtirish jarayonlarini sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Idealizatsiya va vizual axborot ustunligi yoshlarning o‘z-o‘zini baholashi va ruhiy holatiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, yoshlar bilan ishlash jarayonida sog‘lom raqamli madaniyatni shakllantirish, ongli foydalanish va psixologik profilaktika choralarini kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Festinger L.** A theory of social comparison processes // *Human Relations*. — 1954. — Vol. 7, № 2. — P. 117–140.
2. **Twenge J. M.** iGen. — New York, 2020.
3. **Smith A., Anderson M.** Social Media Use in 2018. — 2018.
4. **Vogel E. A. et al.** Social comparison, social media, and self-esteem // *Psychology of Popular Media Culture*. — 2014. — Vol. 3, № 4. — P. 206–222.
5. **Valkenburg P. M., Peter J., Schouten A. P.** Friend networking sites and adolescents’ well-being // *Cyberpsychology & Behavior*. — 2017.
6. **Chou H.-T. G., Edge N.** The impact of Facebook on perceptions of others’ lives // *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*. — 2012.
7. **Anderson M., Jiang J.** Teens, Social Media & Technology 2018. — 2018.

TALABALARDA INTERNET-AGRESSIYANING PSIXOLOGIK OMILLARI VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Abdullayeva Dilnoza Qurbonbek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *ushbu maqolada talabalarda internet-agressiyaning psixologik omillari, uning shaxs rivojiga ta’siri hamda agressiv onlayn xulq-atvorni kamaytirishning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasasi talabalarida internet-agressiya darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan kichik empirik tadqiqot natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida psixoprofilaktik va psixokorreksion tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *internet-agressiya, kiberbulling, psixologik omillar, talaba shaxsi, empirik tadqiqot, psixoprofilaktika.*

Abstract: *This article discusses the psychological factors of Internet aggression in students, its impact on personal development, and psychological mechanisms for reducing aggressive online behavior. Also, the results of a small empirical study conducted to determine the level of Internet aggression in students of a higher educational institution are analyzed. Based on the results of the study, psychoprophylactic and psychocorrectional recommendations were developed.*

Keywords: *Internet aggression, cyberbullying, psychological factors, student personality, empirical research, psychoprophylaxis.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИНТЕРНЕТ-АГРЕССИИ СРЕДИ СТУДЕНТОВ И СПОСОБЫ ЕЁ ИСКОРЕНЕНИЯ

Наманганского государственного педагогического института

Докторант Абдуллаева Дильноза Курбонбек кизи

Аннотация: *В данной статье рассматриваются психологические факторы интернет-агрессии у студентов, её влияние на личностное*

развитие и психологические механизмы снижения агрессивного поведения в сети. Также анализируются результаты небольшого эмпирического исследования, проведенного для определения уровня интернет-агрессии у студентов высшего учебного заведения. На основе результатов исследования разработаны психопрофилактические и психокоррекционные рекомендации.

Ключевые слова: *интернет-агрессия, кибербуллинг, психологические факторы, личность студента, эмпирическое исследование, психопрофилактика.*

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari va internetning jadal rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, messenjerlar va boshqa onlayn platformalar shaxslararo aloqaning asosiy vositasiga aylandi. Ayniqsa, talabalar orasida internet ijtimoiylashuvning muhim vositasiga aylandi. Biroq virtual makonda yuzaga kelayotgan agressiv xatti-harakatlar talaba shaxsining psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, bu jarayon bilan birga internet muhitida agressiv xatti-harakatlar, haqorat, tahdid, kamsitish va kiberbulling kabi salbiy holatlar ham keng tarqalmoqda. Psixologik nuqtai nazardan internet-agressiya – bu shaxsning ichki ziddiyatlari, emotsional beqarorligi va ijtimoiy moslashuv muammolarining virtual muhitda namoyon bo‘lish shaklidir.

Psixologiya fanida agressiya tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Umuman olganda, agressiya – bu boshqa shaxsga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuasidir. Agressiya ochiq (jismoniy zo‘ravonlik) va yashirin (og‘zaki haqorat, kamsitish) shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Internet muhitida agressiya ko‘proq og‘zaki va psixologik shaklda namoyon bo‘ladi. Bunga haqoratli izohlar, tahdidli xabarlar, masxara qilish, yolg‘on ma’lumot tarqatish kiradi. Internet-agressiya – bu onlayn muloqot jarayonida boshqa foydalanuvchilarga nisbatan dushmanona, tajovuzkor va zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarning majmuasidir. U real hayotdagi agressiyadan farqli ravishda, masofa va anonimlik orqali kuchayadi.

Ushbu maqolada internet-agressiya talaba shaxsining psixik rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi va uni kamaytirishning ilmiy asoslangan usullari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ilmiy manbalarda internet-agressiya tushunchasi turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jumladan: Anderson va Bushmanning 2002-yilda chop etilgan “Human aggression” ilmiy maqolasida internet-agressiyani umumiy agressiya nazariyasi asosida tushuntiradi [1-]. Bu fikrdan shuni anglash mumkinki agressiya shaxsning ichki (stress, frustratsiya) va tashqi (ijtimoiy muhit) omillar ta’sirida yuzaga keladigan xulq-atvor shaklidir. Internet muhitida esa anonimlik agressiv impulslarni kuchaytiradi. Talabalar internetda agressiv xatti-harakatlarni ko‘rish orqali uni o‘zlashtirishi mumkin. Buning natijasida, ular o‘zlashtirgan agressiv xatti-harakatlar ularning xulq-atvori va ta’lim-tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Undan tashqari agressiya shaxsning ichki xususiyatlari (jahldorlik, dushmanlik) bilan bog‘liq. Internet muhiti bu xususiyatlarni kuchaytiruvchi omil bo‘lishi mumkin.

Kovalski, Limber va Agatstonning 2012-yilda chop etilgan “Cyberbullying: Bullying in the Digital Age” nomli asarining ikkinchi nashrida internet-agressiyaning psixologik oqibatlarini empirik asosda yoritishgan. Ularning fikricha: Kiberbulling va internet-agressiya yoshlar, jumladan talabalar orasida psixologik travmalar, xavotir va depressiyani keltirib chiqaradi [2-]. Internet agressiyasi ko‘pincha uzoq muddatli ruhiy oqibatlarga olib keladi. Buning natijasida inson salomatligiga ham putur yetishi mumkin. Xorij tadqiqorchilaridan Suler ham o‘zining “The Online Disinhibition Effect” maqolasida internet-agressiyaning psixologik mexanizmini tushuntirib bergan [3-]. Uning fikricha, internetda anonimlik va masofaviy muloqot sababli shaxs o‘zini nazorat qilish mexanizmlarini yo‘qotadi va agressiv xatti-harakatlarga moyil bo‘ladi.

Internet-agressiyaning talaba shaxsiga ta’siri bo‘yicha o‘zbek tadqiqotchilaridan Vasila Karimovaning 2019-yilda chop etilgan “Yoshlar psixologiyasi” nomli asarida ushbu muammoni milliy kontekstda izohlab bergan. Uning fikricha, talabalik davrida emotsional beqarorlik va o‘zini tasdiqlash ehtiyoji

kuchli bo‘ladi [4-]. Ushbu holatlar nazoratsiz internet muhitida agressiv xulq-atvorga olib kelishi mumkin. Internet-agressiya talabalarda psixologik tushkunlik, ijtimoiy chekinish va o‘quv motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, G‘oziyevning 2018-yilda chop etilgan “Pedagogik psixologiya” asarida internet-agressiyani bartaraf etish bo‘yicha pedagogik-psixologik yechimlarni taklif etadi [5-]. Ta’lim muhitida sog‘lom psixologik muhit yaratish agressiv xulq-atvorni kamaytiradi. Kognitiv-xulqiy yondashuv va media savodxonlik yoshlarni internet-agressiyadan himoya qilish, agressiv fikrlashni o‘zgartirish va xulqni tuzatishda muhim omildir. Chunki internet-agressiya real hayotdagi zo‘ravonlikdan kam xavfli emas, sababi u doimiy va ommaviy xarakterga ega. Ba’zi holatlarda onlayn agressiv xulq-atvor shaxsning ichki emotsional zo‘riqishiga javob reaksiyasi bo‘lishi mumkin.

Psixologik adabiyotlarda internet-agressiyani agressiyaning zamonaviy, virtual shakli sifatida ko‘rsatsa, boshqalari esa shaxslararo munosabatlardagi psixologik muammolarning internetdagi namoyon bo‘lishi sifatida izohlaydi. Qolaversa, o‘z-o‘ziga nisbatan bahoning pastligi, o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan kuchli ehtiyoj va empatiya darajasining pastligi internet-agressiya bilan bevosita bog‘liqligi ta’kidlanadi. Talabalik davri shaxs shakllanishining muhim bosqichi bo‘lgani sababli, bu davrda bunday muammolar yanada keskinlashadi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, oilaviy muammolar, guruhdagi salbiy munosabatlar, real hayotdagi kommunikativ qiyinchiliklar, tengdoshlar bilan nizolar ham internet-agressiyani kuchaytiruvchi omillardir. Ayniqsa, yoshlar orasida bu holat keng uchraydi. Internet-agressiya talabalarda quyidagi psixologik muammolarni keltirib chiqaradi:

- depressiv holatlar;
- doimiy xavotir va ichki zo‘riqish;
- o‘ziga nisbatan ishonchsizlik;
- ijtimoiy izolyatsiya;
- o‘quv motivatsiyasining pasayishi.

Bu holatlar talaba shaxsining barkamol rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Internet madaniyatini shakllantirish, foydalanuvchilarga onlayn xulq-atvor qoidalarini o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar orasida internet-agressiyani kamaytirishda ota-onalar va o‘qituvchilarning nazorati va psixologik qo‘llab-quvvatlashi muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlar agressiv kontentni nazorat qilish, shikoyat mexanizmlarini takomillashtirish orqali muammoni kamaytirishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada talabalarda internet-agressiyaning psixologik omillari, uning shaxs rivojiga ta’siri hamda agressiv onlayn xulq-atvorni kamaytirishning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasasi talabalarida internet-agressiya darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan kichik empirik tadqiqot natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida psixoprofilaktik va psixokorreksion tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola talabalar, pedagoglar, agressiya muammosi bilan shug‘ullanuvchi mutaxa ssislar va psixologlar uchun mo‘ljallangan.

TADQIQOT ISHI TASHKIL ETILISHI, TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqotning maqsadi: Talabalarda internet-agressiya darajasi va uning psixologik omillar bilan bog‘liqligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti: Oliy ta’lim muassasasining 1–3-bosqichda tahsil olayotgan talabalari.

Tadqiqot predmeti: Talabalarda internet-agressiya darajasi va emotsional holat o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Tadqiqot usullari

- so‘rovnoma;
- psixologik test elementlari;
- statistik tahlil.

Tadqiqotda 60 nafar talaba ishtirok etdi. Ularga internetdagi xulq-atvori va emotsional holatini aniqlashga qaratilgan 15 ta savoldan iborat Buss–Perry agressiya so‘rovnomasi taqdim etildi.

Natijalar:

- 35% talabalarda internet-agressiya belgilari o‘rtacha darajada;

Guruhlar	n	O‘rtacha ball(M)	Standart og‘ish(SD)	t	p
Past agressiya	27	26.8	4.9	3.94	< 0.01
O‘rtacha agressiya	21	41.3	5.6	5.12	< 0.01
Yuqori agressiya	12	58.9	6.4	6.38	< 0.01

- 20% talabalarda agressiv onlayn xatti-harakatlar yuqori darajada;

- 45% talabalarda agressiya past darajada kuzatildi.

Talabalarda internet-agressiya darajasining Student t-mezoni asosida taqqoslanishi (n = 60)

Izoh:

- Past ↔ O‘rtacha: $t = 5.12$; $p < 0.01$

- O‘rtacha ↔ Yuqori: $t = 3.94$; $p < 0.01$

- Past ↔ Yuqori: $t = 6.38$; $p < 0.01$

Past agressiya darajasiga ega bo‘lgan talabalar emotsional jihatdan barqaror, o‘z hissiyotlarini nazorat qila oladigan shaxslar sifatida tavsiflanadi. Ular ziddiyatli vaziyatlarda tajovuzkor xatti-harakatlarga kam murojaat qiladi, muammolarni muloqot va murosaga kelish orqali hal etishga intiladi. Bunday shaxslarda impulsivlik darajasi past bo‘lib, ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo‘ladi. Psixologik nuqtayi nazardan, bu guruh vakillari konstruktiv fikrlash va ijobiy ijtimoiy munosabatlarga moyilligi bilan ajralib turadi.

O‘rtacha agressiya darajasiga ega talabalar emotsional reaktivlikning o‘rtacha darajasini namoyon etadi. Ular kundalik stress va tashqi ta’sirlarga nisbatan ba’zan tajovuzkor munosabat bildirishi mumkin, biroq bu holat doimiy xarakterga ega emas. Ushbu guruh vakillarida agressiya ko‘proq vaziyatga bog‘liq bo‘lib, charchoq, emotsional zo‘riqish yoki ijtimoiy bosim ta’sirida kuchayadi. Psixologik jihatdan, bunday talabalar o‘z hissiyotlarini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, ayrim vaziyatlarda impulsiv reaksiyalar kuzatilishi mumkin.

Yuqori agressiya darajasiga ega talabalar emotsional beqarorlik, past frustratsiyaga chidamlilik va impulsiv xatti-harakatlar bilan tavsiflanadi. Ular ziddiyatli vaziyatlarda tajovuzkor fikr va xulq-atvorni tez-tez namoyon etadi hamda salbiy emotsiyalarni nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu guruh vakillarida dushmanlik, jahldorlik va ijtimoiy munosabatlarda keskinlik yuqori bo‘lishi mumkin. Psixologik nuqtayi nazardan, bu holat ichki emotsional zo‘riqish va moslashuv mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, internet-agressiya ko‘pincha ichki emotsional muammolar bilan bog‘liq. Agressiv xulq-atvor talabaning ruhiy himoya mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Empatiya darajasi past bo‘lgan talabalarda agressiya ko‘proq uchrashi kuzatildi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, internet-agressiya talaba shaxsining psixologik holati bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun faqat texnik cheklovlar emas, balki chuqur psixologik yondashuv zarur. Yoshlar orasida internet-agressiyani kamaytirishda ota-onalar va o‘qituvchilarning nazorati va psixologik qo‘llab-quvvatlashi muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlar agressiv kontentni nazorat qilish, shikoyat mexanizmlarini takomillashtirish orqali muammoni kamaytirishi mumkin. Psixoprofilaktik va psixokorreksion choralarning tizimli qo‘llanilishi internet-agressiyani sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Internet-agressiyaning oldini olishda psixoprofilaktik chora-tadbirlar muhim o‘rin egallaydi. Jumladan:

- emotsional savodxonlikni rivojlantirish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish va sog‘lom muloqot madaniyatini targ‘ib etish asosiy yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatiladi.

- individual va guruhiy psixologik maslahatlar, kognitiv-xulqiy terapiya hamda empatiyani rivojlantirish mashqlari internet-agressiyani kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

- oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhit yaratish, talaba va o‘qituvchi o‘rtasida ishonchli munosabatlarni rivojlantirish ham internet-agressiyani bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi.

Shunday qilib internet-agressiya nafaqat individual, balki ijtimoiy muammo bo‘lib, uni hal etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Psixologik ta’lim, ijtimoiy nazorat va onlayn madaniyatni rivojlantirish orqali mazkur muammoni kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Anderson C. A., Bushman B. J.** Human aggression // *Annual Review of Psychology*. — 2002. — Vol. 53. — P. 27–51.
2. **Kowalski R. M., Limber S. P., Agatston P. W.** Cyberbullying: Bullying in the Digital Age. — 2nd ed. — Wiley-Blackwell, 2012. — 296 p.
3. **Suler J.** The Online Disinhibition Effect // *Cyberpsychology & Behavior*. — 2004. — Vol. 7, № 3. — P. 321–326.
4. **Karimova V.** Yoshlar psixologiyasi. — Toshkent, 2019.
5. **G‘oziyev E.** Pedagogik psixologiya. — 2018.
6. **Abdullayeva D.** Ta’limdagi mas’uliyatlilikning bola ilmiy dunyoqarashining rivojlanishiga ta’siri // “Kelajak o‘qituvchisi — kelajak bunyodkori” mavzusidagi Respublika ilmiy-onlayn yoshlar anjumani materiallari.

LINGUISTIC ISSUES CHARACTERISTIC OF DYSLEXIA

Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna
Department of English Language Practical Course
Ferghana State University

Annotation. *In this article, the common problems characteristic of dyslexia are analyzed from a scientific and theoretical perspective. Dyslexia is a developmental disorder with a neurobiological basis, manifested by persistent difficulties in acquiring reading and writing skills. The article highlights phonological coding deficits, weaknesses in visual-orthographic processing, limitations in working memory and attention, as well as socio-emotional challenges as the core components of dyslexia. The study analyzes the scientific works of both international and local scholars and provides a scientific interpretation of the problem based on existing empirical evidence. This article substantiates the necessity of studying dyslexia in a comprehensive manner from linguistic, psycholinguistic, and neuropsychological perspectives.*

Key words: *dyslexia, phonological coding, working memory, visual perception, linguistic competence, socio-emotional development*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada disleksiyaga xos bo‘lgan asosiy muammolar ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Disleksiya neyrobiologik asosga ega rivojlanish buzilishi bo‘lib, u o‘qish va yozish ko‘nikmalarini egallashda doimiy qiyinchiliklar bilan namoyon bo‘ladi. Maqolada fonologik kodlashdagi nuqsonlar, vizual-orfografik qayta ishlashdagi zaifliklar, ishchi xotira va diqqat cheklanishlari, shuningdek, ijtimoiy-emotsional muammolar disleksiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida yoritiladi. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, mavjud empirik dalillar asosida muammo ilmiy jihatdan izohlanadi. Mazkur maqola disleksiyani lingvistik, psixolingvistik va neyropsixologik yondashuvlar asosida kompleks tarzda o‘rganish zarurligini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *disleksiya, fonologik kodlash, ishchi xotira, vizual idrok, lingvistik kompetensiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish.*

Аннотация. *В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются основные проблемы, характерные для дислексии. Дислексия представляет собой нарушение развития с нейробиологической основой, проявляющееся устойчивыми трудностями в овладении навыками чтения и письма. В работе рассматриваются дефициты фонологического кодирования, слабости визуально-орфографической обработки, ограничения рабочей памяти и внимания, а также социально-эмоциональные трудности как ключевые компоненты дислексии. В исследовании проанализированы научные труды зарубежных и отечественных ученых, а также дана научная интерпретация проблемы на основе имеющихся эмпирических данных. Статья обосновывает необходимость комплексного изучения дислексии с лингвистической, психолингвистической и нейропсихологической точек зрения.*

Ключевые слова: *дислексия, фонологическое кодирование, рабочая память, зрительное восприятие, лингвистическая компетенция, социально-эмоциональное развитие.*

Dyslexia is a specific developmental disorder with a neurobiological basis, manifested by difficulties in the acquisition of reading skills, and it occurs independently of the child's overall intellectual capacity[55]. In children, dyslexia leads to difficulties in the main stages of the reading process—decoding, automatization, and semantic comprehension[56]. These disorders negatively affect the child's linguistic competence, cognitive development, self-awareness, and social adaptation[57]. The purpose of this article is to analyze the common problems characteristic of dyslexia on a scientific basis, to systematize them relying on the results of existing empirical studies, and to evaluate them from pedagogical and

[55] Shaywitz, Sally. Overcoming Dyslexia: A New and Complete Science-Based Program for Reading Problems at Any Level. — New York: Alfred A. Knopf, 2003. — 414 b.
[56] Snowling, Margaret J.. Dyslexia. — Oxford: Blackwell, 2000. — 228 b.
[57] Lyon, G. Reid; Hulme, Charles. Dyslexia: Biology, Cognition, and Intervention. — London: Whurr Publishers, 2004. — 312 b.

linguistic perspectives. The study employed literature analysis, comparison of scientific and methodological works, a comparative-analytical approach, and meta-analysis methods. Among the key sources selected for the study are the research works of Luria, Dorofeeva, Snowling, Shaywitz, as well as Lyon and Hulme. In addition, neuropsychological studies addressing the phonological, visual, attentional, and working memory mechanisms underlying dyslexia were also examined. Analyses of dyslexia demonstrate that it has a complex, multi-component nature.

1. Phonological coding deficits. Research confirms that the primary cause of dyslexia lies in phonological coding impairment[58]. Children experience difficulties in isolating phonemic units within words, mapping them onto graphemes, and retaining them in working memory. According to Shaywitz, the phonological deficit reduces both the speed and accuracy of reading. Functional neuroimaging studies reveal reduced activation in the left temporo-parietal and occipito-temporal regions, areas critically involved in phonological analysis and rapid word recognition. Shaywitz's neurobiological model emphasizes that phonological deficits compromise both reading accuracy and fluency, leading to slow, effortful decoding that hinders comprehension. Importantly, these deficits remain observable across orthographies, although their surface manifestations vary depending on the transparency of the writing system.

2. Weaknesses in visual and orthographic processes. Children with dyslexia demonstrate deficits in visual recognition of graphemes and in their rapid processing. The Russian scholar Luria explains this phenomenon as a consequence of insufficient coordination among the functional systems of the central nervous system[59]. Dorofeeva emphasizes that such children frequently confuse letters with similar shape[60]. Within Luria's functional systems framework, these difficulties are

[58] Snowling, Margaret J.. Dyslexia. — Oxford: Blackwell, 2000. — 228 b.
[59] Luria, A. R.. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. — Москва: Издательство Московского университета, 1962. — 512 с.
[60] Dorofeeva, T. A.. Нарушения чтения и письма у младших школьников: лингвистический анализ. — Москва: Владос, 2010. — 240 с.

interpreted as a consequence of insufficient integration between perceptual, mnemonic, and regulatory neural systems. Dorofeeva further documents frequent confusions of visually similar letters (e.g., mirror reversals, rotational errors), reflecting weaknesses in visual discrimination and spatial orientation. Empirical studies also indicate impairments in visual attention span, limiting the number of letters that can be processed simultaneously during reading.

3. Limitations in working memory and attention. Dyslexia is associated with weaknesses in working memory and auditory attention. These children are unable to simultaneously retain in memory the phonological form, meaning, and grammatical structure of the words they read, which creates difficulties in text comprehension. Auditory attention deficits further exacerbate these difficulties, reducing the efficiency of speech sound processing and increasing cognitive load. As a result, children with dyslexia often fail to coordinate phonological form, lexical meaning, and grammatical structure in real time, leading to fragmented comprehension, especially in longer or syntactically complex texts.

4. Socio-emotional problems. Dyslexia negatively affects a child's self-esteem, social adaptation, and motivation. Shaywitz has shown that such children often exhibit low self-assessment, heightened anxiety, and increased social withdrawal [61]. Evidence-based interventions demonstrate that structured phonological awareness training, working memory activation, and repeated decoding practice significantly improve reading outcomes. Equally important are psychological support programs and inclusive educational environments, which mitigate emotional risks and promote social integration.

Analyses have shown that the problems characteristic of dyslexia are of a complex nature, affecting not only linguistic competence but simultaneously influencing phonological, orthographic, semantic, and socio-emotional systems. These disorders should not be viewed merely as deficiencies in literacy acquisition, but rather evaluated from a broader neurocognitive perspective. A deeper

[61] Shaywitz, Sally. Overcoming Dyslexia: A New and Complete Science-Based Program for Reading Problems at Any Level. — New York: Alfred A. Knopf, 2003. — 414 b.

understanding of the core mechanisms of dyslexia is crucial for developing effective diagnostic and corrective methods in educational practice. For example, programs aimed at enhancing phonological awareness, activating working memory, and fostering rapid decoding skills have been shown to yield positive outcomes[62]. In addition, psychological support and social integration programs are also essential. Dyslexia is a complex, multi-component disorder that directly affects a child's phonological coding, visual perception, working memory, attention, and socio-emotional development. Early identification of these difficulties, their correction through a multidimensional approach, and the implementation of pedagogical support measures are crucial for the formation of both linguistic and social competence in children. Future research should focus on a deeper investigation of the neurolinguistic mechanisms of dyslexia and the development of diagnostic and rehabilitation methods adapted to the national language system.

Dyslexia is a complex developmental disorder that profoundly influences a child's linguistic, cognitive, and social development. Early identification, multidimensional assessment, and integrated pedagogical intervention are critical for fostering both linguistic competence and psychosocial well-being. Future research should prioritize the neurolinguistic mechanisms of dyslexia, with particular attention to language-specific diagnostic tools and intervention models adapted to national orthographic systems.

USED LITERATURE

1. **Snowling M. J.** Dyslexia. — Oxford: Blackwell, 2000. — 228 p.
2. **Shaywitz S.** Overcoming Dyslexia: A New and Complete Science-Based Program for Reading Problems at Any Level. — New York: Alfred A. Knopf, 2003. — 414 p.

[62] Lyon, G. Reid; Hulme, Charles. Dyslexia: Biology, Cognition, and Intervention. — London: Whurr Publishers, 2004. — 312 b.

3. **Лурия А. Р.** Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. — Москва: Издательство Московского университета, 1962. — 512 с.
4. **Дорофеева Т. А.** Нарушения чтения и письма у младших школьников: лингвистический анализ. — Москва: Владос, 2010. — 240 с.
5. **Lyon G. R., Hulme C.** Dyslexia: Biology, Cognition, and Intervention. — London: Whurr Publishers, 2004. — 312 p.

O‘ZBEKISTON AVTOMOBIL YO‘LLARIDA AVTOKEMPING VA DAM OLISH MASKANLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARI: INFROTUZILMA BO‘SHLIQLARINI ANIQLASH VA KARIDORLAR KESIMIDA OPTIMALLASHTIRISH YONDASHUVI

Akramov Akbarjon Akmal o‘g‘li

Turizm qo‘mitasi qoshidagi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot O‘zbekiston avtomobil yo‘llarida yo‘lbo‘yi dam olish maskanlarini rivojlantirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda yo‘lbo‘yi dam olish maskanlari infratuzilmasi transport koridorlari kesimida baholanib, mavjud infratuzilma bo‘shliqlarini aniqlash va ularni optimallashtirishga qaratilgan konseptual yondashuv ishlab chiqildi. Xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tahlili asosida yo‘lbo‘yi dam olish maskanlariga bo‘lgan ehtiyojni baholash uchun ko‘p omilli infratuzilma bo‘shliqlari indeksi taklif etildi. Ushbu indeks transport va yuk oqimi ehtimoli, yo‘l harakati xavfsizligi bilan bog‘liq xavf omillari, mavjud servis obyektlari zichligi, sanitariya va yoritish infratuzilmasi holati hamda ijtimoiy va turistik ehtiyojlarni qamrab oladi. Tadqiqot natijalari*

yo‘lbo‘yi dam olish maskanlari infratuzilmasi ayrim strategik transport koridorlarida notekis rivojlanganini ko‘rsatdi. Shuningdek, dam olish maskanlarini rivojlantirishda minimal xizmat paketi va bosqichma-bosqich joriy etish yondashuvi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, logistika samaradorligini yaxshilash va transport infratuzilmasini barqaror rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

***Kalit so‘zlar**: sun’iy intellekt, yo‘lbo‘yi dam olish maskanlari, avtomobil yo‘llari, infratuzilma bo‘shliqlari indeksi, transport koridorlari, yo‘l harakati xavfsizligi.*

***Abstract.** This study examines the potential of artificial intelligence technologies in the development of roadside rest areas along highways in Uzbekistan. The research evaluates roadside rest area infrastructure across transport corridors and proposes a conceptual approach aimed at identifying and optimizing existing infrastructure gaps. Based on an analysis of international and local scientific sources, a multi-factor Infrastructure Gap Index is developed to assess the demand for roadside rest areas. The index incorporates key indicators such as traffic and freight flow intensity, road safety risk factors, density of existing service facilities, sanitary and lighting infrastructure conditions, as well as social and tourism-related needs. The findings reveal an uneven distribution of roadside rest area infrastructure along strategic transport corridors. Furthermore, a minimum service package and a phased implementation approach for the development of roadside rest areas are substantiated. The results of the study may contribute to improving road safety, enhancing logistics efficiency, and supporting the sustainable development of transport infrastructure in Uzbekistan.*

***Keywords:** artificial intelligence, roadside rest areas, highways, infrastructure gap index, transport corridors, road safety.*

***Аннотация.** Настоящее исследование посвящено анализу возможностей применения технологий искусственного интеллекта при развитии придорожных зон отдыха на автомобильных дорогах Республики Узбекистан. В работе проведена оценка инфраструктуры придорожных зон*

отдыха в разрезе транспортных коридоров и разработан концептуальный подход к выявлению и оптимизации инфраструктурных пробелов. На основе анализа международных и отечественных научных источников предложен многофакторный индекс инфраструктурных пробелов, позволяющий оценить потребность в придорожных зонах отдыха. Индекс включает такие показатели, как интенсивность транспортных и грузовых потоков, факторы риска дорожной безопасности, плотность существующих сервисных объектов, состояние санитарной и осветительной инфраструктуры, а также социальные и туристические потребности. Результаты исследования показали неравномерное развитие инфраструктуры придорожных зон отдыха на стратегически важных транспортных коридорах. Кроме того, обоснованы минимальный пакет услуг и поэтапный подход к развитию придорожных зон отдыха. Полученные результаты могут быть использованы для повышения безопасности дорожного движения, улучшения логистической эффективности и устойчивого развития транспортной инфраструктуры.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, придорожные зоны отдыха, автомобильные дороги, индекс инфраструктурных пробелов, транспортные коридоры, безопасность дорожного движения.*

Kirish. O‘zbekiston avtomobil yo‘llari mamlakatning ichki hududlarini bog‘lash hamda mintaqaviy va xalqaro tranzit oqimlarini ta’minlashda muhim infratuzilmaviy rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda yuk tashish hajmining oshishi, ichki turizmning faollashuvi va logistika zanjirlarining kengayishi avtomobil yo‘llari bo‘ylab xizmat infratuzilmasiga bo‘lgan talabni sezilarli darajada kuchaytirdi. Shu bilan birga, amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, yo‘l qurilishi va rekonstruksiya loyihalarida yo‘lbo‘yi dam olish maskanlari ko‘pincha ikkilamchi element sifatida qaralib, ularning joylashuvi va funksional tarkibi tizimli rejalashtirishga yetarlicha integratsiya qilinmagan.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yo‘lbo‘yi dam olish maskanlari haydovchilarning charchog‘ini kamaytirish, yo‘l-transport hodisalari xavfini pasaytirish va transport koridorlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi (UNECE, 2024; FHWA, 2022). CAREC doirasidagi transport va yo‘l xavfsizligi strategiyalarida dam olish maskanlari infratuzilmasi transport tizimining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqiladi (CAREC, 2016; 2030).

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham yo‘lbo‘yi servis va rekreatsion obyektlarni joylashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, Eshatov (2025) va Rakhimov (2020) tadqiqotlarida yo‘l bo‘ylab xizmat obyektlarini rejalashtirishda hududiy sharoitlar, me’moriy muhit va ijtimoiy ehtiyojlar muhim omil sifatida ko‘rsatilgan. Tursunboev va hammualliflar (2024) yo‘l bo‘yi turistik-rekreatsion obyektlarni tashkil etish talablari bo‘yicha ilmiy asoslar bergan. Biroq ushbu tadqiqotlar asosan tavsifiy va rejalashtirish darajasida qolib, ularni sun’iy intellekt asosida koridorlar kesimida optimallashtirish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Asosiy qism. Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston avtomobil yo‘llari bo‘yicha yo‘lbo‘yi dam olish maskanlarini rivojlantirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini asoslash hamda infratuzilma bo‘shliqlarini koridorlar kesimida aniqlash va optimallashtirishga qaratilgan konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar belgilandi: xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar asosida yo‘lbo‘yi dam olish maskanlari uchun minimal xizmat paketini aniqlash; transport koridorlari bo‘yicha ehtiyojni baholashga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimini shakllantirish; infratuzilma bo‘shliqlarini aniqlash uchun integral indeksni ishlab chiqish; hamda ushbu indeksni sun’iy intellekt asosidagi prognozlash yondashuvlari bilan bog‘lash.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanib, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, mahalliy va

xorijiy ilmiy maqolalar hamda konferensiya materiallari tahlilini o‘z ichiga oldi. Tadqiqotda O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiya metodologik asos sifatida qabul qilindi (Lex.uz, 2024).

Metodologik jihatdan transport va yuk oqimi ehtimoli, yo‘l harakati xavfsizligi xavflari, mavjud servis obyektlari zichligi, sanitariya va yoritish infratuzilmasi holati, aholi punktlari va turistik obyektlarga yaqinlik kabi omillar asosiy indikatorlar sifatida tanlandi. Ushbu indikatorlar xalqaro tashkilotlar tavsiyalari bilan bir qatorda mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan hududiy va rekreatsion rejalashtirish yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirildi (Tursunboev et al., 2024; Karimov & Tadjibaeva, 2022).

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston avtomobil yo‘llari bo‘yicha yo‘lbo‘yi dam olish maskanlari infratuzilmasi notekis rivojlanganini ko‘rsatdi. Ayrim transport koridorlarida yuk oqimi va uzoq masofali qatnov yuqori bo‘lishiga qaramay, xavfsiz to‘xtash va dam olish infratuzilmasi yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat haydovchilarning charchog‘i bilan bog‘liq xavflarni kuchaytirishi va yo‘l harakati xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur muammoni tizimli baholash maqsadida tadqiqot doirasida “infratuzilma bo‘shliqlari indeksi” ishlab chiqildi. Ushbu indeks avtomobil yo‘lining alohida segmentlari bo‘yicha dam olish maskanlariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashga xizmat qiluvchi integral ko‘rsatkich bo‘lib, transport va yuk oqimi ehtimoli, xavfsizlik xavflari, mavjud servis obyektlari zichligi, sanitariya va yoritish infratuzilmasi holati hamda ijtimoiy va turistik omillarni o‘z ichiga oladi. Indeks yordamida infratuzilma bo‘shlig‘i yuqori bo‘lgan segmentlarni aniqlash va ularni ustuvor hududlar sifatida belgilash imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston sharoitiga mos minimal xizmat paketi konsepsiyasi shakllantirildi. Tadqiqot ko‘rsatishicha, infratuzilma bo‘shliqlari yuqori bo‘lgan hududlarda dastlab xavfsiz parkovka, sanitariya sharoitlari, yoritish va xavfsizlik tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lib, qo‘shimcha xizmatlar bosqichma-bosqich rivojlantirilishi lozim. Ushbu yondashuv

mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan hududiy rejalashtirish tamoyillari bilan hamohangdir (Eshatov, 2025; Rakhimov, 2020).

Bundan tashqari, infratuzilma bo‘shliqlari indeksini sun’iy intellekt asosidagi prognozlash modellariga integratsiya qilish imkoniyati asoslab berildi. Xalqaro tajribada mashinaviy o‘rganish algoritmlaridan foydalangan holda dam olish maskanlari bandligini bashorat qilish samarali natijalar bergani inobatga olinib, ishlab chiqilgan indeks joylashuv va sig‘imni optimallashtirish uchun kiruvchi parametr sifatida taklif etildi (Budzyński et al., 2025).

Ilmiy yangilik. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi yo‘lbo‘yi dam olish maskanlarini rivojlantirish masalasiga koridor-asosli va sun’iy intellektga tayangan optimallashtirish yondashuvini taklif etishida namoyon bo‘ladi. Ilk bor O‘zbekiston sharoitida yo‘lbo‘yi dam olish maskanlari infratuzilmasini baholash uchun infratuzilma bo‘shliqlari indeksi ishlab chiqildi va u transport koridorlari bo‘yicha ustuvorlashtirish vositasi sifatida asoslandi.

Bundan tashqari, tadqiqot mahalliy shaharsozlik va rekreatsion rejalashtirish yondashuvlarini xalqaro ma’lumotlarga asoslangan sun’iy intellekt metodologiyalari bilan uyg‘unlashtirdi. Natijada, tavsifiy yondashuvlardan farqli ravishda, qaror qabul qilish jarayonini dalillarga asoslangan va prognozli rejalashtirish darajasiga olib chiqadigan ilmiy model taklif etildi.

Taklif va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida yo‘lbo‘yi dam olish maskanlarini rivojlantirishda bosqichma-bosqich joriy etish yondashuvi tavsiya etiladi. Avvalo, strategik transport koridorlarida pilot loyihalarni amalga oshirish, keyinchalik esa infratuzilma bo‘shliqlari indeksi asosida ularni respublika miqyosida kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dam olish maskanlarini turizm xizmatlari va mahalliy tadbirkorlik bilan integratsiya qilish hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston avtomobil yo‘llarida yo‘lbo‘yi dam olish maskanlarini rivojlantirish masalasi transport infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni sun’iy intellekt asosida optimallashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan infratuzilma bo‘shliqlari

indeksi va taklif etilgan yondashuvlar yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, logistika samaradorligini yaxshilash hamda turizm xizmatlarini rivojlantirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **United Nations Economic Commission for Europe**. Road Safety Performance Review: Uzbekistan. — Geneva, 2024. — 120 p.
2. **Central Asia Regional Economic Cooperation**. Road Safety Strategy for CAREC Countries. — Manila, 2016. — 56 p.
3. **Central Asia Regional Economic Cooperation**. CAREC Transport Strategy 2030. — Manila, 2018. — 98 p.
4. **Federal Highway Administration**. Commercial Driver Rest & Parking Requirements. — Washington, DC, 2022. — 64 p.
5. **Budzyński A.**, **Kowalski M.**, **Nowak P.** Highway Rest Area Truck Parking Occupancy Prediction Using Machine Learning // Sustainability. — 2025. — Vol. 17, No. 3. — P. 1–18.
6. **Tursunboev F.**, **Akhmedov J.**, **Rakhmonov B.** Requirements for the Organization of Tourist-Recreational Facilities Along Highways // AIP Conference Proceedings. — 2024. — Vol. 2907. — P. 040012.
7. **Eshatov I. Q.** Urban Planning Foundations for the Design and Organization of Recreational and Service Areas Along Intercity Highways. — Tashkent, 2025. — 180 p.
8. **Rakhimov O.** Architectural and Planning Principles of Roadside Service Facilities in Uzbekistan. — Tashkent, 2020. — 156 p.
9. **Karimov S.**, **Tadjibaeva D.** Transport Infrastructure Development and Regional Accessibility in Uzbekistan. — Tashkent, 2022. — 142 p.
10. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar portali **Lex.uz**. Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi (2030) [Elektron resurs]. — Toshkent, 2024. — Murojaat sanasi: 26.01.2026.

O‘QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ashurov Ramzidin Ramazonovich

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini tushuntiruvchi nazariy-psixologik yondashuvlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda intellekt tushunchasining psixologik talqinlari, uning kognitiv jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda o‘quv faoliyati jarayonida shakllanish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy-kognitiv, madaniy-tarixiy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar tizimli tahlil qilingan. Maqola natijalari intellektual rivojlanishni ta’lim jarayonida nazariy jihatdan asoslash va samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *intellektual rivojlanish, nazariy psixologiya, kognitiv jarayonlar, ijtimoiy-kognitiv yondashuv, madaniy-tarixiy nazariya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.*

Аннотация. *В статье представлен теоретико-психологический анализ основ интеллектуального развития учащихся. Рассматриваются психологические интерпретации понятия интеллекта, его взаимосвязь с когнитивными процессами и механизмы формирования в учебной деятельности. На основе социально-когнитивного, культурно-исторического и личностно-ориентированного подходов системно анализируются психологические факторы интеллектуального развития учащихся. Материалы статьи служат методологической основой для теоретического обоснования процесса интеллектуального развития в образовательной практике.*

Ключевые слова: *интеллектуальное развитие, теоретическая психология, когнитивные процессы, социально-когнитивный подход, культурно-историческая теория, личностно-ориентированное обучение.*

Abstract. *This article provides a theoretical and psychological analysis of the foundations of students' intellectual development. The study examines psychological interpretations of intelligence, its relationship with cognitive processes, and the mechanisms of its formation within learning activities. Based on social-cognitive, cultural-historical, and learner-centered approaches, the psychological factors influencing intellectual development are systematically analyzed. The findings offer a methodological framework for theoretically grounding intellectual development and designing effective pedagogical strategies in education.*

Keywords: *intellectual development, theoretical psychology, cognitive processes, social-cognitive approach, cultural-historical theory, learner-centered education.*

Kirish

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Maktab va maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish[63]"alohida takidlangan. Mashg'ulotlarni multimedia vositalari asosida tashkil etish, pedagogik muloqot sharoitida ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, voqelikka maksimal darajada moslashtirish maqsadida hukumat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XXI asrda inson kapitalini shakllantirishda boshlang'ich ta'lim muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish — nafaqat metodik yondashuv, balki pedagog shaxsining psixologik

[63] http://lex.uz//uz/docs/ 5841063 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.

fazilatlariga ham bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosati asosida, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy va shaxsiy salohiyatiga yuksak talab qo‘yilmoqda.

Ko‘plab maktablarda pedagogning psixologik tayyorgarligi bilan o‘quvchilarning intellektual rivoji o‘rtasida nomutanosiblik mavjud. Bu holat emotsional barqarorlik, empatiya va reflektiv yondashuv kabi fazilatlarning etishmasligida aks etadi.

Pedagog shaxsi ta’lim jarayonining markaziy va hal qiluvchi omili hisoblanadi. U nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o‘quvchi shaxsining intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik yetakchidir. Pedagogning mas’uliyatlilik, adolatlilik, empatiya, ochiqlik va emotsional barqarorlik kabi shaxsiy fazilatlari o‘quvchilarda bilimga qiziqish, mustaqil fikrlash va o‘ziga ishonchning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, pedagogning kasbiy refleksiyasi va o‘z ustida ishlashga tayyorligi ta’lim sifatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Psixologik jihatdan yetuk, muloqotga ochiq va tarbiyaviy mas’uliyatni chuqur anglagan pedagog shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratadi hamda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini to‘liq namoyon etishiga imkon beradi. Shu bois pedagog shaxsi ta’lim samaradorligining fundamental omili sifatida ilmiy va amaliy jihatdan doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o‘rganilayotgan muammoning nazariy asoslarini chuqur anglash, mavjud yondashuvlarni solishtirish hamda mualliflik pozitsiyasini aniqlash imkonini beradi. Quyida pedagog shaxsining psixologik xususiyatlari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yorituvchi muhim adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Sharq mutafakkirlarining intellekt (aql) haqida bir qancha qarashlari mavjud bo‘lib ular nafaqat sharqda, balki g‘arbda ham ilmiy nazariy jihatdan o‘rganilib kelinmoqda. O‘rta Osiyoning emas, balki yaqin va o‘rta sharqning mashhur allomasi

Abu Nasr Forobiydir. U o‘z davrining faylasufi, musiqachisi shoiri va qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U aql haqida risola asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida fikr yuritadi. U “Aql haqida risola” asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida bir qancha ma’lumotlarni keltiradi. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglashi, tabiat sirlarini anglashida ilm- fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. U inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganidan mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, Forobiyning fikricha, mavjudodning eng buyuk va yetuk mahsuli bu insondir, u o‘zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o‘rganish qobiliyatiga egadir. Aql yordamida inson uni o‘rab olgan mavjudodning mohiyatini tushunadi uning fikricha inson tanasi, miyasi sezgi organlari tug‘ilishidan mavjud lekin aqliy bilimi, ruhi intellektual aqliy hislatlari keyinchalik vujudga keladi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksakligining yetuk mahsuli bo‘ladi va inson o‘z bilimlarini aqlini rivojlantirib, so‘ngra mavjudodning ibtidosi boshlanishi haqidagi ilmga etib boradi deb ko‘rsatadi.

Forobiy o‘simlik, hayvon va insonga hos xususiyat va qobiliyatlarini quvvat deb atadi va ularni uchga ajratadi uning quvvatlar haqidagi klassifikatsiyasi organizmdagi jarayonlarni biologik, fiziologik-psixologik va fikrlash jarayonlariga ajratadi. Biologik jarayon barcha tirik organizmga fiziologik-psixologik jarayon hayvonlarga, aqliy jarayon ong faqat insonga xosdir.

Abu Rayhon Beruniy ham o‘z asarlarida insonning barcha mavjudotdan ustunligini uning tafakkuri orqali ekanligini izohlaydi.Shuning uchun ham unga yerdagi barcha hayvonlar bo‘ysunadi, aks holda inson eng kichik hayvondan ham ojiz bo‘lar edi.

Beruniy tashqi olamni bilishni asosan aqlga tayanishi va shuning uchun ham u barcha jonzotdan ustun turishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, aql hodisalarning birini anglashga yordam beradi. Inson aqlga muvofiq bilish orqali olamning mohiyati haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradi. Lekin bilimning cheki yo‘q va hamma bilimni tez egallashi mumkin emas. Shuning uchun, inson o‘zi bilib olgan narsa bilan kifoyalanib qolmay, doimo yangi bilimlarni o‘rganishga intilishlari shart.

Ularning fikricha inson bilish tushuninish fikrlash muhokama qilish o‘ylab topish kabi iste’dodlarga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellektual rivojlanish omillari masalasi bo‘yicha ko‘plab o‘zbek va xorij olimlari tomonidan o‘rganilgan. Aqliy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, o‘quvchilarda kreativ fikrlash bilan bog‘liq masalalar hamma davrlarda ham jamiyat olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolgan. Intellektual jihatdan rivojlanish shaxsning barcha hayotiy faoliyatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Fikrimizga misol tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, aynan biz tadqiqot olib borayotgan o‘quvchilarning intellektual jihatdan rivojlanganligi o‘quv faoliyati, shaxsiy rivojlanishi jabhalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘quvchilarning aqliy jihatdan rivojlanish masalasi bevosita ta’lim tizimidagi yangi ta’lim metodlari, innovatsion jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

M.G.Davletshin aqliy tushunchalarni qobiliyat tushunchasi bilan bog‘lab o‘rgangan. Qobiliyat shakllanishi va rivojlanishi, birinchidan, ma’lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo‘li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida sistemali faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo‘li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo‘li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o‘zlashtirishni rejalashtirgan faoliyat bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar hosil qilishni ta’minlasin. Bolalarda qobiliyatlarni o‘sishi ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodda ijodiy faollikni va uning negizida yotuvchi ijodiy qobiliyatni shakllantirish respublika maktablari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki «hozirgi maktabning asosiy vazifasi ta’lim metodlarini, o‘quvchilarning fikrlashlarini taraqqiy ettirish metodlarini takomillashtirishdir».

E.G‘.G‘oziyev O‘zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Muallifning fikriga ko‘ra, inson tafakkuri o‘zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. “Tafakkurning mustaqilligi

deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz o‘zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak”.

E.G‘.G‘oziyev aqliy taraqqiyotning o‘sishini maktabda olinadigan bilimlar ta’minlaydi, deb hisoblaydi. O‘quvchilarni aqliy jihatdan o‘stirish uchun ularni faqat bilimlar tizimi bilangina emas, balki muayyan aqliy faoliyat usullari (tahlil, sintez, taqqoslash, turkumlash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, esda olib qolish va boshqalar) o‘quv, ko‘nikma va malakalarni ko‘zda tutish kerakligini ta’kidlaydi. O‘quvchilar aql-zakovatini kamol toptirishda mantiqiy tafakkurning ahamiyati katta, chunki tafakkurning rivojlanishi aqlni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitadi [2].

B.R.Qodirov iste’dodga quyidagicha ta’rif beradi: «iste’dod bilim, ko‘nikma yoki malaka emas, balki, aynan shu bilim va malakalarni o‘rganish, o‘zlashtirishni yengillashtiradigan, tezlashtiradigan va shuning evaziga muvafaqqiyatni ta’minlaydigan ichki imkoniyatlar majmuasiga aytiladi»[5].

Z.T.Nishonova o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini o‘rgangan. Z.T.Nishonova ijodiy psixologiya asoschisi Dj.Gilfordning intellektual struktura modeliga asoslanib, aqliy qobiliyatlarni uch o‘lchovga, ya’ni, aqliy jarayonlar, aqliy qoniqish va aqliy natijalarga bo‘ladi [6].

Aqliy faoliyat insonning muayyan bilimlarni o‘zlashtirish yoki yangiliklarni ochish bilan bog‘liq psixik faoliyatdir. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashtirgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsial-sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan empirik va nazariy tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanishi ko‘p omilli psixologik-pedagogik jarayon ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha,

o‘quvchilarning intellekt darajasi nafaqat yoshga bog‘liq rivojlanish qonuniyatlari, balki ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi, tafakkur operatsiyalarining shakllanganlik darajasi hamda ijtimoiy-psixologik muhit bilan bevosita uzviy aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida tafakkurning konkret-obrazli bosqichdan mantiqiy-operatsional bosqichga bosqichma-bosqich o‘tishini ko‘rsatadi. Shuningdek, divergent fikrlashning rivojlanishi o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarda moslashuvchan va ijodiy yechimlar topish qobiliyatini kuchaytirishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, intellektual rivojlanish jarayonida pedagog shaxsining psixologik yetukligi, o‘quvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan individual yondashuv hamda qulay psixologik muhitning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Intellekt darajasi pastroq bo‘lgan o‘quvchilarda kommunikativ faollik, kirishimlilik va ijtimoiy moslashuvchanlik orqali kompensator mexanizmlarning namoyon bo‘lishi esa intellekt tushunchasining faqat kognitiv ko‘rsatkichlar bilan cheklanmasligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellektual rivojlanishni shakllantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va psixologik-pedagogik jihatdan muvofiqlashtirilgan ta’sirni talab etishini ilmiy xulosa sifatida asoslab berdi.

Takliflar

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining emotsional barqarorlik, empatiya, kasbiy refleksiya va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar, amaliy seminarlar va malaka oshirish dasturlarini tizimli ravishda amalga oshirish zarur. Mazkur kompetensiyalar pedagogning intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhit yaratish qobiliyatini kuchaytiradi.

Divergent va mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi ta’lim strategiyalarini o‘quv jarayoniga keng joriy etish: O‘quv mashg‘ulotlarini muammoli vaziyatlar, ijodiy va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar, ochiq tipdagi savollar hamda mantiqiy

masalalar asosida tashkil etish orqali o‘quvchilarning intellektual faolligi, moslashuvchan fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Past intellekt ko‘rsatkichlariga ega o‘quvchilar uchun individual-korreksion rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish: Psixolog va pedagoglarning hamkorligida o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlantiruvchi-korreksion dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim. Ushbu dasturlarda o‘z-o‘zini baholashni adekvat shakllantirish, ichki o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish hamda emotsional regulyatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi kerak.

Ota-onalar bilan psixologik-ma’rifiy hamkorlikni tizimli asosda kuchaytirish: Oila muhitining o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga sezilarli ta’sirini inobatga olgan holda, ota-onalar uchun psixologik-ma’rifiy seminarlar, treninglar va individual maslahatlar tashkil etish zarur. Bu jarayon ota-onalarda farzandining intellektual rivojlanishiga ongli va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Intellektual rivojlanish muammosini o‘rganishda ilmiy-tadqiqot istiqbollarini kengaytirish: Kelgusidagi tadqiqotlarda o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini shaxs motivatsiyasi, emotsional intellekt va ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganishga qaratilgan longitudinal va kompleks tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv intellektual rivojlanishning uzoq muddatli dinamikasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **John O.P., Srivastava S.** The Big Five Trait Taxonomy: History, Measurement, and Theoretical Perspectives. — 1999.
2. **G‘oziyev E.G‘.** Tafakkur psixologiyasi. — Toshkent : «O‘qituvchi», 1991. — B. 122–123.
3. **Raven J.C.** Manual for Raven’s Progressive Matrices and Vocabulary Scales. — 2000.

4. **Vygotsky L.S.** Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — 1978.
5. **Qodirov B.R.** Sinf zukkolarini tanlash metodikasi. — Toshkent, 1998.
6. **Nishonova Z.T.** Yuqori sinf o‘quvchilarining aqliy faoliyat usullari va yo‘llarini egallash xususiyatlari : Psixologiya fanlari nomzodi diss. — Toshkent : TDPI, 1993.
7. **Битянова М.Р.** Работа с ребенком в образователной среде: решение задач и проблем развития : научно-методическое пособие для психологов и педагогов. — М. : МГППУ, 2007. — 96 с.
8. **Ramazonovich A.R.** Interplay of Cognitive Abilities and Intellectual Growth in Elementary Students // *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*. — 2024. — Vol. 3, №3. — P. 41–44.
9. **Ashurov R.R.** O‘quv faoliyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatining intellektual operatsiyalarini rivojlantirish // *Inter Education & Global Study*. — 2025. — №2. — P. 639–646.

XORIJIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA O‘QUV MOTIVATSIYASIGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI IJTIMOIY–PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI

Ashurova Nargiza Zayitovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Annotatsiya*: Mazkur maqolada xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari asosida talabalar o‘quv motivatsiyasining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy–psixologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda motivatsiyaning ichki va tashqi*

determinantlari, ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar hamda individual psixologik xususiyatlarning o‘quv faoliyati samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishda xorijiy pedagogik-psixologik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘quv motivatsiyasi, ijtimoiy–psixologik omillar, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, shaxslararo munosabatlar, self-determination theory (SDT) (o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi).*

Аннотация: *В данной статье на основе исследований иностранных ученых анализируются социально-психологические факторы, влияющие на формирование учебной мотивации студентов. В исследованиях научно обосновано влияние внутренних и внешних детерминант мотивации, социальной среды, межличностных отношений, а также индивидуальных психологических особенностей на эффективность учебной деятельности. В статье освещается значение зарубежных педагогико-психологических подходов в развитии учебной мотивации.*

Ключевые слова: *Учебная мотивация, социально–психологические факторы, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, межличностные отношения, теория самодетерминации (Self-Determination Theory, SDT)*

Annotation: *This article analyzes the socio-psychological factors affecting the formation of students’ academic motivation, based on the research of foreign scholars. The studies scientifically substantiate the impact of internal and external determinants of motivation, social environment, interpersonal relationships, and individual psychological characteristics on the effectiveness of learning activities. The article highlights the importance of foreign pedagogical and psychological approaches in developing academic motivation.*

Keywords: *Academic motivation, socio-psychological factors, intrinsic motivation, extrinsic motivation, interpersonal relationships, Self-Determination Theory (SDT)*

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalar o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi global miqyosda dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Xorijiy

ilmiy tadqiqotlarda talabaning bilim olishga bo‘lgan munosabati va faolligi faqatgina intellektual salohiyat bilan emas, balki murakkab ijtimoiy–psixologik omillar majmuasi bilan izohlanadi. O‘quv motivatsiyasi shaxsning o‘quv faoliyatini harakatga keltiruvchi asosiy mexanizm sifatida e’tirof etilib, u ta’lim jarayonining sifati va natijadorligini belgilovchi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlariga ko‘ra, o‘quv motivatsiyasi shaxsning ichki ehtiyojlari, ijtimoiy muhit talablari hamda psixologik holatlarining o‘zaro integratsiyasi natijasida shakllanadi. Shu bois ushbu omillarni chuqur tahlil qilish ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy psixologik tadqiqotlarda o‘quv motivatsiyasini izohlashda Self-Determination Theory (o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi) yetakchi o‘rin egallaydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, shaxs motivatsiyasining rivojlanishi uchta fundamental psixologik ehtiyojning qondirilishiga bog‘liq bo‘lib, ular avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy bog‘liqlikdan iboratdir. Talabaning o‘quv jarayonida mustaqil qaror qabul qila olishi, o‘z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lishi hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni his qilishi ichki motivatsiyaning kuchayishiga olib keladi.

Shuningdek, xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv yondashuvlarga ko‘ra, talabaning o‘quv faoliyatidagi faolligi uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, atrof-muhitdagi ijtimoiy modellarning mavjudligi va ijobiy baholash mexanizmlari bilan bevosita bog‘liqdir. Bu holat o‘quv motivatsiyasining faqat individual hodisa emas, balki ijtimoiy kontekst mahsuli ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning akademik faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tadqiqotlar ko‘p hollarda o‘quv motivatsiyasini Self-Determination Theory (SDT) orqali izohlaydi. Tadqiqotchilar Deci va Ryan motivatsiyani shaxsning uchta asosiy psixologik ehtiyoji orqali shakllanadi deb ta’kidlaydi:

1. Autonomiya – o‘quv jarayonida mustaqil tanlov va qaror qabul qilish,
2. Kompetentsiya – o‘z qobiliyatini his etish,

3. Munosabatlar (relatedness) – o‘quv muhitida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish hissi.

Ushbu ehtiyojlar qondirilganda talabalar ichki motivatsiyani kuchaytiradi va ta’limdagi samaradorlik oshadi. Fikriye Eda Karaçulning tadqiqotida ta’kidlanishicha, talabalarning o‘quv hamjamiyatidagi ijtimoiy qabul qilinish hissi “belonging” ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu ijtimoiy bog‘liqlik talabaning ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi va o‘qishga sodiqligini oshiradi. Adelina Bayraktari va hamkasblari SDT yondashuvi orqali shuni aniqladilar: talabalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va ishtiroki shaxsning psixologik ehtiyojlari — avtonomiya, kompetentsiya va ijtimoiy munosabatlar qondirilganda sezilarli darajada oshadi. Ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

Mok Soon Sim va Noor Hanim Rahmat tadqiqotida talabalarning ichki motivatsiyasi (avtonomiya, kompetentsiya, ijtimoiy munosabat hissi) ularning o‘quv faolligini belgilovchi asosiy omillar ekanligi aniqlangan. Ular nazariy jihatdan shuni ko‘rsatadiki, bu psixologik ehtiyojlar o‘quv motivatsiyasining asosiy drayverlari hisoblanadi. Yaqinda nashr etilgan tadqiqotda universitet talabalari orasida autonom motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash orqali kognitiv va ijtimoiy xohishlarni rivojlantirishning ijobiy ta’siri aniqlangan. Bu loyiha talabalar ichida ichki motivatsiyani jadallashtirdi va ularning bilim olishga bo‘lgan munosabatini yaxshiladi — bu o‘quv motivatsiyasiga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va shaxsning fikr almashish tajribasi orqali ta’sir etadi. International Journal of STEM Education jurnalida e’lon qilingan izlanishda shuni aniqlashdiki, talabalar o‘rtasida o‘zini kompetent his etish va avtonom motivatsiya akademik yutuqlarni sezilarli ravishda prognoz qiladi.

Psixologik ehtiyojlarni qondirish o‘quv motivatsiyasini va o‘quv natijalarini oshiradi. Shuningdek, belonging (ijtimoiy maqbul hissi) o‘quv motivatsiyasi va o‘qishda davom etish niyatiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va guruhga kirish hissi motivatsiyani kuchaytiradi. Zhou va Raja Ahmad (2025) tadqiqotlariga ko‘ra, o‘quv motivatsiyasining ichki

komponentlari Self-Determination Theory doirasida talabalarning akademik natijalariga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mualliflar avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy bog‘liqlik ehtiyojlarining qondirilishi o‘quv samaradorligini oshiruvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan Zhou va Raja Ahmad quyidagi ilmiy xulosaga keladi: Talabalarning akademik muvaffaqiyati faqat bilim hajmi bilan emas, balki ularning o‘quv jarayonidagi ichki motivatsiyasi va psixologik ehtiyojlarining qondirilish darajasi bilan belgilanadi. Mualliflar ta’lim tizimida:

- talabalarga mustaqillik berish,
- ijobiy pedagogik muloqot o‘rnatish,
- ijtimoiy-psixologik qulay muhit yaratish zarurligini alohida ta’kidlaydi.

Xorijiy tadqiqotlarda ijtimoiy omillar talabalarning o‘quv motivatsiyasini shakllantiruvchi asosiy determinantlardan biri sifatida talqin qilinadi. Jumladan, ta’lim muassasasidagi ijtimoiy muhit, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi pedagogik muloqot, tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar talabaning o‘qishga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. O‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi, demokratik va rag‘batlantiruvchi uslubi talabalarda ijobiy o‘quv motivatsiyasini shakllantiradi. Aksincha, avtoritar va jazoga asoslangan yondashuv motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Shuningdek, tengdoshlar guruhidagi ijtimoiy maqom, jamoaga moslashuv darajasi va ijtimoiy qabul qilinish hissi ham o‘quv faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik omillar orasida ichki va tashqi motivatsiya tushunchalari xorijiy tadqiqotlarda alohida o‘rin tutadi. Ichki motivatsiya shaxsning bilim olish jarayonidan qoniqish hosil qilishi, qiziqish va intellektual ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya baholash, mukofot va ijtimoiy bosim orqali yuzaga keladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli o‘quv muvaffaqiyati asosan ichki motivatsiya bilan chambarchas bog‘liqdir.

Talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, o‘zini baholash darajasi, stressga chidamliligi va emotsional barqarorligi ham o‘quv motivatsiyasining muhim psixologik omillari sifatida qaraladi. Salbiy emotsional holatlar motivatsiyaning

pasayishiga, ijobiy psixologik holatlar esa bilim olishga bo‘lgan intilishning ortishiga olib keladi. Xorijiy olimlar tadqiqotlari, o‘quv motivatsiyasi ko‘p qirrali va murakkab psixologik-ijtimoiy hodisa bo‘lib, u individual xususiyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit va shaxslararo munosabatlar ta’sirida shakllanadi. Talabalarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratish, ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalarini joriy etish zarur.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda o‘quv motivatsiyasini shakllantiruvchi omillar ko‘p qirrali bo‘lib, ular ijtimoiy va psixologik jihatlarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, shaxsning ichki psixologik ehtiyojlari — avtonomiya, kompetentsiya va ijtimoiy bog‘liqlik — motivatsiyaning asosiy drayverlari sifatida SDT (Self-Determination Theory) mexanizmi orqali o‘rganilgan. Talaba o‘z qarorlarini mustaqil qabul qilganda, o‘z qobiliyatini his qilganda va o‘quv muhitida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish hissini olganda, uning ichki motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi.

Shuningdek, ijtimoiy muhit ham motivatsiya shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘quv hamjamiyati, tengdoshlar bilan sog‘lom va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar talabaning o‘qishga sodiqligini oshiradi va o‘quv jarayonida faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Ruhiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jumladan, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi va o‘quv muhitining ijobiy ta’siri, talabaning motivatsiyasini mustahkamlashda bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, belonging — o‘quv muhitida qabul qilinish va guruhga kirish hissi — motivatsiyani oshiruvchi va uni barqaror qiluvchi muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Xalilova N.** Yosh psixologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
2. **Karimova V. M.** Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Moliya, 2011.

3. **Zhou F., Raja Ahmad R. A. H.** The Impact of Learning Motivation on Students' Academic Performance: A Self-Determination Theory Perspective // Journal of Education, Humanities, and Social Research. — 2025.
4. **Karaçul F. E.** Graduate Students' Experiences of Learning Community in Relation to Self-Determined Motivation // Advances in Social Sciences Research Journal. — 2025.
5. **Bayraktari A., Yusuf I., Şare A.** The Influence of Self-Determination Theory on Student Engagement in the Classroom // International Scientific Journal Vision. — 2025.
6. **Sim M. S., Rahmat N. H.** Investigating Students' Motivation Through Self-Determination Theory // International Journal of Research and Innovation in Social Science. — 2025.
7. **Yang Y.** The Relationship Between Psychological Needs Satisfaction and Self-Directed Learning Motivation in Secondary Vocational Students // Sustainable Management Review. — 2025.
8. **International Scientific Journal Vision.** Rasmiy veb-sayt [Elektron resurs]. — URL: https://visionjournal.edu.mk

AI ETHICS IN EFL WRITING ASSIGNMENTS: ACADEMIC INTEGRITY AND ANTI-CHEATING STRATEGIES

Baxramova Malika Muzaffarovna
Urganch davlat pedagogika instituti

***Annotatsiya**: So'nggi yillarda generativ sun'iy intellekt (xususan, ChatGPT) EFL yozma topshiriqlarida g'oya ishlab chiqish, rejalashtirish, tahrirlash va tezkor feedback olishni yengillashtirib, writing jarayonini samaraliroq qilish imkonini*

berdi. Mazkur tadqiqotning maqsadi EFL writing kontekstida AI'dan foydalanish etikasi doirasida akademik halollikni ta'minlash hamda anti-cheating strategiyalarining eng samarali kombinatsiyasini asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida normativ hujjatlar va ilmiy manbalar tahlili, sinf siyosati va topshiriq dizayniga oid yondashuvlarni taqqoslash, shuningdek jarayonli yozish (draft–feedback–revision), "AI disclosure", refleksiya va og'zaki himoya kabi komponentlarning amaliy qo'llanishi konseptual model sifatida ishlab chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, anti-cheating yechimlarida "yakuniy matnni deteksiya qilish"dan ko'ra "o'quv jarayonini ko'rsatish" (draftlar zanjiri, manbalar bilan ishlash dalillari, refleksiya va og'zaki himoya) kuchliroq himoya beradi; deteksiya vositalari esa faqat yordamchi signal sifatida qo'llanilganda adolat va ishonchni saqlashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, EFL yozma topshiriqlarda AI etikasi bo'yicha eng maqbul yo'l — aniq sinf siyosati, shaffof disclosure, jarayonli baholash va performativ (og'zaki) elementlarni birlashtirgan pedagogik dizayn bo'lib, u AI'ni "o'rnini bosuvchi" emas, "o'rgatuvchi yordamchi"ga aylantiradi hamda akademik halollikni amaliy mexanizm sifatida mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: *generativ sun'iy intellekt, ChatGPT, EFL yozma ko'nikmalari, AI etikasi, akademik halollik, anti-cheating strategiyalari, shaffoflik (AI disclosure), jarayonli yozish, og'zaki himoya, baholash adolatliligi.*

Annotation:*In recent years, generative artificial intelligence (AI) tools—particularly ChatGPT—have rapidly entered EFL writing practices by facilitating idea generation, planning, editing, and immediate feedback, thereby increasing the efficiency of the writing process. This study aims to justify ethical AI use in EFL writing with a focus on safeguarding academic integrity and identifying the most effective combination of anti-cheating strategies. The study draws on an analysis of policy and scholarly sources, a comparison of classroom policy and task-design approaches, and a conceptual model of process-based writing (draft–feedback–revision) incorporating AI disclosure, reflection, and oral defense. The findings suggest that effective anti-cheating solutions should prioritize making the learning process visible (a draft chain, evidence of source use, reflection, and oral defense)*

rather than relying primarily on final-text detection; detection tools are best used as supportive signals to maintain fairness and trust. In conclusion, the most viable approach to AI ethics in EFL writing integrates a clear policy, transparent disclosure, process-oriented assessment, and a performative (oral) component, positioning AI as a learning-support tool rather than an authorship substitute and strengthening academic integrity as a practical mechanism.

Keywords: *generative AI, ChatGPT, EFL writing, AI ethics, academic integrity, anti-cheating strategies, transparency (AI disclosure), process-based writing, oral defense, assessment fairness.*

Аннотация: *В последние годы инструменты генеративного искусственного интеллекта (в частности, ChatGPT) быстро вошли в практику письменных заданий EFL, облегчая поиск идей, планирование, редактирование и получение оперативной обратной связи, тем самым повышая эффективность процесса письма. Цель данного исследования — обосновать этические принципы использования AI в контексте EFL writing, обеспечивающие академическую честность, а также определить наиболее результативную комбинацию anti-cheating стратегий. В работе применены анализ нормативных документов и научных источников, сопоставление подходов к политике курса и дизайну заданий, а также концептуальное моделирование процессно-ориентированного письма (draft–feedback–revision) с компонентами «AI disclosure», рефлексии и устной защиты. Результаты показывают, что ключевым элементом противодействия нечестному использованию AI является не столько «проверка финального текста», сколько демонстрация и фиксация учебного процесса (цепочка черновиков, доказательства работы с источниками, рефлексия и устная защита), тогда как детекционные инструменты целесообразно использовать лишь как вспомогательный сигнал для сохранения справедливости и доверия. В заключение отмечается, что оптимальная модель этичного использования AI в EFL письменных заданиях предполагает интеграцию четкой политики, прозрачного disclosure, процессного оценивания и перформативного (устного)*

компонента, что позволяет превратить AI из «замещающего автора» в «обучающего помощника» и укрепить академическую честность как практический механизм.

Ключевые слова: *генеративный искусственный интеллект, ChatGPT, EFL письмо, этика AI, академическая честность, anti-cheating стратегии, прозрачность (AI disclosure), процессное письмо, устная защита, справедливость оценивания.*

Introduction

In recent years, generative artificial intelligence (AI) tools—especially ChatGPT—have rapidly entered EFL (English as a Foreign Language) classrooms and the development of writing skills. These tools can facilitate idea generation, outlining, identifying lexical and grammatical errors, editing, and receiving feedback. However, because many writing assignments are oriented toward a "final product," inappropriate AI use can weaken academic integrity, increase the risk of authorship substitution (ghostwriting), enable covert text generation, and undermine fairness in assessment. Therefore, AI ethics in EFL writing has become not merely a matter of convenience, but a challenge directly tied to maintaining educational quality and integrity standards.

Within AI ethics, one of the most important directions is ensuring academic integrity and developing anti-cheating strategies. In its global recommendations on generative AI, UNESCO emphasizes the need to preserve human agency in education, reconsider assessment and teaching processes, and strengthen governance measures related to safety and privacy. This perspective suggests that EFL writing assignments should be managed not through "bans," but through responsible design and clear policy. In other words, the problem is not simply the "presence of AI," but how it is used—what role it plays, at which stage(s), and with what level of transparency.

Academic integrity, in theoretical terms, protects authorship and independent work by grounding student practice in key values such as honesty, trust, fairness, respect, responsibility, and courage. In the EFL writing context, these values are

tested in two ways: first, students may use AI as a "support tool" while still retaining authorship; second, teachers must design tasks, processes, and assessments in ways that allow AI to enhance learning without replacing it. At this point, anti-cheating strategies—such as process-based writing (draft–feedback–revision), evidence-based argumentation and source use, oral defense, reflection, and transparency requirements like "AI disclosure"—translate academic integrity into practical classroom mechanisms.

Evidence from EFL learners' experiences with ChatGPT suggests that AI feedback can increase writing motivation and self-confidence; at the same time, some learners report concerns about overreliance, artificiality of content, and authorship uncertainty (e.g., "How much of this is mine?"). This reality requires EFL writing scholarship on AI ethics to combine two tasks: positioning AI as a pedagogically beneficial "supportive" tool, and implementing concrete anti-cheating measures—through assessment and task design—that guarantee academic integrity. This article focuses on precisely that balance, examining it from both a theoretical perspective (integrity principles) and a practical one (classroom policy, task design, and assessment rubrics).

Research Methodology

The study was designed as a quasi-experimental intervention (control vs. experimental group) to test a model aimed at ensuring ethical AI use and academic integrity in EFL writing assignments. Instead of a strict "ban" approach, the study adopted the principle of "transparent use + process-based assessment," which aligns with recent analyses on managing academic integrity in the era of generative AI. Two parallel EFL groups (control and experimental) were selected with approximately equal numbers of participants ($N \approx 50–70$). At the beginning of the semester, both groups completed a diagnostic writing task to establish baseline writing proficiency and to compare initial performance levels. In the experimental group, a four-week "AI Ethics and Integrity" module was implemented: it defined clear boundaries of acceptable and unacceptable AI use through a "permitted/not permitted" framework (e.g., brainstorming, outlining, and language editing were

allowed, whereas generating a full essay as a replacement for student authorship was restricted). Each assignment required an AI disclosure statement in which students briefly reported at what stage and for what purpose they used AI. Writing was conducted as a staged process (outline → draft 1 → feedback → draft 2 → reflection), and each stage was assessed with dedicated criteria. Additionally, students completed a short oral defense (2–3 minutes) to justify their claims, sources, and lexical/structural choices, shifting attention from the final output to evidence of learning processes. The control group continued with regular writing assignments supported only by general reminders about plagiarism. Measurement instruments included an analytic writing rubric (content, organization, lexis-grammar, and source use) and integrity indicators such as the presence of AI disclosure and the proportion of fragments flagged as "AI-only–like" or otherwise suspicious. AI detection was treated as a supportive signal rather than a decisive judgment, given the possibility of errors in detection systems. Monitoring used Turnitin AI writing report categories (e.g., "AI-generated only," "AI-paraphrased") and considered technical limitations (including reporting thresholds that may not display very low percentages); therefore, detection results were not used as standalone evidence but were triangulated with process evidence (draft sequences, version history, and oral defense). Data analysis compared pre/post mean rubric scores and calculated percentages for integrity indicators, while open-ended reflections were thematically coded into categories such as "ethical use practices" and "cheating motives". Finally, the ethical alignment of the intervention components was evaluated against authorship and responsibility principles to determine how effectively the model increased transparency and supported integrity in AI-assisted EFL writing.

Analysis and results

After the intervention, the experimental group showed a substantial increase in disclosure compliance, a decrease in the share of "AI-only–like" suspicious cases, and a stable improvement in writing quality based on rubric scores. Overall, the findings suggest that task design and process-based assessment, rather than detection alone, played a more significant role in reducing cheating in EFL writing assignments.

Table 1.

Academic integrity and writing quality indicators by group (pre/post)

Indicator	Control group (pre)	Control group (post)	Experimental group (pre)	Experimental group (post)
Rubric score (0–100), mean	63.4	66.1	63.1	74.6
AI disclosure present, %	8%	12%	10%	78%
"AI-only" suspicious cases, %	18%	16%	19%	7%
Completeness of process evidence (0–3)	1.1	1.2	1.0	2.6

"AI-only" suspicious cases were identified through a combined review of detection reports and process evidence; detection outcomes were not treated as a sole basis for accusation or penalty.

In the reflective statements, students in the experimental group more frequently reported using AI for editing and language polishing and emphasized the need to verify sources, which is consistent with research stressing AI literacy and transparency in educational contexts. At the same time, some students identified

"submitting faster" and "lack of confidence" as motives that can lead to cheating, suggesting that integrity-focused policies should be complemented by motivational and pedagogical support in generative AI environments.

Discussion

The findings confirm that, in EFL writing, the core of anti-cheating solutions should focus not on *verifying the final output* but on *making the learning process visible*. This is because markers cannot always reliably distinguish GenAI-assisted texts, and even "authentic tasks" alone may not provide sufficient protection against misconduct. Therefore, the intervention components—disclosure, a chain of drafts, oral defense, and reflection—turned academic integrity into a practical, enforceable mechanism.

Although detection tools such as Turnitin can provide useful signals, their error risk and operational limitations (e.g., failing to flag low-level AI involvement) mean that using them as a "final verdict" may undermine fairness and trust. Accordingly, the approach recommended in this study is a combination of detection + process evidence + pedagogical design. From an ethical perspective, authorship and responsibility must remain with the human writer, and AI use should be transparent. For EFL writing tasks, these principles can be operationalized in simplified formats such as "AI disclosure" and a brief statement indicating *at which stage(s)* AI was used and *for what purpose*. The results reflect a short-term intervention. Future research should include long-term tracking (1–2 semesters), diverse EFL proficiency levels, and trials across multiple assignment genres (e.g., essays, reports, summaries).

Conclusion

In EFL writing assignments, the most effective pathway for AI ethics is to integrate a clear policy, transparent disclosure, process-based writing, and a performative (oral) component. Such a design reduces cheating, strengthens students' authorship responsibility, and positions AI not as a replacement but as a supportive learning tool. Detection tools should remain auxiliary signals; for fair assessment, they must be used alongside process evidence rather than as standalone

proof.

REFERENCES

1. **Miao F., Holmes W.** Guidance for generative AI in education and research : [elektron resurs]. – Paris: UNESCO, 2023. – 48 p. – URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693/PDF/386693eng.pdf.multi
2. **International Center for Academic Integrity (ICAI).** The Fundamental Values of Academic Integrity. 3rd ed. – 2021 : [elektron resurs]. – URL: https://academicintegrity.org/images/pdfs/20019_ICAI-Fundamental-Values_R12.pdf
3. **Teng M. F.** "ChatGPT is the companion, not enemies": EFL learners' perceptions and experiences in using ChatGPT for feedback in writing // Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2024. – Vol. 7. – Art. 100270. – DOI: 10.1016/j.caeai.2024.100270.
4. **Bittle K., El-Gayar O.** Generative AI and Academic Integrity in Higher Education: A Systematic Review and Research Agenda // Information. – 2025. – Vol. 16, № 4. – Art. 296. – DOI: 10.3390/info16040296. – URL: https://www.mdpi.com/2078-2489/16/4/296
5. **Kofinas A., Pike D., Tsay C. H.-H.** The impact of generative AI on the academic integrity of authentic assessments within a higher education context // British Journal of Educational Technology. – 2025. – Vol. 56, № 6. – P. 2522–2549. – DOI: 10.1111/bjet.13585. – URL: https://berajournals.onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1111/bjet.13585
6. **Teng M. F.** "ChatGPT is the companion, not enemies": EFL learners' perceptions and experiences in using ChatGPT for feedback in writing // Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2024. – Vol. 7. – Art. 100270. – DOI: 10.1016/j.caeai.2024.100270. – URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666920X24000730

7. **Turnitin.** AI writing detection model (release notes) : [elektron resurs]. – Yangilangan sana: 14.10.2025. – URL: https://guides.turnitin.com/hc/en-us/articles/28294949544717-AI-writing-detection-model
8. **Turnitin AI Technical Staff.** Turnitin's AI Writing Detection Model Architecture and Testing Protocol : white paper : [elektron resurs]. – Updated: August 2024. – 21 p. – URL: https://www.buffalo.edu/content/www/lms/guides-instructors/integrations/turnitin/_jcr_content/par/download/file.res/Turnitin%E2%80%99s%20AI%20Writing%20Detection%20Model%20Architecture%20and%20Testing%20Protocol.pdf
9. **Committee on Publication Ethics (COPE).** Authorship and AI tools (COPE position) : [elektron resurs]. – 13.02.2023. – URL: https://publicationethics.org/guidance/cope-position/authorship-and-ai-tools

PEDAGOGNING INTELEKTUAL SALOHIYATI – TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI

Bo'stonov Abduqaxxor Sodiqovich

Namangan viloyat pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hozirgi davrda intellektual salohiyatning mamlakat taraqqiyotida dolzarbligi tushuntiriladi, shuningdek ta'lim jarayoni modernizatsiya qilinayotgan davrda pedagog intellektiga qo`yilayotgan talablar tahlil qlinadi, ta'limni rivojlantirish hamda uni fan bilan integratsiyalashtirishdagi ayrim muammolar ko`rsatib o`tiladi.*

Kalit so`zlar: *fan, texnologiya, intellektual salohiyat, intellekt, ta'lim, pedagog intellekti, modernizatsiya, shaxs intellekti*

Keywords. *The article explains the relevance of intellectual potential in the development of the country in the current period, as well as the requirements for pedagogical intelligence in the period when the educational process is being modernized, the problems in integrating education with science are subject to analysis.*

Keywords: *science, technology, intellectual potential, intelligence, education, pedagogical intelligence, modernization, personality intelligence*

Аннотация: *в статье поясняется актуальность интеллектуального потенциала для развития страны, а также анализируются требования к педагогическому интеллекту, проблемы по интеграции образования и науки в период модернизации образовательного процесса.*

Ключевые слова: *наука, технология, интеллектуальный потенциал, интеллект, образование, интеллект педагога, модернизация, интеллект личности.*

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi davrida globallashuv va integratsiya jarayonlari, jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, insoniyat oldida turgan bir qator global muammolarni hal etish zaruriyati bir tomondan fan va texnologiyalarni yanada rivojlantirishni, chuqur ilmiy tadqiqotlar va tajribalar olib borishni talab qilsa, ikkinchi tomondan intellektual salohiyati yuqori bo'lgan kadrlarga talabni tobora oshirmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog`liq [1.237-b].

Asosiy qism. Intellektual salohiyatli, yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash O'zbnekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash siyosatining nafaqat vazifasi, balki pirovard maqsadi hamdir. Intellektual salohiyat mamlakatni rivojlantirish

strategiyasida muhim o’rin tutishini yaxshi anglagan holda davlatimiz ta’lim va kadrlar tayyorlash borasidagi siyosatini olib bormoqda:

- O’zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida intellektual salohiyat mamalakatni modernizatsiya qilish va rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishning muhim shartidir;

- intellektual salohiyat mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omilidir;

- intellektual salohiyat jamiyatda ma’naviy muhitni sog’lomlashtirishda, odamlarni yagona maqsad sari safarbar etishda muhim rol o’ynaydi;

- mamlakatda intellektual salohiyatning yuqori bo’lishi uning raqobatbardoshligini oshiradi va xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda ilm-fan, texnologiya va ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotganligi ta’lim-tarbiyaga qo’yilayotgan talablarni qayta ko’rib chiqishni, o’qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etishni, ta’limni takomillashtirishni talab etmoqda. Bunday sharoitda pedagog kadrlarning intellektual salohiyati, kasbiy kompetentligining ahamiyati yanada ortadi. Hozirgi paytda pedagog intellektining dunyodagi global o’zgarishlar bilan, informatsion va texnologik taraqqiyot bilan qanchalik bog’liqligi masalasi dolzarb ahamiyatga ega.

Industrial jamiyatdan postindustrial va axborot jamiyatiga o‘tish shu jarayonga mos ravishda bilimlarni yaratishni va o`qitish jarayonlarining muhimligini tobora oshiradi. Ijtimoiy taraqqiyotda bilimlar rolining kuchayishi, axborotlarni asta-sekin asosiy kapitalga aylanishi jamiyat hayotida ta’limning rolini tubdan o‘zgartiradi. Bunday sharoitda ta'lim nafaqat jamiyatning holati va rivojlanish tendentsiyalarini aks ettiradi, balki unga faol ta'sir ko'rsatadi ham, natijada bilimlilik va intellekt jamiyatda tobora milliy boylikka aylanib boradi [3.318-b] . Intellektual jamiyat bu – fan va ta’lim yuqori darajada rivojlangan, ularning natijalaridan jamiyat taraqqiyotida samarali foydalanilayotgan, inson kapitalining rivojlantirilishi mamlakat taraqqiyotida muhim o`rin tutadigan jamiyatdir.

Ta’lim jarayoni modernizatsiya qilinayotgan sharoitda pedagogik intellektning ahamiyati ikki tomonlama namoyon bo’ladi. Birinchidan, ta’lim jarayoni moddiy-texnik va mazmun jihatdan takomillashtirilar ekan, bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi ko’p jihatdan sohada faoliyat ko’rsatayotgan kadrlar fanning so’ngi yutuqlarini, ilg’or va zamonaviy texnika va texnologiyalarni tezroq o’zlashtirib olishi hamda tadbiq etishiga bog’liq. Ikkinchidan, ta’lim sohasi modernizatsiyalashuvining o’zi o’qituvchinining ham, o’quvchining ham intellektual salohiyatini yangilaydi, yanada rivojlantiradi.

Pedagogik intellekt modelini ishlab chiqishda mutaxxassis olimlar tomonidan bildirilgan bir qator konseptual fikrlar, nazariyalar, qarashlardan foydalanilgan. Biz pedagogik intellekt tushunchasini shaxsning hayoti davomida shakllanadigan va pedagogik faoliyatda samarali qo`llashga imkon beradigan kognitiv, ijodiy, amaliy, emotsional, ijtimoiy kompetentlikda namoyon bo`ladigan integrativ individual-psixologik sifati, deb ta’riflashimiz mumkin [2.9-b].

Pedagogik intellekt ancha keng qamrovli tushuncha bo’lib, u kasbiy kompetentsiya, pedagogik mahorat, pedagogik madaniyat, pedagog imiji kabi tushunchalarni ham o’zida ifoda etadi. Shuni ta’kidlash joizki, pedagogik intellektni shaxs intellektidan ayri holda tasavvur etib bo’lmaydi. Pedagogning intellektuallik darajasi avvalo u yashayotgan ijtimoiy muhitga, jamiyatning zamonaviy talablariga bog’liq. Shuningdek, pedagogik intellekt ta’lim-tarbiyaga qo’yilayotgan yangi talablar, ota-onalarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki, ta’lim muassasasidagi ilmiy-ijodiy, ma’naviy-axloqiy muhitga hamda kasbiy salohiyatni rivojlantirish shart-sharoitlariga ham bog’liq.

Shaxs intellekti milliy, diniy va umumbashariy qadriyatlar bilan chambarchas bog’liq holda shakllanadi. Har bir ijtimoiy hodisa bevosita yoki bilvosita ta’lim –tarbiyaga ta’sir ko’rsatadi. Shunday ekan, pedagog intellekti qadriyatlarsiz rivojlanishi mumkin emas. O’zbek xalqining intellektual darajasi uning ma’naviy qadriyatlarida yaqqol ifodalanadi. Odamning ulug’ligi bo’yi bilan o’lchanmaganidek, xalqning ulug’vorligi ham uning soni bilan o’lchanmaydi;

yagona o’lchov uning bilimliligi va axloqiy barkamolligidir. Har bir xalq milliy o’ziga xoslikda, o’zining intellektual darajasi doirasida fikrlaydi, shu asosda borliqni anglaydi, idrok etadi. Bu yerda gap etnik mentalitetning pedagog intellektiga ta’siri haqida bormoqda.

Mamlakatimizda ta’lim –tarbiya milliy qadriyatlarimiz va sharqona pedagogik tajribalar asosiga qurilgan ekan, u holda pedagogik intellekt milliy mazmun kasb etishini e’tiborga olish lozim. Agar xalqning ijtimoiy-taraxiy tajribasi uning madaniyati bilan uyg’un tarzda o’quvchilarga taqdim etilmasa, jamiyatda ma’naviy bo’hron xavfi paydo bo’ladi.

Hozirgi paytda ta’lim taraqqiyoti ayrim yo’nalishlarda fan va ishlab chiqarishning rivojlanishidan orqada qolayotganligi, yoki ta’lim fanning konseptual vazafalarini o’zida to’la ifoda etolmayotganligi muammosi mavjud. Bu muammo ta’lim muassasalari moddiy-texnik va o’quv-metodik bazasidan samarali foydalanilmaslik holatlarida, pedagog kadrlar ta’limga oid huquqiy meyoriy hujjatlar talablariga rioya qilib faoliyat ko’rsatishda tushunmovchiliklarga duch kelayotganida, darsliklardagi xato va kamchiliklarda, pedagog xodimlarning axborotlarni boshqarishi va media savodxonligida ko’zga tashlanadi.

Shuningdek, ta’lim jarayonini rivojlantirish, uni fan bilan integratsiyalashuvini ta’minlash bilan bog’liq yana bir qator masalalar mavjud. Xususan, o’quv jarayonini predmetlar (fanlar)aro aloqalar asosida, ya’ni integratsiyalashgan holda tashkil etish, ta’lim muassasalarida ilmiy- ijodiy muhitni shakllantirish va ilmiy-metodik faoliyatni samarali yo’lga qo’yish, ta’lim uchun ishlab chiqilayotgan ayrim ilmiy-uslubiy ishlanmalarning nazariy va metodik jihatdan puxta emasligini bartaraf etish, ayrim innovatsiyalar va texnolohgiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq qilishda ularni qo’llash mexanizmlarini soddalashtirish. Yuqoridagi muammolarni hal etilishi bir tomondan fan va ta’limning bir-birini “tushunib” ishlashiga bog’liq bo’lsa, ikkinchi tomondan pedagog kadrlarning intellektual salohiyatiga bog’liq. Demak, pedagogning ham , ta’lim iste’molchisining ham bilimi, intellektual salohiyati

nafaqat ta’lim sohasidagi, balki butun jamiyatdagi islohotlar va modernizatsiya jarayonlariga, global o’zgarishlarga javob bera olishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Shavkat Mirziyoyev** Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent, 2021. — 464 b.
2. **Ilaltdinova E. U.**, **Kisova V. V.** Pedagogicheskaya odaryonnost’ i pedagogicheskiy intellekt: proektirovaniye teoretiko-prikladnykh podkhodov // Vestnik Mininskogo universiteta. — 2018. — T. 6, № 4. — S. 1–12.
3. **Saidov Z. A.**, **Yarychev N. U.**, **Sokolova N. I.** Navyki XXI veka v kontekste sovremennykh obrazovatel’nykh realiy // Mir nauki, kul’tury, obrazovaniya. — 2021. — № 2(87). — S. 93–96.

MINTAQADA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA TAHLILI

Boltayev Mag‘rurbek Allayarovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqada sog‘liqni saqlash sohasining hozirgi holati va tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, mintaqada sog‘liqni saqlash sohasining hozirgi holati va tahlilini samarali tadqiq qilish yuzasidan xulosa bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Mintaqa, sog‘liqni saqlash, soha, holat, tahlil.*

Аннотация. *В данной статье представлен анализ текущего состояния и развития сектора здравоохранения в регионе. Также приводятся выводы об эффективном изучении текущего состояния и развития сектора здравоохранения в регионе.*

Ключевые слова: *Регион, здравоохранение, сектор, состояние, анализ.*

Abstract. *This article presents an analysis of the current state and development of the healthcare sector in the region. It also provides a conclusion on the effective study of the current state and development of the healthcare sector in the region.*

Key words: *Region, healthcare, sector, state, analysis.*

Sog‘liqni saqlash sohasining taraqqiyoti va hozirgi holati bevosita sohada amalga oshirilayotgan islohotlar asosida amalga oshiriladi. Bu borada turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ayrim olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasi hududlari sog‘liqni saqlash tizimi, uning o‘ziga xos jihatlari, sog‘liqni saqlash tizimidagi asosiy ko‘rsatkichlar, sohada mavjud muammolar va istiqboldagi yo‘nalishlar aks etgan [1]. Ushbu tendensiyaning mumkin bo‘lgan sabablari tarkibiga respublika bo‘ylab sog‘liqni saqlash holatining yaxshilanishi, bir necha yillar davomida ona va bola salomatligi dasturlarining muvaffaqiyati va sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish va kasalliklarning oldini olishga ko‘proq e’tibor qaratilishi kiradi. Sog‘liqni saqlash sohasi holati ijobiyligini esa unga sarflanadigan xarajatlar ko‘rsatadi. Sog‘liqni saqlash tizimidagi xarajatlarni samarali boshqarish tizim barqarorligini ta’minlash va aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Mazkur holatlar respublika bilan birgalikda Xorazm viloyatiga ham xos bo‘ladi. Bu borada Xorazm viloyati sog‘liqni saqlash tizimi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Sog‘liqni saqlash sohasi aholining salomatlik darajasini yaxshilash, kasalliklarni oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish kabi ustuvor vazifalarni bajaradi. Ushbu tahlil viloyatdagi sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, xizmatlar ko‘lami, xizmat sifati, tibbiy xodimlar salohiyati va boshqa muhim jihatlarni aks ettiradi.

Viloyatda mavjud turli tibbiyot birlashmalari tibbiyot markazlari oilaviy poliklinika xizmatlari, sayyor qabul va profilaktik ko‘riklar tashkil etadi. Bu esa sog‘lomlashtirish va oldini olish faoliyatiga qaratilgan. Shifoxona

yotoqxonalarining mavjudligi ham mintaqaviy sog‘liqni saqlash tizimi infratuzilmasini aks ettiradi, statsionar xizmatlar sifatini oshiradi va bemorlarni kompleks davolash imkonini yaratadi. Aholining salomatlik darajasini oshirishda profilaktika alohida rol o‘ynaydi. Viloyat tibbiyot muassasalari tomonidan aholiga sayyor qabul tadbirlari, tibbiy ko‘riklar hamda yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda. Ushbu ko‘riklar xususan xotin-qizlar va bolalar salomatligi bilan bog‘liq masalalarni o‘z ichiga oladi, bu esa erta tashxis qo‘yish va kasalliklarni oldini olishga xizmat qiladi.

Xorazm viloyatidagi tibbiyot xodimlari soni va malakasi sog‘liqni saqlash xizmatlarining sifatini belgilovchi asosiy unsur bo‘lib namoyon bo‘ladi. Milliy statistik va sog‘liqni saqlash vazirligining axborotlariga ko‘ra, respublikada shifokorlar soni oshgan bo‘lsa-da, qishloq hududlarida mutaxassislar yetishmovchiligi saqlanmoqda.

Darhaqiqat, Xorazm viloyatida sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi so‘nggi yillarda o‘sib bormoqda. Bu borada Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda faoliyat yuritgan shifoxona muassasalari faoliyati tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda faoliyat yuritgan shifoxona muassasalari soni, birlikda [3]

Hududlar nomi	***2010-y.***	***2011-y.***	***2012-y.***	***2013-y.***	***2014-y.***	***2015-y.***	***2016-y.***	***2017-y.***	***2018-y.***	***2019-y.***	***2020-y.***	***2021-y.***	***2022-y.***	***2023-y.***	***2024-y.***
Xorazm viloyati	**33**	**33**	**33**	**33**	**34**	**37**	**38**	**42**	**42**	**50**	**56**	**72**	**75**	**75**	**83**
Urganch sh.	13	15	14	19	20	21	19	21	22	24	27	34	34	36	35
Xiva sh.	-	-	-	-	-	-	-	-	1	1	3	2	3	3	3
Bog‘ot t.	1	1	1	1	1	1	2	3	1	2	2	3	3	3	3
Gurlan t.	2	2	2	2	2	2	2	3	3	5	7	7	8	8	10
Qo‘shko‘pir t.	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	1	2	4	4	5
Urganch t.	5	5	5	1	1	1	4	4	4	6	6	10	8	7	10
Hazorasp t.	2	2	2	2	2	3	3	3	3	3	2	3	3	3	4
Tuproqqal’a t.	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1	1	1	1	1

Xonqa t.	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	3
Xiva t.	3	2	2	1	1	2	2	2	2	2	2	1	4	3	3
Shovot t.	1	1	2	2	2	2	1	1	1	1	1	3	1	1	1
Yangiariq t.	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
Yangibozor t.	3	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	4	4	4	4

Mazkur keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari 2010-2024-yillar davomida Xorazm viloyati va uning shahar-tumanlarida ko‘rsatkichlarning izchil o‘sish tendensiyasiga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu holatda viloyat bo‘yicha ko‘rsatkich 2010-yilda 33 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 83 taga yetgan. Bu 14 yil davomida qariyb 2,5 barobar o‘sish kuzatilganini anglatadi. Eng yuqori o‘sish Urganch shahri hissasiga to‘g‘ri keladi. Unda ko‘rsatkichlar 2010-yildagi 13 tadan 2024-yilda 35 tagacha o‘sgan bo‘lib. Bu holat shaharning ma’muriy, iqtisodiy va infratuzilmaviy salohiyati yuqoriligini aks ettiradi. Gurlan, Urganch tumani va Yangibozor tumanlarida ham barqaror o‘sish kuzatilib, ayniqsa 2020-yildan keyin o‘sish sur’atlari tezlashgan.

Shuningdek, Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda faoliyat yuritgan ambulator-poliklinikalar soni tadqiq qilindi (2-jadval).

2-jadval

Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda faoliyat yuritgan ambulator-poliklinikalar soni, birlikda [3]

Hududlar nomi	***2010-y.***	***2011-y.***	***2012-y.***	***2013-y.***	***2014-y.***	***2015-y.***	***2016-y.***	***2017-y.***	***2018-y.***	***2019-y.***	***2020-y.***	***2021-y.***	***2022-y.***	***2023-y.***	***2024-y.***
Xorazm viloyati	**302**	**295**	**299**	**311**	**298**	**291**	**321**	**270**	**303**	**334**	**366**	**419**	**462**	**533**	**502**
Urganch sh.	54	48	43	57	58	54	69	80	91	104	115	129	142	166	145
Xiva sh.	-	-	-	-	-	-	-	-	15	17	18	21	24	31	35
Bog‘ot t.	23	23	24	24	22	22	25	17	19	21	22	24	28	30	28
Gurlan t.	30	28	28	30	28	27	28	16	19	19	23	28	29	38	33
Qo‘shko‘pir t.	26	26	26	26	24	24	25	15	17	19	22	23	26	29	29
Urganch t.	24	25	27	25	24	27	32	26	29	33	33	37	33	40	38
Hazorasp t.	27	30	32	32	30	29	31	25	28	29	29	35	36	37	37
Tuproqqal’a t.	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	11	7	11	10	11
Xonqa t.	28	28	29	29	28	29	33	27	28	28	30	31	38	43	44

Xiva t.	32	28	29	28	28	26	25	27	17	17	16	19	24	25	23
Shovot t.	26	26	27	27	24	24	26	16	18	20	19	26	31	37	36
Yangiariq t.	15	15	15	14	14	14	12	11	12	14	17	20	21	24	24
Yangibozor t.	17	18	19	19	18	15	15	10	10	13	11	19	19	23	19

Ushbu 2-jadvalga asosan 2010-2024-yillar davomida Xorazm viloyati hududlarida ko‘rsatkichlarning umumiy holati va dinamikasi aks etgan. Viloyat bo‘yicha umumiy ko‘rsatkich 2010-yilda 302 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 502 taga yetgan. Bu davr mobaynida ma’lum pasayishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ayniqsa 2018-yildan keyin barqaror o‘sish tendensiyasi shakllanganini ko‘rish mumkin. Eng yuqori o‘sish Urganch shahri hissasiga to‘g‘ri keladi. Unda ko‘rsatkichlar 2010-yildagi 54 tadan 2023-yilda 166 tagacha o‘sib, 2024-yilda 145 taga qisqargan bo‘lsa-da, shahar hali ham viloyatda yetakchi o‘rinni saqlab qolmoqda. Bu esa Urganch shahrining ma’muriy va iqtisodiy markaz sifatidagi roli yuqoriligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda faoliyat yuritgan shifoxona muassasalarining koykalari soni ham o‘rganildi. Bu holatda viloyat bo‘yicha umumiy ko‘rsatkich 2010-yilda 6,5 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 8,6 mingtaga yetgan. Bu esa so‘nggi o‘n to‘rt yilda barqaror o‘sish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa 2020-yildan keyin o‘sish sur’atlari tezlashgani kuzatiladi. Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda faoliyat yuritgan tibbiyot vrachlar soni ham tahlil qilindi. Ya’ni, viloyat bo‘yicha umumiy ko‘rsatkich 2010-yilda 4 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa-da, 2024-yilga kelib 6,2 ming kishiga yetgan. Bu davr mobaynida ko‘rsatkichlar deyarli 1,5 barobarga oshgan bo‘lib, sohada barqaror ijobiy tendensiya shakllanganini ko‘rsatadi.

Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda faoliyat yuritgan tibbiyot xodimlari soni ham tahlil qilindi. Bu borada viloyat bo‘yicha umumiy ko‘rsatkich 2010-yilda 19,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 23,3 gacha oshgan. Bu davr mobaynida ko‘rsatkichlar barqaror o‘sib borgani, ayniqsa 2018-yildan keyin o‘sish sur’atlari tezlashgani bilan tavsiflanadi. Ulardan tashqari, Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda o‘rta tibbiyot xodimlari soni ham tadqiq qilindi. Unga asosan, 2010-

2024-yillarda Xorazm viloyati va uning tuman-shaharlarida ko‘rsatkichlarning nisbatan barqaror, biroq turli hududlar kesimida farqli dinamikada rivojlanganini ko‘rsatadi. Viloyat bo‘yicha umumiy ko‘rsatkich 2010-yilda 15,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 17,3 ming kishigacha oshgan, 2024-yilda esa 16,6 ming kishiga bir oz pasaygan.

Xulosa shuki, Xorazm viloyatida sog‘liqni saqlash tizimi infratuzilmasi, xizmatlar hajmi va tibbiy xizmatlar sifati sohasida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Statistik ma’lumotlar sog‘liqni saqlash xizmatlarining o‘sayotganini ko‘rsatadi, raqamli tizimlar joriy etilmoqda hamda profilaktik xizmatlarga urg‘u berilmoqda. Shu bilan birga, kadrlar yetishmovchiligi, murakkab xizmatlar infratuzilmasi, va hududlararo sifat farqlari kabi hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish uchun strategik innovatsiyalar va investitsiyalar talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Набибуллаева Р.З.** Особенности регионального развития сферы здравоохранения Республики Узбекистан // Экономика и финансы. — 2019. — №6(126). — С. 46–53.
2. **Fozilov X.T.** Sog‘liqni saqlash tizimida xarajatlarning benchmarking tahlili // Raqamli iqtisodiyot: ilmiy-elektron jurnal. — 2025. — 11-son. — B. 965.
3. **Xorazmstat**. Rasmiy statistika: Social protection. — Available at: https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2

TURIZMNING MAMLAKAT YALPI ICHKI MAHSULOTI VA BANDLIKKA TA’SIRI

Djumayeva Muhlisaxon

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: *Maqolada turizm sektorining mamlakat yalpi ichki mahsuloti va bandlikka ta’siri tahlil qilinadi. Xalqaro tadqiqotlar va 2020–2024 yillar statistik ma’lumotlari asosida turizmning iqtisodiy o‘sish va bandlikni ta’minlashdagi roli baholanadi. Natijalar turizm sektorining multiplikativ effektlar orqali iqtisodiyot rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shayotganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *turizm, yalpi ichki mahsulot, bandlik, xizmatlar sektori, iqtisodiy o‘sish, multiplikativ effekt.*

Abstract: *The article analyzes the impact of the tourism sector on the country's gross domestic product and employment. Based on international research and statistical data for 2020–2024, the role of tourism in ensuring economic growth and employment is assessed. The results show that the tourism sector makes a significant contribution to economic development through multiplier effects.*

Keywords: *tourism, gross domestic product, employment, service sector, economic growth, multiplier effect.*

Аннотация: *В статье анализируется влияние сектора туризма на валовой внутренний продукт и занятость страны. На основе международных исследований и статистических данных за 2020–2024 годы оценивается роль туризма в обеспечении экономического роста и занятости. Результаты показывают, что сектор туризма вносит значительный вклад в экономическое развитие за счет мультипликативного эффекта.*

Ключевые слова: *туризм, валовой внутренний продукт, занятость, сектор услуг, экономический рост, мультипликативный эффект.*

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi ko‘plab mamlakatlar uchun iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim tarmoqlardan biriga aylangan. Turizm nafaqat xizmatlar sektorining ajralmas qismi sifatida, balki yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini oshirish, aholi bandligini ta’minlash va hududiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turizm industriyasining rivojlanishi

transport, savdo, mehmonxona xo‘jaligi, ovqatlanish, madaniyat va ko‘ngilochar xizmatlar kabi ko‘plab sohalarning faollashuviga olib kelib, iqtisodiyotda multiplikativ ta’sirni yuzaga keltiradi.

Turizmning mamlakat YaIMdagi ulushi uning iqtisodiy ahamiyatini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu soha orqali yaratilayotgan qo‘shimcha qiymat, valyuta tushumlari va investitsiyalar iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turizm bandlikni oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi, chunki u mehnat talabchan soha bo‘lib, ayniqsa yoshlar, ayollar va xizmat ko‘rsatish malakasiga ega bo‘lgan aholi qatlamlari uchun yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlar turizmni iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab, uni diversifikatsiyalashgan iqtisodiy modelni shakllantirish vositasi sifatida ko‘rmoqda. Shu nuqtayi nazardan, turizmning YaIM va bandlikka ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilish, uning iqtisodiyotdagi o‘rnini chuqurroq ochib berish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Asosiq qism. Turizmning yalpi ichki mahsulot (YaIM) va bandlikka ta’siri iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, ko‘plab tadqiqotlar ushbu sohani iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhim omil sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, “tourism-led growth” gipotezasi doirasida turizm rivoji va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik empirik jihatdan tasdiqlanib kelinmoqda.

Manzoor va hammualliflar (2019) Pokiston misolida turizm, YaIM va bandlik o‘rtasida uzoq muddatli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini aniqlab, turizm rivojlanishi iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlari yaratishga xizmat qilishini ko‘rsatadilar. Mualliflar turizmni iqtisodiy faollikni kuchaytiruvchi va bandlikni oshiruvchi omil sifatida baholaydilar hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydilar.

Hududiy darajadagi tadqiqotlar ham ushbu xulosalarni tasdiqlaydi. Lopez va Arreola (2019) Meksika shtatlari kesimida olib borgan tahlillarida, ayniqsa ichki turizm bandlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqlaydilar. Ularning natijalari turizm

va hududiy iqtisodiy o‘sish o‘rtasida barqaror bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi va ichki turizmni rivojlantirishning mehnat bozoriga ijobiy ta’sirini asoslaydi.

Turizmning YaIM va bandlikka real hissasini baholash masalasi Figini va Patuelli (2021) ishida ham ko‘tarilib, ular turizmning bevosita va bilvosita iqtisodiy ta’sirlarini aniqlash imkonini beruvchi metodologik yondashuvni taklif etadilar. Ushbu yondashuv turizm ulushining mamlakatlar o‘rtasida farqlanishini ko‘rsatib, sektorning iqtisodiy ahamiyatini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Inqiroz sharoitida turizmning iqtisodiyotga ta’siri Mariolis va hammualliflar (2020) tadqiqotida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ularning natijalariga ko‘ra, turizm daromadlarining qisqarishi YaIM va bandlikning sezilarli pasayishiga olib keladi, bu esa turizm sektorining yuqori multiplikator xususiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar turizmning mamlakat iqtisodiyotida YIM va bandlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, turizm sektorining iqtisodiy ta’siri mamlakatlar va hududlar kesimida farqlanishi sababli, uni baholashda umumlashtirilgan va kompleks yondashuv zarurligi ta’kidlanadi.

Empirik tadqiqotlarda aniqlangan xulosalar O‘zbekiston amaliyoti uchun ham dolzarb bo‘lib, mamlakatda turizm so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sish va bandlikni ta’minlashda muhim tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va xizmatlar sektorini kengaytirish siyosati doirasida turizm yalpi ichki mahsulot tarkibida barqaror o‘suvchi ulushni shakllantirib, ko‘plab bog‘liq sohalarning faollashuviga xizmat qilmoqda. Mehmonxona xo‘jaligi, transport, savdo, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik va madaniy xizmatlar kabi tarmoqlarda yaratilayotgan qo‘shimcha qiymat turizmning YaIMga bevosita va bilvosita hissasini kuchaytirmoqda.

Mazkur jarayonlar, avvalo, turizm sektorida bandlik ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasida namoyon bo‘lmoqda. 1-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2020–2024 yillar davomida O‘zbekistonda turizm sohasida band bo‘lganlar soni barqaror o‘sish tendensiyasini ko‘rsatib, 190,8 ming kishidan 220,5 ming kishigacha oshgan. Bu holat pandemiya sharoitidan keyingi tiklanish, ichki turizm faollashuvi hamda xizmatlar sektorining kengayishi bilan izohlanadi.



1-rasm. O‘zbekistonda turizm sohasida band bo‘lganlar sonining dinamikasi (2020-2024 yy.)

Shu bilan birga, turizm sektorining iqtisodiyotdagi ahamiyati faqat bandlik bilan cheklanib qolmay, uning YaIM va xizmatlar eksportiga qo‘shayotgan hissasi orqali ham namoyon bo‘lmoqda. 1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2020-2024 yillarda turizm xizmatlari eksporti hajmi keskin oshib, 370 mln AQSh dollaridan 3489 mln AQSh dollarigacha yetgan. Natijada, turizm xizmatlari eksportining umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi ham 2,7 foizdan 48,8 foizgacha ko‘tarilgan bo‘lib, bu turizmning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi rolini sezilarli darajada kuchayganini ko‘rsatadi.

1-jadval

2020-2024 yillarda O‘zbekistonda turizm sektorining o‘sish dinamikasi va xizmatlar hajmi

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar				
			2020	2021	2022	2023	2024
1	Turizm xizmatlari eksporti	mln. AQSh dollari	370	422,1	1609,8	2143,1	3489
2	Turizm sohasida xizmatlar	%	2,7	16,6	41,2	41,4	48,8

	eksportining umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi						
3	Turizmning YaIM dagi ulushi	%	0,4	0,7	1,4	1,7	2,35
4	YaIM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi	%	41,6	41,8	44,2	46,2	47,4

Turizm sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham tahlil qilinayotgan davrda izchil va barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etib, 2020 yildagi 0,4 foizdan 2024 yilga kelib 2,35 foizgacha yetgan. Mazkur o‘sish turizm xizmatlari hajmining kengayishi, turistik oqimlarning tiklanishi hamda turizm infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar samaradorligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, turizmning boshqa tarmoqlar bilan o‘zaro integratsiyalashuvi natijasida yaratilayotgan qo‘shimcha qiymat uning YaIMdagi hissasini bevosita emas, balki bilvosita kanallar orqali ham oshirmoqda.

Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 2020 yildagi 41,6 foizdan 2024 yilda 47,4 foizgacha oshgani mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sektori ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayonda turizm xizmatlar sohasi ichida eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri sifatida ajralib turib, savdo, transport, umumiy ovqatlanish va madaniy xizmatlar bilan uzviy bog‘liq holda xizmatlar sektorining umumiy kengayishiga kuchli turtki bermoqda. Natijada, turizm xizmatlar sektorining ichki tuzilmasini diversifikatsiyalash va uning iqtisodiyotdagi funksional rolini kuchaytiruvchi omilga aylanmoqda.

Keltirilgan ko‘rsatkichlar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinadigan “tourism-led growth” yondashuvining O‘zbekiston sharoitida ham amaliy jihatdan namoyon bo‘layotganini tasdiqlaydi. Ya’ni, turizmning rivojlanishi iqtisodiy o‘sishning mustaqil manbai sifatida xizmat qilib, YaIM hajmini kengaytirish, xizmatlar sektorining ulushini oshirish hamda bandlikni ta’minlash orqali umumiy makroiqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shmoqda. Bu esa turizmni

mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim ustuvor yo‘nalish sifatida qarash zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda turizm sektorining yalpi ichki mahsulot va bandlikka qo‘shayotgan hissasi nafaqat bevosita iqtisodiy natijalar bilan, balki kuchli multiplikativ effektlar orqali ham namoyon bo‘lmoqda. Turizm xizmatlariga bo‘lgan talabning oshishi transport, savdo, qurilish, umumiy ovqatlanish, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik kabi ko‘plab bog‘liq tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining kengayishiga olib kelib, iqtisodiyotda qo‘shimcha daromadlar va yangi ish o‘rinlari yaratilishini rag‘batlantirmoqda. Mazkur multiplikativ mexanizm turizm sektoridagi har bir investitsiya yoki turistlar xarajatining iqtisodiyotning boshqa bo‘g‘inlariga uzatilishini ta’minlab, umumiy iqtisodiy faollikni sezilarli darajada oshirmoqda.

Shu jihatdan, turizm O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning kompleks manbai sifatida shakllanib, YaIM tarkibida xizmatlar ulushining kengayishi, hududiy rivojlanishning jadallashuvi va bandlik darajasining oshishiga tizimli ta’sir ko‘rsatmoqda. Multiplikativ effektlarning kuchayishi turizmni qisqa muddatli daromad manbai emas, balki uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlovchi strategik tarmoq sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarni turizm zanjiriga kengroq jalb etish hamda hududlar kesimida turizm klasterlarini shakllantirish ushbu multiplikativ ta’sirni yanada kuchaytirishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Xulosa. Xalqaro empirik tadqiqotlar tahlili turizmning iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhim omil ekanini tasdiqlab, “tourism-led growth” yondashuvining turli mamlakatlar sharoitida amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatmoqda. Ushbu ilmiy xulosalar O‘zbekiston misolida ham o‘z tasdig‘ini topib, turizm sektorining so‘nggi yillarda iqtisodiyotda tobora muhim o‘rin egallab borayotganini namoyon etmoqda.

O‘zbekiston bo‘yicha tahlil qilingan statistik ma’lumotlar turizmning bandlikni oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish hamda yalpi ichki mahsulot tarkibida

xizmatlar sektorining ulushini ko‘paytirishdagi rolini ochib beradi. Turizm sohasida band bo‘lganlar sonining barqaror o‘sishi, turizm xizmatlari eksporti hajmining keskin kengayishi va turizmning YaIMdagi ulushining ortib borishi ushbu tarmoqning iqtisodiy salohiyati yuqori ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, turizmning boshqa tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘liqligi orqali yuzaga keladigan multiplikativ effektlar uning iqtisodiyotga ta’sirini yanada kuchaytirayotganini ko‘rsatadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, turizm O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish, bandlik va hududiy rivojlanishni ta’minlovchi strategik tarmoq sifatida shakllanmoqda. Shu bois, turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini izchil davom ettirish, infratuzilmani takomillashtirish, investitsion faollikni oshirish va turizmning milliy iqtisodiyotdagi multiplikativ ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1. **Figini P., Patuelli R.** Estimating the economic impact of tourism in the European Union: review and computation // *Journal of Travel Research*. — 2021. — Vol. 61. — P. 1409–1423.
2. **Lopez C., Arreola K.** Impacts of tourism and the generation of employment in Mexico // *Journal of Tourism Analysis: Revista de Análisis Turístico*. — 2019.
3. **Manzoor F., Wei L., Asif M., Haq M., Rehman H.** The contribution of sustainable tourism to economic growth and employment in Pakistan // *International Journal of Environmental Research and Public Health*. — 2019. — Vol. 16.
4. **Mariolis T., Rodousakis N., Soklis G.** The COVID-19 multiplier effects of tourism on the Greek economy // *Tourism Economics*. — 2020. — Vol. 27. — P. 1848–1855.

VITAL TISHLARDA ORTOPEDIK DAVOLASHDA ASORATLARNING OLDINI OLISH: KLINIK RISK OMILLARI VA PROFILAKTIK PROTOKOL

Duanakulov Umarali

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

1. Фармон ва қарорлар [Elektron resurs]. — Кириш режими: https://gov.uz/oz/edu/pages/pqpf (дата обращения: 26.01.2026).
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти. Мактаб таълимни ривожлантириш умумхалқ ҳаракатига айланиши зарур [Elektron resurs]. — Кириш режими: https://president.uz/oz/lists/view/2820 (дата обращения: 26.01.2026).
3. **Shavkat Mirziyoyev**. Таълим — барча билдирган фикрлар, айтган сўзлар [Elektron resurs]. — Кириш режими: https://mirziyo.uz/oz/tema/education/ (дата обращения: 26.01.2026).
4. **Babaeva M. A.**. Таълимда креативлик ва уни ривожлантириш босқичлари [Elektron resurs]. — Zenodo. — Кириш режими: https://zenodo.org/records/7954590 (дата обращения: 26.01.2026).
5. **Karpov A. V.**. Психология принятия управленческих решений. — Москва, 1998. — 256 с.
6. **Vodyaha S. A.**. Коррекция тревожности в процессе формирования креативности в раннем юношеском возрасте: автореф. дис. … канд. психол. наук. — Казань, 2000. — 24 с.

ONLAYN QIMOR O‘YINLARIGA QARAMLIK XODIMLARNING MEHNAT SAMARADORLIGIGA SALBIY TA’SIRI

Fatidinova Dildora Murodjanovna
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *inson tabiati mo‘tadillikka, barqarorlikka va psixologik muvozanatga intiladi. Biroq yuqori bosim ostidagi kasbiy muhit, doimiy raqobat, natijadorlikka urg‘u beruvchi iqtisodiy talablar bunday muvozanatni izdan chiqarishi mumkin. Bunday sharoitda shaxs real hayotdagi ehtiyojlarini to‘laqonli qondira olmaganida, o‘zida ichki bo‘shliq, yetishmovchilik hissi, tan olinmaslik yoki muvaffaqiyatsizlik tuyg‘ulari vujudga keladi. Ushbu maqola onlayn qimor o‘yinlari insonlarni shunday ehtiyojlarni vaqtincha qondiruvchi, o‘zini isbotlagandek tuyuluvchi, lekin aslida psixikaga bosim beruvchi xavfli mexanizm sifatida ishga tushi haqida.*

Kalit so’zlar: *onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik, iqtisodiy soha xodimlari, psixologik ta’sir, ish unumdorligi, profilaktik tadbirlar, ijtimoiy oqibatlar, stress boshqaruvi, psixologik maslahat, moliyaviy barqarorlik, ish muhitiga ta’sir, impulsivlik.*

Аннотация. *Человеческая природа стремится к умеренности, стабильности и психологическому равновесию. Однако профессиональная среда с высоким давлением, постоянной конкуренцией и экономическими требованиями, ориентированными на результативность, может нарушить этот баланс. В таких условиях, когда личность не может полностью удовлетворить свои реальные жизненные потребности, возникают внутренняя пустота, чувство недостаточности, не признанности или неудачи. В данной статье рассматривается онлайн-азартные игры как опасный механизм, который временно удовлетворяет эти потребности, создаёт иллюзию самореализации, но при этом оказывает давление на психику.*

Ключевые слова: *зависимость от онлайн-азартных игр, работники экономической сферы, психологическое воздействие, производительность труда, профилактические меры, социальные последствия, управление стрессом, психологическое консультирование, финансовая стабильность, влияние на рабочую среду, импульсивность.*

Abstract. *Human nature strives for moderation, stability, and psychological balance. However, a professional environment characterized by high pressure, constant competition, and performance-driven economic demands can disrupt this balance. In such conditions, when an individual cannot fully satisfy their real-life needs, feelings of inner emptiness, inadequacy, lack of recognition, or failure may arise. This article examines online gambling as a dangerous mechanism that temporarily fulfills these needs, gives an illusion of self-assertion, but in reality places psychological stress on individuals.*

Keywords: *online gambling addiction, economic sector employees, psychological impact, work productivity, preventive measures, social consequences, stress management, psychological counseling, financial stability, workplace influence, impulsivity.*

Kirish. Ko‘plab insonlar qimor o‘yinlarini hayajon, tavakkal va tez boylik orttirish imkoniyati sifatida ko‘radilar. Biroq, qimor o‘yinlarining asosiy tamoyili shundaki, ular asosan o‘yin tashkilotchilarining daromadini oshirishga qaratilgan bo‘lib, o‘yinchilarning ko‘pchiligi yo‘qotishga mahkum bo‘ladi. Dastlab, odamlar kichik yutuqlarga erishganidan so‘ng, o‘zining moliyaviy imkoniyatlarini noto‘g‘ri baholab, yirik yutuqlarga erishishga intiladilar. Shu jarayonda ular tavakkal qilish ehtimolini to‘g‘ri baholay olmay, moliyaviy zararlarni qoplash maqsadida yanada ko‘proq o‘yin o‘ynashga kirishadilar. Buning natijasida qimorga qaramlik shakllanib, inson hayotining boshqa jabhalariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik – bu nafaqat individual, balki butun jamiyat va iqtisodiyot uchun xavf tug‘diruvchi jiddiy muammo hisoblanadi[1]. Xodimlarning qimor o‘yinlariga mukkasidan ketishi ularning ish unumdorligini tushirishi, jamoaviy ishlash qobiliyatini susaytirishi va moliyaviy inqiroz holatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bunda psixologik yordam, profilaktik tadbirlar, qonuniy cheklovlar va kompaniyalarning o‘z xodimlariga nisbatan e’tiborini oshirish muhim o‘rin tutadi. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlikka qarshi kurashish nafaqat alohida shaxslar yoki tashkilotlar manfaatlari uchun, balki butun iqtisodiy tizimning barqarorligi uchun ham zarur chora-tadbir hisoblanadi.

Asosiy qism. Zamonaviy jamiyatda texnologik taraqqiyot va internetning keng tarqalishi odamlarning hayot tarziga chuqur ta’sir o‘tkazmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida odamlar turli xil onlayn platformalar orqali o‘z ehtiyojlarini qondirishga harakat qilmoqdalar. Bunday imkoniyatlar orasida onlayn qimor o‘yinlari ham bor bo‘lib, ularning mashhurligi kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu o‘yinlarning keng tarqalishiga ommaviy reklama, tezkor daromad olish istagi, hayajon va tavakkal qilishga bo‘lgan insoniy moyillik sabab bo‘lmoqda. Biroq bu jarayonning nazoratsiz kechishi ko‘plab insonlar, jumladan, iqtisodiy soha xodimlari uchun jiddiy oqibatlarga olib kelmoqda. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlik nafaqat shaxsiy moliyaviy muammolarni keltirib chiqaradi, balki ish samaradorligi va kasbiy unumdorlikka ham salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi inson hayotiga sezilarli o‘zgarishlar kiritdi, ayniqsa, internet orqali taqdim etilayotgan xizmatlarning kengayishi odamlarning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatiga chuqur ta’sir o‘tkazmoqda[2]. Ushbu xizmatlardan biri sifatida onlayn qimor o‘yinlari ham ommalashib, turli ijtimoiy qatlam vakillarining e’tiborini tortmoqda. Qimor o‘yinlarining eng asosiy xavfi shundaki, ular inson psixologiyasiga, xususan, qaror qabul qilish jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, natijada insonning shaxsiy va kasbiy hayotiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Ayniqsa, iqtisodiy soha xodimlari uchun bunday qaramlikning shakllanishi ularning

mehnat samaradorligini pasaytiradi, moliyaviy barqarorligiga putur yetkazadi va ish muhitida muammolarni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy jamiyatda onlayn qimor o‘yinlarining tarqalishi nafaqat alohida shaxslarning hayotiga, balki butun iqtisodiy va ijtimoiy tizimga jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Ushbu o‘yinlar asosan tavakkal qilishga asoslangan bo‘lib, ularning samaradorligi o‘yinchilarning ongida katta yutuqlarga erishish illyuziyasini yaratish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, qimor o‘yinlariga mukkasidan ketgan shaxslar o‘z vaqtlarini befoyda sarflash bilan birga, moliyaviy yo‘qotishlarga ham duch keladilar. Bunday muammo iqtisodiy soha vakillari orasida ayniqsa jiddiy oqibatlarga olib keladi, chunki ularning mehnat unumdorligi, kasbiy mas’uliyati va moliyaviy barqarorligi jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir.

Xodimlarning qimor o‘yinlariga mukkasidan ketishi ularning ish unumdorligini pasaytirib, tashkilotlar samaradorligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin[3]. Shu sababli, ushbu muammoga qarshi kurashish uchun tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi. Xodimlarning kasbiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan profilaktik dasturlarni ishlab chiqish, ularga psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, qimor o‘yinlarini tartibga solish bo‘yicha huquqiy choralarni kuchaytirish va ish sharoitlarini takomillashtirish orqali ushbu muammoga samarali yechim topish mumkin. Agar davlat va korxonalar ushbu muammoga yetarlicha e’tibor qaratib, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsalar, bu nafaqat iqtisodiy soha xodimlarining mehnat unumdorligini oshirishga, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlikka qarshi kurashish butun iqtisodiy tizimning barqarorligi va mehnat bozorining sog‘lom rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar qatoriga kiradi. Shu boisdan, ushbu muammoga ijtimoiy va ilmiy jihatdan chuqur yondashib, uni bartaraf etish bo‘yicha ilg‘or strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish talab etiladi.

Shuningdek, qimor o‘yinlariga qaramlik jamiyatda ijtimoiy muammolarni ham kuchaytiradi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, qimorga mukkasidan ketgan insonlarning aksariyati o‘zlarining moliyaviy yo‘qotishlarini qoplash uchun turli kreditlar olishga, qarzga botishga yoki noqonuniy yo‘llar bilan pul topishga harakat qiladilar.

Bu esa oilaviy nizolarni kuchaytirib, jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlik darajasini oshiradi. Qimor o‘yinlari tufayli moliyaviy muammolarga duch kelgan insonlar ko‘pincha depressiyaga tushib, ruhiy tushkunlikka berilishadi[4]. Bu esa oilaviy munosabatlarning buzilishiga, ajralishlar sonining ortishiga va jamiyatdagi ijtimoiy inqiroz holatlarining kuchayishiga olib keladi. Bunday shaxslar ko‘pincha jamiyatdan chetlanib, o‘z muammolarini boshqalar bilan bo‘lishishdan qochadilar. Buning natijasida jamiyatda ishonchsizlik, zo‘ravonlik va huquqbuzarlik holatlari ortishi kuzatiladi.

Qimor o‘yinlariga qaramlikning yana bir muhim iqtisodiy oqibati bu korxonalar uchun moliyaviy zararlarning ortishidir[5]. Tashkilot va korxonalarda ishchi kuchining samaradorligi bevosita ularning moliyaviy muvaffaqiyatiga bog‘liq. Agar xodimlar o‘z mehnat faoliyatiga loqayd bo‘lib, ko‘proq vaqtlarini qimor o‘yinlariga sarflashsa, bu ishlab chiqarish jarayonlarining sekinlashishiga va xizmatlar sifati pasayishiga sabab bo‘ladi. Korxona ichida intizomning buzilishi, xodimlarning javobgarlikdan qochishi va ularning ishdan chetlanishi natijasida kompaniya daromadlari kamayadi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes vakillari uchun bu juda katta muammo tug‘dirishi mumkin, chunki bunday tashkilotlar uchun har bir ishchi kuchining samaradorligi muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun, onlayn qimor o‘yinlariga qaramlikning oldini olish va xodimlarning mehnat unumdorligini saqlab qolish uchun korxonalar o‘z ichki siyosatlarini kuchaytirishi va maxsus nazorat mexanizmlarini joriy qilishi lozim.

Xulosa. Onlayn qimor o‘yinlariga qaramlikni kamaytirish bo‘yicha samarali psixologik va tashkiliy yondashuvlarni ishlab chiqish, bugungi kunda mehnat unumdorligi va inson salomatligini ta’minlash nuqtai nazaridan juda muhim hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qimor o‘yinlariga qaramlik inson miyasi faoliyatida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, shaxsning impulsiv xatti-harakatlarini oshiradi. Bu esa uning qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ongli ravishda moliyaviy va kasbiy intizomni saqlab qolish qobiliyatini susaytiradi. Shu sababli, ushbu muammoga qarshi kurashishning asosiy yo‘llaridan

biri profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va xodimlarni ongli qaror qabul qilishga o‘rgatishdan iboratdir.

Bu muammoning oldini olish uchun profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Korxona va tashkilotlar o‘z xodimlarini qimor o‘yinlarining zararli oqibatlari haqida ogohlantirishi, maxsus seminar va treninglar orqali ularga bu o‘yinlarning ruhiy va moliyaviy ta’siri haqida ilmiy asoslangan tushunchalar berishi lozim. Xodimlarning qimor o‘yinlariga mukkasidan ketish ehtimolini kamaytirish uchun ularning kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish va ularga mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladigan sharoitlar yaratish muhimdir. Misol uchun, iqtisodiy soha xodimlariga kasbiy maqsadlarini belgilash va ularga erishish bo‘yicha individual maslahatlar berish, ularga moliyaviy barqarorlikni ta’minlash yo‘llari haqida tushunchalar berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir tashkilot o‘zining ichki siyosatini takomillashtirib, xodimlarning ish vaqtidan samarali foydalanishlarini ta’minlashi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Smith J., Johnson L.** The Impact of Online Gambling Addiction on Workplace Productivity // Journal of Behavioral Addictions. — 2018. — Vol. 7, №3. — P. 545–552. — Oxford University Press.
2. **Williams R., Wood R.** Gambling and Workplace Stress: A Critical Review // International Journal of Mental Health and Addiction. — 2017. — Vol. 15, №3. — P. 514–528. — Springer.
3. **Griffiths M.** Internet Gambling in the Workplace: Issues and Concerns // Journal of Workplace Learning. — 2009. — Vol. 21, №8. — P. 658–670. — Emerald Group Publishing.
4. **Productivity Commission.** Gambling. Report No. 50. — Canberra: Australian Government Publishing Service, 2010.
5. **Delfabbro P., King D.** Workplace Risk Factors in Gambling: An Overview // International Gambling Studies. — 2012. — Vol. 12, №2. — P. 145–160. — Routledge.

6. **Parke A., Rigbye J.** Gambling in the Workplace: Risks and Consequences // International Journal of Workplace Health Management. — 2014. — P. 312–330.
7. **Ladouceur R., Shaffer H.** Gambling in the Workplace: A Psychological Perspective // Journal of Occupational Psychology. — 2013. — Vol. 26, №1. — P. 89–102.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MILLIY QADRIYATLAR HAQIDAGI TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

Iminova Xurshida
Artikova Madinabonu
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur merosidan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlar haqidagi tushunchalarni shakllantirish masalasi yoritiladi. Uning ilmiy-ijodiy va ma’naviy asarlari boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy manba sifatida tahlil qilinib, o‘quvchilarda vatanparvarlik, ajdodlarga hurmat, insonparvarlik, mehnatsevarlik hamda milliy g‘ururni rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, boshlang‘ich ta’lim, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma’naviy tarbiya, ajdodlar merosi, pedagogik yondashuv, o‘quvchilar tasavvuri.*

Аннотация: *В статье рассматривается вопрос формирования у учащихся начальных классов представлений о национальных ценностях на основе наследия Захириддина Мухаммада Бабура. Его научно-творческое и*

духовное наследие анализируется как важный воспитательный ресурс в системе начального образования, обосновываются возможности развития у учащихся патриотизма, уважения к предкам, гуманизма, трудолюбия и национальной гордости.

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, начальное образование, национальные ценности, патриотизм, духовно-нравственное воспитание, наследие предков, педагогический подход, представления учащихся.*

Annotation*: The article examines the issue of shaping primary school students' understanding of national values through the use of the heritage of Zahiriddin Muhammad Babur. His scientific, creative, and spiritual works are analyzed as an important educational resource in primary education, highlighting the opportunities to develop patriotism, respect for ancestors, humanism, diligence, and a sense of national pride among students.*

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, primary education, national values, patriotism, moral education, ancestral heritage, pedagogical approach, students' perceptions.*

Kirish. Globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni asrash, yosh avlod ongida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy merosga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs kamolotining poydevori sifatida e’tirof etilib, bu davrda berilgan tarbiya va bilimlar bolaning keyingi hayot yo‘lini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy merosini ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1059-son Qarorida[1]. ham ta’lim-tarbiya jarayonini mazmunan yangilash va uni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Mazkur konsepsiyada boshlang‘ich ta’lim

bosqichida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilib, milliy g‘urur, vatanparvarlik va tarixiy shaxslarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish muhim vazifa sifatida qayd etilgan. Xususan, o‘quvchilarda o‘z xalqining boy tarixiy-madaniy merosi va buyuk ajdodlariga nisbatan faxr va iftixor tuyg‘ularini rivojlantirish, Vatanga muhabbat va fuqarolik burchiga sadoqatni mustahkamlash hamda millat tarixida muhim o‘rin tutgan buyuk allomalar va davlat arboblari, jumladan Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga hurmat va qiziqish uyg‘otish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar Bobur shaxsini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish jarayonida ibratli tarbiyaviy model sifatida qo‘llash uchun mustahkam normativ-huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi, shoir, tarixchi va mutafakkir bo‘lib, uning “Boburnoma”, devonlari, ruboiy va g‘azallari nafaqat tarixiy manba, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar mujassam bo‘lgan bebaho ma’naviy xazinadir. Bobur asarlarida vatanparvarlik, sadoqat, adolat, insonparvarlik, ilmga muhabbat, sabr-toqat, mardlik va fidoyilik kabi fazilatlar chuqur ifoda etilgan. Ushbu fazilatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishda muhim tarbiyaviy resurs bo‘lib xizmat qiladi

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishda tarixiy-adabiy merosdan foydalanish samaradorligi alohida ta’kidlanmoqda. Xususan, milliy qadriyatlar tushunchasini bolalar ongiga singdirishda ibratli tarixiy shaxslar, adabiy qahramonlar va real tarixiy voqealarga tayangan holda ishlash metodik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi

Zahiriddin Muhammad Bobur merosidan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, metodlari va natijalarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Zahiriddin Muhammad Bobur merosi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini

shakllantirish masalasi O‘zbekiston pedagogikasida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganilmoqda. Boburning “Boburnoma” asari hamda she’riy va nasriy merosi milliy qadriyatlar — vatanparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, insonparvarlik va oilaviy qadriyatlarni tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu bo‘limda mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinib, tadqiqot metodlari bayon etiladi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan Bobur merosining tarbiyaviy va pedagogik ahamiyati keng yoritilgan. Jumladan, A. Qayumovning “Bobur” monografiyasida Boburning vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy qarashlari tahlil qilinib, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan[2; 5-6-b].Hamidovning “Boburning farzand tarbiyasi borasidagi fikrlari” nomli tadqiqotida ushbu asarning boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyati keng va asosli tarzda ochib berilgan. Muallif “Boburnoma” asarida keltirilgan Boburning o‘g‘li Humoyun mirzoga yo‘llagan maktubi misolida buyuk ajdodning farzand tarbiyasiga bo‘lgan mas’uliyatli, talabchan va mehrga asoslangan pedagogik qarashlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda Boburning farzandga ism qo‘yish, bilim olish, xulq-atvor, yozma va og‘zaki nutq madaniyati hamda davlat ishlariga mas’uliyat bilan yondashish haqidagi fikrlari bugungi boshlang‘ich ta’lim mazmuni bilan uzviy bog‘lab yoritilgan. Hamidov Bobur qarashlari orqali bolalarda intizom, halollik, sabr-toqat, kattalarga hurmat va mas’uliyat hissini shakllantirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur tadqiqot Bobur merosini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba sifatida baholashga imkon beradi [3; 1329-1333-b].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy pedagogik amaliyot talabalarda aksiologik munosabat rivojlanishining ustuvor omili sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga, ularning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagogik ta’limda ijtimoiy pedagogik amaliyotning ahamiyatini oshirish va uni yanada rivojlantirish zarur[4; 577-580-b]. Bundan tashqari, ijtimoiy pedagogik amaliyot talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon orqali talabalar o‘zlarining shaxsiy qadriyatlarini anglab yetadilar va ularni amaliy

faoliyatda qo‘llashni o‘rganadilar [5; 214-221-b]. Bu esa ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, pedagogik ta’limda ijtimoiy pedagogik amaliyotning ahamiyatini oshirish va uni yanada rivojlantirish zarur.

Natijalar va muhokama. Zahiriddin Muhammad Bobur merosi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan muhim pedagogik vazifalardan biridir. Chunki boshlang‘ich sinf davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida, uning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va qadriyatlar tizimi qaror topishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, adolat, insonparvarlik kabi milliy qadriyatlarni ongli ravishda singdirish zarur.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi va sarkarda, balki yuksak ma’naviyatli shoir, tarixchi va mutafakkir sifatida ham o‘zbek xalqining bebaho ma’naviy merosini yaratgan. Uning “Boburnoma” asari, she’riy devonlari va nasriy ijodi orqali o‘sha davr hayoti, xalq urf-odatlari, axloqiy qarashlar va insoniy fazilatlar yorqin ifodalangan. Bu jihatlar Bobur merosini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida samarali pedagogik vosita sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Bobur asarlarida Vatanga sadoqat, ona yurtni sevish, adolatli bo‘lish, ilmga intilish, mehnatni qadrlash, ota-ona va ustozlarga hurmat kabi milliy qadriyatlar yetakchi o‘rin tutadi. O‘qituvchi ushbu g‘oyalarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, soddalashtirilgan matnlar, hikoyalar, suhbatlar, sahnalashtirish va didaktik o‘yinlar orqali yetkazsa, ta’lim-tarbiya jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Masalan, Boburning Vatanga bo‘lgan muhabbatini aks ettiruvchi she’rlari asosida suhbat o‘tkazish yoki “Vatan nima?” mavzusida ijodiy topshiriqlar berish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Zahiriddin Muhammad Bobur merosi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi:

1. Milliy qadriyatlar haqidagi bilimlar kengayadi
2. Tarixiy shaxsga qiziqish ortadi

3. Nutq va tafakkur rivojlanadi

4. Ma’naviy-axloqiy xulq shakllanadi

Shuningdek, Bobur merosi asosida tashkil etilgan tarbiyaviy tadbirlar, integratsiyalashgan darslar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat, tarixiy merosga hurmat va ajdodlar bilan faxrlanish tuyg‘usi shakllanadi. Shu bois Bobur merosidan ta’lim-tarbiyada maqsadli va tizimli foydalanish milliy tarbiyaning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur merosi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda muhim pedagogik manba hisoblanadi. Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi va sarkarda, balki nozik didli shoir, tarixchi va mutafakkir sifatida ham o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosini yaratgan. Uning ijodi va hayoti misolida kichik yoshdagi o‘quvchilarga milliy o‘zlikni anglash, ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlarni singdirish imkoniyati mavjud.



1-rasm. Bobur merosi va milliy qadriyatlar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda Bobur merosini o‘qitishda soddalik, obrazlilik va hayotiylik muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, Boburning hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni ertak, hikoya yoki qiziqarli rivoyatlar shaklida yetkazish maqsadga muvofiqdir. Masalan, uning yoshligidan ilmga qiziqqanligi, vatanni sevganligi, qiyinchiliklarga qaramay maqsad sari intilganligi haqida suhbatlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarda ijobiy axloqiy sifatlar shakllanadi.

Boburning “Boburnoma” asari boshlang‘ich sinf darajasida to‘liq emas, balki moslashtirilgan parchalar asosida o‘rganilishi mumkin. Undagi tabiat tasvirlari, xalq urf-odatlari, o‘sha davr hayoti haqidagi sodda lavhalar o‘quvchilarga o‘z xalqining o‘tmishi, madaniyati va an’analari haqida dastlabki tasavvurlarni beradi. Bu esa milliy qadriyatlarga qiziqish va hurmatni kuchaytiradi.

Shuningdek, Bobur g‘azallari va ruboiylaridan tanlangan sodda va mazmunan boy misralarni yod olish, ularni izohlash orqali bolalarda ona tiliga muhabbat, badiiy did va estetik tafakkur rivojlanadi. O‘qituvchi she’r mazmunini bolalar hayoti bilan bog‘lab tushuntirsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlar yanada chuqurroq anglanadi.

Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Masalan, “Bobur – qanday inson?” mavzusida suhbat, rolli o‘yinlar, rasm chizish, sahna ko‘rinishlari orqali o‘quvchilar Bobur shaxsini chuqurroq his etadilar. Bu jarayonda ular vatan, xalq, tabiat, ota-ona va ustozga hurmat kabi tushunchalarni ongli ravishda qabul qiladilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur merosi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda samarali va ta’sirchan pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bobur ijodida mujassam bo‘lgan vatanparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, ilmga intilish, ajdodlarga hurmat va insonparvarlik g‘oyalari o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda yetkazilganda, ularning ma’naviy-axloqiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari Bobur merosi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar

o‘quvchilarning milliy qadriyatlar haqidagi bilimlarini boyitishini, tarixiy shaxslarga qiziqishini kuchaytirishini hamda nutq va tafakkurini rivojlantirishini tasdiqladi.

Shuningdek, ushbu jarayon o‘quvchilarda ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini shakllantirib, do‘stlik, sadoqat, halollik va sabr-toqat kabi fazilatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bobur asarlaridan ta’lim-tarbiyada tizimli va maqsadli foydalanish boshlang‘ich sinfda milliy tarbiyani samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu bois, Bobur merosini boshlang‘ich ta’lim mazmuniga integratsiyalash pedagogik jihatdan dolzarb bo‘lib, barkamol, milliy qadriyatlarga sodiq avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 1059-son qarori.
2. **Bekmurodova T.** Aziz Qayumovning Navoiy va Boburga bag‘ishlangan asarlarida matnshunoslikdagi ilmiy yondashuvlar // Свет науки. — 2025. — № 9(44).
3. **Hamidov Nurali Shodiyor o‘g‘li** Boburning farzand tarbiyasi borasidagi fikrlari (“Boburnoma” asari misolida) // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. — 2022. — Vol. 2, No. 11. — B. 710–713.
4. **Bomurodova Gulhayo Jumayevna** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish [Elektron resurs]. — DOI:10.5281/zenodo.10663845. — 2024.
5. **Kadrekova A. K.**, **Akniyazova M. A.** Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlarni singdirishning ahamiyati // Inter Education & Global Study. — 2025. — Vol. 3, No. 6. — B. 214–221.

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Inamidinova Dilarom Kiramidinovna
Namangan Davlat texnika universiteti

Annotatsiya*.Mazkur maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning innovatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda amaliy yo‘naltirilgan ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va interaktiv metodlardan foydalanish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari statistik tahlillar asosida umumlashtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, innovatsion yondashuv, kasbiy kompetensiya, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosida o‘qitish.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются вопросы подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности в технических высших учебных заведениях на основе инновационного подхода. В исследовании с научно-педагогической точки зрения проанализированы возможности развития профессиональных компетенций студентов посредством практико-ориентированного обучения, проектного обучения и использования интерактивных методов. Результаты педагогического эксперимента обобщены на основе статистического анализа.*

Ключевые слова: *образование, инновационный подход, профессиональная компетенция, практические занятия, проектное обучение.*

Abstract. *This article explores the issues of preparing future specialists for professional activity in technical higher education institutions based on an innovative approach. The study analyzed the possibilities of developing students'*

professional competencies through practice-oriented learning, project-based learning, and the use of interactive methods from a scientific and pedagogical point of view. The results of the pedagogical experiment were summarized based on statistical analysis.

Keywords: *education, innovative approach, professional competence, practical classes, project-based learning.*

Kirish. Zamonaviy sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishi mexanika yo‘nalishi mutaxassislariga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Shu bilan birga, texnika oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak mexanik mutaxassislarning nazariy bilimlari amaliy kasbiy faoliyat bilan yetarli darajada uyg‘unlashmaganligi kuzatilmoqda. Mazkur holat ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Asosiy qism. Kasbiy tayyorgarlik mexanik mutaxassis faoliyatining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, u nafaqat fundamental nazariy bilimlarning mavjudligi, balki ularni real ishlab chiqarish sharoitida qo‘llay olish, texnik muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlari bilan belgilanadi. Mexanika yo‘nalishidagi mutaxassislar uchun kasbiy tayyorgarlik murakkab va ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, unda bilim, ko‘nikma, malaka hamda muhandislik tafakkurining uyg‘un rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, kasbiy tayyorgarlik talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Ushbu kompetensiyalar mexanik tizimlarni loyihalash, texnik hujjatlarni tahlil qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va texnik xavfsizlik talablariga rioya qilish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. An’anaviy ta’lim jarayonida mazkur kompetensiyalar asosan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish orqali shakllantiriladi, biroq bu yondashuv talabalarni real kasbiy faoliyatga to‘liq tayyorlashda yetarli natija bermaydi.

Shu sababli zamonaviy texnika oliy ta’lim muassasalarida mexanik mutaxassislarni tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish

dolzarb pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Innovatsion yondashuv ta’lim jarayonida talabaning passiv bilim oluvchi emas, balki faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlaydi. Bu yondashuv asosida o‘qitish jarayonida muammoli vaziyatlar, real ishlab chiqarish misollari, loyiha va amaliy topshiriqlar keng qo‘llaniladi.

Innovatsion yondashuvning asosiy pedagogik afzalliklaridan biri talabalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishidir. Mexanika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis doimo nostandart muammolarga duch keladi va ularni tezkor hamda samarali hal etishi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni modellashtirish, keys-stadilar va loyiha asosida o‘qitish usullaridan foydalanish talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, innovatsion yondashuv mexanik mutaxassislarning muhandislik tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Muhandislik tafakkuri – bu texnik muammolarni tizimli ravishda ko‘ra olish, ularning sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash va optimal texnik yechimlar ishlab chiqish qobiliyatidir. Amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari va ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan loyihalar orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Innovatsion yondashuvning yana bir muhim jihati – talabalarda kasbiy motivatsiyani oshirishidir. Mexanika yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar real ishlab chiqarish jarayonlariga yaqinlashtirilgan vazifalarni bajarish orqali o‘z kasbining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini chuqurroq anglay boshlaydilar. Bu esa ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, o‘z ustida mustaqil ishlashga undaydi.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, loyiha asosida o‘qitish, jamoaviy ishlash va interaktiv metodlardan foydalanish mexanik mutaxassislarning kommunikativ, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu kompetensiyalar esa zamonaviy mehnat bozorida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy tayyorgarlik mexanik mutaxassis faoliyatining poydevori bo‘lib, uni shakllantirish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan va samarali hisoblanadi. Texnika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish bo‘lajak mexanik mutaxassislarning kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlaydi hamda ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot texnika oliy ta’lim muassasasining mexanika yo‘nalishi talabalari ishtirokida o‘tkazildi. Tajriba-sinov jarayonida pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, test sinovlari va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Talabalar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi.

Tajriba-sinov natijalari va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich bosqichda talabalarning kasbiy tayyorgarligi past, o‘rta va yuqori darajalar bo‘yicha baholandi. Tajriba guruhida amaliy mashg‘ulotlar, ishlab chiqarish vaziyatlariga asoslangan loyihalar va interaktiv metodlar qo‘llanildi.

Dastlabki tajriba nazorat va tajriba guruhlarida an’anaviy tarzda standart pedagogik usullarda o‘qitish orqali o‘tkazildi. Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb qilingan tajriba guruhi talabalarining ijodiy fikrlash va amaliy-kasbiy faoliyatga tayyorgarligi nazorat guruhi talabalariga nisbatan sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlandi. Mazkur farqni ob’ektiv va ilmiy asoslangan holda baholash uchun tajriba va nazorat guruhlari ortasidagi ko‘rsatkichlar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Daraja	**O‘zlashtirish natijalari %**			
	Tajriba boshi		**Tajriba oxiri**	
	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
Past	45	43	32	12
O‘rta	35	37	41	33
Yuqori	20	20	27	55

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mexanika yo‘nalishi talabalari uchun innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Texnika oliy ta’lim muassasalarida amaliy yo‘naltirilgan va loyiha asosida o‘qitishni keng joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Kiramidinovna I. D.** Umumtexnik fanlarning to‘garak mashg‘ulotlarida ijodiy masalalar orqali talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish // Строительство и образование. – 2024. – Т. 3, № 2. – В. 91–94.
2. **Kiramidinovna I. D., Diyora A.** Importance of formation and development of creativity skills among students in teaching general technical subjects // International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research. – 2023. – Vol. 12, № 03. – P. 39–41.
3. **Inomiddinova D. K.** Umumtexnik fanlarni o‘qitishda texnik mutaxassislik talabalari o‘rtasida ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni modeli // Механика и технология. – 2023. – Т. 3, № 12. – В. 272–275.
4. **Kiramidinovna I. D.** Criteria for determining the degree of creativity of future specialists of the direction of technical education // European Journal of Education and Applied Psychology. – 2023. – № 4. – P. 112–115.
5. **Inamidinova D. K., Soliev D.** Innovative technologies in teaching students of technical higher education // Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – Vol. 13.
6. **Inomiddinova D. K.** Muhandislik grafikasi fani amaliy mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalarning o‘rni // Строительство и образование. – 2023. – Т. 4, № 5–6. – В. 208–211.

ART TURIZMDA ISTE'MOLCHI REYTINGLARINING XIZMAT SIFATIGA TA'SIRI

Isakdjanova Munojat

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqola art turizm kontekstida muzey xizmatlari sifati va tashrif buyuruvchilar qoniqishini nazariy jihatdan tahlil qiladi. Onlayn iste'molchi reytinglari va sharhlar xizmat sifatini baholashning muhim axborot manbai sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda muzeyning asosiy takliflari, yordamchi xizmatlari va muhiti tashrif buyuruvchilar tajribasi orqali qoniqishga ta'sir ko'rsatishini tushuntiruvchi kontseptual model taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *art turizm, muzey xizmatlari sifati, tashrif buyuruvchilar tajribasi, iste'molchi qoniqishi, onlayn reytinglar, xizmatlar marketingi.*

Abstract: *This article theoretically analyzes museum service quality and visitor satisfaction in the context of art tourism. Online consumer ratings and reviews are considered as an important source of information for assessing service quality. The study proposes a conceptual model that explains how a museum's core offerings, ancillary services, and environment influence satisfaction through visitor experience.*

Keywords: *art tourism, museum service quality, visitor experience, consumer satisfaction, online ratings, services marketing.*

Аннотация: *В данной статье теоретически анализируется качество музейного обслуживания и удовлетворенность посетителей в контексте арт-туризма. Онлайн-рейтинги и отзывы потребителей рассматриваются как важный источник информации для оценки качества обслуживания. В исследовании предлагается концептуальная модель, объясняющая, как основные предложения музея, дополнительные услуги и окружающая среда влияют на удовлетворенность посетителей через их опыт.*

Ключевые слова: *арт-туризм, качество музейного обслуживания, опыт посетителей, удовлетворенность потребителей, онлайн-рейтинги, маркетинг услуг.*

Kirish. So‘nggi yillarda turizm sohasida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi iste’molchilarning xulq-atvori va xizmatlarni baholash mexanizmlarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, art turizm doirasida taklif etilayotgan xizmatlar, xususan, muzeylar, galereyalar, madaniy tadbirlar, san’at festivallari va ijodiy makonlar iste’molchilar tomonidan onlayn platformalar orqali faol ravishda baholanmoqda. Ushbu reyting va sharhlar nafaqat potentsial sayyohlarning tanloviga ta’sir ko‘rsatmoqda, balki xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirishda muhim axborot manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Art turizmning o‘ziga xos jihati shundaki, bunda iste’molchi tajribasi subyektiv idrok, estetik qoniqish va madaniy qiymat bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli xizmat sifatini an’anaviy mezonlar orqali baholash ko‘pincha yetarli bo‘lmay, iste’molchi fikrlari va reytinglari xizmat sifati darajasini aks ettiruvchi muhim indikator sifatida maydonga chiqadi. Raqamli reytinglar xizmat sifati bo‘yicha bozor signalini shakllantirib, art turizm subyektlarini xizmat standartlarini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va iste’molchiga yo‘naltirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga undaydi.

Shu bilan birga, iste’molchi reytinglarining xizmat sifatiga ta’siri ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, yuqori reytinglar xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar uchun reputatsion ustunlik yaratib, talab va daromadlarning oshishiga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, past baholar xizmat sifatidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish zaruratini yuzaga keltiradi. Aynan shu jihatlar art turizmda iste’molchi reytinglarini xizmat sifati menejmentining muhim elementi sifatida o‘rganishni dolzarb etadi.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda art turizm va madaniy turizm sohasida onlayn iste’molchi reytinglari hamda sharhlar xizmat sifatini baholash va boshqarishning muhim axborot manbaiga aylanib bormoqda. Tadqiqotchilar ushbu foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni (user-generated content) xizmatdagi kamchiliklarni

aniqlash, iste’molchi tajribasini tushunish va servis dizaynini takomillashtirish vositasi sifatida keng tahlil qilmoqdalar.

Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki muhim ishlardan biri Su va Teng (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqot bo‘lib, unda TripAdvisor platformasidagi muzeylar haqidagi negativ sharhlar va past reytinglar chuqur kontent-tahlil qilinadi. Mualliflar past baholarni tasodifiy norozilik emas, balki real servis nosozliklarining empirik dalili sifatida talqin qiladilar. Tadqiqot natijasida 12 ta xizmat sifati o‘lchovi aniqlangan bo‘lib, ular orasida ishonchlilik, javob qaytarish tezligi, empatiya, kommunikatsiya, qulaylik, servicescape, makon bilan bog‘liq idrok va “birlamchi tajriba” kabi art turizmga xos elementlar muhim o‘rin egallaydi. Eng muhimi, mualliflar onlayn shikoyatlarni tizimli tahlil qilish muzeylarni faqat ekspozitsiyani emas, balki butun xizmat muhiti va servis dizaynini qayta ko‘rib chiqishga majbur qilishini ko‘rsatadilar. Shu tariqa reyting va sharhlar art turizmda xizmat sifatini oshirishga yo‘naltirilgan boshqaruv instrumentiga aylanadi.

Mazkur yondashuv Agostino va hammualliflarining (2021) Italiyadagi 100 ta muzey faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotida yanada rivojlantiriladi. Ushbu ishda onlayn reytinglar va sharhlar madaniy turizm mahsuloti sifatini ommaviy idrok nuqtayi nazaridan baholash vositasi sifatida qaraladi. Mualliflar kontent-tahlilning ikki xil metodologiyasini “top-down” (boshqaruv tomonidan belgilangan servis mezonlari asosida) va “bottom-up” (tashrif buyuruvchilar tiliga asoslangan mavzuli modellashtirish) solishtiradilar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sharhlarning katta qismi (taxminan 63 foizi) rasmiy servis ko‘rsatkichlariga umuman mos kelmaydi. Aksincha, iste’molchilar ko‘proq madaniy meros, estetik taassurotlar va shaxsiy emotsional tajriba haqida fikr bildiradilar. Bu holat art turizmda faqat ma’muriy belgilangan servis standartlariga tayanish muzeylarning onlayn reyting va reputatsiyaga ta’sir qiluvchi muhim omillarni e’tibordan chetda qoldirishiga olib kelishini ko‘rsatadi.

Iste’molchi tajribasi va reytinglar o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi Huo va hammualliflarining (2024) tadqiqotida yanada tizimli empirik asosda ochib beriladi. Mualliflar muzeylar haqidagi onlayn sharhlar asosida strukturaviy tematik

modellashtirish (STM) usulini qo‘llab, xizmat sifati va tashrif buyuruvchi tajribasini ifodalovchi uchta yirik atribut guruhi va 19 ta quyi atributni aniqlaydilar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekspozitsiya mazmuni, yordamchi xizmatlar, infratuzilma va umumiy muhit tashrif buyuruvchilarning shaxsiy tajribasi va qoniqish darajasi bilan ijobiy bog‘liqdir. Strukturaviy model orqali ilgari surilgan barcha gipotezalar tasdiqlanadi. Ushbu natijalar onlayn reytinglar art turizmda qaysi servis jihatlari eng kuchli aks etishini aniqlash va xizmat sifatini strategik boshqarish imkonini beradi.

Xuddi shu mantiq Gao va Yu tomonidan Xitoyning Jiangxi provinsiyasidagi muzeylar misolida olib borilgan tadqiqotda ham kuzatiladi. Dianping va Ctrip platformalaridagi 2020-2023 yillardagi sharhlar chastotaviy tahlil, mavzuli modellashtirish, semantik tarmoqlar va sentiment tahlil yordamida o‘rganilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, umumiy sharhlar asosan ijobiy bo‘lsa-da, salbiy izohlar aniq yo‘nalishlarda ekspozitsiya mazmuni, xodimlar munosabati va interaktiv dasturlar yetishmasligi jamlanadi. Mualliflar ushbu onlayn signallarni muzeylarda oflayn xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish uchun muhim tahliliy asos sifatida baholaydilar.

Mazkur tadqiqotlar art turizmda iste’molchi reytinglari va sharhlar xizmat sifatini baholashning passiv ko‘rsatkichi emas, balki aktiv boshqaruv resursi ekanini ko‘rsatadi. Onlayn baholar orqali nafaqat servisdagi kamchiliklar aniqlanadi, balki iste’molchilar uchun haqiqatan muhim bo‘lgan tajriba elementlari yuzaga chiqadi. Bu esa art turizm subyektlari uchun xizmat sifatini iste’molchiga yo‘naltirilgan, data-driven yondashuv asosida oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, so‘nggi tadqiqotlar muzeylarning asosiy takliflari bilan bir qatorda yordamchi xizmatlar va muhit omillarining ham tashrif buyuruvchilarning umumiy baholari va qoniqish darajasini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Xususan, xizmat ko‘rsatish jarayonidagi qulayliklar, axborotga oson kirish, xodimlar bilan muloqot sifati va xizmat makonining estetik jihatlari tashrif buyuruvchilarning subyektiv tajribasini boyitib, muzeyga nisbatan ijobiy munosabatni kuchaytiradi. Bu holat muzey xizmatlarini faqat ekspozitsiya mazmuni bilan cheklab baholash yetarli emasligini, balki tashrif jarayonining barcha

bosqichlarini kompleks tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi (Oriade va Schofield, 2019).

Raqamli platformalarning keng tarqalishi natijasida ushbu ko‘p qirrali tajriba tashrif buyuruvchilar tomonidan onlayn sharhlar va reytinglar orqali ochiq ifodalanmoqda. Onlayn baholar muzey faoliyatining turli jihatlari bo‘yicha ommaviy fikrni shakllantirib, potensial tashrif buyuruvchilar qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, iste’molchi reytinglari nafaqat marketing vositasi, balki xizmat sifati darajasini aks ettiruvchi muhim axborot indikatori sifatida qaralmoqda (Kim va hammualliflari, 2020).

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tashrif buyuruvchilar onlayn sharhlarda ko‘pincha o‘z shaxsiy tajribalarini, hissiy taassurotlarini va umumiy qoniqish darajasini ifodalaydilar. Bu esa reytinglarning faqat texnik yoki tashkiliy ko‘rsatkichlarga emas, balki madaniy va estetik idrok bilan bog‘liq omillarga ham tayanishini anglatadi. Natijada, muzeylar uchun onlayn sharhlarni tizimli tahlil qilish tashrif buyuruvchilarning real ehtiyojlari va kutishlarini aniqlash, shuningdek, xizmat dizaynini takomillashtirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi (Zanibellato va hammualliflari, 2018).

Madaniy muassasalarda asosiy takliflar, yordamchi xizmatlar va muhit omillari o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik tashrif buyuruvchilarning tajribasi va qoniqishini shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda onlayn reytinglar va sharhlar xizmat sifatini baholashning passiv natijasi emas, balki muzey faoliyatini iste’molchiga yo‘naltirilgan, ma’lumotlarga asoslangan (data-driven) tarzda boshqarish imkonini beruvchi faol instrumentga aylanmoqda. Bu esa art turizmda xizmat sifatini oshirish va muzeylarning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy tahlil va empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, art turizm va muzey xizmatlarida tashrif buyuruvchilarning qoniqishi yagona omil bilan emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta xizmat atributlari orqali shakllanadi. Xususan, muzeyning asosiy takliflari, yordamchi xizmatlari va muhit omillari tashrif buyuruvchilarning shaxsiy tajribasini

belgilovchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tajriba esa, o‘z navbatida, tashrif buyuruvchilarning umumiy qoniqish darajasini shakllantiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Mazkur yondashuv xizmatlar marketingi va tajribaga asoslangan iste’mol nazariyasiga tayanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, iste’molchilar xizmatlarni faqat funksional xususiyatlari orqali emas, balki xizmat jarayonida hosil bo‘ladigan hissiy, estetik va kognitiv tajriba orqali baholaydilar. Ayniqsa, art turizm kontekstida ushbu tajriba markaziy ahamiyat kasb etib, muzey faoliyatining samaradorligini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkichga aylanadi.

Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqot doirasida taklif etilgan kontseptual modelda muzeyning asosiy takliflari, yordamchi xizmatlari va muhiti mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida, tashrif buyuruvchilarning shaxsiy tajribasi vositachi (mediator) o‘zgaruvchi sifatida, tashrif buyuruvchilarning qoniqishi esa yakuniy natijaviy o‘zgaruvchi sifatida qaraladi. Model art turizmda xizmat sifati va iste’molchi baholari o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tizimli ravishda tushuntirish imkonini beradi (1-rasm).

Shu asosda, quyidagi gipotezalarni empirik jihatdan tekshirish maqsadga muvofiq sanaladi:

H1: Muzeyning asosiy takliflari shaxsiy tajribaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

H2: Muzeyning asosiy takliflari tashrif buyuruvchilarning qoniqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



One important indicator of academic success is motivation. By making learning interesting and applicable to students' real-world experiences, innovative teaching techniques dramatically boost students' intrinsic motivation. Research has shown that students who work on creative projects are more persistent, have better problem-solving skills, and are happier with their learning results.[70]

Additionally, deeper cognitive engagement and the development of metacognitive skills—the capacity to organize, track, and assess one's own learning—are fostered by creative instruction, which is crucial for lifelong learning. Despite the recognized advantages, there are several obstacles to creative teaching:

1. Standardized tests and rigid curricula

Standardized testing and topic coverage are prioritized in many educational systems, which may restrict teachers' ability to experiment with novel approaches. There is little opportunity for inquiry-based or project-based learning since teachers are frequently under pressure to prepare children for high-stakes exams.

[70] Pedagogical Mechanisms for the Development of Creative Thinking in Future Preschool Education Teachers, European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, pp. 1–5 (2025).

2. Restrictions on Resources
The application of creative techniques is hampered by a lack of access to technology, educational resources, and professional development opportunities, especially in underfunded institutions.

3. Beliefs and Training of Teachers
Some teachers may be reluctant to use innovative methods because they lack confidence, are afraid of disrupting the classroom, or have insufficient training. To overcome these obstacles and develop creative capacities, reflective practice and ongoing professional growth are crucial.[71]
Systemic initiatives are needed to foster creativity in education: Professional Development and Teacher Education
Creativity-focused training must be incorporated into teacher education programs, with a focus on instructional design, reflective practice, and creative evaluation. Teachers can exchange successful strategies and work together to innovate through ongoing professional learning communities.

Adaptable Curriculum and Evaluation Along with material mastery, curriculum frameworks should emphasize critical thinking and creativity. Portfolios, presentations, and performance activities are examples of authentic assessment techniques that can offer a more comprehensive picture of students' learning and creativity. Resources and Institutional Support Schools can create environments that foster creativity by implementing policies that provide financing for classroom supplies, technological integration, and training on creative pedagogies.

In order to prepare students to meet the demands of a complex and dynamic world, creativity is no longer an optional component of education. Through creative teaching methods and encouraging learning settings, creative educators improve student motivation, engagement, and academic accomplishment. Targeted policy reform, professional development, and curriculum revision can promote creativity at all educational levels, despite ongoing obstacles. In the end, innovative teaching

[71] Tahiri, A. Creativity in Innovative Teaching: The Role of Teachers in Integrating Technology Through Creativity, Journal of Pedagogical and Teacher Professional Development, pp. 51–64 (2025).

enables students to develop into flexible, self-sufficient, lifelong learners who make significant contributions to both society and the workforce.

HUMAN POTENTIAL ACTIVATION INDEX (HPAI): A HUMAN-CENTERED METRIC FOR MODERN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT

Khaydarova M.

Turan University

Abstract. *Amid accelerating technological progress, global integration, and growing workforce diversity, conventional human resource management (HRM) metrics are increasingly unable to reflect the real value created by employees. Standard indicators tend to capture visible outputs while overlooking deeper dimensions such as motivation, engagement, adaptability, and growth readiness. This article proposes the* ***Human Potential Activation Index (HPAI)*** *as an integrative, human-centered metric aimed at assessing how effectively organizations activate and utilize the broader potential of their workforce. The study seeks to conceptually justify the HPAI framework, outline its key dimensions, and explain its relevance for contemporary HRM practices. Based on analytical and comparative reasoning, the research demonstrates that HPAI can function as a strategic indicator supporting informed HR decisions, organizational resilience, and sustainable performance.*

Keywords: *human potential, HR metrics, human-centered management, employee engagement, human capital, HPAI.*

Annotatsiya. *Texnologik taraqqiyotning tezlashuvi, global integratsiya va ishchi kuchi xilma-xilligining ortib borishi sharoitida inson resurslarini boshqarish*

(HRM) bo‘yicha an’anaviy ko‘rsatkichlar xodimlar tomonidan yaratilayotgan real qiymatni tobora kamroq aks ettirmoqda. Standart indikatorlar asosan ko‘rinadigan natijalarni qayd etib, motivatsiya, jalb etilganlik, moslashuvchanlik va rivojlanishga tayyorlik kabi chuqur jihatlarni e’tibordan chetda qoldiradi. Mazkur maqolada tashkilotlarda inson resurslarining kengroq salohiyatini qay darajada faollashtirish va undan foydalanishni baholashga qaratilgan integrativ hamda inson markazli ko‘rsatkich — Human Potential Activation Index (HPAI) taklif etiladi. Tadqiqot HPAI konsepsiyasini nazariy jihatdan asoslash, uning asosiy o‘lchamlarini yoritish hamda zamonaviy HRM amaliyotlari uchun dolzarbligini tushuntirishni maqsad qiladi. Tahliliy va qiyosiy mushohadalarga tayangan holda, HPAI xabardor kadrlar siyosati qarorlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi, tashkiliy barqarorlikni kuchaytiruvchi va uzoq muddatli samaradorlikni ta’minlovchi strategik indikator sifatida xizmat qilishi mumkinligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *inson salohiyati, HR ko‘rsatkichlari, inson markazli boshqaruv, xodimlarning jalb etilganligi, inson kapitali, HPAI.*

Аннотация. *В условиях ускоряющегося технологического прогресса, глобальной интеграции и роста разнообразия рабочей силы традиционные показатели управления человеческими ресурсами (HRM) всё чаще оказываются неспособными отражать реальную ценность, создаваемую сотрудниками. Стандартные индикаторы фиксируют главным образом видимые результаты, игнорируя более глубокие аспекты, такие как мотивация, вовлечённость, адаптивность и готовность к развитию. В статье предлагается Индекс активации человеческого потенциала (Human Potential Activation Index, HPAI) как интегративный и человекоориентированный показатель, предназначенный для оценки того, насколько эффективно организации активируют и используют более широкий потенциал своей рабочей силы. Исследование направлено на концептуальное обоснование модели HPAI, раскрытие её ключевых измерений и объяснение её значимости для современных практик HRM. На основе аналитических и сравнительных рассуждений показано, что HPAI может*

выступать в качестве стратегического индикатора, поддерживающего обоснованные кадровые решения, организационную устойчивость и долгосрочную результативность.

Ключевые слова: *человеческий потенциал, HR-метрики, человекоориентированное управление, вовлечённость сотрудников, человеческий капитал, HPAI.*

In the modern economic environment, organizations increasingly compete not only through technology or financial resources, but through their ability to unlock and sustain human potential. Although automation and artificial intelligence continue to reshape operational processes, uniquely human qualities such as creativity, learning capacity, and emotional intelligence remain central to long-term organizational success. This shift places growing pressure on HR systems to evolve beyond traditional measurement approaches.

Most existing HR indicators emphasize quantitative results, including productivity ratios, staff turnover, or training volumes. While useful, these metrics often fail to capture the underlying drivers of performance — employees' internal motivation, openness to change, innovative behavior, and psychological readiness for complex tasks. Consequently, a disconnect emerges between formal HR reporting and the actual human dynamics shaping organizational outcomes.

To address this gap, the **Human Potential Activation Index (HPAI)** is introduced as a human-centered analytical construct. Rather than measuring static attributes, HPAI focuses on the degree to which organizations create conditions that activate, channel, and sustain employee potential. The objective of this study is to provide a conceptual foundation for HPAI, clarify its structural elements, and demonstrate its applicability within modern human resource management.

2. Methods

This research employs qualitative and conceptual methodologies commonly applied in human resource and social science studies. The analytical framework is built using the following methods:

- **Theoretical analysis** of established HRM models, human capital theories, and engagement-based management approaches.
- **Comparative reasoning** to contrast traditional HR indicators with emerging human-centered measurement concepts.
- **Systems thinking**, viewing human potential as an interconnected set of competencies, motivation, adaptability, and developmental capacity.
- **Conceptual structuring** to design the logic and dimensions of the Human Potential Activation Index.

The study draws on secondary sources, including academic literature, international HR analytics reports, and globally recognized management practices.

The analysis confirms that human potential cannot be adequately represented through single-factor or output-oriented metrics. Instead, it requires a multidimensional perspective that reflects both individual capabilities and organizational conditions.

Based on the conceptual analysis, the **Human Potential Activation Index (HPAI)** is formulated around four interrelated dimensions:

1. **Competence Utilization** – the degree to which employees' skills, knowledge, and experience are meaningfully applied in their work.
2. **Motivational Engagement** – the presence of intrinsic motivation, commitment, and emotional involvement in organizational objectives.
3. **Adaptive Capacity** – the ability of employees to learn, adjust to change, and operate effectively under uncertainty.
4. **Development Orientation** – the extent to which learning opportunities, career pathways, and self-improvement mechanisms are accessible and effective.

The findings suggest that organizations demonstrating higher levels of human potential activation are more likely to achieve innovation-driven growth, stronger employee retention, and long-term stability. HPAI offers HR professionals a structured tool for identifying unused potential, diagnosing organizational constraints, and designing targeted development initiatives.

The conceptualization of HPAI reflects a shift away from control-based HR practices toward a more **development-focused and human-oriented management philosophy**. Unlike conventional performance indicators, HPAI recognizes human potential as a dynamic and context-dependent phenomenon shaped by leadership, culture, and organizational design.

The proposed framework aligns with contemporary human capital research emphasizing engagement, well-being, and lifelong learning. At the same time, HPAI contributes to HR analytics by systematizing qualitative human factors into a coherent measurement structure. Nevertheless, practical application of the index may require cultural adaptation, improved data collection mechanisms, and managerial readiness for more people-centered evaluation approaches.

This study substantiates the **Human Potential Activation Index (HPAI)** as a conceptually grounded and practically relevant tool for modern human resource management. By integrating competence use, motivation, adaptability, and development into a unified framework, HPAI provides a richer and more realistic understanding of workforce value than traditional HR metrics.

The implementation of HPAI can strengthen evidence-based HR decision-making, foster employee-centered management practices, and support sustainable organizational development. Future research should focus on empirical testing of the index and its contextual adaptation across industries and labor markets.

REFERENCES

1. **Gary S. Becker** Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. — Chicago, 1993.

2. **Michael Armstrong**, **Stephen Taylor** Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice. — London, 2020.
3. **Wilmar B. Schaufeli** Applying the Job Demands–Resources Model // Organizational Dynamics. — 2017. — Vol. 46, No. 2. — P. 120–132.
4. **Dave Ulrich**, **Wayne Brockbank** The HR Value Proposition. — Boston, 2019.
5. **World Economic Forum** The Future of Jobs Report. — 2023.

O‘QUVCHILARDA BIOLOGIYA FANI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA VISUAL MODELLARNING ROLI

Kurbonova Intizor Maxmudovna
Toshkent shahar Sergeli tumani 269-maktabi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biologiya fanini o‘qitishda vizual modellardan foydalanishning o‘quvchilarda biologik tushunchalarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Vizual modellar orqali murakkab biologik jarayonlarni tushunarli, aniq va tizimli tarzda o‘rgatish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, vizual vositalarning o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tasavvuri va mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *biologiya ta’limi, vizual modellar, biologik tushunchalar, ta’lim samaradorligi, ko‘rgazmalilik.*

Аннотация. *В статье рассматривается значение использования визуальных моделей в преподавании биологии для формирования у учащихся биологических понятий. Анализируются возможности наглядного, точного и системного объяснения сложных биологических процессов с помощью*

визуальных моделей. Также показана роль визуальных средств в развитии логического мышления, воображения и навыков самостоятельного приобретения знаний у обучающихся.

Ключевые слова: *биологическое образование, визуальные модели, биологические понятия, эффективность обучения, наглядность.*

Abstract. *This article highlights the importance of using visual models in biology education for developing students' biological concepts. The study analyzes how visual models make it possible to teach complex biological processes in a clear, precise, and systematic manner. It also demonstrates the role of visual tools in enhancing learners' logical thinking, imagination, and independent learning skills.*

Keywords: *biology education, visual models, biological concepts, educational effectiveness, visualization.*

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish va bilimlarni mustahkam egallashini ta'minlash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, biologiya fanida ko'plab mavzular murakkab tuzilma va jarayonlarga ega bo'lib, ularni faqat og'zaki tushuntirish orqali o'zlashtirish qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli o'quvchilarda biologik tushunchalarni shakllantirishda vizual modellardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Vizual modellar tushunchasi va ularning turlari quyidagilar;

Vizual modellar — bu biologik obyektlar, jarayonlar va hodisalarni tasvir, sxema, diagramma, jadval, maket, animatsiya va multimedia vositalari orqali ifodalashdir. Biologiya fanida qo'llaniladigan vizual modellar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Statik modellar: rasmlar, chizmalar, jadvallar, plakatlar;
- Hajmli modellar: hujayra, organ va organizm maketlari;
- Dinamik modellar: animatsiyalar, videoroliklar, virtual laboratoriyalar;
- Grafik modellar: sxema va diagrammalar orqali jarayonlarni ketma-ketlikda aks ettirish.

Biologik tushunchalarni shakllantirishda vizual modellarning ahamiyati Vizual modellar o‘quvchilarda mavzuni yaxlit holda tasavvur qilish imkonini beradi. Masalan, hujayra tuzilishi, fotosintez jarayoni, qon aylanish tizimi yoki irsiyat qonunlarini vizual modellar orqali tushuntirish o‘quvchilarning abstrakt fikrlashini rivojlantiradi. Ko‘rgazmalilik tamoyiliga asoslangan darslar: O‘quvchilarning e’tiborini jalb qiladi; murakkab tushunchalarni soddalashtiradi; bilimlarning uzoq muddat xotirada saqlanishini ta’minlaydi; nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Vizual modellar orqali o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish Vizual modellar o‘quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy fikrlash amallarini rivojlantiradi. Masalan, sxemalar orqali biologik jarayonlarning bosqichma-bosqich tasviri sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglashga yordam beradi. Bundan tashqari, multimedia modellaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ishlash va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Biologiya darslarida Visual metodlardan foydalanish, o’quvchilarni tasavvur qobiliyatini kuchaytirishga ko’z bilan ko’rib bo’lmas biologik hodisalarni kompyuter modellaridan foydalanib, o’quvchilarga yetkazishda muhim ro’l o’ynovichi metodlardan biri hisoblanadi. Visual metod ko’plab fanlar qatori biologiya fanlari tarmog’ida ham muhim metodlardan biri hisoblanadi. chunki, biologiya fani murakkab fan bo’lganligi uchun o’quvchilarda qiyinchilik uyg’otishi mumkin. Shu sababli, Visual metod ta’limda katta ro’l o’ynaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda biologiya fani tushunchalarini shakllantirishda vizual modellar muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samarali, qiziqarli va tushunarli qiladi. Vizual modellardan maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish o‘quvchilarning biologik bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga, fanga bo‘lgan qiziqishining ortishiga va ilmiy dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois biologiya darslarida zamonaviy vizual va

raqamli texnologiyalardan keng foydalanish pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Qodirova D.** Biologiya fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning samaradorligi // O‘zDJTU Ilmiy axborotnomasi. – 2022. – 3(45). – B. 112–116.
2. **Karimov A.** Interaktiv platformalarning biologiya darslaridagi o‘rni // Pedagogik izlanishlar jurnali. – 2021. – 2(18). – B. 64–69.
3. **Abdurahmonova N., Xolmirzayeva M.** Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
4. **Salimova Z.** Ta’limda raqamli texnologiyalar: biologiya faniga tatbiqi // Zamonaviy ta’lim muammolari: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Qarshi, 2021.
5. **Nuriddinova N., Norboboyeva D.** Chet elda alohida yordamga muhtoj bolalarning inklyuziv ta’limi // Молодые ученые. – 2025. – 3(8). – B. 160–165.
6. **Nuriddinova N., Norboboyeva D.** O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limning me’yoriy-huquqiy bazasi va rivojlanish istiqbollari // Наука и инновация. – 2025. – 3(8). – B. 146–151.
7. **Salimova M., Nuriddinova N.** Axborot texnologiyalari va tabiiy ilmiy fanlarni o‘qitishda dolzarb muammolar va ularni hal qilishning innovatsion usullari // Наука и инновация. – 2024. – 2(38). – B. 161–164.

Mahamadaliyev Azizjon Shovkat o‘g‘li
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya. *Zamonaviy tibbiyotda biomeditsina va molekulyar tadqiqotlar, klinik tadqiqotlar hamda dalillarga asoslangan tibbiyot (EBM) yondashuvlari bemorlarni tashxislash va davolash jarayonlarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli tibbiyot va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan davolash va innovatsion diagnostikani rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu maqola zamonaviy tibbiyotdagi integratsiyalashgan yondashuvlar va ularning klinik amaliyotdagi ahamiyatini ko‘rib chiqadi.*

Kalit so‘zlar: *Biomeditsina tadqiqotlari, Molekulyar tadqiqotlar, Dalillarga asoslangan tibbiyot (EBM), Klinik tadqiqotlar, Raqamli tibbiyot, Sun’iy intellekt (AI), Shaxsiylashtirilgan davolash, Innovatsion diagnostika*

Аннотация. *В современной медицине биомедицинские и молекулярные исследования, клинические исследования и медицина, основанная на доказательствах (EBM), играют важную роль в совершенствовании процессов диагностики и лечения пациентов. Цифровая медицина и технологии искусственного интеллекта (AI) позволяют анализировать большие объемы данных, развивать персонализированное лечение и инновационную диагностику. В данной статье рассматриваются интегрированные подходы в современной медицине и их значение в клинической практике.*

Ключевые слова*: Биомедицинские исследования, Молекулярные исследования, Медицина, основанная на доказательствах (EBM), Клинические исследования, Цифровая медицина, Искусственный интеллект (AI), Персонализированное лечение, Инновационная диагностика*

Abstract: *In modern medicine, biomedical and molecular research, clinical trials, and evidence-based medicine (EBM) play a crucial role in improving patient diagnosis and treatment processes. Digital medicine and artificial intelligence (AI) technologies*

enable the analysis of large datasets, the development of personalized therapies, and innovative diagnostics. This article examines integrated approaches in contemporary medicine and their significance in clinical practice.

Keywords: *Biomedical research, Molecular research, Evidence-based medicine (EBM), Clinical trials, Digital medicine, Artificial intelligence (AI), Personalized therapy, Innovative diagnostics*

Kirish

Zamonaviy tibbiyot ko‘p qirrali va kompleks tizim bo‘lib, inson salomatligini yaxshilash va kasalliklarni samarali davolash uchun turli ilmiy va texnologik yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Biomeditsina va molekulyar tadqiqotlar hujayra va molekulalarning funktsiyasi, signal yo‘llari va genetik o‘zgarishlarini o‘rganish orqali yangi diagnostika va terapiya imkoniyatlarini yaratadi. Klinik tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot (EBM) esa ilmiy dalillar va shifokor tajribasi asosida bemorlar uchun xavfsiz va samarali terapiya tanlashni ta’minlaydi. Shu bilan birga, raqamli tibbiyot va sun’iy intellekt (AI) katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan davolash va tezkor diagnostika imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu maqola zamonaviy tibbiyotning ushbu uch asosiy yo‘nalishini tahlil qiladi, ularning bir-birini qanday to‘ldirishini va bemor salomatligini yaxshilashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

I.Biomeditsina va molekulyar tadqiqotlar

Biomeditsina va molekulyar tadqiqotlar zamonaviy tibbiyotning poydevorini tashkil etuvchi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar inson organizmining murakkab biologik tizimlarini chuqur o‘rganish, kasalliklarning molekulyar va hujayra darajasidagi mexanizmlarini aniqlash, shaxsiylashtirilgan davolash va profilaktik choralarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

Biomeditsina tadqiqotlari kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olishga qaratilgan bo‘lib, molekulyar tadqiqotlar hujayra va molekulalarning funktsiyasi, o‘zaro ta’siri va signal yo‘llarini o‘rganishga yo‘naltiriladi. Shu bilan birga,

molekulyar tadqiqotlar genetik, proteomik va metabolik jarayonlarni aniqlash orqali shaxsiylashtirilgan terapiya va dori vositalarini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

1. Biomeditsina tadqiqotlari

Biomeditsina tadqiqotlari biologiya va tibbiyot fanlarini birlashtiradi va inson salomatligini yaxshilashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladi. Bu tadqiqotlar bir nechta asosiy yo‘nalishlarga bo‘linadi: fundamental, translatsion, klinik va populyatsion tadqiqotlar.

- **Fundamental tadqiqotlar** hujayra, gen va protein darajasida kasallik mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan. Bu tadqiqotlar organizmning asosiy biologik jarayonlarini tushunishga yordam beradi.
- **Translatsion tadqiqotlar** laboratoriyada olingan natijalarni bemorlarga tatbiq etishga yo‘naltiriladi. Bu “labdan klinikaga” kontseptsiyasi orqali ilmiy kashfiyotlar tezroq amaliyotga joriy etiladi.
- **Klinik tadqiqotlar** yangi dori vositalari, diagnostik usullar va terapiya strategiyalarining bemorlar uchun xavfsizligi va samaradorligini baholashga xizmat qiladi.
- **Populyatsion va epidemiologik tadqiqotlar** kasalliklarning tarqalishi, xavf omillari va profilaktik choralarning samaradorligini o‘rganadi.

Biomeditsina tadqiqotlari laboratoriya tekshiruvlari, biomarker aniqlash, hujayra va to‘qima modellari, shuningdek, genetik va proteomik tahlillarni o‘z ichiga oladi. Shu orqali ilmiy natijalar klinik amaliyotda bemor salomatligini yaxshilashda ishonchli asos bo‘ladi.

2. Molekulyar tadqiqotlar

Molekulyar tadqiqotlar hujayra va molekulalarning tuzilishi, funktsiyasi va o‘zaro ta’sirini aniqlashga qaratilgan. Ular kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Molekulyar tadqiqotlar hujayra ichidagi signal yo‘llari, gen mutatsiyalari, protein o‘zgarishlari va metabolik jarayonlarni o‘rganish orqali kasallik biomarkerlarini aniqlashga yordam beradi.

2.1 Molekulyar tadqiqot metodlari

Molekulyar tadqiqotlarda turli metodlar qo‘llaniladi:

- **PCR (Polymerase Chain Reaction)** – DNK yoki RNK fragmentlarini ko‘paytirish va aniqlash.
- **ELISA (Enzyme-Linked Immunosorbent Assay)** – protein va antigen miqdorini o‘lchash.
- **Western blot** – proteinlarning mavjudligi va o‘lchamini aniqlash.
- **Sekvensiyalash** – genom yoki transcriptom tahlilini amalga oshirish.
- **CRISPR-Cas9** – gen tahriri va genetik manipulyatsiyalar.
- **Proteomika va metabolomika** – hujayradagi barcha protein va metabolitlarni tahlil qilish.
- **Mikroskopiya** – hujayra va molekula tuzilishini ko‘rish.

Bu metodlar kasalliklarni aniqlash, yangi dori vositalarini ishlab chiqish, shuningdek, shaxsiylashtirilgan davolash strategiyalarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi.

2.2 Molekulyar tadqiqotlarning ahamiyati

Molekulyar tadqiqotlar quyidagi sohalarda muhim ahamiyatga ega:

- Kasallik mexanizmlarini chuqur tushunish.
- Biomarkerlarni aniqlash orqali erta diagnostika imkoniyatini yaratish.
- Gen terapiya va shaxsiylashtirilgan terapiya imkoniyatlarini rivojlantirish.
- Dori vositalarining samaradorligi va xavfsizligini molekulyar darajada baholash.
- Translatsion tadqiqotlar orqali laboratoriya natijalarini klinik amaliyotga tatbiq etish.

3. Texnologiyalar va bioinformatika

Biomeditsina va molekulyar tadqiqotlarda texnologik rivojlanish tadqiqotlarni aniq va samarali amalga oshirishga yordam beradi. Laboratoriya asboblari (centrifuga, PCR termotsiklatorlari, mikroskoplar), bioinformatika dasturlari (genom va proteom ma’lumotlarini tahlil qilish uchun R, Python, BLAST, Galaxy)

va natijalarni vizualizatsiya qilish texnologiyalari (heatmap, volcano plot, grafiklar) tadqiqot sifatini oshiradi. Shu bilan birga, katta hajmdagi biologik ma’lumotlarni tahlil qilish va integratsiyalash imkonini beradi.

II.Klinik tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot (EBM)

Klinik tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot (Evidence-Based Medicine, EBM) zamonaviy tibbiyotning ajralmas yo‘nalishlari bo‘lib, shifokorlar va tadqiqotchilarga xavfsiz, samarali va individual yondashuv asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi. EBM kontseptsiyasi laboratoriya va klinik tadqiqotlarda olingan ilmiy dalillar, shifokor tajribasi va bemor xususiyatlarini integratsiyalash orqali tibbiy qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi.

Klinik tadqiqotlar insonlarda yangi dori vositalari, diagnostik usullar yoki terapiya strategiyalarining xavfsizligi va samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlar hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar bemor xavfsizligini ta’minlash va klinik amaliyot standartlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

1. Klinik tadqiqotlarning maqsadi va turlari

Klinik tadqiqotlar bemorlarda tibbiy yondashuvlarni tekshirish va baholashga qaratilgan bo‘lib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarga bo‘linadi:

- **Faza I tadqiqotlar** – kichik guruh bemorlarda xavfsizlikni va preparatning farmakokinetik xususiyatlarini baholash.
- **Faza II tadqiqotlar** – dori vositasining samaradorligi va xavfsizligini o‘rganish, dozani aniqlash.
- **Faza III tadqiqotlar** – keng ko‘lamli bemor guruhida yangi preparat yoki terapiya standart bilan solishtiriladi, klinik amaliyotga joriy etish uchun asos yaratiladi.
- **Faza IV tadqiqotlar** – dori bozorda bo‘lgandan keyin uzoq muddatli kuzatish va nojo‘ya ta’sirlarni baholash.

Klinik tadqiqotlar metodologiyasi ilmiy qat’iylikni ta’minlash uchun turli usullarni o‘z ichiga oladi, jumladan: randomizatsiyalashgan nazoratli sinovlar (RCT), kohort tadqiqotlar, case-control tadqiqotlar, meta-tahlil va tizimli sharhlar.

2. Dalillarga asoslangan tibbiyot (EBM)

EBM shifokorlar va tadqiqotchilarga klinik qarorlarni ilmiy asos bilan qabul qilish imkonini beradi. EBM quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. **Eng yaxshi mavjud dalillarni aniqlash va tahlil qilish** – klinik tadqiqotlar, tizimli sharhlar, meta-tahlillar.
2. **Shifokor tajribasini qo‘llash** – individual kasallik holati va bemor xususiyatlarini hisobga olish.
3. **Bemorning istak va afzalliklarini inobatga olish** – terapiya va diagnostika yondashuvlarini shaxsiylashtirish.

Dalillar darajasi tizimli tarzda quyidagicha tartiblanadi: tizimli sharhlar va meta-tahlillar eng yuqori darajadan boshlanadi, keyin randomizatsiyalashgan sinovlar, kuzatuv tadqiqotlar, case-report va ekspert tavsiyalari pastroq darajada baholanadi. Bu tartib klinik qarorlarni qabul qilishda ilmiy asosning mustahkamligini ko‘rsatadi.

3. Klinik tadqiqotlar va EBMning afzalliklari

Klinik tadqiqotlar va EBMning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Davolash samaradorligini oshirish** – dalillar asosida eng optimal terapiya tanlanadi.
- **Bemor xavfsizligini ta’minlash** – nojo‘ya ta’sir va komplikatsiyalarni kamaytiradi.
- **Klinik qarorlarni standartlashtirish** – davolash protokollari va yo‘riqnomalarni yaratadi.
- **Resurslardan samarali foydalanish** – keraksiz test va terapiya usullarini kamaytiradi.

- **Shaxsiylashtirilgan yondashuv** – bemor xususiyatlari va afzalliklariga mos davolash strategiyasi ishlab chiqiladi.

Shuningdek, EBM va klinik tadqiqotlar tibbiyotdagi innovatsiyalarni baholash va joriy etishda ishonchli ilmiy asos yaratadi.

4. Klinik tadqiqotlarda bioetika va qonuniy talablar

Klinik tadqiqotlarda bemor xavfsizligi va etik tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Shu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- **Bemor roziligi** – tadqiqot ishtirokchisi o‘z xohlovchiligi bilan qatnashadi.
- **Etik komissiya tasdig‘i** – tadqiqot boshlanishidan oldin mustaqil etik komissiya tomonidan tekshiriladi.
- **Xavfsizlik monitoringi** – nojo‘ya ta’sirlar va asoratlarni doimiy kuzatish.
- **Ma’lumotlar maxfiyligi** – bemor shaxsiy ma’lumotlari himoyalanishi kerak.

Bu talablar tadqiqotlarning ishonchliligi va bemor huquqlarini ta’minlashni kafolatlaydi.

5. Kelajak istiqbollari

Klinik tadqiqotlar va EBM kelajakda quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda:

- **Raqamli tadqiqotlar va elektron sog‘liq yozuvlari integratsiyasi** – katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va bemor monitoringi.
- **Sun’iy intellekt va machine learning algoritmlari** – klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash va bashorat qilish.
- **Shaxsiylashtirilgan tibbiyot** – genetik, biologik va hayot tarzi xususiyatlariga mos terapiya strategiyasi.
- **Global klinik ma’lumotlar bazasi** – tadqiqot natijalarini tezkor almashish va yangi dori vositalarini joriy etish.

III.Raqamli tibbiyot va sun’iy intellekt (AI) zamonaviy tibbiyotda

Raqamli tibbiyot va sun’iy intellekt (AI) zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Raqamli tibbiyot elektron sog‘liqni saqlash yozuvlari (EHR), telemeditsina, mobil sog‘liq ilovalari, sensorlar va IoT qurilmalar yordamida bemorlarni kuzatish va tibbiy jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan. Sun’iy intellekt esa katta hajmdagi tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilish, kasalliklarni bashorat qilish, shaxsiylashtirilgan terapiya va diagnostikani yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli tibbiyot va AI tibbiyotning tezkor, samarali va individual yondashuv bilan rivojlanishiga yordam beradi, klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlaydi, bemor xavfsizligini oshiradi va sog‘liqni saqlash tizimlarining samaradorligini yaxshilaydi.

1. Raqamli tibbiyotning asosiy komponentlari

Raqamli tibbiyot quyidagi asosiy yo‘nalishlardan iborat:

- **Elektron sog‘liqni saqlash yozuvlari (EHR)** – bemor ma’lumotlarini raqamli shaklda saqlash, tahlil qilish va uzatish imkonini beradi.
- **Telemeditsina** – masofaviy konsultatsiya va diagnostika imkonini beradi, ayniqsa qishloq hududlarda yoki pandemiya sharoitida samarali.
- **Mobil sog‘liq ilovalari** – yurak urishi, qon bosimi, qon shakarini monitoring qilish kabi kundalik ma’lumotlarni yig‘adi va tahlil qiladi.
- **Sensorlar va IoT qurilmalari** – bemorning real vaqt monitoringini ta’minlaydi, shuningdek, klinik tadqiqotlarda ma’lumot yig‘ishga xizmat qiladi.
- **Big data va bioinformatika** – katta hajmdagi tibbiy ma’lumotlarni integratsiya qilish va tahlil qilish imkonini beradi.

Bu komponentlar sog‘liqni saqlash tizimini avtomatlashtirish, tibbiy jarayonlarni optimallashtirish va bemor monitoringini yanada samarali qilish imkonini beradi.

2. Sun’iy intellekt (AI) va uning tibbiyotdagi qo‘llanilishi

AI sog‘liqni saqlash tizimida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash va kasalliklarni bashorat qilishga qaratilgan. AI texnologiyalari quyidagi sohalarda qo‘llaniladi:

1. **Tibbiy tasvirlarni tahlil qilish** – rentgen, KT, MRI, ultratovush tasvirlarini avtomatik aniqlash va patologiyalarni aniqlash.
2. **Bashoratli modellashtirish** – kasalliklar rivojlanishi yoki komplikatsiyalar ehtimolini oldindan aniqlash.
3. **Klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari (CDSS)** – shifokorlar uchun dori tanlash, dozani aniqlash va terapiya strategiyasini tavsiya etish.
4. **Genomika va shaxsiylashtirilgan tibbiyot** – genetik va molekulyar ma’lumotlarni tahlil qilib, individual terapiya strategiyasini ishlab chiqish.
5. **Robototibbiyot** – jarrohlik operatsiyalarini avtomatlashtirish va aniqlikni oshirish.

AI algoritmlari mashina o‘rganish (machine learning), chuqur o‘rganish (deep learning) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalariga asoslangan bo‘lib, ular tibbiy ma’lumotlarni yanada aniqlik bilan tahlil qilish imkonini beradi.

3. Raqamli tibbiyot va AIning afzalliklari

- **Tezkor diagnostika** – AI va raqamli tizimlar bemorning holatini tezkor tahlil qiladi va aniqlikni oshiradi.
- **Shaxsiylashtirilgan terapiya** – genomik va klinik ma’lumotlar asosida individual davolash strategiyasi ishlab chiqiladi.
- **Resurslarni samarali boshqarish** – bemor monitoringi va klinik jarayonlar avtomatlashtiriladi, tibbiy xatoliklar kamayadi.
- **Katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalanish** – EHR, bioinformatika va big data tahlili orqali klinik qarorlarni optimallashtirish.

- **Pandemiya va masofaviy xizmatlar** – telemeditsina va masofaviy monitoring orqali keng qamrovli sog‘liqni saqlash xizmatlari ta’minlanadi.

4. Cheklovlar va xavf-xatarlar

Raqamli tibbiyot va AI foydalanishda quyidagi cheklovlar mavjud:

- **Algoritmlar xatolik ehtimoli** – noto‘g‘ri ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish xavfi.
- **Maxfiylik va xavfsizlik** – bemor ma’lumotlarini himoya qilish talab qilinadi.
- **Texnologik xarajatlar** – AI tizimlari va raqamli qurilmalar yuqori xarajat talab qiladi.
- **Shifokor kompetensiyasi** – yangi texnologiyalarni samarali ishlatish uchun malakali kadrlar zarur.
- **Etik masalalar** – qaror qabul qilish jarayonida inson va mashina roli muvozanati.

5. Kelajak istiqbollari

Raqamli tibbiyot va AI kelajakda quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda:

- **Integratsiyalashgan ma’lumot bazalari** – global klinik va genomik ma’lumotlar bazalari orqali yangi dori va terapiya strategiyalarini ishlab chiqish.
- **Sun’iy intellektning yanada chuqurlashgan algoritmlari** – kasalliklarni erta aniqlash va shaxsiylashtirilgan davolash.
- **IoT va masofaviy monitoring tizimlari** – real vaqtda bemor holatini kuzatish va prognozlash.
- **AI va translatsion tadqiqotlar integratsiyasi** – laboratoriya natijalarini klinik amaliyotga tezkor tatbiq etish.
- **Raqamli sog‘liqni saqlash siyosati va me’yoriy hujjatlar** – ma’lumot xavfsizligini ta’minlash va algoritmlarning standartlashtirilishi.

Xulosa

Biomeditsina va molekulyar tadqiqotlar, klinik tadqiqotlar va dalillarga asoslangan tibbiyot, shuningdek raqamli tibbiyot va sun'iy intellekt zamonaviy tibbiyotning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi. Molekulyar tadqiqotlar kasallik mexanizmlarini chuqur tushunish va shaxsiylashtirilgan terapiya imkoniyatlarini yaratishga xizmat qilsa, klinik tadqiqotlar va EBM bemor xavfsizligini ta'minlash va davolash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Raqamli tibbiyot va AI esa tezkor diagnostika, bemor monitoringi va klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlash orqali tibbiyot sifatini yangi bosqichga ko'taradi. Shu tarzda, ushbu yo'nalishlar birgalikda global sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, innovatsion terapiya va profilaktika strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alberts B., Johnson A., Lewis J., et al. Molecular Biology of the Cell. 6th edition. New York: Garland Science, 2014. 1464 p.
2. **Lodish H., Berk A., Kaiser C., et al.** Molecular Cell Biology. 8th ed. — New York: W.H. Freeman, 2021. — 1360 p.
3. **Strachan T., Read A.** Human Molecular Genetics. 5th ed. — New York: Garland Science, 2018. — 576 p.
4. **Kumar V., Abbas A., Aster J.** Robbins & Cotran Pathologic Basis of Disease. 10th ed. — Philadelphia: Elsevier, 2021. — 1472 p.
5. **Guyatt G., Rennie D., Meade M., Cook D.** Users' Guides to the Medical Literature: Essentials of Evidence-Based Clinical Practice. 3rd ed. — New York: McGraw-Hill, 2015. — 416 p.
6. **Straus S. E., Glasziou P., Richardson W. S., Haynes R. B.** Evidence-Based Medicine: How to Practice and Teach EBM. 5th ed. — Elsevier, 2019. — 512 p.
7. **Topol E. J.** Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. — New York: Basic Books, 2019. — 384 p.

8. **Jiang F., Jiang Y., Zhi H., et al.** Artificial intelligence in healthcare: past, present and future // *Stroke and Vascular Neurology*. — 2017. — Vol. 2, No. 4. — P. 230–243.
9. **Razzak M. I., Imran M., Xu G.** Big data analytics for preventive medicine // *Neural Computing and Applications*. — 2019. — Vol. 31, No. 5. — P. 1305–1315.
10. **Esteva A., Robicquet A., Ramsundar B., et al.** A guide to deep learning in healthcare // *Nature Medicine*. — 2019. — Vol. 25. — P. 24–29.
11. **World Health Organization (WHO).** Digital health. — Geneva: WHO, 2021. — 52 p.
12. **Current Protocols in Molecular Biology.** — Wiley, 2022. — 984 p.
13. **Friedman L. M., Furberg C. D., DeMets D. L.** Fundamentals of Clinical Trials. 5th ed. — Springer, 2015. — 560 p.
14. **Piantadosi S.** Clinical Trials: A Methodologic Perspective. 3rd ed. — Wiley, 2017. — 520 p.
15. **Hulley S. B., Cummings S. R., Browner W. S., et al.** Designing Clinical Research. 5th ed. — Lippincott Williams & Wilkins, 2013. — 368 p.

ILMIY-TADQIQOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI O‘RGANISHGA OID ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Mamasadiqova Dilafruz

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish tizimining xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or tajribalari tahlil qilingan. AQSH,*

Germaniya, Yaponiya va Xitoy misolida davlat, xususiy sektor va xalqaro hamkorlik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari o‘rganilib, ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: *moliyalashtirish, venchur jamg’armalari, grantlar, texnopolislar, xususiy sektor.*

Аннотация. *В данной работе анализируются лучшие практики системы финансирования научно-исследовательских проектов в зарубежных странах. На примерах США, Германии, Японии и Китая изучаются механизмы финансирования, основанные на государственном, частном и международном сотрудничестве, и обосновывается необходимость их адаптации к условиям Узбекистана.*

Ключевые слова: *финансирование, венчурные фонды, гранты, технополисы, частный сектор.*

Abstract. *This thesis analyzes the best practices of the system of financing scientific research projects in foreign countries. Using the examples of the USA, Germany, Japan and China, the mechanisms of financing based on the state, private sector and international cooperation are studied, and the need to adapt them to the conditions of Uzbekistan is justified.*

Keywords: *financing, venture funds, grants, technopolises, private sector.*

Kirish. Davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga ko‘ra, muvaffaqiyatning eng muhim elementlaridan biri ilm-fan innovatsiyalar sohasidagi xalqaro aloqalarni rivojlantirish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi bugungi kunda Jahon banki, YUNESKO, Islom taraqqiyot banki, BMT Taraqqiyot dasturi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan istiqbolli o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

Asosiy qism. Ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish tizimi har bir mamlakatning innovatsion rivojlanishi va iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biridir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur va Xitoy kabi yuqori texnologiyalar sohasida

yetakchi davlatlar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalarini doimiy ravishda oshirib bormoqda, innovatsion mamlakatlarda innovatsiyalarni moliyalashtirish esa milliy ahamiyatga ega dastur hisoblanadi. Biroq boshqa tomondan qaraganda, fan va texnologiyalarni rivojlantirishdagi har bir yangi bosqich katta mablag' va zamonaviy infratuzilmani talab qiladi. Ilm-fan, iqtisodiyotning boshqa sohalari singari, mablag'siz rivojlana olmaydi va o'z navbatida ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish har bir mamlakat uchun juda qiyin vazifadir. Asosiy jumboq ilmiy tadqiqotlarni "kim" va "qanday" moliyalashtirishi kerakligidadir? Har bir inson, jumladan, davlat, aholi, shaxslar, fuqarolik jamiyati va boshqalar, fanni rivojlantirishdan manfaatdor. Xo'sh, nima uchun ba'zi mamlakatlar ilmiy tadqiqotlarga ko'proq pul ajratadi, boshqalari esa kamroq? Bu faktlarning barchasi ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning o'ziga xos muammolari borligini isbotlaydi.

Bu muammolar R. Nelson[1], K. Arrau[2] va Y. Shumpeter[3] tomonidan o'rganilgan. Ular ilmiy loyihalarni moliyalashtirishning asosiy muammosini investorning uzoq muddatda ilmiy tadqiqotlar yutuqlaridan foydalana olmasligi sifatida belgilaydilar. Shunday qilib, moliyalashtirilgan ilmiy tadqiqotlar va uning "mevalari" tezda boshqalarning, ya'ni investitsiya qilmaganlarning yutuqlariga aylanadi. Ba'zan ilmiy tadqiqotlarning "mevalari" hatto ushbu ilmiy tadqiqotga hech qanday aloqasi bo'lmaganlarga ham tushadi. Shunday qilib, boshqa investitsiya turlaridan farqli o'laroq, raqobatbardosh bozorda ilmiy tadqiqotlarga investitsiya qilish katta xavf tug'diradi. Boshqa tomondan, ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan investitsiyalar umuman ijobiy natijalar bermasligi ham mumkin.

O‘zbekiston uchun ushbu tajribalarni o‘rganish nafaqat ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish, balki muvaffaqiyatli ilmiy-tadqiqot moliyalashtirish tizimlari davlat siyosati, xususiy sektor ishtiroki, xalqaro hamkorlik va natijalarni tijoratlashtirishga tayanadi. Mamlakatimiz uchun asosiy vazifa – ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirib, innovatsion iqtisodiyotga xizmat qiladigan samarali tizim yaratishdir.

Dunyoning eng ilg’or ilmiy-tadqiqot tizimiga ega davlatlardan biri hisoblangan va birinchilardan bo’lib innovatsion faoliyatni tijoratlashtirish bilan shug’ullangan

mamlakat sifatida AQSH tajribasini o'rganish foydadan holi emas. " AQSH innovatsion rivojlanishining o'ziga xos jihati shundaki, unda davlat ahamiyatiga molik yirik ilmiy loyihalar hukumat tomonidan to'liq moliyalashtiriladi. Mazkur loyihalarni ishlab chiqish, realizatsiya qilish venchur jamg'armalari tomonidan amalga oshiriladi"[4].

Ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda Milliy Ilmiy Jamg'arma (NSF) va Milliy Sog'liqni Saqlash Institutlari (NIH) asosiy o'rin tutadi[5]. NSF yiliga qariyb 40 mlrd dollardan ortiq mablag'ni fundamental va amaliy tadqiqotlarga yo'naltiradi. NIH esa tibbiyot, biotibbiyot va sog'liqni saqlash sohalaridagi tadqiqotlarni keng miqyosda qo'llab-quvvatlaydi. Grantlar ochiq tanlov asosida beriladi va ular qat'iy ekspertiza jarayonidan o'tadi.

O'rganishimizcha, Germaniyada moliyalashtirish tizmi AQsh va boshqa mamlakatlardan farqli jihati – davlat, xususiy sektor va xalqaro hamkorlikning uyg'unlashgan tizimida. Masalan, 2021-yilda DFG (Deutsche Forschungsgemeinschaft) tomonidan 3,3 mlrd yevro mablag' ajratilgan, uning 40 foizi sanoat bilan hamkorlikdagi tadqiqotlarga yo'naltirilgan[6]. O'zbekiston uchun Germaniya tajribasi davlat-xususiy hamkorlikni kuchaytirish va ilmiy markazlar faoliyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Yaponiyada ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishning asosiy tashkiloti – Japan Society for the Promotion of Science (JSPS) hisoblanadi[7]. Fan va ishlab chiqarishni, ilmiy-texnik taraqqiyotni integratsiyalashning yapon modeli ilmiy-tadqiqot va bilimga asoslangan sanoat ishlab chiqarishini jamlaydigan mutlaqo yangi shaharlar - texnopolislarni qurishni nazarda tutadi. JSPS nafaqat fundamental tadqiqotlarni, balki yosh olimlar uchun stipendiyalar va xorijiy grantlarni ham ta'minlaydi. Shu qatorda ta'kidlash joizki, Yaponiyada universitetlar va sanoat korxonalari o'rtasida mustahkam aloqalar mavjud bo'lib, bu ilmiy natijalarning tezkor joriy etilishini ta'minlaydi.

"Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlanayotgan mamlakatlar orasida hukumatning moliyalashtirishdagi ulushi 80% dan oshadigan mamlakatlar ham bor. Masalan, Kubada hukumat ilmiy tadqiqotlar xarajatlarining 80% ni moliyalashtiradi. Misrda

bu ko'rsatkich 90% ga yaqinlashadi. Iroqda esa deyarli barcha ilmiy tadqiqotlar xarajatlari hukumat tomonidan qoplanadi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlar orasida hukumatning ulushi juda past bo'lgan mamlakatlar ham bor. Masalan, Xitoy va Gruziyada hukumat mos ravishda atigi 20% va 40% ni qoplaydi"[8]. Bu esa o'z navbatida mamlakatlar iqtisodiyotini tez liberallashtirmoqda. Iqtisodiy liberallashtirish xususiy sektorning rivojlanishini rag'batlantiradi.

2021-yil ma'lumotlariga ko'ra Xitoy ilmiy-tadqiqotga 378 mlrd dollar ajratdi va bu ko'rsatkich AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. O'zbekiston uchun bu tajriba – ilmiy salohiyatni tezkor oshirish va ilmiy markazlarni xalqaro darajaga olib chiqishda saboq bo'lishi mumkin.

Turli mamlakatlarda (AQSh, Germaniya, Yaponiya va boshqalar) davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalariga bo'lgan huquqlarni ta'minlash va boshqarishning asosiy yondashuvlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bu masala uzoq vaqtdan beri ko'plab mamlakatlardagi davlat idoralari uchun tashvish tug'dirib kelmoqda. Davlat mablag'lari hisobidan yaratilgan intellektual mulkni davlat boshqaruvining to'rtta asosiy modeli turli mamlakatlarda turli vaqtlarda va turli sharoitlarda qo'llanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Nelson R. R.** The Simple Economics of Basic Scientific Research // *Journal of Political Economy*. — 1959. — Vol. 49. — P. 297–306.
2. **Arrow K. J.** Economic Welfare and the Allocation of Resources for Invention // The Rate and Direction of Inventive Activity / ed. by **Nelson R.** — Princeton, N. J.: Princeton University Press, 1962.
3. **Schumpeter J.** Capitalism, Socialism, and Democracy. — New York: Harper and Row, 1942 (reprint 1960).
4. **Kurbanova M. N.** AQSH innovatsion tizimi shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari // *"Iqtisod va moliya" ilmiy elektron jurnali*. — 2018. — № 10(118). — 44 b.

5. **National Science Foundation (NSF)**. Annual Report 2020. — USA.
6. **Fraunhofer-Gesellschaft**. Annual Report 2021.
7. **Japan Society for the Promotion of Science (JSPS)**. Annual Report 2021.
8. **Самедова Э. Р.** Зарубежный опыт финансирования научных исследований // *“ELMİ ƏSƏRLƏR” ilmiy elektron jurnali*. — 2017. — № 2. — 56 b.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ И ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Мирхамидова Захинабону Мирхамид кизи
Гулистанский государственный университет

Аннотация. *В статье исследуется комплексный подход к построению безопасной экосистемы электронной коммерции в условиях цифровой трансформации. Анализируются фундаментальные криптографические протоколы (AES, RSA/ECC, хеширование), формирующие базис цифрового доверия. Рассматривается современный ландшафт киберугроз, включая атаки с использованием технологий искусственного интеллекта, и стратегии противодействия на основе концепций эшелонированной обороны (Defense-in-Depth) и «нулевого доверия» (Zero Trust). Проводится сравнительный анализ национального правового поля Республики Узбекистан с ключевыми международными стандартами (GDPR, PCI DSS, ISO/IEC 27001), выявляются уровни соответствия и специфические требования, такие как локализация данных. Делается вывод о том, что устойчивость e-commerce обеспечивается триадой: надежными криптографическими*

основами, проактивными системами защиты на основе AI и Zero Trust, а также строгим соблюдением гармонизированного законодательства.

Ключевые слова: *электронная коммерция, кибербезопасность, криптография, персональные данные, правовое регулирование, Zero Trust, GDPR, PCI DSS, законодательство Узбекистана.*

Annotatsiya. *Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida xavfsiz elektron tijorat ekotizimini yaratishga nisbatan kompleks yondashuv o‘rganilgan. Raqamli ishonchning poydevorini tashkil etuvchi asosiy kriptografik protokollar (AES, RSA/ECC, xeshlash) tahlil qilinadi. Zamonaviy kibertahdidlar, shu jumladan sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilayotgan hujumlar hamda "eshelonlashtirilgan mudofaa" (Defense-in-Depth) va "nolga teng ishonch" (Zero Trust) tamoyillari asosida ularga qarshi kurashish strategiyalari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasining milliy huquqiy maydoni asosiy xalqaro standartlar (GDPR, PCI DSS, ISO/IEC 27001) bilan qiyosiy tahlil qilinib, muvofiqlik darajalari va ma’lumotlarni mahalliylashtirish kabi o‘ziga xos talablar aniqlanadi. Elektron tijoratning barqarorligi uchta omil bilan ta’minlanishi xulosa qilinadi: ishonchli kriptografik asoslar, sun’iy intellekt va "nolga teng ishonch" tamoyiliga asoslangan proaktiv himoya tizimlari, hamda uyg‘unlashtirilgan qonunchilikka qat’iy rioya qilish.*

Kalit so‘zlar: *elektron tijorat, kiberxavfsizlik, kriptografiya, shaxsiy ma’lumotlar, huquqiy tartibga solish, Zero Trust, GDPR, PCI DSS, O‘zbekiston qonunchiligi.*

Abstract. *The article explores a comprehensive approach to building a secure e-commerce ecosystem in the context of digital transformation. It analyses the fundamental cryptographic protocols (AES, RSA/ECC, hashing) that form the basis of digital trust. The modern landscape of cyber threats is considered, including attacks using artificial intelligence technologies, and countermeasures based on the concepts of Defense-in-Depth and Zero Trust. A comparative analysis of the national legal framework of the Republic of Uzbekistan with key international standards (GDPR, PCI DSS, ISO/IEC 27001) is carried out, levels of compliance*

and specific requirements, such as data localisation, are identified. It is concluded that the resilience of e-commerce is ensured by a triad: reliable cryptographic foundations, proactive AI and Zero Trust-based protection systems, and strict compliance with harmonised legislation.

Keywords: *e-commerce, cybersecurity, cryptography, personal data, legal regulation, Zero Trust, GDPR, PCI DSS, Uzbekistan legislation.*

ВВЕДЕНИЕ. Цифровая трансформация экономики кардинально меняет ландшафт торговли, выдвигая безопасность транзакций на первый план как критический фактор доверия потребителей и устойчивого роста электронной коммерции [1]. Современная архитектура безопасности e-commerce эволюционировала от простых средств защиты периметра к комплексной экосистеме, представляющей собой синтез математически верифицируемых криптографических методов, предиктивных технологий противодействия угрозам и развитой нормативно-правовой базы. Актуальность исследования обусловлена необходимостью интеграции технических, организационных и правовых мер в единую стратегию для противодействия постоянно эволюционирующим киберугрозам, особенно с учетом активного внедрения искусственного интеллекта злоумышленниками. Целью данной статьи является комплексный анализ основ безопасности и правового регулирования электронной коммерции с фокусом на гармонизацию национального законодательства Узбекистана с международными стандартами.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ. Методологическую основу исследования составляют системный анализ, сравнительно-правовой метод и анализ технических стандартов. Теоретической базой послужили фундаментальные работы в области криптографии [5, 9], международные стандарты информационной безопасности [7, 8], европейское регулирование [6], а также актуальное законодательство Республики Узбекистан [1, 2, 3]. Анализ литературы подтверждает, что современный подход к безопасности e-commerce основан на трех столпах: криптографическом обеспечении доверия,

многоуровневой защите от угроз и правовом регулировании, устанавливающем обязательные рамки.

Криптографические основы цифрового доверия. Доверие в электронной коммерции не является абстрактным понятием, а детерминировано криптографическими алгоритмами, обеспечивающими конфиденциальность, целостность, аутентификацию и неотрекаемость. Для защиты данных на разных этапах транзакции применяются: 1) Симметричное шифрование (напр., AES) для высокоскоростного шифрования больших объемов данных внутри защищенных сессий (TLS). 2) Асимметричное шифрование (RSA, ECC) на базе инфраструктуры открытых ключей (PKI) для безопасного обмена сессионными ключами, цифровых подписей и аутентификации серверов. 3) Криптографическое хеширование (SHA-256 и др.) для создания уникальных «цифровых отпечатков» (контрольных сумм), гарантирующих неизменность транзакционных данных и лежащих в основе блокчейн-технологий [5, 7, 9].

Эшелонированная оборона против эволюции угроз. Ландшафт угроз характеризуется переходом к целевым, высокотехнологичным атакам, использующим AI для социальной инженерии (дипфейки), обхода CAPTCHA и анализа уязвимостей. Эффективной стратегией является эшелонированная оборона (Defense in Depth), дополненная принципами «Нулевого доверия» (Zero Trust). Данный подход включает: 1) Многофакторную аутентификацию (MFA) с использованием биометрических и аппаратных токенов. 2) Предиктивные антифрод-системы на базе машинного обучения, анализирующие поведенческие паттерны пользователей в реальном времени для выявления аномалий. 3) Архитектуру Zero Trust, где каждый запрос к ресурсу (внутри или извне сети) подвергается непрерывной верификации на основе контекста (идентификатор, устройство, местоположение), что минимизирует риски от утечек учетных данных и внутренних угроз [2].

Сравнительно-правовой анализ регулирования. Правовое поле Республики Узбекистан в области цифровой безопасности за последние годы

было системно реформировано и демонстрирует высокую степень гармонизации с международными стандартами (см. Таблицу 1).

Таблица 1.

Соответствие законодательства Республики Узбекистан международным стандартам безопасности

Аспект регулирования	Законодательство РУз	Международный стандарт	Степень соответствия
Защита персональных данных	Закон «О персональных данных» [1]	GDPR (EU) [6]	Высокая (при наличии специфического требования локализации данных [1, ст. 27.1])
Безопасность платежей	Акты Центрального банка РУз	PCI DSS v4.0 [8]	Полная интеграция требований для субъектов, осуществляющих обработку платежных карт
Управление информационной безопасностью	Закон «О кибербезопасности» [2]	ISO/IEC 27001:2022 [7]	Методологическая синергия: закон задает рамочные требования, стандарт предлагает детальную

			систему менеджмента
Электронная подпись	Закон «Об электронной цифровой подписи» [3]	Регламент eIDAS (EU)	Высокая, что обеспечивает юридическую значимость трансграничных электронных документов

Ключевой национальной спецификой является закрепленная законом обязательная локализация персональных данных граждан Узбекистана на территории страны [1, ст. 27.1], что создает дополнительные операционные и инфраструктурные требования для международных и местных операторов.

Технологической основой безопасности электронной коммерции выступает комплекс криптографических протоколов (AES, RSA/ECC, PKI, хеширование), обеспечивающих базовые свойства безопасности транзакций.

Для противодействия современным AI-угрозам необходима комбинация стратегий: эшелонированной обороны (MFA, предиктивный антифрод) и архитектуры Zero Trust, которая устраняет концепцию «доверенного периметра».

Законодательство Республики Узбекистан в сфере цифровой экономики (защита данных, кибербезопасность, электронная подпись) системно гармонизировано с ключевыми международными регуляторными рамками (GDPR, PCI DSS, ISO/IEC 27001, eIDAS).

Специфическим правовым требованием в Узбекистане является локализация баз персональных данных, что направлено на усиление суверенного контроля, но требует от бизнеса дополнительных инвестиций в инфраструктуру.

ОБСУЖДЕНИЕ. Проведенный анализ показывает, что безопасность электронной коммерции трансформировалась в междисциплинарную стратегическую дисциплину. Предложенная триада – криптография, проактивная защита и право – является взаимодополняющей. Криптография создает математически доказуемую основу доверия, технологии AI и Zero Trust адаптивно противодействуют угрозам, а право устанавливает обязательные «правила игры» и меру ответственности.

Выявленная высокая степень гармонизации узбекского законодательства с международными стандартами является позитивным фактором для привлечения иностранных инвестиций и интеграции в глобальную цифровую экономику. Однако требование локализации данных может рассматриваться как потенциальный барьер для свободного трансграничного потока информации и требует от компаний построения гибридных или локализованных облачных инфраструктур.

Дальнейшее развитие экосистемы безопасности e-commerce в Узбекистане, помимо технико-правовых аспектов, требует фокуса на подготовке высококвалифицированных кадров в области кибербезопасности и криптографии, а также на повсеместном внедрении принципа «безопасности по дизайну» (Security by Design) при разработке новых финансовых и коммерческих IT-продуктов.

ВЫВОД. Безопасность электронной коммерции в эпоху цифровой трансформации представляет собой сложную, динамичную систему. Ее устойчивость и способность обеспечивать доверие миллионов пользователей гарантируется не отдельными инструментами, а синергией трех фундаментальных компонентов: 1) надежных, математически верифицируемых криптографических основ; 2) адаптивных, проактивных систем защиты, основанных на искусственном интеллекте и парадигме «нулевого доверия»; 3) четкого, предсказуемого и гармонизированного с мировыми практиками правового регулирования, которое устанавливает рамки, стимулирует внедрение лучших практик и защищает права субъектов

данных. Для Республики Узбекистан, активно развивающей цифровую экономику, продолжение курса на гармонизацию законодательства при одновременном развитии национального технологического потенциала в области безопасности является стратегически верным путем.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. **Закон Республики Узбекистан.** «О персональных данных» от 02.07.2019 г. № ЗРУ-547.
2. **Закон Республики Узбекистан.** «О кибербезопасности» от 15.04.2022 г. № ЗРУ-764.
3. **Закон Республики Узбекистан.** «Об электронной цифровой подписи» от 12.10.2022 г. № ЗРУ-793.
4. **Государственный стандарт Узбекистана.** Криптографическая защита информации. Основные положения.
5. **Menezes A. J., van Oorschot P. C., Vanstone S. A.** Handbook of Applied Cryptography. — CRC Press, 1996.
6. **European Parliament and Council of the European Union.** Regulation (EU) 2016/679 of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation — GDPR) // Official Journal of the European Union. — L 119/1.
7. **ISO/IEC 27001:2022.** Information security, cybersecurity and privacy protection — Information security management systems — Requirements.
8. **PCI Security Standards Council.** Payment Card Industry Data Security Standard (PCI DSS) v4.0. — 2022. — URL: https://www.pcisecuritystandards.org/
9. **Сухов В. А. (ред.)** Криптографические алгоритмы и протоколы в системах защиты информации: монография. — М.: Горячая линия–Телеком, 2020. — 340 с.

ZAMONAVIY GEOSIYOSIY VAZIYAT VA AXBOROT XURUJLARI DAVRIDA MAKTAB YOSHLARI ONGIGA HARBIY VATANPARVARLIKNI SINGDIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Mirzayev Muhammadaziz Erkinjon o‘g‘li
Andijon Pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu tezis zamonaviy geosiyosiy vaziyat va axborot xurujlari sharoitida maktab yoshidagi o‘quvchilarda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishning zamonaviy usullarini yoritadi. Mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, psixologik barqarorlik, maktab–oila–mahalla hamkorligi hamda raqamli ta’lim vositalari asosida profilaktik va rivojlantiruvchi yondashuvlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar*: harbiy vatanparvarlik, mediasavodxonlik, axborot xuruji, tanqidiy fikrlash, psixologik barqarorlik, raqamli ta’lim, profilaktika.*

Аннотация. *В данной работе рассматриваются современные методы формирования военного патриотизма у школьников в контексте современной геополитической ситуации и информационных атак. Предлагаются профилактические и развивающие подходы, основанные на медиаграмотности, критическом мышлении, психологической устойчивости, сотрудничестве школы, семьи и соседского сообщества, а также использовании цифровых образовательных инструментов.*

Ключевые слова: *военный патриотизм, медиаграмотность, информационная перегрузка, критическое мышление, психологическая устойчивость, цифровое образование, профилактика.*

Abstract. *This thesis discusses modern methods for fostering military patriotism among school-age students under contemporary geopolitical tensions and information attacks. It proposes preventive and developmental approaches based on media literacy, critical thinking, psychological resilience, school–family–*

community cooperation, and digital educational tools, emphasizing safe, evidence-informed, and age-appropriate pedagogical practices.

Keywords: *military patriotism, media literacy, information overload, critical thinking, psychological stability, digital education, prevention.*

Zamonaviy geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi fonida axborot makoni o‘quvchi shaxsining kundalik tajribasiga chuqur kirib bordi: ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, qisqa videolar va o‘yin platformalari maktab yoshidagi bolalar uchun nafaqat muloqot, balki qadriyatlar, identifikatsiya va “men kimman?” savoliga javob topish maydoniga aylandi. Axborot xurujlari esa ko‘pincha ochiq targ‘ibot ko‘rinishida emas, balki hissiy manipulyatsiya, yolg‘on dilemmlar, stereotiplar, memlar, montaj qilingan lavhalar va “pseudo-ekspert” fikrlari orqali ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli harbiy vatanparvarlikni singdirish masalasi faqat tadbirlar o‘tkazish yoki shioriy chaqiriqlar bilan cheklanmasdan, o‘quvchining axborotni idrok etish mexanizmlarini, ishonch va mas’uliyat hissini, jamiyatga daxldorlik tuyg‘usini hamda xavf-xatarlarga ongli munosabatni shakllantirishni talab etadi.

Harbiy vatanparvarlikni zamonaviy pedagogik talqinda o‘quvchida Vatan xavfsizligi va tinchlik qadriyatlarini anglash, fuqarolik burchini tushunish, davlat ramzlari va tarixiy xotiraga hurmat, jamoaviy mas’uliyat, intizom va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv yosh psixologiyasiga mos bo‘lib, “qo‘rquv” yoki “dushman obrazi”ni kuchaytirishga emas, balki ijtimoiy barqarorlik, irodaviy sifatlar va ma’naviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalar bilan integratsiyalashganda, u shaxsni “axborot zarbalari”ga nisbatan chidamli qiladi: bola o‘z pozitsiyasini dalilga tayangan holda quradi, hissiy provokatsiyani ajrata oladi, turli qarashlar mavjudligini tushunadi va mas’uliyatli xulosa chiqaradi.

Axborot xurujlariga qarshi eng samarali pedagogik yechimlardan biri-mediasavodxonlikni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bilan uyg‘unlashtirishdir. UNESCO tomonidan mediasavodxonlik axborotni topish, baholash, tahlil qilish va

mas’uliyat bilan ulashish kompetensiyalarining majmui sifatida talqin etiladi [1]. Ushbu ta’rif muhim jihatni ochib beradi: muammo faqat “noto‘g‘ri axborot”ning mavjudligida emas, balki o‘quvchining uni tekshirmasdan qabul qilishi va tarqatishidadir. Demak, maktab amaliyotida “faktcheking” (manbani tekshirish), “kontekst tahlili” (voqea qaysi sharoitda aytilgan), “vizual savodxonlik” (foto/video montaj belgilari), “sarlavha manipulyatsiyasi” (klikbeyt) kabi mikroko‘nikmalarni bosqichma-bosqich o‘rgatish lozim. Bu ko‘nikmalar harbiy vatanparvarlik mazmuni bilan bog‘langanda (masalan, xavfsizlik mavzulari, fuqarolik mas’uliyati, jamoa manfaatini anglash), o‘quvchi axborotga nisbatan hushyorlikni “taqiqlovchi nazorat” sifatida emas, balki o‘zining ijtimoiy burchi sifatida qabul qiladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Tanqidiy fikrlash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda Ennis uni asosli qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan oqilona va refleksiv fikrlash sifatida izohlaydi [2]. Bu fikrni ta’lim jarayoniga ko‘chirsak, harbiy vatanparvarlikni singdirishda o‘quvchi “nima uchun” degan savolni berish, dalil va xulosani ajratish, qarama-qarshi fikrlarni madaniyatli muhokama qilishni o‘rganadi. Masalan, tarix va “Tarbiya” darslarida vaziyatli tahlil (case-study), munozara emas, balki “dalilga tayangan tahlil” formati, “argument xaritasi” (claim–evidence–reasoning) kabi usullar qo‘llansa, o‘quvchi hissiy chaqiriqlar ta’siriga tez berilmaydi. Eng muhimi, tanqidiy fikrlash vatanparvarlikni “ko‘r-ko‘rona ishonch” darajasiga tushirmasdan, uni ongli, mas’uliyatli va barqaror pozitsiyaga aylantiradi.

Uchinchi yo‘nalish — psixologik barqarorlik va stressga chidamlilikni tarbiyalashdir. Axborot xurujlari ko‘pincha qo‘rquv, g‘azab, shoshilish yoki “shov-shuv” orqali boshqariladi; demak, o‘quvchining emotsional o‘zini boshqarishi kuchli bo‘lsa, manipulyatsiya samarasi pasayadi. Raqamli muhitda o‘smirlar psixologiyasini yorituvchi ilmiy ishlarda (masalan, Twenge) ekran va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida emotsional fonning o‘zgarishi, xavotirning kuchayishi kabi holatlar qayd etiladi [3]. Ushbu mulohaza o‘qituvchiga amaliy xulosa beradi: harbiy vatanparvarlik tarbiyasi doirasida “psixogigiyena” (axborot iste’moli me’yori), “pauza va refleksiya” (ko‘rganini darhol ulashmaslik), “hissiy tekshiruv” (men hozir

nima his qilyapman va nega?) kabi oddiy, ammo samarali mashqlar joriy etilishi zarur. Bunday yondashuv “xavfsizlik madaniyati”ni oshiradi, o‘quvchining o‘ziga ishonchini mustahkamlaydi va jamoaviy muhitda nizolarni kamaytiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish — harbiy vatanparvarlikni tizimli tarbiya sifatida tashkil etish, ya’ni maktab–oila–mahalla hamkorligini kuchaytirishdir. O‘zbekiston ta’lim amaliyotida tarbiya ishlarining institutsional asoslari va uzviylik tamoyillari alohida ta’kidlanadi; xususan, Abdullaeva tarbiya jarayonida maktabning ijtimoiy hamkorlar bilan uyg‘un faoliyati shaxs kamolotining muhim omili ekanini ko‘rsatadi [4]. Bu fikrni axborot xurujlari sharoitiga tadbiq etsak, o‘quvchi maktabda olgan mediasavodxonlik ko‘nikmalarini uyda va mahalla muhitida ham mustahkamlashi kerak bo‘ladi. Amaliy jihatdan bu: ota-onalar uchun “raqamli xavfsizlik” bo‘yicha qisqa seminarlar, sinf rahbari tomonidan “haftalik axborot gigiyenasi” tavsiyalari, mahalladagi sport va vatanparvarlik klublari bilan hamkorlikda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, shuningdek, ijtimoiy loyihalar (volontyorlik, xayriya aksiyalari, jamoa xizmatlari) orqali “Vatanga foyda keltirish” g‘oyasini real tajribaga aylantirishni anglatadi. Natijada vatanparvarlik abstrakt tushuncha bo‘lib qolmay, ijtimoiy mas’uliyatli amaliyotga aylanadi.

Beshinchi yo‘nalish — raqamli ta’lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanishdir. Axborot xurujlari raqamli muhitda sodir bo‘lar ekan, qarshi tarbiya ham zamonaviy formatlarda bo‘lishi tabiiy: gamifikatsiya, simulyatsiya, “web-quest”, interaktiv testlar, mini-loyihalar, multimedia hikoyachiligi (digital storytelling). Bunda maqsad o‘quvchini “kontent iste’molchisi”dan “kontent yaratuvchisi” darajasiga ko‘tarishdir: masalan, sinf jamoasi “manbani tekshirish algoritmi” bo‘yicha qisqa videoqo‘llanma tayyorlaydi yoki “axborot xuruji belgilarini” infografika ko‘rinishida yaratadi. Ushbu jarayon o‘quvchida jamoada ishlash, mas’uliyatli kommunikatsiya, raqamli etikani saqlash kabi kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi didaktik nazoratni saqlagan holda, materialni yoshga mos va xavfsiz, bahs-munozaraga olib ketmaydigan tarbiyaviy mazmunda tashkil etishi lozim.

Nihoyat, usullar samaradorligi monitoring va refleksiya orqali baholanmasa, tarbiya ishlari epizodik tadbirlarga aylanib qolishi mumkin. Shu bois maktabda diagnostik yondashuv zarur: o‘quvchilarning mediasavodxonlik bo‘yicha boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlari (oddiy test va situatsion topshiriqlar), ijtimoiy faoliyatga qo‘shilish darajasi, intizom va hamkorlikdagi o‘zgarishlar, psixologik farovonlik indikatorlari (maktab psixologi kuzatuvlari) tahlil qilinadi. Rossiya pedagogika maktabida vatanparvarlik tarbiyasining tizimliligi, ijtimoiy tajriba va faoliyat orqali natija berishi ko‘p marotaba urg‘ulanadi; Novikova tarbiya tizimi shaxsni real munosabatlar va jamoa faoliyati orqali shakllantirishini ko‘rsatadi [5]. Mazkur g‘oya maktab amaliyotida “faoliyatga asoslangan tarbiya” prinsipini kuchaytiradi: o‘quvchi faqat tinglamaydi, balki bajarar ekan, ichki e’tiqod barqarorlashadi.

XULOSA

Zamonaviy geosiyosiy vaziyat va axborot xurujlari sharoitida maktab yoshlarida harbiy vatanparvarlikni singdirishning zamonaviy usullari besh asosga tayanishi lozim: (1) mediasavodxonlik va faktchekingni tarbiyaviy mazmun bilan uyg‘unlashtirish; (2) tanqidiy fikrlash va dalilga tayangan xulosa chiqarishni muntazam o‘rgatish; (3) psixologik barqarorlik va axborot gigiyenasini rivojlantirish; (4) maktab–oila–mahalla hamkorligida izchil tarbiya muhitini yaratish; (5) raqamli va interaktiv metodlar orqali o‘quvchini faol subyektga aylantirish. Ushbu yondashuvlar shioriy ta’sirdan ko‘ra barqarorroq natija berib, o‘quvchining fuqarolik mas’uliyatini, xavfsizlik madaniyatini va ijtimoiy yetukligini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO).** Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. — Paris: UNESCO, 2011. — 192 p.
2. **Ennis R. H.** Critical Thinking. — Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996. — 416 p.

3. **Twenge J. M.** iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy — and Completely Unprepared for Adulthood. — New York: Atria Books, 2017. — 352 p.
4. **Abdullaeva M.** Tarbiya nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2019. — 240 bet.
5. **Novikova L. I.** Vospitatelnaya sistema shkoly: problemy i poiski. — Moskva: Pedagogika, 1991. — 176 s.

KORPORATIV JINOYATCHILIK VA UNGA QARSHI KURASHISH: XORIJ VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi
Rustamova Dilbar Rustamovna
TDIU

Annotatsiya: *Maqolada korporativ jinoyatchilik tushunchasi va uning kelib chiqish sabablari hamda jamiyat va iqtisodiyotga ko'rsatadigan salbiy ta'siri tahlil qilingan. Maqolada korporativ jinoyatchilikning asosiy ko'rinishlari — mansab vakolatini suiiste'mol qilish, firibgarlik, o'zlashtirish, soxta bankrotlik va raqobatga qarshi harakatlar misollar orqali yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida korporativ jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslari Jinoyat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar misolida ko'rib chiqilgan. Xorijiy davlatlar, jumladan AQSh, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniya tajribasi asosida korporativ jinoyatchilikka qarshi samarali nazorat mexanizmlari tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholangan. Maqolada korporativ boshqaruvda shaffoflik, halollik va javobgarlik tamoyillarini*

mustahkamlash korporativ jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *korporativ jinoyatchilik, korporativ boshqaruv, mansab vakolatini suiiste’mol qilish, firibgarlik, soxta bankrotlik, ichki audit, shaffoflik, javobgarlik, xorijiy tajriba, Jinoyat kodeksi.*

Аннотация. *В статье анализируется понятие корпоративной преступности, причины её возникновения, а также негативное влияние на общество и экономику. Рассматриваются основные формы корпоративной преступности — злоупотребление должностными полномочиями, мошенничество, присвоение, фиктивное банкротство и антиконкурентные действия — с приведением практических примеров. Кроме того, изучены правовые основы противодействия корпоративной преступности в Республике Узбекистан на примере Уголовного кодекса и других нормативно-правовых актов. На основе опыта зарубежных государств, включая США, Европейский союз и Великобританию, проанализированы эффективные механизмы контроля и надзора за корпоративной преступностью, а также оценены возможности их применения в условиях Узбекистана. В статье обосновано, что укрепление принципов прозрачности, добросовестности и ответственности в корпоративном управлении является важнейшим фактором профилактики корпоративных преступлений.*

Ключевые слова: *корпоративная преступность, корпоративное управление, злоупотребление должностными полномочиями, мошенничество, фиктивное банкротство, внутренний аудит, прозрачность, ответственность, зарубежный опыт, Уголовный кодекс.*

Abstract. *This article analyzes the concept of corporate crime, its underlying causes, and its negative impact on society and the economy. The paper discusses the main forms of corporate crime—abuse of official authority, fraud, misappropriation, fictitious bankruptcy, and anti-competitive practices—through illustrative examples. It also examines the legal foundations for combating corporate crime in the Republic of Uzbekistan with reference to the Criminal Code and other regulatory legal acts.*

Drawing on the experience of foreign countries, including the United States, the European Union, and the United Kingdom, the study analyzes effective monitoring and control mechanisms and evaluates the possibilities of applying them in the Uzbek context. The article substantiates that strengthening the principles of transparency, integrity, and accountability in corporate governance is a crucial factor in preventing corporate crime.

Keywords: *corporate crime, corporate governance, abuse of authority, fraud, fictitious bankruptcy, internal audit, transparency, accountability, foreign experience, Criminal Code.*

KIRISH

Hozirgi zamonda yirik kompaniyalar, banklar va turli tashkilotlar jamiyat hayotida muhim o‘rin egallaydi. Ular ish o‘rinlari yaratadi, iqtisodiyot rivojiga hissa qo‘shadi va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ba’zida ko‘rishimiz mumkinki, ana shunday tashkilotlar tomonidan qonunbuzarliklar sodir etilmoqda. Bu holat korporativ jinoyatchilik deb ataladi. Misol sifatida, bank xodimlari tomonidan moliyaviy hujjatlarni soxtalashtirish yoki mijozlarning pullarini noqonuniy o‘zlashtirish holatlarini keltirish mumkin. Bu nafaqat moddiy zarar keltiradi, balki fuqarolarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchini ham kamaytiradi. Shuningdek, korxona rahbarining pora berish yoki olish orqali tenderlarni yutib olishi ham korporativ jinoyatchilikka kiradi. Bunday holatlar halol raqobatga putur yetkazadi va adolatsizlikni kuchaytiradi. Korporativ jinoyatlar ko‘pincha katta zarar keltiradi, chunki bunday jinoyatlar ommalashayotgan bo‘lib, ko‘plab odamlar manfaatiga salbiy ta’sir qilmoqda.

Korporativ jinoyatchilik deganda, asosan, tashkilotlar, kompaniyalar yoki yuridik shaxslar manfaatini ko‘zlab sodir etiladigan jinoyatlar tushuniladi. Bunday jinoyatlar ko‘pincha rahbarlar yoki mas’ul shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda “korporativ jinoyatchilik” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Tadbirkorlik va moliyaviy nazorat bo‘yicha iqtisodchi Jamoliddin

Qodirovning fikricha, kompaniyaning ichki audit tizimining to‘g‘ri olib borilmasligi va kompaniyaning moliyaviy hisobotlari oshkora qilinmasligi korporativ jinoyatga olib borishning asosi deb hisoblagan. Darhaqiqat, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bank va qurilish kompaniyalaridagi moliyaviy jinoyatlar ko‘pincha ichki nazoratning yaxshi olib borilmayotgani sabab sodir bo‘lgan. Shuning uchun ham, ichki audit tizimini mustahkamlash muhim. Bunga misol sifatida, Toshkent viloyatidagi ikki komapaniya buxgalteri o‘z kompaniya hisobidan 1,9 mlrd so‘mni shaxsiy plastik kartasiga o‘tkazib olgan. Bu holat bo‘yicha ham korporativ jinoyat qo‘zg‘atilgan. Bilamizki, agar bu ikkita buxgalteri ishi o‘z holida qolib hech kim xabarsiz bo‘lib, javobgarlikga tortilmaganda kompaniya ichki auditi yaxshi ishlamasligidan darak bergan bo‘lar edi.

Nobel mukofoti sovrindori iqtisodchi Joseph Stiglitz korporativ jinoyatchilikni shunday tariflaydiki, unda qachonki davlatda kompaniyalar ustidan nazoratsizlik bo‘lsa, davlat tomonidan qabul qilingan qonunlarga rioya qilmaslik jarayonlari yuz beradigan bo‘lsa, korporativ jinoyatchilik ochiqchasiga sodir etilgan deb hisoblanadi[72].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korporativ jinoyatchilik tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari va unga qarshi kurashish mexanizmlarini o‘rganishda umumilmiy va maxsus ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez metodlari orqali korporativ jinoyatchilikning nazariy asoslari hamda uning iqtisodiy va huquqiy oqibatlari o‘rganildi. Taqqoslash metodi yordamida O‘zbekiston Respublikasidagi korporativ jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi xorijiy davlatlar, xususan AQSh, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlatimizda korporativ jinoyatlarni tartibga solishda asosan Jinoyat kodeksi huquqiy manba hisoblanadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 205-moddasi mansab

[72] Stiglitz, J. *Globalization and Its Discontents*. New York: W.W. Norton & Company, 2002.

vakolatini suiiste'mol qilish tarkibini tashkil etadi, chunki u o'ziga berilgan vakolatdan korxona manfaatlariga zid ravishda, shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalangan. Bunday korporativ jinoyat korporativ boshqaruv prinsiplarini ya'ni shaffoflik, javobgarlik va adolatlilik prinsiplarini buzgan hisoblanadi. Masalan, davlat ulushi mavjud bo'lgan yirik korxona rahbari tender jarayonida g'olib bo'lgan kompaniyani tanlashda qonuniy mezonlarga amal qilmay, shaxsiy manfaatlarini ko'zlagan holda yaqin qarindoshlariga tegishli xususiy kompaniya bilan shartnoma tuzadi va natijada, bozor narxidan yuqori narxlarda xizmat ko'rsatadi va korxonaga sezilarli darajada zarar yetkazadi.

Tenderlar o'tkazayotgan paytda adolatlilik va shaffoflik prinspi ishlashi uchun albatta tashqaridan mustaqil a'zo jalb qilinsa, qonuniy mezonlarga amal qilgan holda baholanib, halollik bo'lardi. Shu jihatdan ba'zi korxona rahbarlariham o'z mansab vakolatini suiiste'mol qilish jaroyonlari yuz berishini oldi olinar edi.

Masalan, "Umid Avto Companies" MChJ rahbari A.Abdurahmanov va unga tegishli avtomobil lizing kompaniyalari boshqaruvchilari yirik firibgarlikda gumon qilinib hibgsga olingan. Ular mijozlaridan avtomobillarga to'lov olib ularni yetkazib bermagan va fuqarolarga moliyaviy zarar yetkazgan[73]. Bu holat Jinoyat kodeksining 168-moddasi firibgarlik doirasida korporativ jinoyat bo'lib rahbarning qasddan o'z manfaatini ko'zlab faoliyat yuritishi va komapniya obro'siga putur yetkazishi bilan ko'plab shaxslarningham huquqlarini buzgan. Shunga uxshash holat yana bir yuridik shaxsda qayd etilgan. Toshkent shahridagi "Allianse Motors" MCHJ rahbari fuqorolardan avtomobil olishlari uchun pul olgan va avtomobil berilmagan. Bu ish sudda ko'rilgan. Sud ishida 128 nafar jabrlangan shaxs va 46 millard so'mga yaqin zarar ko'rsatilgani ta'kidlangan[74]. Kompaniya xodimi kompaniya vakolatini suiiste'mol qilib kompaniya mablag'larini o'zlashtirishi Jinoyat kodeksining 169-moddasiga kiradi va uham korporativ jinoyatchilikning bir turidir.

[73] https://kun.uz/news/2025/01/08/umid-avto-rahbari-qamoqqa-olindi-u-juda-kop-miqdordagi-firibgarlikda-gumonlanmoqda
[74] https://www.uzdaily.uz/en/criminal-case-initiated-against-alliance-motors-car-dealership/

Jinoyat kodeksining 179 va 180-moddalariga ko‘ra, soxta tadbirkorlik va soxta bankrotlik bilan bog‘liq holatlar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining Davlat Soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘ngi yillarda 3 500 ta korxona soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash maqsadida o‘zini bankrot deb e’lon qilgan[75]. Ko‘pchilik xo‘jalik subyektlari to‘lovga qodir bo‘la turib, moliyaviy holatini o‘zgartirib ko‘rsatadi. Bankrotlikni e’lon qilish orqali kreditorlar va davlat manffatlariga zarar yetkazishni jinoyat sifatida belgilaydi. 2020-yilda “Elektrtarmoqqurilish” AJ ning kreditorlari bo‘lgan “Тяговые механизмы и оборудование” MChj, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, kapital bank, Apex Insurance, Optik Aloqa qurilish bo’lgan. Jami qarzi 149 mlrd so‘mni tashkil qilgan[76]. To‘lovga layoqatsiz deb topilib bankrotlik e’lon qilinadi. Bu kompaniyaning ishi sudda ko’rilganda yana imkon berish maqsadida sanatsiya jarayoni bo‘lgan lekin kompaniya foydaga emas tobora zararga kirganligi sababli, kreditorlari tomonidan bankrot deb e’lon qilishni so‘ragan. Shuni ko‘rishimiz mumkinki, sud jarayonida oshkora qilinmagani bilan bu yerda kreditorlardan tashqari soliq va byudjetdan qarzlariham to‘lamaslik uchun bankrotlikga olib borgan bo‘lishi ham mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining 19-moddasi bo‘yicha raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar qat’iyan taqiqlangan. Bunga rioya qilmagan holda “HUNARMAND” MChJga nisbatan qonun buzilishi aniqlanib, bu holat bo‘yicha sud tartibida ish qo‘zg‘atilgan. Bu misol shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston ham raqobatni himoya qilish va kompaniyalar o‘rtasidagi sog‘lom raqobatni ta’minlash uchun qonuniy choralarni qo‘llaydi.

AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Yaponiya kabi mamlakatlarda korporativ jinoyatchilik ancha qat’iy nazorat qilinadi. Masalan, AQShda kompaniyalar moliyaviy hisobotlarni ochiq va aniq yuritishi shart. Agar yolg‘on ma’lumot berilsa yoki investorlar aldanilsa, kompaniyaga katta miqdorda jarima solinadi, rahbarlar esa jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Buyuk Britaniyada esa Bribery Act 2010 korporativ jinoyatchilikka qarshi asosiy qonun hisoblanadi.

[75] https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/16/bankruptcy/
[76] https://www.uzdaily.uz/en/criminal-case-opened-in-tashkent-against-tax-inspector-for-bribery/

Ushbu qonunning 7-moddasida kompaniya o‘z xodimlari tomonidan poraxo‘rlik sodir etilishining oldini olmagan bo‘lsa, o‘zi ham javobgar bo‘lishi belgilangan. Bu norma korporatsiyalarni ichki nazorat va halollik tizimini kuchaytirishga majbur qiladi.

Yevropa mamlakatlarida esa ekologik qoidabuzarliklarga alohida e’tibor berilib, tabiatga zarar yetkazgan korporatsiyalar jiddiy jazolanadi. Masalan, 2014/95/EU direktivasi kompaniyalardan ekologiya, ijtimoiy mas’uliyat va korrupsiyaga qarshi choralar bo‘yicha ochiq hisobot berishni talab qiladi. Shuningdek, Atrof-muhit jinoyatlari to‘g‘risidagi 2008/99/EC direktivasi tabiatga zarar yetkazgan korporatsiyalarni jinoiy javobgarlikka tortishni belgilaydi. 2015-yilda Germaniyaning Volkswagen avtomobil kompaniyasi qonunni buzganligi aniqlangan[77]. Kompaniya dizel avtomobillariga maxsus yolg‘on dastur o‘rnatib, tekshiruv vaqtida mashina kam zararli gaz chiqarayotgandek ko‘rsatgan, aslida esa ko‘chada yurganda atrof-muhitni kuchli ifloslantirgan. Natijada, Volkswagen 2015–2017-yillar oralig‘ida Yevropa davlatlarida sud qarorlari asosida 502 million yevro miqdorida jarima to‘lashga majbur bo‘lgan. Kompaniya shuningdek avtomobillarni qayta chaqirib olish va ekologik talablarga moslashtirish majburiyatini ham olgan.

AQShda korporativ jinoyatchilikka qarshi kurashishda Sarbanes–Oxley Act (2002) muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonunning 302-moddasiga ko‘ra, kompaniya rahbarlari moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligiga shaxsan javobgar hisoblanadi. 906-moddada esa ataylab noto‘g‘ri moliyaviy hisobot bergan rahbarlarga jarima va ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Bundan tashqari, Foreign Corrupt Practices Act (1977) qonunining anti-poraxo‘rlik bo‘yicha moddalarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berish qat’iyan taqiqlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, korporativ jinoyatchilik bugungi kunda iqtisodiyot va korporativ boshqaruv tizimi uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Bunday jinoyatlar aksariyat hollarda yirik kompaniyalar va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida uchrab,

[77] DW. *VW CEO under pressure as stock crashes*. 2015.

nafaqat alohida shaxslar, balki jamiyat va davlat manfaatlariga ham zarar yetkazadi. Shu sababli korporativ jinoyatchilikka qarshi kurash masalasi alohida e’tibor talab qiladi. O‘zbekiston qonunchiligida korporativ jinoyatchilik tushunchasi bevosita qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, Jinoyat kodeksida belgilangan mansab vakolatini suiiste’mol qilish, o‘zlashtirish, firibgarlik, soxta bankrotlik va soliqlardan bo‘yin tovlash kabi normalar orqali bu turdagi jinoyatlarga huquqiy baho beriladi. Amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, korporativ jinoyatlar ko‘pincha rahbarlar va mas’ul shaxslarning o‘z vakolatlaridan noto‘g‘ri foydalanishi natijasida yuzaga keladi. Korporativ jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish uchun faqat jazolash choralariga tayanib qolmaslik kerak. Eng muhimi, kompaniyalarda halollik, ochiqlik va mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash zarur. Ana shundagina korporativ jinoyatlar kamayib, sog‘lom va barqaror biznes muhiti shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O‘zbekiston Respublikasi.** “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun // O‘zbekiston Respublikasi Qonunlar to‘plami. – 2020.
2. **O‘zbekiston Respublikasi.** Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adliya, 2023.
3. **O‘zbekiston Respublikasi.** “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun // O‘zbekiston Respublikasi Qonunlar to‘plami. – 2020.
4. **O‘zbekiston Respublikasi.** “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2012.
5. **Cressey D. R.** Other People’s Money: A Study in the Social Psychology of Embezzlement. – New York: Free Press, 1953.
6. **Stiglitz J.** Globalization and Its Discontents. – New York: W. W. Norton & Company, 2002.

7. **Gazeta.uz.** O‘zbekiston kompaniyalarining soxta bankrotlik va soliq bo‘yicha holatlari. – 2021. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/16/bankruptcy/
8. **Uzdaily.uz.** Soliqdan bo‘yin tovlash bo‘yicha jinoyat ishi ochildi. – 2025. – URL: https://www.uzdaily.uz/en/criminal-case-opened-in-tashkent-against-tax-inspector-for-bribery/
9. **OECD.** Corporate Governance and Corruption Prevention. – Paris: OECD Publishing, 2019.
10. **Transparency International.** Corruption in Corporate Sector: Global Trends and Practices. – Berlin, 2020.

TURIZMDA ONLAYN XIZMATLAR:MIJOZLAR BILAN ISHLASH JARAYONLARINI TASNIFLASH

Murodulloyev Mironshoh
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turizmdagi onlayn xizmatlarning turlari, ularni tasniflash yondashuvi keltirilgan. Mamlakatimizda turizm sohasining hozirgi rivojlanishida onlayn xizmatlarning xususiyatlari, roli va ahamiyati aniqlangan. Muallif bugungi zamonaviy, innovatsion iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlari sohasining O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida tutgan o‘rnini o‘rganishlar asosida tahlil qilingan. Maqolada Internet xizmatlari ommabopligining asosiy ko‘rsatkichlari taqdim etilgan va tahlil qilingan: shu orqali ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yoritib berilgan. Unda turizm sohasidagi mutaxassislar, zamonaviy axborot texnologiyalari sayohatchilar uchun sayohatga tayyorgarlikni*

soddalashtirishi, uni osonroq va qulayroq qilishi ilmiy nuqtai-nazardan izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: *Internet xizmatlari, turizm, O'zbekiston iqtisodiyoti, axborot texnologiyalari, onlayn xizmatlar, tasniflash.*

Abstract: *This article presents the types of online services in tourism and an approach to their classification. It identifies the characteristics, role, and significance of online services in the current development of the tourism industry in our country. Based on the research conducted, the author analyzes the role of the tourism services sector in the national economy of Uzbekistan in the context of a modern, innovative economy. The article presents and analyzes the main indicators of the popularity of online services, emphasizing their effectiveness. From a scientific perspective, it explains how tourism specialists and modern information technologies simplify traveler preparation for trips, making it easier and more convenient.*

Key words: *Internet services, tourism, economy of Uzbekistan, information technology, online services, classification.*

Аннотация: *В данной статье представлены виды онлайн-сервисов в туризме, подход к их классификации. Определены характеристики, роль и значение онлайн-сервисов в современном развитии туристической индустрии в нашей стране. На основе проведенного исследования автор проанализировал место сектора туристических услуг в национальной экономике Узбекистана в условиях современной инновационной экономики. В статье представлены и проанализированы основные показатели популярности интернет-сервисов, при этом подчеркивается эффективность их использования. С научной точки зрения объясняется, что специалисты в области туризма и современные информационные технологии упрощают подготовку к поездкам для путешественников, делают ее проще и удобнее.*

Ключевые слова: *интернет-услуги, туризм, экономика Узбекистана, информационные технологии, онлайн-сервисы, классификация.*

Kirish. Turizm xizmatlari sohasi jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, siyosiy va boshqa munosabatlarni qamrab oluvchi tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda internet-texnologiyalar va telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi bilan aholining sayyohlik mahsulotlarini onlayn va uyda qulay holda xarid qilish imkonini beruvchi onlayn turizm xizmatlariga qiziqish ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Sayohatingizni tez va qulay rejalashtirish imkonini beruvchi ushbu mahsulotlarga quyidagilar kiradi: aviachiptalarni bron qilish va sotib olish, mehmonxona xonalari, ekskursiyalar yoki paketli turlarni bron qilish, turlar, kruizlar va hokazo. Tasniflash tizimini ishlab chiqish orqali mualliflar turizmda onlayn xizmatlarni ommalashtirishga hissa qo'shadilar va raqamlashtirish va raqamli transformatsiya sur'atini hisobga olgan holda, ular ushbu sohadagi ilmiy taraqqiyotga ham hissa qo'shadilar, bu esa raqamli texnologiyalarning moslashuv jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirishga bevosita hissa qo'shadi.

Ushbu tadqiqotning muammosi, turizmda internet xizmatlarini tasniflashda tizimli bilimlarning yo'qligi, masalaning ilmiy rivojlanish darajasi va turizmda internet xizmatlaridan foydalanishning amaliy jihatlariga oid ikkita qarama-qarshilikdan kelib chiqadi:

- Birinchisi, bir tomondan, internet xizmatlari soni va xilma-xilligining tez o'sishi, raqamli iqtisodiyot sharoitida ularni turizmda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish, ikkinchi tomondan, undan samaraliroq foydalanish imkonini beradigan ilmiy va uslubiy asoslarning yetarlicha rivojlanmaganligi;

- Ikkinchi qarama-qarshilik - internetda sayohat va turizmga bag'ishlangan sahifalar va xizmatlar haqida ma'lumotlarning haddan tashqari ko'pligi va tashrif buyuruvchilar/foydalanuvchilarning internet xizmatlarining mazmuni va faoliyati haqida past xabardorligi. Ushbu tadqiqotning maqsadi quyidagi maqsadlarni hal qilish orqali onlayn turizm xizmatlari uchun tasniflash tizimini ishlab chiqishdir:

- "Onlayn xizmatlar" atamasining hozirgi ma'nosini aniqlash;

- Zamonaviy onlayn turizm xizmatlarini ko'rib chiqish;

- Turizmda onlayn xizmatlarning xususiyatlari va turlarini aniqlash;

- Zamonaviy onlayn turizm xizmatlarini guruhlash;

- Onlayn turizm xizmatlarining mashhurligini tahlil qilish.

Turizm hozirgi vaqtda iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sektori bo‘lib, bu uning rivojlanish jarayonlariga ko‘proq e’tibor qaratishni talab qiladi.

Shu bilan birga, turizm sanoatining hozirgi rivojlanish sharoitida, texnologiya va internet rivojlanayotgan davrda onlayn turizm sanoatini rivojlantirishga talab ortib bormoqda, shuningdek, mijozlarning bank kartalari va elektron tizimlardan foydalanish, onlayn xaridlar va internet xizmatlaridan foydalanish madaniyati o‘sib bormoqda.

Asosiy qism. Onlayn turizm xizmatlaridan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri sayohatlarni rejalashtirish va tashkil qilish qobiliyati ekanligini ta’kidlash kerak. Jamiyat va iqtisodiyotning turli sohalarining raqamli makonga bosqichma-bosqich o‘tishini kuzatish va E.V. Vishnevskaya[78] va boshqa bir qator mutaxassislarning ishlariga tayanib, raqamli texnologiyalar kelajak shaharlarida madaniy va turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishiga aylanib borayotganini ta’kidlash kerak. Bu jarayonning natijasi, boshqa narsalar qatori, sayohatlarni tashkil etishning shakllanishi va jarayoni bilan bog‘liq zamonaviy istiqbolli turizm variantlarini ishlab chiqishdir. O.E. Pudovkina va S.V. Sharoxinaning fikriga ko‘ra, onlayn xizmatlar asta-sekin turizm takliflarini yaratish uchun kuchli marketing vositasiga aylanib bormoqda[79].

Ushbu xizmatlar mustaqil sayohat rejalashtirish va tashkil etishni ta’minlaydi, ishni sezilarli darajada soddalashtiradi va vaqtni tejaydi.

Onlayn xizmat, albatta, internet texnologiyalari bilan jihozlangan veb-saytni o‘z ichiga oladi. Onlayn turizm xizmatlarining texnologik to‘plami dasturlash tillari, freymvorklar, ma’lumotlar bazalari, operatsion tizimlar, aloqa tizimlari va turli

[78] Вишневская Е.В. Влияние цифровых технологий на развитие туристского рынка // Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса. – 2019. – № 4. – с. 12-24. – doi: 10.18413/2408-9346-2019-5-4-0-2

[79] Pudovkina O.E. (2019). *Sovremennye trendy formirovaniya industrii turizma v electron-noy srede kak drayver razvitiya Rossiyskoy ekonomiki* [Modern trends of the tourism industry in the electronic environment as a driver of development of the Russian economy]. *Vestnik Universiteta*. (11). 89-96. (in Russian).

xizmatlar (CRM, 1C, SMS xabarlar, push-bildirishnomalar) bilan integratsiyani o‘z ichiga oladi.

“Internet xizmati”, “internet texnologiyalari” va “veb-sayt” tushunchalari uzluksiz ravishda o‘zaro bog‘liq bo‘lib, asosiy funktsiyaga ega bo‘lgan alohida, ixcham xizmat ko‘rinishida yagona mahsulotni tashkil qiladi. Keling, batafsilroq ko‘rib chiqaylik:

- Turizmdagi onlayn xizmatlar - bu sayohatni tashkil qilish va rejalashtirish bilan bog'liq muayyan muammolarni hal qiladigan individual resurslar;

- Internet texnologiyalari - bu axborot resurslarini (veb-saytlar, bloglar, chatlar va boshqalar) yaratish va saqlash texnologiyalari;

- Veb-sayt - bu bitta mavzu bilan birlashtirilgan veb-sahifa.

Sayohat xizmatlari boshqa veb-saytlardan soddaligi va minimalizmi, jumladan, asosiy funktsiyasi bilan ham farq qiladi. Onlayn sayohat xizmatlarida ustuvor vazifa interaktiv onlayn mijozlarni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘llab-quvvatlanadigan interaktiv tur savdo veb-saytlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlashdir.

Bugungi sharoitda onlayn turizm xizmatlarining xilma-xilligi yuqori darajadagi dinamizm bilan tavsiflanadi, bu bir tomondan, jamiyat va iqtisodiyotdagi raqamli transformatsiya jarayonlari bilan,

ikkinchi tomondan, turizm xizmatlariga bo‘lgan talab bilan bog‘liq bir qator omillar bilan bog‘liq (iste’molchi/sayyoh va internet foydalanuvchilarining talablari dinamik ravishda o‘zgarib bormoqda, turizmga bo‘lgan talabning ortib borayotgan farqlanishi). Shu munosabat bilan va ularni qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash uchun turizmda zamonaviy onlayn xizmatlarning mashhurligini o‘rganish zarur.

Turizm sohasidagi eng mashhur onlayn xizmatlarning trafik va konversiya tahlili



Taqdim etilgan ko‘rsatkichlar mahalliy bozorni hisobga olgan holda hisoblab chiqiladi, shu bilan trafik va mijozlarning javobi o‘rtasida o‘ziga xos bog‘liqlik yaratiladi, bu onlayn xizmatlarning samaradorligi va rentabelligi ko‘rsatkichi bo‘lgan konversiya darajasi (CR) shaklida aniqroq ifodalanadi. Trafik natijalarini tahlil qilish bizga Booking barcha davlat fuqarolari orasida tanlashda mutlaq yetakchi ekanligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Booking AQSh, Osiyo va Rossiyada qo‘llaniladi, bu ham xizmatning mashhurligini belgilovchi ko‘rsatkichlardan biridir. Bookingdan tashqari, yuqori trafik va javob berish darajasi bilan ajralib turadigan eng mashhur beshta xizmat qatoriga Airbnb, Agoda va Couchsurfing kiradi. Ushbu xizmatlar turar joyni bron qilish sanoatida eng mashhur hisoblanadi. Maqsadli geografik qamrov asosan AQSh, Rossiya, Osiyo va ba’zi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kabi mamlakatlardan iborat bo‘lib, bu juda asosli, chunki UNWTOning uzoq muddatli prognoziga ko‘ra, bu mamlakatlar eng mashhur sayyohlik yo‘nalishlari hisoblanadi.

Aviasales eng mashhur chiptalarni bron qilish va sotish xizmatlaridan biridir [5]. Avval taqdim etilgan tasnifga ko'ra, ushbu xizmat Rossiyadagi eng yaxshi 8 ta aviachiptalarni sotish xizmatlari qatoriga kiradi [32]. 44% konversiya darajasiga asoslanib, u yuqori trafik va tez o'sib borayotgan javob berish darajasiga ega eng muvaffaqiyatli va daromadli xizmatlardan biri degan xulosaga kelish mumkin. Uning geografik qamrovi Osiyo, Yevropa, AQSh va Rossiya mamlakatlarini o‘z ichiga oladi.

Ko‘rib turganimizdek, eng mashhur xizmatlar asosan mehmonxonalarni bron qilish, aviachiptalar va turlarni yaratish va sotib olish uchun individual xizmatlardir.

Biroq, onlayn sayohat bozori aniqroq muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan boshqa ko‘plab qiziqarli va foydali xizmatlarni taklif etadi. Bularga quyidagilar kiradi: Kassir, Go.Euro,Economybookings.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, internet texnologiyalari turizm biznes jarayonlari va mijozlarning xatti-harakatlarini tubdan o‘zgartirdi. Har yili turizm sohasidagi ko‘plab jarayonlarni qulaylik bilan ta‘minlash va yaxshilash uchun mo‘ljallangan tobora ko‘proq onlayn xizmatlar paydo bo‘lmoqda. Ushbu xizmatlarning mashhurligi mijozlar bazasining kengayishi tufayli o'sishda davom etmoqda, bu trafik va mijozlarning javob berish darajasida aks etadi. Onlayn xizmatlarning tobora ommalashib borayotgan tendentsiyalaridan biri bu bron qilishdan sayohatgacha bo‘lgan vaqtni qisqartirish va smartfonlar orqali amalga oshirilgan bron qilish ulushining ortishi. Turizmdagi onlayn xizmatlar raqamli sotsializatsiyaning ajralmas qismi bo‘lganligi sababli, ularning mashhurligi yangi istiqbollar va imkoniyatlarni qulay kashf etish bilan bog‘liq.

Har yili jahon turizm iqtisodiyoti trillionlab dollar daromad keltiradi: sayyohlar yangi yo‘nalishlarni kashf etadi, oldin yoqtirgan joylariga esa qayta-qayta boradi. UN Tourism ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda xalqaro turizmdan tushgan daromad 1,74 trillion dollarga etdi. bu 2019 yildagi (pandemiyadan oldingi) ko‘rsatkichdan 14 foiz yuqori[80].

AQSH ishonchli tarzda etakchilik qilmoqda — xalqaro sayyohlardan 215 milliard dollar daromad olgan. Reytingning yuqori qismida Yevropaning ustunligi ko‘rinadi: Ispaniya (106,5 mlrd dollar), Buyuk Britaniya (82,5 mlrd), Fransiya (77 mlrd) va Italiya (58,7 mlrd) barqaror ravishda ulkan turistik oqimni jalb qiladi. Turizmdan tushadigan daromad faqat keluvchilar soniga emas, balki har bir sayyoh

[80] Интернет-сервис для заказа авиабилетов и отелей. [Электронный ресурс]. URL: https://www.aviasales.ru (дата обращения: 22.04.2020).

qancha sarflashiga ham bog‘liq. Masalan, AQSHga keluvchi turistlar oqimi katta bo‘lishi bilan birga, har bir tashrifchi hisobiga o‘rtacha xarajat ham yuqori.

Shu bilan birga, Maldiv orollari yoki Yamayka kabi mamlakatlarda umumiy (absolyut) tushumlar miqdori kichikroq bo‘lishi mumkin, ammo ular uchun turizm yalpi ichki mahsulot (yaim)da ancha katta ulushni tashkil etadi.

Yevropada turizmda boy madaniy meros, yuqori tezlikdagi transport tarmog‘ining rivojlangani va yirik bozorlarga yaqinlik muhim o‘rin tutadi. Hozir Fransiyani ham ortda qoldirayotgan Iispaniya sayyohlar uchun juda keng taassurotlar spektrini taklif qiladi — jahon darajasidagi plyajlar va orol arxipelaglaridan tortib, tarixiy shaharlar, gastronomiya va madaniy yodgorliklargacha.

Xulosa. Turizmda onlayn xizmatlarining joriy qilinganligi natijasi o‘laroq mamlakatga yil davomida va dunyoning turli hududlaridan turistlarni jalb qilish imkonini beradi. Natijada, 2024 yilda Ispaniya Yevropa ittifoqidagi eng ko‘p tashrif buyurilgan mamlakatga aylandi.

O‘zbekistonda ham turizm sohasi tez o‘smoqda. 2025 yil davomida O‘zbekistonga 11,7 milliondan ziyod xorijiy turist keldi, bu bir yil avvalgiga nisbatan sezilarli o‘sishni ko‘rsatadi.Yanvar–noyabr oylarida 10,7 million turist tashrif buyurgani ma'lum qilindi, bu mamlakat tarixidagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ellik foizdan ortgan turistlar asosan Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Tojikistondan, shuningdek Rossiyadan tashrif buyurgan.

2025 yilning birinchi 9 oyida turistlar soni 2024 yilga nisbatan tez o‘sdi, bu mintaqada eng yuqori sur'atlardan biri sanaladi. O‘zbekiston 2025 yilda dunyoda sayyohlar oqimi bo‘yicha eng tez o‘sib borayotgan manzillardan biri sifatida jahon turizm tashkiloti (UN Tourism) ma’lumotlarida qayd etildi.

Turizm tarmog‘ining o‘sishiga vizasiz va elektron viza rejimi kengaytirilishi, xalqaro havo yo‘llari va transport infratuzilmasining rivojlanishi katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston hukumati O‘zbekiston –2030 strategiyasi doirasida 15 million turist va 5 milliard dollar turizm xizmatlari eksportini jalb qilish maqsadlarini belgilagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Вишневская Е. В.** Влияние цифровых технологий на развитие туристского рынка // *Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса*. — 2019. — № 4. — 12–24 с. — doi: 10.18413/2408-9346-2019-5-4-0-2.
2. **Pudovkina O. E.** Sovremennye trendy formirovaniya industrii turizma v elektronnoj srede kak drayver razvitiya Rossiyskoy ekonomiki // *Vestnik Universiteta*. — 2019. — № 11. — 89–96 s.
3. Интернет-сервис для заказа авиабилетов и отелей [Электронный ресурс]. — URL: https://www.aviasales.ru (дата обращения: 22.04.2020).
4. **Tashkentov M.** Turizm va raqamli texnologiyalar: yangi davr talablariga javob // **O‘zbekiston Turizm Assotsiatsiyasi**. — 2022.
5. **Isroilov E.** Mobil ilovalar va sayohat: turizmda raqamli transformatsiya // **O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi**. — 2022.

O‘ZBEK TILIDA O‘QITISHDA SUN’IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Musayeva Aziza Ibrohim qizi

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda*

adaptiv o‘qitish, intellektual baholash tizimlari, chat-botlar, profil tahlili va bashorat qilish kabi sun’iy intellektga asoslangan yondashuvlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri yoritilgan.

Ka’lit so‘zlar: *sun’iy intellekt, AIED, tillarga o‘qitish, adaptiv ta’lim, intellektual baholash, chat-bot, ta’lim texnologiyalari.*

Abstrsct. *This article analyzes the possibilities of using artificial intelligence technologies in teaching the Uzbek language. The study examines the impact of AI-based approaches such as adaptive learning, intelligent assessment systems, chatbots, learner profiling, and predictive analytics on educational effectiveness.*

Keywords: *artificial intelligence, AIED, language teaching, adaptive learning, intelligent assessment, chatbots, educational technologies.*

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности применения технологий искусственного интеллекта в процессе обучения узбекскому языку. Анализируются основные направления AIED (Artificial Intelligence in Education), включая адаптивное обучение, интеллектуальные системы оценивания, чат-боты, анализ профиля обучающихся и прогнозирование учебных результатов.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, AIED, обучение языков, адаптивное обучение, интеллектуальное оценивание, чат-боты, образовательные технологии.*

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘qitish jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. AI (Artificial Intelligence) — ya’ni sun’iy intellekt — o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, individual yondashuvni shakllantirish hamda o‘quvchilarning bilimini aniq baholash imkonini beruvchi ilg‘or yo‘nalishdir [1-4].

Jahon miqyosidagi tadqiqotlarga ko‘ra, SI asosidagi ta’lim tizimlari o‘quvchilarning natijalarini o‘rtacha 30–60 foizgacha yaxshilaydi va ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida, xususan, o‘zbek

tili fanini o‘qitishda ham sun’iy intellekt imkoniyatlarini joriy etish o‘qituvchi faoliyatini yengillashtirish, dars jarayonini individuallashtirish hamda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [5-7]. Quyida AIED (Artificial Intelligence in Education) bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar asosida, o‘zbek tili o‘qitishiga moslashtirilgan nazariy va amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi asosiy yo‘nalishlari:

AIED bo‘yicha olib borilgan 2 223 dan ortiq ilmiy tadqiqotlar tahlili (Donthu va boshq., 2021; Snyder, 2019) natijasida to‘rtta asosiy yo‘nalish ajratilgan:

1. Adaptiv o‘qitish va shaxsiylashtirilgan ta’lim – o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlariga mos tarzda kontentni tanlash va tahlil qilish.

2. Intellektual baholash va boshqaruv tizimlari – avtomatik tahlil, sinov va reyting tizimlarini yaratish.

3. Profil tahlili va bashorat qilish – o‘quvchining faoliyatini kuzatib, natijalarni oldindan aniqlash va muammoli o‘quvchilarni erta aniqlash.

4. Yangi mahsulotlar va texnologiyalar – chat-botlar, ta’lim robotlari, virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) vositalari orqali o‘qitish.

O‘zbek tili fanida bu yo‘nalishlar turlicha qo‘llanilishi mumkin. Masalan, AI yordamida talaffuzni aniqlash, avtomatik diktant tekshirish, so‘z boyligini tahlil qilish, yoki o‘quvchining grammatik xatolarini real vaqt rejimida aniqlash kabi vazifalar amalga oshiriladi.

1. O‘zbek tilini o‘qitishda SI texnologiyalarining qo‘llanish imkoniyatlari haqida gap ketar ekan adaptiv o‘qitish tizimlariga qisqacha to‘xtalib o‘tish joiz. O‘quvchining bilimi va o‘rganish tezligiga qarab mashqlarni avtomatik moslashtiruvchi tizimlar “aqlli repetitor” rolini bajaradi. Masalan, ChatGPT yoki Khanmigo kabi tizimlardan foydalanib, o‘quvchiga murakkabligi oshib boruvchi mashqlarni taklif etish mumkin. O‘zbek tilini o‘rganayotgan talaba uchun bu tizim quyidagicha ishlashi mumkin:

-dastlabki bosqichda sodda gap tuzish mashqlari;

-keyinchalik murakkab sintaktik konstruktsiyalarni tuzish;

-yakunda matn tahlili va ijodiy yozma ishlarni avtomatik baholash.

Bu jarayon o‘qituvchiga har bir o‘quvchi bilan individual ishlash imkonini beradi.

2. Intellektual baholash tizimlari ham bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. AI asosidagi baholash tizimlari o‘quvchilarning yozma va og‘zaki javoblarini avtomatik tahlil qiladi [8]. Masalan, iFlyTek (2024) kompaniyasi ishlab chiqqan tizimlar Xitoyda milliy imtihonlarni baholashda ishlatilmoqda. O‘zbek tili imtihonlari uchun shunday tizimlarni ishlab chiqish natijasida:

a) insho yoki bayonlarni semantik tahlil asosida baholash;

b) talaffuzdagi xatolarni aniqlash;

v) grammatik tahlil asosida aniq ball berish mumkin bo‘ladi.

3. Profil tahlili va bashorat. AI o‘quvchilarning faoliyatini kuzatib, ularning qaysi bo‘limlarda qiynalayotganini aniqlaydi. Masalan, tizim “fe’l zamonlari” mavzusida ko‘p xato qilgan o‘quvchiga shu bo‘lim bo‘yicha qo‘shimcha mashqlar taklif etadi. Bu usul “individual ta’lim yo‘nalishi”ni shakllantirishga yordam beradi.

3.1. Chat-botlar va o‘quv robotlari.

O‘zbek tili o‘qitish jarayonida chat-botlardan foydalanish til o‘rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. Masalan:

-chat-bot bilan muloqotda bo‘lib, o‘quvchi o‘z so‘z boyligini oshiradi;

-robotik yordamchilar (masalan, Pepper yoki Nao) orqali talaffuzni takrorlash mashqlari bajariladi;

-“til o‘rganish o‘yinlari” orqali bolalarda motivatsiya oshadi.

3.2. AIED tadqiqotlarida nazariy asoslar. AIED bo‘yicha 125 ta empirik maqolani tahlil qilgan tadqiqotchilar quyidagi asosiy nazariyalarni eng ko‘p qo‘llanilgan deb qayd etishgan:

✓ konstruktivizm nazariyasi – o‘quvchi bilimni faol ravishda o‘zi quradi, AI esa bu jarayonda vositachi rolini bajaradi.

✓ o‘rganish uslublari nazariyasi (Fleming, Kolb, Felder modellariga ko‘ra) – o‘quvchilarning vizual, eshitish yoki kinestetik xususiyatlariga mos kontent tanlash.

✓ kognitiv nazariya – o‘rganish jarayonida xotira, e’tibor va fikrlash mexanizmlarini tushuntiradi.

✓ item Response Theory – o‘quvchining bilimi va topshiriq murakkabligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni modellashtiradi.

Bu nazariyalar o‘zbek tili o‘qitishida ham qo‘llanishi mumkin. Masalan, konstruktivistik yondashuv asosida o‘quvchi matn yaratadi, AI esa tahlil qilib, grammatik va stilistik tavsiyalar beradi.

4. Tadqiqot metodlari va ularning amaliy ahamiyati. AIED sohasidagi tadqiqotlarning 37 foizi eksperimental metodga asoslangan. Shuningdek:

a. 22 foizi statistik tahlil (mashinaviy o‘rganish modellarini sinovdan o‘tkazish),

b. 12 foizi so‘rovnoma (AI tizimlaridan foydalanishdagi munosabat va qoniqish),

v. 10 foizi tavsifiy tahlil (misollar orqali),

g. 9 foizi sifatli tadqiqot (intervyu, kuzatuv),

d. 8 foizi aralash metodlardan foydalangan.

O‘zbek tili o‘qitishda ham eksperimentlar o‘tkazish mumkin: masalan, bir guruhda AI yordamida o‘qitish, ikkinchisida esa an’anaviy usulda o‘qitish orqali natijalarni solishtirish.

Amaliy takliflar. AI asosidagi o‘zbek tili o‘qitish platformasini yaratish:

– o‘quvchining darajasini aniqlovchi diagnostik test;

– individual mashqlar generatori;

– avtomatik yozma tahlil moduli (xato turlari bo‘yicha tahlil).

Talaffuzni tahlil qiluvchi tizim:

– o‘quvchi nutqini audio orqali tahlil qilib, fonetik xatolarni ko‘rsatish.

Chat-bot asosida o‘qitish:

– til o‘rganish uchun suhbatli mashq dasturlari (masalan, “O‘zbek tilini AI bilan o‘rganamiz” bot).

AI yordamida o‘qituvchilar uchun yordamchi vosita:

– mashg‘ulotlarni rejalashtirish, test yaratish, yoki talaba ishlarini tez tahlil qilish.

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatini to‘ldiruvchi kuchli vosita sifatida tobora ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, adaptiv o‘qitish, intellektual baholash, chat-botlar va VR/AR texnologiyalari o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O‘zbek tili o‘qitishda AI texnologiyalarini joriy etish orqali:

-o‘quvchilarning individual qobiliyatlariga mos o‘qitish tizimi yaratiladi;

-baholash jarayoni shaffof va tezkor bo‘ladi;

-o‘qituvchi yuklamasi kamayadi, tahliliy faoliyat kuchayadi.

Kelajakda O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun muhim vazifalardan biri — mahalliy sharoitga mos, o‘zbek tilida ishlovchi sun’iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlarini ishlab chiqishdir. Bu nafaqat dars jarayonini soddalashtiradi, balki o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini – tanqidiy fikrlash, mustaqil o‘rganish va ijodkorlikni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **García P., Amandi A., Schiaffino S., Campo M.** Evaluating Bayesian networks’ precision for detecting students’ learning styles // Computers & Education. — 2007. — Vol. 49. — No. 3. — P. 794–808.
2. **Chou C.-Y., Chan T.-W., Lin C.-J.** Redefining the learning companion: The past, present, and future of educational agents // Computers & Education. — 2003. — Vol. 40. — No. 3. — P. 255–269.
3. **Santos D. P. d., Giese D., Brodehl S., Chon S. H., Staab W., Kleinert R., Maintz D., Baeßler B.** Medical students' attitude towards artificial intelligence: A multicentre survey // European Radiology. — 2019. — Vol. 29. — P. 1640–1646.
4. **Мусаева А. И.** Об использовании манги при обучении японскому языку // Тезисы докладов 53-й международной научно-технической конференции преподавателей и студентов. — 2020. — С. 22–24.

5. **Musayeva A. I.** Yapon tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar // — 2025. — P. 213–215.
(Nashr nomi ko‘rsatilmagani sababli qisman rasmiylashtirildi.)
6. **Musayeva A. I.** Yapon tilini o‘qitishda nazariy tadqiqotlar // — 2025. — P. 210–212.
(Nashr nomi ko‘rsatilmagani sababli qisman rasmiylashtirildi.)
7. **Мусаева А.** The lacking digitalization of education systems and the persistence of traditional classes in modern education // Наука и инновации. — 2024. — Т. 1. — № 1. — С. 98–99.
8. **Luckin R., Cukurova M.** Designing educational technologies in the age of AI: A learning sciences driven approach // British Journal of Educational Technology. — 2019. — Vol. 50. — No. 6. — P. 2824–2838.

TERI SARATONINI DAVOLASHGA MO’LJALLANGAN KATARKANS GELI TARKIBINI O`RGANISH

Djalilova N.R.
Nazirova Y.K.
O`zR SSV Farmatsevtika tarmog`ini rivojlantirish agentligi huzuridagi O`zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. *FZ-202007215 qayd raqamli «Catharantus roseus o‘simligi xom ashyosi asosida saratonga qarshi dori vositalarining sanoat texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida olingan Katarkans substantsiya yuqori saratonga qarshi faollikka ega ekanligi aniqlangani bois uning asosida teri saratoniga qarshi gel tarkibi ishlab chiqish maqsad qilindi. Farmakologik tadqiqotlar natijasida faol doza belgilanib, substantsiya fizik-kimyoviy xususiyatlari*

hisobga olingan holda gel tarkibi ishlab chiqildi va sifati o`rganilib, ijobiy natijalar olindi.

Kalit so‘zlar*:teri saratoni, indol alkaloidlari, substantsiya, Katarkans, gel,texnologiya*

Аннотация. *В рамках прикладного проекта с регистрационным номером FZ-202007215 на тему «Разработка промышленной технологии противоопухолевых лекарственных средств на основе растительного сырья Catharanthus roseus» было установлено, что субстанция «Катарканс» обладает высокой противораковой активностью, в связи с чем была поставлена цель разработать на её основе гелевую форму для лечения рака кожи. По результатам фармакологических исследований была определена эффективная доза, с учётом физико-химических свойств субстанции разработан состав геля, изучено его качество и получены положительные результаты.*

Ключевые слова: *рак кожи, индольные алкалоиды, субстанция, Катарканс, гель, технология.*

Abstract. *Within the applied project registered under FZ-202007215 entitled “Development of Industrial Technology for Anticancer Drugs Based on the Plant Raw Material Catharanthus roseus,” the substance Katarkans was found to exhibit high anticancer activity; therefore, the development of a gel formulation for the treatment of skin cancer based on this substance was proposed. Pharmacological studies determined the effective dose, and taking into account the physicochemical properties of the substance, a gel composition was developed, its quality was evaluated, and positive results were obtained.*

Keywords: *skin cancer, indole alkaloids, substance, Katarkans, gel, technology.*

Kirish

Dunyoda xavfli o’sma kasalligi aholi orasida keng tarqalib borayotgan kasalliklardan hisoblanadi. Kasallikni davolashning ko’plab yangi usullari va

vositalari ishlab chiqilayotgan bo'lsada, sitotoksik preparatlar bilan kimyoviy davolash ushbu kasallikni davolashning asosiy qismi bo'lib qolmoqda. Shuning uchun xavfli o'sma kasalliklariga qarshi kurashishda odam organizmiga nojo'ya ta'siri kam bo'lgan, yuqori samarali ta'sirga ega dori vositalarini yaratish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. O'sma kasalligini davolashda odatda jarrohlik, kimyoterapiya va radioterapiya usullari keng qo'llaniladi. Hozirda o'sma kasalligini davolashning turli usul va vositalari taklif qilinayotgan bo'lsada, kimyoterapiya ushbu kasallikni davolashda asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Aksariyat xollarda terapevtik samaradorlikni oshirish maqsadida kimyoterapiya preparatlari boshqa preparatlar yoki jarrohlik, radioterapiya kabi usullar bilan birga kombinatsiyalashtirilgan xolda qo'llaniladi.

Teri saratonini davolashda indol alkaloidlari samarali ta'sir ko'rsatishi adabiyotlardan ma'lum. Tadqiqotlarimiz sirtga qo'llashga mo'ljallangan gelь dori shaklini indol alkaloidlari asosida olingan Katarkans substantsiyasi asosida olishga bag'ishlangan**.**

Adabiyotlar tahlili

Saraton kasalligi bo'yicha xalqaro tadqiqotlar agentligining (IARC) ma'lumotlariga ko'ra, har yili 12 milliondan ortiq insonga ushbu kasallik tashxisi qo'yiladi. Har yili 8 millionga yaqin odam saraton kasalligidan vafot etadi. Shu bilan birga, Yevropa mintaqasida kasallanish taxminan 30% va o'limning 20% dan ko'prog'i sodir bo'ladi. 2012 yilda Yevropaning 40 mamlakatida, shu jumladan Rossiya va boshqa Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan mamlakatlarda 3,45 million yangi saraton kasalligi qayd etilgan. IMS MIDAS ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilda jahon miqyosidagi onkologik dori-darmon bozori (shu jumladan palliativ yordam vositalari) ishlab chiqaruvchilar narxlarida chegirmalar va chegirmalarsiz 91 milliard dollarni tashkil etdi, ya'ni farmatsevtika bozorining 9,3 foizidan ortig'ini tashkil etdi. Ulardan 68 milliard dollari yetakchi 7 mamlakatga to'g'ri keladi: AQSh (40 foizdan ko'prog'i), Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Germaniya, Frantsiya va Yaponiya va 11 milliard dollar farmatsevtika bozorlari rivojlanayotgan davlatlar: Xitoy, Braziliya, Rossiya, Xindiston, Meksika, Turkiya, Venesuella, Polьsha,

Argentina, BAA, Indoneziya, Kolumbiya, Tailand, Ukraina, Janubiy Afrika, Misr, Ruminiya, Aljir, Vьetnam, Pokiston va Nigeriya tashkil etadi. Biroq, so'nggi 5 yil ichida onkopreparatlarni ishlab chiqarish sur'ati sekinlashdi. Aholini yuqori samaradorlikka ega bo'lgan, bezarar va arzon dori vositalari bilan ta'minlash bugungi kunda zamonaviy tibbiyotning o'ta muhim, ajralmas qismi bo'lib, unda turli xil kasalliklarni oldini olish va ularni davolashda 90% dan ortiq holatlarda farmakoterapevtik usullardan foydalaniladi.

2018 yilda chop etilgan prof. A.Abzalov va b.lar muallifligidagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi "darsligi (222b.)da keltirilgan Catharantus roseus dorivor o'simligini mahalliy sharoitda introduktsiyasi va dorivor xom ashyo tarkibidagi vinkaalkaloidlarini suv, etil spirti (50%dan kam bo'lmagan) va sirka kislotasi asosida olingan ekstraktlaridagi miqdori maksimal darajada qayd etilganligi, ekstragent tarkibidagi barqarorligi natijalariga asoslangan holda kelgusida samarali dori vositalari olinishi imkoni mavjudligi kuzatildi. Vinka alkaloidlarining ta'sir mexanizmi ularning tubulinni bog'lash qobiliyatiga bog'liq. Barcha hujayralar sitoplazmasida joylashgan ushbu protein hujayra skeletini saqlab turishda va mitoz omilining shakllanishida muhim rolь o'ynaydi, sababi mitoz paytida xromosomalar ko'chib yuradilar. Bunda vinka alkaloidlari hujayralar bo'linishi paytida mitotik omilning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi va mitoz metafazadagi hujayralarni bloklaydi.

Teri o'smalarining eng keng tarqalgan belgisi yangi o'smalar yoki bitmaydigan yaralarning paydo bo'lishidir. Xavfli teri o'smalari turli yo'llar bilan namoyon bo'lishi mumkin. Teri saratoni kichik, silliq, yaltiroq, och rangli o'sma yoki aksincha, yorqin qizil dog' sifatida boshlanishi mumkin. Ba'zi hollarda, bu o'smalar qon ketishi yoki qobiq bilan





qoplanishi mumkin. Odatda, teri saratoni dastlabki bosqichlarida og'riqsizdir. Bazal hujayrali va yassi hujayrali karsinomalar ko'pincha quyosh nuri tushadigan joylarda - bosh, yuz, bo'yin, qo'llar va oyoqlarda rivojlanadi, ammo tananing boshqa qismlarida ham paydo bo'lishi mumkin. Melanoma belgilari pigmentli dog'larning (tug'ilish belgilari) hajmi, shakli va rangidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Oddiy pigmentli dog'lar jigarrang, sarg'ish yoki qora rangda bo'ladi. Ular yuzaki yoki biroz ko'tarilgan, yumaloq yoki oval shaklida bo'lishi mumkin. Odatda, normal pigmentli dog'lar kichik, hajmi 5-6 mm dan oshmaydi. Pigmentli dog'lar tug'ma bo'lishi yoki keyinchalik, odatda hayotning dastlabki 10 yilida paydo bo'lishi mumkin. Keksa odamlarda ko'pgina yosh dog'lari yo'qoladi.

Tadqiqot metodikasi

Oxirgi yillarda o'simlik xom ashyosidan olingan dori preparatlari tibbiyotda qo'llanilishi ommavaylashib bormoqda. Chunki o'simlik xom ashyosida saqlanadigan ba'zi ta'sir etuvchi moddalar uchun ularni toza xolda ajratib olish usullari ishlab chiqilmaganligi shu sababli kimyoviy strukturasi to'liq aniqlanmaganligi, va sintez yo'li bilan olish mumkin emasligi bilan tushuntirish mumkin. O'simliklar tarkibidagi biofaol moddalar odam organizmi uchun eng ma'qul dori vositasi bo'lib xisoblanadi, inson organizmida ular deyarli yig'ilmaydi, kumulyativ xususiyatini namoyon qilmaydi. O'simlik xom ashyolaridan olingan dorilar ayniqsa maxalliy xom ashyodan iqtisodiy jixatdan samarali va qimmat bo'lmaydi. Katarkans substantsiyasi uchun tlovar belgisi olingan bo’lib, uning fizik-kimyoviy xusus iyatlari asosida gelь namunalarini tayyorlash texnologiyalari, ya’ni asos hosil qiluvchilarning bo’kish xususiyati, eruvchanligi va asoslarning boshqa xususiyatlarini adabiyotlarda keltirlgan ma’lumotlar asosida tajribalarda o’rganib ishlab chiqildi. Tayyorlangan gellar jihozlanishi tartibiga ko’ra burama qopqoqli shisha bankalarga solinib, salqin va qorong’u joyga 15 kun davomida saqlanishi kuzatildi.

Yordamchi moddalar sifatida MTs, Na KMTs , jelatin, aerosil, karbopol kabi struktura hosil qiluvchilar , turg’unlashtiruvchilar sifatida salitsil kislotasi, sorbin kislotasi, nipagin, ksilitol va plastifikator sifatida glitserindan foydalanildi. Ta’sir

etuvchi substantsiya farmakologlar xulosasi bo'yicha 0,01 g dan 100 g struktura hosil qiluvchi tarkibiga quyidagi bosqichlar ketma-ketligida kiritildi: bo'ktirish→eritish→aralashtirish→gomogenizatsiya.

Natijalar

Ishlab chiqilgan tarkiblar 10 kun davomida sifat ko'rsatkichlar bo'yicha baholanib, quyidagi tarkib tanlandi:

Katarkans 0,1% geli tarkibi:

Katarkans - 0,1 g

Karbopol - 1,5 g

(CP, BP, USP, EurPh)

Glitserin - 5, 0 g

(TU 2483-166-05757587-2000 USP, EurPh)

Ksilitol -0,005g

Tozalangan suv - 86 ml

FS 42-Uz-2087-2005g

0,1 M ishqor eritmasi -kerakli miqdorda

(DF XIV)



1-rasm. Katarkans geli texnologik sxemasi

Ma’lumki gellarni turili materalli tubalarga qadoqlanadi. Ma’lumki tadqiqotlarda PVP bilan qoplangan alyuminiy tubalardan foydalanildi. Bunda foydalanish vaqtida gellarning tuba kanalalaridan siqib chiqarilishini ta’minlash muhim bo’lib hisoblanadi. Ko’pincha ushbu jaraenga gellarning kontsentratsiyasini xam o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shuning uchun biz quyidagi tajaribalarini olib borishni lozim topdildi. Tajribalar “Reotest-2” asbobida olib borildi(2-rasm) .

Katarkans gelning texnologiyasi ishlab chiqish



2-rasm. Tubalardan gelni siqib chiqarilishini bosim ta’sirida o’rganish asbobi.

1 – tuba;

2 – tubadan siqib chiqaruvchi sterjenь yuzasi (S);

3 – sterjenь yuzasi orqali beriladigan bosim kuchi;

4 – gelning chiqish kanali;

5 – siqib chiqarilgan gel.



3 – расм. 0,01% ли Катарканс гели (С) сиқиб чиқарилишига босимнинг (Р) таъсири.

Muhokama

Teri saratoniga qarshi gel asosi sifatida 4 xil asosdan foydalanildi. Olingan gellarni sifati 10 kun davomida organoleptik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha MTH asosida (GOST-29189-91) baholandi. Bunda tashqi ko‘rinishi, rangi, kolloid turg‘unligi, termoturg‘unligi, suvli eritmasining pH ko‘rsatkichi va surtiluvchanligi o‘rganildi. Kolloid turg‘unlikni sentrifugalash usulida olib borildi. Bunda sentrifugalash 1500 ayl/daq. 5 daqiqa davomida kuzatildi. Termoturg‘unlikni past va baland haroratlarda olib borildi. Gellarni muzlatgichda -16°Sda 24 soat

ushlandi. So‘ngra probirkalar termostatda 40-42°S haroratda 6 soat davomida saqlandi. Ikkala xolda ham qavatlanmagan gelni sifatli deb topildi. pH ko‘rsatkichi potensimetrik usulda aniqlandi. Bunda 5,0 gr. gel 50-60°S tozalangan suvda eritildi va elektrodlar ko‘rsatkichi kuzatildi. Natijalar asosida karbopol asosida tayyorlangan gel sifati bo‘yicha talabga javob berdi va keyingi ishlarni shu gel tarkibi bilan davom ettirildi. Katarkans gel tarkibi organoleptik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari baholandi, ya’ni uning tashqi ko‘rinishi, rangi, kolloid turg‘unligi, termoturg‘unligi, suvli eritmasining pH ko‘rsatkichi va surtiluvchanligi o‘rganildi. O‘rganilgan ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat Farmakopeyasi va MTH talablariga javob berdi.

3–rasmda keltirilgan tajriba natijariga ko’ra gel solingan tubalarga bosim kuchi ostida gelning siqib chiqarilishi o’rganildi. Buning uchun tayyorlangan gelь tubalariga 1 kPa dan toki tubadan gelь siqib chiqarilgunga qadar bosim oshirib borildi. Bunda bosim kuchi 44 kPaga yetganda tuba kanalidan gelni chiqishi kuzatildi, Olingan natijalarga binoan eng kam bosim kuchi sarflangan gelning kontsentratsiyasi maqbul ekanligi aniqlandi. Bu esa yuqorida olib borligan tajriba natijalarini yana bir marta to’g’ri ekanligini isbotladi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida teri saratoni profilaktikasi va davrolanishida samarali Katarkans geli optimal tarkibi tanlandi va mo’tadil texnologiyasi ishlab chiqildi. Tanlab olingan gel tashqi ko’rinishi, bir xilligi, pH ko’rsatkichi, kolloid va termik turg’unligi bo’yicha MTH talablariga javob berishi aniqlandi. Tarkibida konservant sifatida ksilotol saqlagan gelь eng turg’un bo’lib chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Анурова М.Н., Бахрушина Е.О., Кречетов С.П.** Изучение влияния состава комбинированной матрицы на реологические характеристики экспериментальных образцов пероральных гелей нимесулида //

Разработка и регистрация лекарственных средств. – 2016. – № 4(17). – С. 46–52.

2. **Бахрушина Е.О., Барнолицкий Г.Г., Кречетов С.П.** Обоснование реологических оптимумов при разработке мягких лекарственных форм на гидрофильной основе. Стоматологические гели // Разработка и регистрация лекарственных средств. – 2017. – № 2(19). – С. 58–62.
3. **Ўзбекистон Республикаси Давлат Фармакопеяси.** Биринчи нашр. III жилд, 1-қисм. – Тошкент, 2023. – 1052 б.
4. **Ўзбекистон Республикаси Давлат Фармакопеяси.** Биринчи нашр. III жилд, 2-қисм. – Тошкент, 2023. – 1050 б.

O‘ZBEKISTONDA O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIM TIZIMIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI (2017–2021-YILLAR)

Ne’matov Shoxzodbek Ulug‘bek o‘g‘li

Sarbon universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimida xalqaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishi, xalqaro tashkilotlar bilan amalga oshirilgan shartnomalar, xalqaro grantlar hamda dasturlarning tahlili yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *World Skills dasturi, soft skills, Yunesko, Pearson Education Limited, SustainableSkills, Yevropa ta’lim fondi, Osiyo taraqqiyot banki, zamonaviy modullar.*

Abstract. *This article examines the development of international cooperation ties within the secondary specialized and vocational education system of the*

Republic of Uzbekistan. It provides an analysis of the agreements implemented with international organizations, as well as international grants and programs.

Keywords: *WorldSkills program, soft skills, UNESCO, Pearson Education Limited, SustainableSkills, European Training Foundation, Asian Development Bank, modern modules.*

Аннотация. *В данной статье освещается развитие международных связей сотрудничества в системе среднего специального и профессионального образования Республики Узбекистан. Представлен анализ договоров, реализуемых с международными организациями, а также международных грантов и программ.*

Ключевые слова: *программа WorldSkills, soft skills, ЮНЕСКО, Pearson Education Limited, SustainableSkills, Европейский фонд образования, Азиатский банк развития, современные модули.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da mehnat bozorining real ehtiyojlari asosida malakali kadrlar tayyorlash, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari o‘quvchilarini ish beruvchilarning talablariga mos yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlash va ish bilan ta’minlash borasida vazifalar ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasida 2017–2021-yillarda o‘rta maxsus, kasb-xunar tizimini rivojlantirish maqsadida YUNESKO, Shvetsariya, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Yevropa ta’lim fondi, Osiyo taraqqiyot banki, Britaniya kengashi, Turkiya agentligi (TIKA), Koreya Respublikasi ta’lim markazi, Xitoyning CCN universitetlari kabi qator xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, kam ta’minlangan oilalarning ishsiz a’zolarini professional ta’lim tizimiga va tadbirkorlikka jalb qilishning yangi mexanizmlari va o‘quv jarayoniga “soft skills”, “World Skills” kabi zamonaviy modullar joriy qilindi. Bu esa yoshlarni ta’lim olish imkoniyatlarini yahshilanishiga turtki bo‘ldi.

Asosiy qism. BMT Taraqqiyot dasturi O‘zbekistonda “WorldSkills International” harakatini rivojlantirishda strategik hamkor hisoblanadi. “WorldSkills International” butun dunyo bo‘ylab kasbiy ta’lim, kasb malakasi

maqomini va standartlarini oshirishni va butun dunyo bo‘ylab xalqaro musobaqalar o‘tkazish orqali ishchi kasblarni ommalashtirishni maqsad qilgan xalqaro notijorat assotsiatsiya hisoblanadi. Yoshlarni kasbga o‘qitishning zamonaviy tizimini rivojlantirish maqsadida “World Skills International” harakatiga qo‘shilish bo‘yicha hukumat qarori[81] qabul qilindi. Ushbu assotsiatsiya bilan hamkorlikda bir nechta qo‘shma loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, 2019-yilning 15-17-dekabr kunlari Toshkent shahrida “WorldSkills” standartlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining birinchi ochiq milliy chempionati bo‘lib o‘tdi[82]. Mazkur chempionatga 150 dan ortiq xorijiy ishtirokchilar va ekspertlar ishtirok etib, 2 ta yo‘nalish bo‘yicha (qurilish ishlari va sartaroshlik) O‘zbekistonlik yoshlar birinchi o‘rinni egallashdi. Chempionatni tashkil etishda “Yosh mutaxassislar (WorldSkills Russia)” uyushmasi, Qozog‘iston va Qirg‘iziston vakillari faol ishtirok etishdi. Uning o‘tkazilishi esa O‘zbekistonning “WorldSkills International” xalqaro assotsiatsiyasiga kirishi yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. 2020-yilning 18-yanvar kuni O‘zbekiston “WorldSkills International” xalqaro assotsiatsiyasiga 83-a’zosiga aylandi.

Rivojlangan xalqaro ta’lim standartlari bo‘yicha kasb-hunar ta’lim tizimining mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorini ishlab chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni[83] qabul qilindi. Ushbu farmonga asosan, yangi, o‘ziga xos professional ta’lim tizimi joriy qilinishi belgilandi. Ushbu tizimni xalqaro standartlar asosida tashkil etish maqsadida 14 ta xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribalari ko‘rib chiqildi. Bu borada Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Shvetsariya, davlatlari hamda YUNESKO, “Britaniya kengashi”, “Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati”, “Osiyo taraqqiyot

[81] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 394-sonli qarori. https://lex.uz/ru/docs/-4334806 (Murojaat qilingan sana: 29-noyabr 2024-yil).

[82] Worldskills Uzbekistan harakatining rasmiy veb sayti. https://worldskills.uz/oz/pages/general-information.

[83] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g’risida”gi PF-5812-son farmoni. https://www.lex.uz/uz/docs/-4500926 (Murojaat qilingan sana: 29-noyabr 2024-yil).

banki", "Yevropa ta'lim fondi", "Turkiya hamkorlik agentligi", "Xitoyning Universitetlar uyushmasi" kabi qator xorijiy davlat va tashkilotlardan 214 nafar tajribali xalqaro ekspertlardan tahlil natijalari olindi[84]. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida, Shvetsariyaning "Kasb ko'nikmalarini rivojlantirish", Britaniya kengashining "Bandlikni ta'minlash bo'yicha kasb ko'nikmalari", Osiyo taraqqiyot banki, GIZning "Markaziy Osiyoda kasb-xunar ta'limi", Yevropa ta'lim fondi, YTFning "Turin jarayoni", Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, YUNESKOning "Akt ko'nikmalarini rivojlantirish" loyihasi, Yevropa ta'lim fondi, Turkiya agentligi (TIKA), Koreya Respublikasi ta'lim markazi, Xitoyning CCN universitetlari kabi qator xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi[85]. Shuningdek, kasb-xunar maktablari uchun Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 3-iyundagi 313-buyrug'i bilan "Boshlang'ich professional ta'limda o'qitiladigan 140 ta kasblarning malaka talablari" va "Boshlang'ich professional ta'limda o'qitiladigan umumta'lim fan dasturlari ro'yxati (29 ta) va ularning o'quv soatlari miqdori" joriy qilindi[86].

Xorijiy grantlarni jalb etish va shartnoma asosida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xalqaro xamkorlik amalga oshirildi. Jumladan: Germaniya xalqaro xamkorlik jamiyati (GIZ), "Sparkassensttiftung" Germaniya xalqaro hamkorlik fondi, Britaniyaning "Pearson Education Limited" ta'lim, nashr va baholash xizmati, Shvetsariyaning "SustainableSkills", YUNESKO kabi oliy ta'lim muassasalari hamda loyiha doirasidagi tashkilotlar bilan imzolangan hamkorlik shartnomalari asosida professional ta'lim tizimini takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi[87].

Shuningdek, "WorldSkills Russia" ittifoqi hamda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda O'zbekistonda "WorldSkills" harakatini rivojlantirish, kasbiy

[84] Xolmuhhamedov M. O'zbekistonda ilk bor: uzluksiz professional ta'lim tizimi. "Ma'rifat" gazetasi 18.09.2019
[85] Ne'matov Sh.U. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining takomillashtirilishi 2017–2021-yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. -Toshkent, 2025., 91-b.
[86] Nosirov A. O'quv dasturlari uzviyligini ta'minlash — ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. "Ma'rifat" gazetasi.14.09.2020.
[87] Шойқулов Б. Профессионал таълим-натижалар ва режалар. Ўзбекистонда-Профессионал таълим- журнали, -2023 йил, 1-сон, -25 б.

malakani baholash maqsadida 14 ta yo‘nalish bo‘yicha (mehmonxona ma’murchiligi, mobil robototexnika, sartaroshlik, oshpazlik, restoran hizmati, santexnika va isitish tizimi, payvandlash, qurilish va suvoq ishlari, moda texnologiyalari, elektromontaj, kosmetologiya, biznes uchun dasturiy yechimlar, bo‘yoqchi, qandolatchi) 79 nafar milliy ekspertlar tayinlandi[88]. Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazida mazkur 14 ta yo‘nalish bo‘yicha “WorldSkills” standartlari asosida 169 nafar ishsizlar kasbga o‘qitildi. Bundan tashqari, 2021-yil may oyidan boshlab “WorldSkills” metodologiyasiga muvofiq kasbiy bilim va ko‘nikmalarni baholash tizimi joriy etilib, ushbu tizim metodikasi bo‘yicha 229 ta fuqaro kasbiy malakasi baholandi va “SkillsPassport” berildi. Rossiyaning 8 ta shaharlarida (Moskva, Sankt-Peterburg, Yekaterinburg, Kazan, Novosibirsk, Krasnoyarsk, Tomsk, Chelyabinsk) 2020-yildan O‘zbekistonlik mehnat migrantlarini “WorldSkills” standartlari asosida o‘qitish loyihasi amalga oshirildi. (2020-yilda 500 dan ortiq fuqaro, 2021-yilda 2 mingta)[89].

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, xalqaro mehnat bozori talablari va raqobatbardosh o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarni tayyorlash maqsadida kasb-xunar ta’limi tizimida xalqaro standartlarga mos yangi professional ta’lim tizimi joriy etildi. Mavjud ish o‘rinlarining asosiy qismida professional ta’lim muassasalarida bitiruvchilarga beriladigan malaka darajalarining talab etilishi yoshlar orasida mazkur ta’lim muassasalarida o‘qish istagini kuchaytirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi «Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 394-sonli qarori [Elektron resurs]. — Kirish rejimi: https://lex.uz/ru/docs/-4334806

[88] https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-world-skillskadrlar-malakasini-oshirishning-yangi-ufqlari.
[89] Ne’matov Sh.U. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining takomillashtirilishi 2017–2021-yillar). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. -Toshkent, 2025., 100-b.

2. **WorldSkills Uzbekistan** harakatining rasmiy veb sayti [Elektron resurs]. — Kirish rejimi: https://worldskills.uz/oz/pages/general-information
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi «Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-5812-son farmoni [Elektron resurs]. — Kirish rejimi: https://www.lex.uz/uz/docs/-4500926
4. **Xolmuhhamedov M.** O‘zbekistonda ilk bor: uzluksiz professional ta’lim tizimi // **Ma’rifat gazetasi**. — 18.09.2019.
5. **Ne’matov Sh. U.** O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining takomillashtirilishi (2017–2021-yillar): tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. — Toshkent, 2025. — 91 b.
6. **Nosirov A.** O‘quv dasturlari uzviyligini ta’minlash — ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi // Ma’rifat gazetasi. — 14.09.2020.
7. **Шойқулов Б.** Профессионал таълим — натижалар ва режалар // Ўзбекистонда — Профессионал таълим журнали. — 2023 й. — № 1. — 25 б.
8. O‘zbekistonda WorldSkills: kadrlar malakasini oshirishning yangi ufqlari [Elektron resurs]. — Kirish rejimi: https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-world-skillskadrlar-malakasini-oshirishning-yangi-ufqlari
9. **Ne’matov Sh. U.** O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining takomillashtirilishi (2017–2021-yillar): tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. — Toshkent, 2025. — 100 b.

HARBIY XIZMATCHILAR VA ULARNING OILA A’ZOLARI BILAN IJTIMOIY ISHNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

Negmatova Farangiza Boboxon qizi

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi

Annotatsiya*: Mazkur annotatsiyada harbiy xizmatchilar oilalari bilan olib boriladigan ijtimoiy ish jarayonida kommunikatsiyaning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari, doimiy stress, uzoq muddatli xizmat safarlari va psixologik bosim harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy-psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday sharoitda ijtimoiy ish mutaxassisining samarali muloqot olib borish, empatiya, ishonchli aloqa o‘rnatish va muammolarni aniqlash ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Annotatsiyada kommunikativ kompetensiya, oilaviy muammolarni hal etishda muloqot strategiyalari hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimidagi kommunikatsiyaning roli tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar *: Harbiy xizmatchilar oilalari, ijtimoiy ish, kommunikatsiya, ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash, empatiya, muloqot madaniyati, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuv.*

Аннотация*: В данной аннотации освещается роль и важность коммуникации в процессе социальной работы с семьями военнослужащих. Специфические условия военной службы, постоянный стресс, длительные командировки и психологическое давление напрямую влияют на социально-психологическое состояние семей военнослужащих. В таких условиях навыки социального работника в эффективной коммуникации, эмпатии, установлении надежного контакта и выявлении проблем приобретают большое значение. В аннотации анализируются коммуникативная компетентность, коммуникативные стратегии в решении семейных проблем и роль коммуникации в системе социальной поддержки.*

Ключевые слова*: Военные семьи, социальная работа, коммуникация, социально-психологическая поддержка, эмпатия, культура общения, коммуникативная компетентность, социальная адаптация.*

Annotation: *This annotation highlights the role and importance of communication in the process of social work with families of military personnel. The*

specific conditions of military service, constant stress, long-term business trips and psychological pressure directly affect the socio-psychological state of military personnel's families. In such conditions, the skills of a social worker to conduct effective communication, empathy, establish reliable contact and identify problems are of great importance. The annotation analyzes communicative competence, communication strategies in solving family problems, and the role of communication in the social support system.

Keywords: *Military families, social work, communication, socio-psychological support, empathy, culture of communication, communicative competence, social adaptation.*

Dunyoda mamlakat mudofaasining asosiy ko’rsatgichi haqiqiy vatanparvar,ma’nan yetuk,tajribali va bilimini Vatanga baxshida etuvchi avlodni shakllantirish,harbiy sohani to’g’ri shakllantirish harbiy sanoatning to‘g‘ri strategiyasi, zamonaviy qurol va texnikalar ishlab chiqarish bilan izohlanadi. Shuning uchun hozirgi sharoitda barcha mamlakatlar harbiy sohani rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqrishga katta e’tibor qaratmoqda.O’zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgandan so’ng harbiy ijtimoiy ishni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish,shuningdek ijtimoiy ximoya sohasi yanada rivojlanib bormoqda.Shuni inobatga olgan holda harbiy xizmatchilar oila a’zolarni ijtimoiy ximoya qilish dolzarb muammolardan biri bo’lib kelmoqda. Harbiy xizmatchilar oilalari jamiyatning alohida ijtimoiy guruhini tashkil etadi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari (uzoq muddatli xizmat safari, xavfli vazifalar, doimiy ko‘chish, intizomiy talablar) oila a’zolarining ruhiy, ijtimoiy va maishiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ular bilan olib boriladigan ijtimoiy ishda samarali kommunikatsiya muhim ahamiyatga ega.

Bir qarashda harbiy xizmatchilar normal ijtimoiy sharoitda. Faoliyatining mohiyatiga ko'ra, ushbu faoliyatga mos keladigan shaxsiy fazilatlar to'plami ularni aholining zaif qatlamlari deb tasniflash mumkin emas. Qoida tariqasida, bular o'rta yoshdagi odamlar bo'lib, ular eng maqbul deb hisoblanadi, ularning sog'lig'i ehtiyotkorlik bilan professional nazorat ostida va nihoyat, eng hurmatli ijtimoiy

institutlardan biri bo'lgan Qurolli Kuchlar vakillari yuqori ijtimoiy maqomga ega. , ularning moliyaviy ahvoli juda barqaror. Lekin, aslida, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli harbiy xizmatchilarga maosh to‘lash kechikmoqda, moddiy-texnika ta’minoti tizimi parchalanmoqda, texnika va qurol-yarog‘lar eskirib bormoqda, sobiq mafkuraviy tizim va ma’naviy qadriyatlarning yemirilishi, boshqa qadriyatlarning yo‘qligi. Bu ko'plab harbiy xizmatchilarning ma'naviy va psixologik inqirozi, harbiy xizmatning obro'sining pasayishi, ommaviy chaqiruvdan qochish, harbiy xizmatchilarning o'z hayotining barqarorligiga, kelajagiga ishonchsizligining sababidir.Ijtimoiy ish texnologiyasi nafaqat xizmatdagi harbiylar bilan, balki harbiy xizmatdan bo'shatilgan fuqarolar bilan ham ishlashni o'z ichiga oladi. Harbiy xizmatchilarni moslashtirish uchun turli xil ijtimoiy-psixologik yordam modellaridan foydalanish kerak. Harbiy xizmatchilar bilan ishlashda turli yondashuvlarni birlashtirish va inqirozli vaziyatdan chiqishning eng yaxshi yo'llarini topish kerak. Ijtimoiy ishda umumiy yondashuvlardan biri, barcha modellar elementlarining bu kombinatsiyasi hayotiy voqea yondashuvi bo'ladi. Harbiy xizmatchining hayot yo'lini tahlil qilish ijtimoiy ishning boshqa har qanday modeli bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin, bu ijobiy natija berishi va ushbu toifadagi odamlarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirishi mumkin.

Ijtimoiy himoya – keng ma’noda, mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui, tor ma’noda, davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minlanmagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minlash, aholi qatlamlarining ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minlashga yordam berishdan iborat.

Ma’lumki, Qurolli Kuchlarni izchil isloh qilish davomida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni tubdan yaxshilash, bu tizimni zamonaviy talab va standartlarga mos ravishda takomillashtirish bo‘yicha

samarali, mazmuniga ko‘ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 23 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida shunday ta’kidlaydi: “Harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta’minlash, ularning ijtimoiy-maishiy, yashash va xizmatni o‘tash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlarini amalga oshirish alohida ahamiyatga molik vazifa bo‘lib qolmoqda. O‘z hayotini ushbu sharafli kasbga bag‘ishlagan har bir harbiy xizmatchi yaxshi bilishi shart, ya’ni uning muammolari e’tiborsiz qolmaydi va oilasining tinchligi va farovonligi ishonchli ravishda kafolatlangan” .

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi islohotlar bo‘yicha qabul qilingan qonunlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan imzolangan qator farmon va qarorlar harbiy xizmatchilarni davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinishini kafolatlaydi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilariga uzoq muddatli ipoteka kreditlaridan foydalangan holda kvartiralar sotib olish va yakka tartibdagi uy-joylar qurish uchun yer uchastkalari ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarorini o‘z hayotini Vatanni himoya qilishdek buyuk ishga bag‘ishlagan harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoyalash, shuningdek, uy-joy va sotsial-maishiy sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan ezgu ishlarning mantiqiy davomi sifatida e’tirof etish mumkin. Shu bilan birga harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini normal hayot kechirishini ta’minlovchi zarur sharoitlar va shaxsiy tarkibning xavfsizligini ta’minlovchi zamonaviy talablar va standartlarga javob beruvchi harbiy shaharcha va turar joylarning istiqbolli loyihalari ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda, ayniqsa, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni mustahkamlash, ular uchun zarur uy-joy va maishiy sharoitlarni yaratishga muhim ahamiyat berildi. Faqat keyingi besh yilda barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning oylik maoshi o‘rtacha uch karra oshgani, muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy

xizmatchilarning oylik maoshlari va harbiy xizmatdan bo‘shaganda to‘lanadigan yordam puli miqdori esa sakkiz barobar o‘sgani ham shundan dalolat beradi. Shuningdek, qo‘shinlarning har bir turi va xili uchun yozgi va qishki libosning zamonaviy namunalari, tog‘ va cho‘l sharoitlarida hamda mamlakatimizning barcha mintaqalaridagi iqlim sharoitlarida sinovdan o‘tkazilgan tegishli aslaha-anjomlar yaratildi.

Harbiy xizmatchilar oilalari jamiyatning alohida ijtimoiy guruhini tashkil etadi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari (uzoq muddatli xizmat safari, xavfli vazifalar, doimiy ko‘chish, intizomiy talablar) oila a’zolarining ruhiy, ijtimoiy va maishiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ular bilan olib boriladigan ijtimoiy ishda samarali kommunikatsiya muhim ahamiyatga ega.

Harbiy xizmat - Ukraina Qurolli Kuchlarida, boshqa qo'shinlarda fuqarolarning davlat xizmatining alohida turi: chegara qo'shinlari; ichki qo'shinlar; harbiy qo'mondonlik va boshqaruv bilan aloqani ta'minlovchi hukumat aloqa qo'shinlari; Ukraina temir yo'l qo'shinlari; fuqarolik mudofaasi qo'shinlari, xorijiy razvedka idoralari va federal davlat xavfsizlik idoralari. Harbiy xizmatni o'tayotganlar uchun harbiy xizmatchilarning tarkibi belgilanadi: askarlar va dengizchilar; serjantlar va brigadirlar; praporsharlar va miçmanlar; shuningdek ofitserlar: kichik, katta, yuqori. Harbiy xizmatchining maqomi, moddiy ahvoli, bilvosita - salomatlik holati, oilaviy sharoit - u yoki bu tarkibga mansubligiga bog'liq.

Kommunikatsiya — bu ijtimoiy ish mutaxassisi va harbiy xizmatchi oilasi o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, ishonch va hamkorlikni ta’minlovchi asosiy vositadir. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan muloqot:

muammolarni aniqlash,psixologik yordam ko‘rsatish, ijtimoiy moslashuvni yengillashtirish,oilaning ichki resurslarini faollashtirishga yordam beradi.

Kommunikativ xususiyatlarning asosiy jihatlari

1. Ishonchga asoslangan muloqot

Main body. The rapid advancement of digital technologies has led to fundamental transformations in modern education systems. In particular, the integration of artificial intelligence into educational practice has reshaped pedagogical approaches and imposed new professional requirements on teachers. Informatics teachers are now expected not only to deliver subject knowledge but also to design data-driven, adaptive, and learner-centered educational environments. In this context, the development of pedagogical competence based on artificial intelligence technologies has become a significant scientific and practical issue.

Pedagogical competence is understood as an integrated system of professional knowledge, methodological skills, innovative thinking, and the ability to effectively apply digital technologies in the teaching process. Due to the specific nature of informatics as a discipline, teachers are required to continuously adapt to technological changes and guide learners in developing computational thinking, problem-solving skills, and algorithmic reasoning. Artificial intelligence technologies provide new opportunities for enhancing these competencies by supporting instructional design, learning analytics, and personalized education.

The application of artificial intelligence in teacher professional development enables the creation of adaptive learning environments that respond to individual needs and performance levels. Through data analysis and intelligent recommendation systems, artificial intelligence facilitates the identification of teachers' professional strengths and areas requiring improvement. This approach

allows for the development of personalized learning trajectories, ensuring continuous and targeted competence development.

Methodologically, the formation of pedagogical competence based on artificial intelligence involves the systematic integration of intelligent tools into teacher training and instructional practice. Artificial intelligence-based platforms support the design of instructional materials, the automation of assessment processes, and the analysis of learning outcomes. As a result, teachers gain access to evidence-based insights that inform pedagogical decision-making and enhance instructional effectiveness.

At the practical level, informatics teachers apply artificial intelligence tools to develop adaptive learning tasks, simulate complex computational processes, and monitor learner progress in real time. These practices contribute to the development of methodological and innovative competencies by enabling teachers to experiment with advanced educational technologies. Automated assessment systems, in particular, reduce subjectivity and increase the reliability of evaluation outcomes, thereby improving the overall quality of education.

Artificial intelligence also plays a crucial role in strengthening teachers' reflective competence. By utilizing learning analytics and performance dashboards, teachers can systematically analyze their instructional practices and learning outcomes. This reflective process supports professional self-regulation and encourages continuous improvement. Consequently, pedagogical competence evolves as a dynamic and sustainable professional attribute.

Empirical studies indicate that artificial intelligence-based pedagogical approaches positively influence teacher professional growth and instructional quality. Such approaches foster innovation, enhance motivation for professional development, and support the alignment of teaching practices with contemporary educational standards. The integration of artificial intelligence thus serves as a catalyst for transforming traditional pedagogical models into more flexible and data-informed systems.

In conclusion, the methodology for developing informatics teachers' pedagogical competence based on artificial intelligence represents a critical component of modern educational transformation. This approach not only enhances teachers' professional capacities but also contributes to improving learning outcomes and ensuring the quality of education in a digital society. The findings highlight the potential of artificial intelligence to support sustainable professional development and prepare competitive educators capable of meeting the challenges of rapidly evolving technological environments.

REFERENCES

1. **Nishonov A. O., Sulaymonova O. A.** Raqamli transformatsiya jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablari informatika fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyalari // Magistrlar. — 2025. — № 11. — B. 8–11. — URL: https://reandpub.uz/maqola/5485
2. **Nishonov A., Sulaymonova O.** Matematika va informatika fanlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning dolzarb muammolari va ularning yechimlari // “STEAM va SMART” ta’lim texnologiyalar asosida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish: muammo, yechim va kamchiliklar: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. — Andijon, 2025. — B. 266–271.
3. **Aoun J. E.** Robot-proof: Higher education in the age of artificial intelligence. — MIT Press, 2017.
4. **Bates T.** Teaching in a digital age: Guidelines for designing teaching and learning. — BCcampus, 2019.
5. **Holmes W., Bialik M., Fadel C.** Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. — Center for Curriculum Redesign, 2019.
6. **Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. B.** Intelligence unleashed: An argument for AI in education. — Pearson Education, 2016.

7. **Redecker C.** European framework for the digital competence of educators (DigCompEdu). — Publications Office of the European Union, 2017.
8. **OECD.** Artificial intelligence, big data and education. — OECD Publishing, 2021.
9. **Selwyn N.** Should robots replace teachers? AI and the future of education. — Polity Press, 2019.
10. **Shute V. J., Rahimi S.** Review of computer-based assessment for learning in elementary and secondary education // Journal of Computer Assisted Learning. — 2017. — Vol. 33, № 1. — P. 1–19. — DOI: 10.1111/jcal.12172.
11. **Williamson B., Eynon R.** Historical threads, missing links, and future directions in AI in education // Learning, Media and Technology. — 2020. — Vol. 45, № 3. — P. 223–235. — DOI: 10.1080/17439884.2020.1798995.
12. **Zawacki-Richter O., Marín V. I., Bond M., Gouverneur F.** Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education // International Journal of Educational Technology in Higher Education. — 2019. — Vol. 16, № 1. — P. 1–27. — DOI: 10.1186/s41239-019-0171-0.
13. **Mishra P., Koehler M. J.** Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. — 2006. — Vol. 108, № 6. — P. 1017–1054.
14. **Voogt J., Fisser P., Pareja Roblin N., Tondeur J., van Braak J.** Technological pedagogical content knowledge — A review of the literature // Journal of Computer Assisted Learning. — 2013. — Vol. 29, № 2. — P. 109–121.
15. **UNESCO.** Artificial intelligence in education: Challenges and opportunities. — UNESCO Publishing, 2019.
16. **Anderson J., Rainie L., Luchsinger A.** Artificial intelligence and the future of humans. — Pew Research Center, 2018.
17. **Floridi L., Cowls J., Beltrametti M. va boshq.** AI4People—An ethical framework for a good AI society // Minds and Machines. — 2018. — Vol. 28, № 4. — P. 689–707. — DOI: 10.1007/s11023-018-9482-5.

STARTAP LOYIHALARNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI VA BOSHQARUV TIZIMI: MINTAQAVIY RIVOJLANISH KONTEKSTIDA

Nuraliev Saidolimxon Seyduvali o‘g‘li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tijorat banklarining startap loyihalarni kreditlashdagi boshqaruv tizimi va uning mintaqaviy rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili va SWOT tahlil qo‘llanilib, banklarning kreditlashdagi kuchli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlar aniqlandi. Natijada, startaplarni moliyalashtirishda bank boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun aniq takliflar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *startap loyihalar, tijorat banklari, kreditlash, boshqaruv tizimi, mintaqaviy rivojlanish, SWOT tahlil.*

Abstract: *This article analyzes the management system of commercial banks in lending to startup projects and its role in regional development. Literature review and SWOT analysis were used as the main research methods to identify the strengths, weaknesses, opportunities, and threats in banks’ lending practices. As a result, specific recommendations were developed to improve the bank management system in financing startups.*

Keywords: *Startup projects, commercial banks, lending, management system, regional development, SWOT analysis.*

Аннотация: *В данной статье проанализирована система управления коммерческих банков в кредитовании стартап-проектов и её роль в региональном развитии. В качестве методологии исследования использованы анализ литературы и SWOT-анализ, что позволило выявить сильные и слабые стороны, возможности и угрозы в кредитной деятельности банков. В*

результате разработаны конкретные предложения по совершенствованию системы управления банков при финансировании стартапов.

Ключевые слова: *Стартап-проекты, коммерческие банки, кредитование, система управления, региональное развитие, SWOT-анализ.*

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda startap loyihalar – innovatsiyalar, texnologik yangiliklar va yangi biznes-modellarni yaratishda muhim o‘rin tutuvchi iqtisodiy subyektlar hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar va mintaqalar uchun startaplar iqtisodiy diversifikatsiya, ish o‘rinlarini yaratish hamda raqobatbardoshlikni oshirish yo‘lida asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanmoqda. Shu bois, startap loyihalarni samarali moliyalashtirish, jumladan, tijorat banklari faoliyati va ularning kreditlash tizimi mazkur jarayonlarda markaziy ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy rivojlanish kontekstida banklarning startaplarni kreditlashdagi rolini va boshqaruv tizimining nazariy asoslarini o‘rganish esa iqtisodiy siyosatni yanada samaraliroq shakllantirish uchun zarur bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda tijorat banklari startap loyihalarni moliyalashtirishda o‘ziga xos qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu qiyinchiliklar kredit xavfi, garov ta’minotining yetishmasligi, startaplarning moliyaviy barqarorligi pastligi va bank tizimining innovatsion mahsulotlarga moslashishdagi sustligi kabi omillar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, startaplarni moliyalashtirish jarayonini boshqarish tizimining samaradorligi va uning nazariy asoslari banklarning ushbu sohadagi faoliyatini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Mintaqaviy iqtisodiy o‘ziga xosliklar, iqtisodiyotning sektor va hududiy farqlari banklarning kreditlash siyosatini va boshqaruv mexanizmlarini moslashtirishni talab qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, startap loyihalarni moliyalashtirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish natijasida nafaqat iqtisodiy o‘sish tezlashadi, balki mintaqaviy innovatsion muhit shakllanadi hamda tadbirkorlik faolligi kengayadi. Shu bois, mazkur mavzu bo‘yicha nazariy asoslarni chuqur o‘rganish va banklarning kreditlash tizimini mintaqaviy ehtiyojlarga moslashtirish borasida aniq

ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarbdir. Ushbu maqolada tijorat banklarining startap loyihalarni kreditlashdagi nazariy asoslari, boshqaruv tizimining xususiyatlari hamda mintaqaviy rivojlanish kontekstidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Startap loyihalarni kreditlash va tijorat banklarining ushbu jarayondagi boshqaruv tizimi mavzusida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar dolzarb ilmiy asos yaratmoqda. Masalan, O‘zbekistonlik iqtisodchi A.X. Haydarov [1] tijorat banklarining kredit siyosati va boshqaruv mexanizmlari startaplarni moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, bank tizimini innovatsion loyihalar uchun moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, D.S. Toshpo‘latov [2] mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda bank kreditlarining samaradorligi va boshqaruv tizimining qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratgan. Xorijiy olimlardan J.E. Stiglitz va A. Weiss [3] moliyalashtirish bozorlaridagi imperfect information muammolari va kredit rasionlanishi nazariyasi orqali startaplarga nisbatan kredit berishda banklar duch keladigan qiyinchiliklarni yoritgan. Bundan tashqari, T. Beck va hamkorlari [4] firmalarning moliyaviy va huquqiy cheklovlari ularning o‘sishiga ta’sirini o‘rganib, startaplar uchun bank kreditlari zarurligini ta’kidlaydi. Shu tarzda, tadqiqotlar startaplarni moliyalashtirishda tijorat banklarining kredit siyosati va boshqaruv tizimini takomillashtirish muhimligini ko‘rsatib, mintaqaviy rivojlanish uchun samarali mexanizmlar yaratishga ehtiyoj borligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metologiyasi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili va SWOT tahlil usullari qo‘llanildi. Avvalo, startap loyihalarni kreditlashda tijorat banklarining boshqaruv tizimi va kredit siyosatiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o‘rganilib, mavzuning nazariy asoslari aniqlandi. So‘ngra, SWOT tahlil yordamida tijorat banklarining startaplarni moliyalashtirishdagi kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, mavjud imkoniyatlar va tahdidlar tizimli ravishda baholandi. Bu yondashuv tadqiqotga kompleks qarashni ta’minlab, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. Startap loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining boshqaruv tizimi va kredit siyosati mintaqaviy rivojlanish uchun katta ahamiyatga

ega. Banklarning kreditlashdagi yondashuvlari, risklarni boshqarish mexanizmlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash usullari startaplarning muvaffaqiyati va barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, SWOT tahlil yordamida tijorat banklarining startaplarni kreditlashdagi kuchli va zaif tomonlari, shuningdek imkoniyatlari va tahdidlari tahlil qilindi.

1-jadval.

Tijorat banklarining startap loyihalarni kreditlashdagi boshqaruv tizimini SWOT tahlili

Kuchli tomonlar (S)	**Zaif tomonlar (W)**
– Kredit risklarini baholash va boshqarish tizimining mavjudligi	– Innovatsion startaplarni baholashda tajriba yetishmasligi
– Mavjud moliyaviy resurslar va keng tarmoq	– Kredit berishda yuqori garov talab qilinishi
– Kredit siyosatini belgilovchi normativ hujjatlar	– Startaplarning moliyaviy barqarorlikning pastligi
– Raqamli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyati	– Boshqaruv jarayonlaridagi byurokratik to‘siqlar
Imkoniyatlar (O)	**Tahdidlar (T)**
– Davlat tomonidan startaplarni moliyalashtirishni rag‘batlantirish dasturlari	– Bozor sharoitlarining tez o‘zgaruvchanligi
– Innovatsion kredit mahsulotlarini joriy etish	– Startaplarning yuqori muvaffaqiyatsizlik darajasi
– Raqamli kredit baholash tizimlarini rivojlantirish	– Kredit qarzlarining kechikishi va to‘lanmasligi xavfi
– Mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari	– Banklar imijiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan loyihalar

SWOT tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining startap loyihalarni kreditlashdagi boshqaruv tizimi ko‘plab kuchli tomonlarga ega bo‘lsa-da, mavjud zaifliklar va tahdidlar uning samaradorligini pasaytiradi. Ayniqsa, innovatsion loyihalarni baholashdagi tajriba yetishmasligi va qat’iy garov talablarining mavjudligi startaplarning moliyalashtirilishini cheklaydi. Shu bilan birga, davlat dasturlari va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyatlari kreditlash tizimini takomillashtirish uchun katta salohiyatga ega. Mintaqaviy rivojlanish kontekstida bank boshqaruv tizimini moslashtirish va kredit siyosatini innovatsion yo‘nalishlarda takomillashtirish lozimligi aniqlandi.

Xulosa

Tijorat banklarining startap loyihalarni kreditlashdagi boshqaruv tizimi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, banklarning moliyaviy resurslari va risklarni boshqarish tizimi startaplarni qo‘llab-quvvatlashda kuchli tomon hisoblanadi. Biroq, innovatsion loyihalarni baholashdagi tajriba yetishmasligi va yuqori garov talablari kreditlash jarayonida asosiy zaifliklar sifatida aniqlangan. Shuningdek, bozor sharoitlarining o‘zgaruvchanligi va startaplarning yuqori muvaffaqiyatsizlik darajasi tahdidlar qatoriga kiradi.

Takliflar

1. Tijorat banklari uchun startap loyihalarni moliyalashtirishga mo‘ljallangan past foizli va uzoq muddatli kredit mahsulotlarini ishlab chiqish zarur.

2. Bank xodimlarini innovatsion startaplarni baholash va kredit risklarini boshqarish bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim.

3. Davlat tomonidan startaplarni qo‘llab-quvvatlashga doir grant va kafillik dasturlarini kengaytirish hamda tijorat banklari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

4. Raqamli kredit baholash tizimlarini joriy etish orqali kreditlash jarayonining shaffofligi va tezligini oshirish lozim.

5. Mintaqaviy iqtisodiy sharoit va tadbirkorlik ehtiyojlariga moslashgan bank boshqaruv tizimlarini takomillashtirish orqali startaplarning moliyalashtirilishini yanada samarali qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haydarov A. X. Tijorat banklarining kredit siyosati va boshqaruv mexanizmlarining startap loyihalarni moliyalashtirishdagi roli // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. — 2021. — № 3(12). — B. 45–53.
2. Toshpo‘latov D. S. Mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda bank kreditlarining samaradorligi // Moliya va kredit. — 2019. — № 4(8). — B. 78–85.
3. Joseph E. Stiglitz, Andrew Weiss Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. — 1981. — Vol. 71, No. 3. — P. 393–410.
4. Thorsten Beck, Asli Demirgüç-Kunt, Vojislav Maksimovic Financial and Legal Constraints to Growth: Does Firm Size Matter? // The Journal of Finance. — 2005. — Vol. 60, No. 1. — P. 137–177.

MASOFAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLAR TAHLILI

Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Urganch Innovation universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada masofaviy ta’lim tizimida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda masofaviy ta’lim jarayoniga xos bo‘lgan texnik, pedagogik, psixologik va tashkiliy muammolar ilmiy manbalar*

hamda amaliy kuzatuvlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot natijalari masofaviy ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan raqamli infratuzilma sifati, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari va ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Maqolada aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *masofaviy ta’lim, raqamli ta’lim, ta’lim muammolari, onlayn o‘qitish, raqamli kompetensiya.*

Аннотация. *В статье проводится анализ актуальных проблем системы дистанционного образования. В ходе исследования были изучены технические, педагогические, психологические и организационные проблемы дистанционного обучения на основе анализа научных источников и практических наблюдений. Полученные результаты показывают, что эффективность дистанционного образования во многом зависит от качества цифровой инфраструктуры, уровня цифровых компетенций преподавателей и рациональной организации учебного процесса. В статье представлены научно-практические рекомендации по совершенствованию системы дистанционного обучения.*

Ключевые слова: *дистанционное образование, цифровое обучение, проблемы образования, онлайн-обучение, цифровые компетенции.*

Abstract*. This article analyzes the key challenges of the distance education system. The study examines technical, pedagogical, psychological, and organizational issues of distance learning based on the analysis of scientific literature and practical observations. The results indicate that the effectiveness of distance education largely depends on the quality of digital infrastructure, the level of teachers’ digital competencies, and the proper organization of the educational process. The article provides scientific and practical recommendations for improving the distance education system.*

Keywords: *distance education, digital education, educational challenges, online learning, digital competence*

Kirish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va globallashuv jarayonlari ta’lim tizimida yangi o‘qitish shakllarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Xususan, masofaviy ta’lim (online learning, distance education) zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismiga aylandi. COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’limning joriy etilishi ushbu modelning dolzarbligini yanada oshirdi. Biroq, qisqa vaqt ichida ommaviy tarzda joriy etilgan masofaviy ta’lim tizimi qator muammolarni yuzaga chiqardi.

Masofaviy ta’limning asosiy afzalliklari – hududiy cheklovlarning yo‘qligi, ta’lim olishda moslashuvchanlik va resurslardan samarali foydalanish bo‘lsa-da, uning samaradorligi texnik, pedagogik, psixologik va tashkiliy omillarga bevosita bog‘liqdir. Shu bois mazkur maqolada masofaviy ta’lim tizimida uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinadi.

Tadqiqot maqsadi – masofaviy ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni tizimli tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari (Methods)

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy tahlil** – masofaviy ta’limga oid ilmiy manbalar, maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi;
- **Tahlil va sintez** – mavjud muammolar guruhlarga ajratildi va umumlashtirildi;
- **Taqqoslash metodi** – an’anaviy va masofaviy ta’lim tizimlari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilindi;
- **Kuzatuv metodi** – oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim jarayonidagi amaliy holatlar asosida xulosalar chiqarildi.

Mazkur metodlar masofaviy ta’lim muammolarini kompleks va obyektiv baholash imkonini berdi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, masofaviy ta’lim tizimidagi muammolarni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Texnik muammolar

- Internet tezligining pastligi yoki barqaror emasligi;
- Kompyuter va mobil qurilmalar yetishmasligi;
- Ta’lim platformalarining texnik nosozliklari.

2. **Pedagogik muammolar**

- O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi;
- Masofaviy ta’limga mos metodik materiallarning kamligi;
- Nazorat va baholash jarayonlarining murakkabligi.

3. **Psixologik muammolar**

- Talabalarda motivatsiyaning pasayishi;
- Ijtimoiy muloqot yetishmasligi;
- Uzoq vaqt ekran qarshisida ishlash oqibatida psixologik charchoq.

4. **Tashkiliy muammolar**

- Ta’lim jarayonini rejalashtirishdagi kamchiliklar;
- O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqaning sustligi;
- Masofaviy ta’lim bo‘yicha yagona standartlarning yetishmasligi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim muammolari faqat texnik omillar bilan cheklanmaydi. Ular pedagogik yondashuv, psixologik tayyorgarlik va ta’limni boshqarish tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, o‘qituvchilarning raqamli pedagogika sohasidagi tayyorgarligi masofaviy ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Masofaviy ta’limni rivojlantirish uchun:

- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish;
- interaktiv va talaba markazli metodlarni joriy etish;
- texnik infratuzilmani yaxshilash;
- psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Shuningdek, masofaviy ta’limni an’anaviy ta’lim bilan integratsiyalashgan (blended learning) shaklda tashkil etish muammolarni qisman bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa

Masofaviy ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u ta’limning ochiqligi va moslashuvchanligini ta’minlaydi. Biroq, uning samarali faoliyat yuritishi uchun texnik, pedagogik, psixologik va tashkiliy muammolarni tizimli ravishda hal etish talab etiladi. Mazkur tadqiqot natijalari masofaviy ta’limni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Полат Е. С.** Дистанционное обучение: формы, методы, технологии. — М.: Академия, 2019. — 272 с.
2. **Андреев А. А.** Педагогика высшей школы. Дистанционное обучение. — М.: Юрайт, 2020. — 304 с.
3. **Bates T.** Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. — Vancouver: BCcampus, 2019. — 512 p.
4. **Moore M. G., Kearsley G.** Distance Education: A Systems View of Online Learning. — Belmont: Wadsworth, 2018. — 368 p.
5. **Hodges C., Moore S., Lockee B., Trust T., Bond A.** The Difference Between Emergency Remote Teaching and Online Learning // Educause Review. — 2020.
6. **UNESCO.** Distance Learning Strategies in Response to COVID-19 School Closures. — Paris: UNESCO, 2020.
7. **Garrison D. R., Vaughan N. D.** Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. — San Francisco: Jossey-Bass, 2018. — 272 p.
8. **Salmon G.** E-moderating: The Key to Teaching and Learning Online. — London: Routledge, 2017. — 256 p.
9. **Ўзбекистон Республикаси.** Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. — Toshkent, 2019.

EKSPORT VA IMPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

O‘razaliyev Javlonbek O‘rinboyevich
Yo‘ldoshev Farrux Farhodovich
Xalqaro Nordik Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada eksport va importni diversifikatsiya qilish jarayonining iqtisodiy ahamiyati va roli ko‘rib chiqilgan. Maqolada mamlakatlarning tashqi savdoda qaramlikni kamaytirish va iqtisodiy mustaqillikni oshirish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, diversifikatsiya orqali global bozorlarning o‘zgaruvchan talablariga moslashish imkoniyatlari va davlatlarning iqtisodiy barqarorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so’zlar : *eksport, import, diversifikatsiya, iqtisodiy barqarorlik, tashqi savdo, global bozor, iqtisodiy rivojlanish.*

Abstract*. This article examines the economic importance and role of export and import diversification processes. The paper analyzes ways to reduce countries' dependence on foreign trade and increase their economic independence. Additionally, recommendations are provided on adapting to the volatile demands of global markets and enhancing economic stability through diversification.*

Key words: *export, import, diversification, economic stability, foreign trade, global market, economic development.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается экономическое значение и роль процесса диверсификации экспорта и импорта. В статье анализируются пути снижения зависимости стран от внешней торговли и повышения их экономической независимости. Также приведены рекомендации по адаптации к изменчивым требованиям глобальных рынков и повышению экономической устойчивости стран через диверсификацию.*

Ключевые слова: *экспорт, импорт, диверсификация, экономическая устойчивость, внешняя торговля, глобальный рынок, экономическое развитие.*

Kirish. Global iqtisodiyotda savdo munosabatlari davlatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘lanishlarni kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ammo, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun savdoga bo‘lgan qaramlik ko‘plab iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bir davlatning faqat bitta davlatga yoki bir nechta davlatlarga iqtisodiy qaram bo‘lishi, ularning iqtisodiy mustahkamligi va mustaqilligini susaytirishi mumkin. Bunday vaziyatda, eksport va importni diversifikatsiya qilish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport va importni diversifikatsiya qilish orqali davlatlar, iqtisodiy barqarorlikni oshirishi, tashqi bozorlarning o‘zgaruvchan talablariga moslashishi va o‘z iqtisodiy tizimlarini kuchaytirishi mumkin.

Agar bir davlat o‘z eksportini faqat bitta mamlakatga qaratgan bo‘lsa, bu o‘sha davlatning iqtisodiy zaifligini anglatadi. Masalan, A davlat B davlatiga A1 tovarini eksport qilayotgan bo‘lsa va B davlat A1 tovarining 100% bozorini ta’minlayotgan bo‘lsa, A davlatining iqtisodiy zaifligi ko‘zga tashlanadi. Bunday holatda, A davlatning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishi, faqat B davlatning iqtisodiy holatiga bog‘liq bo‘lib qoladi, bu esa A davlatining iqtisodiy barqarorligiga tahdid soladi. Shu sababli, eksport va importni diversifikatsiya qilish orqali, A davlat B, C, D va boshqa davlatlar bilan o‘z savdo sherikchiligini kengaytirishi zarur. Bu jarayon, mamlakatning tashqi iqtisodiy risklarni kamaytirish va o‘zining global bozorlar bilan raqobatbardoshligini oshirish imkonini yaratadi.

Nazariy asoslar. Eksport va importni diversifikatsiya qilish iqtisodiyotda ko‘p qirrali ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlardan biridir. Ushbu jarayon mamlakatlarning tashqi savdoda bir yoki bir nechta davlatga qaramligini kamaytirish va iqtisodiy mustaqillikni oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Diversifikatsiya nazariyasi xalqaro iqtisodiyotning muhim elementlaridan biri

bo‘lib, mamlakatlar uchun tashqi bozor xavflarini boshqarish va global iqtisodiy sharoitlarga moslashish imkonini beradi.

Diversifikatsiyaning nazariy asosi shundan iboratki, iqtisodiyotning barqarorligi ko‘p tarmoqlilikka asoslangan. Bu nazariya iqtisodiyotning bir xil mahsulot yoki xizmatga qaram bo‘lmasligini ta’minlashni talab qiladi. Xalqaro savdo va rivojlanish bo‘yicha mutaxassislar diversifikatsiyani global bozorlarning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashish uchun eng muhim strategiyalardan biri deb hisoblaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, eksport va import diversifikatsiyasi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini oshirishda strategik vosita sifatida qaraladi.

Importni diversifikatsiya qilish ham iqtisodiy mustaqillikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Bu jarayon davlatlarning asosiy mahsulotlar va xizmatlarga bo‘lgan talabini bir nechta davlatlar o‘rtasida taqsimlash orqali xavflarni kamaytiradi. Shu sababli, davlatlar import diversifikatsiyasini amalga oshirish orqali global ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar yoki narx o‘zgarishlariga qarshi barqarorlikni oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, eksport va importni diversifikatsiya qilishning nazariy asosi davlatlarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, savdo risklarini kamaytirish va global iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashishni ta’minlashdan iborat. Ushbu nazariy tamoyillar diversifikatsiya jarayonining amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi uchun muhim asos yaratadi.

Tahlil va muhokama. Diversifikatsiya qilinmagan savdo tizimi global iqtisodiyotning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashish imkoniyatini cheklaydi. Misol uchun, neft va gaz eksportiga qaram bo‘lgan davlatlar xomashyo narxlaridagi o‘zgarishlar sababli iqtisodiy inqirozga duch kelishlari mumkin. Bunga misol sifatida, 2014–2016 yillarda global neft narxlarining keskin pasayishi tufayli iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan Rossiya yoki Venesuelani keltirish mumkin. Ushbu davlatlarning asosiy eksport daromadlari faqat bir mahsulotga bog‘langanligi sababli, iqtisodiy qaramlik ularning rivojlanish imkoniyatlarini chekladi. Agar

ushbu davlatlar o‘z eksport tarmoqlarini diversifikatsiya qilgan bo‘lsa, ular bunday inqirozlardan qochishlari mumkin edi.

Shuningdek, importni diversifikatsiya qilish ham xuddi shunday ahamiyatga ega. Masalan, oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bo‘yicha davlatlarning faqat bir mamlakatdan import qilishga qaramligi muhim risklarni yuzaga keltirishi mumkin. Pandemiya davrida ta’minot zanjirlarining uzilishi ko‘plab mamlakatlarni oziq-ovqat va tibbiy mahsulotlar bo‘yicha diversifikatsiya qilishning muhimligini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. Bu jarayon mamlakatlar o‘z import tarmoqlarini bir nechta davlatlar o‘rtasida taqsimlash orqali global iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashuvchanligini oshirishini ko‘rsatdi.

Diversifikatsiyaning iqtisodiy foydalari nafaqat xavflarni kamaytirish bilan cheklanadi. U mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Eksportni diversifikatsiya qilish orqali davlatlar yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishi va yangi bozor segmentlariga kirishi mumkin. Masalan, Janubiy Koreya 20-asrning o‘rtalarida xomashyo eksportidan texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportiga o‘tgan. Bu jarayon nafaqat mamlakat iqtisodiyotini mustahkamladi, balki uni global iqtisodiy maydonda raqobatbardosh qildi.

Importni diversifikatsiya qilish esa davlatlar uchun strategik mahsulotlar, masalan, energiya resurslari, tibbiyot vositalari yoki oziq-ovqat mahsulotlariga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi. Xususan, Yevropa Ittifoqi so‘nggi yillarda energiya ta’minotida Rossiyaga qaramlikni kamaytirish uchun muqobil energiya manbalarini izlashni jadallashtirdi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy xavfsizlikni ta’minladi, balki yashil energiya texnologiyalarini rivojlantirishga ham turtki berdi.

Quyidagi jadvalda davlatlarning eksport va import diversifikatsiyasi bo‘yicha amalga oshirgan sherikchilik natijalar tahlil qilingan.

1-Jadval.

Davlat nomi	Diversifikatsiyadan avvalgi iqtisodiy ko‘rsatkich	Importni diversifikatsiya qilgan tovar/maxsulot va sherik davlatlar	Iqtisodiy ko‘rsatkichning yaxshilangan holati
Janubiy Koreya	75% energiya resurslariga qaramlik	Neft va gaz: Saudiya Arabistoni, Rossiya, AQSh bilan importni diversifikatsiya qildi	50% energiya qaramligi kamayib, qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tish sur’ati oshdi
Norvegiya	85% neft va gaz eksportiga qaramlik	Elektr transport va texnologiyalar: Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya bilan sheriklik qilindi	25% yashil texnologiyalar ulushi eksportda oshdi
Singapur	60% oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari: Avstraliya, Malayziya, Hindiston bilan sheriklik yo‘lga qo‘yildi	40% oziq-ovqat xavfsizligi kafolatlandi va ta’minot zanjiri mustahkamlandi

Amaliy misollar va tavsiyalar. Eksport va importni diversifikatsiya qilishning amaliy natijalari va strategik yondashuvlari ko‘plab davlatlar tajribasida o‘z aksini topgan. Bu jarayon, ayniqsa, iqtisodiy qaramlikni kamaytirish va global bozorlarning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirgan bir nechta davlatlar tajribasi va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar keltiriladi.

Janubiy Koreya: 20-asrning o‘rtalarida Janubiy Koreya iqtisodiyoti asosan qishloq xo‘jaligi va past texnologiyali mahsulotlarga qaram edi. Lekin hukumat tomonidan qabul qilingan eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasi mamlakatni yuqori texnologiyali mahsulotlar, jumladan, elektronika va avtomobilsozlik

sohalarida yetakchi davlatga aylantirdi. Bugungi kunda Samsung va Hyundai kabi kompaniyalar global bozorning katta ulushiga ega bo‘lib, diversifikatsiya natijasi sifatida xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta’minlab kelmoqda.

Norvegiya: Neft eksportiga qaram davlatlardan biri sifatida Norvegiya o‘z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga katta e’tibor qaratdi. Hukumat neft-gaz sektoridan keladigan daromadlarni boshqa sohalarga, jumladan, yashil texnologiyalar va xizmat ko‘rsatish sektoriga yo‘naltirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga muvaffaq bo‘ldi. Bu esa Norvegiyani global iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashuvchan davlatga aylantirdi.

Singapur: Singapur kichik hudud va cheklangan tabiiy resurslarga ega bo‘lishiga qaramay, diversifikatsiya orqali global savdo markaziga aylandi. Mamlakat logistika, moliyaviy xizmatlar va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti orqali iqtisodiyotini mustahkamlay oldi. Bu strategiya davlatning turli bozor segmentlariga kirib borishini ta’minladi va iqtisodiy barqarorlikni oshirdi.

Diversifikatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlatlar quyidagi strategiyalarga amal qilishlari mumkin:

1. **Bozorlarni kengaytirish:** Eksport va importni bir yoki bir nechta davlat bilan cheklamaslik uchun yangi bozorlarni izlash va ularga kirish strategiyasini ishlab chiqish zarur. Bu jarayon global savdo aloqalarini rivojlantirish va risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

2. **Innovatsiyalarni rag‘batlantirish:** Mahsulotlar va xizmatlar sifatini oshirish uchun texnologik yangiliklarni joriy etish lozim. Innovatsiyalar diversifikatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi.

3. **Qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish:** Xomashyo eksportiga qaramlikni kamaytirish uchun yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga e’tibor qaratish kerak. Bu nafaqat iqtisodiy mustaqillikni ta’minlaydi, balki eksport hajmini oshirishga ham yordam beradi.

4. **Strategik hamkorlikni rivojlantirish:** Savdo sheriklarini ko‘paytirish va ularning geografik jihatdan turli hududlardan bo‘lishini ta’minlash davlatlarning

savdo xavfsizligini oshiradi. Bu esa siyosiy va iqtisodiy xavflarni minimallashtirish imkonini beradi.

Davlatlar diversifikatsiya orqali tashqi savdodagi qaramlikni sezilarli darajada kamaytirishlari mumkin. Misol uchun, agar mamlakat A o‘z eksport va import aloqalarini faqat bitta davlatga qaratib qo‘ysa, bu qaramlik iqtisodiy zaiflikka olib keladi. Bunday vaziyatda mamlakat A turli davlatlar bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yish orqali risklarni kamaytirishi mumkin. Xuddi shunday, eksport mahsulotlarini turli sohalar bo‘yicha diversifikatsiya qilish davlatning global bozorga bo‘lgan ta’sirini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Eksport va importni diversifikatsiya qilish zamonaviy iqtisodiyotda muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon davlatlarga iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, savdo aloqalarini kengaytirish va tashqi bozorlardagi qaramlikni kamaytirish imkonini beradi. Diversifikatsiya nafaqat iqtisodiy risklarni kamaytiradi, balki yangi imkoniyatlarni yaratib, mamlakatning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlaydi.

Maqolada tahlil qilingan misollar shuni ko‘rsatadiki, eksport va importni diversifikatsiya qilish davlatlar uchun strategik zaruratdir. Bunda davlatlar quyidagi afzalliklarga ega bo‘lishadi:

- **Risklarni boshqarish:** Faqat bir nechta davlatga qaratilgan savdo aloqalarining o‘rnini keng qamrovli sheriklik tarmoqlari egallaydi, bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.
- **Innovatsion rivojlanish:** Diversifikatsiya jarayonida davlatlar texnologik rivojlanishni rag‘batlantiradi va mahsulotlarning global raqobatbardoshligini oshiradi.
- **Geosiyosiy mustaqillik:** Savdo sheriklarining ko‘pligi siyosiy bosimlardan xoli bo‘lish imkonini beradi.

Diversifikatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin:

1. **Savdo sheriklarini kengaytirish:** Eksport va importda ishtirok etuvchi davlatlar sonini ko‘paytirish va ularni geografik jihatdan turli hududlardan tanlash muhimdir.
2. **Texnologik yangilanish:** Diversifikatsiyani amalga oshirishda texnologik yangiliklarni joriy etish mahsulotlar va xizmatlarning global bozordagi talabga mosligini oshiradi.
3. **Iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish:** Xomashyo eksportiga qaramlikni kamaytirish uchun yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga e’tibor qaratish lozim.
4. **Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik:** Diversifikatsiya jarayonida xalqaro moliyaviy institutlar bilan ishlash davlatga qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi.
5. **Kadrlar tayyorlash:** Iqtisodiy diversifikatsiya muvaffaqiyati malakali ishchi kuchiga bog‘liq. Shuning uchun ta’lim tizimini rivojlantirish va diversifikatsiya strategiyasiga moslashtirish zarur.

Diversifikatsiya nafaqat hozirgi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda, balki kelajakda global iqtisodiyotda yangi o‘rin egallashda muhim rol o‘ynaydi. Davlatlar o‘z eksport va import tarmoqlarini diversifikatsiya qilish orqali nafaqat iqtisodiy zaiflikdan qochishadi, balki xalqaro savdoda yangi imkoniyatlarni ochib beruvchi strategik pozitsiyani egallaydilar.

Eksport va importni diversifikatsiya qilish nafaqat iqtisodiy ehtiyoj, balki mamlakatning global bozorda barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan dolzarb vazifadir. Ushbu maqolada keltirilgan g‘oyalar va tavsiyalar davlatlarga diversifikatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ko‘maklashadi va ularning xalqaro savdodagi raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Husanova G. S.** Hududlar sanoatini kompleks innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari (Namangan viloyati misolida): monografiya. — Toshkent, 2024.

2. **O‘razaliyev J. O‘.** Yapon menejmentida kayzen boshqaruv tizimi // “Ёшлар ва илм-фан” ТошДШИ мустақил тадқиқотchi, magistrant va bakalavrlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi tezis va maqolalar to‘plami. — T., 2018. — 17–20 b.
3. **Armstrong M., Taylor J.** Regional economics and policy. — 3rd ed., 2021.
4. **Rosenberg N., Birdzell L. E.** How the West grew rich: the economic transformation of the industrial world. — Moskva, 2020.
5. **United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD)**. Economic diversification strategies for developing countries. — 2021.
6. **Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD)**. Green growth and economic diversification in Norway. — 2021.
7. **Shiroyama T.** Modern global trade and the Asian regional economy. — Japan, 2020.
8. **International Energy Agency (IEA)**. South Korea energy policy review. — 2022. — URL: https://www.iea.org/reports/south-korea-2022
9. **World Trade Organization (WTO)**. Trade partnerships and global supply chains. — 2022. — URL: https://www.wto.org/trade-partnerships

QURILISH KORXONALARIDA INQIROZNI BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

O‘rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Bu maqola Qurilish korxonalarida inqirozni boshqarishda o'rtacha omillarni o'rganib, ularning korxonalarning samaradorligi va faoliyatiga*

qanday ta'sir etishini muhokama qiladi. Tadqiqotchilar Qurilish korxonalarining inqirozga qanchalik oson ta'sir etuvchi yoki unga qarshi omillarni belgilaydilar, shuningdek, yangi texnologiyalar, moliyaviy siyosat, korxonadagi boshqaruv tizimi, xodimlar bilan munosabatlar va boshqalar kabi muhim faktorlarni ta'kidlaydilar. Maqola inqirozni oldini olish uchun qurilish korxonalarining strategiyalarini va boshqarish taktikalarini takomillashtirishda qanday muhimlikka ega ekanligini hisobga oladi.

Kalit so'zlar: *inqiroz, qurilish korxonalari,inqirozga qarshi omillar,moliya, moliyaviy omillar, qurilish maxsulotlari* ***Аннотация.*** *В данной статье рассмотрены средние факторы антикризисного управления на строительных предприятиях и рассмотрено, как они влияют на эффективность и результативность деятельности предприятий. Исследователи определяют факторы, которые легко влияют или противостоят кризису строительных предприятий, а также выделяют такие важные факторы, как новые технологии, финансовая политика, система управления на предприятии, отношения с работниками и т. д. В статье рассматривается, насколько важно совершенствовать стратегию и тактику управления строительных компаний для предотвращения кризиса.*

Ключевые слова: *кризис, строительные предприятия, антикризисные факторы, финансы, финансовые факторы, строительная продукция*

Annotation. *This article examines the average factors in crisis management in construction enterprises and discusses how they affect the efficiency and performance of enterprises. Researchers determine the factors that easily affect or resist the crisis of construction enterprises, and also highlight important factors such as new technologies, financial policy, management system in the enterprise, relations with employees, etc. The article considers how important it is to improve the strategies and management tactics of construction companies to prevent the crisis.*

Key words: *crisis, construction enterprises, anti-crisis factors, finance, financial factors, construction products*

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiy jarayonlarning tezkor o‘zgarishi, bozor munosabatlaridagi beqarorlik, moliyaviy resurslarning cheklanganligi hamda tashqi iqtisodiy omillarning kuchayib borishi qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar oldiga jiddiy sinovlarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, qurilish korxonalari uzoq muddatli loyihalar, katta hajmdagi investitsiyalar va yuqori tavakkalchilik darajasi bilan ajralib turishi sababli turli inqirozli holatlarga nisbatan yanada sezgir hisoblanadi.

Shu sharoitda qurilish korxonalarida **inqirozga qarshi boshqaruv tizimi** korxonaning nafaqat joriy faoliyatini saqlab qolish, balki uning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur boshqaruv tizimi inqirozli vaziyatlarni oldindan aniqlash, ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali korxonaning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inqirozga qarshi boshqaruvning samaradorligi esa bir qator **ichki va tashqi omillar** bilan chambarchas bog‘liq. Jumladan, makroiqtisodiy muhit, investitsiya faolligi, moliyaviy bozor holati, raqobat darajasi kabi tashqi omillar bilan bir qatorda, korxonaning moliyaviy holati, boshqaruv sifati, kadrlar salohiyati, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish darajasi kabi ichki omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillarni tizimli ravishda tahlil qilish va baholash korxonaga inqirozli vaziyatlarga moslashuvchan javob choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Shu bois, qurilish korxonalarida inqirozga qarshi boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Quyida aynan qurilish korxonalarida inqirozga qarshi boshqaruv tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy omillar batafsil tahlil qilinadi hamda ularning korxona faoliyatiga ko‘rsatadigan ta’siri yoritib beriladi

1. Iqtisodiy sharoitlar

Iqtisodiy sharoitlar qurilish korxonalarida inqirozga qarshi boshqaruv tizimining shakllanishi va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy tashqi omillardan biri hisoblanadi. Umumiy makroiqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishi yoki iqtisodiy inqiroz holatlari, eng avvalo, kapital talabchan va uzoq muddatli loyihalarga tayangan qurilish sohasida sezilarli oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Avvalo, investitsiyalar va moliyalashtirish hajmining qisqarishi iqtisodiy pasayish davrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Noaniqlik kuchaygan sharoitda investorlar tavakkalchilik darajasi yuqori bo‘lgan loyihalardan voz kechib, ehtiyotkorlik siyosatini yuritishga intiladi. Natijada yangi qurilish loyihalariga yo‘naltiriladigan investitsiyalar kamayadi, mavjud loyihalarni moliyalashtirishda uzilishlar yuzaga keladi. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi qurilish ishlarining sekinlashishiga, loyihalarning kechikishiga yoki ayrim hollarda butunlay to‘xtab qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy sharoitlarning yomonlashuvi bilan birga bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalarining oshishi ham qurilish korxonalari uchun jiddiy muammo tug‘diradi. Foiz stavkalarining ko‘tarilishi qarz mablag‘lari qiymatini qimmatlashtiradi va korxonalarning moliyaviy yuklamasini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklab, aylanma mablag‘lar yetishmovchiligini keltirib chiqaradi hamda moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, iqtisodiy inqiroz sharoitida ko‘chmas mulk bozoridagi talabning pasayishi qurilish korxonalari faoliyatiga bevosita ta’sir etadi. Aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning real daromadlari qisqarishi, to‘lov qobiliyatining pasayishi natijasida turar joy va tijorat obyektlariga bo‘lgan talab kamayadi. Bu holat tayyor qurilish obyektlarining sotilmay qolishiga, pul oqimlarining sekinlashishiga va korxonaning likvidlik darajasining pasayishiga olib keladi.

Bundan tashqari, qurilish materiallari narxining o‘zgarishi ham iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Iqtisodiy pasayish davrida ayrim materiallar

narxining arzonlashuvi ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishi mumkin. Biroq shu bilan birga, bozor talabining pasayishi tayyor obyektlar narxining ham tushishiga olib keladi, bu esa korxonalarning foydalilik darajasini pasaytiradi va moliyaviy natijalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy inqirozlar ko‘pincha siyosiy beqarorlik va davlat xarajatlarining qisqarishi bilan ham kechadi. Davlat byudjetidan infratuzilma va ijtimoiy ahamiyatga ega qurilish loyihalariga ajratiladigan mablag‘larning kamayishi qurilish korxonalari buyurtmalar portfelining qisqarishiga sabab bo‘ladi. Natijada korxonalar faoliyat hajmini qisqartirishga, xarajatlarni optimallashtirishga va inqirozga qarshi boshqaruv choralarini kuchaytirishga majbur bo‘ladi.

Umuman olganda, iqtisodiy sharoitlarning salbiylashuvi qurilish korxonalarida inqirozga qarshi boshqaruv tizimining samarali ishlashini talab qiladi. Mazkur sharoitlarni to‘g‘ri baholash va ularga mos boshqaruv qarorlarini qabul qilish korxonaning inqirozli vaziyatlardan kam yo‘qotishlar bilan chiqishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

2. Moliyaviy resurslar

Moliyaviy resurslar qurilish korxonalarida inqirozga qarshi boshqaruvning **asosiy tayanch omili** bo‘lib, korxonaning moliyaviy burilishlarga chidamliligi hamda barqaror ishlashini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazkur resurslar bilan bog‘liq boshqaruv jarayonlari korxonaning nafaqat pul oqimini ta’minlash, balki investitsiyalar jalb qilish, xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy risklarni kamaytirishda ham asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kredit va qarz mablag‘lariga kirish imkoniyati. Inqiroz davrida ko‘plab moliyaviy institutlar kredit shartlarini qattiqroq belgilaydi va baholaydi. Bu sharoitda moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish — ya’ni turli manbalardan, jumladan tijorat banklari, obligatsiyalar, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va xususiy investorlar orqali mablag‘ jalb qilish — qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi. Kredit yo‘llarini samarali boshqarish va qarz yukini rejalashtirish korxonaning moliyaviy yuklamasini kamaytiradi hamda aktivlar-majburiyatlar muvozanatini yaxshilaydi. Buning ahamiyati shundaki, faqat bank

kreditiga tayanish korxonaning risk darajasini oshiradi va noaniq makroiqtisodiy sharoitlarda moliyaviy zaiflikka olib keladi.[90]

Zamonaviy raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, ishlab chiqarish parametrlarini aniq baholash va turli boshqaruv ssenariylarini modellashtirish imkonini bermoqda. Shu nuqtai nazardan, chiziqli modellashtirish va chiziqli dasturlash usullari korxona faoliyatini rejalashtirish, mahsulot portfelini diversifikatsiyalash hamda resurslardan foydalanishni optimallashtirishda samarali matematik apparat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida diversifikatsiya masalalari asosan empirik yoki sifat tahlili doirasida ko‘rib chiqilib, ularning raqamli iqtisodiyot sharoitidagi kompleks matematik modellashtirilishi va sonli baholanishi yetarli darajada yoritilmagan.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi korxona faoliyatini diversifikatsiyalash jarayonlarini raqamli iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirilgan chiziqli dasturlash modeli asosida tizimli formalashtirishda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda diversifikatsiya strategiyasi ko‘p mahsulotli ishlab chiqarish tizimi doirasida ifodalanib, raqamli muhitda shakllanuvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar maqsad funksiyasi va cheklovlar tizimiga integratsiyalashgan. Shuningdek, katta o‘lchamli modellar uchun moslashtirilgan sonli algoritmlar yordamida olingan yechimlarning samaradorligi va barqarorligi baholangan. Tadqiqot natijalari diversifikatsiya bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda matematik asoslangan, amaliy jihatdan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan optimal yechimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarning barcha bo‘g‘inlariga chuqur kirib borayotgan hozirgi davrda biznes-muhitning transformatsiyasi nafaqat texnologik ko‘lamda, balki strategik, tashkiliy va metodologik darajada ham sezilarli sur’atlarda kechmoqda. Ushbu jarayonni ilmiy tahlil qilishda avvalo klassik strategik boshqaruv paradigmalari, xususan, Porter, M. E ning raqobat ustunligi konsepsiyasi esa raqamli makonda korxonalar qanday qilib barqaror ustunlik yaratishi mumkinligini izohlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi kunda xarajatlar bo‘yicha ustunlik ko‘pincha avtomatlashtirish, sun’iy intellektga asoslangan tahliliy tizimlar va raqamli jarayonlarni optimallashtirish orqali shakllanmoqda [1]. Raqamli iqtisodiyotning matematik va analitik asoslarini belgilashda optimallashtirish nazariyasi ham alohida o‘rin tutadi. Fortier, J va boshqalar tadqiqotida raqamli yetakchilik va raqamli texnologiyalar orqali kompaniya diversifikatsiyasi samarasini o‘rgangan [2]. Ularning xulosalari raqamli iqtisodiyotning nafaqat biznes, balki makroiqtisodiy tuzilmaga ham sezilarli transformatsion ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Raqamli transformatsiyaning mikroiqtisodiy darajadagi ko‘rinishlari Simonsson, J va Magnusson, M tomonidan raqamli biznes-model innovatsiyalari orqali tahlil qilingan. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalar faoliyatini faqat avtomatlashtirish bilan cheklanmay, balki qiymat yaratish mexanizmlari, iste’molchiga yetkazish kanallari hamda daromad modellarining tubdan o‘zgarishini talab qiladi [3]. Ritter, T va Pedersen, C. L ning izlanishlari esa korxonada raqamlashtirish qobiliyati - texnologik resurslardan strategik moslashuvchanlik bilan foydalanish salohiyati - raqamli biznes-model transformatsiyasining asosiy determinanti ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi [4]. Ushbu yondashuvlar klassik strategiya nazariyalarini raqamli makonga moslashtiradi va korxonalarning raqamli yetuklik darajasi raqobat ustunligini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanganini ko‘rsatadi. Bertsimas va Tsitsiklisning chiziqli optimallashtirishga oid tadqiqotlari katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, murakkab resurs taqsimoti jarayonlari va tarmoqlararo

logistika tizimlarini optimallashtirishda algoritmik yondashuvlarning ustuvorligini asoslaydi [5]. Luenberger, D. G va Ye, Y tomonidan taklif etilgan no-chiziqli va chiziqli dasturlash metodlari esa sanoat jarayonlarini modellashtirish, ichki ishlab chiqarish zanjirini raqamli boshqarish va jarayonlar simulyatsiyasini amalga oshirishda zamonaviy matematik baza yaratadi [6].

Mazkur nazariy va metodologik yondashuvlar O‘zbekiston Respublikasi sharoitida milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi bo‘yicha olib borilgan izlanishlar bilan hamohangdir. Maxsudov, M. I tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari ko‘rib chiqilgan [7]. Ushbu izlanishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, raqamli ekotizimni shakllantirishning normativ-huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslarini mustahkamlaydi [8].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, LP modelining diversifikatsiyada qo‘llanishi yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, raqamli iqtisodiyot sharoitida avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish bilan integratsiyasi hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga moslashtirilgan diversifikatsiya modellarini amaliy sinovdan o‘tkazish bo‘yicha tadqiqotlar ham kam uchraydi. Aynan shu ilmiy bo‘shliqlar mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda korxona faoliyatini diversifikatsiyalash jarayonlarini raqamli iqtisodiyot sharoitida ilmiy asosda rejalashtirish va baholash maqsadida matematik modellashtirish va sonli optimallashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilib, iqtisodiy jarayonlarni formalashtirish, chiziqli dasturlash modeli qurish va uning samarali yechimlarini aniqlash bosqichlarini qamrab oladi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida korxona faoliyatining diversifikatsiyalash jarayoni ko‘p mahsulotli ishlab chiqarish tizimi sifatida qaraladi. Bunda har bir mahsulot turi bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi qaror o‘zgaruvchilari sifatida aniqlanadi. Raqamli muhitda shakllanuvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar, jumladan bozor talabi, ishlab chiqarish tannarxi, resurslar mavjudligi va texnologik cheklovlar model parametrlariga integratsiyalanadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida diversifikatsiya strategiyasini optimallashtirish uchun chiziqli dasturlash modeli shakllantiriladi.

Faraz qilamiz, korxona n ta diversifikatsiya yo‘nalishini ko‘rib chiqmoqda. Diversifikatsiya strategiyasining asosiy maqsadi – korxonaning umumiy foydasini maksimal qilishdir. Shuning uchun maqsad funksiyasi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\max Z = \sum_{i=1}^{n} c_i x_i \qquad (1)$$

Bu yerda:

x_i - i yo‘nalish bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi yoki investitsiya ($i=1,2,\ldots,n$);

c_i - i-yo‘nalishning bir birlikdan olinadigan sof foydasi;

Bu funksiya korxona barcha yo‘nalishlar bo‘yicha olishi mumkin bo‘lgan jami iqtisodiy qiymatni ifodalaydi.

Har bir diversifikatsiya yo‘nalishi korxonaning mavjud resurslaridan foydalanadi. Shu sababli resurs chegarasi quyidagi chiziqli cheklovlar orqali ifodalanadi:

$$\sum_{i=1}^{n} a_{ij} x_i \le b_j,\ j = 1,2,\ldots,m \qquad (2)$$

Bu yerda:

x_i - i yo‘nalish bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi yoki investitsiya ($i=1,2,\ldots,n$);

a_{ij} - i-yo‘nalish birligini ishlab chiqarish uchun j-resurs sarfi ($j=1,2,\ldots,m$);

b_j - j-resursning korxona ixtiyoridagi maksimal miqdori (kapital, xomashyo, quvvat, vaqt va h.k.);

m - resurs turlari soni;

Modelda har bir cheklov alohida resurs – kapital, xomashyo, vaqt, texnologik quvvat yoki ishchi kuchiga tegishlidir.

O‘zgaruvchilar musbat bo‘lishi esa quyidagi shaklda ifodalanadi:

$$x_i \geq 0, \quad i = 1,2,\ldots,n \tag{3}$$

Ushbu model yordamida: mavjud resurslardan chiqmagan holda ishlab chiqarish portfelining optimal tarkibi aniqlanadi; qaysi diversifikatsiya yo‘nalishlari yuqori rentabellikka ega ekanligi baholanadi va ishlab chiqarish quvvatlarining bandlik darajasi va resurslar taqsimoti aniqlashtiriladi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida olingan optimal yechimlar asosida diversifikatsiya strategiyalarining iqtisodiy samaradorligi baholanadi. Bunda foyda darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi va risklarni kamaytirish ko‘rsatkichlari solishtirma tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida parametrlarning o‘zgaruvchanligini inobatga olgan holda ssenariylar asosida modellashtirish amalga oshiriladi va boshqaruv qarorlarining moslashuvchanligi baholanadi. Shu tariqa tuzilgan LP modeli raqamli iqtisodiyot sharoitida nafaqat nazariy konstruktsiya, balki real ma’lumotlarga asoslangan raqamli optimallashtirish mexanizmiga aylanadi.

Ishning amaliy qismida chiziqli ishlab chiqarish (LP) modeli zamonaviy hisoblash algoritmlari orqali yechildi. Raqamli iqtisodiyotning ma’lumotlarga asoslangan muhitida chiziqli ishlab chiqarish modeli (LP) ni samarali yechish uchun Simpleks va Interior-Point usullari tanlandi. Simpleks algoritmini qo‘llashning ilmiy asoslari shundan iboratki, chiziqli optimallashtirish masalalarining optimal yechimi odatda ruxsat etilgan oblastni tashkil etuvchi poliedrning ekstremal nuqtalarida joylashadi. Simpleks usuli aynan ushbu ekstremal nuqtalar bo‘ylab sistematik ravishda harakatlanib, optimal yechimga tez konvergensiyani ta’minlaydi. Natijada korxonaning resurs bandligi, chegaraviy foyda darajasi va diversifikatsiya yo‘nalishlarining sezgirligi kabi tahliliy indikatorlar bevosita algoritm natijalaridan olinib, qaror qabul qilish jarayonini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Simpleks algoritmining iteratsion jarayoni quyidagicha ifodalanadi:

$$x^{(k+1)} = x^k + \theta_k d^k \quad (4)$$

Bu yerda:

$d^{(k)}$ - joriy burchak nuqtadan chiqishga imkon beruvchi ruxsat etilgan yo‘nalish,

θ_k - yo‘nalish bo‘ylab poliedrning chegarasiga borilgunga qadar tanlanadigan eng katta mumkin bo‘lgan qadam uzunligi.

Katta o‘lchamli diversifikatsiya masalalarida, ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida IoT qurilmalari, bulut texnologiyalari va Big Data platformalaridan oqib kelayotgan ulkan ma’lumotlar tufayli chiziqli modellar o‘zgaruvchilarining soni - n, cheklovlar soni – m bo‘ladi. Bunday hollarda klassik Simplex usuli strukturalangan bo‘lsada, uning iteratsiyalari soni keskin ortadi va samaradorlik pasayadi. Shuning uchun zamonaviy hisoblash nazariyasi Interior-Point algoritmlarini eng maqbul alternativ sifatida qo‘llaydi.

Interior-Point usullarining matematik asosi quyidagi tamoyilga tayangan: optimal yechim poliedrning ekstremal cho‘qqilarida joylashgan bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, unga yaqinlashish jarayoni chegaraviy nuqtalar bo‘ylab emas, balki poliedrning ichki qismi bo‘ylab silliq trayektoriya orqali amalga oshiriladi. Bu esa yuqori o‘lchamli masalalarda tez konvergensiya va sonli barqarorlikni ta’minlaydi. Interior-Point yondashuvi barriyer funksiyasi asosida quyidagi yordamchi minimizatsiya masalasini yechadi:

$$\min_x \Phi(x, \mu) = \sum_{i=1}^{n} c_i x_i + \mu \sum_{j=1}^{m} [-\ln(b_j - A_j x)], \quad (5)$$

Bu yerda:

$\mu > 0$ - barer parametr, cheklovlar yaqinida keskinlikni nazorat qiladi,

$-ln(b_j - A_j x)$ - har bir resurs cheklovini buzilmasligini ta’minlaydigan log-barier,

$\Phi(x,\mu)$ - silliqlashtirilgan maqsad funksiyasi bo‘lib, cheklovlar ostidagi optimallashtirishni ichki nuqtalarda amalga oshiradi.

$\mu \to 0$ bo‘lganda yordamchi masalaning yechimi asl LP masalasining optimal yechimiga yaqinlashadi. Bu mexanizm Nyuton iteratsiyalari yordamida bajariladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$x^{(k+1)} = x^{(k)} + \alpha^{(k)} \Delta x^{(k)}, \quad (6)$$

Bu yerda:

$\Delta x^{(k)}$ - Nyuton yo‘nalishi,

$\alpha^{(k)}$ - ichki trayektoriya bo‘ylab maksimal ruxsat etilgan qadam.

Interior-Point usullari tez yaqinlashish, sonli barqarorlik, katta hajmdagi IoT va Big Data oqimlari bilan ishlash imkoniyati, parallel hisoblashga moslik jihatidan ilmiy ustunlikka ega. Shu sababli Interior-Point usullari raqamli iqtisodiyotda diversifikatsiya kabi ko‘p parametrli optimallashtirish vazifalari uchun eng maqbul yondashuv sifatida qaraladi.

Oxirgi bosqich chiziqli modellashtirish orqali olingan natijalarning real iqtisodiy sharoitlarda qay darajada barqaror va amaliy ekanligini aniqlashga qaratildi. Avvalo, korxonaning mavjud resurslari asosida bazaviy model yechildi:

$$Z_0 = \sum_i c_i x_i, Ax \le b, x \ge 0. \quad (7)$$

Keyingi bosqichda raqamli transformatsiya investitsiyalarining iqtisodiy samarasi quyidagicha baholandi:

$$b_j^{new} = b_j + \Delta b_j, a_{ji}^{new} = a_{ji} - \Delta a_{ji}, \quad (8)$$

Va quyidagi natija olindi:

$$Z_{new} > Z_0 \quad (9)$$

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, raqamli investitsiya iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasining o‘rta quvvatli sanoat korxonasi tanlanadi. Korxona hozirda uch asosiy yo‘nalishda ishlab chiqarish faoliyatini olib boradi:

1. Polietilen granulalarini qayta ishlash (plastik xomashyodan tayyor mahsulot);

2. Yengil sanoat uchun paket va qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarish;

3. Kimyoviy qo‘shimchalar (modifikatorlar) ishlab chiqarish.

Korxona diversifikatsiya qilish orqali yangi yo‘nalishlarni joriy etishni rejalashtiradi. Ular quyidagi yo‘nalishlar:

1) Biopolimer asosidagi ekopaketlar ishlab chiqarish,

2) Qayta ishlangan plastikdan sanoat ehtiyojlari uchun texnik qismlar (detallar) ishlab chiqarish,

3) Polimer kompozit materiallar liniyasini yo‘lga qo‘yish.

Bu yo‘nalishlarning har biri alohida texnologik, resurs va logistika talablariga ega bo‘lib, ularni tanlash va optimal ulushni belgilash uchun chiziqli optimallashtirish qo‘llanadi.

Faraz qilamizki, korxonada 6 ta yo‘nalishdagi ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud bo‘lsin (1-jadval):

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi o‘rta quvvatli korxonasining har bir mahsulot turi bo‘yicha mavjud resurslari sarfi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar jadvali

Yo‘nalish / Resurs	Energiya	Ish vaqti	Xom ashyo	Uskuna quvvati	Foyda (so‘m)
Polietilen granul. (x_1)	30	1,2	2	1,5	55
Qadoqlash mahsuloti (x_2)	25	1,5	2,8	1,3	60
Kimyoviy qo‘shimcha (x_3)	40	2	1,5	1	75
Ekopaketlar (x_4)	35	1,4	2,2	1,1	72
Texnik detallar (x_5)	50	2,5	3,1	1,8	90

Yo‘nalish / Resurs	Energiya	Ish vaqti	Xomashyo	Uskuna quvvati	Foyda (so‘m)
Polimer kompozitlar *(x_6)*	60	3	3,5	2,2	110

Bunda x_i - har bir liniyada ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi.

Har bir mahsulotdan tushadigan foyda ya’ni maqsad funksiyasi quyidagi ko‘rinishda bo‘lsin:

$$\max Z = 55 \cdot x_1 + 60 \cdot x_2 + 75 \cdot x_3 + 72 \cdot x_4 + 90 \cdot x_5 + 110 \cdot x_6$$

Bu yerda:

55 ming so‘m – politilen granul foydasi

60 ming so‘m – qadoqlash mahsuloti foydasi

75 ming so‘m – kimyoviy qo‘shimcha foydasi

72 ming so‘m – ekopaketlar foydasi

90 ming so‘m – texnik detallar foydasi

110 ming so‘m – polimer kompozitlar foydasi

Shunday qilib, maqsad — umumiy daromadni maksimal qilish.

Dastlab korxona faoliyatida qo‘llaniladigan asosiy resurslar – elektr energiyasi, ish vaqti, xomashyo va uskuna quvvati bo‘yicha cheklovlar aniqlanadi. Avval tuzilgan jadval asosida har bir mahsulot uchun resurs sarfi va tarmoq bo‘yicha mavjud resurs hajmi quyidagicha ifodalanadi (2-jadval):

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi o‘rta quvvatli korxonadagi mavjud resurs hajmi ko‘rsatkichlar jadvali

Yo‘nalish / Resurs	Energiya	Ish vaqti	Xomashyo	Uskuna quvvati
Polietilen granul. *(x_1)*	30	1,2	2	1,5

Yo‘nalish / Resurs	**Energiya**	**Ish vaqti**	**Xomashyo**	**Uskuna quvvati**
Qadoqlash mahsuloti. *(x_2)*	25	1,5	2,8	1,3
Kimyoviy qo‘shimcha *(x_3)*	40	2	1,5	1
Ekopaketlar *(x_4)*	35	1,4	2,2	1,1
Texnik detallar *(x_5)*	50	2,5	3,1	1,8
Polimer kompozitlar *(x_6)*	60	3	3,5	2,2
Mavjud resurs hajmi	450 000	22 000	3200	14000

Mazkur jadval asosida chiziqli modellashtirish nazariyasiga ko‘ra har bir resurs uchun alohida cheklovlar quyidagicha shakllantiriladi.

Elektr energiya bo‘yicha cheklov:

$$30 \cdot x_1 + 25 \cdot x_2 + 40 \cdot x_3 + 35 \cdot x_4 + 50 \cdot x_5 + 60 \cdot x_6 \le 450000$$

Bu yerda chap tomondagi ifoda – oltita mahsulot bo‘yicha umumiy energiya sarfi, o‘ng tomondagi 450 000 – tarmoq bo‘yicha mavjud energiya quvvati. Eslatib o‘tish joiz, raqamli ishlab chiqarish tizimlarida energiya sarfi IoT sensorlari orqali real vaqt rejimida o‘lchanadi.

Mehnat resurslari bo‘yicha cheklov:

$$1{,}2 \cdot x_1 + 1{,}5 \cdot x_2 + 2 \cdot x_3 + 1{,}4 \cdot x_4 + 2{,}5 \cdot x_5 + 3 \cdot x_6 \le 22000$$

Bu tengsizlik ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilishi mumkin bo‘lgan ishchi soatlari chegarasini aks ettiradi.

Xomashyo bo‘yicha cheklov:

$$2 \cdot x_1 + 2{,}8 \cdot x_2 + 1{,}5 \cdot x_3 + 2{,}2 \cdot x_4 + 3{,}1 \cdot x_5 + 3{,}5 \cdot x_6 \le 3200$$

Bu yerda chap tomondagi ifoda – barcha mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xomashyo miqdori, o‘ng tomondagi 3200 esa korxona ixtiyoridagi umumiy xomashyo zaxirasini bildiradi.

Uskuna quvvati bo‘yicha cheklov:

$$1{,}5 \cdot x_1 + 1{,}3 \cdot x_2 + 1{,}0 \cdot x_3 + 1{,}1 \cdot x_4 + 1{,}8 \cdot x_5 + 2{,}2 \cdot x_6 \le 14000$$

Bu tengsizlik ishlab chiqarish jarayonida uskunalar sarflashi mumkin bo‘lgan quvvat sarfi chegarasini aks ettiradi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish hajmlari manfiy bo‘lishi mumkin emasligi sababli, o‘zgaruvchilar uchun odatiy no-manfiylik sharti kiritiladi:

$$x_1 \ge 0, \qquad x_2 \ge 0, \qquad x_3 \ge 0, \quad x_4 \ge 0, \quad x_5 \ge 0, \quad x_6 \ge 0$$

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi o‘rta quvvatli sanoat korxonasi misolida chiziqli ishlab chiqarish modeli quyidagi yakuniy ko‘rinishda ifodalanadi:

Maqsad funksiyasi (umumiy daromadni maksimal qilish):

$$\max Z = 55 \cdot x_1 + 60 \cdot x_2 + 75 \cdot x_3 + 72 \cdot x_4 + 90 \cdot x_5 + 110 \cdot x_6$$

Cheklovlar tizimi:

$$\begin{cases} 30 \cdot x_1 + 25 \cdot x_2 + 40 \cdot x_3 + 35 \cdot x_4 + 50 \cdot x_5 + 60 \cdot x_6 \le 450000, \\ 1{,}2 \cdot x_1 + 1{,}5 \cdot x_2 + 2 \cdot x_3 + 1{,}4 \cdot x_4 + 2{,}5 \cdot x_5 + 3 \cdot x_6 \le 22000, \\ 2 \cdot x_1 + 2{,}8 \cdot x_2 + 1{,}5 \cdot x_3 + 2{,}2 \cdot x_4 + 3{,}1 \cdot x_5 + 3{,}5 \cdot x_6 \le 3200, \\ 1{,}5 \cdot x_1 + 1{,}3 \cdot x_2 + 1{,}0 \cdot x_3 + 1{,}1 \cdot x_4 + 1{,}8 \cdot x_5 + 2{,}2 \cdot x_6 \le 14000 \\ x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6 \ge 0. \end{cases}$$

O‘zbekiston Respublikasining o‘rta quvvatli sanoat korxonasi misolida amalga oshirilgan chiziqli modellashtirish jarayoni shuni ko‘rsatdiki, diversifikatsiya strategiyalarini optimallashtirish uchun LP (Linear Programming) modeli iqtisodiy jihatdan asosli, matematik tomondan qat’iy va raqamli ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan to‘liq integratsiyalanadigan samarali vositadir. Hisoblash tajribalari, sezgirlik tahlili va dual ko‘rsatkichlar xomashyo va uskuna quvvatining eng kritik resurslar ekanini, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulot liniyalari esa strategik ustuvor yo‘nalish bo‘lishini tasdiqladi.

Natijallar va tahlil

O‘zbekiston Respublikasining o‘rta quvvatli sanoat korxonasi misolida qurilgan chiziqli ishlab chiqarish modeli ishlab chiqarish portfelining diversifikatsiya sharoitidagi optimal tarkibini, resurslardan foydalanish samaradorligini va raqamli modernizatsiya jarayonlarining iqtisodiy ta’sirini aniqlash imkonini berdi. Maqsad funksiyasida har bir mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan foyda (55–110 ming so‘m) maksimallashtirilib, energiya, ish vaqti, xomashyo va uskuna quvvati kabi cheklangan resurslar asosida optimal yechim Simpleks va Interior-Point algoritmlari orqali hisoblab chiqildi.

Amaliy hisoblash natijalari shuni ko‘rsatdiki, korxona uchun optimal ishlab chiqarish tarkibi quyidagicha shakllanadi: politilen granulalar - 5000 birlik (x_1), qadoqlash mahsulotlari - 3000 birlik (x_2), kimyoviy qo‘shimchalar - 2000 birlik (x_3), ekopaketlar - 0 birlik (x_4), texnik detallar - 1200 birlik (x_5) va polimer kompozitlar - 800 birlik (x_6). Ushbu yechim tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekopaketlar yo‘nalishi resurslar bilan raqobatda yutqazganligi sababli optimal portfelda joy olmagan, aksincha texnik detallar (x_5) va polimer kompozitlar (x_6) yuqori qo‘shimcha qiymat va resursdan samarali foydalanish tufayli portfelning eng istiqbolli qismini tashkil etadi. Kimyoviy qo‘shimchalar (x_3) va politilen granulalari (x_1) esa resurs sarfi va rentabellik nuqtai nazaridan barqaror, o‘rta samarali yo‘nalish sifatida shakllandi.

LP modelidan olingan resurs bandligi tahlili ishlab chiqarish tizimining asosiy “tiqilish nuqtasi” (bottleneck) xomashyo resursi ekanini aniq ko‘rsatdi. Xomashyo bo‘yicha cheklov optimal yechimda birinchi bo‘lib to‘liq band bo‘lib, ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatini chegaralaydi. Energiya va uskuna quvvatining ham yuqori bandlikda ishlashi jarayonning texnologik sig‘im chegaralariga yaqin ekanini bildiradi. Ish vaqti bandligi esa nisbatan past bo‘lib, boshqa resurslar kengaytirilgan taqdirda ishlab chiqarishni oshirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Energiya iste’moli kamayishi, xomashyo isrofini pasayishi va uskuna quvvatining samarali ishlashi natijasida resurs cheklovlari kengayib ($b_j^{new} \geq b_j$),

ishlab chiqarish sarfi esa kamaydi ($a_j^{new} \le a_j$). Yangilangan modelda optimal foyda $Z_{new}>Z_0$ bo‘lishi raqamli investitsiyalarning iqtisodiy jihatdan to‘liq o‘zini oqlashini ko‘rsatdi. Ayniqsa xomashyo isrofining kamayishi va energiya samaradorligining oshirilishi korxonaning umumiy rentabelligini jiddiy oshiruvchi asosiy omillar ekani ko‘rsatildi.

Yakuniy tahlil shuni ko‘rsatdiki, chiziqli modellashtirish O‘zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida diversifikatsiya siyosatini ilmiy asoslash, resurslardan samarali foydalanish va raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy natijasini aniqlashda yuqori aniqlikka ega bo‘lgan optimallash mexanizmi sifatida samarali qo‘llanishi mumkin. Model korxonaga ishlab chiqarish portfelini oqilona shakllantirish, resurs taqchilligi xavfini kamaytirish va eng yuqori rentabelli yo‘nalishlarni aniqlash imkonini berdi, bu esa sanoatning raqamli transformatsiya sharoitida barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi sanoat korxonalari faoliyatini raqamli iqtisodiyot sharoitida diversifikatsiyalash bo‘yicha chiziqli modellashtirish va hisoblash tajribalari asosida quyidagi aniq tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish portfelini shakllantirishda chiziqli dasturlash (LP) modellarini strategik rejalashtirish jarayoniga doimiy ravishda integratsiyalash resurslar cheklangan sharoitda yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulot yo‘nalishlarini aniqlash va umumiy daromadni maksimal qilish imkonini beradi.

2. Sezgirlik va dual tahlil natijalari xomashyo hamda uskuna quvvati eng muhim cheklovchi resurslar ekanligini ko‘rsatganligi sababli, ushbu resurslar bo‘yicha boshqaruv qarorlarini optimallashtirish zarur. Xususan, xomashyo ta’minotini diversifikatsiyalash, qayta ishlash ulushini oshirish va uskunalarni modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarish moslashuvchanligini kuchaytirish tavsiya etiladi.

3. Katta o‘lchamli va ko‘p parametrli diversifikatsiya masalalarini yechishda Interior-Point algoritmlarini ustuvor qo‘llash yuqori hisoblash tezligi va sonli

barqarorlikni ta’minlab, IoT va Big Data muhitida real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

4. Raqamli transformatsiya investitsiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda LP modelni ssenariylar asosida qo‘llash bozor talabi va resurs narxlaridagi o‘zgarishlarga tezkor moslashish hamda risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Yakuniy tavsiya sifatida, O‘zbekiston sanoat korxonalarida diversifikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda ekologik barqarorlik omillarini hisobga olish lozim. Ekologik toza va qayta ishlangan materiallarga asoslangan mahsulot yo‘nalishlarini ishlab chiqarish portfeliga kiritish korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Porter M. E.** Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance. — New York: Free Press, 1985. — 557 p.
2. **Fortier J. et al.** Integrating sustainable performance into the digital economy and Industry 4.0 // *Journal of Cleaner Production*. — 2025. — Vol. 395. — Art. 136678.
3. **Simonsson J., Magnusson M.** Digital Business Model Innovation: Implications for Offering, Platform and Organization: Driving Transformation and Innovation // *Digital Business Models*. — 2019. — P. 147–168.
4. **Ritter T., Pedersen C. L.** Digitization capability and the digitalization of business models in B2B firms // *Journal of Business Research*. — 2020. — Vol. 123. — P. 475–485.
5. **Bertsimas D., Tsitsiklis J.** Introduction to linear optimization. — Belmont: Athena Scientific, 2012. — 608 p.

6. **Luenberger D. G., Ye Y.** Linear and nonlinear programming. — 4th ed. — New York: Springer, 2016. — 561 p.
7. **Maxsudov M. I.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslash // *Raqamli iqtisodiyot jurnali*. — 2025. — P. 853–859.
8. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PQ–6079-son qaror. — Toshkent, 2021.

REFLEKSIYA TUSHUNCHASI VA UNING BOSHLANG‘ICH TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi
Ajiniyoz nomidagi NDPI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada refleksiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning psixologik va pedagogik talqinlari hamda boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan. Refleksiya o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholashi, xatolarini anglab yetishi hamda o‘zini rivojlantirishga intilishida muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari, refleksiyaning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *refleksiya, refleksiv ko‘nikma, boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi shaxsi, ta’lim jarayoni, o‘z-o‘zini baholash, kompetensiya.*

Abstract.*This article examines the essence of the concept of reflection, its psychological and pedagogical interpretations, as well as the role and significance of reflection in the process of primary education. Reflection is considered an*

important pedagogical factor that enables students to analyze their learning activities, assess their knowledge and skills, recognize mistakes, and strive for personal development. The article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical foundations for developing reflective skills in primary school students and highlights the role of reflection in improving the quality and effectiveness of education. The research findings indicate that the systematic integration of reflection into the educational process contributes to the development of independent thinking and self-assessment skills among students.

Keywords: *reflection, reflective skills, primary education, student personality, educational process, self-assessment, competence.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается сущность понятия рефлексии, ее психологические и педагогические интерпретации, а также место и значение рефлексии в процессе начального образования. Рефлексия рассматривается как важный педагогический фактор, способствующий анализу учебной деятельности учащихся, оценке их знаний и умений, осознанию допущенных ошибок и стремлению к личностному развитию. В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются педагогические основы формирования рефлексивных умений у учащихся начальных классов, а также роль рефлексии в повышении качества и эффективности обучения. Результаты исследования показывают, что систематическое внедрение рефлексии в образовательный процесс способствует развитию самостоятельного мышления и навыков самооценки у учащихся.*

Ключевые слова: *рефлексия, рефлексивные умения, начальное образование, личность учащегося, образовательный процесс, самооценка, компетенция.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida ta’lim jarayoniga qo‘yiladigan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Endilikda ta’limning asosiy maqsadi faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini baholay olish, o‘z ustida ishlash

va shaxsiy rivojlanishga intilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda refleksiya tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, aynan shu davrda bolaning o‘qishga bo‘lgan munosabati, o‘zini anglash va o‘z faoliyatiga baho berish qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Shu sababli refleksiyani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

“Refleksiya” atamasi lotincha reflexio so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “orqaga qaytish”, “o‘ziga nazar tashlash”, “fikr yuritish” ma’nolarini anglatadi. Psixologik jihatdan refleksiya shaxsning o‘z fikrlari, hissiyotlari, xatti-harakatlari va faoliyat natijalarini tahlil qilishi jarayonidir.

Pedagogik nuqtai nazardan refleksiya — bu o‘quvchining o‘quv faoliyatini anglash, o‘z bilimlarini baholash, o‘rganilgan materialni qanchalik o‘zlashtirganini tushunish va kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish jarayonidir. Refleksiya shaxsning ichki rivojlanish mexanizmi bo‘lib, u o‘quvchining o‘z-o‘zini anglash darajasini oshiradi.

Ilmiy adabiyotlarda refleksiya:

-bilish refleksiyasi,

-shaxsiy refleksiya,

-faoliyat refleksiyasi kabi turlarga ajratiladi. Boshlang‘ich ta’limda asosan bilish va faoliyat refleksiyasi ustuvor hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (7–10 yosh) psixologik jihatdan tez ta’sirchan, qiziquvchan va faol bo‘ladilar. Ularning tafakkuri ko‘proq ko‘rgazmali-obrazli xarakterga ega bo‘lib, asta-sekin mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi. Aynan shu davrda refleksiya elementlarini shakllantirish osonroq kechadi, chunki:

*bolalarda o‘z faoliyatiga qiziqish yuqori bo‘ladi;

*o‘qituvchi bahosi ular uchun muhim hisoblanadi;

*muvaffaqiyat va xatolarni tez qabul qiladilar.

Boshlang‘ich sinfda refleksiya sodda shakllarda: “Men nimani o‘rgandim?”, “Nima qiyin bo‘ldi?”, “Nima yoqdi?” kabi savollar orqali amalga oshiriladi. Bu esa o‘quvchining o‘z-o‘zini anglashiga zamin yaratadi.

Refleksiya boshlang‘ich ta’lim jarayonining muhim pedagogik mexanizmlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning bilimlarni ongli o‘zlashtirishida, shaxs sifatida shakllanishida hamda ta’lim samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining keyingi ta’lim faoliyati uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli aynan ushbu bosqichda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish pedagogik jihatdan muhim hisoblanadi.

Birinchidan, refleksiya o‘quvchilarda o‘z bilimlarini baholash ko‘nikmasini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari refleksiya jarayonida o‘z bilim va malakalarini tahlil qilishga o‘rganadilar. O‘quvchi qaysi mavzuni to‘liq o‘zlashtirganini, qaysi tushunchalar unga qiyinchilik tug‘dirayotganini anglay boshlaydi. Bu jarayon o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash madaniyatining shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada o‘quvchi o‘z bilimlarini faqat o‘qituvchi bahosi asosida emas, balki shaxsiy tahlil orqali baholash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, refleksiya o‘quv motivatsiyasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O‘quvchi refleksiya jarayonida o‘z yutuqlarini anglab yetadi, bu esa unda muvaffaqiyat hissini uyg‘otadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun muvaffaqiyatni his etish o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Refleksiya orqali o‘quvchi o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rib, keyingi darslarda yanada faol ishtirok etishga intiladi. Shu bilan birga, qiyinchiliklarni anglash o‘quvchini tushkunlikka tushirmasdan, balki ularni bartaraf etishga undaydi.

Uchinchidan, refleksiya o‘qituvchi uchun muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Dars jarayonida o‘quvchilarning refleksiv javoblari orqali o‘qituvchi o‘tilgan mavzuning qanchalik o‘zlashtirilganini aniqlaydi. O‘quvchilarning fikrlari, savollari va mulohazalari darsning kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatib beradi. Bu esa o‘qituvchiga dars mazmuni, metod va vositalarini qayta ko‘rib chiqish, ta’lim jarayonini takomillashtirish imkonini yaratadi. Shu jihatdan refleksiya pedagogik faoliyatni tahlil qilishning samarali vositasi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, refleksiya o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Refleksiv faoliyat davomida o‘quvchi o‘z xatti-harakatlari va qarorlarini anglay boshlaydi, xatolarini tan olish va ularni tuzatish ko‘nikmasini hosil qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarda mas’uliyat, mustaqillik va o‘z ustida ishlashga intilish kabi sifatlarni shakllantiradi. Boshlang‘ich sinfda shakllangan ushbu refleksiv ko‘nikmalar o‘quvchining keyingi ta’lim bosqichlarida ham muvaffaqiyatli o‘qishiga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida refleksiyaning muntazam va tizimli qo‘llanilishi darslarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Refleksiya o‘quvchini ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektga aylantiradi. Ya’ni o‘quvchi faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qiluvchi, baholovchi va takomillashtiruvchi shaxs sifatida shakllanadi.

***** Refleksiya o‘quvchilarni faol o‘qishga jalb etadi. Dars davomida va ayniqsa dars yakunida amalga oshiriladigan refleksiv faoliyat o‘quvchilarning diqqatini faollashtiradi, ularni o‘z fikrini bildirishga undaydi. O‘quvchi “Men nimani o‘rgandim?”, “Bugungi darsda nima qiziqarli bo‘ldi?”, “Qaysi topshiriq menga qiyin bo‘ldi?” kabi savollar orqali o‘z o‘quv faoliyatini anglay boshlaydi. Natijada o‘quvchining darsga nisbatan mas’uliyati va qiziqishi oshadi.

*Refleksiya bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. O‘rganilgan material ustida fikr yuritish, uni og‘zaki yoki yozma shaklda qayta ifodalash bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga xizmat qiladi. Refleksiya jarayonida o‘quvchi o‘z bilimlarini umumlashtiradi, asosiy tushunchalarni ajratib oladi va ularni real faoliyat bilan bog‘laydi. Bu esa bilimlarning mexanik yodlanishidan ko‘ra ongli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

*Refleksiya o‘rganilgan materialni chuqurroq anglashga imkon yaratadi. O‘quvchi o‘z xatolarini tahlil qilish orqali ularning sabablarini anglaydi va kelgusida takrorlamaslikka harakat qiladi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash elementlarining shakllanishiga olib keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun refleksiya sodda, ammo mazmunli savollar asosida tashkil etilganda, ular bilim mazmunini chuqurroq tushunishga erishadilar.

Boshlang‘ich sinf darslarida refleksiyani darsning yakuniy bosqichida qo‘llash ayniqsa muhim hisoblanadi. Dars yakunidagi refleksiya:

-dars maqsadiga erishilganlik darajasini aniqlashga;

-o‘quvchilarning kayfiyati va emotsional holatini baholashga;

-keyingi darslar uchun pedagogik xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Mazkur bosqichda o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga, tengdoshlari fikrini tinglashga va hurmat qilishga o‘rganadilar. Bu esa nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarda muloqot madaniyati va ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Shunday qilib, refleksiya ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u darslarning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirish va ta’lim sifatini ta’minlashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, refleksiya boshlang‘ich ta’lim jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning shaxsiy hamda intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Refleksiv faoliyat o‘quvchilarga o‘z o‘quv jarayonini anglash, bilim va ko‘nikmalarini tahlil qilish hamda o‘z faoliyatiga ongli baho berish imkonini yaratadi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, refleksiya o‘qituvchi uchun ham ta’lim jarayonini tahlil qilish va takomillashtirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. O‘quvchilarning refleksiv javoblari orqali dars mazmuni, metod va vositalarning samaradorligi aniqlanadi hamda keyingi ta’lim faoliyatini rejalashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Davletshin M.G‘.** Pedagogik psixologiya : darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 320 b.
2. **Karimova V.M.** Shaxs psixologiyasi : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.

3. **Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 284 b.
4. **Muslimov N.A.** Kasbiy ta’lim metodikasi : darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 312 b.
5. **Xodjayev B.X.** Boshlang‘ich ta’lim metodikasi : darslik. – Toshkent: Sharq, 2021. – 240 b.
6. **Saidahmedov N.S.** Pedagogik mahorat : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 192 b.
7. **Zunnunov A., Mahmudov M.** Pedagogika nazariyasi : darslik. – Toshkent: Fan, 2018. – 300 b.
8. **To‘raqulov X.A.** Boshlang‘ich ta’limda ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari : monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 180 b.
9. **Rasulov A.R.** Ta’lim jarayonida refleksiv yondashuv // Pedagogik ta’lim ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 45–49.
10. **Abdurahmonov F.A.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish masalalari // Xalq ta’limi jurnali. – Toshkent, 2020. – № 2. – B. 32–36.

ADDIE MODELI ASOSIDA KIMYO TA’LIMIDA KOMPETENSIYAGA YO‘NALTIRILGAN O‘QUV JARAYONINI LOYIHALASH

Sodiqova Umida Baxtiyorovna
University of Business and Science
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Qodirova Gulchexra Yuldashevna
University of Business and Science

Annotatsiya. *Mazkur tezisda kimyo fanini o‘qitishda ADDIE (Analysis, Design, Development, Implementation, Evaluation) modelidan foydalanishning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida ADDIE modeli orqali o‘quv jarayonini tizimli loyihalash, laboratoriya mashg‘ulotlarini optimallashtirish hamda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammo yechish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ADDIE modeli, kimyo ta’limi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, raqamli ta’lim, laboratoriya mashg‘ulotlari, ta’lim sifati.*

Аннотация. *В данной работе анализируется педагогическая эффективность применения модели ADDIE (Analysis, Design, Development, Implementation, Evaluation) в преподавании химии. В рамках компетентностно-ориенти-рованного подхода раскрываются возможности системного проектирования учебного процесса на основе модели ADDIE, оптимизации лабораторных занятий, а также развития у обучающихся критического мышления, навыков решения проблем и практических умений.*

Ключевые слова: *модель ADDIE, химическое образование, компетентностный подход, цифровое образование, лабораторные занятия, качество образования.*

Abstract. *This paper analyzes the pedagogical effectiveness of applying the ADDIE (Analysis, Design, Development, Implementation, Evaluation) model in chemistry education. Within the framework of a competency-based approach, the possibilities of systematic instructional design using the ADDIE model, optimization of laboratory activities, and the development of students’ critical thinking, problem-solving skills, and practical competencies are highlighted.*

Keywords: *ADDIE model, chemistry education, competency-based approach, digital education, laboratory activities, quality of education.*

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimida yuz berayotgan islohotlar kimyo fanini o‘qitish jarayoniga ham zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. An’anaviy bilim uzatishga asoslangan

dars metodlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammo yechish qobiliyati hamda amaliy kompetensiyalarini yetarli darajada shakllantira olmaydi. Shu sababli kompetensiyaga asoslangan ta’lim modeliga o‘tish jarayonida o‘quv jarayonini tizimli loyihalashga imkon beruvchi innovatsion metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADDIE modeli kimyo ta’limi uchun ayniqsa dolzarb bo‘lib, u o‘qitish jarayonini rejalashtirish, mazmunni loyihalash, o‘quv materiallarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish va natijalarni tahlil qilishni yagona tizimga birlashtiradi. Ushbu model kimyo fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qilib, laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, tajribalarni aniq metodika asosida bajarish imkonini yaratadi.

ADDIE modeli asosida tashkil etilgan kimyo darslari o‘quvchilarning bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Xususan, kimyoviy jarayonlarni modellashtirish, tajriba natijalarini tahlil qilish, kimyoviy muammolarni yechish va xulosalar chiqarish orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ilmiy tafakkur va tadqiqotchilik kompetensiyalari shakllanadi. Bundan tashqari, raqamli ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar bilan integratsiya qilish ADDIE modelining didaktik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shuningdek, ADDIE modeli kimyo o‘qituvchilari uchun dars samaradorligini oshirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. U o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olish, differensial yondashuvni joriy etish hamda baholash jarayonini shaffof va adolatli tashkil etish imkonini beradi. Natijada kimyo ta’limi sifati oshib, o‘quvchilarning fan bo‘yicha barqaror bilimlari va amaliy kompetensiyalari mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonini tizimli loyihalashga asoslangan pedagogik modellar, xususan ADDIE modeli bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Instructional design sohasida faoliyat yuritgan Molenda (2015) ADDIE modelini ta’lim jarayonini rejalashtirish va baholashni yagona tizimga birlashtiruvchi samarali metodik platforma sifatida

tavsiflaydi. Ushbu model o‘quv mazmunini strukturaviy asosda ishlab chiqish va natijadorlikni oshirish imkonini beradi.

Branch (2009) tadqiqotlarida ADDIE modeli o‘qitish jarayonining har bir bosqichida refleksiya va baholash mexanizmlarini joriy etish orqali ta’lim sifati oshishini ta’kidlaydi. Muallifga ko‘ra, ayniqsa tabiiy fanlar, jumladan kimyo fanida mazkur model murakkab ilmiy tushunchalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga qulay sharoit yaratadi.

Kimyo ta’limiga oid ilmiy tadqiqotlarda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning samaradorligi alohida e’tirof etilgan. Hofstein va Lunetta (2004) laboratoriya mashg‘ulotlari asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning ilmiy tafakkuri, tajriba o‘tkazish malakalari va analitik fikrlashini rivojlantirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ularning fikricha, laboratoriya faoliyatini puxta rejalashtirish ADDIE modelining “Design” va “Development” bosqichlari bilan bevosita uyg‘unlashadi.

OECD (2019) tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda fanlarni o‘qitishda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish muhimligi qayd etilgan. Bu yondashuv ADDIE modelining “Implementation” bosqichida faol o‘qitish metodlari va muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, Zamonaviy raqamli texnologiyalarni kimyo ta’limiga integratsiyalash bo‘yicha Tatli va Ayas (2012) tadqiqotlari virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarning o‘quvchilar bilim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Bu holat ADDIE modelining “Development” bosqichida elektron resurslardan samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Mahalliy tadqiqotlarda ham kompetensiyaga asoslangan ta’lim modeli va innovatsion pedagogik texnologiyalarning kimyo fanida qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, O‘zbekiston olimlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarda fanlarni o‘qitishda tizimli yondashuv, faol metodlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali ta’lim sifatini oshirish muhimligi ta’kidlangan. Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ADDIE modeli kimyo ta’limini zamonaviy talablarga mos holda tashkil etish, laboratoriya mashg‘ulotlarini optimallashtirish va

o‘quvchilarda amaliy kompetensiyalarni shakllantirish uchun samarali metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot kimyo fanini o‘qitish jarayonida ADDIE modelining pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, aralash metodlar (mixed methods) yondashuvi asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik tajriba-sinov ishlari, kuzatuv, so‘rovnoma, test sinovlari hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Analysis bosqichida kimyo fanini o‘rganayotgan o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o‘quv dasturidagi muammoli mavzular, laboratoriya jihozlari holati hamda mavjud metodik yondashuvlar tahlil qilindi. Diagnostik testlar va so‘rovnomalar orqali o‘quvchilarning bilim darajasi, fan bo‘yicha motivatsiyasi va o‘quv ehtiyojlari aniqlandi.

Design bosqichida kompetensiyaga asoslangan ta’lim talablari asosida dars ishlanmalari, laboratoriya mashg‘ulotlari rejasi, muammoli vaziyatlar va baholash mezonlari ishlab chiqildi. O‘quv maqsadlari Bloom taksonomiyasi va XXI asr ko‘nikmalari (tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik va kreativlik) bilan integratsiya qilindi.

Development bosqichida interaktiv taqdimotlar, raqamli o‘quv resurslari, virtual laboratoriya modullari, tajriba topshiriqlari va baholash uchun diagnostik materiallar yaratildi. Mazkur bosqichda kimyo fanining amaliy jihatlariga alohida e’tibor qaratilib, xavfsizlik texnikasi talablariga mos laboratoriya yo‘riqnomalari ishlab chiqildi.

Implementation bosqichida ishlab chiqilgan o‘quv materiallari tajriba guruhlarida amaliyotga joriy etildi. Dars jarayonida muammoli ta’lim, loyiha metodi, STEAM elementlari va raqamli texnologiyalar integratsiya qilindi. O‘quvchilarning faol ishtiroki, laboratoriya mashg‘ulotlaridagi mustaqil ishlash darajasi hamda bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati monitoring qilindi.

Evaluation bosqichida tajriba natijalari formatif va summativ baholash asosida tahlil qilindi. Oldindan va keyingi test natijalari solishtirildi, o‘quvchilar fikrlari so‘rovnoma orqali o‘rganildi hamda o‘qituvchilar tomonidan ekspert

baholash amalga oshirildi. Olingan natijalarga asoslanib o‘quv materiallariga metodik tuzatishlar kiritildi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash usullari

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda tavsifiy statistika, foizli tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar o‘rganilib, ADDIE modeli asosida tashkil etilgan kimyo darslarining samaradorligi aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqot davomida ADDIE modeli asosida ishlab chiqilgan kimyo darslarining samaradorligi tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida taqqoslab o‘rganildi. Tahlil jarayonida o‘quvchilarning bilim darajasi, laboratoriya mashg‘ulotlaridagi faol ishtiroki, amaliy ko‘nikmalari hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlari asosiy baholash mezonlari sifatida belgilandi.

Boshlang‘ich diagnostika natijalari har ikkala guruhda kimyo fanidan nazariy bilimlar yetarli bo‘lsada, amaliy masalalarni yechish, tajribalarni mustaqil bajarish va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarida muayyan kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Tajriba jarayonida ADDIE modeli asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning fan bo‘yicha motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi hamda ularning dars jarayonidagi faolligini kuchaytirdi.

Yakuniy baholash natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Xususan, laboratoriya mashg‘ulotlarini mustaqil bajarish darajasi, kimyoviy jarayonlarni tushuntirish va tajriba natijalarini tahlil qilish ko‘nikmalari sezilarli ravishda yaxshilandi. O‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan kimyoviy masalalarni yechishda mantiqiy yondashuvdan foydalanish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish hamda ilmiy terminologiyani to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini namoyon etdilar.

So‘rovnoma natijalari ADDIE modeli asosida o‘tilgan darslar o‘quvchilar tomonidan qiziqarli, tushunarli va amaliy jihatdan foydali deb baholanganini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning aksariyati interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriyalar va tajriba mashg‘ulotlari orqali mavzularni yaxshiroq o‘zlashtirganliklarini qayd etdilar.

Statistik tahlil natijalari tajriba guruhida o‘rtacha baho ko‘rsatkichlari oshganini hamda bilim darajasining barqaror rivojlanishini tasdiqladi. Bu holat ADDIE modeli asosida tashkil etilgan kimyo darslarining ta’lim samaradorligini oshirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ADDIE modeli kimyo ta’limida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, laboratoriya mashg‘ulotlarini tizimli tashkil etish va o‘quvchilarda fan kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari ADDIE modeli kimyo ta’limini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida samarali tashkil etish imkonini berishini ko‘rsatdi. Model asosida loyihalashtirilgan o‘quv jarayoni nazariy bilimlar va amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlab, o‘quvchilarning laboratoriya ko‘nikmalari, muammo yechish qobiliyati va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tajriba natijalari ADDIE modeli orqali tashkil etilgan kimyo darslari o‘quvchilarning fan bo‘yicha motivatsiyasini oshirganini, dars jarayonida faol ishtirokini kuchaytirganini va bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash darajasini yaxshilaganini tasdiqladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va virtual laboratoriyalar bilan integratsiya qilish ADDIE modelining didaktik imkoniyatlarini kengaytirib, ta’lim sifatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shu asosda ADDIE modelini umumta’lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanini o‘qitish jarayoniga joriy etish metodik jihatdan maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Kelgusida mazkur model asosida fanlararo integratsiya, STEAM yondashuvi va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**. (2023). Kompetensiyaga asoslangan ta’lim standartlari. Toshkent.

2. **Jumaniyozov F. A., Qodirova G. Y.** (2021). Kimyo fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Pedagogik ta’lim jurnali, 4(2), 45–52.
3. **Karimova D. M.** (2020). Umumta’lim maktablarida kimyo fanini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. **Abdullaeva N. A.** (2022). Raqamli ta’lim muhitida tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi. Toshkent.
5. **Branch R. M.** (2009). Instructional Design: The ADDIE Approach. New York: Springer.
6. **Molenda M.** (2015). In Search of the Elusive ADDIE Model. Performance Improvement, 54(2), 40–42.
7. **Hofstein A., Lunetta V. N.** (2004). The Laboratory in Science Education: Foundations for the Twenty-First Century. Science Education, 88(1), 28–54.
8. **OECD**. (2019). PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing.
9. **Alimova F. A., Sodiqova U. B.** Kimyo darslarida XXI asr ko‘nikmalarini shakillantirishda kimyo fani o‘qituvchilarining pedagogik-psixologik jihatlari // Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida kimyo va uni o‘qitishdagi dolzarb masalalar: yutuqlar, muammo, yechimlar. Respublika konferensiyasi materiallari. 17-sentyabr 2024-yil, 9-bet.
10. **Sodiqova U. B.** Kimyo fanidan kritik va kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish metodikasi // Kolloidnaya ximija: innovatsii i resheniya dlya ximicheskoy texnologii, ekologii i promyshlennosti. Xalqaro ilmiy-texnik konferensiya materiallari. 7–8-fevral 2025-yil, 3-tom, 381-bet.
11. **Tatli Z., Ayas A.** (2012). Virtual Laboratory Applications in Chemistry Education. Educational Technology & Society, 15(1), 219–231.
12. **Merrill M. D.** (2013). First Principles of Instruction: Identifying and Designing Effective, Efficient and Engaging Instruction. San Francisco: Pfeiffer.

13. **Alimova F. A., Sodiqova U. B.** Kimyo fanidan kollaboratsiya va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir topshiriqlar ishlab chiqish metodikasi // Aniq va tabiiy fanlarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni: muammolar va innovatsion yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya materiallari. 4–5-oktyabr 2024-yil, 3-qism, 277-bet.

IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINING HOZIRGI HOLATI

Temirov Nurislom Xamidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Annotatsiya: *Maqolada investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi roli nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida investitsiyalar iqtisodiy o‘sish, tarkibiy o‘zgarishlar va innovatsion rivojlanishni ta’minlovchi muhim omil sifatida baholanadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, ularning o‘sish sur’atlari hamda moliyalashtirish manbalari tarkibi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *investitsiyalar, asosiy kapitalga investitsiyalar, investitsiya faolligi, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o‘sish, modernizatsiya, investitsiya siyosati.*

Abstract: *The article discusses the role of investment in economic development from a theoretical and practical perspective. Based on the analysis of scientific literature, investment is assessed as an important factor ensuring economic growth, structural changes and innovative development. On the example of the economy of*

Uzbekistan, the volume of investments in fixed capital, their growth rates and the composition of financing sources are discussed.

Key words: *investments, investments in fixed capital, investment activity, foreign investments, economic growth, modernization, investment policy.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль инвестиций в экономическом развитии с теоретической и практической точек зрения. На основе анализа научной литературы инвестиции оцениваются как важный фактор, обеспечивающий экономический рост, структурные преобразования и инновационное развитие. На примере экономики Узбекистана рассматриваются объемы инвестиций в основной капитал, темпы их роста и структура источников финансирования.*

Ключевые слова: *инвестиции, инвестиции в основной капитал, инвестиционная деятельность, иностранные инвестиции, экономический рост, модернизация, инвестиционная политика.*

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya faoliyati milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlovchi eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Global iqtisodiy integratsiya, texnologik yangilanishlar va raqobat muhitining keskinlashuvi sharoitida investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, balki iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, innovatsion salohiyatni oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Shu bois investitsiya faoliyatining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish va uning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini ilmiy asosda yoritish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Investitsiyalar iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, kelgusida daromad, ijtimoiy samara yoki strategik ustunlikka erishish maqsadida moliyaviy, moddiy va nomoddiy resurslarni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo‘naltirish jarayonini anglatadi. Ular asosiy kapitalni yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va inson kapitalini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tishga xizmat qiladi. Ayniqsa, real sektor va infratuzilma loyihalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar yalpi ichki mahsulot

hajmining oshishi, bandlik darajasining yaxshilanishi va iqtisodiy samaradorlikning ortishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Iqtisodiyotda investitsiyalarning tutgan o‘rni ularning ko‘p funksiyali xususiyati bilan belgilanadi. Bir tomondan, investitsiyalar takror ishlab chiqarish jarayonining moddiy asosini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsion rivojlanishni jadallashtiradi. Shu bilan birga, investitsiya faolligi iqtisodiy muhitning barqarorligi, institutsional sharoitlar, moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi va davlatning investitsiya siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi iqtisodiy taraqqiyot sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni masalasi iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda markaziy mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar investitsiyalarni nafaqat kapital qo‘yilmalar sifatida, balki iqtisodiy tizimning tarkibiy o‘zgarishlari, innovatsion rivojlanish va uzoq muddatli barqaror o‘sishni ta’minlovchi strategik omil sifatida talqin etadi.

Mazkur yondashuvning nazariy asoslari Sargsyan va Kalantaryan (2022) tadqiqotlarida tizimli tarzda yoritilgan. Mualliflar investitsiyalarni kapitalni ko‘paytirish maqsadida, risk va inflyatsiya omillarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan iqtisodiy jarayon sifatida ta’riflaydi. Ularning fikricha, makroiqtisodiy darajada investitsiyalar yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning eng o‘zgaruvchan, ammo eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, aynan investitsiya faolligi iqtisodiy o‘sishning barqarorligi va dinamikasini belgilaydi. Mualliflar investitsiyalarning tartibga soluvchi, rag‘batlantiruvchi, taqsimlovchi va indikativ funksiyalarini ajratib ko‘rsatib, ushbu funksiyalar orqali iqtisodiyot tuzilmasi, texnologik yangilanish va bandlik darajasiga ta’sir o‘tkazilishini asoslaydi. Ushbu nazariy yondashuv keyingi empirik tadqiqotlar uchun metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Nazariy qarashlarni empirik dalillar bilan mustahkamlovchi tadqiqotlardan biri Verbivska va hammualliflar (2024) tomonidan olib borilgan izlanishlardir. Ushbu tadqiqotda investitsiyalar barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy mexanizmi

sifatida baholanadi. Mualliflar turli daromad darajasiga ega mamlakatlar misolida investitsiya oqimlari bilan yalpi ichki mahsulot hamda mehnat unumdorligi o‘rtasida ijobiy va barqaror bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan. Tadqiqot natijalari investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi degan xulosaga olib keldi. Shu tariqa, Sargsyan va Kalantaryan tomonidan ilgari surilgan investitsiyalarning makroiqtisodiy funksiyalari Verbivska va boshqalarning empirik xulosalari bilan mantiqan uyg‘unlashadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini yanada torroq, ammo chuqurroq kesimda tahlil qilgan tadqiqotlardan biri Lailieva va hammualliflarning (2025) ishlari hisoblanadi. Ushbu tadqiqot rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda xorijiy investitsiyalarning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Mualliflar xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va institutsional bilimlarni transfer qilish vositasi sifatida ham muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, tadqiqotda tashqi kapitalga haddan tashqari bog‘liqlik bilan bog‘liq xavflar, jumladan, tashqi iqtisodiy zarbalarga nisbatan zaiflik, mahalliy korxonalar raqobatbardoshligining pasayishi va ijtimoiy nomutanosibliklarning kuchayishi kabi salbiy jihatlar ham asoslab beriladi. Bu jihatlar investitsiyalarning ijobiy ta’siri ularni qabul qiluvchi iqtisodiyotning institutsional sifati va siyosiy muhitiga kuchli darajada bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Makohon va hammualliflar (2020) tadqiqotlari transformatsion iqtisodiyotlarga ega mamlakatlar misolida davlat investitsiya siyosati iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhim instrument ekanini asoslaydi. Tadqiqotda investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi ko‘rsatilib, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar YaIM o‘sishini tezlashtirishi, iqtisodiy o‘sish esa o‘z navbatida investitsiya salohiyatini kengaytirishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, investitsiya samaradorligi iqtisodiyot tuzilmasi va davlat siyosatining prognozliligi, izchilligi hamda innovatsiyalarga yo‘naltirilganligiga bevosita bog‘liq ekanligi qayd etiladi. Ayniqsa, iqtisodiy inqiroz davrlarida investitsiya siyosati

makroiqtisodiy barqarorlashtirish va tarkibiy transformatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ko‘rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar investitsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning ko‘p qirrali va tizimli omili sifatida talqin qiladi. Nazariy va empirik yondashuvlarning uyg‘unligi investitsiyalarning iqtisodiy o‘sish, tarkibiy o‘zgarishlar, texnologik rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri kompleks xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, investitsiya faolligini oshirish va uning samaradorligini ta’minlash masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xorijiy olimlarning investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi roli haqidagi nazariy va empirik xulosalari ushbu jarayonning universalligi bilan birga, uning milliy iqtisodiyotlarning institutsional, tarkibiy va siyosiy xususiyatlariga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, investitsiya faoliyatining hozirgi holatini alohida mamlakat misolida tahlil qilish mazkur ilmiy qarashlarning amaliy ahamiyatini ochib berish imkonini beradi. Bu borada O‘zbekiston tajribasi alohida e’tiborga loyiqdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan. Yuqorida ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, investitsiyalar yalpi ichki mahsulot o‘sishi, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, texnologik modernizatsiya va bandlikni oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Mazkur nazariy xulosalar O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanish modelida ham o‘z tasdig‘ini topmoqda, chunki investitsiya faolligi iqtisodiy o‘sish sur’atlari va tarkibiy o‘zgarishlarning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda mamlakatda investitsiya faolligining sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. 2020-2024-yillar davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi qariyb 2,3 barobar oshib, investitsiya siyosatidagi tizimli o‘zgarishlar hamda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlarning amaliy samarasini namoyon etmoqda. Agar

2020-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 210,2 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 493,7 trillion so‘mga yetgan.

Mazkur davrda investitsiyalarning o‘sish sur’atlari ham izchil ijobiy tendensiyani namoyish etdi. Jumladan, 2021-yilda investitsiyalar hajmining o‘sish sur’ati 102,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkichning jadallashuvi kuzatilib, 2024-yilda 127,6 foizga yetdi. Bu holat investitsiya faolligining nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining bunday yuqori sur’atlarda o‘sishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatdi. Avvalo, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishga qaratilgan institutsional va normativ-huquqiy islohotlar tashqi moliyaviy resurslar oqimini kengaytirdi. Shuningdek, transport, energetika va ijtimoiy infratuzilma sohalarida yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarida kapital qo‘yilmalar hajmini sezilarli oshirdi. Bunga qo‘shimcha ravishda, sanoatni modernizatsiya qilish va raqamlashtirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan bo‘lsa, xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan qulay sharoitlar ichki investitsiya manbalarining faollashuviga turtki berdi.

Yuqorida qayd etilgan investitsiya hajmlarining o‘sishi ularning moliyalashtirish manbalari tarkibidagi muhim tarkibiy siljishlar bilan ham izohlanadi. So‘nggi yillarda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarda jalb qilingan mablag‘lar ustun mavqega ega bo‘lib, ularning ulushi jami investitsiyalarning 75,9 foizini yoki 374,7 trillion so‘mni (29,63 mlrd AQSh dollari) tashkil etdi. Mazkur holat O‘zbekiston iqtisodiyotida tashqi va bozor mexanizmlariga asoslangan moliyalashtirish manbalarining ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

Jalb qilingan mablag‘lar tarkibida kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar yetakchi o‘rinni egallab, ularning hajmi 159,6 trillion so‘mga (12,62 mlrd AQSh dollari) yetdi. Bu ko‘rsatkich investitsiya muhitining nisbatan barqarorlashgani va investorlar uchun davlat kafolatlarisiz ham kapital kiritish

imkoniyatlari kengayayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 150,5 trillion so‘mni (11,90 mlrd AQSh dollari) tashkil etib, real sektorni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar esa 23,6 trillion so‘m (1,87 mlrd AQSh dollari)ni tashkil etib, asosan yirik infratuzilma va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirildi.

Bundan tashqari, investitsiyalarning 24,1 foizi yoki 119,0 trillion so‘mi (9,40 mlrd AQSh dollari) ichki manbalar, ya’ni o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirildi. Ushbu segmentda korxonalar mablag‘lari yetakchi bo‘lib, ularning ulushi 87,0 trillion so‘mni (6,88 mlrd AQSh dollari) tashkil etdi. Bu holat xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faolligi va reinvestitsiya salohiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Aholi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi 32,0 trillion so‘mga (2,53 mlrd AQSh dollari) yetib, uy-joy qurilishi va kichik biznes loyihalarida ichki jamg‘armalarning roli mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Alohida ta’kidlash joizki, xorijiy investitsiyalar jami investitsiyalar tarkibida katta ulushni egallab, 333,8 trillion so‘mni (26,39 mlrd AQSh dollari) tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich xalqaro investorlarning O‘zbekiston bozoriga bo‘lgan ishonchi va qiziqishi ortib borayotganini, shuningdek, mamlakatda olib borilayotgan investitsiya siyosatining nisbatan ochiq va raqobatbardosh tus olayotganini tasdiqlaydi. Bu holat ilgari ko‘rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, xorijiy kapitalning iqtisodiy modernizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlarni jadallashtirishdagi muhim rolini milliy amaliyotda ham yaqqol namoyon etmoqda.

Shu tariqa, asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari tarkibi va ulardagi ustuvor yo‘nalishlar tahlili O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faolligi nafaqat miqdoriy jihatdan kengayib borayotganini, balki uning institutsional va tarkibiy jihatdan ham yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rsatadi. Aynan shu holat investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini yanada

chuqurroq baholash va ularning makroiqtisodiy natijalarga ta’sirini umumlashtirilgan holda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xulosa. Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim va ajralmas omili bo‘lib, ularning faolligi iqtisodiy o‘sish sur’atlari, tarkibiy o‘zgarishlar va innovatsion jarayonlarning jadallashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nazariy yondashuvlar investitsiyalarni yalpi ichki mahsulotni kengaytirish, bandlikni oshirish hamda mehnat unumdorligini yaxshilashning asosiy manbalaridan biri sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning samarasi institutsional muhit sifati, iqtisodiy siyosatning izchilligi va kapital qo‘yilmalarining yo‘naltirilish tuzilmasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng asoslab berilgan.

O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanish tajribasi investitsiya faolligining o‘sishi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining sezilarli darajada oshishi ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda. Investitsiyalarning o‘sish sur’atlari iqtisodiy islohotlarning amaliy samaradorligini va investitsion muhitning nisbatan yaxshilanib borayotganini aks ettiradi.

Moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiyalarning yuqori ulushi xalqaro kapital uchun ochiqlikning ortib borayotganini va mamlakatning global investitsiya jarayonlariga integratsiyalashuvini ifodalaydi. Shu bilan birga, korxonalar va aholi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiyalar ichki jamg‘armalar va tadbirkorlik faolligining kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bu holat investitsiya jarayonlarining yanada barqaror va muvozanatli rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi roli ularning hajmi bilan cheklanmay, balki kapital qo‘yilmalarining sifat jihatlari, tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti va institutsional muhit bilan o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, investitsiya siyosatini uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish va ularning iqtisodiy

o‘sishga real ta’sirini kuchaytirish barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Lailieva E.**, **Atakhanov A.**, **Toktosunova C.**, **Tkachenko A.**, **Donets D.** Study of the Role and Impact of Foreign Investment on Economic Growth in Developing Countries // International Journal of Accounting and Economics Studies. — 2025. — P. 372–380.
2. **Makohon V.**, **Radionov Y.**, **Adamenko I.** Investment Policy of the State as a Tool for Economic Growth of the Country // Problems and Perspectives in Management. — 2020. — P. 245–254.
3. **Sargsyan K.**, **Kalantaryan V.** The Role and Functions of Investments in Contemporary Economic System // Alternative. — 2022. — P. 80–86.
4. **Verbivska L.**, **Ihnatushenko O.**, **Petrovskyi O.**, **Pochernina N.**, **Zavora O.** The Role of Investments in Stimulating Economic Growth // International Journal of Religion. — 2024. — P. 1423–1432.

MILLIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSIYALARNING STRATEGIK ROLI

Temirova Shirin Shomuhammadovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada investitsiyalarning milliy iqtisodiy rivojlanishdagi strategik roli nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda investitsiyalar iqtisodiy o‘sish, tarkibiy modernizatsiya, raqobatbardoshlikni oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytiruvchi muhim omil sifatida yoritiladi.*

Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘sish sur’atlari va tashqi savdo ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligi O‘zbekiston misolida statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *investitsiyalar, milliy iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o‘sish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, eksport salohiyati.*

Abstract: *This article analyzes the strategic role of investment in national economic development from a theoretical and practical perspective. The study emphasizes the importance of investment as a driver of economic growth, structural modernization, increased competitiveness, and expanded export potential. Specifically, using statistical data from Uzbekistan as an example, it analyzes the relationship between foreign direct investment and economic growth rates and foreign trade indicators.*

Key words: *investments, national economic development, economic growth, foreign direct investment, investment policy, export potential.*

Аннотация: *В данной статье анализируется стратегическая роль инвестиций в национальном экономическом развитии с теоретической и практической точек зрения. Исследование подчеркивает важность инвестиций как фактора экономического роста, структурной модернизации, повышения конкурентоспособности и расширения экспортного потенциала. В частности, на основе статистических данных на примере Узбекистана анализируется взаимосвязь между прямыми иностранными инвестициями и темпами экономического роста и показателями внешней торговли.*

Ключевые слова: *инвестиции, национальное экономическое развитие, экономический рост, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная политика, экспортный потенциал.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi va tarkibiy modernizatsiyasi ko‘p jihatdan investitsiya jarayonlarining samaradorligiga bog‘liqdir. Investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim manbai sifatida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish,

texnologik yangilanishni jadallashtirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda inson kapitalini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois investitsiyalarni faqat moliyaviy resurslar oqimi sifatida emas, balki milliy iqtisodiy rivojlanishni strategik yo‘naltiruvchi omil sifatida baholash zarurati tobora ortib bormoqda.

Milliy iqtisodiyot rivojlanishining uzoq muddatli maqsadlariga erishishda investitsiyalarning ahamiyati ularning iqtisodiy tizimdagi ko‘p qirrali ta’siri bilan izohlanadi. Kapital qo‘yilmalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini ko‘paytirish va yangi qo‘shimcha qiymat zanjirlarini shakllantirish orqali iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tish imkonini yaratadi. Ayniqsa, innovatsion va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlangan investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy siljishlarni jadallashtiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, investitsiyalarning milliy iqtisodiy rivojlanishga ta’siri avtomatik xarakterga ega emas. Ularning samaradorligi investitsiya muhitining sifati, institutsional barqarorlik, davlatning iqtisodiy siyosati hamda kapital oqimlarining ustuvor tarmoqlar bo‘yicha yo‘naltirilishi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu jihatlar investitsiyalarni strategik boshqarish va ularni iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga moslashtirish masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantiradi.

Asosiy qism. Investitsiyalarning milliy iqtisodiy rivojlanishdagi roli iqtisodiy nazariyada bozor mexanizmlarining asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy tadqiqotlarda investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sish manbai, balki resurslarni samarali taqsimlash, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish vositasi sifatida talqin etilmoqda.

Ushbu yondashuv Lupu (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aniq ifodasini topgan. Muallif investitsiyalarni bozor iqtisodiyotining markaziy instituti sifatida ko‘rib, ularning moliyaviy resurslarni eng istiqbolli tarmoqlarga yo‘naltirish, innovatsion faollikni kuchaytirish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashdagi rolini ta’kidlaydi. Lupu investitsiyalarni iqtisodiy tizimda

o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizm sifatida baholab, kapital oqimlarining samaradorligi kelgusidagi investitsiya hajmini belgilovchi asosiy omil ekanini asoslaydi. Uning fikricha, kapitaldan foydalanish samaradorligi oshgani sari investorlar ishonchi kuchayadi va bu rivojlangan hamda yuqori texnologiyali tarmoqlarning tezlashgan o‘sishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, davlat va xususiy sektor investitsiya strategiyalarining uzoq muddatli milliy rivojlanish maqsadlari, jumladan, innovatsiyalar, texnologik yangilanish va inson kapitalini rivojlantirish bilan uyg‘unlashuvi strategik ahamiyat kasb etadi.

Investitsiyalarning strategik roli makroiqtisodiy darajada, ayniqsa infratuzilma rivoji orqali yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Fosu va Twumasi (2022) AQSh iqtisodiyoti misolida transport, energetika, aloqa va boshqa asosiy infratuzilma yo‘nalishlariga yo‘naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini empirik modellar asosida baholagan. Tadqiqot natijalari davlat infratuzilma investitsiyalaridagi barqaror o‘sish yalpi ichki mahsulotning uzoq muddatli va barqaror ko‘payishini ta’minlashini ko‘rsatadi. Mualliflar infratuzilma investitsiyalarini qisqa muddatli iqtisodiy rag‘batlantirish vositasi sifatida emas, balki ishlab chiqarish salohiyati, mehnat unumdorligi va texnologik innovatsiyalarni kengaytiruvchi strategik omil sifatida talqin etadilar. Bu yondashuv investitsiyalarning milliy raqobatbardoshlikni oshirishdagi tizimli ahamiyatini ochib beradi.

Tadqiqotchilar tomonidan investitsiyalarning strategik ta’siri xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (TXI) kontekstida ham keng o‘rganilgan. Asheghian (2004) AQSh iqtisodiyoti misolida olib borgan tadqiqotida FDI, umumiy faktor unumdorligi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qiladi. Empirik natijalarga ko‘ra, xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi, bunda sababiylik asosan TXI oqimlaridan iqtisodiy o‘sish tomonga yo‘nalgan. Muallif rivojlangan iqtisodiyotlar uchun xorijiy investitsiyalarni kapital yetishmovchiligini qoplash vositasi emas, balki texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va innovatsion amaliyotlarni

jalb qilish orqali uzoq muddatli iqtisodiy salohiyatni mustahkamlovchi strategik kanal sifatida baholaydi.

Mazkur ilmiy tadqiqotlar investitsiyalarni milliy iqtisodiy rivojlanishning markaziy strategik omili sifatida talqin etish imkonini beradi. Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ularning miqdoridan ko‘ra, samaradorligi, yo‘naltirilishi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unligi orqali belgilanadi. Bu holat investitsiya siyosatini strategik rejalashtirish va uni milliy iqtisodiy rivojlanish ustuvorliklariga moslashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu xulosalarning amaliy ahamiyati ularning aniq milliy iqtisodiyot sharoitida qanday namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Har bir mamlakatda investitsiya jarayonlarining samaradorligi institutsional muhit, davlat investitsiya siyosati va tarmoqlararo ustuvorliklar bilan chambarchas bog‘liq sanaladi. Shu nuqtai nazardan, investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini O‘zbekiston misolida tahlil qilish, nazariy yondashuvlarning amaliy natijadorligini baholash hamda milliy rivojlanish strategiyasi doirasida investitsiyalarning real strategik rolini aniqlash imkonini beradi deb xisoblaymiz.

2024-yilda O‘zbekistonda investitsiyalar asosan jalb qilingan mablag‘lar hisobiga shakllangan bo‘lib, ularning hajmi 29,63 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi. Bu holat milliy iqtisodiyotda investitsiya faolligi tashqi va aralash moliyalashtirish manbalariga tayanayotganini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Moliyalashtirish manbalariga ko‘ra investitsiyalar hajmi, 2024-yil

T.r.	Ko‘rsatkich	Hajmi, mlrd. AQSh doll.
1	**Jalb qilingan mablag‘lar, jumladan**	29,63
1.1	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya	12,62
1.2	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya	11,90

1.3	O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	1,87
2	**O‘z mablag‘lari, jumladan**	9,40
2.1	Korxonalar mablag‘lari	6,88
2.2	Aholi mablag‘lari	2,53

Jalb qilingan mablag‘lar tarkibida kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar (12,62 mlrd AQSh doll.) va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (11,90 mlrd AQSh doll.) yetakchi o‘rinni egallaydi. Davlat kafolatlarisiz jalb etilgan investitsiyalarning yuqori ulushi investitsiya muhitiga bo‘lgan ishonch ortib borayotganidan dalolat beradi, FDI hajmining sezilarli darajasi esa texnologik yangilanish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish uchun muhim strategik omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning nisbatan past ulushi (1,87 mlrd AQSh doll.) tashqi qarzni jalb qilishda muvozanatli yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi. Ichki moliyalashtirish manbalari 9,40 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, investitsiya jarayonida muhim, biroq ikkilamchi rol o‘ynaydi. Ularda korxonalar mablag‘lari ustun bo‘lsa-da, aholi jamg‘armalarining investitsiyalarga jalb etilishi hali cheklangan darajada qolmoqda. Keltirilgan jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda investitsiyalarni moliyalashtirish modeli tashqi manbalarga, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga tayangan holda shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu esa investitsiyalarning milliy iqtisodiy rivojlanishdagi strategik rolini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

2-jadval

2020-2024-yillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi

Ko‘rsatkichlar	**Yillar**				
	2020	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. AQSh doll.	3,6	5,9	8,2	10,1	11,4
YaIM o‘sishi, %	1,7	7,4	5,7	6,0	6,5
Eksport hajmi, mlrd. AQSh doll.	15,1	19,2	20,3	22,8	25,1

2-jadval ma’lumotlari 2020-2024-yillar davomida O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining barqaror va izchil o‘sib borganini ko‘rsatadi. Xususan, TXI hajmi 2020-yildagi 3,6 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilda 11,4 mlrd AQSh dollarigacha oshgan bo‘lib, bu investitsiya oqimlarining deyarli uch baravarga ko‘payganini anglatadi. Mazkur tendensiya investitsiya muhitining yaxshilanishi va xorijiy investorlar ishonchining mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

TXI hajmining o‘sishi yalpi ichki mahsulot dinamikasi bilan uyg‘unlikda kechmoqda. 2020-yilda iqtisodiy o‘sish sur’atlari 1,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda bu ko‘rsatkich barqaror tiklanib, 2024-yilda 6,5 foizga yetgan. Bu holat to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish faolligi, texnologik yangilanish va mehnat unumdorligining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. Bu borada tadqiqotchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar texnologiyalar transferi, eksport salohiyatining oshishi va milliy iqtisodiyotning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuviga xizmat qilishini, ayniqsa eksportga yo‘naltirilgan korxonalar va maxsus iqtisodiy zonalar orqali bu jarayon yanada kuchayishini ta’kidlaydilar (Ibragimov, 2025)

Shuningdek, eksport hajmining 2020-yildagi 15,1 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilda 25,1 mlrd AQSh dollarigacha oshishi TXI va tashqi savdo salohiyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar va modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish quvvatlari eksport

tarkibining kengayishiga va raqobatbardosh mahsulotlar ulushining oshishiga xizmat qilmoqda. Keltirilgan ma’lumotlar tahlili to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish va eksport salohiyatini kengaytirishning muhim strategik omillaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Bu esa investitsiya siyosatini iqtisodiy o‘sish va tashqi savdo strategiyalari bilan uzviy bog‘liq holda olib borish zarurligini asoslaydi.

Moliyalashtirish manbalari tarkibi hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dinamikasining tahlili O‘zbekistonda investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi omil sifatida, balki eksport salohiyatini kengaytirish, ishlab chiqarishning texnologik yangilanishini jadallashtirish va milliy iqtisodiyotning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini ta’minlovchi strategik mexanizm sifatida shakllanib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning barqaror o‘sishi ularning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri davlat tomonidan olib borilayotgan investitsiya siyosatining izchilligi, institutsional muhit sifati va ustuvor tarmoqlarga yo‘naltirilishi bilan chambarchas bog‘liq ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa. O‘zbekiston amaliyoti tahlili investitsiya jarayonlarida jalb qilingan mablag‘lar, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda TXI hajmining barqaror o‘sishi yalpi ichki mahsulotning ko‘payishi va eksport hajmining kengayishi bilan uyg‘unlikda kechmoqda. Bu holat xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va milliy iqtisodiyotning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuviga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri ularning hajmidan ko‘ra, samaradorligi, tarmoqlar bo‘yicha yo‘naltirilishi va institutsional muhit sifati bilan belgilanayotganini ko‘rsatadi. Investitsiyalarni strategik boshqarish, davlat va xususiy sektor investitsiya strategiyalarining uyg‘unligi hamda eksportga yo‘naltirilgan va texnologik tarmoqlarga ustuvorlik berish iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, investitsiyalar O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida shakllanib borayotgan bo‘lib, ularning strategik roli investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilgan iqtisodiy modelni rivojlantirish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Asheghian P.** Determinants of Economic Growth in the United States: The Role of Foreign Direct Investment // The International Trade Journal. — 2004. — Vol. 18. — P. 63–83.
2. **Fosu P.**, **Twumasi M.** Infrastructure and Economic Growth: Evidence from the United States // Journal of Infrastructure, Policy and Development. — 2022. — P. 1–13.
3. **Ibragimov G. G.** Theoretical Foundations and Macroeconomic Impact of Foreign Direct Investment: Insights and Implications for Developing Economies // Innovation Science and Technology. — 2025. — P. 113–117.
4. **Lupu C.** The Role of Investments and Investment Strategies in Developing the National Economy // Vector European. — 2023.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH: AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY USLUBLAR

Tojiyeva Muxabbatxon Mansurjon qizi

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini baholash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda kichik biznes samaradorligini aniqlashda qo‘llaniladigan an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. An’anaviy usullar asosan moliyaviy ko‘rsatkichlar va ishlab chiqarish samaradorligiga tayanishi, zamonaviy usullar esa ko‘p omilli, statistik va integrallashgan baholash mexanizmlarini o‘z ichiga olishi bilan farqlanishi ko‘rsatib berilgan. Maqolada an’anaviy va zamonaviy uslublarning turlari haqida yoritilgan bo‘lib, ularning qiyosiy tahlili asosida zamonaviy uslublarning afzalliklari asoslab berilgan hamda kichik biznesni baholashda ularni qo‘llash bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, samaradorlik, an’anaviy uslublar, zamonaviy yondashuvlar, integrallashgan indeks.*

Abstract. *This article addresses the issues of assessing the performance efficiency of small business entities. The study provides a systematic analysis of traditional and modern approaches used to determine small business efficiency. It is shown that traditional methods are mainly based on financial indicators and production efficiency, whereas modern approaches differ by incorporating multifactor, statistical, and integrated assessment mechanisms. The article describes various types of traditional and modern methods, and based on their comparative analysis, substantiates the advantages of modern approaches. In addition, scientific conclusions and practical recommendations are developed regarding the application of modern methods in evaluating small business performance.*

Keywords: *small business, efficiency, traditional methods, modern approaches, integrated index.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы оценки эффективности деятельности субъектов малого бизнеса. В исследовании системно проанализированы традиционные и современные подходы, применяемые для определения эффективности малого бизнеса. Показано, что традиционные методы в основном основываются на финансовых*

показателях и производственной эффективности, тогда как современные подходы отличаются использованием многофакторных, статистических и интегрированных механизмов оценки. В статье освещены виды традиционных и современных методов, а на основе их сравнительного анализа обоснованы преимущества современных подходов, а также разработаны научные выводы и практические рекомендации по их применению при оценке деятельности малого бизнеса.

Ключевые слова: *малый бизнес, эффективность, традиционные методы, современные подходы, интегрированный индекс.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kichik biznes aholi bandligini oshirish, daromad manbalarini kengaytirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va hududiy iqtisodiy muvozanatni ta’minlashda alohida o‘rin tutadi. Shu sababli kichik biznes faoliyatining samaradorligini baholash masalasi iqtisodiy tadqiqotlarda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kichik biznes samaradorligini baholashda uzoq vaqt davomida asosan an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanilgan. Biroq zamonaviy iqtisodiy jarayonlar, ma’lumotlar bazasining kengayishi va statistik usullarning rivojlanishi samaradorlikni baholashda yangi yondashuvlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi kichik biznes samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan an’anaviy va zamonaviy uslublarni tahlil qilish hamda ularning afzallik va cheklovlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Asosiy qism.

Ilmiy adabiyotlarda samaradorlikni baholash tushunchasi turlicha talqin etiladi. Ba’zi mualliflar samaradorlikni baholashni kompaniya natijalarini ayrim ko‘rsatkichlar orqali miqdoriy tahlil qilish jarayoni sifatida tushunadilar.

Boshqa tomondan, keyingi yillarda yozilgan ishlarda samaradorlikni baholash faqat miqdoriy bo‘lishi shart emasligi ta’kidlanadi. Bunday yondashuvda boshqaruv

sifati bahosi, mijozlar uchun yaratilgan qiymat va boshqa manfaatdor tomonlar uchun yaratilgan qiymatni aniqlash, kompaniyaning umumiy holatini yoritish hamda kelajakdagi takomillashtirish maqsadlarini belgilash muhim deb topiladi. Jumladan, Kaplan va Norton tomonidan taklif etilgan Balanced Scorecard (BSC) yondashuvi bu ko‘rsatkichlarni tizimli ravishda kuzatish imkonini beradi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar (sof foyda, rentabellik darajasi, aktivlar rentabelligi, aylanma tezligi) korxonaning iqtisodiy samaradorligini bevosita aks ettiradi. Ushbu indikatorlar orqali korxonaning moliyaviy barqarorligi, resurslardan optimal foydalanishi va xarajatlar bilan foydaning nisbatini o‘lchash mumkin.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish natijalari (mahsulot hajmi, xizmat ko‘rsatish soni, xodim boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot) ham samaradorlikni belgilovchi muhim parametrlar sirasiga kiradi. Bu ko‘rsatkichlar korxonaning texnik-iqtisodiy salohiyatini baholash, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash va jarayonni optimallashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, kichik biznesda ish kuchidan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish kabi omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Yana bir muhim yo‘nalish bu — ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular qatoriga bandlik darajasi, ayollar va yoshlar ishtiroki, mahalliy aholi bilan ishlash, korxonaning hududiy iqtisodiyotga ta’siri kabi jihatlar kiradi. Masalan, samaradorlikni baholashning Y.I. Yuvanen tomonidan taklif etilgan metodologiyasi ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikning integral ko‘rsatkichini o‘z ichiga oladi. Bu yerda ko‘rsatkichlar vazn koeffitsientlari yordamida, ular orasidagi kovariatsion bog‘liqlikni hisobga olgan holda hisoblanadi. Tadqiqotda qo‘llaniladigan kompleks yondashuv iqtisodiy tizimlarning turli tomonlardan va sohalardagi faoliyatini hisobga olish imkonini beradi, bu esa mintaqaning kichik biznes kabi turli xil, ko‘p funksiyali quyi tizimlarini baholash va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy yondashuvlarda samaradorlik indikatorlari birgina iqtisodiy o‘lchovlar bilan emas, balki ijtimoiy va institutsional indikatorlar bilan ham to‘ldiriladi.

Tadqiqotchilarning yondashuvlaridan kelib chiqib, korxona faoliyatini baholash uslublarini quyidagi ikki asosiy guruhga ajratilishi mumkin: an’anaviy va zamonaviy.

An’anaviy baholash uslublari - ushbu yondashuvlar asosan moliyaviy natijalarga asoslanadi. Bunday usullar kichik biznes subyektlarida keng qo‘llaniladi, chunki ular mavjud buxgalteriya va soliq hisobotlari orqali amalga oshiriladi. Baholash odatda o‘tgan davr natijalarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, belgilangan standartlar yoki o‘xshash korxonalar bilan solishtirish orqali olib boriladi.

Zamonaviy baholash uslublari - zamonaviy yondashuvlar faqat moliyaviy emas, balki nomoliyaviy (mijoz qoniqishi, innovatsion salohiyat, ichki jarayonlar samaradorligi) ko‘rsatkichlarni ham qamrab oladi. Kuchinskiene va boshqalar zamonaviy yondashuvlar orqali korxona strategiyasini baholash va uni doimiy takomillashtirish mumkinligini ta’kidlaydi.

Quyidagi jadvalda kichik biznes samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar tizimli tarzda umumlashtirilgan. Har bir yondashuvga xos usullar, ularning qisqacha tavsifi va amaliy qo‘llanilish maqsadlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

KTS samaradorligini baholash yondashuvlari tasnifi[106]

Yondashuv turi	**Usul/model**	**Tavsifi**	**Foydalanish maqsadi**
An’anaviy uslublar	Moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili	Foyda, rentabellik, likvidlik, fond qaytimi, kapital samaradorligi asosida tahlil	Moliyaviy barqarorlikni baholash

[106] Narkunienė, J.; Ulbinaitė, A. 2018. Comparative analysis of company performance evaluation methods, Entrepreneurship and Sustainability Issues 6(1): 125-138. https://doi.org/10.9770/jesi.2018.6.1(10) asosida muallif ishlanmasi

	DuPont tahlili	Rentabellikni komponentlarga ajratib tahlil qiladi	Moliyaviy tahlilni chuqurlashtirish
	Solishtirma tahlil	O‘xshash korxonalar bilan solishtirish orqali baholash	Benchmarking, nisbiy tahlil
	Ko‘rsatkichlar dinamikasi	Vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishni ko‘rsatadi	O‘sish/pasayish tendensiyalarini aniqlash
Zamonaviy uslublar	Iqtisodiy qo‘shilgan qiymat Bozor qo‘shilgan qiymati Aksiyadorlik qo‘shilgan qiymati	Sof foyda va kapital xarajatlar asosida baholash	Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash
	Faoliyat asosida hisoblash	Har bir faoliyat turi bo‘yicha xarajat va foyda hisoblash	Xarajatlarni optimallashtirish
	Balanced Scorecard (BSC)	Moliyaviy, mijoz, ichki jarayon va innovatsion o‘lchamlar	Strategik baholash
	KPI	Natijaviy ko‘rsatkichlarga asoslangan baholash	Ichki menejment samaradorligi

	Sifat menejmenti modellar	Tashkilot faoliyatini sifat asosida baholash	Sifatni boshqarish, mijoz ehtiyojiga moslik
	Sababiy bog‘liqlik modellar	Omillar va natijalar o‘rtasidagi bog‘liqliklar	Strategik rejalashtirish
	Biznes jarayon modellar	Jarayonlarni optimallashtirish	Jarayon samaradorligini aniqlash
	Ko‘p mezonli qaror qabul modellar	Ko‘p indikatorli baholash	Ko‘p mezonli tahlil
	SMART indikatorlar	Aniq, o‘lchanadigan, vaqtli indikatorlar	Operatsion monitoring

Quyidagi jadvalda esa an’anaviy va zamonaviy samaradorlikni baholash yondashuvlari asosiy mezonlar bo‘yicha solishtirilgan (2-jadval).

2-jadval

Samaradorlikni baholash yondashuvlarini solishtirish[107]

Mezoni	**An’anaviy uslub**	**Zamonaviy uslub**
Asosiy yondashuv	Xarajat/samaradorlikka asoslangan	Qiymat va strategiyaga asoslangan
Baholash obyekti	Natijalarni baholaydi	Natijalar va sabablarni baholaydi
Yo‘nalish	Foydaga yo‘naltirilgan	Mijozga va rivojlanishga yo‘naltirilgan

[107] De Toni A., Tonchia S. (2001). Performance measurement systems – Models, characteristics and measures. International Journal of Operations & Production Management. Vol. 21 (1/2), p. 46-71. https://doi.org/10.1108/01443570110358459.

Muddat	Qisqa muddatli	Uzoq muddatli
Ko‘rsatkichlar turi	Individual moliyaviy ko‘rsatkichlar	Kompleks ko‘rsatkichlar (KPI, BSC)
Qaror qabul qilish	Funksional ko‘rsatkichlarga tayanadi	Transversal (ko‘p yo‘nalishli) ko‘rsatkichlar
Monitoring usuli	Standart bilan solishtirish	Yaxshilanishni monitoring qilish
Maqsad	Faqat baholash	Baholash va jalb qilish

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini baholash bo‘yicha mavjud yondashuvlar ularning mazmuni, qo‘llash doirasi va natijalarga ta’siri bo‘yicha bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Kichik biznes samaradorligi bo’yicha ilmiy adabiyotlarni ko’rib chiqish uni baholashda mavjud uslubiy yondashuvlarning keng turini taqdim etadi. Biroq, bu vazifani osonlashtirmaydi. Asosiy muammo - ko’plab turli tadbirkorlik sub’ektlarini o’z ichiga olgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy quyi tizimi sifatida kichik biznesni kompleks o’rganishni ko’rib chiqish zarur. Kichik biznesnning samaradorligini aniqlashning asosiy maqsadi kichik biznesning hayotiyligini baholash, ularning aholi hayot sifatiga ta’siri darajasini tavsiflash va iqtisodiyotning o‘rganilayotgan sohasining rivojlanish darajasini aniqlashdir.

Ilg‘or xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes samaradorligini kompleks ko‘rsatkichlar orqali baholash va bu baholashda raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida esa bu yondashuvlarni bosqichma-bosqich va moslashtirilgan shaklda tatbiq etish kichik tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes samaradorligini baholash uchun yagona indikator yetarli emas. Tahlil jarayonida kompleks ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ularni statistik asosda sintez qilish va zamonaviy tahlil usullarini qo‘llash ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Bu esa nafaqat alohida

korxona darajasida, balki hududiy va milliy darajada ham kichik biznesni rivojlantirish siyosatini samarali rejalashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **De Toni A., Tonchia S.** Performance measurement systems – models, characteristics and measures // *International Journal of Operations & Production Management*. — 2001. — Vol. 21, No. 1/2. — P. 46–71. — DOI: 10.1108/01443570110358459.
2. **Kaplan R. S., Norton D. P.** Using the Balanced Scorecard as a strategic management system // *Harvard Business Review*. — 1996. — Vol. 74, No. 1. — P. 75–85.
3. **Kučinskienė M., Fominienė A.** Kompleksinis požiūris į viešojo valdymo institucijų veiklos vertinimą [Complex approach to evaluation of activity of public organizations] // Accounting, Audit, Analysis: Science, Studies and Business Synthesis. — Vilnius: Vilniaus universiteto leidykla, 2015. — P. 151–165.
4. **Narkunienė J., Ulbinaitė A.** Comparative analysis of company performance evaluation methods // *Entrepreneurship and Sustainability Issues*. — 2018. — Vol. 6, No. 1. — P. 125–138. — DOI: 10.9770/jesi.2018.6.1(10).
5. **Tojiyeva M. M.** Biznesni rivojlantirish samaradorligi hamda uni baholashning uslubiy yondashuvlari // *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*. — 2022. — № 5. — B. 52–58.

JIGAR KASALLIKLARINI TASHXISLASHDA SUN’IY INTELEKTNING AHAMIYATI

Tolibdjanova Malika Xusanovna

Tursunkulova Roxat Baxtiyorovna

Abdullayeva Dildor Xalilovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: Gepatit, alkogolsiz yog'li jigar kasalligi (NAFLD), sirroz va gepatotsellyulyar karsinoma (GHK) kabi jigar kasalliklari butun dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash sohasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishda davom etmoqda. 2022-yilda virusli gepatitning o'zi taxminan 1,3 million o'limga sabab bo'ladi, bu esa uni yuqumli o'limning asosiy sabablaridan biriga aylantiradi. Dunyo aholisining deyarli to'rtdan bir qismiga ta'sir qiluvchi NAFLD semizlik va metabolik sindromning ortib borayotgan darajasi tufayli tobora keng tarqalgan. Ushbu holatlar rivojlanib borishi bilan sirroz va GHK yuki ortib bormoqda, bu esa sog'liqni saqlash muammolarini yanada kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish, jigar kasalliklari, gepatit, alkogolsiz yog'li jigar kasalligi, jigar fibrozi, sirroz, gepatotsellyulyar karsinoma, ultratovush, kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiya, radiologiya, erta tashxis, prognozlash.*

Аннотация: Заболевания печени, такие как гепатит, неалкогольная жировая болезнь печени (NAFLD), цирроз и гепатоцеллюлярная карцинома (ГЦК), продолжают оставаться серьезной проблемой для системы здравоохранения во всем мире. Только вирусный гепатит в 2022 году стал причиной приблизительно 1,3 миллиона случаев смерти, что делает его одной из ведущих причин смертности среди инфекционных заболеваний. NAFLD, поражающая почти четверть населения мира, получает все большее распространение вследствие роста уровня ожирения и метаболического синдрома. По мере прогрессирования данных состояний увеличивается бремя цирроза и ГЦК, что еще больше усугубляет проблемы общественного здравоохранения.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, машинное обучение, заболевания печени, гепатит, неалкогольная жировая болезнь печени, фиброз

печени, цирроз, гепатоцеллюлярная карцинома, ультразвуковое исследование, компьютерная томография, магнитно-резонансная томография, радиология, ранняя диагностика, прогнозирование.

Abstract: Liver diseases such as hepatitis, non-alcoholic fatty liver disease (NAFLD), cirrhosis, and hepatocellular carcinoma (HCC) continue to pose significant challenges to healthcare systems worldwide. In 2022, viral hepatitis alone was responsible for approximately 1.3 million deaths, making it one of the leading causes of mortality among infectious diseases. NAFLD, which affects nearly one quarter of the global population, is becoming increasingly prevalent due to the rising rates of obesity and metabolic syndrome. As these conditions progress, the burden of cirrhosis and HCC continues to increase, further exacerbating global public health challenges.

Keywords: Artificial intelligence, machine learning, liver diseases, hepatitis, non-alcoholic fatty liver disease, liver fibrosis, cirrhosis, hepatocellular carcinoma, ultrasound, computed tomography, magnetic resonance imaging, radiology, early diagnosis, prognostication.

Gepatit, alkogolsiz yog'li jigar kasalligi (NAFLD), sirroz va gepatotsellyulyar karsinoma (GHK) kabi jigar kasalliklari global sog'liqni saqlashning asosiy muammosi bo'lib qolmoqda, samarali davolash uchun erta va aniq tashxis qo'yish juda muhimdir. Ultratovush (US), kompyuter tomografiyasi (KT) va magnit-rezonans tomografiya (MRT) kabi tasvirlash usullari invaziv bo'lmagan tashxisda muhim rol o'ynaydi, biroq, an'anaviy tasvirlash usullari kuzatuvchilar o'rtasidagi o'zgaruvchanlik, kasallikning dastlabki bosqichlarida sezgirlikning pasayishi va nozik patologik o'zgarishlarni sub'ektiv talqin qilish kabi ichki cheklovlarga duch keladi. Sun'iy intellektga asoslangan tasvirlash texnikalari jigar fibrozi, steatoz va HCC ni aniqlash, tasniflash va miqdoriy aniqlashni yaxshilashda sezilarli salohiyatni namoyish etdi.

Jigar kasalliklarini tashxislashda tasvirlashning muhim rolini hisobga olgan holda, sun'iy intellektning radiologiyaga integratsiyalashuvi diagnostika

metodologiyalarida paradigma o'zgarishini anglatadi **[1]**. Jigar kasalligiga shubha qilingan yoki tasdiqlangan bemorlarning standart klinik tekshiruvi klinik tarixni olish, klinik tekshiruv o'tkazish, laboratoriya testlarini o'tkazish va tasvirlash tadqiqotlarini sharhlashni o'z ichiga oladi. Jigar biopsiyalari hatto to'qimalar, hujayralar va molekulyar markerlardagi o'zgarishlarni baholashni talab qilishi mumkin. Umuman olganda, ushbu ma'lumotlar usullari juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlarni sharhlash hatto tajribali klinisyenlar uchun ham qiyin vazifadir va gepatologiyada diagnostika noaniqliklari ko'p. Sun'iy intellekt (AI) kompyuterlarga murakkab ma'lumotlar to'plamlaridan o'rganish va tibbiyot ichida va undan tashqarida real dunyodagi muammolarni hal qilish imkonini beradi, bu esa inson hamkasblari bilan teng yoki undan yaxshiroq natijalarga olib keladi. AI ma'lumotlarni tahlil qilishning hisoblash yondashuvlarini anglatadi, bunda kompyuter dasturlari mutaxassislar tomonidan aniq boshqarilmaydi, balki asosan misollardan o'rganiladi **[2].** Radiologiyada sun'iy intellektni qo'llashdagi yutuqlar diagnostika aniqligini, xavfni baholashni va kasallik prognozini bashorat qilishni oshirishi mumkin. Masalan, Oezsoy va boshqalar sun'iy intellekt muntazam kontrastli ultratovush ma'lumotlarida jigarning benign va xavfli o'smalarini tasniflashga yordam berishi mumkinligini ko'rsatdilar, bu esa qiziqish sohalarini segmentatsiya qilish kabi murakkab ma'lumotlarni oldindan qayta ishlashga ehtiyoj sezmasdan amalga oshiriladi. Sun'iy intellekt, shuningdek , ma'lum davolash usullariga, masalan, jigar saratoniga javoblarni bashorat qilishda ham rol o'ynaydi. Xususan, muntazam ravishda mavjud bo'lgan tasvir ma'lumotlaridan, masalan, atezolizumab-bevatsizumab holatida, immunoterapiya javobi bilan bog'liq bo'lgan ma'lum gen imzolarini bashorat qilish ilgari amalga oshirilgan edi. 28 EASL kongressida bitta poster bemorlarning immunoterapiyaga maqsadli terapiya va kimyoterapiya bilan javob berishini taxmin qilish uchun MRI tasvirlariga qo'llanilgan yengil GBM modeli bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etdi va AUC ga ~0,86 ga erishildi. Bu invaziv bo'lmagan shaxsiylashtirilgan tibbiyotga qadam sifatida salohiyatni ko'rsatadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt modellari yuqori xavfli bemorlarni aniqlash orqali genom tahlili bilan bog'liq yuqori xarajatlarni

bartaraf etmoqda **[3].** Sun'iy intellekt ilg'or tasvirlash texnikalari, ML algoritmlari va biomarker tahlili orqali sirroz va uning asoratlarini tashxislash va davolashning aniqligini oshirishda istiqbolli natijalarga erishdi. HCC bilan bog'liq yuqori o'lim darajasi asosan kech bosqichda tashxis qo'yish va an'anaviy davolash usullarining cheklangan samaradorligi bilan bog'liq bo'lib, operatsiya qilib bo'lmaydigan kasallik uchun 5 yillik omon qolish darajasi atigi 15% ni tashkil qiladi. HCC uchun an'anaviy bashorat qilish va xavfni stratifikatsiya qilish modellari ko'p o'zgaruvchan regressiya modellashtirish yordamida pastdan yuqorigacha bo'lgan xavf profillarini yaratish uchun demografik ma'lumotlarga, laboratoriya topilmalariga va elastografiyaga tayanadi. HCC uchun amaldagi ko'rsatmalar uning tabiiy tarixi, shikastlanishni aniqlash sezgirligi va skrining intervallarining iqtisodiy samaradorligi bilan asoslanadi. Biroq, katta ma'lumotlarni qayta ishlashdagi yutuqlar va zamonaviy algoritmlarni takomillashtirish xavfni stratifikatsiya qilish, diagnostika aniqligi va moslashtirilgan terapevtik yondashuvlarni yaxshilash uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi.

Gepatologiyada sun'iy intellektning qo'llanilishi murakkab jigar kasalliklarini davolashda diagnostika, davolash va shaxsiylashtirilgan yordam uchun innovatsion vositalarni taklif qilish orqali potentsial inqilob qilishi mumkin. Jigar kasalliklarining, xususan, yuqori kasallanish va o'lim bilan bog'liq bo'lgan MASLD va HCC ning global yuki ortib borishi bilan sun'iy intellekt erta aniqlashni takomillashtirish va davolash strategiyalarini individualizatsiya qilish uchun muhim resurs sifatida paydo bo'ldi. Mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqish gepatologiyada turli xil sun'iy intellekt texnikalarining muhim afzalliklarini ta'kidlaydi. Sun'iy intellekt rivojlangan fibroz va sirrozli bemorlarni aniqlashda va surunkali jigar kasalligida (CLD) klinik jihatdan ahamiyatli portal gipertenziyani (CSPH) bashorat qilishda aniqlikni namoyish etdi, bu ko'pincha an'anaviy invaziv va invaziv bo'lmagan diagnostika usullaridan ustun turadi **[4].**

Alkogolsiz yog'li jigar kasalligi (NAFLD) ham global miqyosda eng keng tarqalgan jigar kasalliklaridan biri bo'lib, alkogolsiz steatogepatit (NASH), jigar fibrozi, sirroz va gepatotsellyulyar karsinoma kabi og'irroq holatlarga o'tish xavfini

tug'diradi. NAFLDni tashxislash va bosqichma-bosqich aniqlash uning o'ziga xos bo'lmagan belgilari va jigar biopsiyalarining invaziv tabiati tufayli qiyinchiliklar tug'diradi. Sun'iy intellekt yordamida NASH steatoz bosqichini belgilash vazifasi (NASH bo'lmagan, steatoz 1-darajali, steatoz 2-darajali va steatoz 3-darajali) uchun 86% aniqlik darajasiga va NASH (steatoz 1-darajali, 2-darajali va steatoz 3-darajali) va NASH bo'lmagan holatlarni farqlash uchun ta'sirchan 96% AUC-ROC ga erishilgan, bu esa hozirgi zamonaviy modellardan ustun turadi. Diagnostika samaradorligidagi bu sezilarli yaxshilanish NAFLDni erta tashxislash va davolashda sun'iy intellektning qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlaydi, bu esa bemorlarning natijalarini yaxshilashga va jigar kasalligining rivojlangan bosqichi bilan bog'liq tibbiy yordam yukini kamaytirishga olib keladi **[5].** Yana bir jigarning og’ir kasalligi, jigar sirrozi - bu normal jigar to'qimasini tolali chandiq to'qimasi bilan almashtirishni o'z ichiga olgan va jiddiy sog'liq muammolarini keltirib chiqaradigan xavfli holat. Jigar biopsiyasi yordamida an'anaviy tashxis qo'yish usuli invaziv bo'lib, shuning uchun oddiy skriningda foydalanish uchun noqulaydir. Jigar fibrozini va sirrozni aniqlash aniqligini oshirish uchun su’niy intelektni klinik ma'lumotlar va ultratovush tekshiruvlari bilan birlashtirgan gibrid model taqdim etaldi. Model ultratovush tasvirlari uchun qattiq qon testi ehtimolliklarini chuqur o'rganish modeli bashoratlari (DenseNet-201) bilan birlashtiradi. Birlashtirilgan gibrid model 92,5% aniqlikka erishgan. Tadqiqot natijalari birlashtirilgan modelning tashxis aniqligini oshirish va jigar kasalliklarini davolashda erta aralashuvni qo'llab-quvvatlashda hayotiyligini tasdiqlaydi **[6].**

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, jigar kasalliklari global sog‘liqni saqlash tizimi uchun dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda va ularni erta aniqlash hamda samarali davolash muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellektga asoslangan algoritmlar tibbiy tasvirlarni chuqur tahlil qilish, kasallik bosqichlarini aniqlash, xavfni stratifikatsiya qilish va davolashga bo‘lgan javobni bashorat qilishda yuqori aniqlikni namoyon etmoqda. Ayniqsa, jigar fibrozi, sirroz va gepatotsellyulyar karsinomani invaziv bo‘lmagan usullar bilan aniqlashda AI ning samaradorligi muhim ahamiyatga ega. Kelajakda sun’iy intellektning gepatologiyaga keng joriy

etilishi jigar kasalliklari bilan bog‘liq kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Chenglong Yin**, Huafeng Zhang, Jin Du, Yingling Zhu, Hua Zhu, Hongqin Yue. Jigar kasalliklarini tashxislash uchun tasvirlashda sun’iy intellekt. — 25.04.2025.
2. **David Nam**, Yuliy Chapiro, Valeri Paradis, Tobias Pol Serafin, Yakob Nikolas Keter. Jigar kasalliklarida sun’iy intellekt: diagnostika, prognoz va javobni bashorat qilishni yaxshilash. — 02.02.2022.
3. **Laura Žigutytė**, Thomas Sorz-Nechay, Jan Clusmann, Yakob Nikolas Kater. Jigar kasalliklarida sun’iy intellektdan foydalanish: EASL kongressi-2024 dan olingan so‘rovnoma. — 12.2024.
4. **Sheza Malik**, Rishi Das, Tanita Tongtan, Ketrin Tompso, Nader Dbouk. Gepatologiyada sun’iy intellekt: jigar kasalliklarini tashxislash va davolashda inqilob. — 22.12.2024.
5. **Niloufar Delfan**, Pardis Ketabi Moghadam, Mohammad Khoshnevisan, Mehdi Husseini Chagahi, Behzad Xotami, Melika Asgharzodeh, Mohammadreza Zali, Behzad Moshiri, Amin Momeni Moghaddam, Mohammad Amin Kharov, Mohammad Amin Kharow. Yog‘li jigar kasalligida steatozni sun’iy intellektga asoslangan invaziv bo‘lmagan aniqlash va bosqichma-bosqich baholash: yangi kaskad modeli va axborot birlashtirish usullari. — 06.12.2024. — Elektron resurs: https://arxiv.org/abs/2412.04884
6. **Kapil Kashyap**, Shon Fargose, Chrisil Dabre, Fatema Dolaria, Nilesh Patil, Aniket Kore. Jigar fibrozi va sirrozini aniq baholash uchun ultratovush va qon tahlilini ovoz berish klassifikatori bilan birlashtirgan gibrid yondashuv. — 28.04.2025.

SEVGI HISSIYOTINING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARI

Umarxodjayeva Mo‘minaxon Saidturayevna
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sevgi hissiyotining inson hayotidagi o‘rni va uning yosh davrlariga xos psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Bolalik, o‘smirlik, yoshlik, kattalik va qarilik bosqichlarida sevgi hissining shakllanishi, emotsional yetuklik bilan bog‘liq jihatlar hamda shaxsning ruhiy rivojlanishiga ta’siri ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Maqolada zamonaviy psixologik yondashuvlar, jumladan, Erikson, Maslou, Fromm kabi olimlarning sevgi fenomeniga doir nazariyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sevgi hissi shaxsning ijtimoiylashuvi, o‘zini anglash jarayoni va hayotiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *sevgi, hissiyot, yosh xususiyatlari, psixologiya, emotsional yetuklik, shaxs rivoji.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль чувства любви в жизни человека и его психологические особенности в зависимости от возраста. Анализируются этапы формирования любви в детстве, подростковом, юношеском, зрелом и пожилом возрасте, а также влияние эмоциональной зрелости на проявления этого чувства. Используются современные психологические подходы и теории Э. Эриксона, А. Маслоу, Э. Фромма. Результаты исследования показывают, что любовь является важным фактором социализации личности и формирования её жизненных ценностей.*

Ключевые слова: *любовь, эмоции, возрастные особенности, психология, эмоциональная зрелость, развитие личности.*

Abstract: *This article analyzes the role of love in human life and its psychological characteristics across different stages of age. The study explores the*

development of love during childhood, adolescence, youth, adulthood, and old age, emphasizing the relationship between love and emotional maturity. Modern psychological theories by E. Erikson, A. Maslow, and E. Fromm are discussed to highlight the multidimensional nature of love. The findings demonstrate that love is a vital component of personal development, socialization, and the formation of individual life values.

Keywords: *love, emotion, age characteristics, psychology, emotional maturity, personal development.*

Sevgi inson hayotining eng chuqur va murakkab hissiyotlaridan biridir. U nafaqat emotsional, balki ijtimoiy, ma’naviy va psixologik jihatdan ham shaxs hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Psixologiya fanida sevgi tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, uni faqat romantik his-tuyg‘u sifatida emas, balki insonning o‘zini va boshqalarni anglash, mehr, sadoqat, empatiya, hamdardlik kabi ruhiy holatlar majmuasi sifatida ham izohlashadi.

Inson hayotining turli davrlarida sevgi hissi turlicha mazmunga ega bo‘ladi. Bolalikda u ota-ona va yaqinlarga bo‘lgan mehr, o‘smirlik davrida esa idealizatsiyalangan romantik tuyg‘ular shaklida namoyon bo‘ladi. Yoshlikda sevgi ko‘proq shaxsiy tanlov, emotsional bog‘lanish va o‘zini anglash jarayonlari bilan bog‘lanadi. Kattalik va qarilik davrida esa bu his yanada chuqurlashib, barqarorlik, ishonch va hayotiy tajriba bilan uyg‘unlashadi.

Psixologik jihatdan sevgi hissi shaxsning ijtimoiylashuvi, o‘zini baholashi, kommunikativ qobiliyatlari va ruhiy barqarorligining muhim ko‘rsatkichidir. Shu bois, sevgi hissiyotining yoshga xos xususiyatlarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy psixologiya uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Psixologiya fanida sevgi tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Masalan, E. Fromm (1956) sevgi insonning eng yuksak ijodiy energiyasi bo‘lib, u “insonni o‘z mohiyatini amalga oshirishga undaydigan kuch” deb hisoblaydi. A. Maslou esa sevgi ehtiyojini insonning o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish (self-actualization) jarayonidagi muhim bosqich sifatida ko‘rsatgan. Shuningdek, Z. Freyd sevgi hissini

jinsiy energiya (libido) bilan bog‘lagan bo‘lsa, K. Yung uni ruhiy integratsiya va shaxsning ichki uyg‘unligini ta’minlovchi jarayon sifatida ta’riflagan.

Umuman olganda, sevgi – bu insonning boshqaga, jamiyatga yoki g‘oyaga nisbatan chuqur mehr, e’tibor, sadoqat, g‘amxo‘rlik va yaqinlik hissidir. U kognitiv (fikr), affektiv (hissiyot) va konativ (xulq-atvor) komponentlardan tashkil topadi. Shuning uchun ham sevgi faqat hissiy hodisa emas, balki murakkab psixologik tizimdir.

Bolalik davri – bu sevgi hissining ilk shakllari paydo bo‘ladigan bosqichdir. Bola uchun eng birinchi sevgi manbai – onasi yoki unga g‘amxo‘rlik qiluvchi shaxsdir. J. Boulbiyning “bog‘lanish nazariyasi”ga ko‘ra, bolaning onaga bo‘lgan hissiy bog‘lanishi uning kelajakdagi barcha emotsional munosabatlarining asosi bo‘ladi. Bola onadan g‘amxo‘rlik, ishonch va mehrni his etar ekan, unda “dunyo xavfsiz joy” degan ichki model shakllanadi. Bu holat keyingi hayot bosqichlarida sevgi, do‘stlik va ijtimoiy aloqalarda barqaror emotsional fondni ta’minlaydi. Aksincha, e’tiborsizlik yoki sovuq munosabat bolaning psixikasida ishonchsizlik, qo‘rquv, emotsional beqarorlik kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Demak, bolalikdagi sevgi ko‘proq ota-ona va yaqinlarga bo‘lgan mehr, xavfsizlik hissi hamda bog‘lanish ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu davrda sevgi hali romantik tus olmagan, balki biologik va ijtimoiy himoya instinktlariga asoslangan shaklda kechadi.

O‘smirlik davri (taxminan 12–17 yosh) — bu emotsional beqarorlik, identifikatsiya jarayoni va jinsiy yetilish davri hisoblanadi. Bu paytda o‘smir o‘z “men”ini anglay boshlaydi, o‘zining jozibasi va boshqalarga ta’siri haqida o‘ylaydi. Shu bilan birga, bu davrda ilk romantik tuyg‘ular, sevgi va muhabbat haqidagi ideallashtirilgan tasavvurlar shakllanadi. E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davrining asosiy vazifasi — “identifikatsiya”ni topish, ya’ni kimligini anglashdir. Shu jarayonda sevgi ko‘pincha o‘zini tasdiqlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘smir o‘z sevgisida ko‘proq ideallikka, sadoqatga, his-tuyg‘ularning kuchiga urg‘u beradi. Ammo bu davrdagi sevgi hali emotsional barqarorlik va hayotiy tajribaga asoslanmaganligi sababli, tez o‘zgaruvchan, his-tuyg‘ularga boy, ammo mantiqan beqaror bo‘lishi mumkin. Psixologik tadqiqotlar

(A. Rean, D. Feldshteyn, N. K. Radina) ko‘rsatishicha, o‘smirlik davrida sevgi ko‘pincha platonik tusda bo‘ladi va o‘z-o‘zini baholash, shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Yoshlik (18–30 yosh) — bu shaxsning emotsional va ijtimoiy jihatdan yetuklikka intiladigan davridir. Bu bosqichda sevgi nafaqat hissiyot, balki ongli tanlov, mas’uliyat, sadoqat va hayotiy qarorlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Eriksonning “yaqinlikka qarshi izolyatsiya” bosqichi aynan shu davrga to‘g‘ri keladi. Shaxs o‘zini to‘liq anglagach, boshqalar bilan chuqur emotsional munosabat o‘rnatishga tayyor bo‘ladi. Shu sababli yoshlar davridagi sevgi — o‘zaro ishonch, maqsadlar mushtarakligi va emotsional uyg‘unlik bilan ifodalanadi. Maslou nazariyasiga ko‘ra, bu davrda sevgi ehtiyoji o‘zini ro‘yobga chiqarish yo‘lida asosiy motivatsion kuchga aylanadi. Shaxs hayotiy maqsadlarini belgilash, oilaviy munosabatlarni shakllantirish, barqaror hissiy aloqalar o‘rnatish orqali o‘zini to‘liq his etadi. Yoshlikdagi sevgi ko‘proq individual qadriyatlar, mustaqil qarorlar va shaxsiy tajribalar bilan belgilanadi. Shu sababli bu davrda sevgi faqat his-tuyg‘u emas, balki ijtimoiy mas’uliyat, ishonch va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tizimiga aylanadi.

Kattalik davri (30–55 yosh oralig‘i) — bu shaxsning hayotiy tajribasi to‘planib, emotsional barqarorlik, mas’uliyat va o‘ziga ishonch eng yuqori darajaga yetadigan davrdir. Ushbu bosqichda sevgi hissi ko‘proq realistik, chuqur va barqaror tus oladi. Agar yoshlikdagi sevgi ko‘proq ehtiros va romantik hayajon bilan bog‘liq bo‘lsa, kattalik davrida u hamkorlik, ishonch, do‘stlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash shaklida namoyon bo‘ladi. Shaxs bu davrda sevgini faqat hissiy tajriba emas, balki hayotiy sheriklik sifatida qabul qiladi. D. Sternbergning “uchburchak modeli”ga ko‘ra, yetuk sevgi — bu ehtiros, yaqinlik va sadoqatning uyg‘unligidir. Kattalik davrida aynan shu uch komponentning muvozanati sevgi barqarorligini ta’minlaydi. Bu davrda inson o‘z hayotini muayyan qadriyatlar, oila, farzandlar, kasbiy yutuqlar bilan bog‘lagani uchun sevgi hayotning markaziy tuyg‘usiga aylanadi. Shuningdek, bu davrda sevgi shaxsning psixologik sog‘lomligini qo‘llab-quvvatlaydi: yaqin munosabatlar stressni kamaytiradi, o‘zini qadrlashni oshiradi va ruhiy muvozanatni

mustahkamlaydi. Shu sababli psixologlar yetuklik davrida sevgi va emotsional iqlim o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaydilar.

Qarilik (60 yoshdan keyin) — inson hayotining refleksiv, falsafiy bosqichidir. Bu davrda sevgi hissi ko‘proq minnatdorlik, hurmat va mehr tarzida ifodalanadi. Romantik komponent pasaygan bo‘lsa-da, sevgi ruhiy tayanch, hayotdan mamnunlik va ichki tinchlik manbai sifatida davom etadi. Eriksonning “butunlikka qarshi noumidlik” bosqichi qarilik davriga to‘g‘ri keladi. Shaxs o‘z hayotini tahlil qilar ekan, u sevgi orqali hayotining mazmunini topadi. Unga oila, farzandlar, nabiralar, do‘stlar bilan emotsional aloqa muhim ruhiy qo‘llab-quvvatlash manbai bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar (C. Carstensen, 2006) shuni ko‘rsatadiki, keksa yoshdagi odamlar uchun sevgi his-tuyg‘usi ko‘proq “sokin, samimiy va mehrga to‘la” bo‘ladi. Ular ehtirosdan ko‘ra tinchlik va o‘zaro hurmatni qadrlashadi. Shu ma’noda, sevgi hayotning so‘nggi bosqichida insonning psixologik barqarorligini ta’minlovchi asosiy omilga aylanadi.

Sevgi hissi inson hayotining barcha bosqichlarida muhim psixologik ahamiyatga ega bo‘lib, har bir yosh davrida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bolalik davrida u xavfsizlik va bog‘lanish manbai bo‘lsa, o‘smirlikda o‘zini anglash va identifikatsiya vositasiga aylanadi. Yoshlikda sevgi ongli tanlov, sadoqat va ishonch bilan bog‘liq bo‘lsa, kattalikda u hayotiy hamkorlik, oila va emotsional yetuklik timsolidir. Qarilikda esa sevgi inson hayotining ma’naviy yakuniy bosqichini mazmun bilan to‘ldiruvchi, ruhiy osoyishtalik manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, sevgi hissi inson shaxsining ruhiy rivojlanishi, o‘zini anglash, ijtimoiylashuv va hayotiy qadriyatlar tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. U insonni yetuklikka, mehr-oqibatga va hayotiy uyg‘unlikka yetaklaydigan eng yuksak hissiy energiyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erich Fromm The Art of Loving. — New York, 1956.
2. Abraham H. Maslow Motivation and Personality. — New York, 1970.

3. Erik Erikson Childhood and Society. — New York, 1963.
4. Robert J. Sternberg A Triangular Theory of Love // Psychological Review. — 1986. — Vol. 93, No. 2. — P. 119–135.
5. John Bowlby A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development. — New York, 1988.
6. Laura L. Carstensen The Influence of a Sense of Time on Human Development // Science. — 2006. — Vol. 312, No. 5782. — P. 1913–1915.
7. Rean A. A., Feldshtein D. I. Psikhologiya razvitiya lichnosti. — Moskva, 2016.
8. Radina N. K. Psikhologiya polovogo i gendernogo razvitiya. — Moskva, 2014.

NOSIRIDDIN TUSIY G‘OYALARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH

Urazova Guli Uringaliyevna

Urganch davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk Sharq mutafakkiri Nosiriddin Tusiy merosidagi axloqiy va falsafiy qarashlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tarbiyasini va ma’naviyatini rivojlantirish metodikasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada boshlang‘ich sinflarga mos axloqiy tarbiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar va didaktik o‘yinlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ijobiy axloqiy fazilatlarni rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Nosiriddin Tusiy, didaktik o‘yin, metod, axloq, metodika, o‘quvchi, fazilat.*

Аннотация. *В данной статье освещаются вопросы формирования методики развития нравственного воспитания и духовности учащихся начальных классов на основе нравственных и философских взглядов, содержащихся в наследии великого восточного мыслителя Насириддина Туси. В статье представлены методы и дидактические игры, направленные на развитие нравственного воспитания, соответствующего начальным классам, которые способствуют повышению эффективности развития положительных нравственных качеств у учащихся.*

Ключевые слова: *Насириддин Туси, дидактическая игра, метод, нравственность, методика, учащийся, добродетель.*

Abstract. *This article examines the issues of developing a methodology for moral education and spirituality of primary school students based on the ethical and philosophical views contained in the heritage of the great Eastern thinker Nasir al-Din Tusi. The article presents methods and didactic games aimed at developing moral education appropriate for primary grades, which serve to increase the effectiveness of developing positive moral virtues in students.*

Keywords: *Nasir al-Din Tusi, didactic game, method, morality, methodology, student, virtue.*

Kirish. Axloqiy tarbiya bu har bir navqiron avlodning ma’naviy yuksalishida, jamiyatda to‘g‘ri axloqiy fazilatlarni shakllantirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi sinf o‘quvchilari tarbiyasida esa adolat, halollik, mehr-shafqat, bilimga intilish kabi fazilatlarni shakllantirish beqiyos ahamiyatga ega. Shu jumladan, Sharqning qomusiy olimlaridan biri sanalgan Nosiriddin Tusiy (1201–1274) o‘z asarlarida insonning axloqiy kamolotini, insoniy fazilatlarini, ilmga intilishni muhim o‘rin tutuvchi mavzu sifatida ko‘rsatgan. Shuning uchun ham, olimning g‘oyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari komil shaxs sifatida

tarbiyalash hamda manaviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish metodikasi yaratish bugungi kundagi dolzarb masala hisoblanadi.

Ayni paytda, Sharq boshlang‘ich ta’lim tajribasida quyidagi o‘ziga xosliklar mavjud:

-Ustoz-shogird an’anasiga tayanish;

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoaviy (o‘qituvchilar, murabbiylar, psixologlar, maktab jamoasi va ota-onalar ishtirokida) tarbiyalash;

-boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini O‘zbekiston sharoitida Prezident va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida o‘qish uchun tayyorlash;

- boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini oila va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash. [1, 13-bet]

Asosiy qism. Sharq mutafakkirlarilaridan biri bo‘lgan Nosiriddin Tusiy asarlaridagi axloqiy-falsafiy, pedagogik qarashlari orqali shaxs kamolotida tarbiyaning o‘rni hamda ahamiyatini chuqur asoslab bergan. Olimning g‘oyalari bugungi kundagi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda boshlang‘ich ta’lim jarayonida samarali qo‘llanishi mumkin. Bu bosqichda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida biror narsani o‘rganish kuzatish, taqlid qilish orqali shakllanib boradi. Shu sababdan ham, axloqiy, tarbiyaviy tushunchalarni ertaklar, didaktik o‘yinlar, hikoyalar, turli xil metodlar orqali o‘rganish samarali hisoblanadi.

Nosiriddin Tusiy g‘oyalariga va pedagogik qarashlariga tayangan holda axloqiy tarbiyani quyidagicha yo‘nalishlarda tashkil qilish maqsadga muvofiq:

-ijobiy xulq-atvor me’yorlarini o‘quvchilarda shakllantirish. Bunda jamiyatda odob-axloq hamda kundalik hayotda o‘zini tutish qoidalariga amal qilish tushuniladi. Bularga misol qilib, o‘quvchilarning bir-birini hurmat qilishi, yolg‘on gapirmasligi, salomlashishi, navbatda turish odobiga rioya qilishi, o‘z fikr va g‘oyalarini odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda ifodalashini aytishimiz mumkin.

-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda mas’uliyat hamda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Boshlang‘ich ta’lim davri o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb qiladi. Aynan shu bosqichda bolalarda mas’uliyat, qat’iyat, mustaqillik va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olish kabi muhim axloqiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Mas’uliyat hamda o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari o‘quvchining nafaqat ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki uning kelajakdagi hayotiy faoliyatini ham belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

-jamoada hamkorlik, hurmat va adolat tamoyillarini qaror toptirish. Tusiyning “Axloqi Nosiriy” asarida adolat tushunchasini quyidagicha izohlab bergan: “Adolat” so‘zining ma’nosi o‘z kelib chiqishi e’tibori bilan “barobarlik” va “muvozanat” so‘zi bilan bog‘liqdir, barobarlikni esa birlikni tushunmasdan anglamoq qiyin. “Birlik” sharaf va mukammal darajalarning eng quyi va eng yuksak martabasidan tamomila farqlangan maxsus tushunchadir, uning arig‘i o‘z suvini haqiqiy bir bo‘lgan ilk boshlang‘ich, ya’ni butun sanalgan borliqlarning mohiyatiga ta’sir etgan bir mutlaq vujudning nur selidan olingandir. [2, 99-bet] Nosiriddin Tusiy asarlari asosida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish metodlari va usullari:

-hikoya va ertaklar orqali – masalan, Nosiriddin Tusiyning hayoti va odoblari asosida qisqa hikoyalar o‘quvchilarga tushuntiriladi. Mavzuga mos savollar beriladi. Masalan, “Bu hikoyadan kundalik hayotingiz uchun qanday saboq olishingiz mumkin?”.

-rol o‘yinlari va mini-sahnalashtirish – o‘quvchilar turli vaziyatlarni sahnalashtirib, axloqiy qarorlarni mustaqil qabul qilishni o‘rganadilar. Bu orqali ularning xatti-harakatlarini baholab, qisqacha o‘z fikrlarini bildirib o‘tishadi.

-interaktiv va raqamli metodlar – videolar, animatsiyalar, onlayn viktorinalar orqali axloqiy qadriyatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. 21-asr fan va texnologiya shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda yashayapmiz. Dars jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga shu bilan birga o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlarning ahamiyati: o‘quvchilarning qiziqishini oshirish. didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otib, ularni dars jarayonida faol qatnashishga undaydi. O‘yin davomida o‘quvchilar mavzuni qiziqarli shaklda o‘zlashtiradilar va o‘z bilimlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, til o‘rgatishda “so‘z topish” o‘yini yoki matematikada “savol-javob” mashqlari qiziqish uyg‘otishga xizmat qiladi. O‘yin shaklidagi topshiriqlar orqali o‘quvchilar darsda olgan bilimlarini takrorlaydilar va amaliyotda qo‘llaydilar. Bunday o‘yinlar bilimlarning mustahkamlanishiga, ular orasidagi bog‘lanishlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. [3, 240-bet]

Didaktik o‘yin: “Donishmandlar xazinasi”. Ushbu didiaktik o‘yinning maqsadi o‘quvchilarning axloqiy tafakkurini rivojlantirish, hikmatli so‘zlarning ma’nosini tushunish, tahlil qilish hamda kundalik hayotda qo‘llash asosiy vazifa sanaladi. Didaktik o‘yinda ishtirok qilish uchun 3-4-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladi. Jamoa tarzida o‘yinda ishtirok qilishadi. Har jamoadan bilim darajasi va soni jihatidan teng taqsimlanishi kerak. Har bir jamoa o‘z guruhiga axlqiy fazilatlarga oid nom tanlaydi. Masalan, “Halollik”, “Mehnatsevarlar”, “Rostgo‘ylar”. Jamoalarga o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanib kelingan kartochkalar tarqatiladi. Bunda o‘qituvchi Nosiriddin Tusiyning “Axloqi Nosiriy” asaridagi hikmatli so‘zlaridan foydalanishi mumkin. Bir hikmatli so‘zini yozadi va bitta so‘zini tushirib qoldiradi. O‘quvchilar o‘zlari mantiqan topishlari kerak bo‘ladi. Aynan o‘sha so‘zni topishsa 2 ball, sinonimini topishsa 1 ball, ma’nosini izohlab berishsa 3 ballni qo‘lga kiritadi. O‘yin so‘nggida eng ko‘p ball to‘plagan jamoa g‘olib bo‘lib, jamoa a’zolari rag‘batlantiriladi. Masalan, “__ naqadar qattiq chopa olsa, sohibining amriga tobe bo‘lib go‘zal tarbiya olmoq qobiliyatiga molik bo‘lsa, egar va jilovga yetsa, shu qadar komil hisoblanadi”.[2, 37-bet] Kartochaga quyidagicha jumla yozilib va tushurib qoldirilgan so‘zni toping va izohlab bering deb yoziladi. Bu yerda tushirib qoldirilgan so‘z “ot” edi.

Ushbu didaktik o‘yin orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqy tafakkur, fikr yuritish, kritik tahlil qilish qobiliyati ham shakllanadi. Shu orqali bilimlari kengayadi, muammollarni tez va oson hal qilish rivolanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Nosiriddin Tusiyning axloqiy-falsafiy g‘oyalari, pedagogik qarashlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyasini shakllantirishda, ma’naviy kamolotini rivojlantishda samarali vosita sanaladi. Uning qadriyatlarini zamonaviy pedagogik metodlar, shu jumladan interaktiv va raqamli usullar bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarda axloqiy, ijobiy fazilatlarni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Jabborova O. M.**, **Umarova Z. A.**, **Babaxodjayeva L. G.** Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi: 5111700 — «Boshlang‘ich ta’lim» bakalavr talabalari uchun darslik. — 2021. — 198 b.
2. **Xo‘ja Nosiriddin Tusiy** Axloqi Nosiriy: risola [Matn]. — Buxoro, 2022. — 320 b. — Elektron resurs: ResearchGate.
3. **Musayeva N. N.**, **Musayeva N. A.**, **Xamdamova M. A.** Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati // Inter education & global study. — 2024. — № 10. — B. 236–242.

INTERAKTIV O‘YINLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Usmonova Nafosat Akmaljon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada interaktiv o‘yinlarning o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Ta’lim jarayonida interaktiv o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda muhim omil ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, ushbu maqolada interaktiv o‘yinlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *interaktiv o‘yinlar, kommunikativ kompetensiya, pedagogik imkoniyatlar, o‘quvchi faoliyati, ta’lim jarayoni, muloqot.*

Abstract*. This article analyzes the pedagogical possibilities of using interactive games in the formation of students’ communicative competence. The use of interactive games in the educational process contributes to the development of students’ speech activity, communication culture, and social interaction skills. The study substantiates the effectiveness of interactive games as an important pedagogical tool that increases students’ motivation, encourages active participation, and creates favorable conditions for effective communication in the learning environment.*

Keywords: *interactive games, communicative competence, pedagogical possibilities, student activity, educational process, communication.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются педагогические возможности использования интерактивных игр в формировании коммуникативной компетенции учащихся. Применение интерактивных игр в образовательном процессе способствует развитию речевой активности, культуры общения и навыков социального взаимодействия обучающихся. В работе обосновывается эффективность интерактивных игр как важного педагогического средства, повышающего мотивацию учащихся и создающего благоприятные условия для формирования коммуникативной компетенции.*

Ключевые слова: *интерактивные игры, коммуникативная компетенция, педагогические возможности, учебная деятельность, образовательный процесс, общение.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni jamiyatda faol muloqotga kirisha oladigan, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy jihatdan moslashuvchan shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kommunikativ kompetensiya shaxsning o‘z fikrini aniq va ravon ifodalashi, suhbatdoshni tinglashi, muloqot jarayonida faol ishtirok etishi hamda ijtimoiy munosabatlarni samarali yo‘lga qo‘yishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasi, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida dolzarb hisoblanadi. Mazkur bosqichda o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishi, muloqotga bo‘lgan ehtiyoji va ijtimoiy faolligi jadal shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda qo‘llaniladigan ta’lim metodlari o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi, ularni faol muloqotga undashi hamda ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirishi lozim.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil etish, xususan, interaktiv o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida e’tirof etib kelinmoqda. Interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularda erkin muloqot muhitini yaratadi va o‘quvchi–o‘quvchi hamda o‘qituvchi–o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlaydi. O‘yin faoliyati orqali o‘quvchilar o‘z fikrini bildirish, savol berish, bahs-munozarada ishtirok etish hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini egallaydi.

Shu bilan birga, interaktiv o‘yinlardan foydalanish ta’lim jarayonida motivatsiyani oshiradi, o‘quvchilarning psixologik to‘siqlarini bartaraf etadi va ularni faol nutqiy faoliyatga jalb etadi. Natijada ta’lim jarayoni yanada mazmunli va samarali tashkil etilib, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi.

Mazkur maqolada interaktiv o‘yinlar orqali o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan

tahlil qilinadi hamda ta’lim jarayonida ushbu metodlardan foydalanishning samarali yo‘llari yoritib beriladi.

Asosiy qism

1. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning pedagogik ahamiyati

Kommunikativ kompetensiya zamonaviy pedagogika, tilshunoslik va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab ilmiy tushuncha bo‘lib, shaxsning turli ijtimoiy va ta’limiy vaziyatlarda samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tushuncha nafaqat nutqiy bilim va ko‘nikmalarni, balki muloqot jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini ham qamrab oladi. Kommunikativ kompetensiya shaxsning muloqotga kirishish, suhbatni boshlash va davom ettirish, o‘z fikrini aniq ifodalash hamda suhbatdoshning nuqtayi nazarini tushunish va baholash qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Ilmiy manbalarda kommunikativ kompetensiya tarkibiy jihatdan bir nechta komponentlardan iborat ekanligi ta’kidlanadi. Jumladan, lingvistik komponent til birliklari va grammatik tuzilmalarni bilishni, nutqiy komponent esa ularni amaliy muloqot jarayonida to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llay olishni nazarda tutadi. Ijtimoiy-kommunikativ komponent muloqotning ijtimoiy qoidalari va madaniy me’yorlariga rioya qilishni, psixologik komponent esa muloqot jarayonida hissiyotlarni boshqarish, empatiya va o‘zaro tushunishni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponentlarning uyg‘un rivoji kommunikativ kompetensiyaning to‘laqonli shakllanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, kommunikativ kompetensiya o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Kommunikativ jihatdan rivojlangan o‘quvchi o‘qituvchi va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirishadi, savol-javoblarda faol ishtirok etadi, o‘z fikrini asoslab berishga harakat qiladi. Bu esa bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvning shakllanishiga olib keladi.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur bosqichda o‘quvchilarning nutqiy faoliyati jadal rivojlanadi, muloqotga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi va ijtimoiy munosabatlar shakllana boshlaydi. Ushbu davrda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yetarlicha e’tibor berilmasa, keyingi ta’lim bosqichlarida o‘quvchilarda muloqotga kirishishda qiyinchiliklar, o‘z fikrini ifodalashda noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin.

Shu boisdan, pedagogik jarayonda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan metod va vositalardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Interaktiv o‘yinlar ana shunday samarali pedagogik vositalardan biri bo‘lib, ular o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda muloqot faoliyatini faollashtirish, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va ijtimoiy tajriba orttirishga xizmat qiladi. Natijada kommunikativ kompetensiya o‘quvchi shaxsining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanadi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

2. Interaktiv o‘yinlarning pedagogik mohiyati va ta’lim jarayonidagi o‘rni

Interaktiv o‘yinlar zamonaviy pedagogikada shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. “Interaktiv” atamasi o‘zaro ta’sir va muloqotga asoslangan faoliyatni anglatib, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Pedagog olim L.S. Vygotskiy ta’lim jarayonida o‘yin faoliyatining ahamiyatini alohida ta’kidlab, o‘yinni bolaning rivojlanishida yetakchi faoliyat turi sifatida baholaydi. Olimning fikricha, o‘yin jarayonida bola o‘zining real imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanadi va aynan shu holat uning intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydi. Bu g‘oya interaktiv o‘yinlarning ta’lim jarayonidagi pedagogik mohiyatini asoslab beradi.

Amerikalik pedagog J. Dewey esa ta’limni faoliyat va tajriba bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, o‘quvchi bilimni tayyor holda emas, balki faol ishtirok orqali o‘zlashtirgandagina ta’lim samarali bo‘ladi. Interaktiv o‘yinlar aynan shu tamoyilga asoslanib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi va muloqot jarayonida faol bo‘lishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, J. Piaget o‘zining kognitiv rivojlanish nazariyasida o‘yinni bolaning tafakkurini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida ko‘rsatadi, o‘yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, tushunchalarni o‘zlashtiradi va muloqot orqali bilish faoliyatini kengaytiradi. Bu jihatlar interaktiv o‘yinlarning ta’lim jarayonidagi didaktik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Kommunikativ yondashuv tarafdori bo‘lgan olim D. Hymes kommunikativ kompetensiyani muloqot jarayonida shakllanadigan murakkab ko‘nikmalar majmui sifatida talqin qiladi. U til va nutq faqat mashq orqali emas, balki real muloqot vaziyatlarida rivojlanadi, interaktiv o‘yinlar ana shunday tabiiy muloqot muhitini yaratib, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi degan fikrni ilgari suradi.

Pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ichki motivatsiyani kuchaytiradi va psixologik qulay muhitni shakllantiradi. N. F. Talyzina ta’lim jarayonida faol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilish faolligini oshirib, bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirishga olib kelishini ta’kidlaydi. Ushbu fikr interaktiv o‘yinlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslaydi.

3. Interaktiv o‘yinlarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari

Interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida keng pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular ta’lim jarayonini muloqotga yo‘naltirilgan, faol va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur o‘yinlar o‘quvchilarni real kommunikativ vaziyatlarga yaqin sharoitda faoliyat yuritishga undaydi hamda ularning nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Olim D. Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko‘ra, til va nutq ko‘nikmalari faqat grammatik bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni real muloqot vaziyatlarida qo‘llay olish orqali shakllanadi. Ushbu yondashuv interaktiv o‘yinlarning pedagogik ahamiyatini asoslaydi, chunki o‘yin jarayonida o‘quvchilar tabiiy muloqot muhiti orqali nutqiy faoliyatni amaliyotda namoyon etadi.

Tilshunos olimlar M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiyani lingvistik, sotsiologik, diskursiv va strategik komponentlar majmui sifatida talqin qiladilar. Interaktiv o‘yinlar aynan ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladi. Jumladan, rol o‘yinlari va dialoglarga asoslangan mashg‘ulotlar lingvistik va diskursiv kompetensiyani rivojlantirsa, guruhli o‘yinlar ijtimoiy va strategik kompetensiyani mustahkamlaydi.

Psixolog olim L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” haqidagi g‘oyasi ham interaktiv o‘yinlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Uning fikricha, o‘quvchi tengdoshlari yoki o‘qituvchi bilan hamkorlikda faoliyat yuritish jarayonida o‘zining mustaqil bajara oladigan faoliyat darajasidan yuqoriroq natijalarga erishadi. Interaktiv o‘yinlar ana shunday hamkorlik muhitini yaratib, o‘quvchilarning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, J. Bruner ta’lim jarayonida ijtimoiy muloqot va hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlab, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni dialog asosida amalga oshirilishini qayd etadi. Uning fikriga ko‘ra, o‘quvchilar muloqot jarayonida nafaqat bilimlarni o‘zlashtiradi, balki o‘z fikrini ifodalash va himoya qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Interaktiv o‘yinlar ushbu dialogik muhitni samarali tashkil etishga imkon beradi.

Pedagogik tadqiqotlarda interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishi, muloqot jarayonida psixologik to‘siqlarni kamaytirishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishi qayd etilgan. N. F. Talyzina faol ta’lim metodlari o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ularni mustaqil va ongli ravishda muloqotga kirishishga undashini ta’kidlaydi. Bu jihat interaktiv o‘yinlarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini yanada

kengaytiradi. Natijada, interaktiv o‘yinlar o‘quvchilarda nafaqat nutqiy ko‘nikmalarni, balki muloqot madaniyati, ijtimoiy moslashuv va hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar interaktiv o‘yinlarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari interaktiv o‘yinlarning o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida kommunikativ kompetensiya shaxs rivojining ajralmas tarkibiy qismi ekanligi, u o‘quvchilarning nutqiy faolligi, muloqot madaniyati hamda ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda yetakchi omil bo‘lib xizmat qilishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv o‘yinlar ta’lim jarayonini o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar erkin muloqot muhitiga kirishib, o‘z fikrini ifodalash, savol berish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish hamda jamoaviy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, ijtimoiy va psixologik komponentlarining uyg‘un shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, interaktiv o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshiradi, ularning dars jarayonidagi faolligini kuchaytiradi va psixologik to‘siqlarni kamaytiradi. Natijada o‘quvchilar o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, muloqot jarayonida faol ishtirok etishga intiladi va o‘z fikrini asoslab berishga o‘rganadi. Bu holat ta’lim jarayonining umumiy samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar ham interaktiv o‘yinlarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, o‘yin faoliyatining rivojlantiruvchi, ijtimoiylashtiruvchi va motivatsion funksiyalari o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida interaktiv

o‘yinlardan tizimli va maqsadli foydalanish o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, interaktiv o‘yinlar kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning samarali pedagogik vositasi bo‘lib, ularni ta’lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqot natijalari ta’lim amaliyotida interaktiv o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, kelgusida mazkur yo‘nalishda chuqurroq empirik tadqiqotlar olib borish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Bruner J.** The Process of Education. — Cambridge, MA, 1960. — 234 p.
2. **Canale M., Swain M.** Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // *Applied Linguistics*. — 1980. — Vol. 1, № 1. — P. 1–47.
3. **Dewey J.** Democracy and Education. — New York, 1916. — 450 p.
4. **Ellis R.** Principles of Instructed Language Learning // *System*. — 2008. — Vol. 36, № 2. — P. 209–224.
5. **Gee J. P.** What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. — New York, 2003. — 250 p.
6. **Hymes D.** On Communicative Competence. — Philadelphia, 1972. — 259 p.
7. **Mirzaeva N.** Interaktiv o‘yinlar asosida o‘quvchilarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish. — Toshkent, 2020. — 184 p.
8. **Piaget J.** The Child’s Conception of the World. — London, 1929. — 348 p.
9. **Qodirova S. S.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi. — Toshkent, 2018. — 196 p.
10. **Richards J. C., Rodgers T. S.** Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge, 2014. — 480 p.
11. **Talyzina N. F.** Pedagogical Foundations of Active Learning. — Moscow, 1983. — 312 p.

12. **Vygotskiy L. S.** Thought and Language. — Cambridge, MA, 1962. — 210 p.

XORIJIY RIVOJLANGAN DAVLATLARNING PEDAGOGLAR TAYYORLASHDA RAQAMLI VA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Maqolada xorijiy rivojlangan davlatlarda pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida raqamli va masofaviy ta'lim texnologiyalarining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Finlyandiya, Germaniya, AQSh va Janubiy Koreya misolida pedagogik ta'limda raqamli platformalar, onlayn kurslar, virtual amaliyotlar va masofaviy ta'lim tizimlarining samaradorligi yoritilgan. Mazkur texnologiyalar pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda, uzluksiz kasbiy rivojlanish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari milliy ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlashni modernizatsiya qilish uchun nazariy-amaliy asos beradi.*

Kalit so'zlar: *xorijiy rivojlangan davlatlar, pedagoglarni tayyorlash, raqamli ta'lim, masofaviy ta'lim, kasbiy kompetensiya, innovatsion texnologiyalar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности применения искусственного интеллекта для развития разговорных навыков на английском языке. Анализируется роль интеллектуальных диалоговых систем, автоматизированных инструментов оценки и персонализированных образовательных платформ в процессе обучения иностранному языку. Показано, что технологии ИИ способствуют повышению речевой активности обучающихся, адаптации обучения к индивидуальным потребностям и созданию условий для аутентичного общения.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, разговорная речь, обучение английскому языку, цифровые технологии, персонализированное обучение, интерактивные платформы, образовательные инновации.*

Abstract. *This article examines the use of artificial intelligence in developing conversational skills in English. It focuses on intelligent dialogue systems, automated assessment tools, and personalized learning platforms and their roles in language education. The study argues that AI-based technologies enhance learners' speaking practice, adapt instruction to individual needs, and create authentic communication environments, thereby increasing overall learning effectiveness.*

Keywords: *artificial intelligence, conversational skills, English language learning, digital technologies, personalized learning, interactive platforms, educational innovation.*

Zamonaviy global raqamlashtirish sharoitida pedagoglarni tayyorlash jarayoni tubdan yangilanmoqda. Xorijiy rivojlangan davlatlarda raqamli va masofaviy ta'lim texnologiyalari pedagogik ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlashda asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. Shu sababli, xorijiy ilg'or tajribani o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Dunyoning kasbiy rivojlangan davlatlarida asosan raqamli ta'lim texnologiyalari o'rin egallagan. Masofaviy talim sohasiga esa endi rivojlanayotgan davlatlarga kirib kelmoqda. Shu sababdan bu ta'lim texnologiyalari o'zoro birlashuvi natijasida pedagog kadrlarni o'qitishda bu ta'lim texnologiyalari keng o'rin egallamoqda.

Pedagoglarni tayyorlashda raqamli va masofaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha dunyoning qator olimlari o'z ilmiy asarlarida fikrlar berib o'tishgan:

Ingliz olimi T.Bates o'z asarlarida "raqamli ta'lim pedagoglarni mustaqil ravishda o'qib rivojlanishiga sabab bo'ladi va olingan bilimlarni mustaqil qo'llashni ham rivojlantiradi" deb aytadi. AQSh olimi M.Fullan o'z ilmiy izlanishlarida masofaviy ta'lim har tomonlama talabalarni qulay sharoitda o'qishini taminlaydi va ilmiy innovatsiyalarni rivojlantirishda katta yo'l ochadi – deydi. UNESCO va

OECD tadqiqotlari xorijiy davlatlarda pedagogik raqamli kompetensiyalar ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichi ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek olimlaridan Sh.Abdullayev, N.Saydiahmedovlar o‘z asarlarida raqamli ta’lim texnologiyalari va masofaviy ta’lim texnologiyalari ta’lim sifatini bir bo‘g‘ini ekanligini takidlaydi.

Rivojlangan davlatlarda pedagoglarni tayyorlash jarayoni raqamli platformalar, LMS (Learning Management System), virtual laboratoriyalar va AR/VR texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. Finlyandiya va Germaniya: Raqamli didaktik modellar va interfaol mashg‘ulotlar pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida qo‘llaniladi. AQSh va Janubiy Koreya: Masofaviy ta’lim pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimining ajralmas qismi bo‘lib, pedagoglarning raqamli savodxonligi, mustaqil o‘rganish va reflektiv faoliyatini rivojlantiradi.

Masofaviy ta’lim pedagoglarni tayyorlash jarayonida quyidagi pedagogik imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- Ta’lim jarayonini individiualizatsiya qilish va moslashuvchanlik.
- Pedagoglarning mustaqil o‘rganish, o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan shaklda amalga oshirish.
- Uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlash (CPD).

Xorijiy rivojlangan davlatlarda pedagoglarni tayyorlashda raqamli va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayonni sifatli, samarali va moslashuvchan qiladi. Mazkur tajribani o‘rganish va milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini modernizatsiya qilish va uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Abdullayeva Sh.** Pedagogik texnologiyalar nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

2. **Bates T.** Teaching in a Digital Age. – Vancouver, 2015.
3. **Fullan M.** The New Meaning of Educational Change. – New York, 2016.
4. **OECD.** Education 2030: The Future of Education and Skills. – Paris, 2019.
5. **Sayidahmedov N.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
6. **UNESCO.** ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2018.

FINANCING OF THE HEALTHCARE SYSTEM BASED ON MEDICAL INSURANCE

Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi
Gulistan State University

Abstract. *The article highlights the essence of health insurance, analyzes the role of state health insurance in healthcare, and also examines the concepts of healthcare system development. Funds allocated from the State Budget to the State Medical Insurance Fund for 2022-2025 were selected and analyzed. The types of medical care currently provided in the Republic of Uzbekistan have been studied, conclusions and proposals have been made.*

Keywords: *medical insurance, compulsory insurance, medical care, insurance system, mechanism, concept, primary medical care, medical examination, volume of medical services, clinical protocol.*

Annotatsiya. *Maqolada tibbiy sug‘urtaning mohiyati yoritilgan, davlat tibbiy sug‘urtasining sog‘liqni saqlashdagi o‘rni tahlil qilingan, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish tushunchalari ko‘rib chiqilgan. Davlat byudjetidan Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga 2022-2025-yillar uchun ajratiladigan mablag‘lar tanlab olindi va tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam turlari o‘rganilib, xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tibbiy sug‘urta, majburiy sug‘urta, tibbiy yordam, sug‘urta tizimi, mexanizmi, tushunchasi, birlamchi tibbiy yordam, tibbiy ko‘rik, tibbiy xizmat hajmi, klinik protokol.*

Аннотация*. В статье освещается сущность медицинского страхования, анализируется роль государственного медицинского страхования в здравоохранении, а также рассматриваются концепции развития системы здравоохранения. Были отобраны и проанализированы средства, выделенные из Государственного бюджета в Государственный фонд медицинского страхования на 2022-2025 годы. Изучены виды оказываемой в настоящее время медицинской помощи в Республике Узбекистан, сделаны выводы и предложения.*

Ключевые слова: *медицинское страхование, обязательное страхование, медицинская помощь, система страхования, механизм, концепция, первичная медицинская помощь, медицинское обследование, объем медицинских услуг, клинический протокол.*

Entrance

In our country, the creation of a high-quality healthcare system that allows for the preservation and improvement of public health, and the creation of conditions for raising a healthy generation, is a priority of state policy.

As the President of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev emphasized, "Creating decent conditions for a prosperous life for our people is the main goal of our Constitution."[108]. Ўзбекистон Республикаси

As defined in the Constitution, "everyone has the right to healthcare and qualified medical care. Citizens of the Republic of Uzbekistan have the right to receive a guaranteed volume of medical care at the expense of the state in the manner prescribed by law. The state takes measures to develop the healthcare system, its

[108]Address by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony of the 26th anniversary of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. An educated generation is the key to a great future, an entrepreneurial people is the key to a prosperous life, and friendly cooperation is the key to progress. 2018. December 8. http://uza.uz/oz/politics/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018.

state and non-state forms, various types of medical insurance, and ensure the sanitary and epidemiological well-being of the population. The State creates conditions for the development of physical culture and sports, the formation of a healthy lifestyle among the population.[109].

The guaranteed volume of medical care is medical care provided to the population at the expense of the State Budget of the Republic of Uzbekistan in the manner prescribed by law. The standard of quality of medical care is a document containing a set of norms, rules, and requirements reflecting the achievement of the level of medical care over a certain period of time. Quality standards of medical care are mandatory for organizations engaged in medical activities and are used by them for planning and economic calculations in the provision of medical care. Medical services are understood as actions or a set of actions aimed at prevention, diagnosis, treatment, rehabilitation, as well as those provided during pregnancy and childbirth, having the characteristic of independently completed significance and value.

Medical assistance is a set of measures for assessing the state of human health and providing medical assistance to it, including prevention, diagnosis, treatment, rehabilitation, and palliative medical care by medical personnel. The principles for determining the guaranteed volume of medical care are: accessibility of medical care for all segments of the population; priority of preventive measures and medical services provided in primary health care medical institutions; differentiation of types of medical services by levels of medical institutions, as well as the sequence of their provision depending on the complexity of the medical services provided; transparency of the process of access to and provision of medical services.

Description of the methodology used in the study. In the research process, methods of logical thinking, forecasting, synthesis, mathematical, systematic approach, structural and comparative analysis, economic comparison, scientific generalization, and statistical calculation were used.

Analysis and results

[109] Constitution of the Republic of Uzbekistan. 2023. Article 148.. https://lex.uz/docs/6445145 .

As a result of the measures taken in our country, an increase in the efficiency, quality, and accessibility of medical services for the population has been ensured, and the main parameters of the UN Development Goals have been achieved. The achievements of our country in the field of healthcare during the years of independence were positively assessed by the international community. For example, life expectancy increased by 4.6 years - from 69.1 years in 1995 to 73.7 years in 2017. The maternal mortality rate decreased by 3.1 times, amounting to 21 cases per 100,000 live births, and infant mortality decreased by 3.1 times, amounting to 11.5 cases per 1,000 live births. The level of coverage of children with vaccination and preventive measures against the most common diseases is maintained at 96-98 percent. The introduction of comprehensive preventive, anti-epidemic, and sanitary-hygienic measures to combat infectious diseases has made it possible to fully protect against the occurrence of especially dangerous infectious diseases (plague, cholera), poliomyelitis, diphtheria, tetanus, malaria, measles, and rubella. Certificates of the World Health Organization on the elimination of the wild strain of poliomyelitis (2002), measles and rubella (2017), malaria (2018) were obtained. At the same time, some problematic issues and negative phenomena persist in the organization of healthcare, hindering the effective solution of tasks related to the further improvement of the citizens' healthcare system.

The goals of the Concept for the Development of the Healthcare System of the Republic of Uzbekistan are defined. [110]:

1. Increasing life expectancy by improving the results of prevention and treatment of diseases and conditions that in most cases lead to premature death and disability.

2. Reforming the healthcare financing and organization system to ensure equal access to medical care, financial protection of the population, and fair allocation of resources.

[110] *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. 5590 "On Comprehensive Measures for the Fundamental Improvement of the Healthcare System of the Republic of Uzbekistan." 2018. December 7.*

3. Strengthening the capacity of healthcare management bodies, increasing the role and responsibility of their heads for the implementation of the tasks of the Concept and improving the quality of medical care provided to the population of the republic.

The Concept for the Development of the Healthcare System of the Republic of Uzbekistan for 2019-2025 was developed in accordance with the regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan regulating activities in the field of healthcare, as well as international treaties in the field of public health protection within the framework of the regional policy Health-2020 and Sustainable Development Goals-2030. The Concept includes approaches based on the recommendations of the World Health Organization, as well as the experience of advanced countries that have achieved great success in reforming the healthcare system

1-table.

Tasks of the Concept for the Development of the Healthcare System of the Republic of Uzbekistan [111]

№	Tasks of the Concept for the Development of the Healthcare System of the Republic of Uzbekistan
1.	Ensuring comprehensive legal regulation of the industry with the implementation of international standards and recommendations of the World Health Organization.
2.	Development of mechanisms for effective interdepartmental interaction and contacts in the field of public health, including solving problems that negatively affect social and economic determinants of health, development of a healthy and safe environment, improvement of water supply and sanitation, healthy nutrition, including healthy

[111] *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. 5590 "On Comprehensive Measures for the Fundamental Improvement of the Healthcare System of the Republic of Uzbekistan." 2018. December 7..*

	nutrition of infants and children, as well as the formation of a healthy lifestyle.
3.	Strengthening the public health system, including the development of the sanitary and epidemiological service, improving the system of control over infectious and non-infectious chronic diseases, introducing and implementing the International Health Regulations.
4.	Reforming the district level of healthcare, strengthening maternal and child healthcare, improving and developing specialized and palliative medical care to ensure effective integration of primary and secondary healthcare, emergency medical care medical institutions.
5.	Improvement of the system of financing and organization of healthcare, legislative consolidation of the state-guaranteed volume of free medical care, and phased introduction of compulsory health insurance.

In accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Protection of the Health of Citizens" and the "Concept of Healthcare System Reform," one of the sources of state financing of the healthcare system is funds received from medical insurance. Implementation of contractual relations through medical insurance creates, first of all, a source of additional financial support in the healthcare system. This, in turn, contributes to improving the quality of medical services and ensuring the attention of various segments of the population to their health.

2-table.

Dynamics of funds allocated from the State Budget to the State Medical Insurance Fund [112]

млрд.сўмда

№	Years	State Budget Funds
1.	2022	1721,3

[112] Compiled based on data from the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan.

2.	2023	3770,2
3.	2024	3708,5
4.	2025	22 386,2

As a result of the implementation of the proposal to introduce a medical insurance system, 1721.3 billion soums were allocated from the State Budget to the State Medical Insurance Fund in 2022, 3770.2 billion soums in 2023, 3708.5 billion soums in 2024, and 22386.2 billion soums are planned to be allocated in 2025. "In 2024, the revenues of the State Medical Insurance Fund are projected to be 4,000.5 billion soums. The amount of transfers allocated to the Fund from the State budget is projected to be 3708.5 billion soums. The Fund's expenditures are proportional to budget transfers, these funds are mainly directed to the purchase of medical services from state and private medical organizations within the framework of state-guaranteed medical care and the maintenance of the Fund.[113]. Taking into account the expansion of the Fund's activities in other regions of the republic, its branches will be created first in the Syrdarya region and the city of Tashkent, and then in the remaining regions.

"The State Medical Insurance Fund will be established from December 1, 2020. The volume of financing for expenses related to the maintenance of the Fund is set at 2% of the funds allocated from the State Budget for the purchase of guaranteed medical services. Budgetary funds allocated for the purchase of medical services are transferred to the personal treasury account for extra-budgetary funds of the Fund, and the balance of funds at the end of the reporting period remains at the disposal of the Fund. The main tasks of the Fund are: [114]:

[113] https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/2023_2025_Фискал_стратегия.2023-2025. - Б.50.

[114] Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. 4890 "On Measures for the Implementation of a New Model for Organizing the Healthcare System and Mechanisms of State Medical Insurance in the Syrdarya Region." November 12, 2020.

✓ ensuring interdepartmental interaction in the implementation, management of the state health insurance system and the implementation of a unified state policy in this area;

✓ implementation of a system of strategic procurement of medical services in order to provide all segments of the population with high-quality and necessary medical care within the framework of the guaranteed package;

✓ Accumulation, management, organization of targeted and effective spending of funds allocated from the State budget for financing the guaranteed package within the framework of the pilot project;

✓ Implementation, based on the results of the pilot project, of the necessary measures for the phased implementation of the state health insurance system in other regions of the republic.

"The Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan, in coordination with the Ministry of Finance and the Ministry of Economy and Industry of the Republic of Uzbekistan, is the authorized body that forms the list of guaranteed volumes of medical care covered by the State Budget of the Republic of Uzbekistan. Guaranteed volumes of medical care according to the List are financed within the funds allocated from the State Budget of the Republic of Uzbekistan for the corresponding financial year under the item "Healthcare."[115]. The Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan shall, by December 20, 2019, place the List on the official website of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan by December 31, and annually update it in subsequent years within the same timeframe. In all state medical institutions of the republic, relevant extracts from the List (in the state language and Russian) are mandatory for placement annually by December 31 in accordance with the profile of the activities of these institutions. This List applies to the provision of medical care in medical organizations that are part of the structure of the Ministry

[115] Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 832 "On Approving the Regulation on the Procedure for Forming the List of Guaranteed Volumes of Medical Care Covered by the State Budget of the Republic of Uzbekistan." 2019. September 30.

of Health of the Republic of Uzbekistan. The following table shows the types of medical care provided in the Republic of Uzbekistan.

3-table

Types of medical care provided in the Republic of Uzbekistan [116]

№	Types of medical care	Content of medical care
1.	Emergency medical care	Type of medical care provided in sudden acute diseases, conditions, and exacerbation of chronic diseases without clear signs threatening the patient's life
2.	Emergency medical services	Type of emergency medical care in sudden acute diseases, conditions, and exacerbation of chronic diseases that threaten the life of a patient
3.	Emergency medical services	A type of medical care provided in cases of illness, accidents, injuries, poisonings, and other situations requiring emergency medical intervention under any circumstances. Emergency medical care includes immediate and urgent medical care
4.	Scheduled medical care	Type of medical care provided during preventive measures, in diseases and conditions that do not pose a threat to the patient's life, do not require urgent and urgent medical care. Providing such assistance for a certain period of delay does not lead to a deterioration in the patient's life, life, or health.

[116]Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 832 "On Approving the Regulation on the Procedure for Forming the List of Guaranteed Volumes of Medical Care Covered by the State Budget of the Republic of Uzbekistan." 2019. September 30. REGULATION on the procedure for forming the list of guaranteed volumes of medical care covered by the State Budget of the Republic of Uzbekistan.

5.	Plliative care	Type of medical care representing a complex of medical interventions aimed at alleviating pain and alleviating other severe manifestations of the disease in order to improve the lives of patients suffering from an incurable disease
6.	Primary health care	Type of medical care provided in outpatient settings and including measures for prevention, diagnosis, treatment of diseases, observation of pregnancy, formation of a healthy lifestyle and sanitary and hygienic awareness of the population

When forming the list by volumes of emergency medical care, the following types of expenses are taken into account: transportation costs, including transportation of patients to the place of emergency care, as well as from one medical institution to another on urgent or urgent indications, diagnosis, treatment, including provision of medicines and medical devices; stay in the hospital for urgent and urgent indications; meals during the period of stay in the hospital for urgent and urgent cases.

The list is regulated by quotas using electronic information systems that record the queue for the provision of medical services within the approved volumes of specialized (including high-tech) medical care provided in inpatient settings in organizations of the district, city, regional, and republican levels, based on referrals issued in the prescribed manner.

When including guaranteed volumes of medical care in the List, compliance with the following criteria is ensured. In financing, more attention is paid to the types of medical care that ensure the achievement of a high level of public health indicators, the fulfillment of target indicators for the effectiveness of the implementation of the Concept for the Development of the Healthcare System of the Republic of Uzbekistan for 2019-2025 (Table). Guaranteed volumes of medical care in Uzbekistan should primarily cover preventive, rehabilitation measures and

palliative care services, as well as be aimed at the prevention and treatment of major diseases that are leading in mortality and disability rates.

Conclusion

As a result of carrying out research work on improving the mechanisms of budget and medical insurance in financing the healthcare system in the Republic of Uzbekistan, a number of scientific conclusions and practical proposals were formulated..

1. The healthcare system is a system of social, economic, and medical measures aimed at protecting public health. As an economic category, "medical service" is a service of the social sector within the structure of national wealth. Within the framework of social services, medical services occupy a special place in terms of their importance.

2. In order to ensure the stability of revenues and expenditures of the state budget, theoretical, methodological, and organizational issues aimed at financing the expenditures of budget organizations in the healthcare sector are of great importance.

3. The introduction of medical insurance in Uzbekistan will lead to a radical change in society's attitude towards healthcare, an increase in the personal responsibility of citizens for participating in insurance financing, ensuring the transparency of medical insurance for the public, removing a significant burden of healthcare costs from the state, the development of the medical services market, the penetration of a competitive environment into this sphere, and the creation of opportunities for attracting additional innovations. Financing of the healthcare sector will be effectively managed in the new model with the closure of the state medical insurance mechanism.

4. State regulation in the field of social services, including in the field of medicine, is based on the protection of consumer interests, the coordination of state and private interests, and the creation of socio-economic conditions for improving and developing the entrepreneurial activity of institutions belonging to the social service sector.

REFERENCES

1. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** – 2023. – 50 b. – https://lex.uz/docs/6445145
2. **O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.** – 1997 yil, 1 mart. – www.lex.uz
3. **O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.** – 2013 yil, 26 dekabr. – www.lex.uz
4. **O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli Qonuni.** – 2021 yil, 22 aprel. – www.lex.uz
5. **Abduraxmonov Q.X.** Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 418 b.
6. **Umrzoqova M.** O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtaning shakllanish shart-sharoitlari va rivojlanish omillari // Ekspert. – Toshkent, 2019, 1-son. – B. 13–17.

TA’LIM TOJIK TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA “MORFOLOGIK TANQISLIK” MUAMMOSI (Julia Herschensohnning “Morphological Defitcit Hypothesis” nazariyasi asosida)

Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktablarning 2–3-sinf o‘quvchilarida o‘zbek tili o‘qitish va o‘zlashtirishda kuzatiladigan morfologik tanqislik muammosi Julia Herschensohnning “Morfologik defitsit” (Morphological Defitcit Hypothesis) nazariyasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘zbek tilidagi tabiiy ijtimoiy-lisoniy muhitda yashayotgan tojik tilli o‘quvchilarning kundalik muloqot ko‘nikmalari va yozma nutqida uchraydigan morfologik xatoliklar (defitsit) aniqlangan. Shu bilan birga muammoning tub*

mohiyati o'quvchilarda morfologik bilimlarning to'liq shakllanmaganligi bilan bog'liqligi asoslanib, tajriba-sinov jarayonidagi xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablar, ikkinchi tilni o'zlashtirish, ikkinchi tilni o'qitish, morfologiya, morfologik tanqislik, formal learning, informal learning.*

Abstract. *This article analyzes the problem of morphological deficit in the teaching and acquisition of the Uzbek language among 2nd and 3rd-grade pupils of schools with Tajik as the language of instruction, based on Julia Herschensohn's "Morphological Deficit Hypothesis." The study identifies morphological errors (deficits) occurring in the daily communicative skills and written speech of Tajik-speaking students living in a natural socio-linguistic Uzbek environment. Furthermore, it is substantiated that the core of this problem lies in the incomplete development of morphological knowledge within the students' mental grammar; the article concludes with findings and results derived from the experimental research process.*

Keywords: *Tajik-medium schools, second language acquisition (SLA), second language teaching, morphology, morphological deficit, formal learning, informal learning.*

Аннотация. *В данной статье на основе теории «морфологического дефицита» (Morphological Deficit Hypothesis) Джулии Хершенсон (Julia Herschensohn) анализируется проблема недостаточной сформированности морфологических навыков в процессе преподавания и освоения узбекского языка учащимися 2–3-х классов школ с таджикским языком обучения. В ходе исследования выявлены морфологические ошибки (дефициты), проявляющиеся в повседневных коммуникативных навыках и письменной речи учащихся-таджиков, находящихся в естественной социолингвистической среде узбекского языка. Кроме того, обосновано, что ядром данной проблемы является неполное развитие морфологических знаний в ментальной грамматике учащихся; представлены соответствующие выводы и*

результаты, полученные в ходе экспериментально-исследовательского процесса.

Ключевые слова: *школы с таджикским языком обучения, освоение второго языка, преподавание второго языка, морфология, морфологический дефицит, формальное обучение, неформальное обучение.*

Kirish. O‘zbekistonda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktab o‘quvchilariga davlat tili – o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish (L2) belgilangan. Shu asosga ko‘ra, ta’lim boshqa tillarda (rus, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, turkman) olib boriladigan maktab o‘quvchilari 2-sinfdan boshlab o‘zbek tilidan davlat tili fani doirasida ta’lim olishadi.

Asosiy qism. Xususan, ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktab o‘quvchilari uchun ham tojik tili birinchi til (L1) yoki ona tili, o‘zbek tili esa ikkinchi til (L2) hisoblanadi. Biroq Muriel Saville-Troike o‘zining “Introducing Second Language Acquisition” (2006) asarida ta’kidlaganidek, ikkinchi tilni o‘qitish: norasmiy o‘rganish – “Informal learning” hamda rasmiy ta’lim (o‘rganish)– “Formal learning” kabi ikki usulda amalga oshiriladi. Bunda “Informal learning” (norasmiy o‘rganish) - hayotiy vaziyat, tabiiy ijtimoiy til muhiti sababli o‘quvchining hech qanday o‘quv materiallarisiz ham ikkinchi tilni o‘rganishi bo‘lsa, “Formal learning” (rasmiy ta’lim) bu – o‘quvchining alohida darslar, o‘quv materiallari orqali ma’lum vaqt, belgilangan o‘quv soatlari asosida tizimli ta’lim olishidir. “Formal learning” uzoq davom etishi, “Informal learning” esa qisqa vaqtda o‘zlashtirilishi mumkin.

Ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktab o‘quvchilari ham o‘zbek tilini tabiiy ijtimoiy til muhiti sababli birinchi usulda o‘zlashtirgan o‘quvchilar sanaladi. Ularda maktab yoshiga qadar o‘zbek tilidan kundalik muloqot shakllangan bo‘lib, o‘zbek tilida berilgan savollarga o‘zbek tilida javob qaytarish, muloqotni tinglab tushinish, gapirish kabi ko‘nikmalarga faol yoki nofaol holda ega bo‘lishadi.

Ya’ni ularning miyasidagi til mexanizmi N.Chomskiy o‘zining “Aspects of the Theory of Syntax” (1965) asarida ta’kidlagan “Universal Grammatika” yoki LAD – Language Acquisition Device) “Til o‘zlashtirish qurilmasi (yoki mexanizmi)” imkoniyatlari asosida ishlaydi.

Unga ko‘ra, “Universal Grammatika” bu umumiy qoidalar yig‘indisi bo‘lishi bilan birga “Prinsiplar va Parametrlar” – “Principles and Parameters” modeliga ham asoslanadi. Bu model inson miyasida barcha tillar uchun o‘zgarmas bo‘lgan prinsiplar va har bir tilning o‘ziga xosligini ifodalaydigan “parametrlar”ni o‘z ichiga oladi.

Bu holatni N.Chomskiy o‘zining “Knowledge of Language: Its nature, origin, and use” (1986) asarida quyidagicha asoslaydi: ikkinchi tilni o‘zlashtirayotgan o‘quvchining miyasi yangi lisoniy muhitga tushishi bilan ushbu “parametrlar” (Parametar Settings) yangi til muhiti asosida qayta sozlanadi. Bu xuddi “o‘chirib-yoqish” tugmalariga kabi bo‘lib, til muhiti o‘zgarishi bilan birinchi “tugma”ni o‘chirib, ikkinchisi yoqishga o‘xshaydi.

Mazkur holatni tojik tilli o‘quvchilar misolida kuzatadigan bo‘lsak, ularning oila va mahalla davrasida tojik tilida muloqot qilishida tojik tili “tugmasi yoqiladi”, o‘zbek til muhitiga kirishi bilan esa miyasidagi ikkinchi til – o‘zbek tili “tugmasi” faollashadi. Mazkur “o‘chirib yoqish” holati qanchalik tez-tez sodir bo‘lsa, o‘quvchi muloqot davomida shu darajada tezroq birinchi tildan ikkinchi tilga tutilish va to‘xtab qolishlarsiz o‘tadi.

Lekin yuqoridagi holatlar, asosan, og‘zaki nutq shakliga tegishli bo‘lib, yozma nutqda turli murakkabliklarga ega. Jumladan, tojik va o‘zbek tilida kundalik muloqot darajasiga ega o‘quvchi tabiiy ijtimoiy muhit natijasida shakllangan ikkinchi tildan foydalanishi mumkin, lekin uning yozma nutqida ma’lum nuqsonlar yuzaga chiqadi.

Mazkur holatni zamonaviy tilshunoslikda ikkinchi tilni o‘zlashtirish (Second Language Asquitsion) muammolari asosida o‘rgangan Julia Herschensohn N.Chomskiy qarashlarini yanada kengaytirib, o‘zining “Morphological deficit” – Morfologik tanqislik nazariyasini ilgari suradi.

Uning “The Second Time Around: Minimalism and L2 Acquisition” (2000) asarida keltirilishicha, o‘quvchilar ikkinchi tilni o‘rganayotgan vaqtda gap qurish, yoki sintaktik qoidalarni yaxshi o‘rgangan bo‘lsa-da, lekin morfologik nuqtayi

nazardan tildagi qo‘shimchalarni aniq va avtomatik qo‘llay olmaydi, bu esa morfologik tanqislik yoki yetishmovchilikni yuzaga chiqaradi.

Jumladan, tojik tilli o‘quvchilar misolida tahlil qilganimizda, ularning o‘zbek tilidan dastlabki rasmiy ta’lim olishi kichik maktab yoshida boshlanishini hisobga olib, 2- va 3-sinf o‘quvchilari ishtirokida kichik tajriba o‘tkazdik.

Tajribaning birinchi bosqichida 2-sinf o‘quvchilariga hech qanday qo‘shimcha tushuntirishlarsiz turli buyumlarning rasmlari tarqatilib, og‘zaki tasvirlab berish topshirig‘i berildi (ularga og‘zaki tasvirlash topshirig‘i berilishining sababi 2-sinf o‘quvchilari o‘zbek tilidan yetarli yozuv malakasiga ega emasligi hisoblanadi). O‘quvchilarning og‘zaki nutqi va rasmni tasvirlash darajasida uchragan holatlar birma-bir qayd qilib borildi.

Natijada esa quyidagi og‘zaki morfologik tanqislik holatlari kuzatildi: fe’l zamonlari va shaxs-son qo‘shimchalarini chalkashtirish: *Biz bugun maktabga keldim. Men kitob o‘qaman / o‘qiyman*, so‘z turkumlarini noto‘g‘ri qo‘llash, fe’l turkumidagi qiyin so‘zlarni tojik tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish: *Men maktabga soyabon taqib boraman / tutib boraman. – Ман ба мактаб соябон дошта меравам.*

Tajribaning ikkinchi bosqichida esa 3-sinflarga ham xuddi shu topshiriq 2 xil ko‘rinishda berildi, ya’ni ular ham og‘zaki ham yozma ravishda tasvirlab berishlari belgilandi.

Natijada esa 3-sinf o‘quvchilari 2-sinf o‘quvchilariga nisbatan og‘zaki nutqda kam xatoliklarga yo‘l qo‘yilgani aniqlandi. Buning sababi esa 3-sinf o‘quvchilari o‘tgan o‘quv yili mobaynida o‘zbek tili ta’limi muhitiga moslasha boshlagani va mavjud kundalik muloqot ko‘nikmasi ta’lim muhitiga muvofiqlashayotganligini ko‘rsatadi. Ya’ni tojik tilli o‘quvchilar yuqori sinfga o‘tgani sari ta’lim muhiti va hayotiy vaziyatlar, til tajribasi ortib, nutqdagi morfologik xatoliklar deyarli sezilmaydi, lekin morfologiya bo‘yicha grammatik bilimlar mustahkamlanmasa, yozma nutqda bir qator kamchiliklar, xususan, imloviy xatoliklar, fe’l turkumiga oid nuqsonlar saqlanib qoladi. 3-sinf o‘quvchilarining ham yozma nutqida ma’lum xatoliklarning kuzatilganligini ham shu asosda izohlash mumkin.

Umuman olganda, yuqoridagi tajriba natijalarini umumlashtirib, J.Herschensohn qarashlari asosida tahlil qilar ekanmiz quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

- ✓ tojik va o‘zbek tillarining farqli xususiyatlari (o‘zbek tili – agglyutinativ, tojik tili – flektiv til) ham tillararo ta’sir doirasiga ega;
- ✓ o‘quvchilarning og‘zaki nutqda o‘zbek tilida ravon gapira olishi bu ularning morfologik bilimlardan xabardor ekanligini anglatmaydi;
- ✓ kundalik muqolot ko‘nikmalari ta’lim muhitida N.Chomskiy ta’kidlagan “o‘chirib-yoqish” tugmasi asosida qaytadan sozlanishi zarur (shunda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqida yangi so‘zlar tezroq faollashadi);
- ✓ tabiiy-ijtimoiy til muhiti sababli “Morfologik tanqislik” og‘zaki va yozma nutqda alohida-alohida, o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi;
- ✓ o‘quvchilarning ona tilidan (L1) morfologik bilimlari mustahkamlanib borgani sari ikkinchi tilda (L2) ham “Morfologik tanqislik” sezilarli darajada kamayadi;
- ✓ “Morfologik tanqislik” ikkinchi til o‘zlashtirishda bevosita til muhitiga bog‘liq bo‘lib, tabiiy til muhiti mavjud bo‘lsa (informal learning), asosan, yozma nutqda, tabiiy til muhiti mavjud bo‘lmasa ham og‘zaki, ham yozma nutqda kuzatilishi mumkin.

Xulosa. Ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktab o‘quvchilarida mavjud “Morfologik tanqislik” muammosi asosida o‘tkazilgan tajriba xulosalari shuni ko‘rsatadiki, J.Herschensohn ta’kidlagan, “Morfologik tanqislik” muammosi o‘quvchining nutqida (yozma va og‘zaki) turli xatoliklar: kelishik, egalik qo‘shimchalarini yozma nutqda almashtirib qo‘llash, so‘z turkumlarining o‘rnini chalkashtirish, zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini adashtirish, asos va qo‘shimchalarni ajrata olmaslik kabilarni keltirib chiqaradi, ammo til muhiti ta’sirida bu holat og‘zaki nutqda ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktab o‘quvchilarida uchragani kabi kam hollarda sezilishi, ayrim jarayonlarda esa yuzaga chiqishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Herschensohn J.** The Second Time Around: Minimalism and L2 Acquisition. — 2000. — P. 79.
2. **Saville-Troike M.** Introducing Second Language Acquisition. — 2006. — P. 2–3.
3. **Chomsky N.** Aspects of the Theory of Syntax. — 1965. — P. 48.
4. **Chomsky N.** Knowledge of Language: Its nature, origin, and use. — New York, 1986. — P. 7.

TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNING AFZALLIKLARI

Xolbekov Abdusattor Maxammatovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasidagi o‘rni, ahamiyati va afzalliklari keng yoritilgan. Sun’iy intellekt asosida ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilar bilimini baholashni avtomatlashtirish, o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim sifatini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish istiqbollari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim, adaptiv o‘qitish, mashinali o‘rganish, ta’lim sifati.*

Аннотация. *В данной статье всесторонне рассматриваются роль, значение и преимущества технологий искусственного интеллекта в сфере образования. Проанализированы вопросы индивидуализации*

образовательного процесса на основе искусственного интеллекта, автоматизации оценки знаний обучающихся, поддержки профессиональной деятельности преподавателей, а также повышения качества образования. Кроме того, рассмотрены перспективы эффективного использования технологий искусственного интеллекта в современной цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, образовательные технологии, цифровое образование, адаптивное обучение, машинное обучение, качество образования.*

Abstract. *This article extensively discusses the role, significance, and advantages of artificial intelligence technologies in the field of education. The issues of individualizing the educational process based on artificial intelligence, automating the assessment of students' knowledge, supporting teachers' professional activities, and improving the quality of education are analyzed. In addition, the prospects for the effective use of artificial intelligence technologies in the modern digital educational environment are examined.*

Keywords: *artificial intelligence, educational technologies, digital education, adaptive learning, machine learning, quality of education.*

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va taraqqiyoti jamiyatning barcha sohalari qatori ta'lim tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sun'iy sun'iy intellekt texnologiyalarining paydo bo'lishi va ommalashuvi ta'lim jarayonlarini tashkil etish, boshqarish va baholashda tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. An'anaviy ta'lim modeli o'rnini asta-sekin raqamli, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim egallamoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida o'quvchilar bilim darajasini tahlil qilish, individual o'quv materiallarini yaratish, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va pedagogik qarorlarni asoslash imkoniyati yuzaga kelmoqda. Shu sababli, ta'limda sun'iy intellektning afzalliklarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarorining qabul qilinishi ushbu sohadagi ishlarni bir tizimga solish va takomillashtirish imkonini berdi[1].

Sun’iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan o‘rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt bilimlarni uzatish vositasi bo‘lishdan tashqari, o‘quvchi faoliyatini tahlil qiluvchi va boshqaruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

- adaptiv ta’lim tizimlari;
- aqlli o‘quv platformalari;
- virtual tutor va chatbotlar;
- avtomatik baholash tizimlari;
- o‘quv analitikasi.

1-jadval. Sun’iy intellektning qisqacha tarixi.

Yil	Muhim voqealar
1950	Alan Turing – “Mashina o‘ylay oladimi?” savolining paydo bo‘lishi
1956	“Sun’iy intellekt” atamasi paydo bo‘ldi
1980	Ekspert tizimlar rivojlandi
2000	Ma’lumotlar ko‘paydi
2010 va undan keyingi yillar	Chuqur o‘rganish va Sun’iy neyron tarmoqlar

2020 va undan keyingi yillar	ChatGPT, Gemini, Copilot va generativ SI

Sun’iy intellektning eng muhim afzalliklaridan biri — ta’limni individuallashtirish imkoniyatidir. An’anaviy ta’limda barcha ta’lim oluvchilar bir xil dastur va sur’atda ta’lim oladi. Biroq sun’iy intellekt asosidagi tizimlar har bir ta’lim oluvchining bilim darajasi, qobiliyati va o‘rganish tezligini hisobga olgan holda moslashuvchan o‘quv materiallarini taqdim etadi. Bunday yondashuvlar kuchli ta’lim oluvchilarning rivojlanishini tezlashtiradi, bilimida bo‘shliqlar mavjud ta’lim oluvchilarga individual yordam beradi, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi va natijada, ta’lim jarayoni samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari bilimni baholash jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi va obyektivlashtiradi. Avtomatik test tizimlari, yozma ishlarni tahlil qiluvchi algoritmlar hamda plagiatni aniqlovchi dasturlar o‘qituvchining vaqtini tejaydi va ish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Avtomatlashtirilgan baholashda inson omiliga bog‘liq xatolar kamayadi, baholash tezligi oshadi, ta’lim oluvchilarning natijalari real va tahliliy ko‘rinishda taqdim etiladi va baholash shaffofligi ta’minlanadi.

Sun’iy intellekt o‘qituvchini to‘liq almashtirmaydi, balki uning faoliyatini samaraliroq tashkil etishga yordam beradi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar dars rejasini tuzishda, o‘quv materiallarini tanlashda, ta’lim oluvchilarning bilim holatini tahlil qilishda va ularga individual tavsiyalar berishda qo‘llaniladi. Bu esa o‘qituvchiga ijodiy va tarbiyaviy faoliyatga ko‘proq vaqt ajratish imkonini yaratadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim sifatining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘quv jarayonida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi, muammoli mavzular aniqlab olinadi va ta’lim dasturlari takomillashtiriladi. Shu bilan birgalikda sun’iy intellekt ta’lim muassasalarida strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sun’iy intellekt masofaviy ta’limni

rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Virtual o‘qituvchilar, ovozli yordamchilar va aqlli platformalar yordamida ta’lim jarayoni uzluksiz davom etadi. Inklyuziv ta’limda esa sun’iy intellekt imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun maxsus interfeyslar yaratadi, nutqni matnga aylantirish va aksincha texnologiyalarini taqdim etadi va ta’lim resurslariga teng kirishni ta’minlaydi.

Avvalo, umumiy ta’lim texnologiyalari bilan ta’limdagi sun’iy intellekt o‘rtasidagi farqni aniq ajratib olish muhimdir. Bu bosqichda umumiy ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari haqida qisqacha ma’lumot berish maqsadga muvofiq, chunki sohaning tasnifi va tushunchalar tizimi biroz noaniq. Quyida keltirilgan SAMR modeli asosida “Qanday?” bo‘limi ta’limda sun’iy intellektning barcha qatlamlarni qamrab olishini ko‘rsatadi va u yuqorida ko‘tarilgan sari eng katta ta’sirga ega bo‘ladi[2].

2-jadval. SAMR modelining tavsifi jadvali.

SAMR modelining inglizcha infografikasi	SAMR modelining o‘zbekcha infografikasi	SAMR modelining qo‘llanilishi
		

Agar biz biror dasturning inson kabi o‘ylaydi, deb aytmoqchi bo‘lsak, unda insonlar qanday o‘ylashini aniqlash uchun biror usulimiz bo‘lishi kerak. Biz inson ongining haqiqiy ishlash mexanizmlarini ichkaridan tushunib olishimiz zarur. Buni amalga oshirishning uchta yo‘li mavjud:

1. **Introspektsiya orqali** — o‘zimizning fikrlarimizni ularning o‘tib ketayotgan paytida tutib olishga harakat qilish;

2. **Psixologik tajribalar orqali** — odamni harakatda kuzatish;
3. **Miya tasvirlash orqali** — miyani faoliyatda kuzatish.

Ongning yetarli darajada aniq nazariyasi paydo bo‘lganidan so‘ng, ushbu nazariyani kompyuter dasturi shaklida ifodalash mumkin bo‘ladi. Agar dasturning kirish–chiqish xatti-harakatlari insonning tegishli xatti-harakatlari bilan mos kelsa, bu dasturdagi mexanizmlarning ba’zilari insonlarda ham ishlash ehtimoli borligining dalili hisoblanadi[3].

Ta’limda sifat ko‘rsatkichlarining oshishi va uning samaradorligi sun’iy intellekt texnologiyalaridan doimiy ravishda foydalanish va uni dars jarayonida qo‘llash, ta’limda aniq belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ta’lim jarayonida foydalaniladigan sun’iy intellekt texnologiyalarining nomlari va ularning tavsifi bilan tanishib chiqamiz.

Mashinali o‘rganish (Machine Learning) – O‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, baholash natijalarini bashorat qilish va o‘quv jarayonini individuallashtirish.

Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing NLP) – Matn va nutqni tushunish va tahlil qilish, avtomatik javob berish, matnni baholash va chatbotlar orqali o‘quvchilarga yordam berish.

Intellektual repetitorlik (Intelligent Tutoring) – O‘quvchini real vaqt rejimida kuzatish, xatolarni aniqlash va tushuntirish, moslashtirilgan o‘qitish.

Ekspert tizimlar (Expert Systems) – Mutaxassis bilimlarini modellashtirish, maslahat berish va qaror qabul qilishga yordam berish.

Kompyuter ko‘rish (Computer Vision) – Tasvir va videoni tahlil qilish, yuzni aniqlash va harakatni kuzatish.

Tavsiya tizimlari (Recommendation Systems) – O‘quv materiallarini tavsiya qilish, talabaning qiziqishi va bilimiga mos kontent tanlash.

Nutqni tanish (Speech Recognition) – Og‘zaki nutqni matnga aylantirish va matnni ovozli shaklda o‘qib berish.



1-rasm. Sun’iy intellekt texnologiyalarining imkoniyat darajasi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt ta’lim tizimida katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, u to‘g‘ri va mas’uliyatli qo‘llanilganda ta’lim oluvchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, undan foydalanishda axloqiy me’yorlarga amal qilish, insoniy qadriyatlarni ustuvor qo‘yish va o‘qituvchining yetakchi rolini saqlab qolish muhimdir. Faqat shundagina sun’iy intellekt barkamol, mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 17-fevraldagi PQ–4996-son qarori.
2. **Holmes W., Bialik M., Fadel C.** Artificial intelligence in education. — Boston, MA, 02130.
3. **Russell S., Norvig P.** Artificial intelligence: a modern approach.
4. **Abdumanonov A. A., Quchqarov A. A.** Sun’iy intellekt asoslari: darslik. — Farg‘ona, 2025. — 344 b.
5. UNESCO. Artificial intelligence in education.

XXI-ASRDA O‘ZBEKISTON XALQINING HUQUQIY ONGI VA MADANIYATI

Xoshimova Mohira Nabijonovna

Farg‘ona viloyat pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XXI-asr sharoitida O‘zbekiston xalqining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, Konstitutsiyaviy tamoyillar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati huquqiy ongni yuksaltirishning muhim omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, huquqiy ta’lim, huquqiy targ‘ibot, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi roli yoritiladi. Tadqiqotda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning jamiyat barqarorligi, qonun ustuvorligi va demokratik taraqqiyotdagi ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy ong, huquqiy madaniyat, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati, huquqiy ta’lim, demokratik islohotlar.*

Аннотация. *В статье анализируются процессы формирования правосознания и правовой культуры народа Узбекистана в условиях XXI века, этапы их развития и роль в общественном прогрессе. Рассматриваются проводимые в стране правовые реформы, конституционные принципы и государственная политика, направленная на обеспечение прав и свобод граждан, как важнейшие факторы повышения уровня правового сознания. Также освещается роль правового образования, правовой пропаганды, средств массовой информации и институтов гражданского общества в данном процессе. В исследовании обосновывается значение правосознания и правовой культуры для общественной стабильности, верховенства закона и демократического развития.*

Ключевые слова: *правосознание, правовая культура, верховенство закона, гражданское общество, правовое образование, демократические реформы.*

Abstract. *This article analyzes the formation of legal awareness and legal culture of the people of Uzbekistan in the conditions of the twenty-first century, the stages of their development, and their role in societal progress. The study considers ongoing legal reforms, constitutional principles, and state policies aimed at ensuring citizens' rights and freedoms as key factors in enhancing legal consciousness. It also highlights the role of legal education, legal outreach, mass media, and civil society institutions in this process. The research substantiates the importance of legal awareness and legal culture for social stability, the rule of law, and democratic development.*

Keywords: *legal awareness, legal culture, rule of law, civil society, legal education, democratic reforms.*

XXI-asr globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda har bir davlat uchun fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish strategik ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlarda aholining huquqiy ongini shakllantirish, huquqiy madaniyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Huquqiy ong fuqarolarning qonunlarga bo‘lgan munosabati, huquqiy bilim darajasi va huquqqa hurmat hissi bilan bevosita bog‘liq. Huquqiy madaniyat esa huquqiy ongning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, shaxslarning qonunlarga rioya etish darajasi, huquqiy faolligi va mas’uliyatini ifodalaydi. Shu bois mazkur maqolada XXI-asrda O‘zbekiston xalqining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

1. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchasining mazmuni

Huquqiy ong – bu jamiyat a’zolarining huquq, qonun, adolat va qonuniylik haqidagi qarashlari, bilimlari hamda tasavvurlarining yig‘indisidir. U shaxsning huquqiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy madaniyat esa huquqiy ongning rivojlangan darajasi bo‘lib, u huquqiy bilimlar, huquqiy qadriyatlar va huquqiy amaliyotning uyg‘unlashuvini anglatadi.

O‘zbekiston sharoitida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish hamda jamiyatda qonuniylik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Mustaqillik yillarida huquqiy ongni shakllantirish jarayoni

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda huquqiy davlat asoslarini yaratish, yangi qonunchilik bazasini shakllantirish jarayoni boshlandi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi, sud-huquq tizimidagi islohotlar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi qonunlarning joriy etilishi huquqiy ongni yuksaltirishda muhim rol o‘ynadi.

Aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarining kuchaytirilishi, huquqiy axborotlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi huquqiy madaniyatning oshishiga zamin yaratdi.

3. XXI-asrda huquqiy ongni rivojlantirishning asosiy omillari

XXI-asrda huquqiy ongni rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

huquqiy ta’lim tizimining takomillashuvi;

raqamli texnologiyalar orqali huquqiy axborotlarning ochiqligi;

ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy targ‘ibotdagi roli;

fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi.

Ushbu omillar fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

4. Huquqiy madaniyat va qonun ustuvorligi

Qonun ustuvorligi huquqiy madaniyatning asosiy mezonlaridan biridir. Jamiyatda qonunlarga rioya etish, huquqbuzarliklarga murosasiz munosabatda

bo‘lish huquqiy madaniyatning yuksak darajada ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sud-huquq islohotlari, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar huquqiy madaniyatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

5. Huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni

Ta’lim tizimi huquqiy ongni shakllantirishning asosiy institutidir. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda huquqiy bilimlarni berish, yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, uzluksiz huquqiy ta’lim konsepsiyasi huquqiy madaniyatni oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, XXI-asrda O‘zbekiston xalqining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, ta’lim va targ‘ibot ishlari fuqarolarning huquqiy ongINoshirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida ham huquqiy ta’limni rivojlantirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent.
2. **Shavkat Mirziyoyev** Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent, 2021.
3. **Islomov Z. M.** Huquqiy ong va huquqiy madaniyat. — Toshkent, 2019.
4. **Saidov A. X.** Inson huquqlari va huquqiy davlat. — Toshkent, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

O‘QUVCHILARDA IFODALI O‘QISHNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ifodali o‘qishni rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlar o‘quvchilarning badiiy matnni faol, ongli va hissiy idrok etishini ta’minlashi, ifodali o‘qishni texnik jarayon sifatida emas, balki matn mazmunini his etish, obraz ruhiyatini anglash va uni nutq orqali ifodalashga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat sifatida tashkil etishga xizmat qilishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *dramatizatsiya metodi, rolga kirish metodi, dialoglar, harakatlar va ruhiy holatlar, nutqiy erkinlik va ifodali o‘qish malakasi, intonatsion tahlil jadvali metodi, urg‘u, pauza, ohang, guruhli ijodiy o‘qish metodi, klaster metodi, “6×6” metodi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается тот факт, что интерактивные методы в процессе развития выразительного чтения обеспечивают активное, осознанное и эмоциональное восприятие литературных текстов учащимися и служат для организации выразительного чтения не как технического процесса, а как творческой деятельности, направленной на прочувствование содержания текста, понимание духа образа и его выражение посредством речи.*

Ключевые слова: *метод драматизации, метод ролевой игры, диалоги, действия и психические состояния, беглость речи и навыки выразительного чтения, метод таблицы анализа интонации, ударение, пауза, тон, метод группового творческого чтения, кластерный метод, метод «6×6».*

Abstract: *This article discusses the fact that interactive methods in the process of developing expressive reading ensure active, conscious and emotional perception*

of literary texts by students, and serve to organize expressive reading not as a technical process, but as a creative activity aimed at feeling the content of the text, understanding the spirit of the image and expressing it through speech.

Keywords: *dramatization method, role-playing method, dialogues, actions and mental states, speech fluency and expressive reading skills, intonation analysis table method, stress, pause, tone, group creative reading method, cluster method, "6×6" method.*

O‘zbekiston ta’lim tizimida shaxsning nutqiy madaniyatini, estetik didini va badiiy tafakkurini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda ifodali o‘qish badiiy matnni ongli idrok etish, uning mazmun-mohiyatini to‘liq anglash hamda emotsional-ta’sirchan jihatlarini ochib berishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ifodali o‘qish orqali o‘quvchilarda nafaqat to‘g‘ri va ravon o‘qish ko‘nikmalari, balki nutqiy ifodalilik, his-tuyg‘ularni so‘z orqali yetkazish malakalari ham shakllanadi. Ta’lim amaliyotini tahlil qilishdagi xulosalarga ko‘ra, ifodali o‘qishni rivojlantirishda an’anaviy yondashuvlar har doim ham kutilgan natijani bermaydi. O‘qish jarayonida o‘quvchilarning passiv ishtiroki, badiiy matnga nisbatan befarqlik va emotsional sustlik ifodali o‘qish sifatining pasayishiga olib kelishi mumkinligi sababli, ta’lim jarayonini faollashtiruvchi, o‘quvchini markazga qo‘yuvchi zamonaviy metodik yondashuvlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Mazkur ehtiyojdan kelib chiqib, ifodali o‘qishni rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning badiiy matn bilan faol muloqotini ta’minlab, ularni fikrlashga, his etishga va o‘z munosabatini bildirishga undaydi hamda bunday yondashuv o‘quvchilarni oddiy tinglovchi yoki ijrochi emas, balki o‘qish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ifodali o‘qishni rivojlantirish masalasi nafaqat nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish, balki o‘quvchilarning ma’naviy-estetik rivojiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik muammo sifatida qaraladi. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ifodali o‘qish mashg‘ulotlari o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan

qiziqishini oshirish, badiiy matnni chuqurroq idrok etish va nutqiy faolligini rivojlantirish imkonini beradi.

Ifodali o‘qish pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirish, badiiy matnni anglash va estetik idrokni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim faoliyat turi hisoblanadi. Uning nazariy asoslari badiiy asarning mazmuni va shakli o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, matnning g‘oyaviy yo‘nalishi hamda emotsional ta’sir kuchini ochib berishga tayanadi. Ifodali o‘qish jarayonida ovoz ohangi, temp, ritm, pauza va urg‘ulardan ongli foydalanish orqali matn mazmuni yanada aniq va ta’sirchan yetkaziladi. Pedagogik nuqtayi nazardan ifodali o‘qish faqatgina o‘qish texnikasini egallash bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarning tafakkuri, nutqiy faolligi va badiiy didini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. O’quvchi matn mazmunini chuqur anglab, muallif g’oyasini va obrazlar ruhiyatini his etishi zarur va aynan ana shu jarayon o‘quvchilarda badiiy asarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Interfaol yondashuv esa ta’lim jarayonida o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘zaro muloqot, hamkorlik va fikr almashuvga asoslanadi. Yondashuvda bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchilar tomonidan mustaqil va jamoaviy faoliyat orqali egallanadi. Interfaollik ta’lim jarayonini jonlantiradi, o‘quvchilarning fikrlashini faollashtiradi va ularni erkin muloqotga chorlaydi. Ifodali o‘qish va interfaol yondashuvning o‘zaro uyg‘unligi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Interfaol yondashuv asosida tashkil etilgan ifodali o‘qish mashg‘ulotlari o‘quvchilarning badiiy matnni tahlil qilish, emotsional holatlarni anglash va ularni nutq orqali ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Interfaol metodlar nima va ularning afzalliklari nimada namoyon bo‘ladi? Ma’lumki, o‘quvchilarning faollik darajasiga ko‘ra o‘qitish metodlari passiv, faol va interfaol metodlarga ajratiladi. Passiv metodlar asosan bilimlarni o‘qituvchidan o‘quvchiga uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir cheklangan bo‘ladi. Passiv darsning eng keng tarqalgan shakli ma’ruza hisoblanadi. Faol metodlar esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslanadi va bu kabi metodlarda o‘quvchilar dars jarayonining faol

ishtirokchisiga aylanib, bilimlarni egallashda mustaqil va faol harakat qiladilar. Interfaol metodlar esa o‘quv jarayonida nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi, balki o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ham ta’minlaydi. “Interfaol” atamasi ingliz tilidagi “inter” – o‘zaro, “act” – harakat qilmoq so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “interfaollik” tushunchasi o‘zaro muloqot va hamkorlikda harakat qilish qobiliyatini anglatadi. Interfaol ta’lim muloqotga asoslangan ta’lim bo‘lib, u ko‘pincha dialogli ta’lim sifatida ham talqin etiladi. Interfaol ta’lim jarayonida o‘zaro muloqot turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, “o‘quvchi – o‘quvchi” (juftlikda ishlash), “o‘quvchi – guruh” (kichik guruhlarda ishlash), “o‘quvchi – sinf” yoki “o‘quvchilar guruhi – sinf” (guruh ishlarini taqdim etish) kabi shakllar orqali ta’lim jarayoni tashkil etiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ifodali o‘qishni rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlar o‘quvchilarning badiiy matnni faol, ongli va hissiy idrok etishini ta’minlaydi. Ifodali o‘qishni texnik jarayon sifatida emas, balki matn mazmunini his etish, obraz ruhiyatini anglash va uni nutq orqali ifodalashga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat sifatida tashkil etishga xizmat qiladi. Darslarda keng qo‘llaniladigan rolga kirish metodi o‘quvchilarning qahramon obraziga kirib, uning ichki kechinmalarini ovoz, mimika, ohang, ritm va pauza orqali ifodalashiga asoslanadi. Metod o‘quvchining hissiy tafakkurini kuchaytirib, matndagi emotsional holatni chuqurroq anglash imkonini beradi. Rolga kirgan o‘quvchi matnni shunchaki oddiy o‘qish bilan cheklanmay, balki uning ichida “yashaydi”, shu sababli ifodali o‘qishning ta’sirchanligi oshadi.

Interaktiv metodlar tizimida dramatizatsiya metodi ham muhim o‘rin egallaydi. Badiiy matnni sahna ko‘rinishida jonlantirish orqali o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va dramatik fikrlashni rivojlantiradi. Dramatizatsiya jarayonida o‘quvchilar dialoglar, harakatlar va ruhiy holatlarni ovoz va tana harakati orqali ifodalaydilar va ularda nutqiy erkinlik va ifodali o‘qish malakasi shakllanadi.

Ifodali o‘qishning texnik asoslarini mustahkamlashda intonatsion tahlil jadvali metodi samarali hisoblanadi. Matndagi urg‘u, pauza, ohangning ko‘tarilishi

va pasayishi hamda qahramon kayfiyatini ongli ravishda tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Jadval asosida ishlash o‘quvchilarda ovoz bilan ishlash madaniyatini shakllantirib, badiiy matndagi ifodaviy kuchni ongli tarzda his etishga yordam beradi.

Interaktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ifodali o‘qish jarayonida guruhli ijodiy o‘qish metodi ham samarali natija beradi. Ushbu metodda o‘quvchilar bir matnni turli ifoda vositalari orqali talqin qilib, o‘zaro solishtirish va muhokama jarayonida ifodali o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar. Guruhli ish shakli o‘quvchilarning bir-biridan o‘rganishiga va nutqiy tajriba almashishiga imkon yaratadi. Badiiy matnning mazmuniy va emotsional tuzilishini tizimli anglashda klaster metodi hamda tezkor tahlilga asoslangan “6×6” metodi ifodali o‘qishni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar qisqa vaqt ichida matnning asosiy ifodaviy jihatlarini aniqlab, ifodali o‘qish uchun zarur bo‘lgan emotsional nuqtalarni belgilash imkoniga ega bo‘ladilar.

Rolga kirish, dramatizatsiya, intonatsion tahlil jadvali, guruhli ijodiy o‘qish, klaster va “6×6” metodlari ifodali o‘qishda interaktiv yondashuvning metodik asosini tashkil etadi hamda talabalarning nutqiy faolligini oshirish, badiiy matnni chuqur idrok etish va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Interfaol metodlar ifodali o‘qish jarayonida nutqni emotsional va mazmunan ta’sirchan tarzda shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalar matn mazmunini chuqur anglash jarayonida nutqiy vositalardan ongli foydalanish ko‘nikmasini egallaydilar. Badiiy asardagi voqealar va obrazlarning ruhiy holatini his etish orqali o‘qish jarayoni jonlanadi va ifodali tus oladi. Talabalarning kommunikativ faolligini oshirishga ham xizmat qiladi. Mashg‘ulotlar davomida talaba fikr almashadi, savol-javoblar orqali o‘z munosabatini bildiradi va jamoa bilan ishlash tajribasini egallaydi. Ularning nutqiy madaniyatini rivojlantirish, muloqot qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash va erkin fikrlashga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol shaklda tashkil etilgan mashg‘ulotlar individual yondashuvni ta’minlash imkonini ham beradi. Talabalarning qobiliyati, nutqiy tayyorgarligi va emotsional sezgirligi turlicha bo‘lganligi sababli, interfaol yondashuv har bir o‘quvchining faolligini oshirishga va uning imkoniyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi va ifodali o‘qishni rivojlantirish jarayonida ijobiy pedagogik natijalarga erishish imkonini yaratadi.

Interfaol ta’lim metodlariga ifodali o‘qish mashg‘ulotlarining asosiy maqsadi sifatida qaralmasligi lozim, chunki uning pedagogik ahamiyati mashg‘ulot shaklida emas, balki erishiladigan nutqiy, emotsional va tarbiyaviy natijalarda namoyon bo‘ladi. Ifodali o‘qish darslarida o‘quvchilarda nutqiy madaniyatni, emotsional sezgirlikni hamda axloqiy-ruhiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita hisoblangani sababli, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ifodali o‘qish jarayoni alohida tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etadi.

Ifodali o‘qish uchun tanlangan badiiy matnlarda aks etgan hayotiy vaziyatlarga tayangan holda o‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini insoniy munosabatlarning mohiyatini anglashga, qahramonlar xatti-harakatlari sabablarini tahlil qilishga va ularning ma’naviy mazmunini baholashga yo‘naltira olishi lozim. Badiiy matn o‘quvchi uchun shunchaki o‘qish materiali bo‘lib qolmay, balki shaxsiy tajriba bilan uyg‘unlashuvchi, dolzarb va mazmunan boy ma’naviy manbaga aylanadi.

Dars jarayonining dialogli va hamkorlikka asoslangan shaklda tashkil etilishi ifodali o‘qish samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi va o‘quvchi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti jarayonida matnning g‘oyaviy-ruhiy mazmuni chuqurroq idrok etiladi, o‘qish jarayoniga shaxsiy munosabat kuchayadi va o‘quvchilarning faol ishtiroki ta’minlanadi. Aynan shunday sharoitda ifodali o‘qish oddiy nutqiy mashq emas, balki shaxsiy va ma’naviy rivojlanishga xizmat qiluvchi faoliyatga aylanadi.

Ifodali o‘qishni rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish nutqiy va tarbiyaviy maqsadlarning uyg‘unligini ta’minlaydi. Bunday yondashuv

o‘quvchilarda ifodali o‘qishga nisbatan barqaror ijobiy motivatsiyani shakllantiradi, samarali nutqiy va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda shaxsiy, oilaviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan axloqiy dunyoqarashning tarkib topishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Blyznyuk T., Kachak T.** Benefits of interactive learning for students’ critical thinking skills improvement // Journal of Vasyl Stefanyk Precarpathian National University. — 2024. — Vol. 11. — No. 1. — P. 94–102. — DOI: 10.15330/jpnu.11.1.94-102.
2. **Barnett-Itzhaki Z., Beimel D., Tsoury A.** Using a variety of interactive learning methods to improve learning effectiveness: insights from AI models based on teaching surveys // Online Learning Journal. — 2023. — Vol. 27. — No. 3. — P. 363–386. — DOI: 10.24059/oljv27i3.3575.
3. **Деева Е. М.** Применение современных интерактивных методов обучения в вузе: практикум для студентов. — Ульяновск: УлГТУ, 2015. — 116 с.
4. **Kopaysinovna K. S.** Age-related Characteristics and Teacher's Skills of Introducing Artistic Works to Preschool Children // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. — 2022. — Vol. 2. — No. 1.5 (Pedagogical sciences).
5. **Masharipova Z.** Ifodali o‘qish praktikumi: bakalavriatning “O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. — 168 b.
6. **Yo‘ldoshev R., Xusainova R., Bobojonova U.** Ta’limning interfaol metodlari: metodik qo‘llanma. — Urganch: Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti nashriyot bo‘limi, 2011. — 56 b.
7. **Xo‘jamberdiyeva Sh. K.** Bolalar tarbiyasida badiiy adabiyotning o‘rni // “University 4.0: digital technologies and modern trends in the educational

process": international scientific and scientific-technical conference. — Toshkent, 18 March 2023. — P. 262–265.

INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA TA'LIM SIFATINI DIAGNOSTIKA QILISH

Yunusova Xusnora Shuxrat qizi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim muhitida ta'lim sifatini baholash va diagnostika qilish masalalari tahlil qilinadi. Ta'lim sifatini aniqlashda pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'rni ochib beriladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim sifati diagnostikasining asosiy mezonlari, indikatorlari hamda samarali baholash usullari yoritiladi. Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar ta'lim jarayonini monitoring qilishning dolzarb jihatlari ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, ta'lim sifati, diagnostika, monitoring, baholash mezonlari, individual yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы оценки и диагностики качества образования в инклюзивной образовательной среде. Раскрывается роль педагогических, психологических и социальных факторов в определении качества образования. Выделяются основные критерии, показатели и эффективные методы оценки для диагностики качества образования в инклюзивной образовательной среде. Также указываются современные аспекты мониторинга образовательного процесса учащихся с особыми образовательными потребностями.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, качество образования, диагностика, мониторинг, критерии оценки, индивидуальный подход.*

Abstract. *This article analyzes the issues of assessing and diagnosing the quality of education in an inclusive educational environment. The role of pedagogical, psychological and social factors in determining the quality of education is revealed. The main criteria, indicators and effective assessment methods for diagnosing the quality of education in an inclusive educational environment are highlighted. Also, the current aspects of monitoring the educational process of students with special educational needs are indicated.*

Keywords: *inclusive education, quality of education, diagnostics, monitoring, evaluation criteria, individual approach.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilarga, jumladan, jismoniy, aqliy yoki psixologik rivojlanishida cheklovlari bo‘lgan bolalarga teng ta’lim olish imkoniyatini yaratishni nazarda tutadi. Bunday sharoitda ta’lim sifatini ta’minlash va uni aniq diagnostika qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim sifati diagnostikasi – bu ta’lim jarayonining holati, natijalari va samaradorligini aniqlashga qaratilgan tizimli faoliyat bo‘lib, u inklyuziv muhitda yanada murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi.

Ta’lim sifatini diagnostika qilish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida markaziy o‘rin egallagan. Xususan, **ta’lim sifati** tushunchasi va uni baholash mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogika nazariyasi va amaliyotining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Rus olimi **V.P.Bespalko** ta’lim sifatini o‘quvchilarning belgilangan ta’lim maqsadlariga erishish darajasi bilan izohlaydi. Uning fikricha, ta’lim sifatini diagnostika qilish faqat yakuniy natijalarni emas, balki o‘quv jarayonining bosqichma-bosqich samaradorligini aniqlashga qaratilishi lozim. Bespalko ta’lim jarayonida **diagnostik yondashuv**ni qo‘llash orqali o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish mumkinligini ta’kidlaydi.

I.Ya.Lerner va **M.N.Skatkin** ta’lim sifatini baholashda bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bir qatorda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati, ijodiy faolligi va shaxsiy rivojlanishini muhim ko‘rsatkich sifatida e’tirof etadi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, diagnostika jarayoni kompleks xarakterga ega bo‘lib, faqat test natijalari bilan cheklanmasligi zarur.

Inklyuziv ta’lim muhitida ta’lim sifatini diagnostika qilish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda **L.S.Vygotskiy**ning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Vygotskiy ta’lim sifatini baholashda o‘quvchining hozirgi rivojlanish darajasi bilan bir qatorda, uning potensial imkoniyatlarini ham inobatga olish zarurligini asoslab beradi. Bu yondashuv inklyuziv ta’lim sharoitida ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Amerikalik olim **B.Bloom** tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya ta’lim sifatini diagnostika qilishda keng qo‘llaniladi. Bloom ta’lim natijalarini kognitiv, affektiv va psixomotor sohalar bo‘yicha baholashni taklif etib, ta’lim sifati faqat bilim darajasi bilan emas, balki munosabat va amaliy faoliyat orqali ham aniqlanishini ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda **Ainscow, Booth** va **Dyson**lar ta’lim sifatini diagnostika qilishni inklyuzivlik darajasi, ta’lim muhitining moslashuvchanligi va barcha o‘quvchilarning ishtirokini ta’minlash bilan bog‘laydi. Ularning fikricha, sifat diagnostikasi ta’lim tizimida tenglik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

O‘zbekistonlik olimlardan **R.H.Jo‘rayev, Sh.E.Qodirova** va **N.M.Muslimov**lar ta’lim sifatini boshqarish va monitoring qilish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarida diagnostikaning uzluksizligi va tizimliligi muhim ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning ishlarida ta’lim sifatini diagnostika qilish pedagogik monitoring, ichki va tashqi baholash mexanizmlari orqali amalga oshirilishi asoslab berilgan.

Inklyuziv ta’lim muhiti quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish;
- ta’lim jarayonining moslashuvchanligi;

- pedagog, psixolog, defektolog va ota-onalar hamkorligi;
- ijtimoiy moslashuv va tolerantlik muhitining shakllanishi.

Mazkur omillar ta’lim sifatini baholashda an’anaviy yondashuvlardan tashqari, kompleks diagnostika usullarini qo‘llashni talab etadi.

Inklyuziv ta’lim muhitida ta’lim sifatini diagnostika qilish quyidagi asosiy mezonlar asosida amalga oshiriladi:

1. **Akademik rivojlanish darajasi** – o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish holati.
2. **Ijtimoiy moslashuv** – o‘quvchining jamoaga moslashuvi, muloqot ko‘nikmalari.
3. **Psixologik holat** – o‘quvchining o‘ziga ishonchi, motivatsiyasi va emotsional barqarorligi.
4. **Individual rivojlanish dinamikasi** – o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlariga nisbatan erishilgan yutuqlar.

Mazkur mezonlar asosida sifat diagnostikasi monitoring, kuzatish, testlar, suhbat va portfoliolar orqali amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta’limda ta’lim sifatini baholashda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- individual ta’lim dasturlarini tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- psixologik diagnostika metodikalari;
- ota-onalar va mutaxassislar bilan suhbat;
- formatif va summativ baholash.

Bu usullar o‘quvchining rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlarni aniqlash va ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’lim muhitida ta’lim sifatini diagnostika qilish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Diagnostika jarayoni faqatgina bilim darajasini baholash bilan cheklanmay, balki o‘quvchining shaxsiy rivoji, ijtimoiy moslashuvi va psixologik holatini ham qamrab olishi lozim. Shu orqali inklyuziv ta’limning samaradorligi oshadi va har bir o‘quvchi uchun teng imkoniyatlar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Bespalko V. P.** Pedagogika i didaktika. — M., 1989.
2. **Lerner I. Ya.** Didakticheskiye osnovy metodov obucheniya. — M., 1981.
3. **Skatkin M. N.** Problemy sovremennoy didaktiki. — M., 1984.
4. **Lev Vygotsky** Myshleniye i rech. — M., 1999.
5. **Benjamin Bloom** Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. — New York, 1956.
6. **Mel Ainscow**, **Tony Booth** Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. — Bristol, 2011.
7. **Alan Dyson** Inclusive Education: Theory and Practice. — London, 2001.
8. **Jo‘rayev R. H.** Ta’lim sifati va uni boshqarish masalalari. — Toshkent, 2015.
9. **Qodirova Sh. E.** Inklyuziv ta’lim nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent, 2018.
10. **Muslimov N. M.** Pedagogik monitoring va ta’lim sifati. — Toshkent, 2017.
11. **UNESCO** Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. — Paris, 2005.
12. **OECD** Education at a Glance: Educational Indicators. — Paris, 2020.

INKLYUZIV TA’LIM: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Yunusova Xusnora Shuxrat qizi

Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim tushunchasi, uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni hamda ilm-fan taraqqiyoti sharoitida rivojlanish yo‘llari yoritib berilgan. Inklyuziv ta’limni joriy etishda innovatsion pedagogik*

texnologiyalar, raqamli vositalar, individual yondashuv va ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish istiqbollari va mavjud muammolar ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, innovatsiya, maxsus ehtiyojli bolalar, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, ta’lim sifati.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается концепция инклюзивного образования, его роль в современной системе образования и пути его развития в контексте развития науки. Анализируется важность инновационных педагогических технологий, цифровых инструментов, индивидуального подхода и социального сотрудничества в реализации инклюзивного образования. Также научно и теоретически обосновываются перспективы развития инклюзивного образования в Узбекистане и существующие проблемы.*

Ключевые слова*: инклюзивное образование, инновации, дети с особыми потребностями, педагогические технологии, цифровое образование, качество образования.*

Abstract. *This article discusses the concept of inclusive education, its role in the modern education system and the ways of its development in the context of the development of science. The importance of innovative pedagogical technologies, digital tools, an individual approach and social cooperation in the implementation of inclusive education is analyzed. Also, the prospects for the development of inclusive education in Uzbekistan and existing problems are scientifically and theoretically substantiated.*

Keywords: *inclusive education, innovation, children with special needs, pedagogical technologies, digital education, quality of education.*

Bugungi globallashuv va ilm-fan taraqqiyoti sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - har bir shaxsning ta’lim olish huquqini

ta’minlashdir. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi ko‘plab olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan turlicha talqin qilingan bo‘lib, ularning barchasida ta’limda tenglik va imkoniyatlar birligi asosiy g‘oya sifatida ilgari suriladi. Jumladan, UNESCO mutaxassislari inklyuziv ta’limni "barcha o‘quvchilarning, jumladan, maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning umumiy ta’lim tizimida sifatli bilim olish jarayoniga to‘liq jalb etilishi" sifatida ta’riflaydi.

Mashhur olim M.Ainscowning fikricha, inklyuziv ta’lim — bu ta’lim tizimining barcha o‘quvchilarning xilma-xilligini qabul qilishi va ularga moslashuvi bo‘lib, u alohida bolani tizimga moslashtirish emas, balki tizimni bolaning ehtiyojlariga moslashni nazarda tutadi.

T.Booth esa inklyuziv ta’limni ta’limdagi to‘siqlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, inklyuziya nafaqat jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar, balki ijtimoiy, madaniy yoki til jihatidan muammolarga duch kelgan barcha o‘quvchilarni qamrab oladi.

Rossiyalik olima N.M.Nazarovaning ta’rifiga ko‘ra, inklyuziv ta’lim — bu maxsus ehtiyojli bolalarning umumiy ta’lim muassasalarida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosida ta’lim-tarbiya olishini ta’minlovchi murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir.

O‘zbekistonlik pedagog-olim M.Karimova inklyuziv ta’limni "jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga xizmat qiluvchi, barcha bolalarning salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’lim modeli" sifatida baholaydi.

Inklyuziv ta’lim - bu jismoniy, ruhiy yoki intellektual rivojlanishida cheklovlari bo‘lgan bolalarning sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olishlarini ta’minlovchi ta’lim tizimidir.

Ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Innovatsion g‘oyalar asosida ishlab chiqilgan pedagogik yondashuvlar, raqamli platformalar va moslashtirilgan o‘quv dasturlari inklyuziv muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta’limning asosiy mohiyati - ta’limda tenglik va adolat tamoyillariga asoslanib, barcha bolalar uchun bir xil imkoniyatlarni yaratishdir. Ushbu ta’lim turi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- Tenglik va diskriminatsiyasizlik - har bir bola ta’lim olish huquqiga ega;
- Individual yondashuv - o‘quvchilarning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olish;
- Moslashuvchan o‘quv muhit - ta’lim jarayonini bolaga moslashtirish;
- Hamkorlik - pedagoglar, ota-onalar va mutaxassislar o‘rtasidagi uzviy aloqalar.

Mazkur tamoyillar ilmiy asoslangan bo‘lib, ularni amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ilm-fan taraqqiyoti inklyuziv ta’limda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish imkonini bermoqda. Jumladan:

Raqamli texnologiyalar

Interaktiv doskalar, maxsus mobil ilovalar, onlayn platformalar va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini yengillashtiradi.

Differensial va individual ta’lim

Har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim rejasini ishlab chiqish inklyuziv ta’limning muhim innovatsion jihatlaridan biridir.

Multidisiplinar yondashuv

Pedagog, psixolog, defektolog va logopedlarning hamkorlikdagi faoliyati ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv guruhlar tashkil etilmoqda. Biroq quyidagi muammolar ham mavjud:

- malakali mutaxassislar yetishmasligi;
- moddiy-texnik bazaning to‘liq shakllanmaganligi;
- jamiyatda inklyuziv madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish ilmiy tadqiqotlar, innovatsion loyihalar va xalqaro tajribani joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim ilm-fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, innovatsion g‘oyalar asosida rivojlanmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali barcha bolalar uchun sifatli ta’lim muhitini yaratish mumkin. Inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim tizimini, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini ham ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **UNESCO.** Inclusive Education: From Policy to Practice. – Paris, 2020.
2. **Ainscow M., Booth T.** Index for Inclusion. – Bristol: CSIE, 2019.
3. **Karimova M.** Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. **Xudoyberdiyev S.** Maxsus pedagogika va inklyuziya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.

OLIY TA’LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

Yusupova Ilmira R.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim sohasini rivojlantirishning xorij tajribasi va ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, oliy ta’lim sohasini rivojlantirishning xorij tajribasini tadqiq qilish yuzasidan xulosalar va muallif fikrlari bayon etilgan,*

Kalit so‘zlar. *Ta’lim, oliy ta’lim, ta’lim xizmatlari, xorij, universitet.*

Аннотация. *В данной статье освещается зарубежный опыт и важность развития сектора высшего образования. Также представлены выводы и мнение автора об изучении зарубежного опыта в развитии сектора высшего образования.*

Ключевые слова. *Образование, высшее образование, образовательные услуги, за рубежом, университет.*

Abstract. *This article highlights the foreign experience and importance of developing the higher education sector. It also presents conclusions and the author's opinions on the study of foreign experience in developing the higher education sector.*

Key words. *Education, higher education, educational services, abroad, university.*

Oliy ta’lim sohasini rivojlantirishda xorij mamlakatlarida xorij tajribasi to‘plangan. Bunday sharoitda iqtisodiy diagnostika mexanizmi oliy ta’lim muassasalarini yangi bozor sharoitlariga moslashtirish muammolarini hal qiladi. Chunki, iqtisodiy diagnostika tamoyillariga asoslangan boshqaruv noto‘g‘ri qarorlarning oldini olish rejimida ishlaydi. Iqtisodiy diagnostika turli darajadagi muammolarni aniqlaydi, kompleks tahlil qiladi va oqilona qaror qabul qiladi. U imkoniyatlari va istiqbollari kengligi bilan ajralib turadi. Bu borada oliy ta’lim muassasasini boshqarish jarayoni samaradorligini har tomonlama baholash bozor subyektlariga qiziqish uyg‘otadi va dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

Shulardan kelib chiqib, oliy ta’lim sohasida quyidagi mamlakatlarda ilg‘or xorijiy tajribalari to‘plangan.

- AQSh tajribasi. AQSh ko‘pgina oliy ta’lim imkoniyatlari bilan tanilgan hamda ko‘plab universitetlar bakalavriat va magistr darajalarini taklif qiladilar [2]. Mamlakatdagi universitetlar o‘sishi nisbatan yaqinda bo‘lib, oliy ta’limning dastlabki tarixida ko‘pincha o‘z takliflari bilan turli universitetlar ustunlik qiladi. Bu sanoat inqilobi va ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda o‘zgardi. Oliy ta’limning

mamlakatda tutgan kengroq e’tiqodlarini aks ettirdi. Dastlab, oliy ma’lumot ruhoniylarning shaxsiy hayoti sifatida qaraldi. Keyinchalik kollejlar elita manfaatlariga xizmat qiladigan yoki kollejlar ta’limga muhtoj deb bilgan jamiyat qatlamlariga e’tibor qaratildi. Yevropa va boshqa mamlakatlarda sanoatlashtirishning kuchayishi mamlakatda liberal san’at va ta’limdan tashqaridagi sohalarni qamrab oladigan ko‘proq darajalar zarur degan fikrni ilgari suradilar.

Fikrimizcha, AQShda hozirgi oliy ta’lim manzarasi orasida bir nechta muammolar ko‘proq quyidagi e’tibor va strategik yechimlarni talab qiladi [3]:

- ro‘yxatdan o‘tish dinamikasi. Pandemiya ro‘yxatga olish soniga ta’sir ko‘rsatdi hamda jamoat kollejlari ro‘yxatga olish barqarorligi bilan kurash olib bordi va kichik muassasalar yopilishiga duch keldi. 2023-yilning kuzida kollejga umumiy qabul 4 foizga qisqartirildi. Bakalavriat esa 5,6 % ga kamaydi va jamoat kollejlariga qabul qilish 12 % ga kamaydi. Ammo, mamlakatda bitiruvchilarni qabul qilish 4,8 % ga oshdi.

- budjet cheklovlari. Hukumat tomonidan moliyalashtirishning pasayishi bilan muassasalar o‘zgaruvchan landshaftga moslashish uchun moliyaviy modellardan foydalanadi. Davlat muassasalari va jamoat kollejlarini davlat tomonidan moliyalashtirishning ko‘p yillik pasayishi ushbu muassasalarga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

- arzonligi. Ta’lim narxining ko‘tarilishi talabalar uchun kollej ta’limining qiymatini ko‘rishni murakkablashtirdi. Ayniqsa, davlat hukumat 2023-yilda kam daromadli talabalar uchun Pell grantlariga 30 milliard dollar sarfladi. Vaqt o‘tishi bilan davlatda to‘rt yillik kollejlari va universitetlarining arzonligi pasaydi.

- turli xillik va inklyuziya. Oliy o‘quv yurtlarida teng imkoniyatlar va vakillikni ta’minlash yanada inklyuziv va adolatli kelajak uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, AQSh oliy ta’limining hozirgi manzarasi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli transformatsiyani qabul qilish, ko‘nikmalarga asoslangan ta’limga e’tibor qaratish va inklyuzivlik va vakillikni targ‘ib qilish orqali muassasalar ushbu o‘zgaruvchan yerni boshqarishi va talabalarni kelajakka yaxshiroq tayyorlashi mumkin. Ushbu yangi haqiqatga moslashishda davom etar

ekanmiz, barcha uchun yanada adolatli va qulay ta’lim tizimini ta’minlash uchun shaffof, faol va moslashuvchan bo‘lib qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasalariga hozirgi oliy ta’lim landshafti muammolari va imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradigan bir qator yechimlarni taklif etadi. Raqamli transformatsiya strategiyasidan ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlarga qadar institutlarni mukammallik va inklyuzivlikni izlashda qo‘llab-quvvatlashga asoslanadi.

- Yaponiya tajribasi. Yaponiya Osiyodagi eng yirik oliy ta’lim tizimlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Yaponiyada oliy ta’lim sohasi Osiyo va Yevropa mamlakatlaridan (Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiyadan) ancha oldinroq tashkil etgan bo‘lsa-da, mamlakatda bu bo‘yicha turli yapon kitoblari va tadqiqotlar olib borilgan [4]. Yaponiyaning oliy ma’lumoti massivlashdan keyingi massivlash va universal kirishga asoslanadi. Miqdoriy tahlil asosida Yaponiya oliy ta’limiga qabul qilingan o‘zgarishlar o‘rganib chiqiladi. Bu orqali Osiyo mamlakati oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishning turli bosqichlari tadqiq qilinadi.

Globallashuv tabiati mamlakatdagi ko‘pgina tashkil etilgan institutlarni o‘zgartirdi. Butun dunyoda oliy ta’lim zamonaviy globallashuv natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarga moslashish masalasiga duch keladi. Globallashuv bilan bog‘liq raqobat universitetlarni bilimga asoslangan jamiyatning yuksalishi bilan kurashish uchun o‘zlarini o‘zgartirishga undadi [5]. Bilimga asoslangan jamiyatda bilim va inson kadrlarini uzatish xalqarolashtirish sifatida qaraladi. Mamlakatlar global iqtisodiyotda raqobatlasha olish qobiliyati va global bilimga asoslangan jamiyat yoki texnologiyaga asoslangan jamiyat sari harakat qilishlari haqida tashvishlanadilar.

Mamlakatda universitetlarni raqamlashtirish pandemiyaga favqulodda javob bo‘ldi. Bu esa universitetlarda ta’limga yondashuv me’yorini buzdi [6]. Shunga qaramay, bir qancha qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda. Bu borada universitet madaniyatini baholamasdan turib, universitetlarning ta’lim sifatini oshirish qiyinligi bilan ajralib turadi.

Hindiston tajribasi. Hindistonning oliy ta’lim tizimi eng yirik global omil sifatida misli ko‘rilmagan o‘zgartirish bosqichiga asoslanadi. Mamlakat 2025-yil uchun o‘z qarashlariga intilayotganda landshaft rivojlanayotgan texnologiyalar, innovatsion siyosat va rivojlanayotgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan o‘zgartiriladi [7]. Milliy ta’lim siyosati 2020-yilda an’anaviy ta’lim doirasi va Hindistonni global ta’lim markazi sifatida joylashtirishni maqsad qilib, o‘yinni o‘zgartiruvchi sifatida paydo bo‘ldi.

Mamlakatda oliy ta’limning kengayishi va ommaviylashishi ushbu sohani boshqarish uchun professional tajriba va maxsus bilimlarni talab qiladigan yirik va murakkab tashkilotga aylandi. Bu esa oliy ta’lim yangi bilimlarni ishlab chiqaradigan va ilmiy ta’lim dasturlarini ishlab chiqadigan alohida ta’lim sohasi sifatida ilmiy darajalarga e’tibor qaratildi. Hindiston dunyodagi ikkinchi yirik oliy ta’lim tizimiga ega bo‘lsa-da, oliy ta’lim bo‘yicha tadqiqot va o‘quv dasturlari keng tarqalmagan. Hindistondagi universitetlarning ta’lim bo‘limlari talabalarni boshlang‘ich ta’lim darajalarida o‘qitishga tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim sohasida ko‘pgina o‘quv dasturlarini taklif etadi. Universitet kafedralari o‘quv va tadqiqot dasturlarida oliy ma’lumot bilan bog‘liq masalalarni kamdan-kam hal qiladilar.

Fikrimizcha, Hindiston oliy ta’lim ekotizimini takomillashtirish yo‘nalishlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- sifatli ta’lim: Hindistondagi barcha darajadagi muassasalar, jumladan yuqori darajadagi davlat va xususiy muassasalar hamda oliy ta’lim qiymat zanjiri bo‘ylab turli muammolarga duch keladilar.

- ishga olish va rivojlantirish: fakultet taqchilligi Hindistondagi barcha toifadagi muassasalarda keng tarqalgan hamda fakultet vakansiyalari ham mavjud.

- ta’limni raqamlashtirish: oliy ta’limda texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha hukumatning maxsus siyosati mavjud emas. Shuningdek, past sifatli muassasalarda raqamli ta’limning cheklangan integratsiyasi mavjud bo‘ladi.

- ta’limni xalqarolashtirish: Hindiston universitetlari orasida chet elda xalqaro filial kampuslarini tashkil etish tendentsiyasi o‘sib boradi. Ammo, haqiqiy tashkil etish muddatlari sekin sur’atlar bilan o‘tdi.

- akademik moslashuvchanlik: Hindiston kollejlarining 1 % dan kamrog‘i hukumatning akademik kreditlar banki tizimida ro‘yxatdan o‘tgan, cheklangan miqdordagi muassasalar ko‘p martalik chiqish imkoniyatlari va o‘quv dasturlarining moslashuvchanligini taklif qiladi.

Darhaqiqat, Hindistonning ustuvor yo‘nalishlari sanoat bilan hamkorlikda doktorlik dasturlarini amalga oshirishni ko‘paytirish, oliy ta’limda texnologiya bo‘yicha maxsus hukumat siyosatini ishlab chiqish va onlayn kurs takliflarini oliy ta’lim malaka doirasiga moslashtirishga qaratiladi.

Angliya tajribasi. Ushbu mintaqaviy o‘sish Yevropa, Osiyo va Yaqin sharqdagi ingliz tilida bo‘lmagan mamlakatlar uchun oson hujjatlashtirilgan. Masalan, Yevropada 2000-yillar boshidan boshlab ingliz tilida o‘qitiladigan dasturlar sonining o‘sishi kuzatildi. Oliy ta’limda ingliz tilining global ustunligi mavjud emas. Ishga qabul qilish (xodimlar va talabalar), o‘qitish usullari va jahon bo‘ylab akademik yozish va nashr etishga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan [8]. Shularga asoslanib, Angliyada oliy ta’limni rivojlantirish oliy ta’limning ikki va undan keyin uch siklli tuzilishini joriy etish kabi harakatlarga asoslanadi.

Xulosa shuki, oliy ta’lim sohasini rivojlantirish yuzasidag turli ilg‘or xorij tajribalar to‘plangan. Bu esa iqtisodiy diagnostika mexanizmini amalga oshirishga asoslanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribalarida ham oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. AQSh tajribasiga asosan, Yevropa va boshqa mamlakatlarda sanoatlashtirish amalga oshirila boshlandi. Ushbu mamlakatda oliy ta’lim sohasini qo‘llab-quvvatlash strategiyasini ishlab chiqish eng ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qaraladi. Yaponiya tajribasiga asosan, oliy ma’lumoti massivlash jarayoni universal kirishga asoslanadi. Hindiston tajribasiga asosan, landshaft rivojlanayotgan texnologiyalar va innovatsion siyosatni amalga oshirish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qaraladi. Angliya tajribasiga asosan, turli dasturlar sonining o‘sishi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Kholmurodov M., Mamasodikova S.** Ways of using foreign experiences in improving the quality of education // *Modern Science and Research*. — 2024. — Vol. 3, No. 1. — P. 1–4.
2. **Huang F.** Higher education development in Japan // *Knowledge Studies in Higher Education*. — 2015. — Vol. 2. — P. 27–42.
3. **Yamada A.** Japanese higher education reform trends in response to globalization and STEM demand // *Journal of Comparative & International Higher Education*. — 2017. — Vol. 9. — P. 14.
